O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Abdullayeva B.S., Umarov A.Yu., Saidova B.N.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

(Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun)

“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021

KBK: 74.00
A 15
UO‘K: 37.013(075)

ISBN 978-9943-7315-5-4

Abdullayeva B.S., Umarov A.Yu., Saidova B.N.
Pedagogika nazariyasi va tarixi. [Matn] : darslik / B.S. Abdullayeva, A.Yu. Umarov, B.N.Saidova. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 492 b.

Ushbu darslik pedagogika oliy ta’lim muassasalarida “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o‘qitishda eng muhim manba hisoblanib, unda pedagogika nazariyasi hamda pedagogika tarixi modullari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Pedagogika nazariyasi modulida pedagogika fanining konseptual asoslari, pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari, asosiy kategoriyalari, ta’lim nazariyasi, ta’limning metod, prinsip va qonuniyatlari, tarbiyaning metod va vositalari, tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati yoritilgan bo‘lsa, pedagogika tarixi modulida eng qadimgi davrlardan bugungi kunga qadar ta’lim-tarbiyaning rivojlanish bosqichlari davrlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi tahlil etilgan hamda qadimgi davrdagi ta’lim-tarbiyaning dastlabki shakllari, Avesto manbalari, zardushtiylik va islom dinining ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri, sharq uyg‘onish davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti, ma’rifatparvar va jadidshilik harakati nomoyondalari haqidagi ma’lumotlar ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, gender tenglik va uning tarixiy ildizlari, qadimgi davrlardan O‘rta Osiyo ayollarining ta’lim-tarbiyani tashkil etishdagi o‘rni va mavqeyi, dunyoviy ta’limni qo‘llab-quvvatlashda ma’rifatparvar ayollarning o‘rni tarixiy manbalar tahlili asosida yoritilgan.

Mazkur darslik pedagogika oliy ta’lim muassasalarining (bilim sohasi – 100000 – gumanitar, ta’lim sohasi – 110000 pedagogika) barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun pedagogika nazariyasi va tarixi fanidan darslik sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

© B.S. Abdullayeva, A.Yu. Umarov, B.N.Saidova.
© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.

SO‘Z BOSHI

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad – har bir yoshni mustaqil fikrlaydigan, jamiyatda faollik ko‘rsatadigan, qiyinchiliklarni qo‘rqmasdan yengib o‘ta oladigan shaxs sifatida kamolga yetkazish hamda, ularni yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash hisoblanadi. Xususan, 2020-yil 30-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga navbatdagi murojaatnomasida ta’lim sohasini yanada isloh qilish bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ular ko‘lami va mazmun-mohiyati jihatidan O‘zbekiston uchun strategik va konseptual ahamiyatga ega hamda mamlakatimiz ta’lim taraqqiyotida tub burilish yasash uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishga qaratilgan. ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi.

2019-yil 24-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida yosh avlodlar tarbiyasi masalalariga alohida to‘xtalib, **“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi”,** – deya ta’kidladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “**Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”** – deya ta’kidladilar. Shuningdek, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o‘quv dasturlari, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ilg‘or xalqaro mezonlarga moslashtirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo`lib, ular pedagogika sohasidagi o`zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog`liq holda o`rganishni talab etadi. Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo`lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o`rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog`liqlir. Binobarin, mustiqillik tufayli ko`hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.

O`z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o`tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g`oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug` ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o`zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Yosh avlodni tarbiyalash va o`qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy etib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo`lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy-nazariy, falsafiy-tarbiyaviy haqiqatdir.

Bugungi zamon rivojlanishiga nazar tashlansa, unda albatta o‘tmish tajribasi, ajdodlarimiz qoldirilgan boy ma’naviy meros saboqlari, albatta, o‘zining o‘rniga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shu ma’noda, bugungi ta’limning o‘tmishdagi mazmun-mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni va eng muhimi qadim zamonlarda ta’limga bo‘lgan e’tibor, ehtiyoj qanday ekanligi, ilm doirasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Sharq va G‘arb mutafakkirlarining pedagogik qarashlari O‘zbekistonda jamiyat qurilishi jarayonlari, strategik maqsad – fuqarolik jamiyatini barpo etishda ma’naviy qadriyatlarimizni rivojlantirish ahamiyatga ega. Erkin shaxs ma’naviyati, zamonaviy demokratik g‘oyalar va milliy-ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligiga erishish fozil jamiyat haqidagi Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy adabiy-ilmiy merosidan ham quvvat oladi. Shunday ekan, O‘zbekistonning barkamol avlodiga yanada mukammalashtirilgan ta’lim berish va ularga buyuk mutafakkir-olimlarimiz ijod yo‘llarini tanishtirib, yoshlarni yanada mustaqil O‘zbekistonimizga vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng asosiy vazifalardan biridir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mualliflar tomonidan o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish maqsadida pedagogika oliy ta’lim muassasalarining barcha yo‘nalishlari uchun “Pedagogika nazariyasi va tarixi” darsligi tayyorlandi. Mazkur darslik mualliflari M.E.Ahmedova., Z.T.Soliyevalar O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta'lim vazirligi 2020-yil “14-avgustdagi 48-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Darslik pedagogika oliy ta’lim muassasalarining barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun tayyorlangan bo‘lib, darslikdan pedagog, magistr va talabalar hamda ilmiy izlanuvchilar foydalanishi mumkin.

I BOB. PEDAGOGIKA NAZARIYASI FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA PREDMETI

1.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari

Pedagogika – (yunoncha paidagogike bo‘lib, paidagogos «bola» va «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o‘qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o‘rgatuvchi», didasko «o‘rganuvchi») ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o‘qituvchi va o‘qituvchi faoliyatlari, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga alohida hissa qo‘shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o‘rin tutuvchi g‘oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar hamda huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g‘oyasi asosida ta’lim va tarbiya nazariyasini ijodiy rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e’tibor qaratiladi:

- ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o‘rganish;
- shaxsni har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash;
- ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribasini o‘rganish asosida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish;
- ta’lim muassasalari hamda, ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglar faoliyati mazmunini asoslash;

- ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish;
- pedagoglarni pedagogika nazariyasiga oid bilimlar hamda ta’lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish;
- ta’lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganish;
- o‘qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish;
- oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holatб uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta’minlash, ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta’lim (o‘qitish, o‘qish), bilim, ko‘nikma, malaka, ma’lumot, rivojlanish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta’lim – o‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ma’lumot – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

1.2. Pedagogik fanlar tizimi

Shaxs kamolotini ta’minlash, uning intellektual, ma’naviy-axloqiy hamda jismoniy jihatdan rivojlanishiga erishishda turli yosh davrlari, har bir davrning o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, bolaning fiziologik, psixologik holatini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Shu bois yaxlit pedagogik jarayon muayyan turkumni tashkil etuvchi pedagogik fanlar tomonidan o‘rganiladi. Ular quyidagilardir:

Umumiy pedagogika – maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish..

Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o‘rganadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi.

O‘z navbatida, korreksion pedagogika tarkibiga maxsus pedagogika va psixologiyaning turli sohalari kiradi. Ular quyidagilar:

Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash.

Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash.

Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash .

Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, shuningdek, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar)ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash.

Metodika – xususiy fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogika tarixi – ta’lim va tarbiyaning yuzaga kelishi, taraqqiy etishi, muayyan tarixiy davrlarda yetakchi o‘rin egallagan pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalalarini o‘rganadi.

Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Ta’limni boshqarish – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash masalalarini o‘rganadi.

Ijtimoiy pedagogika – ijtimoiy munosabatlar jarayonida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni kasbiy va ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

1.3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai-nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

Iqtisod – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

Etika – shaxs ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Fiziologiya – o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

Gigiena – o‘quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to‘g‘ri shakllantirishda nazariy va amaliy g‘oyalari bilan yordam beradi.

Psixologiya – shaxsda ma’naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

Madaniyatshunoslik – o‘quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

1.4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g‘oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta’minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma’naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o‘rganish, mavjud ko‘rsatkichlar vositasida ularning sodir bo‘lish sabablarini o‘rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob’yektiv va sub’yektiv omillarga bog‘liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo‘lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo‘nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob’yekti va sub’yektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Respublikasida pedagogik yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarini aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta’minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni va roli, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e’tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, uning samarali bo‘lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ilmiy farazlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi;
- vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to‘g‘ri belgilanganligi;
- tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob’ektiv yondashuv;
- tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to‘g‘ri hisobga olinganligi;
- tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini aytib o‘tish;
- tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo‘nalishda, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

- pedagogik kuzatish metodi;
- suhbat metodi;
- anketa metodi;
- intervyu metodi;
- ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- test metodi;
- pedagogik tahlil metodi;
- bolalar ijodini o‘rganish metodi;
- pedagogik tajriba metodi;
- matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo‘llash jarayonida, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo – holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo‘l qo‘ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga ega bo‘lish;
- kuzatishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o‘rganish;
- xulosa chisharishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo‘lingan ma’lumotlarni boyitish, mavjud holatga to‘g‘ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub’yektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o‘tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to‘la-to‘kis namoyon bo‘lishiga erishish muhimdir. Uning samarali bo‘lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilangan savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o‘rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta’minlash;
- suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to‘xtamga kelish;
- suhbatdosh to‘g‘risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo‘lish;
- suhbatdoshning o‘z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
- savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- olingan ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (fransuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko‘p hollarda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi:

- ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
- yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).
- Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator Shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar:
- anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
- anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo‘lmasligi kerak;
- anketa savollari o‘quvchilarning dunyoqarashi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
- anketa savollari respondentlar tomonidan to‘la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
- anketa o‘quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;

- anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o‘rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o‘quv mashg‘ulotlarining jadvali, o‘quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari daftari, pedagogik kengash qarorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o‘quv partalari, stol, stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo‘nalishlarda o‘quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi, ilg‘or pedagogik tajribalar mazmunini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat:

ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);

yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo‘q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniqarli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o‘z yondashuvlariga ko‘ra to‘g‘ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo‘llashda aniqlanishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo‘yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o‘z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo‘lib,

tadqiqotchi ilgari surayotgan g‘oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma’lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o‘rganishning quyidagi shakllari mavjud:

- fan olimpiadalari;
- turli mavzulardagi tanlovlar;
- maktab ko‘rgazmalari;
- festivallar;
- musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko‘rish», «tajriba qilib ko‘rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishni kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in’ikosiga ega bo‘la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo‘naltirilgan pedagogik tajriba ma’lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlash hamda unga baho bera olishi zarur.

II BOB. PEDAGOGLIK KASBINING JAMIYATDAGI O‘RNI

2.1. O‘qituvchi haqida tushuncha. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri – o‘qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki, o‘qituvchida barcha pedagogik g‘oyalar mujassamlangan bo‘lib, uning faoliyati orqali bu g‘oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O‘qituvchining ko‘p qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa, o‘qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog‘liq: bolalarni o‘qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o‘tkazish, ota-onalar o‘rtasida pedagogik targ‘ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o‘qituvchidan chuqur bilimga ega bo‘lishni, o‘z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Respublikamiz mustaqilligi e’lon qilingan sana — 1991-yil 31-avgust, xalqimiz hayotidagi ulug‘vor voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o‘zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish, targ‘ib qilish, o‘zligini anglash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu voqeadan so‘ng ko‘p sonli o‘qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, Vatan yo‘lida o‘z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko‘ndalang qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoniga binoan quyidagi asosiy masalalarni hal etish belgilangan:

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari:

- mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;
- oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;
- sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash.
- Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:
- oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;
- oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, “1-oktabr o‘qituvchilar va murabbiylar kuni” deb e’lon qilindi. Bu davlatimizda o‘qituvchilarning jamiyatda tutgan o‘rni naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ilg‘or o‘qituvchilarimizga yuksak unvonlar, davlat mukofotlari berilmoqda, ularga mas’ul vazifalar ham yuklatilmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, o‘qituvchilarning jamiyatdagi roli va mas’uliyati ortib bormoqda.

Keyingi yillarda pedagog xodimlarning maishiy sharoitini yaxshilash borasida qator hujjatlar qabul qilindi: imtiyozlar berildi, ularning ish haqi oshirildi, barcha turdagi maktab, hunar-texnika bilim yurtlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari pedagog xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzish tizimiga o‘tildi.

2.2. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablar

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o‘z kasbiga sadoqatliligi, g‘oyaviy e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki, maktabda ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o‘qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Predmet va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o‘quvchilarga yetkaza olishi bolalarning shu predmetga bo‘lgan qiziqishini, o‘qituvchining obro‘yini oshiradi. O‘quvchilar o‘qituvchining bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O‘qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqimizning o‘z tarixi, madaniyati, urf-odatini o‘rganishga, bilishga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o‘qituvchisi va ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ‘ibotchisi ham bo‘lishi kerak.

O‘qituvchi kasbiga xos bo‘lgan muhim talablardan biri — bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o‘qituvchi bo‘la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o‘qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o‘qituvchi bo‘la olmaydi.

“Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi”da boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining qiyofasi quyidagicha ta’riflanadi: “...eng muhimi, bolalarda o‘qish, o‘rganishga chinakam havas, ishtiyoq uyg‘otuvchi, e’tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o‘rin tutadi”.

Bu konsepsiyada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga qo‘yiladigan quyidagi talablar ham keltiriladi:

O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixor tuyg‘usiga ega bo‘lishi;

bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi;

nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini, adabiy til uslub va me’yorini to‘la egallagan bo‘lishi zarur.

O‘qituvchilik kasbiga xos bo‘lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o‘qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o‘qituvchining sabotli bo‘lish, o‘z hissiyotini idora qila olishi, bolalarga pedagogik ta’sir o‘tkazish vosita va me’yorlarini belgilashi va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo‘lgan o‘qituvchigina sinfda mo‘tadil psixologik iqlim o‘rnata oladi, bolalar qalbiga tez yo‘l topa oladi.

Pedagogik taraqqiyotning samarali bo‘lishi o‘qituvchidan quyidagi qobiliyat turlarini talab qilinadi:

- bilish qobiliyati;
- tushuntira olish qobiliyati;
- kuzatuvchanlik qobiliyati;
- nutq qobiliyati;
- tashkilotchilik qobiliyati;
- obro‘ orttira bilish qobiliyati;
- to‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati;
- kelajakni ko‘ra bilish qobiliyati;
- diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

O‘z xizmati xususiyatiga ko‘ra, o‘qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lib, har doim tetik, g‘ayratli, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo‘lmog‘i zarur. Tashabbuskor va g‘ayratli o‘qituvchi bolalarni o‘z orqasidan ergashtira oladi.

O‘qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o‘qituvchining salomatligiga ham ma’lum talablar qo‘yiladi. O‘qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lishi, uzoq vaqt tikka tura olishi, ko‘p yurishi, epchil harakat qila olishi (ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) kerak. Chunki, kichik maktab o‘quvchilari tinib-tinchimaydigan, o‘ta qiziquvchan, serharakat bo‘ladilar. Bu sharoitda o‘qituvchi ham shu xususiyatlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbining o‘ziga xosligi ham ayrim muayyan talablarni keltirib chiqaradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlaridan xabardor bo‘lmog‘i, o‘quvchilar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim (sinflari gigiyenik talabga javob berishi, o‘quvchilar kun tartibi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishini kuzatish va to‘g‘ri yo‘naltirish); o‘qituvchi o‘z nutqini idora qilishi; adabiy nutq me’yorlariga rioya qilishi, ovozining baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha baland ovoz bilan gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo‘yadi); nutqning jonli, ifodali bo‘lishiga e’tibor berishi; bolalarni charchatib qo‘ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o‘zgartira olishi, ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o‘rnata olishi (bu faoliyat turi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xulq-atvorini, mayllarini, jismoniy holatini o‘rganishga yordam beradi) va ularga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishga yordamlashishi kerak. U o‘z ustida tinmay ishlamog‘i lozim. Ayniqsa, qadriyatlarimizni o‘rganishga, o‘zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo‘lmoqda, zero, bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo‘lmaydi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinfdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta’siriga olinmog‘i, milliy qadriyatni bilmog‘i lozim. Bu o‘qituvchidan shu sohada chuqur bilimga ega bo‘lishni talab etadi.

O‘qituvchining shaxsiy ma`naviy-axloqiy sifatlari bilan o‘qituvchining kasbiy-ma`naviy-axloqiy sifatlarini yaqqolroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvallarga e’tibor qaratamiz.

O‘qituvchining shaxsiy ma`naviy-axloqiy sifatlari
Insonparvarlik
Talabchanlik
Ijtimoiy g`oyaviy jihatdan yetuklik
Adolatlilik
Mustaqil fikrga egalik
Xushmuoma lalik
Vazminlik
Kamtarlik
Irodalilik
Sezgirlik
Halollik
Mehribonlik
To‘g`riso‘zlik
Umumiy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish
Uddaburonlik


O‘qituvchining kasbiy- ma`naviy-axloqiy sifatlari
Pedagogik mahoratni muntazam oshirib borish
Kasbiy fiodiylik
Kelajakka bo‘lgan ishonch
Ijodkorlik
Fanning oxirgi yutuqlaridan xabardorlilik
Istiqbolni oldindan ko‘ra bilish
Kasbiy-pedagogik fikrlash
Tashkilotchilik qobiliyati
Nutq texnikasiga egalik
Tartib-intizomlilik
Kommunikativ qobiliyat
O‘quvchi fikrini tinglay olish
O‘z-o‘zini boshqarish
O‘quvchi o‘rniga o‘zini qo‘ya olish
Pedagogik texnikadan unumli va samarali foydalanish

2.3. O‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi kollejda ta’lim olish jarayonidan boshlanadi. Kollejning o‘quv reja va fanlar bo‘yicha dasturlarida bo‘lajak o‘qituvchilarga shu kasbning sir-u asrorlarini o‘rgatish, nazariy bilimlar berish va ko‘nikmalar hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta’lim jarayonida fanlar bo‘yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo‘llashga ham imkon beradi. Bunday mashg‘ulotlar tanlangan kasb to‘g‘ri ekaniga ishonch hissini uyg‘otadi.

Ko‘pgina talabalar I-kursdan boshlab pedagogika va psixologiya fani bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etiladi. Ilmiy jamiyat a’zolari bo‘lishadi, shu jamiyat orqali seminar va konferensiyalarda ma’ruzalar bilan qatnashadilar, shuningdek, kasbiy yo‘nalishga ega bo‘lgan jamoa ishlarida ishtirok etadilar. Talabalar bilan olib boriladigan bunday tadbirlarning muhim ahamiyati shundan iboratki, bu tadbirlar topshirilgan ishga jiddiy yondashish hissini tarbiyalaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanib borishida I-kursdan boshlab o‘tkaziladigan uzluksiz pedagogik amaliyot alohida ahamiyatga ega. Bu amalyot 1, 2- kurslarda amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi o‘qishning birinchi yilidan boshlaboq, talabalarni maktabga o‘rgatish, o‘qituvchilik kasbidan xabardor qilib borishdir, qolaversa, uzluksiz amaliyot kasb tanlashga yo‘llash vazifasini ham o‘taydi. Bunday amaliyotlar birinchi kursning o‘zidayoq: tanlagan kasbim to‘g‘rimi?, shu kasbni egallashga menda imkoniyat va xohish bor edimi?, degan savollarga javob qaytarish imkoniyatini beradi. Bunday amaliyot davomida talabalar maktab va sinf jihozi, sinf o‘qituvchisining ish tartibi, plan-konspekti, o‘quvchilar tarkibi, ularning uy-sharoitlari, darslik va o‘quv qurollari bilan ta’minlanganligi kabilar bilan tanishadilar. O‘qituvchining darslarini kuzatadilar, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda o‘qituvchiga yordam beradilar, maktabda kuni uzaytirilgan guruhlari bo‘lsa, shu guruh tarbiyachilari ishi bilan tanishib boradilar. Ota-onalar majlislarini tayyorlashda va o‘tkazishda o‘qituvchiga yordam berishadi. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz pedagogik amaliyot talabalarni o‘quv-pedagogik amaliyotga tayyorlab boradi.

O‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati va jamoatchiligi katta rol o‘ynaydi. Yosh o‘qituvchilarga tajribali o‘qituvchilarni biriktirib qo‘yish, ularning darslarini kuzatish, metod birlashma ishlariga jalb etish maktab rahbariyatining vazifasidir. Maktabda o‘qituvchining o‘z ustida ishlashiga, ilmiy-nazariy va metodik bilimlarini tinmay oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi. O‘qituvchi asta-sekin o‘z kasbini o‘zlashtirib borish bilan birga, ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib etadi.

O‘qituvchilik kasbiga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni uni maktab o‘qituvchilari jamoasiga kiritib, unda o‘z o‘rnini topib keta olishiga bog‘liq. Jamoaning yordamidan yuz o‘girmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o‘z xatolarini ko‘ra bilish va o‘z ustida ishlash uning o‘qituvchi bo‘lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishga, o‘z ustida tinmay ishlashga harakat o‘qituvchining kasbiy shakllanishi, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha kasbiy

shakllanishini, ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 392-sonli “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, quyidagilar pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- o‘quv fani bo‘yicha malakasi, dars o‘tish mahorati, mehnati samaradorligi va ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan pedagog kadrlarni rag‘batlantirish;
- ish haqi miqdorini oshirish imkoniyatlarini yaratish;
- xorijiy tillarni o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash;
- kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishning majburiyatlarini ta’minlash.

Attestatsiyaning asosiy prinsiplari majburiylik, davriylik, oshkoralik, kengashib ish ko‘rish hamda xolislik hisoblanadi.

Attestatsiya pedagog kadrlar uchun har besh yilda bir marta o‘tkaziladi.

2.4. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O‘qituvchilik kasbining bugungi kundagi ahamiyati va roli

Pedagoglik kasbining shakllanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o‘zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o‘simliklar ildizlarini kovlab olish, suv manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o‘rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug‘)ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo‘lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma’lumotlarni berib, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o‘zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo‘lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo‘lishi, shuningdek, urug‘ jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg‘or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta’siridan himoyalanish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo‘lgan tabiiy ehtiyoj, yoshlarga hayotiy tajribalarni ma’lum mehnat faoliyati yo‘nalishida yetarlicha bilimga ega bo‘lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatdi. Natijada, bolalarga hayot tajribalarini o‘rgatuvchi kishilar guruhi shakllandi hamda bolalarga ma’lum yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda paydo bo‘lib, ularda bolalarga ma’muriy-xo‘jalik boshqaruvi asoslari o‘rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so‘zi – afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi | IV-asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o‘z shogirdlariga ma’ruzalar o‘qigan bo‘lib, keyinchalik ta’lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan, qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqalanishi natijasida quldorlik tuzumida bolalarni ta’lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma’nosi «bola yetaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan.

O‘rta asrlar davrida sharqda akademiya ko‘rinishidagi ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo‘lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX-asr, Bag‘dod), «Ma’mun akademiyasi» (XI-asr boshlari, Xorazm), observatoriyalar qoshidagi jamiyatlar (XV- asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha kuchli bilimga ega bo‘lgan qomusiy olimlar jalb etilgan bo‘lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O‘rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (sharqda madrasa)lar ko‘rinishidagi maktablarda ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo‘yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o‘z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muiniddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta’lim berganlar.

XIX-asr oxiri hamda XX-asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma’rifatparvarlar – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullayev, Abdurauf Fitrat, Isohxon Ibrat aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma’naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ustoz, muallim, o‘qituvchi zimmasiga eng muhim vazifa – jamiyat kelajagi bo`lgan yoshlarni tarbiyalash, ilm berish vazifasi yuklatilgan. Hatto ibtidoiy jamoa tuzumidayoq yoshlarni tarbiyalash muassasalari tashkil etilib, ularda tajribali, hayotni ko'rgan oqsoqollar bolalami tarbiyalaganlar. O‘qituvchilik kasbining paydo bo‘lishi tarbiyaning kelib chiqishi bilan bog‘liqdir.

Ibtidoiy kishilarning mehnat faoliyati va bunda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tarbiyaning vujudga kelishi uchun asosiy shart bo`ldi. Inson mehnat qurollari tayyorlay boshlagan davrdan boshlab kishilik jamiyati paydo bo`ldi. Eng oddiy mehnat qurollarini jamlash va ularni ongli ravishda tayyorlashning toboro kengayib va murakkablashib borishi yosh aviodga mehnat bilimlarini, ko'nikma va tajribalarini berish zaruratini tug‘dirdi. Dastlab bu hol mehnat faoliyati jarayonida va

butun ijtimoiy hayot quynida ro‘y berar edi. Keyinchalik tarbiya inson faoliyati va ongining alohida sohasiga aylandi.Yangi tug‘ilgan bolani jamoadagi keksalar, oqsoqollar boqardilar. Matriarxat taraqqiyotining oxirlarida bolalarni tarbiyalash uchun yoshlar uylari paydo bo`lib, ularda urug‘ oqsoqollari bolalarga tarbiya berganlar. Quldorlik davrida esa quldorlaming bolalari uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga bilim beradigan kishini «didaskal» («o‘qitaman», «o‘rgataman» so‘zidan olingan) deb ataganlar. Bolalarni maktabga tarbiyachilardan biri boshlab borgan yoki sayrlarga olib chiqqan, bunday tarbiyachi «pedagog» («raune» – bola, «agogeyn» – yetaklamoq so‘zidan olingan) deb atalgan. Bu tushunchalar hozirda ham o‘qituvchiga nisbatan ishlatiladi, lekin uning mohiyati boshqacha ahamiyat kasb etadi.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o'qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o‘qituvchiga hurmat-e’tibor va unga quyilgan mas’uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda. Bu o‘rinda respublikamizda 1-oktyabrni «Ustoz va murabbiylar kuni» deb e’lon qilinganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Ma’lumki, "shaxs va davr" yoki "davr va shaxs" munosabati muammolari tahlilida uchta holat bolishi mumkin:

Birinchidan, shunday shaxslar bor – ular davr bilan hamnafas, o‘zi yashagan zamonning yalovbardori sifatida namoyon boladi.

Ikkinchi toifa shaxslar o‘z davrining ruhi, maqsad va vazifalarini anglay olmaydi, ya’ni zamondan orqada qoladi.

Uchinchi toifa insonlar yetakchilar sanalib, ular voqelikdan o‘zib ketadi, ayni paytda o‘z davrining ruhini chuqur his etadi va anglaydi. Bunday shaxs hayotiy qarashlari, g‘oyasi va faoliyat yo'nalishida kelajakni ko‘ra oladi.

O‘qituvchi shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo`lgan, ma’naviyati yuksak shaxs bo`lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma’naviy olami yuqori bo`lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o‘z ifodasini topadi, uning g‘oyalari jamiyatga singadi.

Abu Ali ibn Sinoning fikricha: "O‘qituvchi matonatli sof vijdonli, rostgo'y, bolani tarbiyalash yollarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo`lmog‘i lozim. Muallim o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim”

"O'qituvchi — deydi **Al Forobiy**, o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli b o'lmog‘i lozim. Ana shundagina, u insonlikning yuksak darajasiga ega bo`ladi va baxt cho'qqisiga erishadi", deb ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib: "A’zolar kasalligi bilan yuzlarcha, minglarcha odamlar halok bo‘lsalar, nodonlik, bilimsizlik tufayli o‘n ming va yuz minglarcha odamlar halok bo‘ladilar», deb ta’kidlashlari bejiz emas.

Ulug‘ mutafakkir **Alisher Navoiy** ham o'qituvchining yoshlarga ta’sir o'tkazish mehnatini xolisona baholab: "Agar shogird nodonlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi", "Xalq yo`lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila", — kabi satrlar bitgan.

Nasriddin Tusiy o‘zining "O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g’risidagi" nomli asarida: "O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qayerda, qo‘pol yoki qattiq bo`lishi

mumkin emas. Dars paytida o'qituvchining o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin", — deydi.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchining yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yilgan talablar

Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy pedagog-psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham, yoshlar o‘itasidagi o‘zaro munosabatlarni yo`lga sola olishi, jamoada ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Jamiyatning **o‘qituvchilik kasbiga qo‘yadigan asosiy talabalari** quyidagicha:

- shaxsni ma’naviy va ma’rifiy tomondan tarbiyalashning, milliy uyg‘onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, yoshlarni mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o‘z vatani tabiatiga va oilasiga bo`lgan muhabbati;
- keng bilim saviyasiga ega bo`lishi, turli bilimlardan xabardor bo`lishi;
- yoshlar pedagogikasi, psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fizologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo`lishi;
- o‘zi dars beradigan fan bo‘yicha mustahkam bilimga ega bo`lib, o‘z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan xabardor bo`lishi;
- ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- yoshlarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olishi, empatiya his-tuyg‘ulariga ega bo`lishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik takt (nazokat)ga ega bo`lishi;
- o‘qituvchining o‘z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Har bir o‘qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo`lishiga intilishi kerak. O‘qituvchiga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub’yektiv tayyorligi muayyan o‘qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, yurtboshimiz so‘zi bilan aytganda: «Ta’limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotdan o‘z o‘rnini topish jarayoni tezlashadi», «Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi... «Ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro‘yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi».

Xuddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturida ko'zlagan maqsadlarga erishishi ta’lim-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o‘qituvchiga ham bog`liqdir.

O'z davrining ruhini chuqur anglagan, kelajakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o‘qituvchi tarbiyachilarning bosh vazifasidir. O‘qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashiga erishmog‘imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil

qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta’limiy-tarbiyaviy ish bo`lib hisoblanadi.

III BOB. SHAXS KAMOLOTI – IJTIMOIY BIOLOGIK HODISA, PEDAGOGIK JARAYON OB’YEKTI VA SUB’YEKTI SIFATIDA

3.1. Shaxs haqida tushuncha

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

O‘z mehnati tufayli inson psixikasi takomillashib hayvonlar psixikasidan tobora uzoqlashmoqda, bunga sabab bo‘layotgan omillar, bu uning jamiyatda bo‘lishligi, odamldar bilan birgalikdagi faoliyati, ular bilan turli munosabatlarga kirishishi, uning dunyoqarashini shakllanishidir va shu bilan birga u jamiyatning faol a’zosi shaxs bo‘lib shakllanishidir.

Shaxs tushunchasiga ta’rif berishimizdan avval biz, insonning shaxs bo‘lib yetishmaganlidan avvalgi jarayonni kuzatib undagi hali to‘liq yoki bo‘lmasa mutlaqo hali shakllanmagan tomonlarini, ya’ni sifat va xususiyatlarini nazarda tutishimiz mumkin. Ya’ni, hali shakllanmagan shaxs psixologiyada individ nomi bilan yuritiladi. “Individ” tushunchasida kishining nasl-nasabi ham mujassamlashgandir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ham, katta yoshdagi odamni ham, mutafakkirni ham, aqli zaifni ham, yovvoyilik bosqichidagi qabilaning vakilini ham, madaniyatli mamlakatda yashayotgan yuksak bilimli kishini ham individ deb hisoblash mumkin. Biron-bir kishini biz individ deb ataganda, biz juda ko‘p narsalarni aytgan bo‘lamiz. Aslini olganda, bu bilan uning potensial ravishda inson ekanligi aytilgandir. Uning bundan keyingi va hatto, juda ham umumiy tarzdagi ta’rifi fazilatlarining bayon etilishi va izohlanishi taqozo qiladi. Bunday fazilatlarsiz u faqat boshqalarga o‘xshamaydigan emas, balki ular kabi harakat qilmaydigan, fikrlamaydigan, iztirob ham chekmaydigan, jamiyat a’zosi sifatida, tarixiy jarayonning ishtirokchisi sifatida ijtimoiy aloqalarga jalb ham etilmagan real kishi emas, balki demografik ma’lumotnomalardagi jonsiz birlik holida qoladi xolos. Individ sifatida dunyoga kelgan kishi alohida ijtimoiy fazitlat kashf etadi, shaxs bo‘lib yetishadi. Individ hali bolaligidayoq tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar tizimiga jalb etiladi. U bu tizimni allaqachon tayyor holda uchratadi. Kishining jamiyatdagi bundan keyingi rivojlanishi munosabatlarining shu qadar chigalliklarini vujudga keltiradiki, bu hol uni shaxs sifatida shakllantiradi.

Individ tomonidan amaliy faoliyat va munosabat jarayonida hosil qilinadigan hamda ijtimoiy munosabatlarning individga ta’sir o‘tkazish darajasi va sifatini belgilaydigan muntazam tarzdagi ijtimoiy fazilat shaxs tushunchasi bilan ifoda etiladi.

“Individ” va “Shaxs” tushunchalarining o‘xshashligi emas, balki birligi haqidagi fikr quyidagicha tarzda o‘rtaga qo‘yilishi mumkin bo‘lgan savolga javob berilishini taqozo qiladi: shaxs bo‘lib hisoblanmagan individning mavjud bo‘lishi yoki aksincha, individning konkret sohibi sifatida undan tashqarida va usiz mavjud bo‘lish fakti

ko‘rsatilishi mumkinmi? Taxminiy tarzda fikr yuritilgan taqdirda unisi ham bunisi ham bo‘lishi mumkin. Agar kishilik jamiyatidan tashqarida voyaga yetgan individni hayolan tasavvur qilinadigan bo‘lsa, bu holda u birinchi bor odamlarga duch kelib, biologik jonzotga xos individual xususiyatlardan bo‘lak hech qanday, yuqorida aytilganidek, kelib chiqishi jihatidan hamisha ijtimoiy-tarixiy xarakter kasb etadigan shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyon qila olmaydi, balki tevarak-atrofdagi odamlar mabodo uni birgalikdagi faoliyat va munosabat jarayoniga “torta olishgan” taqdirda ularning paydo bo‘lishi uchun zarur tabiiy shart-sharoitlargagina ega bo‘ladi. Hayvonlar orasida tarbiyalangan bolalar tajribasini o‘rganish bu vazifani amalga oshirishning g‘oyat darajada murakkabligidan dalolat beradi. Qarshimizda hali shaxs sifatida kamolotga erishmagan individ bo‘ladi. Real individni gavdalantirmaydigan shaxsning paydo bo‘lish imkoniyatlari mavjudligi muayyan istisnolar bilan tan olinishi ham mumkin. Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik – kishining o‘ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir.

Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi qiziqishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da qobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini o‘zida mujassamlashtirgan odam yo‘q – inson shaxsi o‘z individualligi jhatidan betakrordir.

Shaxs – alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan individ. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir.

Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi:

- biologik (nasl);
- tabiiy muhit;
- madaniy muhit;
- ijtimoiy tajriba;
- odamlar bilan munosabat[1].

Shaxsning tuzilishi. Birinchi navbatda, shaxsning individualligini ko‘rsatadigan va faqat ehtirosda, ichki qiyofada, qobiliyatlarda va hokazolarda ancha keng ifodalanadigan fazilatlari va umumiy tuzilishinigina emas, balki shaxsning rivojlanish darajasi har xil bo‘lgan guruhlarda yetakchi hisoblangan faoliyat orqali ifodalanadigan individlararo munosabatlarda o‘zini namoyon etishini ham qo‘shish shart.

Inson shaxs sifatida shakllanishining asosi bu uning faoliyatidir. Inson yashashining, ijtimoiy mavjudod sifatida rivojlanishining belgilovchi sharoiti bo‘lib, har xil faoliyat turlarining majmui bo‘ladi. Faoliyatni o‘zlashtirish va uning murakkablashuvi inson psixikasini rivojlanishining asosiy sharoiti bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyaviy masalalarni yechish inson faoliyatlarining bir-biriga

[1] Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (450-b).

bo‘ysunuvchanlik qonuniyatlariga, ularning dinamikasiga tayanishi kerak. Tarbiyaviy ta’sirlarni tuzishda bola jalb etilgan har xil faoliyat turlarining xarakterini va xususiyatlarini, ularning mohiyatini, hajmini va mazmunini inobatga olish kerak.

3.2. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’yekti va ob’yekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Shaxs rivojlanishi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda, inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, chunki, shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o‘zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo‘lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘ziga munosib o‘rin egallaydi. Chunki, rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi. Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur. Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o‘sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o‘zlashtirilish jarayoni. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan milliy madaniyat an’analarining o‘zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Madaniy muhitga

moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi, biroq bu jarayon bolaning ikki yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola madaniy qadriyatlarni o‘rganish jarayonidan uzib qo‘yilsa, ijtimoiylashuv jarayoni to‘xtab qoladi. Insonning madaniy an’analarni o‘zlashtirishi jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir. Ijtimoiylashuvning ijtimoiy funksiyalari quyidagilar:

- ijtimoiy-tarixiy jarayon subyektini shakllantiradi;
- madaniyat va sivilizatsiya taraqqiyotida vorisiylikni ta’minlaydi;
- individni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning to‘qnashuvlarsiz taraqqiy etishiga zamin yaratadi[2].

Shaxs rivojlanishida ijtimoiy munosabatlarning o‘rni muhim sanaladi. Ijtimoiy munosabatlar – odamlar o‘rtasida turli aloqalar bo‘lib, bunday munosabatlar ularning birgalikdagi moddiy va ma’naviy faoliyati natijasida qaror topadi.

3.3. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri o‘rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko‘pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta’siri kuchli bo‘ladimi? Yoki tabiiy omillar yetakchi o‘rin tutadimi? Balki, tarbiyaning ta’siri yuqoridir? Ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo‘nalish deb nomlangan nuqtai-nazar yetakchi o‘rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo‘yadi. Ular tug‘ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o‘rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI-asr falsafasida vujudga kelgan **preformizm** oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – **bixeviorizm** X-asr boshlarida yuzaga kelgan bo‘lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o‘tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta’limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D’yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o‘zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog‘laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog‘liq deb ko‘rsatadilar.

[2] Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (147-148b).

Muhit deganda, odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta’sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, tarbiya tufayli bolani o‘zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo‘lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta’sirini aniqlashda ilg‘or pedagog olimlar, psixolog va faylasuflar ta’limotiga suyaniladi.

Ijtimoiy muhit – inson ko‘rib turgan, uning mavjudligini, shakllanishini ta’minlaydigan moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning majmuasi. Ijtimoiy muhit keng ma’noda (makro muhit),umuman, ijtimoiy-iqtisodiy tizim ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat madaniyatini qamrab oladi. Tor ma’noda (mikromuhit), umuman ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi sifatida bevosita insonni o‘rab turgan oila, mehnat, o‘quv va h.k. Jamoalar va guruhlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy muhit shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi3.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma’naviy boyligi uning munosabatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma’lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim. Bu tarbiya orqali amalga oshiriladi. **Birinchidan,** tarbiya ta’sirida muhit bera olmagan bilim, ma’lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi; **ikkinchidan**, tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxs kamolga yetadi; **uchinchidan**, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’sirini ham yo‘qotish mumkin; **to‘rtinchidan**, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta’sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.

Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta’sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqyealarning to‘g‘ri ijobiy ta’sirini amalga oshirish imkoni tug‘iladi. Muhit bera olmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto, tarbiya tufayli shaxsda tug‘ma kamchiliklarni ham o‘zgartirib

[3] Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (149-b).

shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari, tarbiya muhitning salbiy ta’siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo‘lmaydi. Shu sababli, odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri uyushtirilgan har qanday faoliyat hoh o‘yin, mehnat, o‘qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs ulg‘aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o‘zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o‘zgarib boradi. Shu sababli, bola hayotida o‘yin, o‘quvchi hayotida o‘qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O‘quvchi va o‘quvchilarning rivojlanishida o‘quv jarayonlarining ahamiyati va ta’siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o‘zlashtirish ularning tafakkurini o‘stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy hulq mezonlari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma’naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo‘ladilar, o‘zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko‘rsatishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas’uliyat, intizomlilik, faollik ortadi. Ular o‘z-o‘zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. O‘z-o‘zini tarbiyalashga ota-ona, o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri yanada samarali bo‘ladi. Tarbiya bilan rivojlanishning o‘zaro bir-biriga ta’siri va munosabatlari mavjud, chunki, qayerda tarbiya jarayoni muammolari to‘g‘ri hal etilsa, u shaxs kamolotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kamol topgan shaxs tarbiyaning roli va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydi.

Tarbiya shaxsning rivojlanishini ta’minlashi uchun boladagi rivojlanishning mohiyatini tushunish, bilish faoliyatining o‘zgarish sabablarini aniqlash zarur. Tarbiya haqiqatan rivojlantiruvchi omil bo‘lmog‘i uchun tarbiya jamiyatning tarbiya oldiga qo‘ygan talablarini, shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini bilishi zarur. Pedagogika fani shaxs rivojlanishida tarbiyaning yetakchiligini e’tirof etish bilan birga ularning o‘zaro bir-biriga ta’sirini tan oladi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichlarida bir xil bo‘lmay, balki yosh hususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo‘ladi. Tarbiya jarayonida o‘sayotgan avlodning yosh va o‘ziga xos hususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma’lumki, bir xil yoshdagi o‘quvchilarni har birining o‘ziga xos hususiyatlari mavjud.

3.4. Bola shaxsi tarbiya ob’yekti va sub’yekti sifatida. Shaxs faolligi

Muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar **yosh xususiyatlari** deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo‘ladi.

Bolalarning tarbiya ga to‘g‘ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki, bola orginizmining o‘sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos

Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tganlar.

Bolaning o‘ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo‘lishi mumkin.

Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, erinchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo‘lib, o‘qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish, metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. “temperamentum” “qismlarning bir-biriga munosabati” ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Go‘daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo‘lgan davr.
2. Mtmgacha bo‘lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha bo‘lgan yosh davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar (bolalar) –7 yoshdan 11,12 yoshgacha.
5. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilar (o‘smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o‘quvchilari (o‘spirinlar) – 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o‘tish davri bo‘lib, bolaning bo‘yi, og‘irligi jihatdan uning tashqi ko‘rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o‘sishi tufayli serharakat bo‘ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o‘sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o‘rganishga qiziquvchan bo‘ladi.

O‘rta maktab yoshi (o‘smirlik 12-15 yosh). O‘smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Bolaning o‘sishi tezlashadi. Bu davrni o‘tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe’l-atvoriga ta’sir etadi. O‘smir hayotida mehnat, o‘yin, sport va jamoat ishlari katta rol o‘ynaydi. Ba’zilarining o‘zlashtirishi pasayadi, intizomi bo‘shashadi.

Katta maktab yoshi – akademik litsey, kasb-hunar kolleji o‘quvchilari (o‘spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o‘spirinlarning ilk balog‘atga yetgan davridir. Mazkur davrda jinsiy yetilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O‘spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his-tuyg‘ularida ham o‘zgarish yuz beradi. O‘z-o‘zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda, ular o‘rtasida munozaralar o‘tkazish yaxshi natija beradi. O‘spirinlar o‘z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham, o‘spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Ularda o‘quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O‘spirinlik bu, aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o‘z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o‘qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g‘o‘r fikrlari va dunyoqarashlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o‘z-o‘zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o‘zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo‘ladi. O‘zini kattalardek his etish, o‘ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o‘ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o‘z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o‘z qiziqishlari bilan o‘lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg‘araz, to‘g‘ri yo‘nalish berishlari o‘ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada, ta’lim muassasasida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki, o‘spirin-yoshlar mustaqil hayot ostonasida bo‘lib, ularning bu hayotga to‘g‘ri qadam qo‘yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo‘lishining muhim shartidir.

IV-BOB. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

4.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi

Pedagoglik kasbining paydo bo‘lishiga e’tibor qaratilsa, shu narsa ko‘rinadiki, dastlab uning doirasida differensiallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chegaralangan bo‘lsa, keyinchalik ochiqchasiga ta’lim va tarbiya qarama-qarshi qo‘yila boshladi: o‘qituvchi o‘qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX-asrga kelib, taraqqiyparvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda ob’yektiv nuqtai nazardan ta’lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F.Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta’limda vosita bor, lekin maqsad yo‘q, ta’limsiz esa maqsad bor, vosita yetishmaydi.

Nemis pedagogi A.Disterveg, ta’limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: “Ta’lim prinsiplari bor ekan, hamisha tarbiya prinsiplari ham bo‘ladi, yoki aksincha”.

Pedagogik jarayonning yagonaligi g‘oyasi K.D.Ushinskiy g‘oyalarida chuqur ifodalangan. U pedagogik jarayonni maktab faoliyatining ma’muriy, o‘quv va tarbiya elementlarini bir butun tizim sifatida tushundi. K.D.Ushinskiyning taraqiyparvar g‘oyalari uning izdoshlari: N.F.Bunakov, P.F.Lesgaft, K.B.Elniskiy, V.P.Baxterov va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Pedagogik jarayon muammosi bilan P.F.Kapterev alohida shug‘ullandi. U pedagogik jarayonlarning ko‘ptomonlama ham ichki, ham tashqi jihatlarini tahlil qiladi va quyidagi xulosalarga keldi: “Ta’lim, o‘qitish, o‘rgatish, tarbiya, pand-nasihat, o‘git va boshqa bir qator so‘zlar turli xususiyat, jihatlar, vosita va vaziyatlarni ifodalaydi, lekin ularning hammasi yagona pedagogik jarayondir.

N.K.Krupskaya, A.P.Pinkvich, S.T.Shaskiy, P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko, M.M.Rubinshteyn yagona pedagogik jarayonning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shishdi.

XX-asrning 70-yillarida Yu.K.Babanskiy, B.S.Ilin, V.M.Korotov, B.V.Kraevskiy, B.T.Lixachev, YU.P.Sokolnikov va boshqalar yagona pedagogik jarayonga ilmiy qiziqish bilan qarashdi.

Birinchi prezidentimiz I.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’lim-tarbiya xususida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”[4]. Darhaqiqat, ta’lim va tarbiyani yaxlit pedagogik jarayon sifatida qarash Sharqda ustivorlik kasb etib kelgan, buni biz o‘rta asrlar mutafakkirlari asarlarida ham, jadid ma’rifatparvarlari qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Pedagogik jarayonning mohiyati tizimli metodologik yondashuv asosidagina zamonaviy mualliflar tomonidan ochib berildi. U pedagogik ob’yektlarni tizimlar sifatida qarashni taklif etadi, tarkibiy qismlarining tuzilishini, ular orasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlash kabilarni o‘zida jamlaydi.

Pedagogik jarayon – pedagogik fanlarning eng muhim, asosiy kategoriyalaridan biri. Pedagogik jarayon kattalarning pedagogik faoliyati va tarbiyachilarning boshqaruvchilik roli tufayli faol hayotiy faoliyat natijasida bolaning o‘zini-o‘zi o‘zgartirishining maqsadga yo‘naltirilgan mazmundor, tashkiliy harakatidir. U haqiqatdan ilmiy asoslangan, rivojlantiruvchi va takomillashib boruvchi tizim sifatida mavjud bo‘ladi hamda tarbiya qonuniyatlari, pedagogning ijodkorligi va ta’lim oluvchilarning yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlari dinamikasiga asoslanadi.

Pedagogik jarayon boshqa barcha ijtimoiy jarayonlar (iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, madaniy va boshqalar) bilan chambarchas bog‘langan. Uning mohiyati, mazmuni va yo‘nalganligi ijtimoiy jarayonlarning holati, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining real o‘zaro harakatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quv-tarbiya jarayonining asosiy xususiyati – yagonalik, undagi barcha muhim tarkibiy qismlarni saqlab qolish zaruriyati. Yaxlitlik asosiga ta’lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta’minlash pedagogik jarayonning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik jarayon – ko‘plab jarayonlarning ichki aloqadorligi yig‘indisidir. Unda o‘qitish, ta’lim, tarbiya, shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari birlashadi. Pedagogik jarayonning umumiyligi va birligi uni tashkil etuvchi barcha jarayonlarni yagona maqsadga bo‘ysundiradi. Pedagogik jarayonning murakkab ichki munosabatlari:

- uni tashkil etuvchi jarayonlarning birligi va mustaqilligi;
- undagi jarayonlarning yaxlitligi va teng huquqliligi;
- umumiy mavjudlik va o‘ziga xoslikni saqlashda namoyon bo‘ladi.

Pedagogik jarayonga uning tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqadorlikda qonuniy joy egallashi birligini o‘zida ifoda etuvchi yagona tizim sifatida qarash mumkin. Tuzilish (struktura) – bu tarkibiy qism (element) larning tizimdagi joylashuvidir. Tizimlarning tuzilishi tarkibiy qismlarni qabul qilish mezonlarida belgilangani bo‘yicha, bundan tashqari ular orasidagi aloqadorlikda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonning o‘zi maqsad, vazifa, mazmun, metodlar, pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro harakati shakllari, shu bilan birga erishilgan natijalar bilan xarakterlanadi.

[4] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b. (62-b).



2-chizma. Yaxlit pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari.

Pedagogik jarayonda ishtirok etadigan tizim tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- pedagoglar;
- tarbiyalanuvchilar;
- tarbiyaviy shart-sharoitlar.
- Professor I.P.Rachenko ta’lim tizimidagi tarkibiy qism(komponent)larni quyidagicha bo‘lib ko‘rsatadi:
- tizim faoliyatini aniqlashtiruvchi maqsad va vazifalar;
- ta’lim va tarbiya mazmuni maqsad va vazifalarining amalga oshishini ta’minlovchi pedagogik kadrlar;
- tizimning ilmiy asosda ishlashini tashkil etuvchi ilmiy kadrlar;
- ta’lim oluvchilar (ta’lim oluvchilar);
- moddiy-texnik ta’minot;
- tizim va uning samaradorligi ko‘rsatkichlarining moliyaviy ta’minoti;
- shart-sharoit(psixofiziologik, sanitar-gigienik, estetik va ijtimoiy);
- tashkil etish va boshqarish.

Amerikalik pedagog F.G.Kumbs quyidagilarni ta’lim tizimining asosiy tarkibiy qismlari deb hisoblaydi:

- tizimning faoliyatini aniqlashtirib beruvchi maqsad va birinchi galdagi vazifalar;
- ta’lim oluvchilar hamda tizimning asosiy vazifasi hisoblanmish o‘qitish;
- tizim faoliyatini muvofiqlashtirish, rahbarlik va baholashni amalga oshiruvchi boshqarish;

- turli vazifalar bilan bog‘liqlikda o‘quv muddati hamda ta’lim oluvchilar guruhining tuzilishi va taqsimlanishi;
- mazmun – eng asosiysi, ta’lim oluvchilar ma’lumotga ega bo‘lishlari shart;
- o‘quv qo‘llanmalar: kitoblar, doskalar, xaritalar, filmlar, laboratoriyalar va boshqalar;
- o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘lgan bino;
- texnologiya – ta’limda foydalaniladigan barcha metod va usullar;
- bilimlarni baholash va nazorat qilish: qabul qilish, baholash, imtihonlar, tayyorgarlik sifati qoidalari;
- bilimlarni oshirish va tizimni takomillashtirshi uchun tadqiqot ishlari;
- ta’lim samaradorligi ko‘rsatkichlari harajatlari.

4.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari

Pedagogik jarayon qonuniyatlari – bu ob’yektiv mavjud bo‘lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma’lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

Qonuniyatlar nima va pedagogik jarayonda qanday bog‘langan, nima bilan bog‘liqlikda ekanligini ko‘rsatadi.

Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko‘plab turli tavsifiy aloqalar namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarning yagona tasnifi mavjud emas. Shu sababli quyida mavjud tasniflardan ba’zilarini ko‘rib o‘tamiz.

I. P. Podlasiy tasnifi bo‘yicha:

Tarbiya va ijtimoiy tizimlarning aloqadorligi: aniq tarixiy sharoitlardagi tarbiya xarakteri jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy, milliy-madaniy o‘ziga xosliklari bilan aniqlanadi.

Ta’lim va tarbiya orasidagi: bu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini, ularning ko‘ptomonlama o‘zaro ta’sirini, birligini belgilab beruvchi aloqadorlik.

Tarbiya va faoliyatning aloqadorligi: tarbiyalash – faoliyatning barcha turlariga tarbiyalanuvchilarni jalb etish demakdir.

Tarbiya va shaxs faolligining aloqadorligi: agar uning ob’yekti (shaxs) bir paytning o‘zida sub’yekti sifatida aks etsa, tarbiya muvafaqqiyatli amalga oshadi, ya’ni, shaxs o‘zining faol xulq-atvorini, shaxsiy erkinligini, mustaqilligini, faoliyatdagi ehtiyojini namoyon etadi.

Tarbiya va muloqotning aloqadorligi: tarbiya jarayoni har doim odamlar – o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarning o‘zaro harakatida kechadi.

Bola tarbiyasi muvafaqqiyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxslararo aloqalarning intensivligi va boyligiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik jarayonning dinamik qonuniyati – ta’lim oluvchining keyingi barcha muvafaqqiyatlarining qimmati uning dastlabki bosqichlardagi muvafaqqiyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogik jarayonda shaxsning rivojlanishi qonuniyati – shaxs rivoji darajasi va sur’ati:

- irsiyat;
- tarbiya va o‘quv muhiti;

- pedagogik ta’sir etish usul va vositalarining qo‘llanishiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish qonuniyati – pedagogik ta’sirning samaradorligi:

- ta’lim oluvchilar va pedagoglar orasidagi qayta aloqalarning intensivligi;
- ta’lim oluvchilarga ko‘rsatiladigan korreksiyali ta’sirlarning asoslanganligi hamda xarakteri, qimmatiga bog‘liq bo‘ladi.
- Pedagogik jarayonda hissiyot, mantiqiylik va amaliyotning birligi qonuniyati – o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi:
- hissiy idrokning sifati va intensivligi;
- idrok etilganning mantiqiy anglanishi;
- anglanganning amaliy qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘ladi.
- Tashqi (pedagogik) va ichki (bilish) faoliyatning birligi qonuniyati – pedagogik jarayonning samaradorligi:
- pedagogik faoliyatning sifati;
- tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o‘quv-tarbiyaviy faoliyatining sifatini shart qilib qo‘yadi.

M.Kodjaspirov bo‘yicha:

- ijtimoiy shart-sharoitlar bilan shartlanganlik qonuniyati: ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlarga bog‘liqligi.
- Inson tabiati bilan bog‘langanlik qonuniyati:
- shaxsni shakllantirishda muloqot va faoliyatning hal qiluvchilik roli;
- Ta’lim va tarbiyaning ta’lim oluvchilarning yosh va individual o‘ziga xosliklariga bog‘liqligi.

Tarbiviy jarayon mohiyatining shartlanganlik qonuniyati:

- tarbiya, o‘qitish, ma’lumot va shaxs rivoji jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi;
- o‘quv-tarbiyaviy jarayonda shaxs va ijtimoiy guruhlarning o‘zaro aloqasi.

M.Kodjaspirovning mazkur tasnifi YU.K.Babanskiyning tasnfiga juda yaqin bo‘lib, pedagog olima A.S.Kaldibekovaning fikricha, yagona pedagogik jarayonning qonuniyatlari, aynan akademik YU.K.Babanskiy tomonidan sodda va tushunarli ochib berilgan. Shuning uchun u o‘zining “Pedagogika teoriyasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida pedagogik jarayonning quyidagi ettita asosiy qonuniyatini sanab o‘tgan:

- ta’lim va tarbiya jamiyatning ehtiyojlari va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlariga bog‘liq holda amalga oshadi;
- tarbiya, o‘qitish, ma’lumot va rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi qonuniyati;
- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning birligi qonuniyati;
- ta’lim va tarbiya jarayonida muloqotning hal qiluvchilik roli qonuniyati;
- pedagogik jarayonda ta’lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- pedagogik jarayonda jamoa va shaxsning o‘zaro aloqadorlik qonuniyati;
- pedagogik jarayon vazifalari, shakllari, metodlarining o‘zaro aloqadorlik qonuniyati.

Yagona pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillar masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto, ba’zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e’tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qonuniyatlar ob’yektiv, eng

muhimi, barqaror, o‘zgarishda, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar (prinsiplar) deb ataymiz.

Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasniflari adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o‘rganib chiqilsa, tasniflarning bir-biriga yaqinligini ko‘rish mumkin. Shu sababli biz quyida ko‘pchilik tomonidan tushunarli deb topilgan ikkita (Yu.K.Babanskiy, B.T.Lixachev) tasnifini berishni ma’qul deb topdik.

Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining Yu.K.Babanskiy bo‘yicha tasnifi:

- pedagogik jarayonning maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ta’lim va tarbiya mazmunining ilmiyligi;
- ta’lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, tushunarlilik;
- tizimlilik va ketma-ketlik;
- onglilik, faollik, tashabbuskorlik, ta’lim oluvchilarning ijodkorligi;
- ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati bilan aloqasi;
- ta’lim va tarbiyaning jamoaviy xarakteri;
- ko‘rgazmalilik;
- ongli talabchanlik bilan birgalikda ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- ta’lim va tarbiyaning qo‘lay metod, shakl va vositalarini tanlab olish;
- sababiylik, onglilik hamda ta’lim, tarbiya va rivojlanishining amaliy natijalari;
- tarbiyaga kompleks yondashuv.

B.T.Lixachev tasnifi:

- o‘quv-tarbiya jarayonining ijtimoiy-qadriyatli maqsadga yo‘nalganligi;
- ta’lim oluvchilar faoliyatining turli turlarining o‘zaro harakatini tashkil etishga kompleks yondashuvni amalga oshirilishi;
- butun o‘quv-tarbiyaviy ishlarning hayot bilan bog‘liqligi;
- ta’lim va tarbiya jarayonida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, jamoada ta’lim va tarbiya;
- ta’lim oluvchilarga talabchanlik va hurmatning birligi;
- ta’lim oluvchilar hayotiga rahbarlik qilishda ularning tashabbuskorliklarini hasobga olish;
- barcha ta’lim oluvchilar hayotini estetizatsiyalash;
- ta’lim va tarbiyaning boshqaruvchilik roli;
- ta’lim oluvchilarning bilish, mehnat va boshqa faoliyatlarini rag‘batlantirishni hisobga olish, ularda ishga bevosita qiziqish uyg‘otish orqali axloqiy-irodaviy kuchini faollashtirish;
- ta’lim oluvchilarda barcha turdagi fikrlashni rivojlanishini hisobga olish, ketma-ketlik va tizimlilik;
- ko‘rgazmalilik;
- tushunarlilik;
- sababiylik.

Umuman olganda, yagona pedagogik jarayon, uning tarkibiy qismlarining umumiy, o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi.

4.3. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va mazmuni

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodi va tashkil etilishi masalalarini o‘rganadi. Jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi O‘rta Osiyo faylasuflarining tarbiya haqidagi fikrlariga va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma’lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta’sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlanadi.

Tarbiya aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog‘lom, e’tiqodli, dili pok, ruhi komil, har tomonlama ma’naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalminal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an’analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, xarakteri, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o‘zlashtiradi: bu o‘zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilimni o‘zlashtira olmaydilar. Bolaning yoshi ulg‘ayib borgan sari bu faollik tobora ko‘proq mustaqillik xususiyatlariga ega bo‘lib boradi: tarbiyalanuvchilar o‘zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o‘z-o‘zini takomillashtirish, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo‘lishga ko‘nika boradilar.

Hamma davrlarning ilg‘or kishilari tarbiyaga yuqori baho berganlar. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O‘tar, Hamza, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohang, o‘quvchilarga o‘tmish, tarix, san’at haqidagi ma’lumotlarni chuqur o‘rgatishi, xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk allomalarning farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlari, inson ruhini chuqur o‘rganshi, sharqona urf-odatlar, an’analar asosida yoshlarga mehnat malakasini singdirishi lozim.

Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, ota-onalar ham yaxshi bilishlari lozim. Umumta’lim maktablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har

tomonlama kamolotga erishuvi asos qilib olinadi. Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki hislatlarining to‘laqonligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig‘indisini o‘z ichiga oladi.

Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog‘liqdir. Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog‘liqdir. Ayni chog‘da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bog‘liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondoshishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o‘rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiya shunchalik samarali amalga oshiriladi. Insonni uning atrofini qurshab turgan olami: oila, ota-onasi, maktab, do‘stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borishi kerak. Shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasida bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e’tibor berish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish lozim. Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo‘lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlashishi ta’minlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e’tiborda tutilishi zarur. Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdir. Yosh avlodga har bir tarixiy davrdagi jamiyatning o‘ziga xos ishlab chiqarish metodi va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq tarbiya beriladi. Bu tarbiyaning asosiy qonuniyatidir.

Tarbiya jamiyat hayoti bilan bog‘liq, jamiyat o‘zgarib rivojlanishi bilan tarbiya ham o‘zgarib, rivojlanib boradi. Tarbiya jarayoni hayotiy, amaliy xususiyat kasb etmog‘i lozim. Tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari; pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoalari – barchasi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishlari lozim.

V BOB. DIDAKTIKA TA’LIM NAZARIYASI SIFATIDA. O‘QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA

5.1. Ta’lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida

Didaktika – pedagogikaning mustaqil tarmog‘i. Ta’lim nazariyasi, ya’ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Didaktika pedagogikada ta’lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismdir.

Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, “**didasko**” – o‘qitish, “**didaskol**” – o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan. “Didaktika”ning so‘zma – so‘z tarjimasi ta’lim nazariyasini anglatadi. Bu atamani nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya.A. Komenskiy (1592-1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 165-yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Komenskiy “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san’ati”, deb tushundi. Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G.Pestalotsi, I.Gerbart, K.D.Ushinskiy, V.Ostrogorskiy, P.Kapterev kabi mashhur olimlar katta hissa qo‘shishdi. Bu yo‘nalishda didaktlar Yu.K.Babanskiy, N.Gruzdev, M.Danilov, B.Yesipov, L.Zankov, M.Skatkin kabilar ham ancha ishlarni amalga oshirishdi.

Didaktika pedagogikaning “Nima uchun o‘qitish kerak?”, “Nimani o‘qitish kerak?”, “Qanday o‘qitish kerak?”, “Kimlarni o‘qitish kerak?”, “Qayerda o‘qitish kerak?”, “Nimadan foydalanib o‘qitish kerak?” kabi savollariga javob izlaydi.

Didaktikada ta’limni tashkil etishning umumiy masalalari, o‘qitish jarayonining mohiyati, ta’limning mazmuni, o‘qitish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda, bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Bularning barchasi o‘qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o‘quvchilarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shaklantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. O‘quvchilarga qiyinchiliklarni engib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa va o‘zaro bog‘liqlikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qtishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

5.2. Didaktikaning maqsad va vazifalari

Umumiy didaktika o‘z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog‘langan bo‘lib, ularga oid ma’lumotlariga tayanib o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o‘quv fanini o‘qitish usullari uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktika o‘z oldiga o‘qitishning o‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo‘yadi.

Didaktikaning **asosiy vazifasi** – yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Didaktikada ta’limni tashkil etishning umumiy masalalari, o‘qitish jarayonining mohiyati, ta’limning mazmuni, o‘qitish qonuniyatlari, o‘qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O‘qitish jarayoni pedagogning o‘rgatuvchilik faoliyatini va ta’lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda, bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo‘lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo‘yadi.

Bularning barchasi o‘qituvchining **ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi** vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘quv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda, u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq me’yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati ta’lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta’lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida ta’lim oluvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqa hamda o‘zaro bog‘liqliklikda joylashadi. Didaktika o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini o‘rganadi. Aniq bir predmetni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

Xususiy didaktika – muayyan o‘quv fanlarini o‘qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo‘llarini o‘rgatuvchi metodika fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o‘sha

predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o‘qitishning universal jihatlari namoyon bo‘ladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Dialektikaning asosiy kategoriyalariga ta’lim, ta’lim jarayoni, ta’lim prinsiplari, ta’lim metodlari, ta’lim shakllari, ta’lim vositalari, bilim, ko‘nikma, malaka, o‘qitish, o‘qish kiradi.

Ta’lim – tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o‘qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turi.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo‘lib, ikki tomonlama xarakterga egadir.

Ta’lim prinsiplari – ta’lim metodikasi va tashkil etilishi mazmuniga qo‘yiladigan talablarni aniqlaydigan eng muhim qoidalar.

Ta’lim metodlari - o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘quv vazifalarini hal etishga qaratilgan, o‘zaro bog‘langan faoliyati yo‘llari va usullari.

Ta’lim vositalari – o‘quv jarayonining tashkil etilishi va o‘tib borishini ta’minlaydigan xilma-xil o‘quv jihozlari, o‘quv qo‘llanmalari va boshqalar.

Bilim – bu o‘quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko‘ra foydalana oladigan faktlar, ma’lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir. Bilim shakllari xilma-xil “Dastlabki olimpiada o‘yinlari miloddan avvalgi 776-yilda Yunonistonda o‘tkazilganligini men bilaman” bu o‘rinda faktni bilish qayd etiladi. Gimnastika mashqlarining organizmiga ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan qator ilmiy faktlar asosida biz tushuncha shaklida ifodalangan fikrga duch kelamiz. Masalan, “Gimnastika – organizmga va kishining funksiyalariga ta’sir ko‘rsatuvchi maxsus tanlangan mashqlar tizimi”. Bilimlarning amalda bir necha bor qo‘llanishi ko‘nikmalarning hosil bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘nikma – bu o‘zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalanadigan ongli faoliyatdir. Ko‘nikma – egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish usullari.

Malaka avtomatlashgan, o‘rganib qolingan, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. Malakalar har xil bo‘ladi: o‘quv malakalari – o‘qish, yozish, og‘zaki hisoblash va boshqa; mehnat malakalari – arra yoki bolg‘ani ishlata olish, materiallar va mashinalar bilan muomalada bo‘lish va hokazo; harakat malakalari – yurish, yugurish, uloqtirish va hokazolar.

Qobiliyatlar nomi ostida ta’lim jarayonida rivojlanadigan shaxsning psixik xususiyatlari tushuniladi. Bunda shaxsning bir tomondan faol o‘quv-bilish faoliyati natijasi sifatida yuzaga chiqsa, boshqa tomondan bu faoliyatni o‘muvaffaqiyatli bajara olishning yuqori darajasini ifodalaydi. Qobiliyat – bu mehnat yoki bilish faoliyatining u yoki bu sohasida shaxs muvaffaqiyati garovi.

O‘qitish – o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir.

O‘qish – bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘quvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g‘ayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi.

5.3. Ta’lim jarayoning mohiyati

Ta’lim – o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyati jarayoni bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishni amalga oshiradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yuzaga chiqadi. Ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga, bundan tashqari ularning fikrlash va ijodiy faoliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ekan, bu tushunchalarning mohiyatini ochishga e’tibor qaratish lozim.

Ta’lim berish g‘oyatda murakkab va mas’uliyatli ish, pedagogning ta’lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta’minlashga urinish va harakatlarini saqlashga intilishi o‘rtasidagi ta’limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir.

Ta’lim maqsad, mazmun, o‘qituvchining shaxsi, talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o‘qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgiladani. Bunda o‘qituvchi talabalar ishining borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o‘zining ko‘rsatmalari, yo‘naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hakozalar bilan ularning o‘quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko‘ra ta’lim **birinchidan**, o‘qitish, **ikkinchidan**, o‘qitishni, ya’ni, o‘qishni va shu bilan birga, uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Ta’lim ma’lum qonuniyatlarga bo‘ysinadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonunlar ta’lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o‘rtasidagi umumiy, muhim zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta’limning alohida komponentlari, ya’ni uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish o‘qituvchining sifatli va samarali amalga oshiruvini ta’minlaydi.

Ta’lim natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta’minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma’lumotni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta’lim jarayoni ma’lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va u shaxsning qarashlari, e’tiqodi xatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, pirovardida esa uning xulqiga ta’sir etadigan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar majmuasining shakllanishiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkil etuvchilar (ko‘rsatkichlar)ning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. Dinamik tizim deyishiga sabab, ta’limni va ta’lim jarayonini tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo‘lib, takomillashtirilib boriladi.

Bunda tashkil etuvchilar quyidagilar: maqsad, mazmun, shakl, usul, uslub, o‘qituvchi shaxsi, talabalardagi dastlabki bilim, o‘qitishning moddiy-texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta’lim jarayonlarini bir butunlikda, ya’ni yagona yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta’lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi.

5.4. O‘qitish va o‘rganish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi

Inson faoliyatining hamma asosiy turlari (mehnat, fan, san’at, o‘yin, sport) uning tevarak-atrof olamni va o‘z-o‘zini bilish bilan bog‘langan. O‘qish tevarak-atrofdagi olamni bilishning maxsus tashkil etilgan va o‘qituvchi rahbarlik qiladigan alohida turidir. Bu jarayonning mohiyati – bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, o‘quv fanlari mazmunini o‘zlashtirib olish va bilish kuchlarini rivojlantirishdir.

O‘rgatuvchi kishilarning faoliyati o‘rgatuvchi faoliyat yoki o‘qitish deb, o‘qiydiganlarning faoliyati esa o‘quv faoliyati yoki o‘qish deb ataladi.

O‘rgatuvchilik faoliyati yoki o‘qitish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi va ularni mashg‘ulotlar uchun uyushtirishda, diqqati, tafakkuri, xatti-harakati va hokazolariga rahbarlik qilishda, ularning faoliyatini tobora murakkablashtirilgan vazifalarni izchillik bilan qo‘yib borish, tekshirib borish va hokazolarda o‘z ifodasini topadi.

O‘quv faoliyati yoki o‘qish bilim, ko‘nikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-g‘ayratini talab etadi, hamda ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchining oqilona biror maqsadga qaratilgan rahbarligi va o‘quvchilarning esa, faol ongli ishtirokisiz, ta’lim jarayonida ijobiy natijalar bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim jarayonining bu ikki tomoni (o‘qitish va o‘qish) bir maqsad: ta’limning xilma-xil vositalari va metodlaridan foydalangan holda o‘quv-tarbiyaviy materialni egallab olish maqsadi bilan birlashgandir.

5.5. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi

O‘qitish o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘quv materiallarini rejali ravishda bilib olish jarayonidir. Bu jarayonni bilish bosqichidan iborat bo‘lgan tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. O‘quvchi bilmaslikdan bilish, uddasidan chiqa olmaslikdan uddulay olish, malakalar hosil qilish yo‘lidan borib, bu bosqichlardan o‘tishi kerak.

O‘qitish jarayoni 4 ta asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni idrok etish;

uni faxmlab olish tushunchalarning hosil bo‘lishi;

bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi;

hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash.

Har bir tarkibiy qism uchun o‘quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o‘qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

O‘rganilayotgan materialni idrok qilish. O‘quvchilarning o‘rganilayotgan (yoki o‘rganilishi lozim bo‘lgan) materialni idrok qilishini tashkil etar ekan, o‘qituvchi ularning hayotiy tajribasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda material to‘g‘risida umumiy tasavvur hosil qilib, oldindan uni butunligicha tushuntiradi va ko‘rsatadi.

O‘rganilayotgan materialni faxmlab olish. O‘rganilayotgan ob’yekt haqidagi umumiy tasavvur asosida uni tushunishni ta’minlovchi, asta-sekin chuqurlashib

boruvchi anglash jarayoni davom etadi. O‘qitishning bu zvenosining maqsadi ilmiy tushunchalarni tarkib toptirishdir. **Bilimlarni mustahkamlanishi, ko‘nikma va malakalarnining hosil bo‘lishi**. O‘quv materialini idrok etish va faxmlab olish jarayonida o‘zlashtirish keyinchalik uni mustahkamlash va takomillashtirishni talab etadi.

Bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash. Bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash jarayoni ta’limning yakuniy mustaqilligini asta-sekin va izchillik bilan oshirib borishni talab etadi.

Ma’lumki, bilish faoliyatining sub’yekti o‘quvchi sanaladi. Shu bois, ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega ta’lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga; o‘quvchilar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan.

Ta’limda o‘quvchilarning faoliyati haqida gap borganda o‘quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishida namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar o‘quvchilarning faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlab qolmay, balki, uning hayotiy faoliyati, ya’ni, o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun harakterlidir. Shu sababli, bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O‘quvchining bilish faoliyatining yana bir farqli xususiyati uning kechish xarakteridir. O‘quvchining bilish faoliyati maqsadi ham, mazmuni ham, usullari ham dasturga kiritilganligi bois, o‘quvchi jalb etilayotgan ta’lim jarayoni turlicha kechishi; sub’yekt (o‘quvchi) kuchi faolligi, mustaqilligi, turlicha sarf etilishi bilan borishi mumkin. Ayrim hollarda, uning jarayoni taqlidiy reproduktuv, boshqalarda izlanishli, uchinchilarida ijodiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Aynan faoliyat jarayonining kechish xarakteri – uning oxirgi natijasi egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalari xarakteriga ta’sir etadi. O‘quvchining bilishi xuddi yetuk ilmiy bilish yo‘li kabi haqiqat o‘qituvchi tomonidan fandagi faktlar, ilmiy kashfiyotlarni o‘rganish ularning tarixiy yo‘lini o‘zlashtirish yordamida kechadi.

Insoniyatning umumlashtirilgan bilimlari tizimi ta’lim davomida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi va ular ilmiy haqiqat tashuvchilariga aylanadilar.

Insonning asl ijtimoiy mulki sifatida faoliyatining muhim belgisi faoliyat sub’yektining atrof-muhiti bilan o‘zaro ta’siri va muhim boyliklar yaratuvchi faoliyatining qayta yaratuvchi xarakteridir. O‘quvchilarning ta’lim muassasasidagi bilish faoliyatining xarakteri shundaki, uning natijasi hamma vaqt ham moddiylashgan mahsulga ega emas va o‘quvchining o‘zi hamma vaqt ham his etmaydi – javobi uchun yomon baho olgan o‘quvchining xafa bo‘lib, “men o‘qidim, o‘rgandim! Adolatdan emas” degan fikrni qat’iy takrorlashi bejiz emas.

Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolani maktabga, darslarga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijodiy munosabatiga ko‘maklashadi.

O‘quvchilarning bilishga qiziqishi, motiv sifatida rivojlanishi, o‘ziga xos uzoq yo‘liga ega bo‘lishi mumkin. Ayrim o‘quv-harakatlari ta’sirchisidan to butun

faoliyatning ustuvor motivigacha. Hatto, o‘qishning etakchi motivlaridan biriga aylanib, qiziqish shaxsning ma’naviy boyishiga ko‘maklashuvchi umumiy yo‘nalganligining ahamiyatli qismiga aylanishi mumkin. Har qanday motiv singari bilishga qiziqish ajralgan holda rivojlanmaydi, uning tiklanishi boshqa motivlar bilan birga kechadiki, qiziqish ular bilan boyiydi va ularga ijobiy ta’sir etadi.

Bilishga qziqishning ijtimoiy motivlar bilan o‘zaro aloqasi jiddiy bo‘lib, ular orasida o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan muloqot alohida rol o‘ynaydi. Ijtimoiy motivlar keng, uzoqlashgan, istiqbolli, ularning lisoniy ifodasi boshlang‘ich sinflardayoq paydo bo‘ladi.

Axloqiy motivlar – juda muhim guruh, ularda Shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari avvalo, odamlarga, faoliyatga, o‘zining jamiyatdagi va jamoadagi o‘rniga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari – yana bir guruh. O‘quvchilarni o‘qishga real undaydi. Umuman, maktabga ijobiy munosabat zamirida yotadi.

O‘quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leontyev), shunchaki hosil bo‘lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero u bilish, o‘quv predmetiga nisbatan munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O‘quvchiga “yangi narsani bilish”, “o‘zini bilimga ilgarilashni ko‘rish”, “ilmga sho‘ng‘ish” o‘zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq.

Ta’limning bu motivlarini real ahamiyati ortiqcha baholash, qiyin aynan ular o‘quvchilar o‘zini o‘qish uchun “kashf etadi”. Bilishga qiziqish o‘quvchining faolligi, ta’limda mustaqilligi asosida yotadi. Maktabga umuman muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsning barqaror qirrasi, sifati bo‘lib, ko‘pincha bilish faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunday ayniqsa, o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqadigan rag‘batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim mazmunining bilishga qiziqishni uyg‘otuvchi rag‘batlashlariga quyidagilar kiradi: o‘quv materialining yangiligi, bilimlar mazmuniga tarixiy yondoshuv, chetlab o‘tish, zamonaviy fan yutuqlarini ko‘rsatish, bilimlarning amaliy roli, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va o‘qituvchi, o‘quvchilar munosabatlari va boshqalar.

5.6. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari

Ta’limning mazmunli tamoyillari

- fuqarolik;
- ilmiyligi;
- tarbiyalovchi ta’lim;
- fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi (ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi);
- tabiat bilan uyg‘unligi;
- madaniyat bilan uyg‘unligi;
- insonparvarligi.

Ta’limning tashkiliy-metodik tamoyillari

- ta’limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;
- ta’limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta’limda ko‘rgazmalilik;
- ta’limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta’limning tushunarliligi;
- guruhli va individual ta’lim birligi;
- ta’limning o‘quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola Shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta’limning umumiy qonuniyatlari

1. Ta’lim maqsadi jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasiga bog‘liq.

2. Ta’lim mazmuni ta’limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur’ati, o‘quvchilarning yosh imkoniyatlari, ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, Shuningdek, o‘quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq.

3. Ta’lim sifati (samaradorligi) avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o‘rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o‘quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta’sir ko‘rsatish hamda o‘quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta’lim vaqtiga bog‘liq.

4. Ta’lim metodlari samaradorligi metodlarni qo‘llashda bilimlari va ko‘nikmalari, ta’lim maqsadi, ta’lim mazmuni, o‘quvchilarning yoshi, ta’lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta’minot hamda o‘quv jarayonini tashkil etishga bog‘liq.

5. Ta’limni boshqarish mahsuldorligi ta’lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta’sir ko‘rsatishlarning asoslanganligiga bog‘liq.

6. Ta’limni rag‘batlantirish samaradorligi ta’limning ichki rag‘batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag‘batlariga bog‘liq.

VI BOB. TA’LIM JARAYONI YAGONA TIZIM SIFATIDA. TA’LIM QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

6.1. Ilmiy-texnik jarayon va ta’lim mazmuni

Ta’lim mazmuni uning vazifalaridan kelib chiqadi. Ta’lim mazmuni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimidir. O‘quvchi ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash jarayonida aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantiradi, dunyoqarashi, axloqi shakllanadi, hayotga, mehnatga tayyorlanadi. Ta’lim mazmuniga insoniyat to‘plagan barcha ijtimoiy tajribalar kiradi. Uning mazmuni, xajmi, ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan-texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ya’ni, uning mazmuniga tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri haqidagi bilimlar, hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishdagi yangiliklar kiritiladi. Ta’lim mazmuni o‘zgaruvchan, u doimo yangilanib turadi.

Bugungi kunda, ta’lim mazmuni O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» da belgilangan vazifalardan kelib chiqadi. Ta’lim mazmuni jamiyat umumiy o‘rta ta’lim oldiga qo‘yayotgan talab-buyurtma asosida belgilanishi kerak. Ya’ni shakllanayotgan inson nimani bilishi, o‘rganishi, qanday insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi haqidagi savollarga javob berishi kerak. Respublikamizda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish borasida bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarorida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Ta’lim jarayoni o‘quvchilarda bilimdonlik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tirishqoqlik, tashabbuskorlik, ziyraklik, intizomlilik, qiziquvchanlik kabi xislatlarni shakllantiradi. Tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuriga munosabati ham ta’lim mazmunini belgilashga, ta’lim olishga yordam beradi. O‘quvchi o‘zida shakllangan munosabatlarga asoslanib tevarak-atrofdagi narsalarni, voqyealarni baholaydi, oq-qorani ajratadi, ilmiy va g‘ayriilmiy hodisalarning farqiga boradi.

Ta’lim mazmuniga kiritilgan o‘quv materiali yuqori ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, ta’lim jarayonining imkoniyatlariga mos bo‘lishi (ta’limni tashkiliy shakllari, qonuniyatlar, tamoyillari, usullari, o‘quvchilarning umumiy rivojlanishi darajalariga, maktabning o‘quv-metodik hamda moddiy holati hisobga olinishi) lozim.

Shuningdek, ta’lim mazmunini belgilash uchun maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari va fanlararo aloqa hisobga olinishi shart.

Ta’lim mazmuni ilmiy asoslagan DTS, o‘quv rejalari, dasturlari va darsliklarida ifodalanadi. Xususiy metodika-nuqtai nazaridan ta’lim aynan bir o‘quv fani asosida o‘qitish va o‘qish faoliyatlarini birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Pedagogika fani nuqtai-nazaridan qaralganda esa «ta’lim» o‘qituvchi va o‘quvchi ta’sirining majmui bo‘lib, uning natijasida o‘quvchining aqliy salohiyati (intellekti), ruhiyatini rivojlantirish ma’nosini bildiradi.

Bilim tabiatda, jamiyatda, inson ongida amal qilinadigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko‘rinishidir. Bilimlar qarash, g‘oya, ta’rif, qoida, aniqlik, aksioma, teorema, omil va boshqa shakllarda beriladi. Ta’lim jarayoni tarkibiga ko‘ra o‘ta murakkab didaktik hodisadir. Agar bu jarayonga o‘qituvchi faoliyati nuqtai-nazaridan yondoshsak, o‘qitish jarayoni, o‘quvchilar faoliyati nuqtai-nazaridan esa, o‘quv jarayoni iboralari ishlatiladi.

O‘qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o‘qituvchilik kasbiga maxsus tayyorlanadi.

Ta’lim ma’lum bosqichlar asosida amalga oshiriladi: o‘rganiladigan narsa-hodisalarni bevosita yoki bilvosita idrok etish; oldin o‘rganilgan bilimlarni xotiraga, ya’ni esga tushirish; bilimlarni amalda qo‘llash, fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

Hozirgi an’anaviy maktabda asosiy e’tibor bilimlarni o‘zlashtirishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish

tajribasining eng zaif tomonidir. Ma’lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta’lim jarayonini tashkil etish yo‘li bilangina har tomonlama rivojlangan yoshlarni yetishtirib chiqarish mumkin. Ta’limning asosiy mazmunini uning vazifalari oydinlashtirib beradi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichiga ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarda hayotning ma’nosi, jamiyatda insonning tugtan o‘rni, ta’lim-tarbiyasi, odob-axloqi haqidagi xikmatli fikrlar borki, bular bugungi xalq ta’limi taraqiyoti uchun va milliy maktab yaratishi borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, imon-e’tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do‘stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

6.2. Hozirgi vaqtda ta’lim mazmunini belgilashga doir asosiy g‘oyalar

Ta’lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma’naviy rivojlanishi darajasiga qo‘yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir. Hozirgi sharoitda o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta’lim mazmuni (o‘quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi:

- insoniylashtirish;
- insonparvarlashtirish;
- integratsiyalashtirish;
- standartlashtirish;
- ko‘p bosqichlilikka asoslanish;
- amaliylashtirish;
- axborotlashtirish;
- individuallashtirish;
- uzluksizlik.

Maktab ta’limi mazmunini shakllantirish quyidagi umumiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

1. Ta’lim mazmunining elementlari barcha bosqichlarda jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili.
2. Ta’limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili.
3. Ta’lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyili.
4. Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili.
5. Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili.
6. Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili.
7. Ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili.
8. Ta’lim mazmunining o‘quvchi yoshi imkoniyatlariga mosligi tamoyili.

Umumiy o‘rta ta’limning mazmunini shakllantirish ko‘rib chiqilgan tamoyillarini zamonaviy o‘rta ta’lim maktablar uchun tanlab olish quyidagi mezonlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- erkin fikrlovchi shaxsning rivojlanishi va uning madaniyatini shakllantirish masalalari mazmunini yaxlit aks ettirish;
- ilmiy va amaliy ahamiyati;

- ta’lim mazmunining murakkabligi, o‘quvchilar imkoniyatlarining mavjud o‘quv dasturlariga mosligi;
- ta’lim hajmining uni o‘rganishga ajratiladigan vaqtga mosligi;
- maktab hamda litseylar bazasining zamonaviy talablarga javob berishi;
- umumiy o‘rta ta’lim mazmunini qurishda xalqaro tajribalarni hisobga olish.

6.3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta’lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko‘rsatiladi:

- umumiy nazariy bosqich;
- o‘quv bosqichi;
- o‘quv materialini o‘zlashtirish bosqichi, ya’ni, ta’lim mazmunining o‘quv rejasi, o‘quv dasturi va darsliklar kabi me’yoriy hujjatlarda o‘z ifodasini topishi.

Umumiy o‘rta ta’lim mazmuni davlat ta’lim standarti, o‘quv rejalari, o‘quv dasturi va darsliklar mazmunida namoyon bo‘ladi.

O‘quv rejasi – davlat hujjatidir. Unga barcha umumta’lim maktablari so‘zsiz amal qiladi. Bu hujjatda sinflar bo‘yicha o‘rganilishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va shu fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatiladi. Bu hujjat maktabning yagona o‘quv rejasi hisoblanib, u xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Alohida aniq bir fanning o‘quv rejasi – shu fanni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatidir.

O‘quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o‘quv rejasi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib, u namunaviy va amaliy o‘quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tayanch o‘quv rejasi davlat ta’lim standarti tarkibiy qismi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Maktablarning namunaviy o‘quv rejalari tayanch o‘quv rejasi asosida tuziladi va O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo‘ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o‘quv rejalari ishlab chiqiladi.

O‘quv rejasi me’yoriy hujjat hisoblanib (ta’lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

- o‘quv yili, chorak (semestr)lar va ta’tillarning davomiyligi;
- ushbu ta’lim muassasasida o‘rganiladigan o‘quv fanlari tartibi;
- o‘qish yillari bo‘yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo‘yicha yaxlit ta’lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o‘rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o‘rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda Shu kabilarning davomiyligi.

O‘quv rejasida, yana shuningdek, aniq bir o‘quv muassasasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha fakultativ va majburiy mashg‘ulotlar aks ettiriladi.

O‘quv fan dasturi har bir fan uchun alohida o‘quv dasturi tuziladi. Dastur o‘quv rejasiga asoslanadi. Fanning maqsadidan, o‘quv rejasi bo‘yicha ajratilgan soat va bilim hajmi uning tizimi mavjud jamiyatning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini o‘zida aks ettiradigan davlat hujjatidir. O‘quv dasturi muayyan o‘quv fani bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni, muhim bilimlarni o‘rganilishi bo‘yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o‘rganilish darajasini yorituvchi me’yoriy hujjat.

O‘quv dasturida bir sinfda alohida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda fanning mazmuni, mavzu ketma-ketligi ikkinchi mavzu birinchini to‘ldirishi, izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko‘rsatiladi. O‘quv dasturida shu fan bo‘yicha o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar kichik mavzularda ifodalanib, mavzu maqsadi qisqacha izohlanadi.

Dasturda o‘quv materiali ta’limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo‘yicha taqsimlanishi asoslab berilgan. Dasturda ko‘rsatilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilar tomonidan to‘la o‘zlashtirilishi o‘qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O‘quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo‘lishi mumkin.

Namunaviy o‘quv dasturi u yoki bu ta’lim sohasiga nisbatan davlat ta’lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- ushbu fanni o‘rganish maqsadlari, o‘quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o‘qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o‘rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o‘rganishga o‘qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro‘yxati;
- fanlararo va kurslararo bog‘liqlikni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- o‘quv uskunalari va ko‘rgazmali qo‘llanmalar ro‘yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o‘quv dasturlari Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo‘ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litseylarning pedagogik kengashi tomonidan ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta’riflanadi, o‘quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta’minlash imkoniyati, o‘quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o‘quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o‘quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo‘lishi, u yoki bu nazariyalarni o‘rganishga mualliflik yondashuvi, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo‘lishi kerak va ular mavjud bo‘lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o‘quv dasturlari o‘quvchilarning erkin tanlovi bo‘yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O‘quv fani ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manbadir.

O‘quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta’limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi.

Fanning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda boblarga bo‘linadi. Boblar katta-katta mavzularga, katta mavzular esa kichik mavzularga bo‘linib, shu mavzu yuzasidai o‘quvchi qanaqa bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi lozim bo‘lsa, uning mazmuni qisqacha ifodalanib beriladi. O‘quv dasturining o‘zini amal qilinishi kerak bo‘lgan prinsiplari mavjud,

1. Dasturning aniq bir g‘oyaga asoslanganligi.

Mustaqil jamiyatimiz taraqqiyotining tamoyillariga asoslangan holda isloh qilingan har bir sohadagi fan, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarda erishilgan yutuqlar darajasini ilmiy asosda aks ettirshi lozim.

2. Dastur ilmiylik prinsipiga asoslanadi.

Har bir ta’lim va tarbiya g‘oyalari, ilmiy jihatdan tekshirilgan, ishonchli dalillar, kuzatishlar, manbalar va materiallar asosida kiritiladi.

3. O‘QUV dasturi aniq mazmun va mantiqiy g‘oyalarni o‘zida aks ettirishi lozim.

Dasturda fanning maqsad va vazifalari, undagi bilim asoslari misollar va masalalar orqali o‘rgatiladi. Aks holda, o‘rgatilayotgan bilim asoslarini nazariy jihatdan tushunish qiyin bo‘ladi.

4. Nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi. O‘quvchilar olgan nazariy bilimlarini, amalda qo‘llay olishi ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

5. O‘quv dasturini tuzishda fanning tarixiy saboqlari inobatga olinadi.

Vaqt o‘tishi bilan fan olamida yangi-yangi kashfiyotlar, ma’lum bir ilmiy qonun-qoidalar paydo bo‘lib, fan takomillashib boradi. Dastur fanning kelajakdagi istiqbolini o‘zida qisqacha ifodalaydi.

6. O‘QUV dasturi davlat tomonidan tasdiqlangan reja asosida bakalavr, magistr, litsey, gimnaziya, kollejlarga alohida-alohida tuziladi.

Darslik. Darslik o‘quv jarayonining asosi. Darslik o‘quvchining uydagi muallimi, har bir fanning mazmuni, maqsadi, vazifasi darslikda yoritiladi, darslik, ya’ni, fan ob’yektiv borliq o‘rtasidagi muhim qonuniyatli bog‘lanishlarini aks ettiradi, darslikdagi bilimlar tizimi o‘zaro ichki, mantiqiy bog‘lanishlarga ega bo‘lib, ular didaktika talabiga muvofiq ravishda bayon qilingan. Darslik quyidagi talablarga amal qilgan holda yaratiladi:

1. Har bir o‘quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari, g‘oyaviy yo‘nalishlari tizimli va izchil bo‘lishi talab qilinadi. Ular hayotdan olingan, ishonarli bo‘lishi lozim. Keltirilgan fakt va dalillarning ishonchli bo‘lishi, ular to‘g‘ri tahlil, aniq ta’rif etilish,i tegishli xulosalar chiqarilishi lozim. Shu holdagina o‘quvchilardagi ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib toptiriladi.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

4. Darslikda mavzu sodda, ravon tilda yozilishi, hamda tegishli qoida va ta’riflari berilishi kerak. Darslik ichidagi va muqovasidagi chizilgan rasmlar va bezatilishi o‘quvchining yoshiga, fanning harakteriga mos bo‘lmog‘i zarur.

5. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo‘lishi, ilmiylikka asoslanishi kerak.

Mamlakatimizda pedagogika ilmi ham, amaliyoti ham yangilanib bormoqda. Ma’lumki, har qanday millatning yangilanishi yoshlar tarbiyasidan boshlanadi.

Pedagogika o‘quvchilarning ruhiy, jismoniy, genetik va mintaqaviy o‘ziga xosliklarini to‘liq hisobga olgandagina yuqori samaradorlikka erishishi mumkin.

Hozirgi davrda yaratilayotgan darsliklarning asosiy kamchiligi millatimiz bolalarining psixologik o‘ziga xosliklarini, fikrlash tarzini to‘liq hisobga olishga erisha olinmayotganida, deb bilamiz. Bizning mutaxassislarimiz didaktik vositalar orqali o‘quvchilarga hamma gapni aytib berishga odatlanib qolishgan. Holbuki, o‘quvchini o‘qitish kerak emas, uni o‘zini o‘qiydigan holatga olib kelish lozim. Toki, bolaning o‘zi izlanmas ekan, ta’limda yutuqqa erishish mumkin emas. Demak, yaratilayotgan didaktik vositalar jumboqli xarakterga ega bo‘lishi, o‘quvchilarni o‘ylanishga, izlanishga, sinab ko‘rishga da’vat qiladigan tarzda tuzilishi lozim.

Ta’lim mazmuni va o‘quv dasturlari o‘quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari kiradi.

O‘quv adabiyotlari orasida darslik alohida o‘rin tutadi. Darslik muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manbaa bo‘lib, u mazmuni
va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o‘quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G‘oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo‘lgan darslik ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o‘quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko‘rgazmalilik nuqati-nazaridan estetik xususiyatga ega bo‘lishi kerak.

Darslik bir vaqtning o‘zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo‘lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko‘ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko‘ra ega asosiy tuzilmaga daxl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo‘yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo‘lib, mukammal darsliklarning yetishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o‘qituvchilar va o‘quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.

Darslik o‘quvchilarning ta’lim jarayonida, ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o‘quv materialini to‘la o‘zlashtirishlarini ta’minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo‘lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- motivatsion vazifa bu, vazifa o‘quvchilarni ushbu fanni o‘rganishga yo‘naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag‘bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;
- axborot vazifasi o‘quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;

- nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi ta’lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o‘quvchilarda o‘zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo‘lgan ko‘nikma, malakalarni shakllantirish uchun o‘rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.
- muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta’limning boshqa vositalari (xaritalar, ko‘rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;
- rivojlantiruvchi – tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy ta’sir ko‘rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;
- o‘qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo‘lgan konspekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko‘rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko‘zga tashlanadi.

Ta’lim mazmuni o‘quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o‘quv qo‘llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo‘yicha masalalar to‘plamlari, georafiya, biologiya bo‘yicha atlaslar, til bo‘yicha mashqlar to‘plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O‘quv qo‘llanmalari darslikning ba’zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo‘ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

6.4. Davlat ta’lim standartlari

Ta’limni standartlashtirish – insoniyatning ijtimoiy ongida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar tufayli kelib chiqqan zaruratdir. Chunki, axborotlar almashinuvi maksimal chegaraga yetgan davrimizda dunyoning bir burchagida yashayotgan kishi ikkinchi qutbda sodir bo‘layotgan voqyealarni bilibgina qolmay, ularning ne boisdan aynan shu tarzda ro‘y berganini anglashi va his qilishi zarurdir. Bir sayyorada bir vaqtda yashab turib, bir-birini tushunmaslik ba’zan insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham iqtisodiy ahvoli va taraqqiyot darajasi turlicha bo‘lgan davlatlarda yashovchi barcha kishilarning fikrlash darajasini iloji boricha bir xil holatga keltirish extiyoji paydo bo‘ldi. Bu holat ta’lim standartlari deb atalmish tushunchani yuzaga chiqardi.

Standart – ta’limda yaratilgan me’yoriy reja, dastur, darsliklarni o‘zlashtirish ekvivalenti, ya’ni ta’lim mazmunini o‘zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda o‘quvchini haddan tashqari zo‘riqtirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya’ni u o‘quvchi yoshiga mos, uni o‘zlashtirishga qurbi etadigan darajada bo‘lishi kerak. Bunda albatta, ta’lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim. Ta’lim standartlarini o‘zlashtirishda shaxsga muhim ahamiyat berilishi, unga yakka tartibda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Standartlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishdan oldin o‘ta puxtalik bilan tajriba-sinovdan o‘tkaziladi va shu asosda bosqichma-bosqich o‘quv jarayoniga kiritib boriladi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalari oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo‘yayotgan ekan, o‘sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo‘lgan ijtimoiy sifatlarining minimal chegarasini ham ko‘rsatib berishi

tabiiydir. Tarbiyalanuvchi yoki ta’lim oluvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka yoxud ma’naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat-davlat ta’lim standarti hisoblanadi. Standartlarda belgilangan natijalarga erishilmasa, yo o‘sha ko‘rsatkichlarni egallay olmagan bola, yoxud yoshlarda muayyan miqdordagi bilim, ko‘nikma, malaka va ma’naviy sifatlarni shakllantira olmagan pedagogikani mukammal deb bo‘lmaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat ta’lim standarti (DTS) nazorat vositasi, ayni vaqtda, ta’lim muassasalarida ko‘zlangan ko‘rsatkichlarni qo‘lga kiritish uchun zarur bo‘lgan sharoitni belgilash o‘lchovi hamdir. Davlat ta’lim standartlarining ko‘rsatkichlari qo‘lga kiritish uchun zarur bo‘lgan sharoitni belgilash o‘lchovi hamdir. Davlat ta’lim standartlarining ko‘rsatkichlari amaldagi mavjud ta’lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan o‘quvchiga singdirilishi lozim bo‘lgan sifatlarning jahon bo‘yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta’lim standarti. Ta’lim mazmunining rivojlanishida ko‘zga tashlanayotgan zamonaviy tendensiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o‘rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

- turli ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta’minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;
- O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta’lim amaliyotida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini rivojlanishi tendensiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta’lim standarti:

- ta’lim olish shaklidan qat’iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;
- o‘quv fani bo‘yicha yakuniy ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;
- ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta’kidlab ko‘rsatish lozim. Bunday standartlar umumiy o‘rta maktabda o‘quvchilarga beriladigan ta’lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta’lim mazmunining majburiy minimumi o‘quv dasturlari va darsliklarda to‘liq o‘z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko‘ra o‘quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal miqdori belgilanadi.

VII BOB. PROFESSIONAL TA’LIM

7.1. Professional ta’lim mazmuni

Prezidentimiz tomonidan 2019-yilning 6-sentyabrida «Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni, ushbu muhim hujjat ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 466-son Qarori qabul qilinib, professional ta’limni tashkil etish va amalga oshirish tartiblari belgilab berildi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo‘ljallangan. Shuningdek, qarorda professional ta’limning maqsadi bo‘lib, mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari uchun raqobatbardosh kadrlarni professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida ta’lim olishga bo‘lgan talablarini qondirish professional ta’limning maqsadi hisoblanadi.

7.2. Professional ta’limning vazifalari

Nizomga ko‘ra quyidagilar professional ta’limning vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan, kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;
- mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini hamda o‘qitishning kredit-modulь tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- ta’lim olish bilan birgalikda, o‘quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o‘z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;
- mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o‘stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida, o‘quv jarayoniga innovatsiya shakllar, texnologiyalar

va ishlanmalarni faol qo‘llab, professional ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro hamkorligini ta’minlash;
- shaxslarning professional ta’lim muassasalarini ixtiyoriy tanlashi va kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim olish, shuningdek, «Hayot davomida ta’lim olish» prinsipi asosida kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashdan o‘tish imkoniga ega bo‘lish sharoitlarini yaratish;
- professional ta’lim olish orqali shaxsning intellektual, madaniy va ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini qondirish, o‘quvchilarda vatanparvarlikni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas’uliyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirish.

Nizomning 42-bandi o‘quvchilarni professional ta’lim muassasalarida o‘qitish professional ta’lim tizimining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasi bilan o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatilgan, jumladan:
- professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining korxonalarda tizimli asosda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tashi uchun shart-sharoitlar yaratish, ish beruvchilarni o‘quv jarayoniga, kasblar va mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini ishlab chiqishga jalb etish;
- professional ta’lim sohasida o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar natijalarini professional ta’lim muassasalarida tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish;
- ish beruvchilar bilan birga ishlab chiqarish uchastkalari, qo‘shma va unitar korxonalar tashkil etish asosida malakali kadrlarni tayyorlashning dual tizimini rivojlantirish;
- tashkil etilgan ishlab chiqarish uchastkalari, qo‘shma va unitar korxonalarda o‘quvchilarni tovar mahsulotlar ishlab chiqargan holda mehnat faoliyatiga va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;
- professional ta’lim muassasalari bitiruvchilariga bitiruv malakaviy ishlari mavzularini taklif etish jarayoniga korxona, tashkilot va boshqa ish beruvchilarni jalb qilish hamda ushbu bitiruv malakaviy ishlarida erishilgan natija va echimlarni yoki ijrochi-bitiruvchilarning o‘zlarini bunday loyihalarni joylarda amalga oshirishda ishtirokini ta’minlash;
- ishlab chiqarish ta’limi ustalari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonlari bevosita ishlab chiqarishda amalga oshirilishiga erishish, ishlab chiqarishdagi malakali mutaxassislar ishlab chiqarish vakillarini ta’lim jarayoniga jalb etish.

7.3. Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq dual ta’limni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:
- dual ta’lim tashkil etiladigan tashkilotlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar

va idoralarning iqtisodiyot tarmoqlarida o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish;
- tashkilot va professional ta’lim muassasasi hamda tashkilot va o‘quvchi o‘rtasida shartnoma tuzish;
- hududlarda kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish;
- tegishli ta’lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;
- mehnat bozorida o‘rta bo‘g‘in kadrlarga bo‘lgan talab va takliflarni doimiy o‘rganib borish;
- dual ta’lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

Shuningdek, qarorning 2-bob, 8-bandida dual ta’limni joriy etish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirilgan. Unga ko‘ra, dual ta’limni joriy etish bo‘yicha tashkilot va professional ta’lim muassasasi o‘rtasida, o‘quvchi va tashkilot o‘rtasida rasmiylashtiriladigan shartnomalarning namunasi vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Tashkilotga bir yoki bir nechta professional ta’lim muassasasi bilan va professional ta’lim muassasasiga ham bir yoki bir nechta tashkilot bilan shartnomalar rasmiylashtirishiga ruxsat beriladi.

Tashkilotda o‘quvchilarning dual ta’lim dasturi bo‘yicha nazarda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakani egallashlari uchun yetarli shart-sharoitlar mavjudligi professional ta’lim muassasasi tomonidan shartnoma rasmiylashtirishdan kamida bir hafta oldin o‘rganilib, tegishli xulosalar tayyorlanadi.

Professional ta’lim muassasasi tashkilotga ta’lim olmoqchi bo‘lgan o‘quvchilarni tavsiya etishi mumkin.

Tashkilot bilan o‘quvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi o‘quvchi yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan taqdirda, professional ta’lim muassasasi o‘quvchini o‘quvchilar safiga qabul qiladi.

Qarorning 3-bobida tashkilot, professional ta’lim muassasasi va o‘quvchilarning vazifalari, huquqlari hamda majburiyatlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, unda tashkilot, uning xuquq va majburiyatlari, professional ta’lim muassasasi, uning xuquq va majburiyatlari yoritilgan. Qarorga ko‘ra, **tashkilot quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:**
- mashg‘ulotlarning nazariy qismi o‘qitilishi yuzasidan professional ta’lim muassasasiga murojaat qilish;
- dual ta’lim sifatini oshirish yuzasidan professional ta’lim muassasasiga takliflar berish;
- normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularning loyihalarini ishlab chiqish yuzasidan takliflar berish;
- bir nechta professional ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.

Tashkilot qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Tashkilot quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:
- mashg‘ulotlarning nazariy, o‘quv va amaliy qismini professional ta’lim muassasasida olib borish uchun sharoit yaratish;
- o‘quvchilarni mehnat qonunchiligi asosida ishga qabul qilish;

- o‘quvchilarni tashkilotda ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismi davrida aniq ish joyi va zarur jihozlar bilan ta’minlash;
- o‘quvchilarni tashkilot ustavi, ichki tartib-qoidalari, tibbiy (sanitariya), yong‘in xavfsizligi qoidalari hamda boshqa talablar bilan tanishtirish;
- o‘quvchilarga o‘z ustaviga muvofiq amaliy jarayonlarda qatnashishga ruxsat berish;
- o‘quvchilar kundaligi yuritilishini ta’minlash;
- professional ta’lim muassasasi bilan birgalikda dual ta’lim amalga oshirganligi bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash.

Tashkilot qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

Professional ta’lim muassasasi:

- tashkilot bilan birgalikda o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilish boshlanishidan kamida bir oy oldin dual ta’lim bo‘yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi;
- tashkilot bilan birgalikda kasb va mutaxassisliklar bo‘yicha tegishli vazirliklar
  va idoralar bilan kelishgan holda tasdiqlangan ta’lim dasturlari asosida dual ta’lim bo‘yicha o‘quv-metodik hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- tashkilot bilan dual ta’lim muddati hamda o‘quvchilarning ro‘yxatini tasdiqlaydi;
- o‘quvchi va tashkilot o‘rtasida dual ta’lim bo‘yicha tuzilgan shartnomalarni ro‘yxatga oladi;
- qonun hujjatlariga muvofiq shartnomasi mavjud o‘quvchilarni dual ta’lim bo‘yicha guruhlarga qabul qilishni tashkil etadi;
- dual ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarni tashkilotga yuborish, o‘quvchilarning har bir guruhiga ishlab chiqarish ta’limi ustasi yoki o‘qituvchini buyruq asosida biriktiradi;
- dual ta’lim dasturini amalga oshirishni ta’minlaydi;
- tashkilot bilan o‘quvchilarni baholashni va yakuniy davlat attestatsiyasini belgilangan tartibda tashkil etadi;
- tashkilot bilan kelishgan holda dual ta’lim yuzasidan hisobotlarni tayyorlaydi va tegishli vazirliklar va idoralar hamda Kasbiy ta’limini rivojlantirish
  va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalariga taqdim etadi;
- dual ta’lim bo‘yicha tegishli vazirliklar va idoralarning buyruqlari va ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajaradi.

Professional ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Professional ta’lim muassasasi:

- dual ta’limning amaliy qismi o‘tilishi bo‘yicha tashkilotga murojaat qilish;
- dual ta’lim sifatini oshirish yuzasidan tashkilotga takliflar berish;
- dual ta’lim jarayonini tashkil etish uchun tuzilgan shartnomalarga tomonlar bilan kelishgan holda o‘zgartirishlar kiritish;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z nomidan yuridik shaxslar bilan vakolati doirasida dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha shartnomalar va boshqa hujjatlar tuzish;
- dual ta’lim bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni professional ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga va ta’lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o‘quv-texnik vositalar, mebellar bilan ta’minlashga, o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari, xodimlarni ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyati samaradorligini oshirishni rag‘batlantirishga sarflash huquqiga ega.

Professional ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

7.4. Professional ta’lim muassasasi majburiyatlari

Professional ta’lim muassasasi o‘ziga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari faoliyatini nazorat qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasida kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj asosida dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha tashviqot va targ‘ibot ishlarini olib borish;
- o‘quvchi kundaligini nazorat qilish.

Professional ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

O‘quvchilar:

- tashkilotning ustaviga muvofiq ish jarayonlarida belgilangan tartibda qatnashadi;
- o‘quv mashg‘ulotlariga nazariy, o‘quv va amaliy qismi bo‘yicha qatnashadi;
- dual ta’lim jarayoni so‘ngida yakuniy davlat attestatsiyasini topshiradi.

O‘quvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

O‘quvchilar quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim olish;
- o‘quv, texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlari axborot-kutubxonasi fondidan, axborot-kutubxona o‘quv zali va boshqa o‘quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, professional ta’lim muassasasiga qarashli tibbiy va texnik jihozlardan bepul foydalanish;
- tashkilotda amaliyot bazalaridan, tashkilotning moddiy-texnik bazasidan foydalanish;
- tashkilotdagi mehnat va jamoat ishlarida qatnashish;
- dual ta’lim vaqtida tashkilotdan shartnomaga muvofiq ish haqi olish.

O‘quvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- tashkilot va professional ta’lim muassasasida belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilish;

- dual ta’lim jarayonida professional ta’lim muassasasi va tashkilot tomonidan berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarish;
- o‘quvchi kundaligini o‘z vaqtida yuritib borish va hisobotlarni topshirish.

O‘quvchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

VIII BOB. TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI

8.1. Ta’lim metodlari va usullari tushunchalari

Ba’zi didakt metodistlar ta’lim metodlarini o‘quvchilarni bilmaslikdan bilishga borish yo‘li, ayrim olimlar esa, ularni o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘zaro bog‘lovchi metodlar, deb qarashadi. Ta’lim metodlarini o‘quv ishlari majmui, shuningdek, ta’lim mazmuni shaklida qarash g‘oyasi ham bor. Bu qarashlarning qay biri asosida ta’lim metodlarining mohiyati, o‘quv-tarbiya jarayonidagi funksiyalarini batafsilroq tasavvur etish mumkin? Didaktikada hali ham eng munozarali muammolardan biri, ta’lim metodlari tasnifi masalasidir.

Ularni ta’lim manbalari, didaktik vazifalar, mantiqiy fikrlash shakllariga qarab tasnif etish moyilligi mavjud. Ta’lim metodlarini tasnif etishda shu yo‘nalishlardan qay biri ma’qul? Yoki ta’lim metodlarini tasnif etishning boshqa mezonlari ham mavjudmi? Adabiyotlarda «o‘qitish metodlari», «o‘qish metodlari» kabi terminlar qo‘llanadi. Shunday bo‘lgach, «ta’lim metodlari» iborasini ishlatishga ehtiyoj bormi? Metod termini yunonchadan tarjima qilinganda ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li, faoliyat usuli ma’nolarini anglatadi. Ta’lim metodi deganda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kutilgan maqsadga yerishishga qaratilgan hamkorlikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Ularga ko‘ra ta’lim mazmunini o‘zlashtirishga mos faoliyat tanlanadi.

Metod so‘zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli deganidir. Bu so‘zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod – eng umumiy ma’nod, maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituvchining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Ta’lim usuli – ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni, metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Xuddi shu metod turli o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Qoida – tanlab olingan metod bilan bog‘liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me’yoriy ko‘rsatmalardir.

Ta’lim metodlari o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, ularsiz ta’lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirish mumkin emas. Ta’lim metodlari ham o‘quv materiali mazmuniga,

binobarin, bolalarning ma’lumoti, taraqiyoti, tarbiyasiga, shuningdek, o‘qitish, o‘qish faoliyatlarining bir-biriga kirishuvi va shu asosda o‘zaro ta’sirning yuzaga chiqishiga yo‘nalgan. Ta’lim metodi vositasida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati o‘zaro muvofiqlashadi. Ta’lim metodi o‘qituvchi va o‘quvchilarning ma’lumot mazmuniga yo‘nalgan faoliyatini tartibga solish yo‘lidir. Ta’lim metodlari tarkiban o‘qitish metodlari va o‘qish metodlaridan iborat.

8.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar

An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin).

O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (I.YA.Lerner va M.N.Skatkin).

Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov).

Ta’limning binar metodlari (M.I.Maxmutov).

Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari tasnifi (YU.K.Babanskiy).

Ta’limning interfaol metodlari.

An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari tasnifi

Og‘zaki: hikoya, suhbat, tushuntirish, ma’ruza, munozara;

Ko‘rgazmali: illyustratsiya, demonstratsiya;

Amaliy: mashq, amaliy, laboratoriya, didaktik o‘yin;

Kitob bilan ishlash: o‘qish, o‘rganish, reja tuzish, konspekt qilish;

Videometod: ko‘rish, o‘rganish, nazorat qilish.

O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi

Ta’lim metodi	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati
Axboriy-retseptiv	O‘quv axborotini uzatish, o‘rganilayotgan ob’yekt bilan o‘quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo‘yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va o‘z-o‘zini nazorat qilish
Evristik (qisman-izlanish)	Muammoni qo‘yish va uni hal etishga doir qadamlar ketma-ketligini rejalatirish. O‘quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo‘yilgan vazifa bilan bog‘liqlikda muammoni hal etish yo‘llarini mustaqil izlash va o‘qituvchining qisman

		ko‘magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi:

- yangi bilimlarni egallash metodlari;
- ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- bilimlarni amaliyotda qo‘llash metodlari;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

Ta’limning binar metodlari

O‘rgatish metodlari	**O‘rganish metodlari**
Axboriy-ma’lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko‘rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuvga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi

O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
O‘quv-bilish faoliyatini motivasiyalash va rag‘batlantirish metodlari.
O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari.

O‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari

O‘quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko‘ra	O‘quv axborotini uzatish va idrok etish mantig‘iga ko‘ra	O‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ko‘ra	O‘quv ishini boshqarish tavsifi bo‘yicha
Og‘zaki, Ko‘rgazmali, Amaliy	Induktiv, Deduktiv	Reproduktiv. Produktiv: muammoli, muammoli-izlanishli, evristik	O‘qituvchi rahbarligida bajariladigan o‘quv ishi. O‘quvchilarning mustaqil ishlari.

O‘quv-bilish faoliyatini motivasiyalash va rag‘batlantirish metodlari

O‘qishga qiziqishni motivatsiyalash metodlari	O‘qishga burch va mas’uliyatni rag‘batlantirish metodlari
Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o‘yinlar. O‘quv munozaralar. Vaziyatlarni yaratish.	O‘rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish. Talab qo‘yish. Rag‘batlantirish. Ogohlantirish.

O‘quv-bilish faoliyatini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari

Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning og‘zaki metodlari	Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning yozma metodlari	Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning amaliy metodlari
Individual so‘rov, ommaviy so‘rov, dasturlashtirilgan so‘rov, og‘zaki o‘z-o‘zini nazorat ishi	Yozma nazorat ishi, dasturlashtirilgan yozma ish, yozma o‘z-o‘zini nazorat ishi	Laboratoriya ishi, laboratoriyali o‘z-o‘zini nazorat ishi

Interfaol metodlar

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da’vat qilish metodlari	**Yangi materialni anglash metodlari**	**O‘rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar**
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O‘n minutlik esse.

8.3. Ta’lim metodlarining mohiyati

1. Og‘zaki bayon metodlari. Hikoya, suhbat, ma’ruza ta’limning bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o‘quvchilarning xotirasiga mo‘ljallab tashkil etiladi, tuzilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o‘qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Hikoya. Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi o‘quv materialini o‘rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o‘tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid omillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya yangi o‘quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o‘qituvchi o‘quv materiali mazmunini turlicha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya-undan darsning oxirida o‘rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniladi.

Ma’ruza. Ma’ruza o‘rta umumta’lim maktablarining yuqori sinflarida, kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarda foydalaniladigan ta’lim metodi bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir o‘qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim omillar, asosiy g‘oya va bog‘lanishlarni yozib olish shaklida amal qiladi. Ma’ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o‘quv materiali xajmiga ko‘ra belgilanadi.

Ma’ruza jarayonida o‘quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o‘qituvchi o‘z nutqini ko‘rgazmali qurol, muammo va topshiriqlar bilan uyg‘unlashtiradi. O‘quv materialiga oid iboralarga izoh berish, ayrim o‘rinlarda o‘quvchilarning o‘zlariga xulosa chiqarishni taklif etish o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatining samarasini oshiradi.

Suhbat. Suhbat o‘qituvchi o‘quvchining o‘zaro ta’siri dialog shaklidagi ta’lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga xos, atroflicha o‘ylangan, bir-biriga bog‘liq savollarni qo‘yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo‘llari bilan o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati o‘zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo‘ladi: evristik suhbat; evristik suhbat o‘quvchilarning tafakkuriga mo‘ljallangan metod bo‘lib, unda o‘zaro ta’sir o‘qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Yevristik suhbat uzoq tarixga ega bo‘lib, undan qadimgi Gresiyada Suqrot mohirona foydalangan.

U hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbati» ham deb yuritaladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud; ijodiy yo‘l bilan o‘quv materialini o‘rganish; o‘zlashtirishning individual harakter kasb etishi.

Katoxezistik suhbat o‘quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo‘ljallab o‘tkaziladi. O‘tkazish maqsadiga ko‘ra katoxezistik suhbatning quyidagicha turlari mavjud:

Yakunlash suhbati. Bunday suhbatda mashg‘ulotda qilingan ishlar bo‘yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

Mustahkamlash suhbati-yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o‘tkaziladi, so‘ngra yangi mavzu intelektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

Takrorlash suhbati ikki yoki undan ortiq mavzu bo‘yicha o‘tkaziladi.takrorlash yo‘li bilan malakalar takomillashtiriladi. Umumlashtiruvchi suhbat katta bo‘lim o‘tilgandan so‘ng, o‘quv boshida, oxirida tashkil etiladi.

Kirish suhbati yangi mavzuni o‘rganishdan oldin o‘tkaziladi. Nazorat suhbati bilimlarni sinab ko‘rish maqsadida tashkil etiladi.

Ko‘rgazmalilik metodi. Ko‘rgazmalilik didaktikada eng asosiy qoida bo‘lib, uning yordamida ko‘ruv o‘quvi va tafakkur o‘zaro uyg‘unlashadi. Ko‘rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

Illyustrasiya metodi og‘zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga diqqatni tortish.

Demonstrasiya metodi kinoapparat, LETI kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor ko‘rsatuvlaridan, videotasvirdardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qiladi.

Tabiiy ko‘rgazmalar-narsalarning o‘zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko‘rsatish. Ko‘rgazmali metodlar eshitish va ko‘rishni o‘zaro uyg‘unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shu tufayli, ulardan bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari bilan yonma-yon foydalansh ta’limning samaradorligini oshiradi.

Muammoli izlanish metodlari. Muammoli izlanish turidagi metodlar o‘quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo‘nalgan ta’lim metodidir. Bu metodlar asosida o‘quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri quyidagicha umumiy ko‘rinishga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi faoliyati	**O‘quvchi faoliyati**
turli topshiriqlar asosida muammoli holat yaratish;	muammoli holatda ishtirok etish va muammoni qabul qilish;
muammoni hal etishga oid farazlarni aytishni taklif etish;	farazlarni aytish;
farazlardan mosini muammoni bajarishga tatbiq etish;	tanlangan farazni muammoni so‘rash etish;
xulosalar chiqarishga ko‘maklashish;	xulosalar chiqarish;
chiqarilgan xulosalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘lla rini ko‘rsatish;	xulosalarni amaliyotga tadbiq etish;

Muammoli izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo‘llanilmaydi. Muammolarni qo‘yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma’ruza o‘qib turgan paytda turli o‘quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko‘rgazmali qurollar vositasida bolalarga eksperimental (sinov) topshiriqlar beriladi.

Muammoli hikoya o‘rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya davomida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo‘yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo‘lidir.

Muammoli ma’ruza: ma’ruzadan oldin o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma’ruza oxirida o‘quvchilar oldiga muammolar qo‘yish yo‘li bilan ta’lim maqsadiga erishishdir.

Mustaqil ishlar metodlari. Mustaqil ishlar ta’limning barcha bosqichlarida o‘tkaziladigan, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko‘rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intelektual va amaliy topshiriqlardir. Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Darslikdagi qoidalar va ta’riflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va ta’rifni o‘qish va ularga oid omillarni ajratish; o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra to‘plangan omillarni tahlil etish va xulosa chiqarish; darslikning ayrim sahifalarini tanlab o‘qish va Shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo‘llari to‘g‘risida qisqacha xisobot tayyorlash; qoida, ta’riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va terminlarga qo‘shimcha adabiyotlardan o‘rganilgan mavzu doirasida material

to‘plash; ma’ruza, hikoya, suhbat paytida o‘qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta’riflarni solishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, misol va masalalar variantlarni o‘zaro musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diagramma, jadval, chizmalar tayyorlash; laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish rejasini tuzish.

Mashg‘ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa, shaxsiy sifat hisoblanadi. Mustaqil ishlash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi; o‘quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo‘lishi; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

Didaktik o‘yin metodi. Keyingi yillarda ilg‘or o‘qituvchilar tajribasida didaktik o‘yinlardan ta’lim metodlari sifatida foydalanish odat tusi kirib bormoqda. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o‘quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og‘zaki bayon etish, ko‘rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo‘llaniladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra didaktik o‘yinlar sintetik harakterga ega. Ularning quyidagicha turlari mavjud:

Simulyativ o‘yin – ta’limni hayotda bo‘lib o‘tgani ijtimoiy voqyealarga tenglashtirish, ularni qiyosiy tarzda tashkil etish va boshqarish metodidir. Bu o‘yindan tarix, geografiya darslarida unumli foydalaniladi; bir o‘quvchi Amir Temur, boshqasi Boyazid, qolganlari sarkardalar, askarlar rolida ishtirok etadi, shu yo‘l bilan ta’lim bo‘lib o‘tgan tarixiy voqyeaga qiyoslab tashkil etiladi.

Simulyativ o‘yinlarning bir ko‘rinishi insenirovka (rollarga ajratib o‘qish) metodidir. Boshlang‘ich sinflarda badiiy matnlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o‘qitish an’anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega. Adabiyot o‘qituvchilari «Tuya bilan bo‘taloq» asarini o‘qitganda bir o‘quvchi yozuvchi, ikkinchi o‘quvchi tuya, uchinchisi esa bo‘taloq so‘zlarini o‘qib ishtirok etishadi.

Situativ o‘yinlar ham asta-sekin maktab tajribasida o‘z o‘rnini olib bormoqda. Mehmon kutish, kasalni davolash, harid qilish kabi turli hayetiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib, ta’limni tashkil etish va boshqarish situativ o‘yinlar sirasiga kiradi.

Amaliy metodlar. Ta’limning amaliy metodlarida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri bolalar oldiga qo‘yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi. Amaliy metodlarning quyidagicha turlari mavjud:

- laboratoriya tajribasi o‘quv ustaxonasida turli topshiriqlarni bajarish, o‘quv-ishlab chiqarish sexida, o‘quvchilar brigadasida ishlash ham amaliy metodlar sirasiga kiradi. O‘quvchilar turli mehnat qurollaridan qaychi, pichoq, chizg‘ich, sirkul’ va boshqalardan foydalanib qirqish, o‘lchash kabi ishlarni bajaradilar.
- elektron hisoblash mashinalari, ovozni yozib olish va eshittirish apparatlari bilan ishlash, o‘quv materiallari asosida kompyuterlarda dasturlar tuzish amaliy metodlarning yangi turlari sanaladi.

Amaliy metodlarning eng qadimiy turi mashqdir. Mashq – o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘lidir. Mashq vositasida turli malakalar-inteluktual va aqliy, xususiy (masalan, matematika bo‘yicha) va umumiy (masalan, barcha o‘quv fanlariga oid) malakalar tarkib toptiriladi.

8.4. Ta’lim metodlarini tanlab olish shartlari

Ta’limning umumiy maqsadlari.
Fanning va o‘rganilayotgan mavzuning mazmuni hamda o‘ziga xosliklari.
Biror fanni o‘qitish metodikasining o‘ziga xosliklari.
Materialni o‘rganishga ajratilgan vaqt.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.
O‘quvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.
O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi.
Ta’lim muassasasining moddiy ta’minlanganligi.
O‘qituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

8.5. Ta’lim vositalari va ularning funksiyalari

Respublikamizda ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e’tiborini yanada oshirish, o‘quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ularni Vatanimiz taraqqiyoti uchun sidqidildan xizmat qiladigan insonlar qilib tarbiyalash ta’lim tizimi oldidagi eng ustuvor vazifalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-6108-sonli Farmonida bu kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari
  va standartlarini optimallashtirish;
- ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rni
  va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini «hayot davomida o‘qish» tamoyili asosida takomillashtirib borish;
- ilmiy-tadqiqot va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha xususiy sektorning salmog‘ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta’lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan xolda ta’limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta’limni yanada rivojlantirish, ta’lim oluvchilar o‘rtasida IT sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- ta’lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta’lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishda ta’lim metodlari va ta’lim vositalaridan to‘g‘ri foydalanish lozim bo‘ladi.

Ta’lim metodlari ta’lim vositalari bilan birgalikda qo‘llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o‘quv va ko‘rgazmali qo‘llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Ta’lim vositalari – bu yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan ob’ekt. Ta’lim vositalari katta ahamiyatga ega. Ta’limning barcha vositalari ta’lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi.

Ta’lim vositalari o‘zida o‘quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan moddiy yoki ma’naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta’lim metodlariga mos holatda foydalaniladi. Biroq agar metodlar «qanday o‘qitish?» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida niamani o‘qitish» savoliga javob beradi.

An’anaviy ravishda qo‘laniladigan ta’lim vositalariga darslik, rasmlar, jadvalar, nutq, o‘quv-ustaxonasi jihozlari, laboratoriyalar, axborot vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari kiradi.

Didaktik vositalar metodlar singari ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni bajaradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini hosil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Nemis olimlari R.Fush va K.Krollar didaktik vositalar audivizuallik tafsilotida motivatsion, axborot, ta’lim jarayonini boshqarish, optimallashtirish funksiyalarini bajaradi, deb hisoblashadi.

Fanni o‘qitish bilan bog‘liq holda ta’lim vositasi tanlanadi. O‘qituvchi o‘zining ixtiyori bo‘yicha ko‘rgazmali material, o‘quv qo‘llanmadan foydalanishi

mumkin. Ta’lim vositasini qo‘llashning yana bir jihati albatta ta’lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida aks ettirishidir.

Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlab olish bilan bog‘liq. Agar ta’limning faol metodi(kitob bilan ishlash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta’limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi.

Ta’limning passiv (sust) metodlari (o‘quvchilar eshitadi, ya’ni hikoya, ma’ruza, tushuntirish, ekskursiya) ta’limning ko‘rgazmali vositalaridan foydalaniladi. Ta’limning ko‘rgazmali vositalari pedagogning o‘zi tomonidan tuzilgan bo‘lishi mumkin.

Vositalarning istalgan turidan foydalanishda o‘lchov va mutanosiblikka e’tibor berish kerak. Masalan, ko‘rgazmali vositalarning soni etarli bo‘lmasligi bilimlarning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi, bilishga qiziqishni pasaytiradi, obrazli idrok etishni rivojlantirmaydi. Ulardan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fanga yengil-yelpi qarashiga olib keladi. Murakkab mavzularni o‘rganishda 4-5 demonstratsiya optimal hisoblanadi.

2. Ta’lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo‘lishi mumkin emas. Ta’lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo‘llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. O‘qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollishtirish uchun ta’limning samarali vositasini tanlab olishdir.

Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko‘ra yondashish mumkin:

- faoliyat sub’yektiga ko‘ra;
- faoliyat ob’yektiga ko‘ra;
- o‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra;
- o‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra.

Faoliyat sub’yekti bo‘yicha ta’lim vositalari o‘rgatish va o‘rganishga bo‘linadi.

1. O‘qitish vositalari. Masalan, namoyishli-tajriba qurollari. Bunday qurollar o‘qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo‘llaniladi.

2. O‘rganish vositalari. Masalan, laboratoriya-praktikum qurollari. Bunday vositalar o‘quvchilar tomonidan yangi bilimlarni egallash uchun qo‘llaniladi.

V.A.Slasteninning fikricha, didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchi uchun xosligiga qarab, ikkiga bo‘linadi. Birinchisiga ko‘ra, narsalar o‘qituvchi tomonidan ta’limning maqsadlarini samarali realizatsiyalash uchun qo‘llanilsa, ikkinchisi – bu o‘quvchilarning individual vositalari, darsliklar, daftarlar. Bundan tashqari didaktik vositalar o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyat turiga ko‘ra sport qurollari, botanika va geografiya maydonchasi, kompyuterlarga ham bo‘linadi.

Faoliyat ob’yektlari bo‘yicha ham ta’lim vositalari ikkiga bo‘linadi:

1. Material ta’lim vositalari. Bu o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o‘quv-texnik vositalar, mebel, o‘quv-laboratoriya qurilmalari, ko‘rgazmali vositalar bo‘lishi mumkin.

2. Ideal ta’lim vositalari – bular pedagog va o‘quvchilar yangi bilimlarni egallashda qo‘llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san’at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o‘qituvchi ularni o‘rgatish uchun belgilangan shaklda ko‘rsatishi zarur. Masalan,

materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko‘rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko‘rsatiladigan vosita(tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

Material va ideal vosita bir-birini to‘ldiradi. Material vosita qiziqish va diqqatni uyg‘otish, amaliy harakatlarni amalga oishirish bilan bog‘liq bo‘lsa, ideal vositalar – mantiqiy muhokama. Materialni tushuntirish, nutq madaniyati, yod olish bilan bog‘liq.

O‘quv axborotiga munosabatiga ko‘ra ta’lim vositalari yangi materialni o‘rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalari va axborot vositalariga bo‘linadi.

O‘quv jarayonidagi vazifasiga ko‘ra ta’lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o‘quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O‘quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta’lim – kommunikatsiya (muloqot) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyati sanaladigan kommunikativ-faoliyatli jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o‘qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va o‘quvchilarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko‘ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog‘liqlikka ko‘ra didaktik vositalar vizual (ko‘rish) – haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial (eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audioizual (ko‘rish-eshitish) – ovozli filmlar, televidenie, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Zamonaviy ta’limda ta’limning texnik vositalaridan keng foydalaniladi.

Ta’limning texnik vositalari – bu o‘zida o‘quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga: o‘quv kinofilmlari, diafilmlar, kompyuterlar, magnitofon tasmalari, radioeshittirish, teleko‘rsatuvlar kiradi.

Ta’limning texnik vositalarilarini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: axborot; aralash (kombinatsion); trenajyor; bilimlarni nazorat qilish vositalari; audiovizual vositalar.

Ta’limning texnik vositalarining funksiyalari:

- ta’limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o‘quv jarayonining jadallashuvini ta’minlaydi;
- o‘quvchilarni idrok qilishga yo‘naltiradi;
- o‘quvchilarda bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, o‘quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;
- o‘quv ishiga nisbatan o‘quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta’minlaydi;
- bilimlarni nazorat, o‘zini-o‘zi nazorat qilishni ta’minlaydi.

IX BOB. TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

9.1. Ta’limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta’lim turlari

Ta’limni tashkil etish shakllari. Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, ma’ruza-seminar hamda sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

1) individual;
2) sinf-dars;
3) ma’ruza-seminar.

Ta’limni tashkil etishning individual shakli. Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini yoshlarga o‘rgatgan. O‘qituvchi va o‘quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII-asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Sinf-dars tizimi. Sinf-dars tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo‘lsada, bugungi kunda ham keng ko‘lamda qo‘llanilib kelinmoqda.

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida, quyidagilarda iborat:

Bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

Sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi.;

Mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

Dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois o‘quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

Darsda o‘quvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o‘quvchini keyingi sinfga o‘tishi haqida qaror qabul qiladi.

Ta’limni tashkil etish shakllari deganda — aniq muddatda va tartibda o‘qituvchining o‘quvchilar bilan olib boradigan mashg‘ulotlari turlarini tushunamiz. Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ta’limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo‘lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta’lim berish ishlari odamlarning mehnat faoliyati, turmush

tarzi bilan uzviy bog‘langan hamda bilim berish, o‘rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.5

Ta’limning ma’ruza-seminar tizimi. Birinchi universitetlar paydo bo‘lishi bilan ta’limning ma’ruza-seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri μali deyarli hech bir katta o‘zgarishlarga ega emas. Ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo‘yicha amaliyot hozirgacha leksion-seminar tizim sifatida o‘qishning asosiy shakllaridan biri bo‘lib kelmoqda. Leksion-seminar tizimi o‘zining sof ko‘rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta’lim amaliyotida qo‘llaniladi. O‘zbekistonda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tadbiq etilishi bilan leksion-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalanila boshlandi.

Ta’lim turlari:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- Avestiy (Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI-asrlar);
- Yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I-asrlar);
- o‘rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI-asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o‘qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko‘rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o‘qitish, masofali, Internet yordamida o‘qitish va shu kabilar).

9.2. Darsning turlari va tuzilishi

Dars - ta’limni tashkil etish asosiy shakli. Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o‘quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o‘quvchilarning mashg‘ulot jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratiladi. Dars ta’limning boshqa Shakllaridan farq qiluvchi o‘ziga xos belgilarga ega, chunonchi: o‘quvchilarning doimiy guruhi, o‘quvchilar faoliyatiga ularning har biri xususiyatlarini hisobga olish bilan rahbarlik qilish, o‘rganilayotgan fan asoslarini bevosita darsda egallab olish (bu belgilari darsning faqat mazmunini emas, balki o‘z xususiyatini ham aks ettiradi).

Darsga qo‘yiladigan talablar

Didaktik yoki ilmiy talablar sirasiga quyidagilar kiradi:

- har bir darsning maqsadini aniq belgilash;
- darslarning optimal mazmunini, o‘rganiladigan bilimlar ko‘lami, shakllantiriladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan aniqlab qo‘yish.
- darsni tashkil etishga oid ta’lim metodlarini, vositalarini tanlash, o‘quvchilar bilish faolligini rag‘batlantirish, o‘quv topshiriqlari, mustaqil ishlarni ta’limga tatbiq etish.

[5] Каримов А., Таълим тизимини бошқариш асослари., Тошкент-2012.

- ta’lim qoidalarini (ilmiylik, faollik, izchillik, fanlararo aloqa va h.k) og‘ishmay amalga oshirish.

Darsga qo‘yiladigan tarbiyaviy talablar qatoriga quyidagilar kiradi:

- darsda o‘rganiladigan o‘quv materiallari bo‘yicha tarbiyaviy xulosalar chiqarish.
- nazariy bilimlar asosida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish.
- bolalarda o‘qishga oid ijodiy motivlarni uyg‘otish, bilish, o‘qish-o‘rganishga havas ishtiyoq, qiziqishni shakllantirish.
- dars jarayoniga, pedagogik takt qoidalariga rioya qilish.

Darsga qo‘yiladigan tashkiliy talablar jumlasiga quyidagilar kiradi.

- dars uchun puxta yo‘nalgan konspekt yoki reja tuzish.
- darsning bosqichlariga (dars bosqichlarining o‘zaro bog‘liqligi, darsda amalga oshiriladigan ishlar, o‘quv topshiriqlarining o‘zaro aloqadorligiga) rioya qilish.
- dars tezligini o‘quvchilarning tayyorgarligiga moslashtirish.
- dars uchun ajratilgan vaqtdan to‘laqonli foydalanish.

Darsning turlari:

- aralash darslar;
- yangi ma’lumotlar, aniq hodisalar bilan tanishish bo‘yicha yoki umumlashtirishlarni anglab etish va o‘zlashtirish maqsadiga ega darslar;
- bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o‘rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish asosiy maqsadiga ega darslar;
- malaka va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish va tekshirish ishlarini o‘rganish darsi;
- o‘z tuzilishi bo‘yicha oddiy bo‘lgan, ya’ni bitta asosiy didaktik maqsadga ega bo‘lgan dars turlari (o‘rta va katta sinflarda qo‘llash uchun mos keladi).

Aralash darsning tuzilishi:

- uy vazifalarini tekshirish va o‘quvchilar bilan savol-javob;
- yangi materialni o‘rganish;
- o‘zlashtirishini dastlabki tekshirish, mashq misollari davomida yangi bilimlarini mustahkamlash;
- o‘quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash;
- uyga vazifa berish.

Yangi materiallar bilan tanishish darsining tuzilishi

- yangi materialni o‘rganish uchun asos bo‘lgan avvalgi materialni takrorlash;
- o‘qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi;
- bilimlarni tushunishlarini tekshirish va dastlabki mustahkamlash;
- uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darsining tuzilishi

- uy vazifasini tekshirish;
- og‘zaki va yozma mashqlarni bajarish;
- topshiriqni bajarishni tekshirish;
- uyga vazifa berish.

Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash dars. Ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o‘rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga avvaliga mashqni bajarish ishlari bolalar tomonidan o‘qituvchi yordamida va ular topshiriqni qanday tushunganlarini daslab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qaerda qanday qoida qo‘llanilishini o‘quvchilarning o‘zlari belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko‘nikmalarini qo‘llash, shu jumladan, hayotiy amaliyotida qo‘llashni o‘zlashtirib olishlari kerak.

Tekshirish (nazorat) darslari. Tekshirish (nazorat) darslari o‘qituvchiga o‘quvchilarning ma’lum sohadagi bilim, malaka va ko‘nikmalari shakllanganlik darajasi, o‘quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo‘llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o‘quvchidan ushbu mavzu bo‘yicha uning hamma bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llashini talab etadi. Tekshirish og‘zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

9.3. Nostandart darslar

Muammoli darslar. Yangi o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash darsning yana bir turi muammoli darslardir. O‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati bunday darslarning psixologik zamini sanaladi. Bu darslarga ham an’anaviy darslarga o‘xshab qator pedagogik talablar qo‘yiladi. Ilmiylik, sistemalilik, izchillik, onglilik va didaktik talablar sanaladi. Shu bilan birga, muammoli darslarning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Muammoli dars ta’limning boshqa turlari, tizimlarini, metodlarini tamomila inkor etmaydi. Uning asosiy xususiyati ta’lim jarayonining ma’lum bo‘limida yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida yangicha bilim, yangicha faoliyat ko‘rsatish metodlarni ijodiy egallash bilan harakterlanadi.

Muammoli darslar quyidagicha tashkil etiladi:

- darsning boshlanishi, bu bosqichda bolalarning o‘quv materialiga qiziqishlarini oshirishga oid ishlar qilinadi, mavzuga doir muammo yoki muammolar qo‘yiladi;
- qo‘yilgan muammo ustida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda ishlashi. bu bosqichda o‘quvchilar muammo, uni bajarish bo‘yicha o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlashib fikrlashadi;
- muammoni yechish metodini tanlash. Bu bosqichda bolalar aytgan metodlar(farazlardan) biri tanlanadi;
- tanlangan metod asosida ko‘plab muammo bajariladi;
- muammo yuzasidan xulosa chiqariladi, chiqarilgan xulosa yangi o‘quv sharoitiga tatbiq etiladi.

Muammoli darslarda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish ijobiy samara beradi.

“Keys-stadi” texnologiyasi (ingl. “casye” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) –

1) o‘quvchilarda aniq, real muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya;
2) real vaziyatlarni bayon etishda qo‘llaniladigan o‘qitish texnikasi

Texnologiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tahlil ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.
- nazariya va amaliyot birligini ta’minlash.
- muammo yuzasidan turli qarashlar va yondashuvlarni namoyish qilish.
- qarorlar qabul qilish va uning oqibatlariga doir mulohazalarni taqdim etish.
- noaniqliklar mavjud bo‘lgan sharoitda muqobil variantlarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Keys-stadi o‘quvchilarni har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi. Uning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar yotadi. Bular quyidagilardir: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchi (o‘quvchi) o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari.

“Keys-stadi” yordamida o‘quvchilar quyidagi ko‘nikma, malakalarga ega bo‘ladi:

Tahliliy ko‘nikmalar (ma’lumotlarni axborotlardan ajrata olish, ularni turkumlashtirish, ma’lumotlarni zarur va nozarurga ajratish, tahlil qilish, taqdim etish; buning uchun shaxs aniq, mantiqiy fikrlay olishi kerak).

Amaliy ko‘nikmalar (muammoning murakkabligidan kelib chiqib, real vaziyatni tahlil qila olish, eng muhim nazariya, metod va tamoyillarni qo‘llay bilish).

Ijodiy ko‘nikmalar (bunda mantiqiylik asosida vaziyat (muammo)ni yechish muhim emas, balki ijodiy yondashuv asosida muammoning bir necha yechimlarini topish va ularni tahlil qilish talab etiladi).

Muloqot ko‘nikmalari (unga ko‘ra o‘quvchi bahs-munozara olib borish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, qaroriga boshqalarni ishontirish, juda qisqa va ishonarli hisobotni tayyorlash ko‘nikmalarini o‘zlashtira bilishi zarur).

Ijtimoiy ko‘nikmalar (qarorni muhokama qilish jarayonida o‘quvchilar boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilish, boshqalarni tinglay bilish, bahsda o‘zgalarning fikrlarini qo‘llab-quvvatlash, ilgari surilgan fikrga qarama-qarshi fikrni bildira olish va o‘zini boshqara olishi lozim).

O‘z-o‘zini tahlil (bahs-munozara jarayonida o‘zini tuta bilishi, boshqalarga namuna bo‘lishi muhim)

Keyslarni yechishga doir metodik ko‘rsatma, yo‘riqnomalar tahminan shunday bo‘lishi mumkin

Keys (muammo) bilan tanishing.

Muammoning dolzarbligini baholang.

Muammoning dolzarbligini dalillar yordamida izohlang.

Keys (muammo)ni samarali yechish yo‘llarini aniqlang.

Keys (muammo)ning samarali yechimini belgilovchi metod va texnologiyalarni tanlang.

Keys (muammo)ning samarali yechimini kafolatlovchi faraz (ilmiy faraz)larni shaklantiring.

9.4. Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari

Interfaol ta’lim (ingl. “interact”, rus. “interaktiv”; “inter” – o‘zaro, “act” – harakat qilmoq) – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim

Masofaviy ta’lim – muayyan nuqtadan axborot-kommunikasiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televideniye va b.) Yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ta’limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishda an’anaviy hamda innovasion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta’lim resurslaridan foydalanishga yo‘naltirilgan ta’lim

Ta’lim texnologiyasi – ta’lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya’ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo‘lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta’lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Pedagogik texnologiya – ta’lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va boshqalarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va aniqlashning izchil metodi (yunesko).

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat

Muammoli ta’lim texnologiyalari – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim texnologiyalari

Hamkorlik pedagogikasi –ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilarning uzaro muloqotiga asoslangan shaklda ta’lim berishga yo‘naltirilgan tizim. Hamkorlik pedagogikasi o‘quvchining ta’lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda o‘quv tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tadbiq qilgan holda yuqori sifat va samaradorlikka erishishni ta’minlaydi

Hamkorlik pedagogikasi 4 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha amalga oshiriladi:

- shaxsga inson, shaxs sifatida yondashuv;
- dialektik faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi majmua;
- tarbiya konsepsiyasi;
- atrof-muhitni ta’lim-tariyaga moslash.

9.5. O‘qituvchining darsga tayyorlanishi

Har qanday darsning samarasi uning natijasi, ya’ni, o‘quvchilarda shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasi bilan o‘lchanadi, lekin bu natija ko‘p jihatdan dars o‘tuvchi shaxs-o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liqdir.

Dasrga bo‘lgan o‘qituvchining puxta tayyorgarligi ta’limning samarasini ta’minlaydi, shuning uchun dasrga kirishdan oldin o‘qituvchi ham psixologik, ham fani bo‘yicha puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

Psixologik jihatdan tayyorgarlik deganda, quyidagilarni tushunishimiz lozim. Dars murakkab jarayon bo‘lib, unda turli psixik xususiyatlarga;harakterga, irodaviy hislatlarga, xotiraga, diqqatga, tafakkur va temperamentga ega bo‘lgan o‘quvchilar ishtirok etishadi. Dars davomida yuqorida qayd yetilgan xususiyatlar u yoki bu ko‘rinishda o‘quvchilar tomonidan namoyon yetiladi. Qolaversa, darsning har bir daqiqasida hyech kim, hech qaysi yo‘l bilan oldindan rejalashtira olmaydigan vaziyatlar yuzaga chiqadi. Ammo, o‘qituvchi psixik jihatdan har qanday vaziyatda o‘zini yo‘qotmasdan muammoni to‘g‘ri yo‘l bilan hal etishga tayyor bo‘lishi lozim. Buning uchun har bir o‘qituvchi bo‘lajak darsning muhitini tasavvur etishi va unga o‘zini oldindan tayyorlashi lozim bo‘ladi.

Fan bo‘yicha tayyorgarlik deganda esa quyidagilar tushuniladi; darsni tashkil etishdan oldin o‘qituvchi belgilangan sinfda o‘z fani bo‘yicha o‘quv dasturidan qaysi mavzuni o‘tishi lozimligini ko‘rib oladi. So‘ng ushbu mavzu bo‘yicha Davlat ta’lim standartlariga murojaat yetib, nima to‘g‘risida o‘quvchilarga bilim berishni aniqlab oladi. Mavjud darslik yoki adabiyotlar, shuningdek, ko‘rgazmali yoki boshqa ta’lim vositalari o‘quv dasturi talablariga qanchalik javob berishini aniqlab, mavzuni yoritishga yordam berish imkoniyatlarini bilib oladi. Darslikda bayon yetilgan o‘quv materiali bilan tanishib, uni bugungi kun vazifalari hamda sinf o‘quvchilarining bilim darajasiga moslashtirib, zaruriyat bo‘lsa o‘zgarishlar, tuzatishlar kiritadi. O‘quvchilarni mashq qildirish uchun amaliy vazifalarni belgilaydi, so‘ng mavzu yuzasidan xulosalar chiqarish, qonun-qoidalarning ta’rifini belgilab oladi. O‘quvchilar dars davomida va uyda olib boriladigan mustaqil ishlari uchun vazifalar tayyorlaydi. Dars turi hamda uning davomida qo‘llaniladigan metodlar aniq belgilab qo‘yiladi. Shu bilan birga dars mavzusini oldingi o‘tilgan mavzular bilan hamda fanlararo aloqalarni ayrim o‘quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi va dars rejasini yozishga kirishiladi.

Kundalik dars rejasi (konspekti) o‘qituvchi tomonidan har bir darsga alohida yoziladi.

X BOB. O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH

10.1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati

Tashxisning mohiyati haqida gapirishdan oldin tashxisni umumiy yondashuv hamda tashxislashni amaliy pedagogik faoliyat jarayoni sifatida farqlab olaylik. **Tashxis** – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish,

uning natijalarini belgilash demak. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas.

Ta’lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta’lim olganlik ajratib olinadi. Shuningdek, ta’lim olganlik tashxislash vaqtida belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi sifatida ham qaraladi. Didaktik tashxislashning **maqsadi** o‘quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog‘liq holda o‘z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, tashxis ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini an’anaviy tekshirishga nisbatan kengroq va chuqurroq ma’no kasb etadi. Ta’limni baholash yoki tekshirish faqat nati-jalarni qayd etadi, biroq ularning kelib chiqishini izohlamaydi. Tashxis natijalarni ularga erishish yo‘llari va vositalari, usullari bilan aloqa-dorlikda baholaydi, ta’lim mahsulining shakllanish jarayonlari va bosqichlarni aniqlaydi.tashxislash nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma’lumotlar to‘plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish, baholash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sanaladi. Ular pedagogik texnologiyaning ancha qadimiy usullaridir. Nazorat va baholash maktab amaliyoti rivojining doimiy hamrohi bo‘lib kelgan. Shunga qaramay, bugun ham baholashning mazmuni, texnologiyalari haqida qizg‘in munozaralar davom etmoqda. Avval bo‘lgani kabi pedagoglar baho nimani qayd etishi lozimligini aniqlashga urinmoqdalar. Ular baho nimani ko‘rsatishi lozimligi: ta’lim oluvchi o‘zlashtirishning qat’iy belgilovchisi – sifat ko‘rsatkichi bo‘lishi kerakmi, yo aksincha, u yoki bu ta’lim tizimining ustunligi va kamchiliklarining ko‘rsatkichi bo‘lishi kerakmi degan masalada bahslashib kelmoqda.

Ta’limni baholashda ziddiyatli qarashlarning tug‘ilishini buyuk pedagog Ya.A.Komenskiy ham ta’kidlab o‘tgan edi. U pedagoglarni o‘zlari ega bo‘lgan baholash huquqidan aql bilan foydalanishga chaqirgan. Ta’lim oluvchilarga nisbatan nazoratning ob’ektiv bo‘lishiga erishish didaktik tizimlarning asosida yotadi.

Olimlarning ta’kidlashicha, demokratlashgan ta’lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo‘lmasligi lozim, Didaktik nazorat o‘qitishning o‘ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi yo‘nalganlikga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta’lim oluvchining o‘zi uchun zarur va foydali bo‘lishi lozim.

Ta’lim tizimini demokratlashtirish bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o‘qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O‘quvchilarning o‘quv mehnatini rag‘batlantirishning yangi usullarini izlash, ta’lim va tarbiya sohasida kuch to‘plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Tashxislash tizimida baho rag‘batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo‘ladi. Birinchi navbatda, baholovchi fikrlar (ballar) qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tashxislash natijalari shaxsning o‘z darajasini belgilashga ko‘maklashadi, bu esa raqobatli ta’lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta’lim

(shuningdek, nazorat)ning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o‘tmishda ko‘plab o‘quvchilar uchun majburiy ta’limning zaruriy vositasidan shaxsiy reyting – insonning jamiyatdagi mavqei ko‘rsatkichini tadrijiy aniqlash usuliga aylanadi.

10.2. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari

Ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri – nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o‘ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O‘qituvchi nazorat va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etsa, ta’lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim.

Nazorat (ta’lim jarayonida) ta’lim oluvchining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, o‘lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o‘lchash esa **tekshirish** deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida aks aloqani ta’minlash, pedagog tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish haqida ob’ektiv axborot olinishi xamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o‘z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o‘quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o‘quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

O‘quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qo‘yida ko‘rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi birinchi bo‘g‘in ta’lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash** hisoblanadi. Odatda, u o‘quv yili boshida o‘quvchilar tomonidan avvalgi o‘quv yilida o‘zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o‘quv yilining o‘rtasida yangi bo‘lim (kurs)ni o‘rganishga kirishilganda ham o‘tkazilishi mumkin va o‘rinli bo‘ladi.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo‘g‘ini har bir mavzuni o‘zlashtirish jarayonidagi **joriy tekshirishdir**. Joriy tekshirish ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o‘zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o‘rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo‘lib, ular o‘quv materiali mazmuni, murakkabligi, o‘quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta’lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirishning **uchinchi bo‘g‘ini** sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo‘lishi mumkin. Yangi mavzuni o‘rganish bilan birga o‘quvchilar avval o‘rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko‘maklashadi, biroq o‘quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o‘zlashtirish mus-tahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo‘llanilsagina kutil-gan samarani beradi.

Tizimning to‘rtinchi bo‘g‘ini o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini yaxlit bo‘lim yoki kursning alohida mavzusi bo‘yicha **davriy tekshirish** hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o‘rganilgan o‘quv materialining strukturaviy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro

aloqalarni o‘zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo‘g‘in ta’lim oluvchilarning, ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olishdir**. O‘zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o‘quv yili oxirida o‘tkaziladi. U olingan baholarni qo‘Shib, o‘rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo‘lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta’lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o‘z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. **Baholash** deb bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quv dasturida ko‘rsatilgan etalon (ko‘rstakich, qolip, o‘lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. **Baho** deb baholashning ball Shaklida ko‘rsatilgan son jihatdan o‘lchamiga aytiladi. O‘zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko‘rinishida qayd etiladi. O‘quvchining o‘zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko‘rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko‘rsatkichlari ko‘proq ballar yoki foizlarda, sifat ko‘rsatkichlari esa a’lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko‘rsatkich (masalan, o‘rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o‘lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma’no ekanini unutmaslik muhim. Baholarni son sifatida qo‘llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan davlat ta’lim standartiga ko‘ra o‘zlashtirilishi belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalar umumiy hajmi o‘rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta’riflash)dan ta’lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) ko‘rsatkichi B=A/T*100% nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o‘zlashtirish (ta’lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o‘zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o‘zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to‘liq hajmi.

Ko‘rinib turibdiki, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi (baho) bu o‘rinda 100% – axborotni to‘liq o‘zlashtirish va 0% – uning umuman mavjud emasligi o‘rtasida bo‘ladi. Ma’lumki, baholash funksiyasi ta’lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o‘qishni, ijobiy motivatsiyani rag‘batlantirishning va shaxsga ta’sir ko‘rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (ob’ektiv) baholash ta’sirida, o‘quvchilarda adekvat o‘z-o‘zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o‘quvchilar o‘quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta’minlaydigan ko‘rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

O‘qituvchi o‘qitish bilan bir vaqtda o‘quvchilarning o‘rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo‘llash

malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. **Hisobga olish** – bu o‘qitishning muayyan bir davrida o‘quvchilar va o‘qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Hisobga olish natijasida o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O‘zlashtirishni hisobga olish o‘quvchilarning bilish faoliyatini rag‘batlantirib, ma’lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o‘zlashtirishni hisobga olish o‘qituvchining faoliyatni ham tashkil etadi. O‘qitish metodlari va shakllarining tabora takomillashuvi natijasida baho o‘qituvchining pedagogik mahorati ko‘rsatkichiga aylanmoqda va o‘qituvchining o‘z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

To‘g‘ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o‘z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va ahloqiy rivojlanishiga ta’sir etadi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim:

- o‘quv dasturi asosida mavzu va bo‘limni o‘rganishda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- har bir yakunlangan mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning faoliyati to‘g‘risida to‘liq xulosa chiqarish;
- o‘rtacha arifmetik ma’lumotlarga tayanibgina o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini baholamaslik;
- o‘quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma’lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o‘quv yilidagi statistik o‘zlashtirish ma’lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o‘zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o‘quv materiallarini o‘rganishning keyingi bosqichiga o‘tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi ham-da o‘qituvchining o‘quv metodlarini va usullarini to‘g‘ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o‘quv materiallarini o‘rganishning maqbul yo‘llarini topish bilan bog‘liqdir.

O‘qitish vazifasi o‘quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko‘rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o‘quvchilarning o‘tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlarni bilib olishlariga imkon tug‘iladi. Chunki guruhdagi boshqa o‘quvchilar javob berayotgan o‘quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitishadi. O‘rtoqlarining javoblariga qo‘shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o‘rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, o‘quvchilar tekshirishga tayyor bo‘lish uchun darslarni o‘z vaqtida tayyorlaydilar, bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o‘rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash o‘quvchining o‘z bilimlari va qobiliyatlarini o‘zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O‘zidagi kamchiliklarni ko‘ra olishga va uni tugatish yo‘llarini izlashga ko‘maklashadi. Lekin o‘quvchining bilimini baholashda o‘qituvchi nohaqlikka yo‘l qo‘ysa, o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko‘p bo‘lishi ham o‘quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o‘zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o‘qishga xohish uyg‘otish, o‘quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo‘lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog‘i lozim.

Agar nazoratning o‘qitish va tarbiyalash vazifalari to‘g‘ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg‘ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug‘iladi. Bu esa o‘z-o‘zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

10.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari

Pedagogikada o‘quvchilarning ta’lim olganligini tashhislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolislik (ob’ektivlik), tizimlilik (sistemalilik), ko‘rgazmalilik (oshkoralik) sanaladi. **Xolislik (ob’yektivlik)** tashxis testlari (topshiriqlari, savollari), tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta’lim oluvchilarga do‘stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko‘rinishda belgilangan mezonlaridan iborat. Amalda tashxisning xolisligi qo‘yilgan baholar nazorat metodlari va vositalaridan, tashhis o‘tkazgan o‘qituvchidan qat’iy nazar xamma vaqt mos kelishini anglatadi.

Tizimlilik (sistemalilik) tamoyilining talabi shundan iboratki, tashhislash nazoratini ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlarni boshlang‘ich idrok etishdan to amalda qo‘llashgacha bo‘lgan bosqichlarida olib borish kerak.Tizimlilik barcha ta’lim oluvchilar o‘quv muassasida bo‘lgan birinchi kundan boshlab oxirigacha muntazam tashhisga jalb etilishini anglatadi. Ta’lim oluvchining bilimi va egallashi lozim bo‘lgan barcha jihatlarni ishonchli tekshirish uchun ta’lim nazoratini tez-tez o‘tkazish kerak. Tizimlilik tamoyili tashhis o‘tkazishga bir butun yondashuvni talab etadiki, bunda nazorat, tekshirish, baholashning turli shakllari, metodlari, vositalari uzviy o‘zaro bog‘liqlikda va birlikda qo‘llaniladi, bir maqsadga xizmat qiladi. Bu kabi yondashuv tashxisning ayrim metodlari va vositalarini mutloqlashtirishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ko‘rgazmalilik (oshkoralik) tamoyili avvalo barcha ta’lim oluvchilarni aynan bir hil mezonlar bo‘yicha ochiq sinovdan o‘tkazishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o‘quvchi reytingi ko‘rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e’lon qilish va motivatsiyalashni talab etadi. Baho mo‘ljal (orientir) bo‘lib, ta’lim oluvchilar unga muvofiq o‘zlariga qo‘yiladigan talablar va pedagogning xolisligi haqida fikr yuritadi. Tamoyilni amalga oshirishning zarur sharti tashhislash natijalarini e’lon qilish, ularni

manfaatdor shaxslar ishtirokida muhokama va tahlil qilish, nuqsonlarni tugatishning istiqbolli rejalarini tuzish hisoblanadi.

10.4. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari

Hozirgi davr pedagogik amaliyotida o‘quvchilar o‘quv faoliyatini nazorat qilishning qo‘yidagi **turlaridan** foydalaniladi:

- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning xar bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganlilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo‘yicha kundalik ballar qo‘yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o‘qituvchini har bir o‘quvchining o‘quv faoliyati bo‘yicha tezkor ma’lumotlar bilan ta’minlaydi, o‘qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o‘zlashtirmagan o‘quvchilarni o‘z vaqtida aniqlaydi, o‘zlashtirmaslikni bartaraf etish bo‘yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat – bu o‘quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo‘limlarining o‘zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o‘qituvchi dars jadvali asosida darsda o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda o‘tkazadi. Oraliq nazorat o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestasiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

Nazoratning shakli o‘quv ishini tashkil etish shakliga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy **besh shakli** mavjud:

- **nazoratning ommaviy (frontal) shakli**da o‘qituvchi o‘quvchilarga materialning ma’lum bir hajmi bo‘yicha savol beradi, o‘quvchilar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so‘rash ko‘pchilik o‘quvchini nazorat qilishni ta’minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo, bu nazoratni o‘quvchilarning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo‘llab bo‘lmaydi.
- **nazoratning guruhli shakli**da o‘quvchilarning ma’lum bir qismi nazorat qilinadi. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa o‘quvchilar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan o‘quvchilar bo‘sh qolmaydi, ular o‘rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o‘z ustilarida ishlab o‘tiradi.
- **nazoratning individual shaklidan** har bir o‘quvchining bilim, ko‘nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda o‘quvchilar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

- **nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli** individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha o‘quvchilardan so‘rash kerak bo‘lgan vaqtda foydalanadi. Har bir o‘quvchiga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda bir necha o‘quvchini tekshirish mumkin bo‘ladi.
- **o‘z-o‘zini nazorat qilish shakli** ta’lim jarayonida ichki aks aloqaning bo‘lishini ta’minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish **metodlari** qo‘yidagilar: **og‘zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish**.

Og‘zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an’anaviy usullaridan biridir.

Og‘zaki tekshirishning mohiyati shunda ko‘rinadiki, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og‘zaki tekshirish o‘quvchilarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hollarda suhbat usuli deb ham ataladi. Og‘zaki tekshirishda o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan o‘quvchilarga savollar beradi. Biroq o‘quvchilarning nutqini o‘stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo‘lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo‘lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o‘qituvchi alohida mavzu yoki o‘quv dasturining ma’lum bo‘limini o‘tib bo‘lganidan so‘ng oz vaqtning ichida barcha o‘quvchilarni tekshirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yordamida olib boriladi. Ammo o‘qituvi va o‘quvchi o‘rtasida bevosita aloqaning yo‘qligi sabali, uning fikrlashini kuzatish imkoni bo‘lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to‘g‘riligini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo‘lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik sikldagi fanlardan o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o‘quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish malakasi aniqlanadi.

Uy vazifalarini tekshirish. O‘quvchilarning o‘zlashtirishini nazorat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘quv ishiga bo‘lgan munosabatini, o‘rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Ma’lumki, bugun ta’lim tizimida reyting nazoratidan keng foydalanilmoqda. **Reyting deganda** baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, bironta hodisani

oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati o‘quvchining ma’lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

Shkalalash – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish..

Reyting nazoratida o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda. Test so‘rovidan nafaqat o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, balki 1993-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida abiturientlarni oliy o‘quv yurtlariga tanlov asosida qabul qilish jarayonida ham samarali foydalanib kelinmoqda.

Test – aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- nazariy va amaliy bilim darajasini ob’yektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- bilim natijalarining o‘qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- barcha o‘quvchilarga bir xil murakkablikdagi savollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

Ta’lim tizimi uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etadigan sohadir.

10.5. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari

O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo‘lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, sinf (guruh)dagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi. Shuningdek, baholash mezonlarini ishlab chiqishda o‘quvchilarning og‘zaki javob berishlari, ko‘nikma va malakalariga alohida-alohida yondashiladi. Masalan, kimyo darsidan baholash mezonlariga o‘quvchilarning og‘zaki javoblari, amaliy topshiriqlarni bajara olishlari va amalda mavjud bilimlarini namoyish eta olishlari inobatga olinadi. Buni «4» baho misolida aniqlashtiramiz. Og‘zaki javob berishda «4» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan to‘g‘ri javoblar bersa; b) material mantiqiy ketma-ketlikda aniq bayon etilsa; v)o‘qituvchi talabi bilan tuzatilgan ikki-uchta unchalik ahamiyatga ega bo‘lmagan xatolarga yoki ba’zi to‘liq bo‘lmagan javoblarga yo‘l qo‘ysa.

Yozma topshiriqni bajarishda «4» baho qo‘yiladi, agar: a)masalani yechishda va izohlashda muhim xato bo‘lmasa; b)topshiriqni bajarish va izohlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan bir-ikki xatoga yo‘l qo‘yilsa yoki bitta izohning mohiyati ochib berilmagan bo‘lsa.

Amaliy bilimlarni namoyish etishda «4» baho qo‘yiladi, agar: a)ishni to‘liq, muhim xatolarsiz bajarsa, natija chiqara olsa; b)ishni bajarishda, tajribani tugallashda ikki-uch muhim bo‘lmagan xatolarga yo‘l qo‘ysa.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa chiqarish mumkin:

«5» baho qo‘yiladi, agar: a) o‘quvchi dasturdagi materialni to‘liq o‘zlashtirib olgan bo‘lsa; b) o‘rganilgan mavzu bo‘yicha asosiy fikrlarni ochib bera olsa; v) egallangan bilimlarni amalda erkin qo‘llay olsa; g) o‘rganilgan mavzuni bayon qilishda, yozma ishlarda xatolarga qo‘l qo‘ymasdan, ma’lumotlarni tushuntirib bera olsa.

«4» baho qo‘yiladi, agar:

a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuning mohiyatini bilsa;

b) o‘qituvchining savollariga qiynalmasdan javob bera olsa;

v) egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olsa;

g) og‘zaki javob berishda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, o‘qituvchining qo‘shimcha savollari bilan xatolarini to‘g‘rilay olsa hamda yozma ishda uncha jiddiy bo‘lmagan xatoga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

«3» baho qo‘yiladi, agar:

a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzuni o‘zlashtirgan, lekin mustaqil tushuntirib berishda o‘qituvchining aniqlashtiruvchi savollariga ehtiyoj sezsa;

b) savollarning mantiqiy tuzuilishini o‘zgartirib berganda, javob berishga qiynalsa;

v) yozma ishda xatolari bor bo‘lsa.

«2» baho qo‘yiladi, agar:

a) o‘quvchi o‘rganilgan mavzu haqida tushunchaga ega, biroq mavzuni o‘zlashtirmagan,

b) yozma ishda qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ysa qo‘yiladi.

XI BOB. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

11.1. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta’sir etish imkonini beradi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan hissiyotlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi[6].

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, odatlilik va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

[6] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild, Toshkent: 2004. 704-b. B. 270.

Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. O'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini – tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Bir so'z bilan aytganda tarbiya jarayoni – har bir insonning hayotda yashashi (umumiy faoliyat, ta'lim, tarbiya) jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zida shakllantirish va o'zgalarga berish jarayonidir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatlar, qadriyatlarga e'tiqod bilan rioya qiladigan, noqonuniy ishlardan o'zini tiya oladigan, o'z xatti-harakatlari bilan o'zgalar nafratini qo'zg'amaydigan xulq-atfordir. Faoliyat jarayonida hosil bo'lgan malaka va odatlar axloq me'yorlariga rioya qilishni yengillashtiradi.

Demak, tarbiyachi bola shaxsining tez rivojlanadigan davri – o‘quvchilik yillarida uning ongiga turli-tuman faoliyat (o‘qish, mehnat, o‘yin sport, badiiy havaskorlik) yordami bilan maxsus ta’sir etishi mumkin. Tarbiya yaxlit jarayonda amalga oshiriladi, uning tarkibiy qismlari ham ayni bir vaqtda faoliyatning biror turi asosida amalga oshiriladi.

Inson shaxsi ko‘p sonli omillar ta’siri natijasida shakllanadi va rivojlanadi: ob’yektiv va sub’yektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, odamlarning ongi va shuuriga bog‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan. Shu sababli insonning o‘zi ham tashqi ta’sirni shunchaki aks ettiruvchi sust mavjudot emas. U o‘zining shaxsiy shakllanishi va rivojlanishi sub’ektidir.

Tarbiya mazmuni deganda, qo‘yilgan maqsad va vazifalar bilan bog‘liqlikda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, e’tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda o‘zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Chunki, kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat bo‘lib, o‘zbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini ta’minlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatlari barq urib kamolotga **yetgan kadrlarni tayyorlashni ko‘zlaydi**. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, o‘quvchi shaxsning o‘zi tomonidan faollik ko‘rsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi. Chunki, ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiq etadi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish.

Tarbiyaning umumiy vazifalari:

- jamiyat a’zolarining maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy madaniyatga mos etarlicha hajmdagi “inson kapitali”ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta’minlash;
- ma’lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a’zolarining harakatini tartibga solish.

11.2. Tarbiya jarayoning o‘ziga xos xususiyatlari

Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va ta’lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni **o‘ziga xos xususiyatlar**ga ega:

- maqsadga yo‘naltirilganligi;
- ko‘p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik.

11.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari

Tarbiya qonuniyatlari – bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi **qonuniyatlari** mavjud:

- ijtimoiy muhitning ob’yektiv va sub’yektiv omillariga bog‘liqligi;
- tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligi;
- faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbai;
- tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’siri, o‘zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o‘rtasidagi bog‘lanish;
- tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiyalashning intensivligi;
- tarbiyalanuvchining “ichki olami”ga ta’sir etishning intensivligi (G.I.Shukina);
- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta’sirni hisobga olish (G.I.Shukina).

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo‘nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo‘yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi **tamoyillar** asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g‘oyaviy yo‘nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog‘liqligi;
- tarbiyaga yaxlit(kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko‘rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo‘shib olib borish;
- o‘qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta’sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimligigi va uzluksizligi.

XII BOB. JAMOA TARBIYA OB'YEKTI VA SUB'YEKTI SIFATIDA

12.1. Jamoa tushunchasi

Jamoa – (lotincha «kollektivus» so‘zining tarjimasi bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh) bir necha a’zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh demakdir. Turkiyzabon xalqlarda, jumladan o‘zbeklarda jamoa azaldan ijtimoiy birlikni anglatib kelgan. Odamlarning jamoa bo‘lib yashashi zaruriyatini Suqrot, Platon, Aristotel, Markaziy Osiyo mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqalar ilmiy asoslab berganlar. Ayniqsa, buyuk faylasuf olim Abu Nasr Farobiy o‘zining asarlarida jamoa bo‘lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqtiradi. Forobiy bu haqda quyidagi fikr-mulohazalarni bayon etgan: «Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi Shunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir-butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi». Jamoa odamlar maqsad-manfaatlarining umumiyligi, o‘zaro hamkorlik qilishlari zarurligi, mehnat va maishiy hayotiy faoliyatlari yo‘nalganligi zaminida o‘zaro birgalikda harakat qilishlarini taqozo etishdan vujudga keladi. Odamlarning faoliyat turlariga mutanosib tarzda mehnat, ta’lim-tarbiya, maishiy hayot, badiiy ijod, harbiy, jismoniy tarbiya, sport, oila kabi doiralarda jamoalar vujudga kelishi va samarali amal qilishi mumkin.

Zamonaviy talqinda «jamoa» tushunchasi ikki xil ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, jamoa deganda bir necha kishilarning muayyan maqsad yo‘lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, o‘quv yurti jamoasi, xo‘jalik jamosi va hokazo). Ikkinchidan, jamoa deganda, yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o‘quvchilar jamoasi yuqori darajada uyushtirilgan birlashma hisoblanadi.

12.2. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o‘ynashi to‘g‘risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa, shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanshini ta’minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb, hisoblab bo‘lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning etarli darajada uyushgan har qanday guruhdan ajratib turadi.

1. Ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi. Jamoaning maqsadi albatta ijtimoiy maqsadlar bilan mos kelishi, jamiyat va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, Davlat konstitutsisi va qonunlariga, jamiyat mafkurasiga qarama-qarshi bo‘lmasligi zarur.

2. Umumiy birgalikdagi faoliyat. Kishilar aniq maqsadga birgalikda tez erishish uchun jamoaga birlashadilar. Buning uchun jamoaning har bir a’zosi birgalikdagi faoliyatda faol ishtirok etishi zarur, faoliyat umumiy tashkil eitilishi kerak. Jamoa a’zolari birgalikdagi faoliyat natijalari uchun yuqori shaxsiy javobgarlikni his qilishlari bilan ajralib turishadi.

3. Majburiy mas’uliyatli munosabatning yo‘lga qo‘yilishi. Jamoa a’zolar orasida faqatgina yagona maqsad va faoliyat emas, ularning g‘am-qayg‘ularining aloqador birligi aks etuvchi maxsus munosabatlar yuzaga keladi.

4. **Saylangan umumiy rahbariy organga egalik.** Jamoada demokratik munosabatlar o‘rnatiladi. Jamoani boshqarish organlari jamoaning obro‘li a’zolarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiq saylab olish asosida shakllantiriladi.

Mazkur aytilgan belgilaridan tashqari jamoa boshqa muhim o‘ziga xosliklari bilan ham farqlanadi. Bu jamoa ichki muhitida aks etuvchi o‘ziga xoslik, psixologik iqlim, jamoa a’zolari orasidagi munosabatlarda ko‘rinadi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo‘g‘in, bu muayyan sinflar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Sinf jamoasi tarkibida o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliyat o‘qish faoliyati sanaladi. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shuningdek, sinflar jamoalari negizida maktab jamoasi shakllanadi.

Yuqoridagi jamoaning o‘ziga xos belgilaridan kelib chiqib, shunday xulosa chiqarish mumkin. **O‘quvchilar jamoasi** – bu ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko‘zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo‘yilgan organiga ega bo‘lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a’zolarining huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar guruhidir.

12.3. O‘quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo‘ysunadigan uzoq muddatli murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelish uchun **to‘rt bosqich** zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida dastlab o‘qituvchi butun guruhga talab qo‘yadi hamda mazkur jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e’tibor qaratadi. Navbatdagi bosqichda muayyan darajada shakllangan jamoa faollari (aktivi) jamoa a’zolari oldiga ma’lum talablarni qo‘yadi. Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a’zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi. So‘nggi (to‘rtinchi) bosqichda esa jamoaning har bir a’zosi o‘z oldiga mustaqil ravishda jamoa manfaatlarini ifoda etuvchi talabni qo‘yish layoqatiga ega bo‘ladi.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimdir. **Bolalar jamoasi rivojlanishning birinchi bosqichi**. Mazkur bosqichda

talab faqat pedagoglar tomonidan qo‘yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang‘ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo‘lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh)dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning qo‘yilishiga e’tiborsiz qaraydilar. Jamoa a’zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa a’zolarida mas’uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo‘lishiga tarbiyalanuvchilardan jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a’zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo‘ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi qat’iyligi, izchilligi, murosasizligi va jamoaning barcha a’zolariga talabni birday qo‘ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o‘qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashdan intizomning vujudga kelganligi ma’lum bo‘lsada, guruh a’zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo‘lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a’zolaridandirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati va talablariga nisbatan hayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo‘llab-quvvatlashi hamda o‘z navbatida uning o‘zi bu talablarni jamoa a’zolari zimmasiga qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo‘lgan va u bilan bog‘liq bo‘lgan muammo, masalalarni yolg‘iz o‘zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya’ni, jamoa o‘z-o‘zini boshqarishga o‘tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o‘quvchilar tomonidan muttasil rejalashtirishi, tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik, uni o‘tkazish hamda faoliyat natijalarni muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko‘rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a’zolarida faoliyat motivlari (rag‘batlari) ning paydo bo‘lishi, ijodiy hamkorlik va o‘zaro yordam munosabatlarining tez sur’atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a’zolari orasida hurmat qozona olishi, namuna bo‘lishi, o‘z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o‘z mavqyelarini suiste’mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o‘rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «Jamoa vijdoni» deya bergan ta’rifini eslab o‘tish joizdir. Jamoa faollari bir muncha imtiyozlar (huquqlar) ga ega bo‘lsa-

da, ayni paytda uning o‘ziga oshirilgan talablarning qo‘yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to‘xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko‘rsatayotgan kuch jamoaning bir qismi xolos. Bordi-yu jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to‘xtatib qolinsa, jamoa faollari guruhning boshqa a’zolari bilan qarama-qarshi qo‘yish xavfi tug‘ilishi mumkin. Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma’naviy imkoniyatlarini to‘plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulg‘ayishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi.

Bu esa ikkinchi bosqichni – jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishni ob’yektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi. Bunda boshlang‘ich davr bekor ketmaydi, faqat salbiy jo‘shqinlikka emas, balki ijobiy jo‘shqinlikka ham ega bo‘ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklarga tayyorlanish imkonini beradi, bolada o‘z-o‘zini anglash va o‘zini idora qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikkinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishini har tomonlama ulg‘ayishi uchun zarur bo‘lgan amaliy va ma’naviy munosabatlar tizimi vujudga keladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o‘zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo‘ya boshlaydi.

Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a’zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo‘nalishdagi ishni maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni, uning a’zolari tomonidan jamoa bo‘lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma’ruzalar uyushtiriladi, o‘quvchilar o‘rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy, g‘oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa bilimlar targ‘iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a’zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a’zolarini ijobiy tajribaga qo‘shish imkonini beradigan, o‘zaro munosabatlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Jamoa o‘zining har bir a’zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a’zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarining yuzaga kelishining sababi, uning a’zolarini yuksak axloqiy mazmunga ega bo‘lgan ishlarni tashkil qilishda faol ishtirok etishlarini samarasidir. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko‘rsatib o‘tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda faqat jamoa faoliyatini emas, balki jamoaning har bir a’zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo‘ya boshlaydi.

Jamoa rivojlanishining **to‘rtinchi** bosqichi. Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo‘lib, uning barcha a’zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o‘z-o‘zlariga talablar qo‘ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga muayyan talablar qo‘yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo‘yilgan har bir talab o‘ziga xos yo‘nalishi (masalan, o‘yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o‘rtasidagi farq) bilan ajralib

turadi. Xuddi shu jihatdan to‘rtinchi bosqich jamoa a’zolarining o‘ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo‘ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a’zolarining har biri uchun shaxsiy extiyojlariga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayoniga o‘sib o‘tadi. Biroq, u ayrim Shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o‘rnini pasaytirmaydi. To‘rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas’uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab talablar qo‘yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

12.4. O‘quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari

Bugungi kunda pedagog olimlar (L.I.Novikova va boshqalar) bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo‘ladi:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakllantirish, uning har bir a’zosini individual rivojlantirishning rolidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichlarini ajratib ko‘rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki Shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta’kidlaydi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko‘rsatgan edi:

- doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;
- o‘z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g‘ururlanish asosida o‘z qadr-qiymatini anglash;
- uning a’zolari o‘rtasidagi do‘stona birlik;
- jamoaning har bir a’zosidagi do‘stona birlik;
- tartibli, ishchan harakatga yo‘llovchi faollik;
- o‘z hissiyot va so‘zlarini boshqara olish ko‘nikmasi.

Jamoaning rivojlanishi – jamoa hayotining qonunidir. Xo‘sh, bolalar jamoasining olg‘a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi? Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni ko‘rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan bog‘lab, mustaqil diyorimizning bugungi jamiyat sharoitida ma’naviy va ma’rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo‘shgan kishi va jamoa tobora shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu intilish va hayotiy istiqbolda kishining ma’naviy va madaniy ehtiyojlarining jami, uning rivojlanganlik darajasi, butun ma’naviy qiyofasi aks etadi. Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri Shuki, degandi A.S.Makarenko, u oldinga qo‘yilgan maqsad sifatida bolani istagan natijaga erishish imkoniyati bilan qiziqtiradi, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyg‘otadi. Quvnoq kayfiyat va olg‘a intiluvchilikni vujudga keltiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsning bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki extiyojlariga javob beruvchi, uning a’zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi.

Jamoani vujudga keltirish va o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan tashkil etiladigan istiqbollar ularning hammasi uchun xarakterli bo‘lgan ayrim umumiy xususiyatlarga ega bo‘ladi:

- bevosita bolalarning qiziqishiga hamda vazifani bajarish uchun birgalikda jamoa bo‘lib kurash olib borishning quvonchli manzarasiga asoslangan ishlarning maroqli bo‘lishi;
- ishlarning ijtimoiy foydali qiymati va ularning butun xalqimiz olib borayotgan kurash bilan bog‘liqligi;
- istiqbol uchun kurashning borishini aniq tashkil etish;
- o‘quvchi-yoshlarda konkret axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik maqsadga muvofiqlik.

Har xil istiqbollarni tashkil etishdagi asosiy metodik usul bolalarni birorta istiqbolga erishish uchun kurashga tayyorlashdan iboratdir. Bu tayyorgarlikka ish rejalari, loyihalar va boshqalarni muhokama qilish kiradi. So‘ngra istiqbol sari harakat qilishga yordam beradigan amaliy ish bajarilishi lozim. Bu ish jamoani tashkil etish va jipslashtirish jarayonidagi eng muhim bosqichlaridan biridir. Shunga erishish kerakki, barcha yoshlar umumiy faoliyatda ishtirok etsin va bu ishtirok etish faol, ijobiy xarakterga ega bo‘lsin.

Topshiriqlarni jamoaning barcha a’zolari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yo‘lidir. Bolalarning aql-idroki emas, balki ularning xis-tuyg‘ulariga ham ta’sir ko‘rsatish uchun har qanday ish aniq tashkil etilishi, chiroyli jixozlanishi kerak. Ayniqsa, bayramlarni chiroyli va tantanali qilib tashkil etmoq kerak. Bu bayramlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etsa, bayram davomida bolalar mukofotlansa, musobaqa yakunlari e’lon qilinsa, yaxshi bo‘ladi. Bolalarning tayyorgarlikda jamoa maqsadiga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yo‘l bilan bolalarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorini egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jamoa hayotining me’yori umumiy maqsadga intilishga va qiziqarli ishlar bilan shug‘ullanishga emas, balki jamoada bolalar o‘rtasidagi munosabatlar usuliga, ularning tevarak-atrofdagi vaziyatga bo‘lgan munosabatlariga, jamoadan tashqaridagi aloqalariga ham bog‘liqdir. Har bir o‘quvchi-yoshlarda o‘z jamoasi uchun faxrlanish tuyg‘usini, shaxsiy qadr-qimmat xissini tarbiyalash zarur. Mazkur usul va uslublar jamoani shakllantirishga asosiy yo‘l va vosita sifatida asos bo‘ladi.

Jamoani shakllantirishda jamoa a’zolari va ularning faoliyatlariga qo‘yiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona talab bolalarning dars jarayonidagi tanaffus, jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi. Puxta o‘ylab qo‘yilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi o‘quv muassasasida muayyan tartibning o‘rnatilishini ta’minlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo‘yiladigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

- qo‘yilayotgan talablar ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo‘shilishi kerak;
- qo‘yilayotgan talablar muayyan o‘quv muassasasidagi mavjud sharoitni hisobga ogan holda qo‘yilishi lozim;

- qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi kerak;
- o‘quvchi-yoshlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ularda ma’naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo‘shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish, o‘quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashi mumkin, biroq aksariyat hollarda rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi. Talablarning qo‘yilish jarayonida ularga ta’lim oluvchilarning amal qilish ustidan nazorat o‘rnatishi lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi. Nazorat haqqoniy va muntazam bo‘lishi kerak. Uning natijalaridan o‘quvchi-yoshlarni ogoh etib borish lozim.

Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq. Har bir o‘qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi. Jamoa faollarini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan extiyoji mazmunidan kelib chiqadi. Ishonchli, ishchan faollarni yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatini, ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir o‘quvchining ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur. Jamoa faollarini shakllantirishda o‘quvchilarning jamoadagi obro‘sini inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibida bolalarning o‘zlari, albatta pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashish tashkil etadi. Jamoa faollarining har bir a’zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma’lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog ayni shu faolga oshirilgan talab qo‘yadi. O‘quvchilar jamoasida faol rahbarligida o‘z-o‘zini boshqarish jamoa a’zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, pedagog faolni maqsadga muvofiq faoliyat yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda o‘quvchilarni faol ishtirok etishidir. O‘z-o‘zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a’zolarining yig‘ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar jamoasini shakllantirishda an’analar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa an’analari – bu barqarorlashgan odat bo‘lib, ularni jamoa a’zolari birdek qo‘llab-quvvatlaydilar. Jamoa an’analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an’analari shartli ravishda ikkiga bo‘linadi:

1) Kundalik faoliyat an’analari;

2) Bayram an’analari.

Kundalik faoliyat an’analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam) hamda mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi. Bayram an’analariga turli voqyea hodisalar bilan bog‘liq sanalarni nishonlash, xususan, «Mustaqillik bayrami», «Navro‘z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar kiradi. An’anaviy bayramlar o‘quv muassasalarda

turlicha o‘tkaziladi. O‘quvchilar an’analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo‘lsa ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

XIII BOB. TARBIYANING UMUMIY METODLARI

13.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan?, nimani to‘ldiradi?, nimaga yo‘naltirilgan?, qanday shaklda tugallanadi?)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriya ham mavjud. Bu tarbiya metodi tushunchasidir.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish **tarbiya usullari** deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

Amaliyotda **tarbiya vositalari** tushunchasi ham ajratiladi. Usullari deganda, ta’sir ko‘rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig‘indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko‘rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko‘rsatish – bu usullar. So‘z (keng ma’noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqqoslash – usullar. Bu bilan bog‘liqlikda ba’zan tarbiya metodlari qo‘yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek, metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo‘ladi.

13.2. Tarbiya metodlari tasnifi

Zamonaviy pedagogikada ba’zilari amaliy vazifalarni hal etishga, ba’zilari faqat nazariy vazifalarni o‘zida aks ettiradigan o‘nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o‘ziga xos xarakteriga ko‘ra ishontirish, mashq, rag‘batlantirish va tanbeh berishga bo‘linadi (N.I.Boldirev, N.K.Goncharov, F.F.Korolev va boshqalar). Mazkur holatda metodning Umumiy xarakterli belgisi o‘zida yo‘nalganlikni, o‘ziga xoslikni, qo‘llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko‘proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o‘zida ishontirsh, faoliyatni tashkil etish,

o‘quvchilarning xulq-atvorini rag‘batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirshli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o‘rgatish va mashq metodlari, rag‘batlantirish, to‘sqinlik qiluvchi, boshqarish, o‘zini-o‘zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta’sir etishi natijalariga ko‘ra metodlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Axloqiy me’yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g‘oyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi.

2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta’sir etuvchi.

Hozirgi vaqtda o‘zida tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun va tartiblilikni aks ettiruvchi ko‘proq ob’ektiv va qulay metodlar qullaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog‘liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo‘linadi:

Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar.

Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish metodlari.

Pedagogik rag‘batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari.

13.3. Shaxs ongini shaklantiruvchi metodlar

Bu guruhga o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e’tiqodni, ma’naviy va siyosiy g‘oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga ta’sir ko‘rsatish metodlari kiradi.

Bu guruh metodlarining mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat o‘quvchilar ongiga qanday talablar qo‘yayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga ko‘maklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar ishlatiladi.

O‘quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya’ni davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim.

Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng ko‘p ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati o‘quvchiga qo‘yilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va o‘quvchilarga duyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g‘ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat. Tushuntirishda o‘quvchilarga mamlakatimiz fuqarosining o‘z davlatiga nisbatan huquqlar va burchlar bilan bog‘langanligi, u yashash va axloq me’yorlariga ongli rioya qilishi, mehnat va jamoada faollikni, ma’naviy yetuklik haqida axborot beriladi. Bunda davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitusiyasiga sadoqat ruhida tarbiya berishning ahamiyati katta. Shu sababli o‘quvchilarga bayroq, madhiya, konstitusiya haqida tegishli ma’lumotlar beriladi.

O‘quvchilarga xalq, davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya’ni o‘zining Vatan oldidagi huquq va burchlarini bilish, ularga qat’iy amal qilish, qonunchilik, umumbashariy axloq me’yorlari buzilishiga murosasiz munosabatda bo‘lish tushuniladi.

Suhbat va hikoya. O‘quvchi shaxsini g‘oyaviy va axloqiy shakllantirishda o‘qituvchining jonli so‘zi eng ta’sirli metod hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu

tanlashda uning mazkur sinf uchun dolzarbligi, bolalarda axloqiy ishonch uyg‘otishning suhbat mazmuniga bo‘lgan munosabatlarini va suhbatdan kutilayotgan natijani hisobga olish lozim.

Suhbat jonli, ommaviy, ishonarli bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Suhbat metodi sifatida o‘quvchilarning hayoti, fan va texnika, etika-estetika va boshqa sohalardagi tasavvur va tushunchalari doirasini kengaytirishga yordam beradi. Suhbat samarasini o‘quvchilarning ijobiy yoki salbiy javoblariga qarab bilish mumkin.

Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: yetik mavzular (kishilarning jamiyatdagi axloq mezonlari, o‘zini tutish qoidalari), estetik mavzularda (tabiat go‘zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go‘zalligi), siyosiy mavzularda (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqyealari), ta’lim va bilishga oid mavzularda (koinot, hayvonot dunyosi).

Suhbat davomida o‘quvchilarning dilidagini aytish jasoratini uyg‘otish, ularning fikrlarini tinglash, suhbatda faol qatnashishga erishish, ya’ni o‘quvchilarni fikrlashga majbur qiluvchi savollar berish, mavzu bo‘yicha o‘z bilimlarini tahlil qilishga, tortishishga va haqiqatni anglashga erishishlari juda muhimdir.

Hikoya. O‘quvchilar odatda hayotdan va badiiy adabiyotdan olingan aniq misollar bilan to‘liq hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga axloq mezonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san’at haqida hikoya qilib berish mumkin. Badiiy adabiyot, radio, televideniye, gazeta va jurnallardagi maqolalar ham qimmatli manba bo‘ladi. Suhbat ham, hikoya ham o‘quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushunadigan so‘zlar orqali o‘tkazilishi kerak. Eng yaxshisi, suhbat va hikoya mavzusini o‘quvchilarning o‘zlari tanlasin, bunda suhbatning zavqliligi ta’minlanadi, o‘quvchilar mavzuga befarq qaramaydilar. O‘qituvchi suhbat mavzusini oldindan e’lon qilib, masalan: mehnatsevarlik yoki rostgo‘ylik, halollik mavzularida suhbat o‘tkazish uchun mavzuga oid maqolalar, matallar va maqolalar to‘plashni topshiradi, bunda o‘quvchilarning o‘tkaziladigan tadbirda faolliklari yanada ortadi.

Namuna. O‘quvchilar o‘z atrofidagi kishilarda hamma yaxshi axloqiy sifatlarni ko‘rishlari, o‘qituvchilari, ota-onalari, oilaning katta yoshli a’zolari va boshqalarning fe’l-atvor, yurish-turishida bolalarga yetarli darajada namuna ko‘rsatishlari nihoyatda muhimdir.

O‘qituvchining shaxsan o‘zi namuna bo‘lishi, ayniqsa, katta ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘qituvchining darsda va hayotda o‘zini qanday tutishini, atrofdagi kishilar bilan qanday muomala qilishini, o‘z vazifalarini qanday bajarishini kuzatib yuradilar.

O‘quvchilar yaqin kishilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar. Xulq-atvorlar bolalarda yaxshi sifatlarning, ba’zan esa yomon sifatlarning ham tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi va ota-onalar har qanday holatda ham o‘zlarini tuta bilishlari kerak, chunki qayerda bo‘lishmasin, atroflarida bolalar borligini his etishlari lozim. Kattalarning so‘zi bilan yurish-turish va xatti-harakatlarida tafovut bo‘lmasligi kerak. Katta yoshdagi kishilarning, o‘qituvchi va tarbiyachilarning bolalarga yaqin bo‘lishlari, ularni o‘zlariga moyil qila

bilishlari, ular bilan yaqin aloqaga ko‘nika olishlari ham ularning o‘rnak bo‘lishdagi kuchini oshirishga yordam beradi.

Respublikamizdagi ilg‘or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan yorqin ma’lumotlar, adabiy asarlardagi, kinofil’mlardagi va spektakllardagi qahramonlar xatti-harakatidagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta’sir qiladi.

Maktablarda ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar o‘tkaziladi. O‘quvchilar o‘z otalari va onalarining ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlari bilan faxrlanadilar, ularga taqlid qilishga intiladilar.

Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan.

Ota-bobolarimiz o‘z farzandlarini hamma yaxshilardan, donolardan, ulug‘ kishilardan ibrat olishga da’vat qilib kelganlar. Masalan: "qush uyasida ko‘rganini qiladi". Juda oddiy ibora ostida qancha fikrlar jamlanib yotganligini hamisha ham faxmiga boravermaymiz. Bu bilan xalq, uyingda tartibli bo‘l, aks holda bolang ko‘chada tartibsiz bo‘ladi. Bola oldida birovlarning g‘iybatini qilma, bolang g‘iybatchi bo‘ladi, demoqchi.

Bunga o‘xshash fikrlarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

13.4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish metodlari

Bola rivojlanishining, uning o‘zligini belgilashning asosiy omili-bu faoliyatdir. Faoliyat nuqtai nazaridan yondoshish qoidasi maktab hayotining hamma jabhalarida ta’lim-tarbiya jarayonlariga singib ketadi.

Faoliyat o‘quvchilarning bilimlarini mustaqil egallashga undaydi, ularni qaysi ixtisosga moyilliklarini aniqlashga, ijodiy faoliyat tajribasini, hissiy qadriyat munosabatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi, ularning mustaqilliklarini oshiradi.

O‘quvchilarni birinchi sinfdan boshlab qo‘llaridan kelgan ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanishlariga erishish lozim. Bunday mehnat ko‘pchilik, jamoa bo‘lib bajarilganida yaxshi natija beradi.

13.5. Mashq va o‘rgatish metodlari

Mashq bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil qilish, ularni axloq mezonlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikda tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi.

O‘qituvchilar, ota-onalar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari kerak. O‘quvchilar odatlarni yaqinlaridan meros qilib olmaydi, balki ular orqali hosil qiladi. Odat ehtiyojga aylanadi. Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko‘p marotaba takrorlashni o‘z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o‘quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko‘nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o‘quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi, axloqiy tajribasi kengayadi. Odatsiz tarbiya-poydevorsiz binoga o‘xshaydi, odat esa muntazam mashq orqali mustahkamlanadi.

O‘rgatish – ijtimoiy xulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

O‘rgatish bir necha izchil harakatlar yig‘indisidir. O‘qituvchi bu harakatlarni ko‘rsatib berishi, tushuntirishi, kuzatishi lozim (sinfda navbatchilik qilish).

Tarbiya amaliyotida mashq qilishning turli xillari mavjud: faoliyatda mashq qilish; kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoadagi faoliyat va o‘zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilgandir. Kun tartibi mashqlari maktabda, oilada o‘rnatiladigan kun tartibiga amal qilish, shu bilan bog‘liq o‘z istak va harakatlarni boshqarish, ish va bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish odatiga o‘rgatadi. Maxsus mashqlar madaniy xulq, malaka va ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

Topshiriq. O‘quvchilarning mehnat topshiriqlarini jamoa bo‘lib bajarishlari ularda ijtimoiy xulq tajribalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. O‘quvchilar o‘z kuchlarini umumishga sarflashga, jamoa uchun mas’uliyatni his etishga o‘rganadilar. Mehnat qilish bolani harakteri va irodasini o‘stiradi.

Bola faoliyatining shakllanishida burchga mas’uliyat hissini tarbiyalash lozim.

O‘quvchilar hayotiy faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilishi zarur, qiziqarli, to‘laqonli, bolalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, xayriya, ijtimoiy-foydali, ijodiy, ko‘ngilochar va shunga o‘xshash tadbirlar tashkil etilishi lozimligi, natijada o‘quvchilar o‘zlari yoqtirgan ishga qo‘l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tuyib, o‘zlariga ishonchlari orsin, axloqan barqaror bo‘lsinlar. Sinfdan tashqari ishlarda o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini jamoa foydasi uchun ommaviy, guruh, alohida shakllari va uslublari orqali tashkil etish mumkin. To‘garak, klub ishlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, yigit va qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, u yoki bu faoliyatda bajarilishi zarur bo‘lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo‘lishi, turli ko‘rsatma sifatida namoyon bo‘lishi, u yoki bu harakatlarga undovchi bo‘lishi mumkin.

13.6. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari

O‘quvchida o‘z-o‘zini tarbiyalashga ehtiyoj, ya’ni o‘zi ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo‘lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblasa bo‘ladi. O‘quvchilarni, ayniqsa, o‘rta va katta yoshdagilarni o‘z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo‘llash kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchilarning o‘z-o‘zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeyini shakllantirishning ta’sirchan vositasidir. O‘quvchilar o‘qishda, tarbiyada, dam olishda o‘z-o‘zini tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o‘z-o‘zini tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o‘quvchilarning mustaqil faoliyati, ishi pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo‘lsagina o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro chuqur hurmat, xayrihohlik, ishonch bo‘lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o‘z-o‘zini idora qilish tashkilotlari o‘z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib

turishi, so‘z bilan ish birga saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag‘batlantirilishi e’tiborda bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo‘lganda, u o‘zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko‘rsata boshlagan vaqtda paydo bo‘ladi. O‘z-o‘zini tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intelektual) maslahat va ko‘rsatmalar berilishi lozim. Bunda o‘quvchilarning o‘zlariga xatti-harakatlariga tanqidiy ruhda munosabatda bo‘lishga o‘rgatish juda muhimdir. O‘quvchilar o‘zlari muayyan vaqtda belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo‘yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o‘zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarini bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa, ularning o‘z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas’uliyatlarni his etishlari uchun yordam beradi.

O‘z-o‘zini tahlil qilish. O‘z shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o‘ylashga o‘rgatadi. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘quvchi o‘zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarini ortib borish va aksincha, salbiy odatlarni kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O‘z-o‘zini baholash. O‘quvchining qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashish zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin o‘quvchini bunga yetarli tayyorlash mumkin. Buning uchun irodali bo‘lishi, o‘zining o‘quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o‘qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo‘lishi, ya’ni tahsil va tarbiyalanishni hohlashi, o‘zini o‘rtoqlarining, yaqin kishilarining ko‘zi bilan ko‘rish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim.

O‘z-o‘zini baholash o‘quvchi uchun o‘zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o‘ziga chetdan turib holisona baho berish, o‘zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

13.7. Pedagogik rag‘batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari

O‘qituvchi bolalarning har biri o‘sib, ulg‘ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo‘layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina, bola o‘zining olg‘a siljib borayotganini ko‘ra biladi, o‘z-o‘ziga, o‘z kuchiga ishonadi. Uni hurmat qilishadi, unga ishoniladi, unga quloq solishadi,u jamoaga kerak, u o‘qituvchini qiziqtiradi, ular bir-birlariga ishonadilar. Bunga erishish uchun rag‘batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki, rag‘batlantirish bolaga ishonishga, unda bo‘lgan qobiliyat va fazilatlarning kuchini e’tirof etishga asoslangan. Rag‘batlantirish o‘quvchining ko‘nglini ko‘taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo‘lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag‘batlantirishning quyidagi turlari qo‘llanadi:

- o‘quvchining kuchi yetadigan, mas’uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish; bunda o‘quvchi o‘z qadr-qimmati bilan faxrlanadi;
- maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
- esdalik sovg‘asi (kitob, ruchka, o‘quv asbobi va boshqalar);
- maqtov yorlig‘i berish;
- stipendiya bilan taqdirlash;
- hurmat taxtasiga fotosuratni qo‘yish;

- ma’suliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
- safda birinchi o‘rinda turish;
- musobaqalarda bayroq ko‘tarish;
- gazeta-jurnal va radio-televidiniyelarda e’lon berish.

Har qanday rag‘batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo‘llanishi lozim. Ya’ni, rag‘batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo‘lishi, ketma-ket bo‘lmasligi, haddan oshirib maqtash, boshqa o‘quvchilarga taqqoslab, ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, rag‘batlantirishga bo‘lgan talabchanlikni bo‘shashtirmaslik va hokazo.

Jazolash – bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o‘quvchining va butun sinf manfaati uchun qo‘llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo‘llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo‘rqitish, g‘azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o‘quvchi qo‘rqqanidan yolg‘on gapirishga o‘rganadi, ikkiyuzlamachi bo‘lib qoladi.

Maktablarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

Tanbeh berish eng yengil jazo chorasidir. O‘qituvchi bolaga yuzma-yuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo‘yish mumkin.

Ogohlantirish noma’qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Hayfsan berish, agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o‘quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o‘quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e’tiborga olib, unga hayfsan e’lon qilish mumkin.

Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda odamda izzat-nafs, odamiylik qancha kuchli bo‘lsa, avvalo, o‘zini hurmat qilsa, unda or-nomus, uyat shunchalik kuchli bo‘ladi. Bolalarni tarbiyalashda Shu hislarni ehtiyotkorlik bilan o‘stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish yaramaydi. Bundan oqilona va o‘z o‘rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga umid qilish mumkin.

Jazo yaxshi o‘ylab qo‘llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka harakterli, ya’ni bitta bo‘lsin, o‘quvchilarning aybiga mos, muvofiq bo‘lsin, tez-tez qo‘llanilmasin, jazolanuvchi ongida jazoni haqqoniy ekanligi aniq bo‘lsin va ular o‘z ayblarini sezsinlar. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo‘llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta’sir kuchi yana oshadi. Barcha hollarda ham jazo tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha’nini bukmasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta’riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini hammasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

Tarbiyaning metodini muvaffaqiyatli qo‘llanishiga, bu metod mazkur sinf jamoasining tarbiya tizimidan qanchalik o‘rin olganiga, qo‘llanilayotgan tarbiya vositalari qanchalik javob berishiga bog‘liqdir.

13.8. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari

Metodning ijobiy va salbiysi bo‘lmaydi, tarbiya jarayonida ma’lum yo‘lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo‘llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog‘liq.

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog‘lash g‘oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o‘xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog‘liqlikda hal qilinadi.Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko‘rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o‘z aksini topadi. Aytaylik, mas’uliyat tuyg‘usini boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo‘llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O‘zini o‘zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog‘liqlikda pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlari ham o‘zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma’lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o‘zi tarbiyaviy o‘zaro ta’sir etishning asosi bo‘la olmaydi. Ularni indivudual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o‘ziga xosligini rivojlanishiga, o‘ziga xosligini saqlashga, o‘zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo‘llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir.Ma’lumki, mavhum shart-sharoitlar bo‘lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko‘rinadi. Tarbiya amalag oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog‘langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo‘llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko‘rgazmali qo‘llanmalar, tasviriy san’at asarlari va musiqa san’ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o‘zi biladigan va qo‘llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko‘plab metodlar murakkab bo‘lganligi bois, o‘kituvchida ko‘p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas’uliyatdan bo‘yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga

harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo‘ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam , maqsad esa katta bo‘lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo‘llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak.

XIV BOB. ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH. AQLIY TARBIYA

14.1. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g‘oyani shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari

Dunyoqarash – tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g‘oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma’naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e’tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Eng muhimi, insonning olamga munosabati, dunyodagi o‘rni, mohiyati, hayotiy yo‘nalishini, o‘zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qiliish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma’nodosh ekanligini aytish joiz. Dunyoqarash tushunchasi mafkura tushunchasi bilan aloqador. Mafkura bizning nazarimizda mehnatsevarlikka, milliy ong, milliy g‘oya, milliy g‘ururni tarbiyalashga, o‘zini-o‘zi anglashga, millatimiz bosib o‘tgan tarixiy taraqqiyot yo‘liga qanday yondashishimizni bilishga, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, rasm-rusmlarimizni qayta tiklashga va yanada rivojlantirishga qaratilgan. Bizning milliy istiqlol mafkuramiz davlat mustaqilligini mustahkamlashda, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishda aniq maqsad va yo‘nalishlarga tayanadi. Uning yordamida xalqimiz inson huquqini himoya qiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptiradi, kelajagi buyuk davlat qurish yo‘lida o‘zida kuch topadi. Eng muhimi, istiqlol mafkuramiz, milliy g‘oyamiz insonni halol va pok hayot kechirish, beva-bechoralar, qarovsiz qolgan bolalarga nisbatan diqqat va e’tiborda bo‘lishkabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga asoslanadi. Dunyoqarash insoniyatni o‘tmish merosi, hozirgi hayot va bundagi sharoitlar, tizimlarning anglab olinganligi, qadriyatdir. Dunyoqarash kishilarning turmush tarzi, hayoti, axloq-odobi, madaniyatini yanada o‘zida mujassamlashtirgan tasavvurlar, bilimlar yig‘indisidir.

Muayyan dunyoqarashga ega bo‘lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub’yektlarga nisbatan ma’lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi

ijtimoiy burchlarini to‘laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas’uliyat tuyg‘usiga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash **izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta’lim-tarbiyaning yo‘lga qo‘yilishi, uning turli yo‘nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o‘z-o‘zini tarbiyalab borishi** natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o‘zlashtirilishi muhim o‘rin tutadi.

Shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo‘lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta’minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.

14.2. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari

Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi.

Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi.

Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Aqliy rivojlanishning nima ekanligini aniqlash uchun “fikrlash” va “aql kuchi” tushunchalariga to‘xtalish lozim bo‘ladi.

Amaliy tajribamimizda fikr so‘zini juda ko‘p uchratamiz. Oddiy qilib aytganda, ob’yektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘lgan tuyg‘u **fikr** deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, fikrimiz orqali biz ko‘zimiz bevosita ilg‘amayotgan, ko‘z o‘ngimizda bo‘lmagan, bo‘lgan taqdirda ham o‘sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo‘lgan «sirli» jihatalarini ko‘rish imkoniga ega bo‘lamiz.[7]

Fikrlash esa, shaxs bilish faoliyati jarayoni bo‘lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettrish bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, u aqliy faoliyat mahsuli. Eng qizig‘i fikrlash merosiy tushuncha, u barcha inchonlarga xos. Falsafiy, pedagogik, psixologiyk adabiyotlarda fikrlashning 20 dan ortiq turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- mantiqiy;
- abstrakt(mavhum);
- umumlashgan;
- nazariy;

[7] Karimova V. va b. Mustaqil fikrlash – T.: 2001 6-b.

- texnik;
- reproduktiv;
- ijodiy (produktiv);
- tizimli;
- kategorial;
- induktiv;
- deduktiv;
- algoritmik;
- tanqidiy;
- mustaqil va boshqalar.

Mantiqiy fikrlash:

- bilimlarga mantiqiy ishlov berish usullarini egallash, ya'ni oldin o‘rganilgan va yangi bilimlar orasida umumlashgan aloqadorlikni o‘rnatish;
- tushunchalarga tavsif bera olish;
- muhokama, isbotlash, rad etish, xulosa chiqarish, faraz, bashorat qilish usullarini egallash bilan xarakterlanadi.

Umumlashgan fikrlash hodisalarni muayyan guruhlarida ko‘p uchraydigan harakat usullari yoki umumiy tamoyillarni topa olish bilan xarakterlanadi.

Nazariy fikrlash:

- yuqori darajada umumlashgan bilimlarni egallashga layoqatlilik;
- u yoki bu sohadagi bilimlarning rivojlanish tamoyillari va ilmiy asoslarini tushunish bilan xarakterlanadi.

Texnik fikrlash – texnika bilan ishlashga insonning psixologik tayyorgarligini, ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy tamoyillari va ilmiy asoslarini tushunishni talab etadi.

Reproduktiv fikrlash – ma'lum turdagi vazifalarni hal etish yoki aniq sharoitlardagi harakatlarni bajarish uchun o‘zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish bilan bog‘liq.

Ijodiy fikrlash – oldin unga tanish bo‘lmagan yangi vazifalarni insonning mustaqil hal etishi.

Tizimli fikrlas – insonning fanlarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘ra olishi, umumiy, jamiyat va tabiat rivojlanish qonuniyatlarini bilishi asosida yuzaga keladi.

Kategorial fikrlash – tushunchalarni bir sinf va guruhlash asosida paydo bo‘ladi. Masalan, "it-ot-mushuk", ularning qatorida yo‘lbarsni qo‘yish mumkin emas, chunki bu yerda faqat uy hayvonlari birlashtirilyapti.

Induktiv fikrlash – xususiy fikrdan umumiy fikrni paydo bo‘lishi orqali yuzaga chiqadi. Faktlardan umumlashma hosil bo‘ladi.

Deduktiv fikrlash – umumiy fikrdan xususiy fikrlash asosida kelib chiqadi. Masalan, qoidadan misollarni keltirib chiqarish.

Algoritmli fikrlash – aniq tushunchalar asosida hukm tarzida xulosa chiqarish.

Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o‘zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o‘ylash jarayonidir.

Mustaqil fikrlash – bu insonning muammoni, uni hal qilish yo‘llarini o‘zi ko‘ra olishi va unga mustaqil javob topa olish qobiliya-tidir.

XX-asrning so‘ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni amalga oshirish ko‘plab ta’riflanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, **“aqliy rivojlanish”** tushunchasi keng qo‘llaniladi, lekin qanday belgilariga ko‘ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta’lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o‘ynashini e’tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma’lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O‘z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta’siri ostida ijtimoiy tajribani o‘zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o‘zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo‘ladi.

Olimlar orasidagi ba’zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi. Masalan, A.N.Leontev bilimlar bilan aqliy rivojlanish, xuddi shunday rivojlanish o‘rtasida aniq teng ishorasini qo‘yadi. Uning fikricha, insoniyat tajribasini “o‘zlashtirish” butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarda qo‘lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi. Boshqa olimlar (E.N.Kabanov-Meller, V.A.Krutetskiy) bilimlarni ahamiyatini pasaytirmaydi, biroq uni mutlaqlashtirmaydi ham. Ular bilim aqliy rivojlanish sharti sifatida aks etadi, lekin uning tuzilishiga kirmaydi, deb hisoblashadi. Bu mualliflarning fikricha, aqliy rivojlanish faqatgina bilimni o‘zinigina emas, insonning mazkur bilimni yangi sharoitlarda qo‘lga kiritish, qo‘llay olish, uzatish imkoniyatidan kelib chiqadi.

Z.I.Kalmikov quyidagi ta’rifni taklif etadi: **aqliy rivojlanish** – inson psixikasining individual o‘ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o‘zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o‘zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. **Amaliy bilimlar zahirasi** aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak.

Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta’lim olganlik o‘z aksini topadi. **Ta’lim olganlik** – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqlning teranligi inson yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo‘lgan belgilarning muhimligi bosqichi va ularni umumlashganligi darajasida namoyon bo‘ladi.

Aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o‘tishdagi qiyinchilikda namoyon bo‘ladi.

Fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o‘zgaruvchanlikni talab etadi.

Aqlning barqarorligi insonga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko‘rinadi.

Fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so‘zda ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati.

Aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo‘llarini faol izlashda namoyon bo‘ladi.

Fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab etarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

14.3. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari

Aqliy tarbiya ta’lim oluvchining intellekti, bilish imko-niyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Uning asosiy vazifasi – ta’lim oluvchilarning fan asoslari bo‘yicha bilimlar tizimi bilan qurollantirish. Ularni o‘zlashtirish natijasida dunyoqarash asoslari shakllanishi zarur.

Aqliy tarbiyaning **vazifalari** quyidagilar:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Agar inson odamlar orasida ijtimoiy muhitda yashar ekan, uning aqliy taraqqiyoti, intellekti haqida gapirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa uning jismoniy taraqqiyoti uchun ham muhim.

Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta’sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi va fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin.

XV BOB. FUQAROLIK TARBIYASI. HUQUQIY TARBIYA

15.1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari

Tarbiya ko‘p qirrali jarayon ekan, bu jarayonda komil insonga xos barcha sifatlar shakllantirilishi, tarbiyaning barcha turlari berilishi lozim. Shaxsni shakllantirish va kamol toptirish jarayonida fuqarolik tarbiyasini berish tarbiyamizning muhim vazifalaridan biridir.

«Ta’lim to‘g‘riida»gi Qonunda ham yoshlarning fuqarolik tarbiyasiga e’tibor qaratilgan. Qonunning maqsadi fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitusiyaviy huquqini ta’minlashdan iborat ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Qonunning 4-moddasi fuqarolarning bilim olish huquqiga, 5-moddasi esa pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga bag‘ishlangan. «Ta’lim to‘g‘riida»gi Qonunni va boshqa har qanday hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qonunlar, farmonlar, qarorlarni va ularga amal qilishni o‘rganish o‘quvchilarda fuqarolik yetukligini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Milliy istiqlol mafkuramizning bosh maqsadidan qanday fuqaroni shakllantirish davr talabi ekanligini bilib olishimiz mumkin. «Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish mamlakatimizda yashaydigan millati, tili, dinidan qat’iy nazar har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analarimizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoiylikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir»8.

Fuqarolik tarbiyasining asosini esa huquqiy tarbiya tashkil qiladi desak xato bo‘lmaydi. Xalqimiz ko‘p asrlik boy huquq va huquqiy madaniyat tarixiga ega.

O‘zbekistonimiz mustaqil, demokratik, huquqiy davlat ekan, u insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab boradi. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa shaxsning huquqlari va erkinliklarini amalga oshirib bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning ongiga yuksak fuqarolik, ma’naviy barkamollik sifatlarini singdirishda tarbiyaning barcha omil va vositalaridan pedagogik ishning barcha usullaridan odilona, maqsadga muvofiq foydalanish o‘zining samarali natijalarini beradi. Jumladan, davlat ramzlari va ularning mohiyatini darslarda va sinfdan tashqari tadbirlarda o‘quvchilarga o‘rgatib borish o‘quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg‘ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilallik sifatlarini shakllantirish ham fuqarolik tarbiyasining muhim tarkiblaridan biridir. Vatanga muhabbat shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi, baynalminallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida vatan boyliklarini ko‘paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.

15.2. O‘quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda Davlat ramzlaridan foydalanish

Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonidan kutilgan asosiy natija ekan, yoshlarimizga kompleks tarbiya berishimiz lozim. Ayniqsa, ularda fuqarolik hissini shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish, vatanparvar va baynalmilal insonlar qilib yetishtirishga, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini o‘stirishga alohida ahamiyat qaratishimiz lozim. O‘quvchilarga huquqiy tarbiya berishda va ularni vatanni sevishga o‘rgatishda davlat ravmzlaridan foydalanishning ahamiyati kattadir.

Davlat ramzlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o‘quvchilarga tushuntirish, tarbiyalanuvchilar xulq-atvoriga chuqur ta’sir etadi. Hayotga qadam qo‘yib kelayotgan har bir o‘quvchi davlatimiz Konstitusiyasi, gerbi, bayrog‘i va madhiyasini yaxshi bilishi kerak. O‘quvchilarda Shu ramzlarga chuqur hurmat-ehtirom tuyg‘ularini tarbiyalash tarbiyaviy ishlarimizning uzviy qismini tashkil etishi lozim.

[8] Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O‘zbekiston», 2000, 7-b.

Davlat ramzlarini o‘rganish pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, o‘quvchilarning huquqiy va axloqiy his-tuyg‘ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada o‘quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat gerbi, bayrog‘i, madhiyasi hamda o‘quvchilarning tashkilotlari ramzlari axloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozaralar va suhbatlar shubhasiz samarali natijalar beradi.

Davlat ramzlari faqat ta’sirchan tarbiyaviy vosita bo‘lib qolmay, balki ta’limiy jihatdan ham muhim omillardandir.

Davlat gerbi va bayrog‘ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishish jarayonida o‘quvchilarda davlat hokimiyati ramzlariga hurmat his-tuyg‘usi qaror topadi. Davlat ramzlarini o‘rganishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari albatta hisobga olinishi, mavjud darslik, uslubiy ko‘rsatma va qo‘llanmalardan o‘z o‘rnida foydalanish lozim.

O‘zbekiston fuqarosi o‘z Vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasining qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lishi shart. O‘quvchilarda shu his-tuyg‘ularni tarbiyalash o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir.

Davlat ramzlarini o‘rgatish faqat gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonidagina emas, balki har bir fanni o‘qitishda ham, ayniqsa darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar jarayonida ham keng olib borish kerak. Davlat ramzlarining mohiyatini o‘rgatish, ularga hurmat ruhini tarbiyalashda sinf rahbarining o‘rni ham ahamiyatlidir.

Davlat ramzidan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ta’lim va tarbiya jarayonida ularning ahamiyatini o‘quvchilarga tushuntirish, ularning hulq atvoriga chuqur ta’sir etadi. Hozirgi vaqtda davlat ramzidan foydalangan holda o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish alohida muhim masalalardan bo‘lib turibdi. Hayotga qadam qo‘yuvchi har bir o‘smir o‘z Respublikasining qomusini bilishi, unga amal qilishi kerak. O‘quvchi va yoshlarda O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi, gerbi va bayrog‘iga nisbatan chuqur hurmatni tarbiyalash ishlarimizning uzviy qismini tashkil etadi. Huquqiy tarbiyani muvaffaqiyatli hal etish uchun har bir maktab, kollej, litsey o‘z o‘quvchi va talabalariga davlat ramzlarining tub moxiyatini ochib ko‘rsatishlari va ular haqidagi Nizomlarni puxta o‘rganishlarini tashkil etishlari zarur. Davlat hokimiyatining ramzlari o‘zining mohiyati jihatidan huquq bilan bog‘liq bo‘lib, muhim tarbiyaviy mazmunga ega. O‘zbekiston Davlat gerbi, bayrog‘i, madhiyasi mamlakatimizdagi barcha millat va elatlar birligi, do‘stligi va qardoshligining ramzlari hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, davlat ramzlari juda boy, siyosiy-ma’naviy davlat tushunchalariga egadir.

Ularning mazmunlari bilan o‘quvchi va yoshlarni tanishtirish pedagogik jamoalarning muhim burchidir. O‘quvchi va yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarida faqat Davlat ramzlaridangina foydalanib qolmay, balki o‘quvchilar tashkilotlarining ramzlarini ham o‘rganishga e’tibor berish kerak. Bunday mashg‘ulotlar ko‘pincha sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda amalga oshiriladi.

Davlat ramzlarini o‘rganishni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilsa, u o‘quvchilarning huquqiy va ahloqiy xis-tuyg‘ulariga, vatanparvarlik qarashlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada o‘quvchilar bilan olib boriladigan jamoa tarbiyaviy ishlarining imkoniyatlari beqiyosdir. Davlat Gerbi, bayrog‘i, madhiyasi hamda o‘quvchilar tashkilotlari ramzlarining ahloqiy, siyosiy, huquqiy mazmuni haqida uyushtirilgan xilma-xil munozara va suhbatlar, shubxasiz, samarali natija beradi. Bunday tadbirlar o‘rtasida o‘quvchilarda fuqarolik sifatlarini tarkib topishiga yordam beradi. Davlat ramzlari faqat ta’sirchan tarbiyaviy vosita bo‘lmay, balki ta’limiy jihatdan ham muhim omillardandir.

O‘quvchilar Davlat gerbi va bayrog‘ining tasviri, Davlat madhiyasining matni bilan tanishadilar. Ularda davlat hokimiyati ramzlariga hurmat xis-tuyg‘usi qaror topadi. Umuman, davlat ramzlarini o‘rganishda o‘quvchilarning yosh hususiyatlari, albatta, hisobga olinishi, mavjud darslik, usuliy qo‘llanmalariga, qoida va nizomlarga to‘la amal qilinishi kerak. Davlat gerbi va madhiyasi, O‘zbekiston Respublikasi qomusi hamda o‘quvchilar tashkilotlarining ramzlari bilan olib boriladigan pedagogik ishlari samaradorligi huquqiy tarbiyaga bevosita bog‘liq ekanligini unutmaslik kerak.

15.3. O‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilal ruhda tarbiyalash

O‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o‘rni o‘ziga xos va juda muhim. Axloqiy tarbiyaning mazmunida jamiyatga, Vatanga muhabbatni tarbiyalash va baynalmilallikni targ‘ib qilish birinchi o‘rinda turadi. Vatanga muhabbat va sadoqat shaxsning vatanparvarligi, fuqaro yetukligi baynalmilallik kabi fazilatlarda aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko‘paytirish, mustahkamlash va himoya qilishga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Vatanparvarlik va baynalmilallik axloqiy tarbiyada alohida o‘rin tutadi. Hadisi shariflarda ham «Vatanni sevmoq iymondandir», «Vatan ostonadan boshlanadi» deb bejiz aytilmagan.

Vatan o‘zi nima? **Vatan** (arabcha «vatan» - ona yurt) deganda – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug‘ilib o‘sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati tushuniladi. Kishi ulg‘aygan sari, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada tili, e’tiqodi, urf-odatlari ap milliy sifatlari bir bo‘lgan avlodlar yashayotgan jug‘rofiy muhit Vatanni ifoda etadi.

Vatanparvarlik – kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg‘u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug‘langan.

Vatanpavarlik shaxsni axloqiy shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabda vatanparvarlikni shakllantirish quyidagi mezonlar asosida tashkil etiladi:

- vatanga muhabbat hissi;
- milliy g‘urur;

- davlatimizning milliy istiqlol mafkurasi va uni ilmiy idrok etish;
- davlatimiz ramzlariga sadoqat;
- millatlararo madaniy muomala (baynalmilallik).

Vatanparvarlik hissini har bir fandan dars o‘tish jarayonida, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarni (Tarix, Inson va jamiyat, Davlat va huquq asoslari, Adabiyot) va mustaqillikdan keyin ta’lim jarayoniga kirib kelgan «Odobnoma», «Vatan tuyg‘usi», «Ma’naviyat asoslari», «Konstitusiya asoslari», «Milliy istiqlol g‘oyasi» va boshqa ko‘plab fanlarni o‘qitish jarayonida shakllkntirish ijobiy samara beradi.

O‘quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilallik tuyg‘ularini shakllantirishda darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning va sinf rahbarining o‘rni ham o‘ziga xosdir. «Vatan tarixini bilmay turib, uni to‘la sevib bo‘lmaydi», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Vatan – yagonadir, Vatan – bittadir» va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab mavzularda bellashuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazish bilan ham Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalarigasadoqatni tarbiyalash mumkin. Yuqori sinf o‘quvchilari bilan esa tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda siyosiy axborotlarning o‘rni salmoqlidir. Bolalar bunda mamlakatimiz va chet eldagi siyosiy voqealar bilan tanishib boradilar.

Baynalmilallik axloqiy qoida sifatida vatanparvarlikni boyitadi, o‘z milliy qobig‘iga o‘ralib qolishga yo‘l bermaydi. Barcha xalqlar bilan do‘st bo‘lib, tinchlik va taraqqiyot uchun kurashga chorlaydi. O‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalash ularda insonparvarlik hissini ulg‘aytiradi, turli millat va elatlar bilan do‘st-inoq yashashga o‘rgatadi. 130 dan ortiq turli millat va elatlar yashab-istiqomat qilayotgan O‘zbekiston sharoitida esa baynalmilal tarbiya yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi.

15.4. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari

O‘zbekiston – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa shaxsning huquqlari va erkinliklari amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu jihatdan XII-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining o‘n oltinchi sessiyasida qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi huquqiy tarbiyada asosiy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Bunda voyaga etmaganlarning javobgarligi to‘g‘risidagi moddalarni o‘rganishni osonlashtiradi. Pedagoglarni mazkur bo‘limdan foydalanish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Jazo turlari ham qayta-qayta muhokama qilinishi natijasida o‘quvchilarning ongiga mukammal singib boradi.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqil bo‘lishi munosabati bilan maktablardagi ta’lim-tarbiya ishlari tinimsiz rivojlanib, takomillashib kelayotir. Mamlakatimizda juda katta ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y berganligi, yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq targ‘ibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquq targ‘ibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikadagi sog‘lom vaziyat, xalqning moddiy farovonligi va madaniy saviyasiniig o‘sib borayotganligi mehnatkashlarning onglilik va intizomlilik darajasi yuksalganligi tufayli huquqbuzarlik xollari tobora kamayib bormoqda. Kishilar ongiga jamiyat manfaatlari yo‘lida halol mehnat qilish, sofdil, xaqgo‘y bo‘lishi, adolatsizlikka, tekinxo‘rlikka, ta’magirlikka qarshi murosasiz bo‘lishi, qonun me’yorlariga hurmat nazari bilan qarash kabi xislatlar ko‘proq singib bormoqda.

Ayni paytda Respublikada ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘layotgan huquqbuzarlik holatlari onda-sonda bo‘lsa ham, davom etmoqda va ular barham topgan emas. Bunday hollarga batamom barham berish uchun qonun kuchidan, huquqiy tarbiyaning ta’sir ko‘rsatish vositalaridan, keng jamoatchilik yordamidan etarlicha foydalanilayotgani yo‘q. Huquq tartibotining har qanday buzilishlarini batamom yo‘qotish, qonunchilikni buzish hollariga befarq bo‘lmaslik umumxalq ishi bo‘lib, ular yoshlarga huquqiy tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Huquqiy tarbiyani esa, bolaning yoshlik chog‘idan boshlash lozim. Chunki, yoshlar bizning kelajagimiz, davlatimizning tez kunlardagi haqiqiy fuqarolaridir. Kelajak avlodning huquqiy; ma’naviy kamol topishi hukumatning muntazam g‘amxo‘rlik qilishi ham shu boisdandir.

O‘quvchilarga yuksak fuqarolik va ma’naviy sifatlarni singdirishdek bag‘oyat zarur masalani to‘g‘ri va muvaffaqiyatli hal qilishda tarbiyaning barcha omil va vositalaridan, pedagogik ishning barcha usullaridan, oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish, hech shubxasiz, o‘zining samarali natijalarini beradi.

Har bir pedagog ta’lim bilan tarbiya birligiga, ta’lim berib tarbiyalash va tarbiyalab ta’lim berishga jiddiy e’tibor berishi lozim.

Xususan, o‘quvchi va yoshlarga huquqiy tarbiya berishda, ularda yuksak fuqarolik xis-tuyg‘ularini, sifat va xislatlarini tarkib toptirishda ta’lim va tarbiya birligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda o‘qitiladigan har bir fanning o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchining bilim, tajriba va mahoratiga, ijodiy ishlashi, izlanishiga bog‘liqdir.

Ta’limiy va tarbiyaviy omil va vositalar ko‘p. Shulardan biri davlat ramzlaridan darslarda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘rinli foydalanishdir. Hozirgi kunda maktab o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan "Milliy istiqlol g‘oyasi", "Tarix", "Davlat va huquq asoslari", "Geografiya" darslarida va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda davlat ramzlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

15.5. Yosh avlodni huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi

Hukumat qarorlarida maktablar, Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari yosh avlodni har tomonlama etuk va barkamol qilib tarbiyalashga da’vat etilganlar. O‘zbekiston fuqarosi o‘z vatanini sevishi, xalqiga cheksiz sadoqatli bo‘lishi, O‘zbekiston Respublikasisning qonun va qoidalarini, ramzlarini yaxshi bilishi va ularga chuqur hurmat bilan munosabatda bo‘lishi shart. O‘quvchi va talabalarda ana shu xis-tuyg‘ularni tarbiyalash muqaddas vazifadir.

Axloq, odob qoidalarining buzilishi, tarbiyasi "qiyin" deb ataluvchi o‘smirlarga yetarlicha pedagogik ta’sir ko‘rsatmasligimiz natijasida kelib chiqadi. O‘smirning bunday noahloqiy harakati oila, maktabda huquqiy tarbiya sohasida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar bilan harakterlanadi. Ko‘cha-ko‘ydagi muhit ham o‘smirning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha odob me’yoridan chetga chiqqan o‘smirlarning xulq-atvorini izohlashda, uning o‘tish davrida bir muncha tez jismoniy rivojlanishi va nerv tizimining kuchli kamoloti kabi omillarga kam e’tibor beriladi.

Organizmdagi fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda o‘smirning harakterida faollik, tashabbuskorlik kuchayadi. U o‘zidagi kuch-qudratni jismoniy imkoniyatlari darajasida ishlatishda ba’zan me’yorni unitib qo‘yadi. haddan tashqari beboshlik, tarbiyaviy ta’sirning yetarli emasligi intizom va jamoat tartibini buzishga sabab bo‘ladi, bezorilik, shumlik va shunga o‘xshash ko‘ngilsiz hodisalarni keltirib chiqaradi.

O‘smirlar, odatda, turli tuman ijobiy va salbiy ta’sirlarga tez beriluvchan bo‘lishadi, sezgirlik va ta’sirchanlik ular harakterining shakllanishiga yordam beradi. Bu yoshda paydo bo‘lgan taassurot uzoq vaqt uning hayot yo‘lini belgilashi mumkin. O‘smirlar ko‘pincha, o‘z shaxsiy idealini izlashda va unga o‘xshashga harakat qilishadi. Bu ideal o‘zlari bilgan tanigan odam yoki adabiy qaxramon qiyofasida namoyon bo‘ladi.

O‘smirlarda o‘ziga ortiqcha baho berish kuchli bo‘ladi, Ular o‘zlarini tutish, muomala, xatti-harakatlarida kattalardek bo‘lishga intilishadi. Kattalarni ularning "mustaqilligini" cheklab qo‘yishga qaratilgan har qanday urinishlariga nisbatan juda sezgir bo‘ladilar. Odatda 14-15 yoshlarda iroda shakllana boshlaydi. Bunday yoshda o‘smirlar o‘zlarini ma’lum darajada shakllangan shaxs sifatida anglab, kuchli irodali shaxslarni namuna qilib olib, o‘zlarida ularni fazilatlarini rivojlantirishga intilishadi.

Shaxsning mavjud bo‘lishi, rivojlanishi va o‘zini ko‘rsata bilishining asosiy belgisi muomala hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlar oqsab qolgan maktablarda o‘smirga ko‘cha-ko‘ydagi guruhlarning tasiri sezilarli iz qoldira boshlaydi.

Ko‘chadagi muomalani boshqarish ancha mushkuldir. U ko‘pincha soxta o‘rtoqchilik va yuzaki "qahramonlik" shakllarini olishi mumkin.

O‘smirlarda o‘yinqaroqlik mayli kuchli bo‘ladi. Hayotning o‘zi ular uchun o‘yindek tuyuladi. Ular uchun o‘yin qoidalari xulq-atvor andozasi bo‘lib qoladi va ularning xatti-harakatlarida o‘z aksini topadi. O‘smirlar o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri baholay olish me’yorini unutib qo‘yadilar. Buning oqibatida bezorilik, beboshlik, hayvonlarga azob berish singari qiliqlar uning uchun oddiy holat bo‘lib qoladi va ularda berahmlik, birovning boshiga tushgan kulfatga befarq qarash, loqaydlik hususiyatlari paydo bo‘ladi. Shaxsning voyaga etishi g‘oyat murakkab davr hisoblanadi. Bu jarayon qiyinchilik bilan kechadi. Ko‘nikib qolgan ayrim odatlardan voz kechishga to‘g‘ri keladi.

Oiladagi va maktabdagi nazoratning bo‘shligi natijasida huquqiy tarbiya ham susayadi. Shu davrda o‘smirning yangicha xayot sharoitlarga ko‘nikishiga ko‘z-quloq bo‘lib turilmasa, huquqiy tarbiyadan chetga chiqish xavfi kelib chiqadi. Huquqiy tarbiyaning etarli darajada shakllanmaganligi, bolada ma’suliyat

tuyg‘usining etarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan o‘z burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi urinishlarida ko‘rinadi.

Ba’zi oilalarda o‘smirni arzanda qilib o‘stirish, qo‘lini sovuq suvga urdirmaslik kabi odatlar vaziyatga tanqidiy baho bera olmaslikka olib keladi.

Odatda o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bu yoshda o‘smirlar sodir etilgan jinoyatning xavflilik darajasini anglab yetgan bo‘ladilar va sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi mumkin ekanligini biladilar. Biroq, ta’qiqlangan va jamiyat uchun xavfli jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik o‘n to‘rt yoshdan boshlab belgilangan qasddan yoki ehtiyotsizlikdan odam o‘ldirish, badanga qasddan tan jarohat yetkazib, kishi sog‘lig‘iga zarar yetkazish, nomusiga tegish, bosqinchilik, talonchilik, o‘g‘irlik ashaddiy bezorilik, davlat mulkini yoki fuqarolarning shaxsiy mulklarini qasddan nobud qilish yoki zarar yetkazish natijasida og‘ir oqibatlar kelib chiqishi, ashaddiy bezorilik, o‘q otar qurollar, o‘q-dorilar yoki portlovchi moddalarni, poezdni halokatga olib kelishi kabi jinoyatlari uchun o‘n to‘rt yoshdan jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Axloqi buzilgan o‘quvchilar bilan dastlabki ishlar, avvalo – xalq ta’limi bo‘limlari, jamoalari tomonidan olib boriladi. Bunda o‘zlari otaliqqa olgan notinch oilalarga imkoniyatlari darajasida yordam berish ko‘zda tutiladi. Umumiy majburiy ta’limga jalb qilish, kuni uzaytirilgan guruppalarga joylashtirish, otaliqqa olishga tayinlash, ota-onalarning huquq va burchlari to‘g‘risida suhbatlar o‘tkazish, notinch oilalarni yig‘ilishlarda muhokama qilish, ota-onalar burchining qanday bajarilayotganligi haqidagi ma’lumotlarni sudlariga jo‘natish kabi choralar jinoyatni oldini olish tadbirlariga kiradi.

Tajriba voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquq tarbiyasini olib borishda oilaviy axborotni barcha vositalaridan (matbuot, radio televidenie) yagona reja bo‘yicha foydlanishi zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarning huquqiy tarbiyasi maktabda ham yagona reja asosida olib borilmog‘i uchun pedagoglar ota-onalar uchun huquqiy mavzuli targ‘ibotlar, savol-javob kechalarini tashkil etish, tarbiya usullari va bolalarni kuzatib borish haqida ota-onalar bilan yakka tartibda suhbatlar o‘tkazishni hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarishlari kerak. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ibot qilish o‘quvchilarning o‘zlashtirishini ko‘taribgina qolmasdan, balki ularni maktabdan tashqaridagi xulqning yaxshilanishiga yordam beradi. Xalqimiz o‘z-o‘zini anglab borayotgan hozirgi davrda maktab o‘quvchilarining maktabdan tashqaridagi xulqiga ta’sir etish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, bolalar tashkilotlari faoliyatida qat’iy bir maqsadga qaratilganlik oshdi, dam olishni tashkil etish yaxshilandi.

Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning yangi shakllari qo‘llana boshlandi. Yoshlar o‘rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va sodir etiladigan huquqbuzarlikni oldini olish borasidagi pedagogik faoliyatini yanada kuchaytirish uchun fikrimizcha quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Umumiy ta’lim maktablarida huquqiy bilimlarni targ‘ib qiladigan xonalar tashkil qilishga alohida ahamiyat berish;

2. Barcha maktablarning sud, prokratura, advokatura, birinchi navbatda esa voyaga etmaganlar inspeksiyasi va voyaga etmaganlar ishlari bilan Shug‘ullanuvchi komissiyalar bilan aloqasi mustahkamlanishi kerak;

3. Doimiy ravishda yaxshi tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

To‘plangan bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish, davlatimiz qonunlari va qoidalariga muntazam rioya qilish ko‘nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

XVI BOB. MEHNAT TARBIYASI. IQTISODIY TARBIYA

16.1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko‘maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.

Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko‘tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko‘lamda kompyuterlashtirish, iste’mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda.

Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo‘lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to‘laqonli xabardor bo‘lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo‘ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida mehnat ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo‘yadi.

Mehnat tarbiyasining maqsadi o‘quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo‘lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o‘quvchilarda umumjamiyat manfaati yo‘lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- o‘quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, hayotiy faoliyat yo‘nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo‘lgan qiziqishni oshirish;
- o‘quvchilarni kasbga yo‘llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo‘lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mazkur vazifalar tizimida o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Mehnat tarbiyasi mazmunida yuqoridagi vazifalar bilan birgalikda qator xo‘jalik-iqtisodiy omillar aniqlanadi: viloyat va tumanlardagi ishlab chiqarish shart-sharoitlari, ta’lim muassasalarining imkoniyatlari, ularning moddiy bazasi, o‘qituvchi kadrlar, ta’lim muassasasidagi an’analar.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarning aqliy, **ma’naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi** bilan o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:

- aqliy tarbiya o‘quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o‘z navbatida, shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

- Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki, mehnat faoliyati yordamida o‘quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

- Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o‘quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go‘zallik va o‘z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» rivolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqlol mafkurasi o‘z mohiyatiga ko‘ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta’minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o‘zaro uyg‘unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligidir, g‘oyasini ilgari suradi», - deb ta’kidlanishi ham bejiz emas.

Yuqoridagilarga asoslanib, o‘quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvoifq. Bular:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;

- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg‘ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg‘usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko‘z qorachig‘iday asrash tuyg‘ularini shakllantirish;
- mehnatda do‘stlik, o‘rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o‘quvchilarning mehnatni go‘zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o‘quvchilarni bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta’lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

16.2. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

- bolalar mehnatining o‘quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog‘liqligi;
- ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o‘quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo‘shib olib borilishi;
- mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo‘ldan kela olishi;
- mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi;
- mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo‘shib olib borish.

Mehnat tarbiyasi bilan **mehnat ta’limi** bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan. Mehnat faoliyati ma’lum bilimga ega bo‘lishni talab etadi. Zero, bilim va ko‘nikmalar o‘quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘radilar, Umumiy mehnat jarayonida o‘quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo‘jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo‘ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning turli shakllari o‘quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi. To‘garaklarda o‘quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning to‘garklardagi faoliyati ma’lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo‘ladi. Chunonchi:

- to‘garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi lozim, ya’ni, o‘quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo‘lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o‘quv muassasasidagi o‘quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohada bo‘lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqalar);

- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o‘quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo‘ladi.

To‘garak faoliyati jarayonida o‘quvchilar o‘z kollejlari uchun o‘quv-ko‘rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.

Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar **o‘quv-tajriba uchastkalarida** ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o‘quv maskanini ko‘kalamzorlashtiradilar.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o‘z-o‘ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro‘zg‘or texnikalarini ta’mirlash bilan shug‘ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog‘liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So‘nggi yillarda o‘quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e’tibor bermoqda. Yirik fermer xo‘jaliklari, qo‘shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o‘quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O‘quv mehnati o‘quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida **o‘z-o‘ziga xizmat** keng yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘z-o‘ziga xizmat o‘quvchilarning ijtimoiy va o‘quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o‘zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O‘quvchilarning navbatchiligi o‘z-o‘ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.

Ishlab chiqarish mehnati turlari xilma-xildir. Masalan, o‘quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo‘jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – o‘quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

O‘quvchilar hozirgi davrda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, dorivor o‘simliklar, urug‘larni yig‘ish, maktab binolarini ta’minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar.

Ayni vaqtda, juda ko‘plab maktablarda yordamchi xo‘jalik mavjud. Korxona va xo‘jaliklar ta’lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko‘maklashmoqdalar. O‘quvchilar ishlab chiqarish sub’yektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o‘quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo‘ymoqda.

Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma’lum faoliyatni bajarishda mas’uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko‘rsatish, o‘z aqliy va jismoniy qobiliyatini to‘liq namoyon etishga bo‘lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo‘lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o‘quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag‘bat uyg‘otish;
- o‘quvchilarda mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo‘lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o‘quv dasturlari, ta’lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo‘yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta’limni o‘zlashtirishga nisbatan qo‘yilgan davlat talablari o‘z ifodasini topadi.

Ta’lim jarayonida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya’ni, mehnatga bo‘lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an’anaviy metodlarni emas, balki, bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o‘quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to‘g‘ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko‘rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta’limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo‘lishi kerakki, u o‘quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o‘z mehnatidan o‘zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o‘quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat ta’limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o‘quvchilarda o‘quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta’minlashi lozim. Ayniqsa, o‘quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko‘rsatkichlarini yuqoriga ko‘tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo‘nalishidagi tadbirlarning o‘rin olishini ta’minlash muhim pedagogik

vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an’anaviy va noan’anaviy shakllarda tashkil etiladi.

Demak, o‘quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilarning mehnat ta’limi jarayonida ularning mehnatga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki mehnat faoliyatiga tayyor bo‘lishni ta’minlash;
- o‘quvchilar kuchini to‘g‘ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o‘rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarning mehnat faoliyatiga rag‘batlantirishning samarali metod va vositalaridan foydalanishga e’tiborni qaratish;
- mehnat faoliyatining turidan qat’iy nazar mehnat madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o‘z joyini tartibli saqlash hamda mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.

16.3. Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida

Bolalarga maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish muammosi ko‘pdan buyon pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir.

Avvalo, iqtisodiy tarbiya haqida mukammal tushunchaga ega bo‘lmoq darkor. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir.

Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o‘rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o‘rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo‘ladi.

Farzand oilada ota-ona tajribalari ta’sirida tarbiya ko‘radi. Ota-ona har qadam, har nafasda bolaga saboq beradi:

Ishlab chiqarish korxonasidami, ro‘zg‘ordami, tabiat bag‘ridami, qayerda bo‘lmasin, tejalgan ne’mat katta ijtimoiy ahamiyatga ega.

Agar biz o‘zimizga berilgan rizqu ro‘zimizni tejamkorlik bilan iste’mol qilsak, jamiyatimiz boyligini tejagan bo‘lamiz. Jamiyat mulkini, boyligini tejab borsak, uning navfi har bir kishiga tegishi muqarrar. Demak, jamiyat mulkini tejash orqali o‘zimizdan tashqari jamiyatga ma’lum darajada foyda keltirgan bo‘lamiz. Ham shaxsiy, ham ijtimoiy mulkni barobar tejash esa bizdan dunyoqarashimiz
va axloqimiz, turmush tarzimiz darajasini namoyon etadi.

Tejamkorlik jarayoni oila yoki davlatning moddiy qudratini mustahkamlashdan tashqari, odamlarni turmush kechirish me’yoriga amal qilishni ham vujudga keltiradi.

Non, tuz, qog‘oz, yoqilg‘i, elektr quvvati, gaz, neft’, ruda, mato, qo‘yingki, barcha ne’matlar-aziz. Ammo, inson o‘zi yaratuvchi, o‘zi iste’molchi, o‘zi

nazoratchi bo‘lganligi uchun ham, ularning hammasidan arzonroqdir. Shu sababli, avvalo, insonning o‘zini uning umri, kuchi, aql-zakovati, iste’dodi, kayfiyatini, mehnatga qobiliyatini asrash umrining uzaytirish temkorlikning eng xususiyatli tomoni hisoblanadi.

Vaqt – inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Uni faqat dunyoni o‘rganish va o‘zgartirishga, shaxsiy manfaati va el-yurt xizmatiga, mehnat samadorligini oshirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga sarf etish xususiyati har bir kishida shakllanishi zarur bo‘lgan ulug‘vor fazilatdir.

Tejamkorlik xususiyatlari kishilarda ularning majoziy xislatlariga muvofiq ravishda shakllanadi va xasislik, pishiqlik, sahiylik, xalollik tarzida ko‘zga tashlanadi.

Xasis kishilar o‘z imkoniyatlarini tejashga doimo intiladilar, ammo, o‘zgalarning va jamiyat manfaatini himoya qilishga moyil o‘lmaydilar, undaylar shaxsiy manfaat, boyligini ko‘paytirish jazavasi bilan yonib, insof, muruvvat va odamiylikni unutib yashaydilar. Bunday kishilar sarxil mevamiz bozoriga, sutimizning qaymog‘i xaridorga, nonimizning mazalisi, ko‘rpa-to‘shakning yangisi, xonamizning chiroylisi mehmonga, o‘zimiz sifatsiz ne’matlarni tozalab yeb, labi uchgan idishlar ishlatsak ham, yashasak ham bo‘laveradi, deb tushunadilar. Bu bilan obro‘ orttirishga intiladilar. Ular "Topganingdan yetarlisini yeb-ichib, kiy, salomat, tetik, bearmon yasha», degan g‘oyaga qarshi ish tutib, farovonligimizning asl mazmuniga putur yetkazadilar: yashash va daromad qilishning vijdonga, tarbiyaga xilof usullarini qo‘llab, ba’zan ko‘pchilikning nafratiga duchor bo‘ladilar, o‘z xasisliklari, yasama xushomadlari, yolg‘on mulozamatlari bilan turmush kechirish, mehmon kuzatish va farzand tarbiyalash madaniyatiga dog‘ tushiradilar.

Pishiqlik daromad va harajatni to‘g‘ri rejalashtirish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik, xo‘jasizlikning oldini olish manbaidir.

Ro‘zg‘orda yoki xo‘jalikda bor narsani qizg‘anmaslik, inson qadrini moddiy jihatdan rag‘batlantirib borish saxiylik alomatidir. Saxiylik kishilarda kamtarlik, soddalik, ko‘ngilchanlik, raxmdillik, samimiylik, mehmondo‘stlik, muhtojni qo‘llash, berilgan yordamni ta’na qilmaslik xususiyatlari ustun bo‘ladi.

Saxiylik yuksak darajadagi insonparvarlikdir. Shu bilan birga saxiylik, tejamkorlik ruhi bilan sug‘orilmog‘i kerak. Yoshlarga daromad hajmini belgilash va harajatning me’yorini barqarorlashtirish, boshqacha aytganda, ne’mat yaratish va uni tasarruf etish rejasini ishlab chiqish va unga qat’iy amal qilish ko‘nikmasi singdirilishi darkor.

Qiymati qay darajada bo‘lishidan qat’iy nazar, narsani egasidan so‘rab yoki rozi qilib olish, omonatni ehtiyotlab ishlatish va qaytarish xalollik belgisidir.

Yoshlarga nimani, qachon, nima uchun va qay darajada asrash lozimligi,tejashning mohiyati va usullarini to‘g‘ri anglatish tejamkorlik tarbiyasining maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadning to‘laqonli amalga oshishi ota-onalar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, rahbarlar, jamoatchilikning faolligiga bog‘liq.

Har qanday ota-ona o‘z farzandini voyaga yetkazib, uylab-joylagunga qadar, xatto, undan keyin ham o‘tdan, suvdan, shamol va ofatdan, sinish, chiqish, zaharlanish, g‘aflat va hayosizlikdan, sayoqlik va beg‘amlikdan, moddiy tanglik

va jinoyat qilishdan, xijolatlik va g‘animlar nazaridan qudrati yetguncha ehtiyotlaydi, asraydi.

Demak, tejamkorlik tarbiyasining mazmuni, ta’sirchanligi va samarasi bilan bolalar dastlab o‘z oilalarida tanishadilar. Ota-onaning hal qiluvchi roli ana shu tanishuvdan boshlab yuzaga chiqadi va sekin-asta kuchaya boradi. Namuna ko‘rsatish, ishontirish, nasihat qilish, maslahat berish yo‘li bilan farzandlarni tejamkor bo‘lishga safarbar etish, ular faoliyatini doimo nazorat qilib borish, lozim bo‘lsa, isrofgarchilik qilganlari uchun jazolash va ota-onalarning tarbiyalay olish mahoratlariga bog‘liq.

O‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish bilan chambarchas olib borilishiga erishish zarur. Iqtisodiy tarbiya uslublari xilma-xildir. Jumladan, suhbat, ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, sanoat shahobchalariga sayohat o‘tkazish, solishtirish, hisob-kitob qilish g‘oyatda ta’sirchan uslublar hisoblanadi. O‘quvchilarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg‘ulotlardan unumli foydalanish mumkin. O‘quvchilarni nechog‘lik iqtisodiy tarbiya topganliklari o‘qituvchilar tomonidan kuzatib borilishi kerak.

Tejamkorlik, ijodkorlik, mas’uliyat hissi tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob mohirligi o‘quvchilar iqtisodiy tarbiyadan qanday saboq olayotganliklarini ko‘rsatuvchi muhim belgilardir.

XVII. AXLOQIY TARBIYA. ESTETIK TARBIYA

17.1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari

Yoshlar ongi va qalbida ma’naviy-axloqiy tushunchalar chuqur o‘rin olishi uchun xalqning milliy tarbiya usullari, buyuk allomalarning jahon ilm-faniga qo‘shgan hissalari, boy ilmiy merosiga murojaat qilish o‘z samarasini beradi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga oid davlat siyosatini amalga oshirishni ma’naviy-axloqiy tarbiyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, xususan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini jamiyatning maqsad va vazifalarini amalga oshiruvchi kuchga aylantirishda ma’naviy-axloqiy tarbiya alohida o‘rin tutadi.

“Mamlakatimizda, – degan edi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev, – amalga oshirilayotgan barcha islohot va o‘zgarishlar, keng ko‘lamli dasturlar yagona va ulug‘ bir maqsadga qaratilgan. U ham bo‘lsa, ...farzandlarimizni har tomonlama etuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat”[9]. Ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlarga oid davlat siyosati zamiridagi yosh avlodni tarbiyalash maqsadi tom ma’nodagi ezgulik g‘oyasidir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar davlatimizning ta’lim-tarbiya tizimi markazida turuvchi ma’naviy-axloqiy tarbiya, avvalo, shaxs ma’naviyatini rivojlantirish masalasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yuksak axloqiy fazilatlar, ma’naviy etuklik va ma’naviy qiyofani tarkib toptirishga xizmat qiladi.

[9] Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592 b. (412-b).

Ma’naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlari bilan bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to‘la qalbini ifodalovchi ko‘p qirrali tushuncha[10].

Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir[11]. Shu bois, insonning erkinlikka, adolatga, kamolotga intilishi, ijod qilishi ma’naviy ehtiyojlari tufaylidir. Inson o‘z tabiatiga zid holda emas, balki, unga munosib ravishda yashamog‘i lozim. Shu ma’noda ma’naviyat o‘zini-o‘zi yaratish faoliyatining mazmunidir. Ma’naviyat ijtimoiy hodisa sifatida birgina shaxs ongiga bog‘liq bo‘lmasdan, uning taraqqiyoti, rivoji umummilliy tajribasi orqali amalga oshadi. Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni bir so‘z bilan ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma’naviyat – inson intellekti va ruhiy olamining uyg‘unligi kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ma’naviyatning mohiyati, amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat hayotida tub islohotlar olib borilayotgan davrlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuch-qudratini ma’naviy barkamol bo‘lgan kishilargina belgilaydi. Xalq va yurt manfaati har bir ishda, xatti-harakatlarda, o‘zaro munosabatlarda, jamoa turmush tarzi va tartib-qoidalarini hurmat qilib, unga amal qilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, ma’naviyat axloq tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqligi namoyon bo‘ladi.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakat, xulq-atvor va odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan[12].

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro, shuningdek, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig‘indisi. Ma’lumki, kundalik axloq normalarini mustahkamlamasdan, mehnat intizomiga qat’iy rioya qilmasdan, kishilarning tashkilotchiligi va mas’uliyatini yuqori pog‘onaga ko‘tarmasdan turib, ijtimoiy turmush tarzini yaxshilashga erishib bo‘lmaydi. Shunday vaziyatni vujudga keltirish axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biridir. Axloq normalari kishilarning xatti-harakatlarida

[10] Hasanboyev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b. (289-b).

[11] Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 174 b. (13-b).

[12] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 1-j. – 736 b. (530-b.).

o‘z ifodasini topadi. Axloqning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud.

Axloq jamiyatda turli funksiyalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilar eng muhimi hisoblanadi:

- kishilar orasida turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va mo‘ljallarini belgilab berish;
- shaxsni ijtimoiylashtirish. Kishilar faoliyatini muvofiqlash-tirar ekan, axloq ularni insonparvar, ezgu, halol, adolatli munosabatlarga undaydi[13].

Axloq jamiyat taraqqiyotining tayanchi, insonlarni doimo yaxshilikka, ezgulikka undovchi omildir.

Xulq va xulq-atvor tushunchalari inson fe’l-atvori bilan bog‘liq axloqiy hodisa bo‘lib, kishi fe’lining axloqiylik doirasidagi ko‘rinishidir. Insonning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o‘z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o‘zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo‘lsa, axloq muayyan jamiyat, zamon va insoniyat tarixi uchun ta’sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa.

Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o‘rtasidagi xususiyatlarga ega: u odobdan keng, axloqdan tor ma’noga ega bo‘lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta’sir ko‘rsata olmaydi. Lekin, oila, mehnat jamoasi, mahalla-ko‘y doirasida sezilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Axloq o‘zini ezgulik va yovuzlik, adolat, insonparvarlik, fidoyilik singari ijtimoiylashgan tushunchalar va tamoyillarda namoyon qilsa, xulq yaxshilik va yomonlik, burch, mardlik, mehmondo‘stlik kabi tushunchalarda aks ettiradi. Odob kamtarlik, insoflilik, bosiqlik, halollik, rostgo‘ylik kabi axloqiy me’yorlarda o‘z ifodasini topadi.

Odob-axloq qoidalarini bilish bilan birga, uni amalda qo‘llash o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bo‘lishi zarur. Kishilarning amaliy faoliyati va xulq-atvori uning ma’naviy-axloqiy e’tiqodiga mos kelishi kerak. Agarda ular o‘rtasida farq kuzatilsa, tarbiya jarayoni to‘liq amalga oshirilmaganligi ma’lum bo‘ladi. Fikrimizcha, axloq kishining ichki olami, e’tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo‘lsa, odob shaxsning ko‘zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala munosabati tarzidir.

Ta’lim-tarbiya tizimida yoshlarda ijobiy xulq-atvorni tarkib toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy shartidir. Axloqiy tarbiya deganda, shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o‘sib kelayotgan avlodda xulq-odob me’yorlariga mos keluvchi sifatlarning tarkib topishi tushuniladi. Axloqiy tarbiya – bu ta’lim oluvchilarni ijtimoiy-axloqiy me’yorlar mazmunidan xabardor qilish, ularga axloqiy me’yorning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ijtimoiy-axloqiy me’yorlar (talab va ta’qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirishdir[14].

---

[13] Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (40-41-b).

[14] Hasanboyev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b. (26-b).

Bizningcha, axloqiy tarbiya – o‘quvchilarda o‘rganilgan nazariy axloqiy bilimlar asosida shaxs faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy sifatlarni shakllantirishga, odob-axloq normalariga amal qilishga odatlantirib boriladigan pedagogik jarayondir. Bunda insoniy qadr-qimmatning asosi bo‘lgan fuqarolik burchi va mas’uliyatini anglatishga e’tibor masalasi ham nazarda tutiladi.

Ma’naviy va axloqiy madaniyat mazmunan o‘z xalqining qadriyat va an’analari, tilini bilish, hurmat qilish, milliy faxr tuyg‘usi, o‘qimishlilik, aql-zakovat, axloqiy namunalar mavjudligi va kundalik hayotda ulardan ibrat olish, bo‘sh vaqtlarni mazmunli o‘tkazishda samarali usullardan foydalanish, shaxsiy salohiyatini rivojlantirish kabilarni o‘zida mujassam etadi. Ma’naviy-axloqiy madaniyat xilma-xil munosabatlar: bilim olish, ijod va mehnat faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya – yosh avlodni xalqning boy milliy-madaniy, tarixiy an’analariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya[15].

- Bizningcha, ma’naviy-axloqiy tarbiya – talabalarga jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy me’yorlar mazmunini tushuntirish, ushbu me’yorning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglatish, ularda xalqning milliy-madaniy qadriyatlariga asoslangan holda yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish, ijobiy munosabatlarga kirisha olish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda shaxs sifatida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyalarini o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy me’yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot beriladi;
- o‘quvchilarda ma’naviy axloqiy bilimlarni egallashga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma’naviy-axloqiy ongini qaror toptirish;
- o‘quvchilarda ijobiy mazmundagi ma’naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, halqqa muhabbat, ota-ona
  va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hakozolarni) qaror toptirish;
- o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy mazmundagi hulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish;
- o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish.

tarkib toptirish jarayonidir.

O‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

O‘quvchilar ma’naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-ob’yektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o‘zaro hamkorlik, aloqa doiralarining kengayishi takomillashuviga ko‘rsatiladigan ta’sirning ijobiy,

[15] Hasanboyev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b. (288-b).

mo‘tadil holatda bo‘lishini ta’minlashda ko‘rinadi. Ma’naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro‘y beradi:

- o‘quvchining ma’naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo‘lgan yondashuvida namoyon bo‘ladi;
- o‘quvchining ma’naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq;
- o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kamoloti ob’yektiv va sub’yektiv shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta’lim-tarbiyaninsh yo‘lga qo‘yilishi natijasida vujudga keladi;
- o‘quvchining ma’naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo‘lga qo‘yiladi:

- ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g‘oyaviy asosga ega ekanligi. Ushbu tamoyil ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiyaning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashi, milliy mafkura g‘oyalarini o‘quvchilar o‘rtasida targ‘ib etishda ifodalanadi;
- ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi. Ushbu tamoyil o‘quvchilarga ma’naviy-axloqiy bilimlar berish, ularda ijtimoiy-amaliy faoliyat ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ma’naviy-axloqiy ta’lim va tarbiya ishining tizimliligini ta’minlash, doimiy tashkil etilishiga erishishda namoyon bo‘ladi;
- ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya g‘oyalarining aniq maqsadga yo‘naltirilganligi. O‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilayotgan ma’naviy-axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishdan ko‘zlangan yagona maqsad ularda ma’naviy-axloqiy sifatlar, ma’naviy-axloqiy madaniyatni qaror toptirishdan iboratdir. Mazkur tamoyil ana shu g‘oyani yoritishga xizmat qiladi;
- o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv. Ushbu tamoyil o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik, darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, ma’naviy-axloqiy tarbiyani olib borishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, ijtimoiy tashkilotlar,davlat va jamiyat imkoniyatlaridan biridek samarali foydalanishni nazarda tutadi;
- o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar,ularda ilgari surilgan g‘oyalarga tayanib ish ko‘rish. Ushbu tamoyil ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda milliy, tarixiy tajriba , shuningdek , umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning g‘oyalari ta’sir kuchiga tayanib ish ko‘rishni o‘zida ifoda etadi;
- ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi. Ushbu tamoyil o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda insonparvarlik va demokratik tamoyillarning ustivorligi (o‘quvchi

shaxsini hurmat qilish, uning qadr-qimmatini yuqori qo‘yish, huquq va burchlarini hurmat qilish) ni ifodalaydi;

- ma’naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirish, bu boradagi faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy ma’naviy-axloqiy bilimlarning amaliyotdagi ijrosini taminlash asosida balimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirib borishni anglatadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish – faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga o‘quvchilarni undashni ham ko‘zda tutadi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o‘quvchi (tarbiyalanuvchi)ning o‘z-o‘zini tarbiyalashni kuchaytirishi katta ahamiyatga ega. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

17.2. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari

Ma’naviy-axloqiy tarbiya talaba-yoshlarning barkamol bo‘lib shakllanishida mustahkam asosdir. Ta’lim oluvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida o‘ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo‘lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo‘ladi. Talaba-yoshlar orasida olib boriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metodi qo‘llaniladi:

- ma’naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar;
- hikoya;
- tushuntirish;
- ma’ruza va seminar tashkil etish va uyushtirish;
- namuna ko‘rsatish;
- kishi ijobiy xislat va fazilatlari insonning olijanobligi ekanligiga ishontirish;
- bahs-munozaralar uyushtirish;
- uchrashashuvlar;
- matbuot konferensiyasi.
- tanlovlar o‘tkazish;
- sahnaviy darslar o‘tkazish;
- matbuot materiallaridan foydalanish;
- o‘quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash;
- ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalarini qo‘llash.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash shakllari quyidagicha tasniflanadi:

I. Suhbatlar. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ma’naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar tashkil etish talabalarning erkin, mustaqil fikrlashini yuksaltiradi, tafakkurini boyitadi, o‘qituvchi bilan hamkorligini mustahkamlaydi. Tarbiyaviy ishlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha suhbatlar tashkil etish mumkin.

Suhbatlar qiziqarli va jonli o‘tishi uchun uni tashkil qilishdan bir necha kun oldin mavzu talabalarga e’lon qilinadi. Suhbatlar davomida mavzuni yorituvchi multimedia vositalaridan foydalaniladi. Mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish borasida:

“Talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish – dolzarb vazifa”, “Vatan tuyg‘usi – muqaddas tuyg‘u”, “Mustaqillik nashidalari”, “Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari”, “Mustaqil O‘zbekiston jahon nigohida”, “O‘zbekistonning tashqi siyosati va uning ustuvor yo‘nalishlari”, “Fidokor yoshlar qanday bo‘lishi kerak?” va boshqalar.

2. Ma’naviy-axloqiy sifatlarni yuksaltirish bo‘yicha:

“Talabaning muomala madaniyati”, “Talabaning ma’naviy-axloqiy qiyofasiga qo‘yiladigan talablar”, “Shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari”, “Talabaning tashqi ko‘rinishi va uning ichki dunyosi”, “Kitoblar – bilim va ma’naviyat manbai”, “Talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish” va boshqalar.

3. Milliy merosimizni ulug‘lashga o‘rgatish bo‘yicha:

“Ajdodlar merosi – ma’naviyatimiz sarchashmalari”, “Amir Temur yoshlar kamoloti haqida”; “Yuksak madaniyat va ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori”, “Tarix – millat ma’naviyatining negizi” va boshqalar.

4. Oila tarbiyasi bo‘yicha:

“Oilada farzand tarbiyasi”, “Oilada ota-onaning o‘rni”, “Farzandning ota-ona oldidagi burchlari”, “Vatan ostonadan boshlanadi”, “Bir bolaga etti mahalla ota-ona” va boshqalar.

5. Aqliy tarbiyani shakllantirish bo‘yicha:

“Yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati”, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlari”, “XXI-asr ilm-fani: muammolar va yechimlar”, “Innovatsion g‘oya – taraqqiyot kaliti” va boshqalar.

II. Uchrashuvlar. O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yoshi ulug‘ shaxslar, o‘z kasbining yetuk mutaxassislari, tajribali pedagoglar bilan uchrashuvlar tashkil etish ham ijobiy samaralar beradi. Masalan, “14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” mavzusida O‘zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etiladi. “1-mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni”, “15-may – Xalqaro oila kuni”, “1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni”, “21-oktyabr – o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun”, “4-noyabr – YUNESKO tashkil topgan kun”, “10-noyabr – Xalqaro yoshlar kuni”, “16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni”, “17-noyabr – Xalqaro talabalar kuni”, “1-dekabr – Xalqaro OITS (SPID)ga qarshi kurash kuni”, “8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni” kabi muhim sanalar va bayramlarga oid soha mutaxassislari hamda tajribali pedagog va faxriylar bilan uchrashuvlar uyushtiriladi. Uchrashuvlarni o‘tkazishga alohida tayyorgarlik ko‘rilib, o‘quvchilar tomonidan mavzu bo‘yicha sohani yorituvchi slaydlar, videoroliklar tayyorlanadi.

III. Bahs-munozaralar uyushtirish. O‘quvchi-yoshlar ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy-

axloqiy mavzulardagi munozaralar o‘quvchilarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to‘g‘ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o‘rgatish hamda e’tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladi. Munozara o‘y-fikrlarni tartibga soladi, mustaqil fikrlashga, bahs yuritishga, suhbatdoshini tinglashga, o‘z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda hikoya qilishga, ayni chog‘da, o‘z xatolarini tan olishga o‘rgatadi. O‘quvchilar o‘rtasida “Ma’naviy-axloqiy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli”, “Mustaqillik va ta’lim-tarbiya”, “Yoshlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi”, “Yoshlarning kitobxonlikka munosabati”, “Zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma’naviyat”, “Tabiat va inson”, “Sharq mutafakkirlari axloqiy qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati” mavzularida bahs-munozaralar olib boriladi.

IV. Tarbiyaviy tadbirlar. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada tarbiyaviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy shaxslarning tavallud kunlari, bayramlar va muhim sanalarga bag‘ishlab “Konstitutsiya – baxtimiz qomusi”, “Ona tili – millat ruhi”, “Biz OITSga qarshimiz!”, “Navro‘z – yasharish bayrami”, “Nazm gulshanidagi yog‘du”, “Ona – ulug‘ zot”, “Xotira muqaddas”, “Mustaqil yurtimning millat otasi”, “Mehnati elda aziz ustozim”, “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim”, “Fidoying bo‘lgaymiz seni – O‘zbekiston!” mavzularida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etiladi. Ushbu tadbirlarda o‘quvchilar ishtirokchi sifatida qatnashib, o‘zlariga to‘g‘ri xulosa chiqardilar. Bu orqali ularning ma’naviyatini yuksaltirish hamda ma’naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyada vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ko‘rgazmali qurollar, tasviriy san’at asarlari, san’at turlari, badiiy adabiyot, ibrat-namuna, mehnat, pedagogik qarashlar, xalq og‘zaki ijodi, tabiat, ommaviy axborot vositalari, oilaviy an’analar, so‘z-nutq, multimedia vositalalaridan unumli foydalanish ijobiy samara beradi.



Ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalaniladigan vositalar

17.3. O‘quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash

Ijtimoiy jamiyat hayotining tartibli ketishini ta’minlash maqsadida axloqiy hamda huquqiy me’yorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy me’yorlar omma tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda muayyan millat (elat, qabilalar yoki etnik guruhlar) kishilarining turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, o‘y-fikrlari, dunyoqarashlari aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy me’yorlar omma fikri asosida tartibga solinadi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutuvchi ijtimoiy-huquqiy me’yorlar esa, davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi. Ijtimoiy-axloqiy me’yorlar amal qilishda ixtiyoriylik tamoyilining ustunligi ko‘zga tashlansa, ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga amal qilish majburiylik xususiyatiga egadir.

Intizom – ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me’yorlariga nisbatan ongli yondashuv, ularga to‘la amal qilish demakdir. Boshqacha talqin etiladigan bo‘lsa, intizom – shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me’yorlari talablari asosida tashkil etilish ko‘rsatkichi sanaladi. Ongli intizom tushunchasi esa shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy- huquqiy me’yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko‘rsatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi talabalar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o‘rnini to‘g‘ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me’yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

Talaba-yoshlar o‘rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** amalga oshiriladi:

Ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy- huquqiy me’yorlar mohiyatini talabalar onggiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.

Talabalar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatini o‘zlashtirishga erishish.

Talabalarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

Talabalarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Talabalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o‘rtasida o‘zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko‘nikma va malakalarini hosil qilishga erishish.

Talabalarda ta’lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga bo‘ysinish hissini shakllantirish.

Intizomsizlikning oldini olgan holda intizomsizlikka qarshi kurashishga yo‘naltirilgan faoliyatini yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

O‘quv yurtida qaror topgan ongli intizom talabalar faolligi va tashabbuskorligining o‘sishiga yordam beradi. Shuningdek, ongli intizom talabalarning o‘qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lish, o‘quv yurti ichki tartib-intmzomiga bo‘ysinish jamoa tomonidan topshirilgan topshiriqni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-atvor me’yorlariga qat’iy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o‘z ixtiyoriy itoat etish ko‘nikmalarining hosil bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Ta’lim muassasalari talabalarda intizomlilik xislatining hosil bo‘lishi uchun ta’lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Intizom o‘quv ishlariga g‘oyat katta ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarning topshiriqlarni, jamoa qarorlarini bajarish, mashg‘ulotlarga kechikmasdan yetib kelish hamda sababsiz bironta ham darsni qoldirmaslik, darsda tartib caqlash, uy vazifalarini o‘z vaqtida bajarish kabi holatlar ta’lim jarayonining muvaffaqiyatini, shuningdek, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun imkon yaratadi. Shunday ekan, qaysiki o‘quv yurtida o‘qutuvchi va talabalar jamoasi intizom qoidalariga qattiq rioya qilsa, o‘sha o‘quv yurtida o‘zlashtirish yuqori darajada bo‘ladi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuksak natijalar qo‘lga kiritiladi.

Ongli intizom tuyg‘usini talabalarda shakllantirish quyidagi **mazmundagi** faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

- maqsadga muvofiq talablarning qo‘yilishi hamda ularning talabalar tomonidan bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat;
- ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me’yorlar mohiyatini tushuntirish;
- ongli intizom mezonlaridan biri bo‘lgan intizomli xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish maqsadida mashq qildirish va o‘rgatish,
- rag‘batlantirish va jazolash.

Ongli intizom tarbiyasi yaxlit pedagogik jarayon bo‘lib, unda talabalarning ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga ongli munosabati shakllantiriladi.

17.4. Estitek tarbiyaning maqsad va vazifalari

Estetik tarbiya – o‘quvchilarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va xayotiga go‘zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Tarbiya nazariyasida ikki xil tushuncha mavjud: estetika va badiiy tarbiya tushunchalari.

Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, tabiat va jamiyat, mehnatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai-nazardan idrok etishga, shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qodir shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.

Estetik tarbiya o‘quvchilarda estitek bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni hamda, estetik xis tuyg‘u, qiziqish, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalasini o‘z ichiga oladi, estetik tarbiyaning moxiyati asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- voqeylikdagi go‘zalliklarni idrok etish va zavqlanish;
- asarlarni to‘g‘ri tushina bilish va baholash;
- qobiliyat va istidodlarni namoyon etishga intilish;
- tabiatda, insoniy munosabatlarda, turmushda go‘zallik uchun mustaqil kurashish;
- tartibsizlikka murosasiz bo‘lish.

Go‘zallik xaqidagi bilimlar hayot voqiyligi, rang-barangligi, turlarini hamda san’at o‘zlashtirish jarayonida tarkib topadi. O‘quvchilar hayot, tabiat manzalari va xil janrdagi san’at rang, tasvir, haykaltaroshlik, amaliy san’at, asarlari bilantanishib boradilar va shu barobarinda bilim oladilar.

Asosiy estetik kategoriya – go‘zallik to‘g‘risidagi o‘rab turgan tevarak-atrofdagi turmush chechak, o‘yinchoqlar, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, saranjom hovli, san’at, ashula, chiroyli sur’at vositasida egallaydilar. Bilim va tushunchalardan o‘quvchilar o‘z ishlar faoliyatini va tabiat hodisalarini kuzatadilar.

Pedagogikada estetik tarbiya vazifalarini belgilashda umumiy tarbiya maqsadlari va o‘quvchilarning yosh hususiyatlari alohida hisobga olinadi. Estetik tarbiya vazifalarini yo‘nalishiga ko‘ra shartli ravishda to‘rt guruhga birlashtiriladi:

O‘quvchilarda estetik moyillik: estetik hayajon, estetik munosabat va qiziqishni tarkib toptirish, ularda estetik moyillik atrof-voqelik va san’at asarlarining estetik obrazlari yig‘indisining to‘plashni, ularga xissiy hozirjavob bo‘lishni rivojlantirish; estetik xis-tuyg‘ular, ehtiyoj, did va munosabatlarni rivojlantirish kiradi.

Estetik ongni shakllantirish esa estetik ong qirralari (tasavvur va bilimlar hajmi, estetik mulohaza va baholash)ni tarkib toptirishdan iboratdir.

Estetik ong tarkib topishi orqali o‘quvchilar voqelik va san’atdagi go‘zallik yoki xunuklik, kulguli yoki fojialilikni to‘g‘ri aniqlashning xilma-xil mezonlarini aniqlash, ya’ni buyumlarning hususiyati va sifatlarini: shakli, rangi, tovushlari; hissiy aniqlash: shodlik, qayg‘u, xafalik, ajablanish, alam; san’atshunoslik mezoni ya’ni ayrim musavvir, bastakorlarning ismlari va hayoti, faoliyatini bilish; estetik mezon-chiroyli, xunuk, kulguli, qahramonlik kabilarni ajrata bilishni o‘rganadilar. Ularda tevarak-atrofga nisbatan to‘g‘ri munosabat va go‘zallikni tushunish shakllanadi.

Estetik faoliyatga o‘rgatish bu guruh vazifalarini amalga oshirilishi jarayonida pedagog o‘quvchilarni faol estetik va badiiy faoliyatga jalb qiladi, ularda estetik va badiiy idrokni rivojlantiradi, badiiy ijrochilik faoliyatining ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi, go‘zallikni turmushga, tabiatga, o‘z qiyofasiga kiritish ko‘nikma va malakalarini tarbiyalaydi.

Estetik va badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasini bajarish natijasida o‘qituvchi har bir bolada umumiy va maxsus badiiy-ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda ijodiy hayolni rivojlantiradi.

Estetik tarbiya vazifalarini to‘la-to‘kis bajarilishi o‘quvchilarda qator ijobiy sifatlarni: tashabbuskorlik, ijodkorlik, oldindan ko‘ra bilish, intiluvchanlik, orzu qila bilishlik kabilarni shakllantiradi.

O‘quvchilarda estetik tarbiyaning mazmuni, ularda estetik bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni hamda, estetik his-tuyg‘u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish va didlarini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarda go‘zallik haqidagi bilimlar atrof hayot voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, hamda san’at asarlarini estetik o‘zlashtirishi jarayonida tarkib topadi. O‘quvchilar tevarak-atrof, hayot, tabiat va har xil janrdagi

san’at asarlari: grafika, rang-tasvir haykaltaroshlik, amaliy san’at, musiqa bilan tanishib boradilar va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar.

O‘quvchilar asosiy estetik tushuncha go‘zallik to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlarining o‘rab turgan tevarak-atrofdagi turmush ashyolari: kiyim-kechak, o‘yinchoqlar, oila a’zolarining o‘zaro madaniy samimiy munosabatlari, saranjom hovli, chiroyli gulzor, san’at asarlari; musiqa, ashula, chiroyli surat orqali egallaydilar. Go‘zallik to‘g‘risidagi bilim va tushunchalaridan o‘quvchilar xatti-harakatlarini, kishilar faoliyatini va tabiat hodisalarini baholashda foydalanadilar.

O‘quvchilar ijodiy mehnatning turlariga ko‘ra go‘zalligini, mehnat sharoiti, mehnat maxsulini go‘zalligini, mehnatdagi jasorat romantikasi orqali ko‘tarinkilik kabi murakkab estetik san’at asarlari: she’r, ashula, musiqa asarlarining go‘zalligini bilib oladilar. Pedagog o‘quvchilarga san’at turlari haqidagi bilimlarni berish bilan birga ularning estetik hissiyotini bir joyga to‘playdi, hamda mazmunli estetik mulohaza yuritishga o‘rgatadi. O‘quvchilar estetik tarbiya jarayonida estetik malaka
va ko‘nikmalar ham egallashlari lozim. Musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo‘shiq, musiqaviy harakat qilish, musiqa asboblarini chalish kabilarni egallab olishlari ko‘zda tutiladi. Tasviriy san’at asarlarini diqqat bilan kuzata bilish, ularning mazmuni va ifoda vositalarini, tahlil qilish janrlarni bir-biridan farqlash malakalarini egallaydilar. Musiqa va rasm darslarida pedagog o‘qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

17.5. Estetik tarbiya vositalari

Estetik tarbiya vositalari – o‘quvchilarnig estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san’at estetikasi va bolalarning badiiy ijodi hisoblanadi.

Estetik tarbiya vositalari (3-chizma) – o‘quvchilarning estetik rivojlanishlarini ta’minlash maqsadida tevarak – atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at estetikasi va bollarning badiiy faoliyati, ta’lim jarayoni hisoblanadi.



3-chizma. **Estetik tarbiya vositalari.**

Oila go‘zallikning birinchi maktabidir. Oila a’zolarning o‘zaro munosabatlari, uyning jixozlari, ularning uyg‘unligi, tartibi, saranjom – sarishtalik, maktabning, sinfning bezatilish kabilar barchasi bevosita bolalar estetik didiga ta’sir etadi. Turmush estetikasining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinf xonalarida tozalikni saqlanishi, tabiat burchagini tashkil etilishi, o‘quvchilar ijodiy ishlari ko‘rgazmasi, a’lochilar taxtasi va boshqalar| o‘quvchilarning estetik didlarini tarbiyalaydi.

Tabiat – eng muhim estetik tarbiya vositasidir. O‘quvchilarni tabiat qo‘yniga ekskursiyalari ular diqqatini tabiat go‘zalligiga qaratish imkonini beradi. Ko‘kalamzorlaShtiriSh, ko‘chatlar ekish ham bolada estetik ko‘nikma – malakalarini Shakllantiradi. Tabiat turlicha estetik kechinmalarning asosi bo‘lib, tabiatdan ta’sirlanish, uni ko‘ra bilishga, eshita olish qobiliyatiga bog‘liqdir. O‘quvchilar yilning to‘rt faslida tabiat o‘ziga xos rang olishini, o‘zgarishini bilib oladilar, tabiat hodisalariga qiziqish kuchayadi va tabiatni asrab-avaylash kerakligini chuqurroq anglab etishlariga |yordam beradi. O‘quvchilar tabiatshunoslik darslarida nafaqat tabiiy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki tabitda go‘zallikni yaratishni, maktab hovlisini ko‘kalamzorlashtirish, gulzor yaratish, daraxt o‘tqazish va parvarish qilish kabilar bolalar ruhiyatiga kuchli ta’sir etadi va estetik ko‘nikma-malakalarini shakllantiradi.

San’at turlari asosiy tarbiya vositalaridir. San’atning xilma-xil ko‘rinishlari va janrlari yordamida o‘quvchilarning rang-tasvir, qalam tasvir haqidagi bilimlari, haykaltaroshlikka doir ko‘nikma va malakalari, ijodiy qobiliyatlari shakllantirilib boriladi. Rasm darslari tasviriy, amaliy, arxitektura san’ati, o‘zbek va chet el san’at ustalarining ijodlari, asarlari bilan tanishtiradi, hamda asliga ko‘ra, xotira va tasavvurlari asosida rasm chizish malakalarini tarbiyalaydi. Darsdan tashqari suhbatlar, kechalar, ko‘rgazmalar tashkil etish, muzey, rasmlar galereyasiga, san’at yodgorliklari, rassom va me’morlar, haykaltarosh ustaxonasiga sayohat amaliy san’at to‘garagiga qatnashish, tanlovlar o‘tkazishni tashkil etilishi bolalar tarbiyasida muhim vositadir. Estetik tarbiya berishda ashula va musiqaning roli benihoya kattadir. Musiqa va ashula o‘quvchilarning musiqaviy qobiliyatlarini, musiqiy xotira, didini o‘stiradi, Musiqadan nazariy ma’lumot beriladi, ular notalar, turli davralardagi musiqa asboblari, musiqashunoslarning ijodi, oqimlar, janrlar bilan tanishadilar. Bolalar birgalikda ashula aytishga, raqsga tushishga o‘rganadilar. O‘zbek xalq klassik musiqalari, ashulalarini ijro etishga harakat qiladilar. Shu bilan birga badiiy adabiyot ham estetik tarbiya berishda ishkoniyatlarga ega. Adabiyot darsi esa, o‘quvchilarda estetik ko‘nikma va kechilmalarining yorqinligini, chuqirligini ta’minlaydi.

XVIII BOB. EKOLOGIK TARBIYA. JISMONIY TARBIYA

18.1. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi

«Ekologiya» – yunoncha so‘z bo‘lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o‘zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o‘rganadigan fandir.

O‘zbekiston Respublukasi Konstitusiyasining 18-moddasida yer va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o‘simlik va hayvonot dunyosini qo‘riqlash, bu boyliklardan ilmiy asosda, oqilona foydalanish, havo va suvni toza saqlash, tabiiy boyliklarni uzluksiz ko‘paytirib borishni ta’minlash, insonning atrof-muhitni yaxshilash uchun chora va tadbirlar ko‘rishi zarurligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respubilikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilgan «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonuni, «Sog‘lom avlod uchun» ordenining ta’sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta’lim tarbiya konsepsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg‘armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga kirishilganidan dalolatdir.

Ayniqsa, umumta’lim maktablarida ham ekologik yo‘nalishdagi sinflarning tashkil etilishi, bu asosda litsey maktablarining shakllanishi yosh avlodga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganini ko‘rsatadi. Maktabni bitirib, mustaqil hayotga qadam qo‘ygan har bir yosh, qanday ixtisos egasi bo‘lishidan qat’i nazar, ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga oid nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning tabiatga ta’sir etish darajasi ham shunchalik ko‘p bo‘lar ekan. Aholi sonining tez o‘sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko‘payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta’minlash haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda. Yer bag‘ridan har yili 120 mlrd. Tonnadan ortiq turli xildagi xom ashyo, qurilish materiallari, yoqilg‘ining qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ko‘pgina zararli korxonalar, zavodlarning ham oqar suvga yaqin joylashganigi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo‘lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko‘paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo‘nalishlari mavjud. Bu yo‘nalishlar ichidan pedagogik yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ekologik muammolar inson faoliyati natijasida kelib chiqadi.

Pedagogik yo‘nalishda ekologik ta’lim va tarbiya berish ko‘zda tutiladi.

Ekologik ta’lim deganda o‘quvchilarga berilishi lozim bo‘lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi.

Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir.

Ekologik ta’lim-tarbiya umumiy ta’lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, maktabda barcha fanlarni o‘qitishda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Ekologik tarbiyalash jarayonida yoshlarni yashab turgan tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga o‘rgata boriladi. Atoqli pedagog V.A.Suxomlinskiy «Bolalarga jonim fido» asarida «Men bolalar «Alifbe» ni ochib, birinchi so‘zini xijjalab o‘qishlariga qadar avval dunyodagi eng ajoyib

kitob – tabiat kitobini mutolaa etishlarini istardim», deb ta’kidlaganidek, bu boradagi barcha ishlarni bolaning kichiklagidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Ekologik tarbiyada o‘quvchilarni o‘z maktabini; yashaydigan muhiti-Shahar va qishloq ko‘chalarini ko‘kalamzorlashtirish, mevalli va manzarali daraxt ko‘chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni maktablarda, keyingi ta’lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi.

Ajdodlarimiz bola tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor bilan qaraganlar va bu borada ibratli an’analarni vujudga keltirganlar. Bolalar go‘daklik chog‘laridanoq ahloqiy va mehnat tarbiyasini oilada boshlaganlar. Ularda mehnatga muhabbat, atrof-muhitga hurmat, obodonchilik va ko‘kalamzorlashtirish xissi sabot bilan singdirilgan. Masalan, atrofni ifloslantirmaslik uchun axlatlarni alohida chuqurchalarga tashlash; xojatxonalarni ariiq, soy, buloq suvlaridan uzoqroq joyda kovlash; yong‘in chiqmasligi chorasini ko‘rish; turli ehtiyojlar uchun yashnab turgan daraxtda emas, balki ko‘rib qolganlaridan foydalanish; nihollarni sindirib, payxon qilmaslik; qushlarni uyasini buzmaslik kabi xatti-harakatlar shakllantirilgan. Oila davrasida farzandlarga «Suvga tuflama, uini iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib baxra oladi", "Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o‘zing iste’mol qilasan", "pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo‘ladi, chunki unda ahli mo‘minning nasibasi bor" deb pandu-nasixatlar qilganlar.

Ekologik ta’lim va tarbiyalash tizimi bolalar bog‘chalarida, umumiy ta’lim maktablarida, keyingi ta’lim bosqichlarlda hamda mehnat jamoalarida davom ettiriladi. Bu o‘rinda hayotiy misollar orqali hozirgi paytda oilalarda ekologik savodxonlikning pastliligi uqtiriladi. Masalan, hozir ko‘plab odamlar mollarini ekinzorlarda, bog‘larda xatto mevali va manzarali daraxtlarga bog‘lab boqadigan bo‘lib qolishmoqda. Axir o‘tmishda xalqimiz qaramog‘idagi hayvonlariga maxsus podachi saqlagan-ku. Buning ustiga hozirgidek hayvonlarni duch kelgan yerda emas, alohida ajratib qo‘yilgan yaylovlarda o‘tlatgan yoki oilaviy dam olishga chiqilganda o‘t-o‘lanlar payxon qilinmagan, qir-adirlarda shisha siniqlari, ovqat qoldiqlari tashlab ketilmagan. Daraxtlarga, o‘simliklar olamiga, hayvonlarga zarar keltirilmagan.

O‘lkamizming tabiiy o‘simliklar dunyosi, ularning foydasi, bu boyliklarni muhofaza qilish kerakligi haqidagi masalalar bilan yoshlarni maktab partasidan keng tanishtirib borish o‘zining samarasini beradi. Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda o‘qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o‘qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakul’tetiv mashg‘ulotlarda, darsdan tashqari to‘garak yig‘ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o‘zlariniig kundalik faoliyatlari davomida ekologik muammolarni o‘rgana boradilar.

Fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko‘nikma, malakalarini

shakllantirish o‘qitishda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda hamda tanlangan ekologlk materiallar mazmuni mavzu mazmuniga mos holda tanlab olinishiga e’tibor qilinadi.

Hozirgi zamon ekologiyasining qonun va qoidalarini, dastlabki ekologiya ma’lumotni hamda madaniyatni shakllantirish 3 yo‘l bilan dars mashg‘ulotlarida, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda va ekskursiyalar vaqtida amalga oshiriladi. Bunda tabiat o‘quvchilarga ekoligiya haqida ekoligiya qonuniyatlar va tushunchalar to‘g‘risida bilim beriladi.

Ekologik tarbiya berishga tayyorlashning mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- atrof muhit va uning shaxs ma’naviy dunyosiga ta’siri;
- tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktab va oilani hamkorligi;
- o‘z tumanini, shaharini, qishloq va maktab hovlisini, ko‘kalamzorlashtirishda, xatto, sinf xonasidagi o‘simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- atrof-muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- tabiatni muhofaza qilishda ota-onalarini namunalari;
- oiladagi, maktabdagi tarbiyani, o‘simliklar va hayvonot dunyosini e’zozlashga o‘rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- tabiatga ongli munosabat jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish;
- yoshlarning ekoligiya tarbiyalashda milliy an’ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e’tiborni kuchaytirish;
- bolalarda ekoligiya xususidagi tasavvurlarni kengaytirishda tarix fanining imkoniyati katta. Bundan besh yuz yil, ming yil avval o‘lkamiz tabiati qanday bo‘lmagan, o‘simliklar va hayvonot olamini, uning ekoligiyasi-chi kabi savollarga tarix fanidan javob topish mumkin.

Maktabda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilishga doir bilim tarbiyani geografiya darslarida har bir mavzuga bog‘lab berib borish mumkin.

Ekoligiya va tabiatni muxofaza qilish darslarida joy nomlaridan foydalanish ona tili bo‘yicha mashg‘ulotlarni yanada qiziqarli qiladi. Ona tili darslaridagi ko‘plab mashqlar o‘quvchilarda tabiatga mehr uyg‘otishda qo‘l keladi. Mashqlardagi suv va havo, o‘simlik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan matnlarni tahlil qilish orqali ham tabiatga mehr uyg‘otish mumkin.

Adabiyot fani ham ekoligiya bilan chambarchas bog‘langan. Bunda har bir asarni o‘qib tahlil qilish vaqtida va o‘quvchiga tushuntirayotganda faqat bezash nuqtai nazaridan emas, ya’ni tabiatny muxofaza qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Mana shu usul bilan adabiyot darslarida ham o‘quvchilar ongiga ekologik tarbiyani singdirib boriladi. Shuningdek, 5-11-sinflarda "Tabiatni asrash – Vatanni asrash", "Tabiatni e’zozlaylik" kabi mavzularda turli baxs va she’rxonlik kechalari uyushtirish orqali ham ekologik tarbiyani amalga oshirish mumkin. Adabiyot fanida o‘qitilayotgan xalq og‘zaki ijodi misolida esa o‘quvchilar ajdodlarimizning ekoligiya xatolari nimadan iboratligini hamda bu sohada ularning qanday ibratli ishlari borligini o‘rganadilar. O‘quvchilarga aytiladigan ertaklarda hayvonlar va

o‘simliklarning xususiyatlari, ularning tabiatdagi 3-o‘rinni ochib beriladi. O‘qilgan badiiy asarlar misolida, o‘tkazilgan suhbatlarda tabiatga yaxshi munosabatda bo‘lish va toshbag‘irlik bilan qarash dalillari muhokama qilinadi.

Matematika fanida beriladigan ekologik ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilar tabiatdagi salbiy va ijobiy o‘zgarishlar inson sog‘lig‘iga qanday ta’sir qilish haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishadi. Masalan, Respublikada 1200 ga yaqin sanoat korxonasi borligi, ular havoga bir yarim.ming tonnaga yaqin zaharli moddalarni chiqarayotganligi, bunday holat 10 yil, 20 yildan keyin Shunday holda ketaversa, nimalarga olib kelishi mumkinligi kabi misollar vositasida ekologik falokat oqibatlari tasvirlanadi, yoki boshqa bir misol. Dunyo bo‘yicha har yili taxminan 6-7 mln.gektar yer ishdan chiqmoqda. Uning tiklanishi uchun juda ko‘p vaqt kerak bo‘ladi. 3 sm qatlamidagi tuproqning tiklanishi uchun 300-500 yil vaqt zarur. 18 sm qalinlikdagi tuproq tiklanishi uchun esa taxminan 2700 yil talab etiladi. Bunday aniq raqamlar bilan ifodalangan misollar asosida tuproqning insoniyat boyligi ekanligi, uni asrab avaylash har bir kishining kelajak oldidagi burchi hisoblanishini uqtiriladi.

Mehnat ta’limi darslari esa bolalar olgan bilimlarini amaliyotda ko‘rishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda sinfdan tashqari darslarni ahamiyati kattadir. Xususan, tabiat qo‘yniga sayohatlar, ekologik yo‘nalishdagi to‘garaklar, shu mazmundagi kechalar o‘tkazish o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanadi. Sayohatlar mazmuni asosan tevarak-atrofni kuzatishga qaratiladi. Sayohatlarda o‘quvchilar tabiatdan inson qanday foydalanayotganligini ko‘radilar, kattalarning tabiatga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotganligini guvohi bo‘ladilar. Tabiat qo‘ynida bo‘lish, o‘quvchilarda estetik kechinmalarni paydo qiladi. O‘quvchilar qushlarni sayrashini eshitib, o‘simliklarni yashnashini ko‘rib quvonadilar. Bu holatdan ular ham estetik, ham ekologik tarbiya oladilar.

Ekologik yo‘nalishdagi to‘garaklarda bolalarni tabiatga zarar yetkazmaslikka, tabiat go‘zalliklaridan zavqlanishga, atrof-muhitni sevishga o‘rgata boriladi. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘tiladigan "Tabiatni e’zozlaylik", "Tabiat va inson", "Ekologiya va inson", "Orol madad suraydi", "Qushlar -bizning do‘stimiz" kabi mavzularda tabiatga qiziqishni yanada oshiradi. bag‘ritosh, shafqatsiz, tabiatni mensimaslik kayfiyati bilan qaraydigan bolalarni hushyorlikka chorlaydi. To‘garak mashg‘ulotlarida yana hashoratlarni tugab, ularga ozor beradigan, chumolilar inini, qushlar uyasini buzadigan, o‘simliklarni bosib, yulib oladigan o‘quvchilarning xatti-harakatlarini muhokama qilish zarurligini uqtiriladi. O‘quvchilar to‘garak ishlarida faqat mavzular o‘rganib yoki turli kechalar o‘tkazibgina qolmay, bevosita amaliy ishlar ham qiladilar. Ya’ni, gullarni o‘stiradilar, qushlarni, quyonlarni boqib, parvarish qiladilar. Demak, o‘quvchilarni tabiatni muhofaza qilishda, tabiat hodisalarini kuzatishga o‘rgatishda ekologik to‘garaklarni ta’siri katta.

Maktabda ekologiyaga oid ta’lim-tarbiya birligi amalga oshirilsagina, o‘quvchilarda bir butun ekologik bilimlar tizimi shakllanishi mumkin. Bunda, albatta, butun maktab jamoasining - sinf rahbarlari, fanlar o‘qituvchilarining o‘zaro hamkorligi talab qilinadi.

18.2. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o‘quvchilar tanasidagi barcha a’zolarni tabiiy sog‘lom o‘sishini ta’minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga Shuningdek, vatan mudofaasiga tayyorlashdir.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:

- har tomonlama, ya’ni ham jismonan, ham ma’nan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga muhim hissa qo‘shib va ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik ko‘nikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir (bosh vazifa);
- sog‘liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy takomillashuvga asos yaratish;
- yoshlar ongida harakat turlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish va ularning kishi sog‘lom turmush tarzidagi ahamiyati haqidagi ko‘nikma va malakalarni yoshlar ongida shakllantirish;
- kishining harakatlanish jarayoniga tegishli faoliyatini takomillashuviga yordam berish;
- yoshlarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi mexanizmlarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish;
- jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va onglilik sohasidagi ma’lumotlarni bayon qilishda axloqiy – irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq – atvor ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutish;
- yoshlarning sport bilan qiziqish va unga bo‘lgan maylligini hosil qilish yordamida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan muntazam ravishda Shug‘ullaniSh uchun odatlanishiga yordam berish (ijobiy ta’sir ko‘rsatish);
- yoshlar turmush tarzida jismoniy tarbiyaga ongli munosabatda bo‘lishni o‘rgatish, ya’ni o‘z sog‘lig‘iga ongli munosabatda bo‘lishni shakllantirish orqali ularni gigiyena qoidalariga amal qilishni va ertalabki gimnastika qilishga odatlantirish hamda doimiy ravishda sport mashg‘ulotlariga qatnashishini tarkib toptirish.

Jismoniy tarbiya kishilarga qulay ta’sir ko‘rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport- har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. U dam olish bilan mehnatni almashtirib turishga yordam beradi, ijodiy his-tuyg‘u manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Qisqasi, jismoniy madaniyat va sport sog‘lom, kuchli, chaqqon, topqir, to‘siqlarni enga oladigan, ona Vatanni ko‘z qorachig‘iday e’zozlovchi vatanparvar, kelajakka ishonch bilan qaraydigan yoshlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu sababli kishilik jamiyatining eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar har qanday jismoniy kamolot va to‘qlikni avlodlarning kamolotini ta’minlovchi zanjir deb hisoblab kelishgan.

Demak, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta’minlash faqat ota-ona, maktabning ishigina bo‘lib qolmasdan, balki u davlat ahamiyatiga molik ish hamdir.

Jismoniy tarbiyaga bo‘lgan e’tibor, g‘amxo‘rlikning kun sayin oshib borishi bu fikrimizning yorqin dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo‘lgan kundan boshlab, yoshlar tarbiyasini, ularni yaroqli Vatan himoyachisi bo‘lishiga va sportning barcha turlarini jadallashtirish maqsadida bir qator maqtovga sazovor ishlarni amalga oshirdi. Bularga «Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha qonun» (1992y), »Sog‘lom avlod dasturi», «Futbolni yanada rivojlantirish bo‘yicha qaror» (1996y), «kurash asotsiatsiyasini tuzish» (1998y) va boshqa yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatish o‘rinlidir. Shuningdek, davlatimiz va hukumatimiz rahbarligida tennis bo‘yicha O‘zbekiston prezidenti kubogi, milliy kurash, u-Shu, taekvando, boks va boshqa turlari bo‘yicha xalqaro musobaqalar o‘tkazilmoqda. Shuningdek, o‘zbek kurashini Olimpiya turiga aylantirish maqsadida jahon birinchiliklari o‘tkazilmoqda va hokazo.

Jismoniy tarbiya mazmuni besh xil tushunchalarda o‘z ifodasini topadi. Ya’ni jismoniy kamolot, jismoniy holat diagnostikasi, jismoniy madaniyat, jismoniy-sport ishlari, jismoniy ma’lumot. Jismoniy kamolot- o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki organlarining o‘zgarishi, o‘sishidir. Birinchi navbatda yurak va o‘pka, shuningdek, nerv va harakat tizimi, tana shaklining o‘zgarishi, teri-muskul tizimi, og‘irligi, tananing mukammal rivojlanishidir. Pedagogik tushunchada jismoniy kamolot insondagi jismoniy ma’lumotning o‘sishi borasidagi o‘zgarishlar, ya’ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga, nomukammallikdan mukammallikka tomon bo‘lgan o‘zgarishlar tushuniladi.

O‘quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida kamolot diagnostikasi muhim o‘rin tutadi. U jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytilganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko‘rsatkichidir. Maxsus usul va jismoniy texnika asosida o‘quvchilarning sog‘liqlarini, har bir alohida shaxs kamoloti saviyasini tadqiq etish, belgilangan me’yor va undan uzoqlanish ko‘rsatkichlarini oldindan belgilash asosida tarbiya uchun doimiy ko‘rsatkich aniqlanadi. Jismoniy etuklik bu badanning tashqi ko‘rinishidagi garmoniya, go‘zallik shakli: jismoniy sifatlarning yuqori darajadagi kamoloti-kuchi, tezligi, chidamliligi va abjirligi barcha tizimlarning mutanosibligi va ularning salomatligidir. Agar diagnostika o‘quvchilarning yoki biron-bir o‘quvchining jismoniy va meditsina ko‘rsatkichlari pasayib ketayotganligini ko‘rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyadagi mavjud tizimni o‘zgartirish lozim.

Jismoniy madaniyat tarbiyaning tarkibiy qismidir. Jismoniy madaniyat mazmuniga quyidagilar kiradi:

Inson a’zolarining tuzilishi va ularning funksional kamoloti- ichki a’zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tizimi, badanning uyg‘unligi va ularning funksional faoliyatini boshqarish.

O‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash.

Gigiena qoidalariga ko‘nikish.

O‘quvchilarning har tomonlama mohirligini o‘stirish.

Bo‘lajak ishchi-mehnatkashlarning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb ahamiyati jihatidan shakllantirish, uning ish qobiliyatini oshirish.

O‘quvchilarning jismoniy va yosh hususiyatlari uchun sharoit yaratish.

Iroda, chidamlilik, qat’iy intizom, do‘stlik va o‘rtoqlik hissi, kamol topish va o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun harakat qilishni tarbiyalash.

Shaxsiy jismoniy qobiliyatlarini kamol toptirish.

Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya mazmuni etarli darajada kengdir. Ularni amalga oshirish yoshlarimizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini ta’minlaydi. Yuqoridagi sifatlar, doimiy mashqlar asosida har bir shaxsda o‘z badaniga va uning go‘zal bo‘lishiga intilish, shaxsiy sog‘lig‘ini jamiyat taraqqiyoti bilan, xalq madaniyati bilan bog‘lash sifatlari shakllanadi. Jismoniy tarbiya ta’lim mazmunida ham qaror topadi. Uning vazifasiga o‘quvchilarda tanlangan sohaga aloqador ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish kiradi. Jismoniy tarbiyaga harbiy tayyorgarlik elementlari ham kiradi. Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar orqali ham, xususan, ishlab chiqarish ta’limi orqali ham amalga oshiriladi: jismoniy sog‘lik, badan go‘zalligi va boshqalar qaror topadi.

Ilg‘or pedagogik tajribalarning ko‘rsatishicha, jismoniy tarbiya o‘quvchi va o‘qituvchilar jamoalarining turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya daqiqalari, sport va jismoniy tarbiya targ‘iboti, ishlab chiqarish ta’limi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni rag‘batlantirishda, o‘quvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshlarimizning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb mazmuniga bog‘lash borasidagi dars jarayonlarida ahamiyati beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda ham amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyat-sport ishlari yoki oddiy sport sho‘balari, klublari, guruhli yoki ommaviy musobaqalar va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Jismoniy tarbiya bo‘yicha o‘quvchilar bilan alohida tarzda ishlash natijasida a’zolari bo‘shashib qolgan, jismoniy kamchiligi bor, darsdan ozod bolalarning sog‘liklarini tiklash ishlari olib boriladi. Ikkinchi ma’noda jismoniy qobiliyatli bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olib ham alohida mashg‘ulotlar yo‘lga qo‘yiladi. Ayrim qobiliyatli bolalar, maktab va boshqa o‘quv yurtlarida o‘qish bilan birga ommaviy sport ishlarida ishtirok etib, yuksak natijalarni qo‘lga kiritishlari, xatto, o‘rta maxsus yoki oliy ma’lumot ham olishlari mumkin.

Maktab va kasb-hunar kollejlarida, litseylarda jismoniy tarbiya darslari o‘quvchilarning jinsiy farqlariga asoslangan holda, shuningdek, kasb turlariga qarab turli vazifalarni hal etish mumkinligini inkor etmaslik kerak. Masalan, o‘quvchi o‘g‘il bo‘lsa unda erkaklik fazilatlari, kuchlilik, aniqlik harakatlarini maromiga sola bilish, dangasalikni bartaraf eta olish, jinsiy etuklik, yaroqlilik shakllantiriladi.

Qizlarda esa, harakatlarida muloyimlik, aniqlik, qizlik latofati, qo‘rqoqlikni bartaraf eta olish kabi sifatlar qaror toptiriladi.

Jismoniy tarbiya mazmunida «jismoniy mehnat», «jismoniy ta’sir», «jismoniy jazo» va boshqa iboralar ham uchrab turadi. Jismoniy mehnat-aqliy mehnatdan farqli o‘laroq insonning jismoniy-kuchi, muskul harakatlari qismlari va boshqalar bilan bog‘langandir. Jismoniy mehnat to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tashkil etilishiga qarab

yoshlarga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishini unutmaslik lozim. Har qanday Sharoitda ham jismoniy mehnat turlarini jismoniy tarbiya mazmuniga kiritilish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy ta’sir- bu inson badaniga yo biron-bir buyum bilan, yoki insonlar tomonidan (qo‘l, oyoq, badan orqali) ta’sir ko‘rsatishdir. Yaqin vaqtlargacha bu haqida juda oz fikr bildirilgan va uni nopedagogik ta’sir deb kelingan edi. Pedagogik tajribada o‘quvchilarni aqliy faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida jismoniy ta’sir ko‘rsatishdan tez-tez foydalandiish mumkinligi isbotlangan. Masalan, bolalarning boshini silash, qo‘lini bolalar elkasiga yumshoq qo‘yish orqali ruhlantirish, partadagi bolalar yoniga o‘tirib hamkorlik bildirish va hokazo va shunga o‘xshash. Bunday badan tarbiya orqali ta’sir ko‘rsatish o‘quvchilarning tarbiyalash darajalari samaradorligini oshiradi, o‘qituvchi o‘rtasidagi to‘siq bartaraf etiladi va osoyishtalik, bir-biriga ishonch qaror topadi.

Jismoniy jazo – o‘quvchidagi xulqiy kamchilik yoki biron-bir noaxloqiy xatti-harakatlarni bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladi. Jismoniy jazoga ochlik e’lon qilish ham kiradi. Bizning maktablarimizda jismoniy jazo bekor qilingan.

Maktablarda o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash uchun quyidagilar bajarilishi shart:

- shaxsning jismoniy kamolotini nazarda tutgan holda, tarbiyalanuvchining jismoniy madaniyati bo‘yicha turmush tarzini qaror toptirish;
- jismoniy tarbiyani pedagogik jarayonni tashkil etishda tabiiy, madaniy uyg‘unlashish va insoniylikka asoslanib shakllantirish;
- jismoniy tarbiyani aqliy, ahloqiy tarbiya bilan, o‘quvchilarning ma’naviy hayoti bilan bog‘liqligini ta’minlash;
- moddiy texnika, kadrlar bilan va uslubiy jihatdan ta’minlash va hokazo.
- Jismoniy tarbiyani ta’bir joiz bo‘lsa, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash jarayonlarining tarkibiy qismi deb qarash lozim.

Hozirgi kunimiz uchun ya’ni oila va maktabda yoshlarning tabiiy o‘sishlarini ta’minlash zarur bo‘lgan quyidagi qoidalarga rioya qilinishi yutug‘imiz garovidir.

1. Oila va maktabda hamma yoshdagi o‘quvchilar uchun bir kecha kunduzlik rejim o‘rnatish va ularga rioya qilinishini nazorat qilib borish lozim. Mehnat dam olishning, og‘ir mashg‘ulot bilan engil mashg‘ulotning to‘g‘ri navbatlanib turishi, doimo ma’lum vaqtda ovqatlanish, ma’lum vaqtda ochiq havoda bo‘lish, o‘z vaqtida uxlash va hokazolar sog‘lom o‘sishning muhim Shartidir.

2. Tashqi sezgi a’zolarining sog‘lom bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qilish kerak. Yoshlarimizning aqlan barkamolligi, mehnat va mudofaaga to‘la yaroqli bo‘lishlari uchun tashqi sezgi a’zolarining sog‘lom bo‘lishi juda katta ahamiyatga egadir. O‘quvchilarning ko‘zini chang, tutun va havo iflosliklaridan saqlash: yuvinib turishini maslahat berish lozim. Daftar va kitobni xaddan tashqari yaqinlik bilan o‘qish, yozishlari ularning uzoqni ko‘ra olmaydigan bo‘lib qolishlariga olib kelishini tushuntirish, yaxshi yoritilmagan xonalarda kitob o‘qimaslikni maslahat berish darkor. Quloqlarni kirlanishdan, shamollashidan va ichiga iflos narsalarning kirib qolishidan saqlanishini o‘rgatish kerak. Eng muhim gigienik qoidalarga rioya etish, badanimizni toza tutishimiz lozimligini erinmay tushuntirishimiz Shart.

3. O‘quvchilarning umurtqa pog‘onasi, tos va elka suyaklari egrilanib, ko‘krak qafasi o‘sishdan to‘xtab qolmasligi, uzoqni yaxshi ko‘rolmaydigan bo‘lib

qolmasliklari uchun o‘qituvchi ularni sinf mashg‘ulotlari vaqtida partada to‘g‘ri o‘tirg‘izishlari kerak.

4. O‘quvchilarimizning sog‘lom o‘sishlarida etarli ovqatlanish - (hayvon, o‘simlik oqsillari, xo‘l meva, suyakning o‘sishi uchun etarli tuzlar) tartibi to‘g‘ri va tartibli nafas olish haqida (kamida 2-3 soat ochiq havoda bo‘lish) ga ham g‘amxo‘rlik qilishimiz darkor. Buning uchun oilada va maktabda engil ishlar bilan Shug‘ullanish, gimnastika mashg‘ulotlarini bajarish kabilarni joriy etilishi maqsadga muvofiqdir va hokazo.

Yuqoridagi omillarning samaradorligi ota-ona va o‘qituvchilarning ziyraklik va mohirlik bilan tarbiyaviy ishlarini tashkil etishlariga bog‘liq.

18.3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo‘llari va vositalari

Barkamol avlod tarbiyasi ko‘p jihatdan ularning sog‘ligini mustahkamlashga, me’yoriy – davriy jismoniy rivojlanishga va yuqori darajadagi intellektual salohiyatga bog‘liq bo‘ladi. Ularning turmush tarzida jismoniy tarbiya va sport odatiy tusga aylanmog‘i lozim. Shu sababli ham har tomonlama kamol topgan inson deganda ham jismoniy jihatdan chiniqqan, ham aqliy salohiyati mustahkam odam inson tushuniladi. Ular hayotida jismoniy tarbiya bilan muntazam Shug‘ullanish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida jismoniy tarbiyani tashkil etish yo‘llari va ularning inson kamolotidagi ahamiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

1. Ertalabki badantarbiya. Sog‘lom bo‘lishni va muntazam aqliy rivojlanishni o‘ziga maqsad qilib olgan har qanday insonning ertalabki badantarbiyasi ish kunining asosiy dastlabki bosqichidan iborat bo‘lmog‘i lozim. Bu holatga o‘qituvchi ham alohida e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi, ya’ni o‘qituvchi har bir o‘quvchining ish kunini badantarbiya mashqlarini bajarishdan boshlanishiga erishish kerak. Bunday mashqlar uchun mo‘ljallangan harakatlar majmualarini jismoniy madaniyat darslarida o‘rganish kerak. Har bir majmuaga 6-7 ta mashq kiritiladi va bunda muskullarning hammasini qamrab oluvchi mashqlar (harakatlar) e’tiborga olinmog‘i lozim bo‘ladi.

2. Mashg‘ulotlargacha bo‘lgan badantarbiya. Bunday mashg‘ulotlar dars jarayoni boshlangunga qadar amalga oshiriladi. Muntazam ravishda olib boriladigan bunday mashqlardan ko‘zlangan maqsad, o‘quvchilar organizmining tashqi muhitga nisbatan chiniqishini va qomatining to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Bu turdagi badantarbiyani sport maydonlarida o‘tkazilsa qulay bo‘ladi va bu bilan qo‘shimcha ravishda yugurish, sakrash kabi harakatlarni ham qo‘shib olib borishga imkoniyat yaratiladi. Har qanday Sharoitda ham kamida bir oyda bunday mashg‘ulotlar majmuasini tarkibiy harakatlar tizimini almashtirib turish lozim.

3. Jismoniy tarbiya daqiqasi. Bu turdagi mashg‘ulotlar jismoniy madaniyatga ko‘proq tegishli bo‘lib, ayniqsa muayyan fanlarni o‘zlashtirish davomidagi aqliy toliqishning oldini olish uchun undan foydalaniladi. Bunday harakatlardan (harakatlar majmuini o‘qituvchi tanlaydi) ko‘zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- ta’lim oluvchilarning asab tarangligini bo‘shashtirish;

- ta’lim oluvchilarning jismoniy holatini yaxshilash;
- diqqatini yanada o‘rganilayotgan mavzuga kuchaytirish.

Umuman olganda jismoniy tarbiya daqiqasi asosan quyidagi uch qismdan iborat bo‘ladi:

1. Harakatlarga kirishishni ta’minlash;
2. Oyoq muskullarini harakatlantirishga mo‘ljallangan mashqlar;
3. Tananing boshqa a’zolarini harakatlanishiga mo‘ljallangan mashqlar.

Bunday ko‘rinishdagi jismoniy tarbiya daqiqalari o‘yin ko‘rinishida tashkil etilib, bunda qo‘l harakatlari barcha mashq turlarida mos holda ishtirok qiladi.

4. Madaniy jismoniy piyoda yurishlar va sayr qilishlar.

Bunday mashqlarga odatda havoning ochiq kunlari va darsdan tashqari vaqtlar tanlanadi. Jismoniy yayov yurishlar asosidagi sayrlarda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi:

- uni to‘g‘ri uyushtirishni rejalashtirish lozim;
- sayr dasturi mukammal ishlab chiqilmog‘i lozim;
- sayr harakat rejasi oldindan aniqlanib, ma’qullanib olmog‘i lozim;
- o‘quv yurti rahbariyati va ota – onalar bunday jismoniy harakatlar majmuidan xabardor bo‘lmog‘i lozim;
- ushbu harakatlar majmuini amalga oshirish muddatini bir kundan oshirmaslik lozim;
- sayr qatnashchilarining xavfsizligi va salomatligiga mutasaddilar oldindan belgilanishi lozim va shu kabilar.

5. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda umumiy jismoniy tarbiya.

Bunday turdagi jismoniy tarbiya sport turlariga mos holda tanlanadi va ular yilning fasllarini e’tiborga olgan holda tashkil etiladi. Mashg‘ulotlarning asosiy mazmuni jismoniy tarbiya o‘quv dasturining mazmuniga mos bo‘ladi.

6. Sport musobaqalari. Bu ta’lim oluvchilarning muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishini e’tiborga olinishini nazarda tutiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlarini tuzishga keng imkoniyatlar yaratadi va ular bolalar jamoalarini yanada jipslashtiradi. Bu borada Respublikamizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab o‘quvchilari uchun “Umid nihollari”, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari o‘quvchilari uchun “Barkamol avlod”, Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun “Universiada” va shu kabi Respublika miqyosidagi sport musobaqalarining tashkil etilishi yoshlarimizning ham jismonan, ham aqlan barkamol bo‘lishiga yurtimizdagi katta e’tibordir.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishning bundan boshqa yo‘llarini ham amalga oshirish mumkin va ularning barchasining mazmun-mohiyati yoshlarimizning ma’naviy jihatdan yetuk, jismoniy jihatdan baquvvat bo‘lishligidan iborat bo‘lmog‘i lozim. Ayniqsa, sog‘lomlashtirish guruhlari ishini olib borishda jismoniy tarbiyaning mos turlarini tanlash o‘ta muhim bo‘lib, kishi salomatligini ta’minlash garovidir.

Jismoniy tarbiya vositalarini shartli ravishda uchta yo‘nalishga ajratiladi.

Ular:

- sanitariya-gigiyena omillari;
- tabiatdagi sog‘lomlashtiruvchi kuchlar;

- jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar tizimi.

Endi har bir yo‘nalish bo‘yicha qisqacha ma’lumotlarni keltiramiz.

Birinchi yo‘nalish asosan jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning kundalik rejimi asosida harakatlar majmuini tashkil etadi. Qat’iy rejim har qanday yoshni sog‘lig‘ini muntazam ravishda ta’minlash bilan birga ularni algoritmik tarzdagi tartib – intizomga ham o‘rgatadi va bu faoliyat shartli refleksga aylanib bo‘ladi. Shuningdek, yoshlarning kundalik rejimni muntazam ravishda bajarib borishi, ular organizmining ritm bilan ishlashiga odatlantiradi va domiy hayotiy ehtiyojga aylanadi.

Rejimga rioya qilmaslik, ya’ni o‘z vaqtida ovqatlanmaslik, me’yorida uxlamaslik, aqliy va jismoniy mehnatlarning tartibsiz bajarilishi quyidagi salbiy oqibatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi:

- kishi organizmini tashqi muhitga chidamliligi susayadi, ya’ni organizm bo‘shashib ketadi;
- organizm hujayralarining me’yoriy harakatlari faoliyati buziladi;
- kishi bosh miyasi funksiyasi buziladi.

Kundalik rejim tuzishda kishilar yoshi, o‘quv yurtlaridagi mashg‘ulotlar muddati, ovqatlanish vaqti, ochiq havoda dam olish vaqti, yilning fasllari va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning almashinuvi kabi jihatlari e’tiborga olinsa kundalik rejim tuzishning **optimal variantlarini** kafolotlashga erishiladi.

Ikkinchi yo‘nalish. Kishi jismoniy sog‘lomligini ta’minlashda tabiatdagi sog‘lomlashtiruvchi kuchlardan foydalanish yoshlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, organizmni chiniqtirish va ularning muntazam jismonan rivojlanish darajasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy vositalar quyosh, havo va suvdan iborat bo‘ladi, ya’ni tabiat kuchlari jismoniy mashg‘ulotlar o‘tkazish va mustaqil shug‘ullanish uchun eng asosiy vositalar sifatida foydalaniladi.

Uchinchi yo‘nalish. Jismoniy tarbiyada foydalaniladigan jismoniy tarbiya vositalari orasida eng ko‘p qo‘llaniladigani jismoniy mashqlar tizimidir. Ular orqali quyidagi samaralarga erishiladi:

- gavda muskullarining me’yorida o‘sishi ta’minlanadi;
- organizm jismonan mustahkamlanadi;
- yurak qon – tomir tizimi faoliyati yaxshilanadi;
- nafas olish tizimining ishlashi yaxshilanadi;
- bosh miya qobig‘ida harakatlantiruvchi sohalarning faoliyatini yaxshilashga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu yo‘nalishdagi jismoniy tarbiya vositalari tizimida gimnastika, harakatli o‘yinlar va sport mashg‘ulotlari yetakchi o‘rinni egallaydi.

Gimnastikaning quyidagi turlari mavjud:

- asosiy gimnastika, ya’ni gigiyenik gimnastika;
- sport gimnastikasi va uning ba’zi turlari (akrobatika, badiiy gimnastika va shu kabilar);
- yordamchi, jumladan davolovchi gimnastikasi.

Sport. Jismoniy tarbiya tizimida sport musobaqalarini tashkil etilishi va uyushtirilishi jismoniy tarbiyani og‘ishmay amalga oshirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bundagi xatti-harakatlar ko‘proq musobaqaviy tarzda amalga oshirilib, ularda eng yuqori yutuqlarga intilish, ya’ni g‘oliblikni qo‘lga kiritish, muntazam ravishda mashq qilish, sport musobaqalarga qatnashish, sport razryadlari olish, sport ustasi maqomiga sazovor bo‘lish va hakozo ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Bugungi kunda Respublikamizda sportning barcha turlariga katta e’tibor berilmoqda va bu sohadagi ishlarni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan. Bularni “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” va Shu kabi respublika miqyosidagi o‘tkazilayotgan sport musobaqalaridan ham anglasa bo‘ladi. Ularning natijalari esa Vatanimiz yoshlarining dunyo miqyosida o‘z o‘rnini topishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

XIX BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI. TA’LIM SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI

19.1.O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni

Respublikamizda ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2020-yil 23-sentabrda O‘zbekistan Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahriri qabul qilindi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi xujjatlarni topshirish xuquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi – davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari – davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari – ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli xujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik – malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

nodavlat ta’lim tashkiloti – davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish xuquqini beradigan litsenziya asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni

har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta’lim kampusi – yagona hududda birlashtirilgan o‘quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob’yektlarini o‘z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo‘lgan, o‘quv jarayoni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta’minlaydigan ta’lim-tarbiya muhiti;

ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari – ta’lim oluvchilar, voyaga etmagan ta’lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta’lim tashkilotlari attestatsiyasi – ta’lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari hamda o‘quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo‘yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta’lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo‘lib, u fan-texnika, madaniyatning yuksala borishi bilan chambarchas holda rivojlanib borishini nazarda tutadi.

Insoniyat mavjud ekan, har doim taraqqiyot sari intiladi va yangidan-yangi fan yutuqlarini qo‘lga kiritib boradi. Ta’lim tizimi esa ana shu fan yangiliklarini kelajak avlodga yetkazib berishni ta’minlaydi. Shu bois ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, ta’lim oluvchilarning ushbu yutuqlardan oqilona foydalangan holda ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarib, kelajakda o‘zlarining munosib o‘rinlarini topishga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»ni qonunining 5-moddasida belgilab qo‘yilganidek, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng xuquqlar kafolatlanadi.

Ta’lim olish huquqi:

- ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta’lim olishni tashkil etish;
- kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limni va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish;
- oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish xuquqini

berish orqali ta’minlanadi.

Chet ellik fuqarolar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonun xujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ta’lim olish uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng xuquqlarga ega.

Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari ushbu qonunning 34-moddasida keltirilgan bo‘lib, unda quyidagilar keltirilgan:

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional hamda oliy ta’lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim talablari:

- maktabdan tashqari ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini;
- ta’lim tuzilmasini va ta’limni amalga oshirish shartlarini;
- ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to‘g‘risidagi normalarni belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti qo‘llaniladi.

Davlat ta’lim standartlarini va (yoki) davlat ta’lim talablarini bajarish barcha ta’lim tashkilotlari uchun majburiydir, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida ta’lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, oliy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim hamda professional ta’limning o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi. Ushbu maqsadlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarini belgilaydi.

Tayanch davlat oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalari kadrlarning talabgorlari ishtirokida davlat ta’lim standartlarini, malaka talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini tayyorlashni amalga oshiradi. Davlat ta’lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilishini ta’minlaydi.

Oliy, professional, o‘rta maxsus va umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari tegishincha O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Tegishli vakolatlar berilgan boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar davlat ta’lim standartlarini O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi.

Davlat ta’lim talablari ta’lim sohasidagi tegishli vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruxiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni

o‘qitish maxsus o‘quv dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi davlat oliy ta’lim muassasalariga mustaqil ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o‘quv dasturlari, malaka talablari hamda o‘quv rejalari asosida ta’lim xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha vakolatlarni berishi mumkin.

19.2. Uzluksiz ta’lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi

Uzluksiz ta’lim – o‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta’lim tizimi. Uzluksiz ta’lim milliy modelning asosiy tarkibiy kismlaridan biri O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta’lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxe shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta’lim ta’lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 7-moddasida ta’lim tizimi, turlari va shakllari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilar hisoblanadi:

Ta’lim turlari

Ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;
- oliy ta’lim;
- oliy ta’limdan keyingi ta’lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta’lim.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya

Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim umumta’lim o‘quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’lim (I-IV sinflar);
- tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar);
- o‘rta ta’lim (X-XI sinflar).

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga

to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII-sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish, shuningdek ta’lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo‘lgan o‘n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus ta’lim akademik litseylarda to‘qqiz yillik tayanch o‘rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta’lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim olishini ta’minlaydi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim to‘lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste’dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta’lim oladi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta’lim oluvchilar soni o‘ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta’lim

Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- boshlang‘ich professional ta’lim;
- o‘rta professional ta’lim;
- o‘rta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O‘rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma

asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’lim hamda boshlang‘ich professional ta’lim negizida amalga oshiriladi.

O‘rta maxsus professional ta’lim texnikumlarda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional va o‘rta professional ta’lim negizida davlat buyurtmasi yoki to‘lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo‘lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan fuqarolar ham o‘rta professional va o‘rta maxsus professional ta’lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta’lim oluvchilarning o‘zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta’limni olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim

Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yunalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

Oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta’lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o‘rta (o‘n bir yillik ta’lim), o‘rta maxsus (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik o‘rta maxsus ta’lim), boshlang‘ich professional ta’lim (to‘qqiz yillik tayanch o‘rta va ikki yillik boshlang‘ich professional ta’lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi (to‘qqiz yillik umumiy o‘rta va uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi) olgan shaxslar oliy ma’lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta’lim ikki bosqichga - bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalar beradigan, o‘qish davomiyligi kamida uch yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo‘yicha o‘qish davomiyligi kamida bir yil bo‘lgan oliy ta’limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo‘lgan bakalavriat ta’lim yunalishlarining ro‘yxati ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni olish xuquqiga ega.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim

Oliy ta’limdan keyingi ta’limni oliy ta’lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil

izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da’vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi buyicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta’lim tashkilotlarida oliy ta’limdan keyingi ta’lim olish xususiyatlari qonun xujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limning davom etish muddati qonun xujjatlarida belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yunalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat kiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta’lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yunalishidagi maktabdan tashkari ta’lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashkari ta’lim bolalarga uzluksiz ta’lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste’dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma’naviy extiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot- kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashkari ta’lim berish tartibi ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

19.3. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta’lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta’lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta’lim sohasida kamsitishlarga yul qo‘yilmasligi;
- ta’lim olishga doyr teng imkoniyatlarning ta’minlanishi;
- ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratii xususiyati; ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
- o‘n bir yillik ta’limning hamda olti yoshdan etti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o‘quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta’lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag‘batlantirilishi;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg‘unligi;
- ta’lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

XX BOB. PEDAGOGIK MENEJMENT NAZARIYASI VA AMALIYOTI

20.1. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha

Jamiyatimizning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun u yuksak salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli, jamiyatimiz a’zolarining ongi, ma’naviy madaniyati, qanchalik yuqori bo‘lsa, Respublikamizda qayta qurish ishlari shunchalik muvaffaqiyat bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma’rifat berishni, aholiga madaniy, maishiy xizmat ko‘rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chikadi.

Ta’lim muassasasi menejmenti ta’lim muassasasida boshqaruv tizimini, boshqaruv omillari (maktab faoliyatida ishni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish), qoidalari, prinsiplari hamda ta’lim tizimi sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan izchillikda olib boriladigan murakkab jarayon.

Jamiyatning ma’naviy hayotini boshqarish oldiga qo‘yilgan maqsad esa ilm-ma’rifatni, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab etishtirishdan iboratdir.

Har qanday miqiyosidagi bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat-idora qiluvchiga ma’lum darajada muxtojdir. Bu ibora qiluvchi indivudual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, butun organizm harakatidan kelib chikadigan umumiy vazifalarni bajaradi. Yakka skripkachi o‘zini-o‘zi idora qiladi. Lekin,

orkestr esa dirijyorga muxtojdir. Demak, to‘g‘ri boshqaruvning muhim sharti, boshqaruvchi-rahbarning bo‘lishidir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarish oldiga qo‘yilgan maqsad ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy o‘z-o‘zini idora qilishga aylantirishdir.

Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma’rifat berishni, aholida maishiy-madaniy xizmat ko‘rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi. Eng yangi ilmiy texnika inkilobi asarida ma’naviy ishlab chiqarishning fan kabi sohasini boshqarish g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning va uning har bir ayrim a’zosining ma’naviy rivojlanishini boshqarish - umumiy ta’lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta’limi organlari, hunar-texnika bilim yurtlari, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, pedagogik qadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan adabiyot, san’at, madaniyat, sog‘likni saqlash kabi sohalarni boshqarishni
o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra, xalq ta’limi tizimini boshqarish, jumladan, umumiy ta’lim maktabini boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismidir.

20.2. Ta’lim muassasasini boshqarish

Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda - boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob’yektlarga ta’sir ko‘rsatishning u yoki bu yo‘nalishlarini tushunmoq kerak. Boshqaruv omillariga: rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash (kordinatsiya qilish), nazorat qilish, hisob-kitob qilish kiradi.

Rejalashtirish – boshqariluvchi ob’yektlarni rivojlantirish va modellashtirishni, prognoz qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Tashkil qilish – ishlab chiqarish ob’ektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlab olish hamda shakllantirishdir. Tizimning tuzilishi elementlari o‘rtasidagi munosabatlarini va ularning o‘zaro harakatini belgilashdir.

Nazorat qilish – ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini va taraqqiyotini rejaga qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishdan iboratdir.

Nihoyat, hisob-kitob qilish esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir. Hisobga olish, axborotlarni yakunlashga, uni tizimga solishga imkon beradi. Shuningdek, u mazkur tizimning keyingi davrga mo‘ljallangan ish dasturini ishlab chiqish uchun axborot bazasidan to‘liq foydalanishga imkon beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan boshqarish omillarini xalq xo‘jaligimizning hohlagan sohasiga, jumladan, maktab-maorif sohasiga ham to‘liq ma’noda tadbiq qilish mumkin. Lekin, mazkur omillarning konkret mazmuni turli boshqaruvchi tizimlarga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, biz fikr yuritayotgan funksiyalar ijtimoiy boshqaruvning mazmunini tashkil qiladi. Modomiki, shunday ekan, maktab-maorif sohasidagi har bir rahbar xodim o‘zining boshqaruv ish tuzimini mazkur boshqaruv omillari asosida tashkil qilsa, bu borada so‘zsiz yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, mazkur boshqaruv omillari va ularning mohiyatiga to‘liq tushunib olmoq lozim.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug‘ullanuvchi kishilar (maktab direktori, direktorning o‘quv tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari, ma’naviyat bo‘yicha o‘rinbosari, metod birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruv apparatlarini tashkil etadi. Boshqarishning barcha bo‘g‘in va bosqichlaridagi xodimlar ham shu apparatga mansubdirlar. Boshqaruv apparatining bir qismini kishilarni boshqaruvchi shaxslar (maktabdagi rahbarlar) tashkil etsa, ikkinchi qismini ijrochilar (o‘qituvchi, tarbiyachi, yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, metod birlashmalarning a’zolari, texnik xodimlar) tashkil etadi.

Boshqarish sohasidagi ijrochi xodimlarni ikkita asosiy guruhlariga:

A) mutaxassislariga (o‘qituvchi va tarbiyachilarga):

B) texnik xodimlarga (laborant, farrosh, elektrchi-montyor, maktab korovuli kabilarga) bo‘lish mumkin.

Maktabga o‘qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to‘g‘ri tanlash va ularni to‘g‘ri joyiga qo‘yish, maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida quyidagi qoidaga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab xodimlarini tanlashda ularning:

A) siyosiy bilimi jihatidan:

B) halolligi nuqtai nazaridan:

V) ish bilishi jihatidan:

G) ma’muriy qobiliyati jihatidan yondoshishi o‘rinli bo‘ladi. Bizningcha, idora qilish uchun ishni bilish kerak, hamma narsadan xabardor bo‘lmasdan turib, to‘la-to‘kis bilimga ega bo‘lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas.

20.3. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillari

Pedagogik tizimni boshqarishni demokratiyalash va insonparvarlashtirish. Pedagogik kadrlarni tanlov va shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama qilish, axborotlarning barcha uchun ochiq va tushunarli joriy etish, ta’lim muassasasi jamoatchiligi oldida mahmuriyatning muntazam hisobot berishi, o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’lim muassasasi hayotiga oid o‘z fikrlarini bildirishga imkon berish, ta’lim muassasasida demokratik g‘oyalarning ustuvoro‘rin tutishini anglatadi.

Ta’lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo‘lish, unga ishonish. pedagogik faoliyatda Sub’yektning sub’yektga munosabati darajasiga erishish, o‘quvchi va o‘qituvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish, o‘z istehdodlari va kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish insonparvarlik tamoyiliga asoslangan boshqaruv mohiyatini anglatadi.

Boshqarishning tizimlilik va yagonalik. Ta’lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida rahbar ta’lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida va uning belgilari haqida aniq tasavuiga ega bo‘ladi. Tizimning birinchi belgisi yagonaligi hamda uni bo‘laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligidadir. Ikkinchi belgisi tizimning ichki tuzilishining mavjudligini anglatadi. Uchinchi belgisi tizimning integratsiyalana olishidir. Tizimning har bir tarkibiy qismi o‘ziga xos sifatga ega bo‘lgani bilan, o‘zaro harakat orqali tizimning

yangi integratsiyalana olish sifati hosil bo‘ladi. To‘rtinchi belgisi ta’lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liqligidir. Chunki, ta’lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ushbu ta’lim jarayonini qayta quradi hamda o‘zining maqsadlariga erishish uchun tashqi muhitni o‘ziga bo‘ysundiradi. Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o‘rtasidagi o‘zaro harakat va aloqani tahminlaydi, biryoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan holatlarining ratsional uvg‘unligi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo‘lganda, albatta, mahmuriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ehtiyojlari, talab va istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o‘qituvchilarning keraksiz mehnat va vaqt sarflashlariga olib keladi.

Shuningdek, markazlashtirilmaslikka ham keragidan ortiq e’tibor berilsa, pedagogik tizim faoliyatining sustlashishi ko‘zga tashlanadi.

Ta’lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg‘unlashtirish mahmuriy va jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratadi hamda kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Yakka-hokimlik bilan jamoatchilik boshqaruvining birligj tamovili pedagogik jarayonni boshqarishda yakkahokimlikka yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan. Boshqarish faoliyatida o‘qituvchilarning tajribasi va bilimiga tayanib, turli qarashlami taqqoslab, oqilona xulosalar chiqarish o‘ta muhimdir. Vazifalarni kollegial hal qilish har bir jamoa ahzosining javobgarligini yo‘qqa chiqarmaydi.

O‘z navbatida yakkahokimlikning o‘ziga xos jihatlari bor. Yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni tahminlaydi.

Qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv mahqul bo‘lsa, qaroming ijrosini tahminlashda yakkahokimlikka bo‘ysunish mahquldir.

Ta’lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri ushbu tamoyilni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta’lim tizimini boshqarishda axborotlarning obhektivligi va to‘liqligi. Ta’lim tizimini boshqarishning samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to‘liqligiga ham bog‘liq. Agar axborotlar aniq, to‘liq yig‘ilsa yoki haddan ziyod ko‘p bo‘lsa, qaror qabul qilishda chalkashlikka olib keladi.

Biz ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirishi haqidagi mahIumotlarni yig‘amiz, lekin ularning qiziqishlari, xulq-atvori, shaxs sifatidagi yo‘nalishiga e’tibor bcramiz. Ana shuning uchun ham tarbiya jarayonida ko‘plab og‘ishlar kuzatiladi.

Ta’lim muassasasining rahbari o‘zining faoliyatida menejer vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun u o‘z faoliyatida kuzatish, anketa, test, instmktiv va metodik materiallardan keng foydalana bilishi lozim. Ta’lim muassasasi mahmuriyati maktab ichidagi axborotli boshqaruv texnologivasini ishlab chiqish va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etishga alohida e’tibor qaratishi kerak.

Boshqaruv jarayonida axborotdan samarali foydalanish ta’lim muassasasi faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi. Ta’lim muassasasini boshqarishda foydalaniladigan axborotlar turlichadir.

20.4. Ta’lim muassasasining ichki boshqaruvi

Maktab ma’orifni boshqarish shakllari va metodlari Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyat xal qilishi lozim bo‘lgan vazifalarga muvofiq o‘zgarib va takomillashib boradi.

Maktab ichki boshqaruvini boshqarish qoidalari asosida tashkil qilish hozirgi davrining muhim talablaridan biridir. Biz quyida mana shu boshqarish qoidalariga alohida to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Demokratizm qoidasi. Bu qoida hozirgi davrda jamiyatimiz yanada demokratlashtirish, xalqning o‘z-o‘zini boshqarishni chuqurlashtirish bobida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratizmni asossiz ravishda mustaqillishtirish oddiy xodimlar tashabbusining cheklanishiga, sub’ektivizmga olib borishi mumkin. Demokratizm uchun ilmiy asoslangan pishiq-puxta tashkiliy tuzilish yaratib qo‘yilgan bo‘lmasa, mehnatkashlarni jamoat ishlarini boshqarish ko‘nikmalari ruhida tarbiyalash sohasidagi ish zaif bo‘lsa, demokratizmga zid bo‘lgan anarxiya tomonga "og‘ish" sodir bo‘lishi mumkin. Mana shu sabablarga ko‘ra, demokratizm bobida jamiyat erishgan rivojlanish darajasiga mos keluvchi to‘g‘ri nisbatni belgilash va davom ettirish hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Demokratik qoida vazifalarni xal etishdagi andozachilikka ham, shuningdek, ko‘pchilikning xohish-irodasini mensimaslikka ham, mahalliy organlarni, mehnat jamoalarini manfaatlariga qarama-qarshi qo‘yishga ham toqat qila olmaydi. Demokratik qoidani amalga oshirilishi tashabbus va izlanishning jamiyat qonunlari va normalariga bekami-ko‘st rioya etishga asoslangan juda ham mustahkam intizomlilik, namunali uyushqoqlik bilan uzviy birligini taqozo etadi. Intizomsiz demokratiya, ayrim xodimlarning hisobot bermaydigan "cheksiz qollegialchiligi" muqarrar ravishda tartibsizlik va boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi. Shablonlashtirish kam, yuqoridan turib bir xil andoza bichib berish ham, demokratiyaga butunlay yot narsadir. Bizningcha demokratik qoidaning muhimligini uqtirish bilan birga, uning harakteri yakka boshchililikni qollegiallik bilan qo‘shib olib borishda namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlash lozim. Gap shundaki, maktab amaliyotda pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilish muammosi ko‘pincha darsda vaqtdan unumli foydalanishdan, sinfdan tashqari tadbirlardan va o‘qituvchi-tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi. Bular, shubxasiz, muhim, albatta. Lekin pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng bo‘lib, unga, avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo‘llanilayotgan metodlar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta’lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Unda pedagogik ish rejimini, maktabning kunlar, haftalar, oylar va choraklar bo‘yicha ish tartibini takomillashtirish, pedagoglar kengashi majlislari, ilmiy-uslubiy pedagogik harakterdagi konferensiyalar, yig‘ilishlar, kengashlar kabi tadbirlarni o‘tkazish va bu ishni mohirona rejalashtirish hamda boshqarishni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

2. Boshqarishning jamoatchilik va shaxsan mas’ullik qoidasi. Jamoa va jamoa maslahati to‘g‘ri rahbarlikning garovidir. Jamoa yo‘li bilan xo‘jalikni boshqarish va unga rahbarlik qilish, eng muhim qarorlarni birgalikda, maslahatlashib ishlab chiqish to‘g‘ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umumiy ta’lim maktablarida barcha boshqarish masalalarini o‘zaro muhokama qilish va xal etish, maktabdagi har bir shaxsning muayyan, aniq va qat’iy belgilangan topshiriq hamda amaliy ishlarni bajarish uchun javobgar ekanligini qat’iy belgilash ishi bilan qo‘shib olib borish, bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bu qoidani yakkaboshchilik bilan qo‘shib olib borish, nihoyatda muhim vazifalarni jamoa bo‘lib xal qilishni ta’minlaydi. Yakkaboshchilikni mustahkamlash xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarlik hissini oshiradi, rahbarlik qilishda qat’iy tartib bo‘lishini va mustahkam mehnat intizomini ta’minlaydi. Maktabning tajribasi Shu narsani yaqqol ko‘rsatmoqdak, yakka boshchilik jamoa bo‘lib rahbarlik bilan birga qo‘shib olib borilgandagina o‘quvchilarimizga fan asoslaridan chuqur bilim berish va ularni o‘zbek milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek qiyin hamda sharafli ishda yaxshi natijalarga erisha olamiz.

3. Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Ijroni tekshirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad (tekshirishning asosiy vazifasi) – belgilangan ish rejasi va tadbirlarni amalga oshirishni barbot etish extimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta’minlashdan, ishni amaliy tashkil qilishdan iboratdir. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar ko‘rsatmalarining va o‘z hujjatlarining qat’iy va so‘zsiz bajarilishini ta’minlaydi. Bu esa, u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan buyongi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning shakli va yangi metodlarini belgilash imkonini beradi.

To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ijroni tekshirish-xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, xususan, xalq ta’limi tizimini maktab sohasidagi barcha vazifalarni muvaffaqiyatli xal qilishning zarur shartidir. Qaror bilan ijroning birligi, to‘g‘ri rahbarlik uslubining negizini tashkil etadi. Ishning ko‘zini bilib tashkil etilgan ijroni tekshirish ana shunday birlikni shubxasiz ta’minlaydi. U xodimlarda, o‘qituvchi va tarbiyachilarda o‘ziga hamda boshqalarga nisbatan yuksak talabchanlik va prinsipiollikni tarbiyalaydi, topshirilgan ish uchun ma’suliyat hissini kuchaytiradi, intizomni mustahkamlaydi. Kishilarda qiyinchiliklarni engishda, sabot matonat, tashabbuskorlikni, muvaffaqiyatga erishish uchun uzluksiz sobit qadamlik bilan ishlashga intilish hislarini tarbiyalaydi.

4. Boshqarishning rejalik qoidasi. Maktab ichidagi boshqaruv apparati faoliyatida muayyan tizimning bo‘lishi muhimdir. Buning ma’nosi avvalo shundan iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo‘lmagan tadbirlar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki konkret sharoitni, vaziyatning hususiyatlarini hamda butun pedagoglar jamoasi oldidida, shuningdek, uning ayrim zvenolari oldida turgan vazifalarning hususiyatini qat’iy sur’atda tartibga solingan, bir-biri bilan bog‘langan va chuqur o‘ylab ko‘rilgan tadbirlar yig‘indisidan iborat bo‘lishi kerak. Boshqarishning rejalilik qoidasi, xalq ta’limiga, jumladan, maktabga rahbarlik qilish va uni boshqarish sohasidagi rejalarni xukumatimizning maorif sohasidagi

siyosatini va hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rivojlantirishda ishning mohiyatini bilish, maqsadni maxorat bilan hal etishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lishi lozim. Shuningdek, xalq ta’limi organlarining, jumladan, maktabning ham rejasini aniq tadbirlar mavzusi asosida maqsadga qaratilganlik, aniq, muntazam va izchil ish olib borish kabi hususiyatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, unda u yoki bu tadbirni bajarish uchun javobgar shaxslarni aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

5. Boshqarishning samaradorlik va tejamkorlik qoidasi. Mazkur qoida asosida boshqarish va rahbarlikning asosiy maqsadi hamda vazifasi xom-ashyo materiallari, mashina va stanoklar, qattiq va yumshoq inventarlar, o‘qituvchilar, texnik xodim va ishchilar, moliya resurslari hamda vaqt byudjetidan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni ta’min etishdan iboratdir. Vaqtni tejash qonunining mohiyati jamiyatdagi o‘sib borayotgan ijtimoiy talablarni qondirish uchun ketadigan sarfni kamayib borishida va butun jamiyat va butun uning har bir a’zosining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan bush vaqtni ortib borishida ko‘rinadi. Vaqtni tejash va mehnat unumdorligini oshirish bobidagi mazkur qoida to‘liq ma’noda maktabning ichki boshqaruv sistemasiga ham taalluqlidir. Maktab rahbarlari o‘zlarining boshqarish ish sistemalarida o‘qituvchi, tarbiyachi va o‘quvchilarning vaqtini tejash masalasiga alohida e’tibor bilan qarashlari lozim. Shuning uchun ham maktab ichki boshqaruvini tashkil qilish va uni amalga oshirishda mazkur masalaga e’tiborni kuchaytirishning pedagogik ahamiyati juda ham kattadir.

Ta’lim muassasalaridagi o‘qitish jarayoni qandaydir tasodifiy va ayniqsa, pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O‘qitish jarayoni bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarini aks ettiradi. Hozirgi ilg‘or pedagogika inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga tarbiya, o‘zini o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida qaraydi. Tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash kichik tizimlar o‘rtasidagi bog‘lanish asosida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi tashkil topadi va shu bilan insonning shaxsi shakllanadi[16].

20.5. Maktab ishini rejalashtirish

Maktabda tuzilgan ish reja mazkur maktab pedagoglar jamoasi har bir a’zosining faoliyatini tartibga soluvchi qonun, ko‘rsatkichlar tizimida ifodalangan davlat topshirig‘idir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday vazifani muvaffaqiyatli ravishda bajarish, tashkiliy tadbirlarni, Shu jumladan, xalq ta’lim va maktab ishiga oid bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirish - to‘g‘ri rejalashtirish mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Xalq maorifi bo‘limining ishini, jumladan, maktab ishini rejalashtirish, avvalo, uning vazifalarini, faoliyat mazmuni va metodlarini aniqlashdan iboratdir.

To‘g‘ri tuzilgan ish rejasi – xatoga yo‘l qo‘yishdan asrash bilan birga, ilgari yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tugatishni ham ta’minlaydi. To‘g‘ri tuzilgan reja rahbarlari uchungina emas, ayni vaqtda muallimlar jamoasining har bir a’zosi

[16]Каримов А., Таълим тизимини бошқариш асослари., Тошкент-2012

uchun ham yo‘l ko‘rsatuvchidir. Shuning uchun ham maktab ishini rejalashtirish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim o‘rinni egallaydi va muhim pedagogik ahamiyatga molik bo‘lgan masaladir.

Maktab ish rejasining turlari

Umumiy ta’lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalari mavjud:

1. Maktabning ma’lum istiqboli davrga mo‘ljallab (bir besh yillik uchun) tuzilgan ish rejasi. Bu maktabning istiqbol ish rejasi deb ataladi. Bu ish rejasi umummaktab xalq xo‘jalik reja (ko‘rsatkichlari asosida tuziladi. Bunda maktabning ma’lum davrga rivoji o‘quv moddiy va texnika bazasi,maktab qurilishi, o‘quvchi va o‘qituvchilar soni, sinflar soni, o‘quv kabinetlarining soni kabilar) turli raqamlar asosida ko‘rsatiladi.

2. Maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuziladigan ish rejasi. Mazkur reja maktabning istiqbol ish rejasining shu o‘quv yiliga tegishli bo‘lgan qismi hamda maktab oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallangan ish rejasi maktab ish turlari asosida ishlanadi. Maktabning mazkur ish rejasining mazmuni va mundarijasi xususida biz keyinrok to‘xtaymiz.

3.Maktabning joriy ish rejasi. Mazkur reja maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuzilgan ish rejasi asosida ishlanadi. Bu reja turkumiga:

maktab direktori va uning o‘rinbosarining bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuzadigan ish rejalari:

maktabda fanlar bo‘yicha tashkil etilgan metodik birlashmalarning ish rejalari:

- sinf rahbarlarining ish rejalari:
- fan to‘garaklari yakuni uzaytirilgan guruppa rahbarlarining ish rejalari:
- maktab kutubxonasining ish rejalari;
- maktab ustaxonasining ish rejasi;
- maktabdagi ota-onalar komitetlarining ish rejasi;
- maktab vrachi va hamshirasining ish rejasi;
- har bir boshlang‘ich va fan o‘qituvchisining kalendar va kundalik darsni o‘tkazish rejasi kabi rejalar maktabning joriy rejalar tizimidan o‘rin oladi.

Shuni alohida o‘qitish lozimki, rejani to‘g‘ri tuzish bilan ish bitmaydi. Ishning muvaffaqiyati shu rejani qanday amalga oshirishga, unda belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etish mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Maktab rejasini amalga oshirishda quyidagilar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi:

- maktabning yuqori tashkilotlar, xalq ta’limi bo‘limlari va maktabga yaqin bo‘lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatilganligiga;
- boshqarish va rahbarlik ishiga bilimdon, o‘ta xalol, ishbilarmon va yaxshi ma’muriy qobiliyatga ega bo‘lgan pedagogik xodimlar jalb etilganligiga;
- kadrlar o‘rtasida ish taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilganligig;
- rahbar xodimlardan tortib eng quyi ijrochiga umumiy rejadan kelib chiqadigan shaxsiy (joriy) ish rejasini tuzib, shu asosda ish yuritishiga;
- rahbarning maktab ish rejalarining bajarilish yuzasidan samarali hamda uzluksiz nazoratni o‘rnatganligiga.

Maktab rejasi ustida ishlash jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlod taqdiri haqida, ularning ma’naviy va jismoniy kamol toptirish haqida o‘ylash kerak. Maktab ishini rejalashtirishda o‘qituvchilar jamoasining ijodiy taqdiri haqida, ziyokorlarni ma’naviy jihatdan o‘stirish va ularning ilmiy, metodik va umum pedagogik mahoratini oshirish haqida o‘ylash lozim, maktabda o‘quv dasturlarining bajarilishi, o‘quvchilar bilimining sifati, ularning tarbiyalanganlik darajasi, umuman olganda o‘quv-tarbiya ishining hamma jihatlari o‘qituvchiga uning halol mehnatiga bog‘liq.

O‘qituvchi – maktabdagi bosh siymo. Bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham maktabning ish rejasida o‘qituvchilar jamoasidagi kuchlarni Shunday taqsimlash kerakki, ularning har biri topshiriqlarni bajarishga butun kuch va g‘ayratlarini safarbar etish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Shunday ekan, maktabning o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishda quyidagi uchta shartga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ishning boshlang‘ich ahvolini chuqur pedagogik tahlil qilish yo‘li bilan, ya’ni ish rejalashtirilayotgan paytda pedagogik jarayon tavsifini aniq bilish.
2. Ishning rejalashtirilishi oxirida maktab jamoasi tomonidan o‘quvchilarga berilgan ta’lim va tarbiyaning darajasini aniq tasavvur qilish.
3. Maktab ishini hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarmoq uchun, Shunga imkon beradigan pedagogik vositalarni eng maqbul tarzda tanlash.

Maktab ish rejasining mazmuni va mundarijasi

Rejalashtirish o‘z shakliga ko‘ra matnli, grafik va aralash (matnli va grafik) bo‘lishi mumkin. Reja qisqa, aniq va tushunarli, pedagogik maqsadlarga muvofiq tuzilib, yagona yo‘nalishlarni, qo‘yilgan masalalarni bajarish tadbirlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Rejaning sifati rejalashtirish qanchalik oqilona va to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liqdir. Odatda, maktab ishi rejalashtirilayotganda uning tuzilishini ikki qismdan iborat tuzish tavsiya etiladi, 1-qism analitik bo‘lib, unda maktab ishining o‘quv yilidagi yakunlari tahlili va yangi o‘quv yilidagi vazifalari o‘z aksini topadi; 2-qism esa, amaliy xarakterda bo‘lib; unda bu vazifalarni bajarish tadbirlari rejalashtiriladi.

20.6. Ta’lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish

Maktab ish rejasining tashkiliy pedagogik ishlar qismida umumiy ta’lim maktabida yangi o‘quv yilini uyushqoqlik bilan boshlash, hamda uni tugallash imkonini beruvchi tadbirlar, bu boradagi maktabning boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikdagi ishlari belgilanadi. Ko‘pincha bu o‘rinda ish uchastkalari taqsimoti ham aniq ko‘rsatiladi. Xuddi shuningdek, o‘qituvchi qadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, maktab rahbarlari, xodimlari va o‘qituvchilar o‘rtasidagi vazifalar va topshiriqlarni taqsimlash (masalan: kim sinf rahbari bo‘ladi, mazkur maktabning mikrouchastkasiga kimlar biriktiriladi, kim to‘garak rahbari bo‘ladi, kim o‘quv-tarbiya va sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni boshqaradi va h.k.) sinflarni butlash kabi masalalar ko‘rsatiladi. Xuddi shu o‘rinda maktab ma’muriyati bilan jamoatchilik tashkilotlari orasida bo‘ladigan ish taqsimoti ham ko‘rsatiladi.

Shundan keyin muayyan bir ish uchun (uslubiy birlashmalarning yig‘ilish kunlari, maktab kengashi majlislarini, kasaba uyushmasi tashkiloti majlislari va Shu kabilar uchun) haftaning kunlarini aniq ko‘rsatish ham maqsadga muvofiqdir.

Ish rejasining "maktabni o‘quv-moddiy va texnikaviy bazasini mustahkamlash" deb atalgan qismida:

A) maktab uchun ajratilgan byudjet va boshqa mablag‘lardan to‘la, o‘z vaqtida unumli foydalanish;

B) o‘quv qurollari va boshqa o‘quv-xo‘jalik jihozlari hamda inventarlarni, kutubxona va uslubiy xonalari uchun mo‘ljallangan adabiyotlarni sotib olish; mebellar, darsliklar, o‘quv xo‘jalik ashyolarini remont qilish va saqlanishini ta’minlash; o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar kuchi bilan ayrim o‘quv ko‘rgazmalarini tayyorlash;

V) sanitariya-gigiena rejimi texnika xafsizligi va yonginga qarshi kurash tadbirlari, o‘quvchilarning bu borada o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishi;

G) maktabning o‘quv xonalari, texnika vositalari bilan ta’min etish kabi masalalar belgilanadi.

Maktab ish rejasining maktabni pedagogik kadrlar bilan ta’minlash va ular bilan ishlash deb atalgan qismida maktabni hozirgi kunning talablari darajasidagi o‘qituvchi va tarbiyachi kadrlar bilan ta’min etishga qaratilgan tadbirlarni belgilash bilan birga, maktab o‘qituvchisining ilmiy metodik, umumiy pedagogik hamda umumiy psixologik saviyasini oshirishga qaratilgan qator tadbirlar belgilanadi.

Bundan tashqari maktab ish rejasini mazkur qismida pedagogik kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlashga qaratilgan ishlar ham aniq belgilanadi.

Bunda ayniqsa: a) maktab o‘qituvchilarining malakasini oshirishning reja-grafigini tuzatish;

b) o‘qituvchilarni o‘z ustida mustaqil ishlab o‘zlarining ilmiy metodi jaroxatlarini oshirish. Bunda o‘z ustida mustaqil ishlash bo‘yicha konsul’tatsiyalarni, ochiq darslarni o‘tkazish va ularga qatnashish;

v) malaka oshirish va metodik ishlar. Bugungi kun talablari asosida o‘qituvchilarni yangi dastur bo‘yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil etish, ularni o‘qituvchilar malakasini oshirish shahar, viloyat, Respublika institutlaridagi kurs mashg‘ulotlariga qatnashtirish; kengash sinf rahbarlarining hamda fanlar bo‘yicha metodik birlashmalari ishlarini tashkil etish. Maktab kabinetini jihozlash va uni ilmiy-metodiy adabiyotlar bilan ta’minlash. O‘qituvchilar shug‘ullanayotgan pedagogik mavzular asosida maktabda muammoli seminarlarni, ilmiy yo‘nalishdagi anjumanlarni tashkil etish;

g) o‘qituvchilar attestatsiyasi. Attestatsiya o‘tkazuvchi guruh va uning tadbirining muddatini belgilash, o‘qituvchilar haqida attestatsiyaga doir hujjatlarni tayyorlash. Bu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq tajribalarni aks ettirish. Attestatsiyani o‘tkazish davomida, o‘qituvchilarning darslariga qatnashish va boshqa ishlari bilan tanishish:

d) ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ommalashtirish bo‘yicha a’zolarini belgilash, muddati va mavzusini aniqlash, javobgar kishilarni

ko‘rsatish. Tajribalarni umumlashtirish va ommalashtirishga doir ko‘rgazma va stendlarni tashkil etish. Shahar, noxiya va maktabdagi eng yaxshi o‘qituvchilar darslariga qatnashish hamda ularning ibratli ishlarini o‘rganish. Ilg‘or tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va yoyish bo‘yicha seminar-praktikum o‘tkazish;

e) maktab doirasida pedagogik o‘qishlar o‘tkazish kabi masalalarga alohida e’tibor beriladi.

Maktab ish rejasini o‘quv tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yish-deb nomlangan qismidan o‘quv rejasini va dasturlarining o‘z vaqtida, yuqori saviyada, sifatli qilib bajarilishini ta’minlovchi tadbirlar, maktabdagi ta’limning asosini tashkil qiluvchi darsning samaradorligini oshirish, maktabdagi ta’limni kabinet sistemasida olib borish, ta’lim-tarbiya jarayonida texnika vositalari va EXT dan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kabi masalalar ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, rejaning mazkur qismida fanlar bo‘yicha ta’limiy va tarbiyaviy ishlar:

a) o‘quvchilarni fan asoslaridan chuqur va mustahkam bilim berish; ularni mustaqil ishlashga, mustaqil fikrlashga o‘rgatish yo‘li bilan ularning ilmiy dunyoqarashini takomillashtirib borish. Og‘zaki va yozma nutq madaniyatini o‘stirib borish.

b) o‘quvchilarda bilimga, fanga, ta’lim jarayoniga qiziqishni oshirish bo‘yicha tarbiyaviy ishlar. Ularni bilimlar, mustahkam ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish. Maktabda va uyda o‘quv mehnatini unumli tashkil etish.

v) kitob bilan ishlash masalasini hozirgi kun talablari darajasida tashkil etish.

g) qobiliyatli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.

Imtixonlarga hozirlik ko‘rish va ularni o‘tkazish, yozda o‘qish uchun topshiriqlar olgan o‘quvchilar bilan ishlashni tashkil etish, kuzgi imtixonlarni o‘tkazib, bilimlarni o‘zlashtirgan o‘quvchilarni sinfdan-sinfga ko‘chirish.

Maktabda kitob jamgarmasini yaratish va to‘ldirish, o‘quvchilarni darsliklar bilan ta’minlash.

O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar bilan olib boriladigan o‘quv ishlarining tematik va har bir darsga planlar tuzish va ularni o‘rganish, kontrol ijodiy, laboratoriya va amaliy ishlar, o‘quv ekskursiyalarini o‘tkazish hamda mashg‘ulotlarda texnika vositalaridan foydalanishga doir rejalarni ishlab chiqish.

XXI BOB. BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI

21.1.Boshqaruv tushunchasi

“Boshqaruv” so‘zi odatda, aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi ob’ekt yoki tizimga faol ta’sir ko‘rsatishni anglatadi. Bu o‘z navbatda, ma’lum bir rejalashtirilgan faoliyatni ifodalaydi. Har qanday faoliyat boshqariladigan ob’ekt va boshqaruvchi sub’ekt tizimlaridan iborat bo‘lib, mazkur tizimlar o‘rtasidagi aloqa insonlarning o‘zaro munosabatlaridan tashkil topadi va mavjud o‘zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi. Shunday ekan ixtiyoriy faoliyat albatta boshqaruvni talab etadi, shaxsning individual faoliyatida inson o‘zini o‘zi boshqaradi

va ko‘zlangan natijalarga erishadi, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun

o‘zaro ta’sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta’siri zarur bo‘lib, bu o‘z mohiyatiga ko‘ra boshqaruvni, ya’ni ma’lum bir maqsadga erishish yo‘nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan qabul qilingan, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da hamda 2018-yil 5-sentyabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmonlarida umumiy o‘rta ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, ta’lim muassasini ilmiy-metodik jihatdan samarali boshqarish va ta’lim-tarbiya sifatini ko‘tarishda o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, ularga pelagogik shart-sharoitlar yaratishda rahbarning kasbiy tayèrgarligidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha asosiy ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Jamiyatimizning muvaffaqiyat bilan rivojlanishi uchun u yuksak salohiyatga ega bo‘lishi kerak. Jamiyatning m a’naviy hayotini boshqarishdan ko‘zlangan maqsad ilm-ma’rifatli, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir. Har qanday miqiyosidagi ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat-ma’lum darajada idora qiluvchiga muhtojdir.

Idora qiluvchi indivudual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish tizimining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, umumiy vazifalarni bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarish oldiga qo‘yilgan maqsad ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy o‘z-o‘zini idora qilishga aylantirishdir. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va m a’rifat berishni, aholida maishiymadaniy xizmat ko‘rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi.

Jamiyatning va uning har bir ayrim a ’zosining m a’naviy rivojlanishini boshqarish - umumiy ta’lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari bolalar muassasalari, xalq ta’limi tizimi, hunar-texnika bilim yurtlari, o ‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari, pedagogik kadrlar malakasini oshirish institutlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san’at, madaniyat, sog‘liqni saqlash kabi sohalarni boshqarishni o‘z ichiga oladi. Shunga ko‘ra, xalq ta’limi tizimini boshqarish, jumladan, umumiy ta’lim maktabini boshqarish ijtimoiy boshqaruvning ajralmas qismidir.

Ta’lim muassasasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagoglar faoliyatining muvofiqlashtirilishi, ta’lim muassasasi barcha xodimlarining o‘z mehnat faoliyatlari natijalaridan teng asosda qoniqish hosil qilishlari, jamaodagi to‘g‘ri mehnat taqsimoti, xodimlarda o‘z vazifalariga nisbatan mas’uliyat hissining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo‘lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodi sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi. Boshqarishning asosiy maqsadi - mehnat ahlining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat. Tashkilot miqyosidagi boyliklarni ikki asosiy guruhga bo‘lgan holda – moddiy va nomoddiy ko‘rinishlarni qayd etish mumkin. Nomoddiy boyliklarga tashkilot miqyosidagi aqliy salohiyat va inson omili bilan bog‘liq bo‘lgan hamma yutuqlar kiradi.

Boshqaruv – taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo‘lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Bu xususiyat ijtimoiy jamoa mehnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning o‘zaro aloqada bo‘lishi, o‘z moddiy va ma’naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruriyatidan kelib chiqadi.

Mehnat hamma davrlarda ijtimoiy xarakterda bo‘lgan, chunki, jamiyat qonunlari shuni taqozo etadi. Insonlar dunyoga kelib, ongli hayotlarini boshlashi bilanoq birgalikda ishlashga ehtiyoj sezganlar. Bu zarurat turli davrlarda turlicha kechgan. Barcha davrlarga xos yagona xususiyat boshqaruv jarayoni bilan izohlanadi. Jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida jamiyatning alohida qobiliyat va bilimlarga ega bo‘lgan kishilar tomonidan boshqarilishiga ehtiyoj paydo bo‘la boshladi. Keyinchalik boshqaruvchi kishilar soni ko‘paya borib, alohida ijtimoiy guruhga, so‘ng tabaqaga aylandilar. Bu ijtimoiy tabaqa kengayib, davlat deb nomlanadigan boshqaruv organi paydo bo‘la boshladi.

Boshqarish omillari. Ishlab chiqarishni boshqarish omillari deganda - boshqaruv mehnatining maxsus turlarini, boshqariluvchi ob’ektlarga ta’sir ko‘rsatishning u yoki bu yo‘nalishlarini tushunmoq kerak. Boshqaruv omillariga: rejalashtirish, tashkil qilish, sozlash (kordinatsiya qilish), nazorat qilish, hisob-kitob qilish kiradi.

Rejalashtirish – boshqariluvchi ob’ektlarni rivojlantirish va modellashtirishni, prognoz qilishni ham o‘z ichiga oladi.

Tashkil qilish – ishlab chiqarish ob’ektining tuzilishini va boshqaruv tuzilishini tanlab olish hamda shakllantirishdir. Tizimning tuzilishi elementlari o‘rtasidagi munosabatlarini va ularning o‘zaro harakatini belgilashdir.

Nazorat qilish – ishlab chiqarishning amaldagi jarayonini va taraqqiyotini rejaga qanchalik muvofiqligini kuzatib va tekshirib turishdan iboratdir.

Nihoyat, hisob-kitob qilish esa rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlarning qanday bajarilayotganligiga yakun yasashdir. Hisobga olish, axborotlarni yakunlashga, uni tizimga solishga imkon beradi. Shuningdek, u mazkur tizimning keyingi davrga mo‘ljallangan ish dasturini ishlab chiqish uchun axborot bazasidan to‘liq foydalanishga imkon beradi.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, yuqorida sanab o‘tilgan boshqarish omillarini xalq xo‘jaligimizning hohlagan sohasiga, jumladan, maktab-maorif sohasiga ham to‘liq ma’noda tadbiq qilish mumkin. Lekin, mazkur omillarning konkret mazmuni turli boshqaruvchi tizimlarga bog‘liq bo‘ladi.

Demak, biz fikr yuritayotgan funksiyalar ijtimoiy boshqaruvning mazmunini tashkil qiladi. Modomiki, shunday ekan, maktab-maorif sohasidagi har bir rahbar xodim o‘zining boshqaruv ish tuzimini mazkur boshqaruv omillari asosida tashkil qilsa, bu borada so‘zsiz yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, mazkur boshqaruv omillari va ularning mohiyatiga to‘liq tushunib olmoq lozim.

Maktabda boshqaruv mehnati bilan shug‘ullanuvchi kishilar (maktab direktori, direktorning o‘quv tarbiya va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari, ma’naviyat bo‘yicha o‘rinbosari, metod birlashma rahbarlari, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi) boshqaruv apparatlarini tashkil etadi. Boshqarishning barcha bo‘g‘in va bosqichlaridagi xodimlar ham shu apparatga mansubdirlar. Boshqaruv

apparatining bir qismini kishilarni boshqaruvchi shaxslar (maktabdagi rahbarlar) tashkil etsa, ikkinchi qismini ijrochilar (o‘qituvchi, tarbiyachi, yoshlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, metod birlashmalarning a’zolari, texnik xodimlar) tashkil etadi.

Boshqarish sohasidagi ijrochi xodimlarni ikkita asosiy guruhlariga:

- mutaxassislariga(o‘qituvchi va tarbiyachilarga);
- texnik xodimlarga (laborant, farrosh, elektrchi-montyor, maktab qorovuli kabilarga) bo‘lish mumkin.

Maktabga o‘qituvchi, tarbiyachi va texnik xodimlarni to‘g‘ri tanlash va ularni to‘g‘ri joyiga qo‘yish,- maktab ichki boshqaruvidagi muhim masalalardan biridir. Maktab xodimlarini tanlash bobida quyidagi qoidaga rioya qilish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab xodimlarini tanlashda ularning:

- siyosiy bilimi jihatidan;
- halolligi nuqtai nazaridan;
- ish bilishi jihatidan;
- ma’muriy qobiliyati jihatidan yondoshishi o‘rinli bo‘ladi. Bizningcha, idora qilish uchun ishni bilish kerak, hamma narsadan xabardor bo‘lmasdan turib, to‘la-to‘kis bilimga ega bo‘lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas.

Ishning ko‘zini bilish, uyushqoqlikni boshqaruv apparati ishidagi asosiy narsa deb hisoblaymiz.

21.2.Boshqaruv metodlari

Har bir muassasaning faoliyatidar rahbarlik faoliyatidagi samaradorlik birinchi navbatda jamoadagi shaxslararo munosabatlarning qanchalik to‘g‘ri tashkil etilgan yoki etilmaganligi bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, ishning qanday tashkil etilishi birinchi navbatda rahbarlikning, boshqaruvning tashkil etilishi darajasiga bog‘liq. Har bir rahbar pedagogik tizimni boshqarar ekan, eng avvalo tashkillashtiradigan muammolar va o‘z a’zolarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini bilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Rahbarlik uslublari va uning mazmun-mohiyati rahbar o‘zining boshqaruv faoliyagida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va harakatining taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda, bir tomondan, strategiyalar bilan boshqaruv faoliyati mazmuni, ikkinchi tomondan, bu tizimning o‘zi, inson faoliyati muhitida turli ahamiyatga ega bo‘lgan harakatlar va shu qatori professional faoliyat boshqaruv sub’ektining rivojlanishida, mutaxassis sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbarlik uslubi bu rahbarning bo‘ysunuvchilarga nisbatan ta’sir ko‘rsatishi va ko‘zlangan maqsadga erishishga undashida bo‘ysunuvchilar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- qarorlar kabul kilish jarayonida bo‘ysunuvchilarning ishtirok etish darajasi:
- bo‘ysunuvchilarning ma’lumotlar va axborotlar bilan ta’minlanishi;
- rahbar tomonidan qo‘llanilayotgan ish uslublari, ya’ni u yoki bu masalani hal qilishda uning o‘ziga xos yondashishi.

Liderlik bu – shaxsning shaxsiy avtoritetining odamlar xulq-atvoriga ta’siriga asoslangan gurux jamoadagi tabiiy-ijtimoiy - psixologik jarayonidir. Liderlik asosan uch xususiyatga ega:

1. Emotsional liderlik xususiyati.
2. Ishonchli liderlik xususiyati.
3. Informativ liderlik xususiyati.

Emotsional lider (guruxning yuragi), ya’ni har bir inson unga hamdardlik izlab murojaat qilishi, «uning ko‘kragiga bosh qo‘yib yig‘lashi mumkin». Ishonchli lider (guruhning ko‘llari), ya’ni u ishni tashkillashtirishi, ish yuzasidan muhim o‘zaro aloqalarni yuzaga keltirishi, ishning muvaffaqiyatini ta’minlashi mumkin. Informativ lider (guruhning miyasi), ya’ni hamma savollar bilan murojaat qilish mumkin, chunki u hamma narsani biladi, tushunadi, tushuntiradi, zaruriyatni hal qilishga yordam beradi. Uchta komponentni ham birlashtirgan rahbar bulishi mumkin. Rahbar amalga oshiradigan boshqaruv funksiyalari quyidagilar: rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat.

Rejalashtirish – bu boshqaruv faoliyatining boshlanishi va asosidir. Tayyor rejalar nima, qachon va kim tamonidan bajarilishini ko‘rsatib turadi. Rejalashtirish o‘tmishdagi rivojlanish, hozirgi sharoitlarni taxlil qilish va kelajak real vazifalar qo‘yishni nazarda tutadi.

Takomillashtirish – bu tizimni yuzaga keltirishni nazarda tutadiki, bunda quyidagi uchta komponent: intiluvchi guruhlar, iqtisodiy munosabatlar va texnik vositalar mantiqiy ravishda bir-biriga bog‘langan bo‘ladi.

Yaxshi tashkilotchi – bu o‘zi yaxshi ishlaydigan emas, balki qo‘l ostidagilar yaxshi ishlaydigan odam yaxshi tashkilotchidir. Nazorat deganda ish faoliyatini tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, hodisalarni oldindan belgilangan shakli bo‘yicha baholash tushuniladi. Nazorat yordamida ijtimoiy-psixologik ob’ektlarni, ular uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab (ekspert baholash) dastlabki klassifikatsiyalash amalga oshiriladi.

21.3. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish

Rahbarning uslubi – rahbar o‘z faoliyatida uslublari insonlar bilan qo‘llayotgan o‘ziga xos faoliyat usullari tizimidir. Rahbarning uslubi qarorlar tayyorlash, ularni qabul qilish va amalga oshirish jarayonida hatti-harakatlari, muloqoti, so‘zlar erkinligining berilishi, boshqa insonlarni eshitishda vujudga keladi. Rahbarlik uslublari boshqaruv faoliyatining eng zarur va asosiy tashkil etuvchi unsuri hisoblanadi va rahbar shaxsining individual xususiyatlariga bog‘lik bo‘ladi. Keltirilgan uslublardan birortasi ham ixtiyoriy sharoitlarda qo‘llanilishiga, universallikka da’vogar bo‘la olmaydi. Shuning uchun rahbarning muxim sifatlaridan biri turli xil uslublardan foydalana olishi, gurli xil vaziyatlardan, sharoitdan kelib chiqib ularni qo‘llay olishi hisoblanadi.

Rahbarlar u yoki bu uslubiy tanlashda aniqlangan qator omillarni hisobga olishi zarur.

1. Vaziyat (stress, tinch aniqlanmagan) masalan, vaqt zid vaziyatlarda avtoritar uslub o‘zini oqlaydi.
2. Topshiriq (aniq tuzilishiga ko‘ra) murakkab yoki soddaligiga qarab.

3. Guruh (a’zolarining jinsi, yoshi, barqarorligi)ga qarab tanlash.

Jamoani boshqarish samaradorligini belgilab beruvchi muhim omillardan biri - boshqaruv uslublaridir. Rahbar qanday uslubda ish ko‘rishiga bog‘liq ravishda jamoadagi shaxslararo munosabatlar, psixologik muhit harakteri o‘zgarib boradi. Boshqaruv uslublari muammosini o‘rganishga K.Levin maktabida asos solingan. Boshqaruv rahbarlik muammosi bilan shug‘ullanadigan aksariyat ko‘pchilik olimlarning e’tirof etishlaricha, rahbarlikning qo‘yidagi turlari farqlanadi:

- boshqaruvning avtoritar (yoxud direktiv yoki diktatorlik) uslubi: bu uslub uchun rahbar tomonidan barcha qarorlarni qattiq yakkahokimlik asosida qabul qilish («demokratiya minimum darajada»), qarorlarni bajarish ustidan doimiy qattiq jazolash po‘pisasi bilan, nazorat («nazorat maksimum darajada»), xodimga nisbatan shaxs sifatida qarashning yo‘qligi.
- doimiy nazorat hisobiga bu uslub ishda butunlay ma’qul natijalarga erishishni ta’minlaydi (psixologik bo‘lmagan kiriteriylar bo‘yicha: foyda, unumdorlik, mahsulot sifati yaxshi bo‘lishi mumkin), lekin ustunliklarga qaraganda kamchiliklar ko‘p: xato qarorlar qabul qilish ehtimolining yuqoriligi, xodimlar tashabbusini, ijodkorligini bo‘g‘ish, yangiliklarni susaytirish, turg‘unlik, xodimlarning passivligi;
- odamlarning o‘z ishidan, o‘zlarining jamoadagi holatidan qonikmasligi;
- nohush psixologik iqlim («laganbardorlar», fitnalar) psixologik-stress holatining yuqoriligini ta’minlab beradi, psixik va jismoniy sog‘lomlik uchun zararlidir.
- boshqaruvchining bu uslubi faqat favqulodda holatlarda (avariya, harbiy jang harakatlari va xakozo) maqsadga muvofiq va o‘zini oqlagan.
- bshqaruvning demokratik (yoki kollegial) uslubi: boshqaruv qarori muammoni muhokama qilish, xodimlar fikrlarini va tashabbuslarini inobatga olgan holda qabul qilinadi («demokratik maksimum darajada»);
- qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ham rahbar tomonidan, ham xodimlarning o‘zlari tomonidan nazorat qilinadi («nazorat maksimum darajada»);
- rahbar xodimlarning shaxsiga qiziqish va yaxshi e’tibor bilan qaraydi, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, xususiyatlarini hisobga oladi.

Demokratik uslub eng samarali uslub hisoblanadi, chunki u to‘g‘ri o‘lchangan qarorlar qabul qilishning yuqori ehtimolini, mehnatda yuqori ishlab chiqarish natijalariga erishishni, tashabbuskorlikni, xodimlarning faolligini, odamlarning o‘z ishidan jamoaning a’zosi ekanligidan qoniqishni, kollektivda yaxshi psixologik iqlimni va jipslashuvni ta’minlab beradi. Ammo demokratik usulni amalga oshirish rahbar yuqori intellektual, tashkilotchilik, psixologik-kommunikativ qobiliyatlarga ega bo‘lgandagina mumkin.

Liberal-anarxistik (yoxud ishga beparvolik, yoki neytral) boshqaruv uslubi, bir tomondan, «maksimum demokratiya» bilan (hamma o‘z pozitsiyasini aytishi mumkin, lekin pozitsiyalarni real hisobga olishga, kelishishga hech kim intilmaydi), ikkinchi tomondan, «nazoratning minimum» bilan (hatto qabul qilingan qarorlar bajarilmaydi, ularni amalga oshirish ustidan nazorat yuq hamma narsa «o‘z holiga» tashlab qo‘yilgan) harakterlanadi. Buning oqibatida: mehnat

unumdorligi odatda past, odamlar o‘z ishidan, rahbaridan qoniqmaydi, jamoadagi psixologik muhit yomon, hech qanday hamkorlik yuq sidqidildan ishlash uchun stimul yo‘q ishning bo‘limlari guruxchalar liderlarining ayrim qiziqishlarining natijasidan tashkil topadi, yashirin yoki yaqqol konfliktlar mavjud, mojarolarga kirishuvchi guruxchalar qatlamlari yuzaga keladi.

Rahbarlikning izchil bo‘lmagan (nomantikiy) uslubi rahbarning oldindan bilib bo‘lmagan holda bir uslubdan ikkinchi uslubga o‘tib turishidan namoyon bo‘ladi (goh avtoritar, goh beparvolik, goh demokratik, yana avtoritar va h.k.). Bu mehnat samaradorligining o‘ta past bo‘lishiga olib keladi.

Rahbar hatti-harakatining shakli va mazmuni mos kelmasligi ham mumkin, masalan, tashqi jihatdan demokratik uslub shakli ko‘llaniladi (xodimlarga nisbatan tashqi xush ko‘rish, e’tiborlikii namoyon qilish, muammolar muhokama qilinadi), lekin daqiqatda qapop rahbar tomonidan allaqachon yakka holda qabul qilingan bo‘ladi (avtoritar uslubni «demokratik» uslub bilan maskirovka qilish).

XXII BOB. TA’LIM MUASSASASINING ICHKI BOSHQARUVI

22.1.Ta’lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish

Maktab ish rejasining turlari

Umumtiy ta’lim maktablari uchun shartli ravishda qabul qilingan ish rejalari mavjud. Ular:

1. Maktabning ma’lum istiqboli davrga mo‘ljallab (bir besh yillik uchun) tuzilgan ish rejasi. Bu maktabning **istiqbol ish rejasi** deb ataladi. Bu ish rejasi umummaktab xalq xo‘jalik reja (ko‘rsatkichlari asosida tuziladi. Bunda maktabning ma’lum davrga rivoji o‘quv moddiy va texnika bazasi,maktab qurilishi, o‘quvchi va o‘qituvchilar soni, sinflar soni, o‘quv kabinetlarining soni kabilar) turli raqamlar asosida ko‘rsatiladi.

2. Maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuziladigan ish rejasi. Mazkur reja maktabning istiqbol ish rejasining shu o‘quv yiliga tegishli bo‘lgan qismi hamda maktab oldida turgan vazifalarni hisobga olgan holda tuziladi. Maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallangan ish rejasi maktab ish turlari asosida ishlanadi. Maktabning mazkur ish rejasining mazmuni va mundarijasi xususida biz keyinrok to‘xtaymiz.

3.Maktabning joriy ish rejasi. Mazkur reja maktabning bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuzilgan ish rejasi asosida ishlanadi. Bu reja turkumiga:

maktab direktori va uning o‘rinbosarining bir o‘quv yiliga mo‘ljallab tuzadigan ish rejalari:

maktabda fanlar bo‘yicha tashkil etilgan metodik birlashmalarning ish rejalari:

- sinf rahbarining ish rejalari:
- fan to‘garaklari yakuni uzaytirilgan guruppa rahbarlarining ish rejalari:
- maktab kutubxonasining ish rejalari;
- maktab ustaxonasining ish rejasi;
- maktabning ota-onalar komitetining ish rejasi;

- maktab vrachi va hamshirasining ish rejasi;
- har bir boshlang‘ich va fan o‘qituvchisining kalendar’ va kundalik darsni o‘tkazish rejasi kabi rejalar maktabning joriy rejalar tizimidan o‘rin oladi.

Shuni alohida o‘qitish lozimki, rejani to‘g‘ri tuzish bilan ish bitmaydi. Ishning muvaffaqiyati shu rejani qanday amalga oshirishga, unda belgilangan tadbirlarni hayotga tadbiq etish mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Maktab rejasini amalga oshirishda quyidagilar muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi:

- maktabning yuqori tashkilotlar, xalq ta’limi bo‘limlari va maktabga yaqin bo‘lgan turli muassasalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatilganligiga;
- boshqarish va rahbarlik ishiga bilimdon, o‘ta xalol, ishbilarmon va yaxshi ma’muriy qobiliyatga ega bo‘lgan pedagogik xodimlar jalb etilganligiga;
- kadrlar o‘rtasida ish taqsimotining to‘g‘ri tashkil etilganligiga;
- rahbar xodimlardan tortib eng quyi ijrochiga umumiy rejadan kelib chiqadigan shaxsiy (joriy) ish rejasini tuzib, shu asosda ish yuritishiga;
- rahbarning maktab ish rejalarining bajarilish yuzasidan samarali hamda uzluksiz nazoratni urnatganligiga.

Maktab rejasi ustida ishlash jarayonida o‘sib kelayotgan yosh avlod taqdiri haqida, ularning ma’naviy va jismoniy kamol toptirish haqida o‘ylash kerak. Maktab ishini rejalashtirishda o‘qituvchilar jamoasining ijodiy taqdiri haqida, ziyokorlarni ma’naviy jihatdan o‘stirish va ularning ilmiy, metodik va umum pedagogik mahoratini oshirish haqida o‘ylash lozim, maktabda o‘quv dasturlarining bajarilishi, o‘quvchilar bilimining sifati, ularning tarbiyalanganlik darajasi, umuman olganda o‘quv-tarbiya ishining hamma jihatlari o‘qituvchiga uning xalol mehnatiga bog‘liq.

O‘qituvchi – maktabdagi bosh siymo. Bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham maktabning ish rejasida o‘qituvchilar jamoasidagi kuchlarni Shunday taqsimlash kerakki, ularning har biri topshiriqlarni bajarishga butun kuch va g‘ayratlarini safarbar etish imkoniyatiga ega bo‘lsin. Shunday ekan, maktabning o‘quv-tarbiya ishlarini rejalashtirishda quyidagi uchta shartga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ishning boshlang‘ich ahvolini chuqur pedagogik tahlil qilish yo‘li bilan, ya’ni ish rejalashtirilayotgan paytda pedagogik jarayon tavsifini aniq bilish.

2. Ishning rejalashtirilishi oxirida maktab jamoasi tomonidan o‘quvchilarga berilgan ta’lim va tarbiyaning darajasini aniq tasavvur qilish.

3. Maktab ishini hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarmoq uchun, Shunga imkon beradigan pedagogik vositalarni eng maqbul tarzda tanlash.

Maktab ish rejasining mazmuni va mundarijasi

Rejalashtirish o‘z shakliga ko‘ra matnli, grafik va aralash (matnli va grafik) bo‘lishi mumkin. Reja qisqa, aniq va tushunarli, pedagogik maqsadlarga muvofiq tuzilib, yagona yo‘nalishlarni, qo‘yilgan masalalarni bajarish tadbirlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Rejaning sifati rejalashtirish qanchalik oqilona va to‘g‘ri qo‘yilishiga bog‘liqdir. Odatda, maktab ishi rejalashtirilayotganda uning tuzilishini ikki qismdan iborat tuzish tavsiya etiladi: 1-qism analitik bo‘lib, unda maktab ishining o‘quv yilidagi yakunlari tahlili va yangi o‘quv yilidagi vazifalari o‘z

aksini topadi; 2-qism esa amaliy xarakterda bo‘lib; unda bu vazifalarni bajarish tadbirlari rejalashtiriladi.

22.2.Ta’lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish

Maktab ichki nazorotini to‘g ‘ri (aniq mavzu va maqsad asosida) amalga oshirishga qaratilgan ishlar, maktab ichki nazoratining shakl hamda metodlari, xususan; o‘quvchilar bilimining sifati va o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish, o‘quvchilar bilan individual ishlashning holatini aniqlash, o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilar bilimi, ularning ko‘nikma va malakalar darajasini baholash, maktab ma’muriyatining nazorat ishlari: darslik, o‘quv jihozlarining qanday holatda ekanligini tekshirish.

Fakultativlar ishini nazorat qilish. Metodik birlashmalar, o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashlari, sinf rahbari, kutubxonachilar, laborantlar faoliyatini kuzatish. Maktab hujjatlarining qay tartibda yoritilayotganligini nazorat qilib borish kabi qator masalalarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik jarayonni boshqarishning muhim obyekti o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilar bilan sistemali, aniq maqsadga qaratilgan ish olib borishdir. Rejaning mazkur bo‘limida quyidagi masalalarni ham ko‘rsatish mumkin:

a) o‘zlashtira olmayotgan o‘quvchilami o‘z vaqtida aniqlab olish;

b) ana shunday o‘quvchilarning tayyorgarliklaridagi kamchilik yoki yetishmovchiliklarning xarakteri va sabablarini o ‘rganish;

d) bo‘sh o‘zlashtiruvchi va o'zlashtirmaydigan o‘quvchilarning barcha yozma ishlarini, fanlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarilishi va mazkur o‘quvchilarning og‘zaki javoblarini tekshirib borishni ta’minlash;

e) o‘zlashtira olmayotgan o'quvchilar bilan guruh yoki yakkamayakka shaklda uzluksiz ravishda ishlashni ta’minlash;

f) ana shunday o‘quvchilarga yordam berish borasida ota-onalar va ular ishlab turgan korxonalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlarning samarali shakli va metodlarini qidirib topish kabi qator masalalarni belgilash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ish rejasining maktabning moliya-xo‘jalik ishlari deb atalgan bo'limida maktabning o‘quv-moddiy bazasini yanada mustahkamlash, davlat tomonidan va otaliq tashkiloti tomonidan ajratilgan mablag‘larni to‘g‘ri, maqsadga muvofiq tarzda sarflash, moliyaviy hisob-kitoblarni tartibga solish tadbirlari belgilanadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabning ish rejalarida o‘quvchilar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, maktabning o‘quv-moddiy bazasini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya ishlarining dolzarb masalalariga qaratilgan turli mavzularda seminarlar, anjumanlar o‘tkazish, maktab o‘qituvchilarining pedagogik o‘qishlarini tashkil etish kabi masalalarni rejalashtirish hozirgi kunning muhim talablaridan biridir.

22.3.Ta’lim sohasida attestatsiya

Attestatsiya. Ta’lim muassasasi faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli hisoblanib, ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi

va sifatining davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Davlat akkreditatsiyasi. Ta’lim muassasasi faoliyatining davlat ta’lim standartlari
va davlat talablari mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda uning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqini berishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda qabul qilingan Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunining 58-moddasida ta’lim tashkilotlarini attestasiya va davlat akkreditasiysidan o‘tkazishga doir masalalarga to‘xtalib o‘tilgan. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi xududida faoliyat ko‘rsatayotgan maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlari, shuningdek maktabdan tashkari ta’limni, oliy ta’limdan keyingi ta’limni, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlari davlat ta’lim standartlariga, davlat ta’lim talablariga xamda o‘quv dasturlariga muvofiqlik jihatidan attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkaziladi.

Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish besh yil muddatga amalga oshiriladi.

Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish ta’lim tashkilotlarining arizasiga ko‘ra Ta’lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Ariza akkreditatsiya muddati tugashidan uch oy oldin beriladi.

Attestatsiya ikki bosqichda - ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash va tashki baholash bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ichki baholash ta’lim tashkilotining o‘zini o‘zi baholashidir.

Tashki baholash ichki baholash o‘tkazilganidan keyin Ta’lim inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladigan baholashdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari asosida tashkil etilgan, shuningdek vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tashkil etilgan ta’lim tashkilotlari tashkil etilgan kundan e’tiboran besh yil mobaynida akkreditatsiya kilingan hisoblanadi.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari litsenziya olingan kundan e’tiboran besh yil davomida akkreditatsiyadan o‘tgan deb hisoblanadi, bu muddat tugagach, ushbu Qonunda belgilangan tartibda attestatsiya va akkreditatsiyadan o‘tkaziladi.

Ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish maqsadida Ta’lim inspeksiyasi huzurida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi davlat akkreditatsiya komissiyasi tuziladi.

Davlat akkreditatsiyasi ta’lim tashkilotining attestatsiyasi asosida amalga oshiriladi. Doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi davlat akkreditatsiya komissiyasi ta’lim tashkilotining maqomini va uning faoliyati davlat ta’lim standartlariga, davlat ta’lim talablariga va o‘quv dasturlariga muvofiqligini aniqlaydi.

Ta’lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risida ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, unga davlat akkreditatsiyasining amal qilish muddati ko‘rsatilgan holda belgilangan namunadagi sertifikat beriladi.

Ta’lim tashkiloti qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan hollarda davlat

akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikatning amal qilishi Ta’lim inspeksiyasining qarori bilan tugatiladi.

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining talablari yoki sertifikatda ko‘rsatilgan shartlar buzilganligi aniqlangan va aniqlangan qoidabuzarliklar ta’lim tashkiloti tomonidan bartaraf etilmagan hollarda Ta’lim inspeksiyasi tomonidan davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikatning amal qilishini bekor qilish hakida qaror qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan ta’lim tashkilotlari Ta’lim tashkilotlarining reestriga kiritiladi va bu haqdagi ma’lumotlar Ta’lim inspeksiyasining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

Faoliyatni amalga oshirish mexanizmi. Ta’lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” gi qonunlari hamda “Davlat ta`lim muassasalari hamda nodavlat ta`lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o`tkazish tartibi to'g‘risida nizom” va “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari bo‘yicha Yo‘riqnoma”ga asosan tashkil etiladi.

Attestatsiya o‘tkazish tartibi. Ta’lim tashkilotlari har 5 yilda bir marta attestatsiyadan o‘tkaziladi. Yangi tashkil etilgan ta’lim tashkilotlari 5 yildan so‘ng attestatsiyadan o‘tkaziladi.

Attestatsiya jarayonida ta’lim turlari bo‘yicha ta’lim muassasalarining oxirgi ikki yillik faoliyatini kompleks tahlil etilib, asosan ta’lim-tarbiya jarayonining davlat ta’lim standartlari va davlat talablariga muvofiq tashkil etilganligi, o‘quvchi va tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya dasturlarini o‘zlashtirish darajasi, tarbiyachi-pedagog kadrlarning salohiyati o‘quv-uslubiy ishlarning olib borilishi va o‘quvchilarning darsliklar bilan ta’minlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar rivoji uchun o‘yinchoqlar, uslubiy qo‘llanma va bolalar adabiyoti bilan ta’minlanganligi, sport maydonchalari va zarur sharoitlarning yaratilganligi, ovqatlanish hamda dam olish xonalarining belgilangan sanitariya-gigiyenik va estetik talablarga mosligi hisobga olinadi.

Ta’lim muassasalari attestatsiyasi xolislik, to‘la oshkoralik, davriylik va pedagogik etika me’yorlariga amal qilingan holda o‘tkazilib, Davlat inspeksiyasida attestatsiyadan o‘tuvchi ta’lim muassasasi uchun attestatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan hujjatlar yig‘ma jildi yig‘iladi va navbatdagi attestatsiya o‘tkazilgunga qadar saqlanadi.

Attestatsiya komissiyalarini tashkil etish va ularning tarkibi. Maktabgacha, umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim tashkilotlarini attestatsiyadan o`tkazish uchun Davlat inspektsiyasi tegishliligi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi, Xalq ta`limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qo`shma qaror qabul qiladi.

Attestatsiya yakunlari. Komissiya ta’lim muassasasidagi ta’lim dasturlarini attestatsiya qilib, ularda kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligi haqida xulosa tayyorlaydi.

Davlat inspeksiyasi ta’lim muassasalari attestatsiyasi jarayonida aniqlangan kamchilik va nuqsonlarning o‘z vaqtida bartaraf etilishini muntazam nazorat qiladi.

“Attestatsiyadan o‘tdi” deb e’tirof etilgan ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash uchun zarur hujjatlar Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.

Davlat akkreditatsiyasini o‘tkazish tartibi. Ta`lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o`tkazish uchun Davlat inspektsiyasida doimiy faoliyat ko`rsatuvchi akkreditatsiya komissiyasi tuziladi. Akkreditatsiya komissiyasi tarkibi Davlat inspektsiyasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi. Yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta`lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o`tkazishda akkreditatsiya komissiyasi tarkibiga O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi mas`ul xodimi jalb etiladi. Davlat inspektsiyasi boshlig‘i akkreditatsiya komissiyasining raisi hisoblanadi. Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash uchun Attestatsiya komissiyasi tomonidan ta’lim muassasasi attestatsiyasi xulosasi Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etiladi. Ta’lim muassasasini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish haqidagi qaror hujjatlar topshirilgandan keyin bir oy muddatda qabul qilinadi.

Ta`lim tashkilotini akkreditatsiyadan o`tkazish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan ta?dirda, ikki hafta davomida ta`lim tashkilotining davlat akkreditatsiyasidan o`tganligi to`g‘risida sertifikat beriladi.

Ta’lim muassasalari attestatsiya komissiyasi va ekspertlar guruhini shakllantirish tartibi to‘g‘risida. Maktabgacha, umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim tashkilotlarini attestatsiyadan o`tkazish uchuní Davlat inspektsiyasi tegishliligi bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi, Xalq ta`limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qo`shma qaror qabul qiladi. Hududlardagi ekspert komissiyalari manfaatdor vazirliklar va idoralarning tegishli hududiy bo`linmalarining Davlat inspektsiyasi hududiy bo`limlari bilan kelishgan holda qabul qilingan buyrug‘i (qarori) bilan tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibiga Davlat inspektsiyasi, tegishliligi bo`yicha maktabgacha, xalq ta`limi, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport tuman (shahar) bo`limlari, davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari, manfaatdor vazirliklar va idoralarning hududiy bo`linmalari vakillari, maktabgacha, umumiy o`rta va maktabdan tashqari ta`lim tashkilotlarining kuzatuv kengashlari vakillari, rahbarlari, rahbar o`rinbosarlari, pedagog xodimlari va nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari jalb etiladi. Ekspert komissiyasi tarkibiga xorijiy ekspertlar ham jalb etilishi mumkin.

Ekspert komissiyalariga tegishliligi bo`yicha tizimida maktabgacha, umumiy o`rta va maktabdan tashqari davlat ta`lim muassasalari bo`lgan vazirliklar va idoralarning hududiy bo`linmalari mas`ul xodimlari raislik qiladi. Davlat inspektsiyasi yoki uning hududiy bo`limlari vakillari ekspert komissiyalari

tarkibiga rais o`rinbosarlari sifatida kiritiladi hamda ta`lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholashni tashkil etish va o`tkazish ishlarini nazorat qiladi.

Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2020-yil 27-yanvardagi “Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini tasdiqlash to‘g‘risida”qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari belgilandi.

Mazkur mezonlar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 470-son “Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, boshlang‘ich professional, o‘rta professional, o‘rta maxsus professional, maktabdan tashqari, oliy, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni amalga oshiruvchi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash davlat ta’lim muassasalarini hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) attestatsiyadan o‘tkazish mezonlarini belgilaydi.

Ushbu qarorga ko‘ra ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazishda quyidagi umumiy qoidalarga amal qilish ko‘zda tutilgan:

1. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyasi kadrlar tayyorlash darajasi, mazmuni va sifatini davlat ta’lim standartlari hamda davlat talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

2. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari talablari jismoniy yoki psixik (ruhiy) rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlariga tatbiq qilinmaydi.

3. Ta’lim tashkilotlarida attestatsiya ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar bo‘yicha o‘tkaziladi hamda ularning faoliyati attestatsiyadan o‘tkazish mezonlari bo‘yicha baholanadi.

4. Tizimida davlat ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar hamda nodavlat ta’lim tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan attestatsiyadan o‘tkazish jadvali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon matnda Davlat inspeksiyasi deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadi hamda ushbu jadval asosida ta’lim tashkilotlari attestatsiyadan o‘tkaziladi.

5. Ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan o‘tkazish uchun ekspert komissiyalari (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 470-son qarori bilan tasdiqlangan

Davlat ta’lim muassasalari hamda nodavlat ta’lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq tuziladi.

XXIII BOB. TA’LIM MUASSASASIDA METODIK ISHLARII TASHKIL ETISH

23.1.Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti

Ta’lim muassasasining ichki boshqaruvi. Maktab ma’orifni boshqarish shakllari va metodlari Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotining har bir bosqichida jamiyat xal qilishi lozim bo‘lgan vazifalarga muvofiq o‘zgarib va takomillashib boradi.

Maktab ichki boshqaruvini boshqarish qoidalari asosida tashkil qilish hozirgi davrining muhim talablaridan biridir. Biz quyida mana shu boshqarish qoidalariga alohida to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1. Demokratizm qoidasi.

Bu qoida hozirgi davrda jamiyatimiz yanada demokratlashtirish, xalqning o‘z-o‘zini boshqarishni chuqurlashtirish bobida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Demokratizmni asossiz ravishda mustaqillishtirish oddiy xodimlar tashabbusining cheklanishiga, sub’ektivizmga olib borishi mumkin. Demokratizm uchun ilmiy asoslangan pishiq-puxta tashkiliy tuzilish yaratib qo‘yilgan bo‘lmasa, mehnatkashlarni jamoat ishlarini boshqarish ko‘nikmalari ruhida tarbiyalash sohasidagi ish zaif bo‘lsa, demokratizmga zid bo‘lgan anarxiya tomonga "og‘ish" sodir bo‘lishi mumkin. Mana shu sabablarga ko‘ra demokratizm bobida jamiyat erishgan rivojlanish darajasiga mos keluvchi to‘g‘ri nisbatni belgilash va davom ettirish hozirgi bozor iqtisodiyoti davridagi muhim vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Demokratik qoida vazifalarni xal etishdagi andozachilikka ham, shuningdek, ko‘pchilikning xohish-irodasini mensimaslikka ham, mahalliy organlarni, mehnat jamoalarini manfaatlariga qarama-qarshi qo‘yishga ham toqat qila olmaydi. Demokratik qoidani amalga oshirilishi tashabbus va izlanishning jamiyat qonunlari va normalariga bekami-ko‘st rioya etishga asoslangan juda ham mustahkam intizomlilik, namunali uyushqoqlik bilan uzviy birligini taqozo etadi. Intizomsiz demokratiya, ayrim xodimlarning hisobot bermaydigan "cheksiz qollegialchiligi" muqarrar ravishda tartibsizlik va boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi. Shablonlashtirish kam, yuqoridan turib bir xil andoza bichib berish ham, demokratiyaga butunlay yot narsadir. Bizningcha demokratik qoidaning muhimligini uqtirish bilan birga, uning xarakteri yakka boshchililikni kollegiallik bilan qo‘shib olib borishda namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlash lozim. Gap shundaki, maktab amaliyotda pedagogik mehnatni ilmiy tashkil qilish muammosi ko‘pincha darsda vaqtdan unumli foydalanishdan, sinfdan tashqari tadbirlardan va o‘qituvchi-tarbiyachilarning ijtimoiy topshiriqlarini tartibga solishdan iborat deb qaraladi. Bular, shubxasiz, muhim, albatta. Lekin pedagogik mehnatni ilmiy asosda tashkil etish mazmuni ancha keng bo‘lib, unga, avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo‘llanilayotgan

metodlar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta’lim-tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Unda pedagogik ish rejimini, maktabning kunlar, haftalar, oylar va choraklar bo‘yicha ish tartibini takomillashtirish, pedagoglar kengashi majlislari, ilmiy-uslubiy pedagogik harakterdagi konferensiyalar, yig‘ilishlar, kengashlar kabi tadbirlarni o‘tkazish va bu ishni mohirona rejalashtirish hamda boshqarishni takomillashtirish ko‘zda tutilgan.

2. Boshqarishning jamoatchilik va shaxsan mas’ullik qoidasi. Jamoa va jamoa maslahati to‘g‘ri rahbarlikning garovidir. Jamoa yo‘li bilan xo‘jalikni boshqarish va unga rahbarlik qilish, eng muhim qarorlarni birgalikda, maslahatlashib ishlab chiqish to‘g‘ri boshqaruvni tashkil qilishning muhim shartidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, umumiy ta’lim maktablarida barcha boshqarish masalalarini o‘zaro muhokama qilish va xal etish, maktabdagi har bir shaxsning muayyan, aniq va qat’iy belgilangan topshiriq hamda amaliy ishlarni bajarish uchun javobgar ekanligini qat’iy belgilash ishi bilan qo‘Shib olib borish, bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, bu qoidani yakkaboshchilik bilan qo‘shib olib borish, nihoyatda muhim vazifalarni jamoa bo‘lib xal qilishni ta’minlaydi. Yakkaboshchilikni mustahkamlash xodimlarni topshirilgan ish uchun javobgarlik hissini oshiradi, rahbarlik qilishda qat’iy tartib bo‘lishini va mustahkam mehnat intizomini ta’minlaydi. Maktabning tajribasi Shu narsani yaqqol ko‘rsatmoqdaki: yakka boshchilik jamoa bo‘lib rahbarlik bilan birga qo‘shib olib borilgandagina o‘quvchilarimizga fan asoslaridan chuqur bilim berish va ularni o‘zbek milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek qiyin hamda sharafli ishda yaxshi natijalarga erisha olamiz.

3. Boshqarishda ijroni tekshirish qoidasi. Ijroni tekshirishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad (tekshirishning asosiy vazifasi)- belgilangan ish rejasi va tadbirlarni amalga oshirishni barbot etish extimolining oldini olishdan, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishdan, qabul qilingan qarorlarning bajarilishini ta’minlashdan, ishni amaliy tashkil qilishdan iboratdir. Ijroni tekshirish yuqori tashkilotlar ko‘rsatmalarining va o‘z hujjatlarining qat’iy va so‘zsiz bajarilishini ta’minlaydi. Bu esa, u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan buyongi vazifalarni aniqlash, maqsadga erishishning Shakli va yangi metodlarini belgilash imkonini beradi.

To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ijroni tekshirish-xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, xususan, xalq ta’limi tizimini maktab sohasidagi barcha vazifalarni muvaffaqiyatli xal qilishning zarur shartidir. Qaror bilan ijroning birligi, to‘g‘ri rahbarlik uslubining negizini tashkil etadi. Ishning ko‘zini bilib tashkil etilgan ijroni tekshirish ana Shunday birlikni Shubxasiz ta’minlaydi. U xodimlarda, o‘qituvchi va tarbiyachilarda o‘ziga hamda boshqalarga nisbatan yuksak talabchanlik va prinsipiollikni tarbiyalaydi, topshirilgan ish uchun ma’suliyat hissini kuchaytiradi, intizomni mustahkamlaydi. Kishilarda qiyinchiliklarni engishda, sabot matonat, tashabbuskorlikni, muvaffaqiyatga erishish uchun uzluksiz sobit qadamlik bilan ishlashga intilish hislarini tarbiyalaydi.

4. Boshqarishning rejalik qoidasi. Maktab ichidagi boshqaruv apparati faoliyatida muayyan tizimning bo‘lishi muhimdir. Buning ma’nosi avvalo shundan

iboratki, bu ish tasodifiy bir-biriga aloqasi bo‘lmagan tadbirlar yig‘indisidan iborat bo‘lmay, balki konkret sharoitni, vaziyatning hususiyatlarini hamda butun pedagoglar jamoasi oldidida, shuningdek, uning ayrim zvenolari oldida turgan vazifalarning hususiyatini qat’iy sur’atda tartibga solingan, bir-biri bilan bog‘langan va chuqur o‘ylab ko‘rilgan tadbirlar yig‘indisidan iborat bo‘lishi kerak. Boshqarishning rejalilik qoidasi, xalq ta’limiga, jumladan, maktabga rahbarlik qilish va uni boshqarish sohasidagi rejalarni xukumatimizning maorif sohasidagi siyosatini va hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rivojlantirishda ishning mohiyatini bilish, maqsadni maxorat bilan hal etishning asosiy bo‘g‘ini bo‘lishi lozim. Shuningdek, xalq ta’limi organlarining, jumladan, maktabning ham rejasini aniq tadbirlar mavzusi asosida maqsadga qaratilganlik, aniq, muntazam va izchil ish olib borish kabi hususiyatlarga ega bo‘lishi, shuningdek, unda u yoki bu tadbirni bajarish uchun javobgar shaxslarni aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

5. Boshqarishning samaradorlik va tejamkorlik qoidasi. Mazkur qoida asosida boshqarish va rahbarlikning asosiy maqsadi hamda vazifasi xom-ashyo materiallari, mashina va stanoklar, qattiq va yumshoq inventarlar, o‘qituvchilar, texnik xodim va ishchilar, moliya resurslari hamda vaqt byudjetidan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishni ta’min etishdan iboratdir. Vaqtni tejash qonunining mohiyati jamiyatdagi o‘sib borayotgan ijtimoiy talablarni qondirish uchun ketadigan sarfni kamayib borishida va butun jamiyat va butun uning har bir a’zosining har tomonlama taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan bush vaqtni ortib borishida ko‘rinadi. Vaqtni tejash va mehnat unumdorligini oshirish bobidagi mazkur qoida to‘liq ma’noda maktabning ichki boshqaruv sistemasiga ham taalluqlidir. Maktab rahbarlari o‘zlarining boshqarish ish sistemalarida o‘qituvchi, tarbiyachi va o‘quvchilarning vaqtini tejash masalasiga alohida e’tibor bilan qarashlari lozim. Shuning uchun ham maktab ichki boshqaruvini tashkil qilish va uni amalga oshirishda mazkur masalaga e’tiborni kuchaytirishning pedagogik ahamiyati juda ham kattadir.

Maktabda tuzilgan ish reja mazkur maktab pedagoglar jamoasi har bir a’zosining faoliyatini tartibga soluvchi qonun, ko‘rsatkichlar tizimida ifodalangan davlat topshirig‘idir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qanday vazifani muvaffaqiyatli ravishda bajarish, tashkiliy tadbirlarni, Shu jumladan, xalq ta’lim va maktab ishiga oid bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirish - to‘g‘ri rejalashtirish mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Xalq maorifi bo‘limining ishini, jumladan, maktab ishini rejalashtirish-avvalo uning vazifalarini, faoliyat mazmuni va metodlarini aniqlashdan iboratdir.

To‘g‘ri tuzilgan ish rejasi – xatoga yo‘l qo‘yishdan asrash bilan birga, ilgari yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni tugatishni ham ta’minlaydi. To‘g‘ri tuzilgan reja rahbarlari uchungina emas, ayni vaqtda muallimlar jamoasining har bir a’zosi uchun ham yo‘l ko‘rsatuvchidir. Shuning uchun ham maktab ishini rejalashtirish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim o‘rinni egallaydi va muhim pedagogik ahamiyatga molik bo‘lgan masaladir.

23.2. Ta’lim muassasasida ilgor pedagogik tajribani o‘rganish va undan foydalanish

Pedagogik ijodkorlik manbai – bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba – muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg‘or pedagogik tajriba deganda, pedagogning o‘z pedagogik vazifasiga ijodiy yondoshishini, talabalarning ta’limtarbiyasiga yangi, samarali yo‘l va vositalarni qidirib topishidir. Ijodiy ishlaydigan pedagog faqat talabalarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiya berish, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, taraqqiyotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti pedagogning ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita bilish, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishini talab qiladi.

Pedagogik tajriba pedagogning faoliyatini samarali tashkil qilish, ta’lim oluvchilarni tayyorlashning har bir vaziyatida mahoratning yuqori darajasiga erishishda uzluksiz ravishda olib boriladi. Pedagogik mahorat o‘z-o‘zicha vujudga kelmaganidek, tajriba ham hech bir harakat, qiziqish va o‘rganishsiz, sinovsiz, tavakkal qilishsiz yuzaga chiqmaydi. Pedagogik faoliyatning eng zaruriy va emosiyalarga, hissiyotlarga boy bo‘lishini hisobga olsak, juda og‘ir muammolar, dars jarayonlaridagi kutilmagan holatlar, endi o‘rganayotgan o‘qituvchining faoliyati ham o‘z fanining mohir ustasi bo‘lgan o‘qituvchiga tajribasini tinimsiz oshirib borishiga imkon yaratadi. Tajribali pedagoglar doimo o‘zlarida nimanidir, qandaydir qobiliyatini namoyon qilayotgan yoki rivojlantirayotgan bo‘ladilar.

Pedagogika sohasida inson omilini bosh vazifa qilib olish, har biri kishining o‘z o‘rnida vijdonan va mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalangan holda ishlashga erishish ta’lim-tarbiyaning asosiy tajribasi sanaladi.

Pedagogik faoliyatda muallimning ijodiy mehnatini rivojlantirmasdan bunga erishish mumkin emas. Shuning uchun pedagog jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar mohiyatini tushunishi, o‘zi qilayotgan ishning ahamiyatini bilishi juda muhimdir. Hozirgi zamon o‘qituvchisi bilimlarning keng ko‘lamdagi zahirasiga, pedagogik mahoratiga va obro‘ga ega bo‘lishi kerak. Hozir hamma joyda faqat oliy ma’lumotli o‘qituvchilar tayyorlash uchun sharoitlar yaratildi. Lekin, e’tirof etish kerak: o‘qituvchi o‘quv yurtida qanchalik yetuk ta’lim olgan bo‘lmasin, baribir u doimo malakasini va tajribasini oshirish va umumlashtirishga muhtoj bo‘ladi. Pedagog o‘z faoliyatini har qanday sharoitda ham hayotiy jarayonning asosiy shakllaridan biri sifatida anglashi muhim omildir. Bunday tushuncha uning shaxsiy sifatlari va kasb mahoratini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga egadir.

O‘qituvchining o‘ziga xos kasb xususiyatlarini aniqlangandan keyingina malaka oshirishning mazmuni, shakllari va usullarini unga mos tarzda tashkil etish mumkin.

PEDAGOGIKA TARIXI

XXIV BOB. PEDAGOGIKA TARIXI FANI HAQIDA. FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI. ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

24.1. Pedagogika tarixi faning maqsad va vazifalari

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini o‘z ichiga oladi va davrlar talabi asosida o‘rganadi.

Pedagogika tarixi fani orqali ibtidoiy jamiyat davridan boshlab to hozirgi kunga qadar tarbiyaning kelib chiqishini, ijtimoiy taraqqiyotning o‘zgarishi natijasida ta’lim va tarbiya jarayonlarining o‘zgargan mohiyatini turli davrlarda maorif, ta’lim-tarbiya, maktab taraqqiyotiga qo‘Shilgan hissalarni, bu sohalarda yaratilgan yangiliklarni, bobokalonlarimizning maktab, ta’lim-tarbiya sohasida yaratgan kashfiyotlarining ma’naviy hayotimizga qo‘shgan hissalari, yaratgan asarlari, hayot va faoliyatlari bilan tanishib o‘tamiz.

Pedagogika tarixi fani orqali biz ibtidoiy jamiyat davridan boshlab, hozirgi kunga qadar dastlabki tarbiya paydo bo‘lishi, dastlabki ta’limning, maktab ta’lim-tarbiya tizimining, dastlabki madrasa, oliy o‘quv yurtlari, universitetlarning, ulardagi ta’lim jarayonining paydo bo‘lish bosqichlari bilan tanishamiz. Bu fan orqali biz dastlabki tuzilgan o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari, o‘qituvchi mutaxassislar tayyorlash yo‘llari bilan tanishamiz. Shuningdek, xalq orzu-istaklarini amalga oshiruvchi komil inson to‘g‘risidagi xalq og‘zaki ijodi namunalari, turli bitiktoshlardagi yozuvlar, mutafakkirlarimizning faoliyati, ta’lim-tarbiyaga oid etuk asarlari namunalaridan mahramand bo‘lamiz.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim–tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo`lib, ular pedagogika sohasidagi o`zgarishlarni jamiyat taraqiyoti bilan bog`liq holda o`rganishni talab etadi. Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo`lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o`rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog`liqlir. Binobarin mustiqillik tufayli ko`hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayti tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi. O`z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o`tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g`oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug` ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o`zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.Yosh avlodni tarbiyalash va o`qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo`lmaydi.

Markaziy Osiyodagi arxeologik topilmalar va yozma manbalarning guvohlik berishicha, dastlabki ibtidoiy jamoa va keyinchalik quldorlik tuzumi davrida ham Turon hududida ijtimoiy-madaniy hayot rivojlangan. Ayniqsa, qadimgi Xorazm, Farg‘ona, Zarafshon vodiylarida dehqonchilik, hunarmandchilik me’morchilik madaniyati jahonga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Quldorlik tuzumining dastlabki bosqichlaridanoq Turon zaminida xalqlarning ma’naviy va madaniy hayotida hamda diniy e’tiqodlarida ham kata o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ayni paytda, o‘ziga xos turmush tarsi an’ana, rasm-rusumlar, urf-adatlar hamda ta’lim-tarbiya shakllandi.[17]

Bugungi zamon rivojlanish manzarasiga nazar tashlansa, unda albatta o‘tmish tajribasi, ajdodlarimiz qoldirilgan boy ma’naviy meros saboqlari, albatta, o‘zining o‘rniga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shu ma’noda, bugungi ta’limning o‘tmishdagi mazmun-mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni va eng muhimi qadim zamonlarda ta’limga bo‘lgan e’tibor, ehtiyoj qanday ekanligi, ilm doirasida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh avlodni o‘tmishda tarbiyalash va o‘qitish nazariyasi bilan amaliyotining qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib hozirgi jamiyatda yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo‘lmaydi. Tarbiya va ta’lim nazariyasi hamda amaliyotini tarixiy davrlardagi rivojlanishi pedagogika tarixida o‘rganiladi.

Tarbiyaning ilk shakllari ibtidoiy jamiyat davridayoq paydo bo‘lgan: Keksa avlod mehnat jarayonida orttirgan tajribalarini yosh avlodga o‘rgatishga harakat qilgan. Quldorlik tuzumi davrida sharqda tarbiyaga oid turli pedagogik qarashlar vujudga keldi.

Demokrit, Platon, Aristotel va boshqalar qadimgi yunon faylasuflari asarlarida tarbiyaning maqsadi, vazifasi mazmuni va vositalari haqida fikrlar bildirilgan.

Qadimgi yunon faylasuflarining tarbiyada etika va psixologik birligi prinsiplariga tayanish aqliy, axloqiy va jismoniy birligi to‘grisidagi g‘oyalari pedagogik tafakkurning rivojlanishida muhim axamiyatga ega bulgan.

Feodalizm jamiyati davrida ta’lim-tarbiya ishlari hukmron feodal tuzumi va diniy mafkura maqsadiga qaratildi. Xususan O‘rta Osiyoda tasavvuf maslagining reaksion Shakllari maktab va madrasalarda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ta’lim-tarbiya sohasida ikki oqim vujudga keldi. Birinchi oqim G‘azoliy, Ahmad yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy kabilar madrasalarda aniq fanlardan ta’lim berilishiga qarshi turdilar.

Ikkinchi oqim dunyoviy ta’limni ilgari surdi. Bu oqimning mohiyati Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Ulugbek, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xusrav, Sa’diy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy kabi mutafakirlar faoliyatidan namoyon bo‘ldi.

Bular tibbiyot mantiiq, musiqa, adabiyot, geografiya, matematika kabi ilmlar bilan yosh avlodni tarbiyalash fikrini olg‘a surdilar.

[17] K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi II qism, Darslik– Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.-39-b

Xususan, Farobiy insonning ma’naviy etuk va mukammal bo‘lishi uchun jismoniy aqliy, estetik va axloqiy tarbiyani birgalikda olib borish zarurligini qayd etdi. Sharq mutafakkirlari inson aql orqali har qanday bilimni egallashga qodir ekanligini ta’kidladilar va inson qobiliyatiga qattiq ishondilar.

"Kalila va Dimna" da, Shuningdek Kaykavusning "Kobusnoma", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Rushnoinoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadig‘u Bilig", Mahmud qoshg‘ariyning "Devoniy Lugotit-Turk", Ahmad Yugnakiyning "Xibbat ul xaqoyiq", Alisher Navoiyning "Mahbub-ul qulub" asarlarida ilg‘or pedagogik qarashlar ham ifodalangan.

Insonni tarbiyalashning yaxlit nazariyasi bo‘lgan pedagogika tarixi chex mutafakkiri Y.K.Komenskiy nomi bilan bog‘liq. Komenskiy Yevropa tarbiyasini umumlashtirib ta’lim va tarbiyaning asosiy masalalarini ishlab chiqdi. Sinf dars ta’limi tizimini yaratdi. Keyinchalik ingliz faylasufi D.Lokk, fransuz materialistlari A.Gervetsi, D.Didro, J.J.Russo va boshqalar pedagogika fanini ilg‘or g‘oyalar bilan boyitdilar. O‘zbekistonda pedagogikaning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Xusaynxon, A.Ibodiev, I.Raxmatullaev, Abduqodir Shakuriy, Qori Niyoziy, O.Sharafiddinov, R.O‘rinboev, F.Erg‘oziyev kabi pedagog va olimlar nomi bilan bog‘liqdir.

24.2. “Pedagogika tarixi” fani g‘oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o‘zaro aloqadorligi

Pedagogika tarixi fani ijtimoiy fan bo‘lib, uning metodologik asosi yosh avlodni tarbiyalash an’analarini, jamiyatning taraqqiyot bosichlaridagi o‘qitish, kamol toptirish tizimlarini, ularning qonun qoidalarini, qomusiy mutafakkirlar, ma’rifatparvar adiblar va pedagoglarning ta’lim-tarbiya va ma’rifatga doir g‘oyalarini va bu g‘oyalarning rivojlanishini mukammal o‘rganishdir.

O‘tmishda progressiv pedagoglar va atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o‘rganish bo‘lajak pedagogning tafakkurini o‘sishiga, pedagogik madaniyatini yuksalishiga imkon beradi.

Quyida ba’zi pedagoglarni nazariyalarini qarab chiqamiz. Buyuk slavyan pedagogi yan Amos Komenskiyning fikricha, tarbiya nazariyasining uch vazifasi bor: o‘zini, tevarak-atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya), o‘z o‘zini boshqarish (axloqiy tarbiya) va xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning o‘rta asr pedagoglaridan bu masaladagi farqi shuki, u birinchi vazifani hal qilinishini juda muhim deb hisobladi.

Komenskiy tarbiyaning roliga juda yuksak baho berdi. Inson, deydi u faqat tarbiya tufayligina insonga aylanadi, insonga u tarbiyalanishiga eng qulay yoshda bo‘lganida, ya’ni bolalik chog‘ida tarbiya berilishi lozim.

Tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon pedagogika tarixi rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Bu borada yunon olimlari Arastu, Platon, Demokrit kabi olimlar o‘z fikrlarini bayon etdilar. Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Shveysariyalik buyuk pedagog I.G.Pestalotssi elementar nazariyasini yaratdi. Unga ko‘ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq daraja ko‘tarilib borishi lozim.

Pestalotssining elementar ta’lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o‘qitishni uz ichiga oladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng o‘zimizning milliy urf-odatlarimiz qadriyatlarimizdan foydalanishga keng yo‘l ochildi. Shuningdek, pedagogikada ham yoshlarni komil inson bo‘lib etishishlarida mustaqil O‘zbekistonning mustaqilligini mustaxhkamlash uchun barcha ishlarni sidqidildan bajarishga kirishildi. Ya’ni pedagogikada o‘zimizning milliy asarlar Qur’oni Karim, Hadislardan foydalanishga imkoniyat yaratildi. Chunki ularda ta’lim-tarbiyaning yuqori cho‘qqillarini ko‘rish mumkin.

Masalan: Qur’onning Oli-Imron surasida "kishilardagi baxillik, ochko‘zlik sifatlari qoralanib, ularni saxiy adolatli olijanob bo‘lishga chaqiradi.

Chunonchi, hadislarda ham ta’lim-tarbiyaning barcha qirralarini ko‘rishimiz mumkin. "Ilmni Xitoydan borib bo‘lsa, ham o‘rgan" "beshikdan qabrgacha ilm izla" kabi hadislardan ilmni qanchalar qudratga ega ekani, u tufayli inson buyuk darajaga etishib jamiyatda o‘z o‘rnini topishini anglasak, "salomlashishni odat qilinglar, zero u bir-birlaringa muhabbatlaringni ziyoda qilur" hadisda insonning yuksak odob axloq egasi ekanligini oliy belgisi salomlashish haqida fikr yuritilib, u orqali insonlarning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati ortishi yaqqol ifodalanadi.

Biz ta’lim-tarbiya berishda o‘zimizni o‘zligimizni anglashda avvalo milliy ma’naviy durdonalarimizdan foydalanish zarurdir. Bular bizga milliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumiy, Ulug‘bek, Lutfiy, Xaydar Xorazmiy, A.Navoiy, Bobur singari allomalarni yetkazdi.

Qolaversa, ularning axloq odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari bo‘yicha ta’limoti butun jahonga o‘rnak bo‘larli ma’no va mazmun kasb etgan.

Pedagogika tarixning ilmiy, nazariy va milliy asoslarini puxta o‘rganish o‘qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki shu bilan birga, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi.

24.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev – ta’lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida.

Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do‘stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Xalqimiz yaratgan ma’rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. Bugungi kunda milliy-madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizni o‘rganish va uni yanada yuksaltirish uchun imkoniyatlar yuzaga keldi.

Ta’lim va tarbiyani davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijodiy tajribadan unumli

foydalanish zarurligini taqozo etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimida “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi ma’ruzasida: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda.

Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak”[18], deb ta’kidladilar.

Ma’lumki, 2017-yil 12-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilindi. Mazkur farmoyishda axborot-kutubxona muassasalarining, ayniqsa, ta’lim sohasidagi axborot-resurs fondlari shakllantirishda o‘quv adabiyotlari bilan bir qatorda badiiy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ro‘yxatini qayta ko‘rib chiqish, chop etilayotgan kitoblarni ommaviy axborot vositalari, jumladan, “Madaniyat va ma’rifat” telekanali orqali targ‘ib qilish, ta’lim muassasalari, kutubxonalar, mahallalarda kitob mualliflari bilan uchrashuvlarni tizimli ravishda tashkil etish, hamda ta’lim muassasalari, ayniqsa, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘qish madaniyatini va mutolaa ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bu esa, o‘z navbatida talabalarda o‘qish madaniyati va mutolaa ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi”[19].

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida xalqimiz tomonidan inson kamoloti, barkamol shaxs tarbiyasi, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga etarlicha e’tibor berib kelingan. Ushbu an’anani davom ettirgan holda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga juda katta e’tibor berilib, bugungi kunda ijtimoiy faol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, tarbiyaning asosiy maqsadi etib har tomonlama etuk, erkin fikrlovchi, go‘zal xulqli, barcha axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan ijtimoiy faol Shaxsni tarbiyalash deb belgilangan.

Respublikamizda yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratilib, bu borada bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga asos solindi.

---

[18] Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O‘zbekiston. 2017. - 48 b.

[19] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil, 13 yanvar.

Bu borada 2016-yil 14-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda ham “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash” yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan[20].

Barcha ma’naviy-axloqiy fazilatlarning asosini ezgulik tashkil etadi, ijtimoiy faol, ma’naviy etuk shaxsni tarbiyalash uchun esa, avvalo, yoshlarda ezgulik tuyg‘ularini shakllantirish lozim. Yurtimizda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarda ham ezgulik yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarni ko‘rish mumkin. Xususan, hukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga, umuman ta’lim sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Bu esa, o‘qituvchi-pedagoglar zimmasiga yoshlarni Vatanga muhabbatli, e’tiqodli, mehr muruvvatli, oqil, halol, pokiza, insonparvar, xalqparvar, ma’naviy-axloqiy kompetentli etib tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Mana shu fazilatlarni o‘zida mujassam eta olgan yoshlargina yuksak axloqqa erishgan ma’naviy etuk, ijtimoiy faol shaxs bo‘la oladilar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tdi: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi”[21].

Mustaqillik davrida olib borilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya va yoshlarga oid davlat siyosati ta’lim-tarbiya jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev barcha sohalar kabi ta’lim tizimiga ham katta e’tibor qaratdi, yoshlarga oid davlat siyosatini qaytadan ko‘rib chiqdi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida muhim vazifalar sifatida “mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[22] vazifalari belgilab berilgan. Bu esa shaxsning intellektual qirralarini shakllantirish, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol va muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minlashga zamin yaratadi.

Prezidentimiz tomonidan ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarga oid beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ular quyidagilar: birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishni oshirish, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishga ko‘maklashish; ikkinchi tashabbus – yoshlarni

[20] O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406-son.

[21] Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592 b.

[22] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – T.: 2017.

jismoniy chiniqtirish, sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur Sharoitlar yaratish; uchinchi tashabbus – aholi va yoshlarning kompyuter texnologiyalari hamda internetdan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish; to‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish; beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash uchun qo‘Shimcha imkoniyatlar yaratish.

Mazkur ishlarning barchasida yurtimizda ezgulikning ulug‘lanishi, ya’ni avvalo, hayotda Inson omili va uning qadr-qimmati ulug‘lanishi, xalqimizda insoniylik, mehr-muruvvat, o‘zaro munosabat, adolat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik kabi ezgulik tamoyillari oliy o‘rinda turishini ko‘rish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan xalqimiz ma’naviy merosidan o‘z o‘rnida oqilona foydalangan holda yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlar yuksaltiriladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganlinining 26 yilligiga bag‘ishlangantantanali tadbirdagi nutqida: “Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e’tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlariimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar etishib chiqadi. Men bunga ishonaman”, – deb ta’kidlab o‘tdi. Buning uchun albatta o‘sib kelayotgan yoshlarimiz har tomonlama ham ma’nan, ham aqlan, ham jismonan sog‘lom, teran fikrlovchi, o‘zining nuqtai nazariga ega, o‘z erkinligining chegarasini biluvchi va o‘zgalar huquqini hurmat qiladigan, bir so‘z bilan aytganda har tomonlama madaniyatli bo‘lishlari talab etiladi.

24.4. Ta’lim tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o‘tgan qisqa vaqt ichida o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishdi; o‘z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, ulug‘ ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma’naviy merosni o‘rganish Sharafiga muyassar bo‘ldi, milliy g‘ururi qayta tiklandi; respublikada ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilmoqda; o‘tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining Shuhratini tiklash, ularning g‘oyalarini xalq hayotigatadbiq etishdek ulug‘ ishlar amalga oshirilmoqda.

Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda O‘rta Osiyoni Uzoq sharq, ya’ni Xitoy va yaponiya singari uzoq mamlakatlar bilan bog‘lagan «Ipak yo‘li» nafaqat savdo, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy aloqa yo‘l ham bo‘lib, u ayniqsa, turkiy xalqlar madaniyati va ma’naviyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. O‘Sha davrdayoq O‘rta Osiyo xalqlari o‘rtasida o‘rnatilgan madaniy hamda ta’lim-tarbiya sohasidagi do‘stona aloqalar keyinchalik yanada mustahkamlana bordi. Buni hayot o‘zi taqozo etdi.

«Ipak yo‘li» bo‘ylab ahli elat – o‘zbek, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoq, qirg‘izlar bahamjihat ahillikda bir oiladek yashaganlar. Bunga bu xalqlarning turmush tarzi, og‘zaki ijodlari va turmushdagi o‘xshash tomonlar yorqin dalildir. Buni biz IX-XI-asrlarda yashab ijod etgan ulug‘ mutafakkirlar, pedagoglar, Shoir va yozuvchilarning asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni hayoli, iymon-e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar, bu ishda islomiy tarbiyaning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati katta bo'lgan. Buyuk ajdodlarimiz bola tarbiyasi, madrasa, maktab, mudarris, o'qituvchi-pedagog, umuman maorif sohasida juda qimmatli fikrlar bildirganlar, bu sohada biz avlodlarga juda katta boy ma'naviy meros qoldirganlar. Ushbu ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganib, tahlil qilib, amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Pedagogikamiz tarixini o'rganish millatimiz tarixini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Yosh avlodni tarbiyalash va ularni o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal etib bo'lmaydi.

Pedagogika tarixi fani quyidagi manbalar asosida o'rganiladi:

- xalq og'zaki ijodi;
- buyuk adib va allomalarimiz ijodiy merosi;
- qadimgi yozma yodgorliklar;
- hukumatimizning ta'lim-tarbiyaga oid qonun va qarorlari;
- Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari;
- dasturlar, ilmiy va pedagogik adabiyotlar;
- ta'lim-tarbiyaga oid kundalik matbuot materiallari.

Atoqli mutafakkirlarimizning ta'lim-tarbiya sohasida bildirgan muhim fikrlarini o'rganish, pedagogik tafakkurning o'sishiga, pedagogik madaniyatning ortishiga imkon beradi. Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiya mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik tizimlarida bo'lgan ilg'or fikrlardan ijodiy foydalanadi.

Pedagogika tarixi fani ikki qismga bo'lib o'rganiladi:

- O'rta Osiyo va sharq xalqlari pedagogika tarixi.
- chet el pedagogika tarixi.

Birinchi qismda biz, qadimdan boshlab to hozirgi kunga qadar yashab ijod etgan allomalar Al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Jomiy, Abulqosim Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Bedil kabi O'rta Osiyo xalqlari olimlarining hayoti, ijodiy, pedagogik faoliyati, maktab, maorif, ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'shgan hissasi bilan tanishib chiqamiz.

Ikkinchi bo'limda esa chet el pedagoglaridan Yan Amos Komenskiy, J.Lokk, Jan Jak Russo, I.G.Pestalotssi, A.S.Makarenko, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va boshqalarning faoliyati va pedagogika sohasidagi qarashlari va faoliyatlari bilan tanishib o'tamiz.

Pedagogika tarixini o'quv kursi sifatida pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'rganish bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Pedagogika tarixi fanini o'rganish – kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyangan holda har bir o'qituvchida pedagogik madaniyat va ularga munosabat bildirish kabi malakalarni shakllantiradi.

Pedagogika va pedagogika tarixi fani orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda yoshlar bilan ishlash, muomala madaniyati, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish yo‘nalishlari, bolalarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, kiyinish madaniyati, turli xil tarbiyaviy jarayonlarni uyushtirish san’ati o‘rganiladi.

Pedagogika tarixi kursi yana talabaning umumpedagogik bilim darajasini kengaytiradi, pedagogik merosimizga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga imkon beradi, ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta’lim, uning rivojlanish jarayoni, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog‘liqligi to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogika tarixi fanini o‘rgana borib, boshqa psixologiya-pedagogika turkumidagi o‘quv fanlari kabi pedagogik tushunchalar yuzasida fikr yuritishga hamda ularning mohiyatini tushunishga ham o‘rgana boradi.

Pedagogika tarixini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarning faqat pedagoglik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birgalikda, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi. Shuningdek, o‘tmishning ta’lim-tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarni o‘rganadi, bu esa uning kelajakdagi kundalik pedagoglik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Bugungi kunda pedagogika tarixini kursini quyidagi davrlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

- eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar;
- VII-asrdan IX-asrning birinchi yarmigacha o‘rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar;
- Sharq Uyg‘onish davrida (IX-XII-asrlar) pedagogik fikrlarning rivojlanishi;
- XIV-asrning ikkinchi yarmi va XVI-asrda Movarounnahrda tarbiya va maktab;
- XVII-asrdan XIX-asrning ikkinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- XIX-asrning ikkinchi yarmi XX-asrning birinchi choragida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji;
- 1924-1991-yillarda o‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji;
- mustaqil o‘zbekiston ta’lim tizimi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji;
- eng qadimgi davrlardan XIX-asrning birinchi yarmigacha jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi.

24.5. Eng qadimgi davrlardan VII-asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti

Eng qadimgi davrlarda ta’lim-tarbiyaga oid qimmatli ma’lumotlarni biz xalq og‘zaki ijodi namunalari – afsonalar, qahramonlik eposlari, qo‘shiqlar, maqol va iboralarda ham ko‘ramiz. Chunki xalq donishmandligining ko‘zgusi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo‘lgan tarbiya tajribalari umumlashgandir.

Ayniqsa, ibtidoiy kishilarning tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, odatlari, munosabatlari xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan sanalgan afsonalarda

ifodalangan. Afsonalar qahramonlari yaxshilik uchun yomonlik bilan, nur uchun zulmat bilan kurash olimb boradilar, yaxshilik va baxt-saodat o‘lkalarini yaratadilar. Ular eng qadimgi yodgorliklar «Avesto», Firdavsiyning «Shoxnoma» asari orqali bizgacha yetib kelgan namunalardir.

Miflar asosida yaratilgan afsonalar qahramonlik eposlari uchun zamin tayyorladi. Bu qahramonlik eposlarida vatan va erkinlikka bo‘lgan muhabbat, o‘z yurt iva jonajon qabilasi uchun jonini fido etish, shon-sharaf, or-nomus uchun kurash tuyg‘ulari ifodalanadi.

Bizgacha yetib kelgan epik rivoyatlarda ajdodlarimizning vatanparvarlik kurashi o‘z ifodasini topgan. Vatanini, xalqini sevish, or-nomus va do‘stlarga, safdoshlariga sadoqat kabi insoniy tuyg‘ular, burch hissi, vatani va xalqi uchun o‘z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatlarga bardosh berish – ularning asosiy xislatlaridir.

Jasurlik, kuchlilik, mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo‘lgan fazilat sanalgan.

Ayniqsa, tarixiy shaxslar bilan bog‘liq rivoyatlar buning dalilidir. Chunki ularda muayyan shaxs faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo‘lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, aql-idrok, vafo va muhabbat, sadoqat, adolat, odamiylik kabilar ulug‘langan.

VI-VII-asrlarda O‘rta Osiyoning shimoliy tomonida Turk hoqonligi vujudga kelib, Erondagi somoniylar bilan uzoq vaqt kurash olib bordi. Uning ta’siri O‘rta Osiyo xalqlariga nisbatan kuchaya bordi. O‘lkada qadimgi turk tili keng yoyildi.

Qadimgi davr kishilar ma’naviyati, jumladan, axloqi, qadimiy urf-odatlari, an’analari, ma’rifati, ta’lim-tarbiyasi haqidagi fikrlar xalq og‘zaki ijodida, masalan, Go‘ro‘g‘li, Alpomish haqidagi yaratilgan dostonlarda o‘z ifodasini topdi. Bu an’analar qadimgi so‘g‘d, manixey, Xorazm, turk yozuvlari namunalarida ham ifodalandi.

«Alpomish» dostonida xalqimizning qahramonona o‘tmishi – urug‘chilikning yemirilishi, chorvadorlar hayotida davlatchilikning paydo bo‘lishi davridagi munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy hayoti, udumlari, axloq-odobi, qardoshlik tuyg‘ulari, kurashi, o‘y-fikrlari, orzu-havaslari yorqin ifodalangan.

«Alpomish» dostoni turkiy xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan va sevib o‘qiladigan asarlardan biri bo‘lib qoldi. Bu doston qahramonlik, do‘stlik va birodarlik, vafodorlik hamda sadoqat haqidagi xalqning bir umrlik orzu umidlarini ifodalaganasar sifatida qimmatlidir.

Alpomishning qahramonligi zakot talab qilib kelgan akasi Boybo‘ridan arazlab, kashal eliga ko‘chibyu ketgan Boysari oilasi ustiga bostirib kelgan qalmoq Shohi Toychaxon lashkariga qarshi kurashda va ularni tor-mor qilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan:

Qaramay baland pastida,
Ot qo‘ydi qalmoq ustiga…
Yolg‘iz bo‘p unda yuradi,
Ko‘p qalmoqni o‘ldiradi,
Qilich-nayza sop ko‘radi.
Bu alpga ta’sir qilmadi,

Qalmoq aytgani bo‘lmadi,
Qalmoqlar fikr o‘yladi…
«Tig‘i olmos bunga botmas,
Urush qilgan omon ketmas,
Bu o‘zbek qanday jodugar,
YO bu kashmirmi, hiylagar?
Hech kim bo‘lmadi barobar,
Ursang botmaydi yaroqlar»…
Endi qolgan qalmoqlar
Qochmoqni ixtiyor qildi…[23]

Alpomishning adolatparvarligi qalmoqshoh lashkariga qarshi kurashda, oddiy odamlarga xayrixohligi da ko‘rinadi. Alpomish qalmoq yurtiga bosqinchilik maqsadida emas, balki qalmoqshoh tomonidan mol-mulki talangan, xizmatkor qilingan Boysarini Boysunga olib kelishi uchun boradi.

Eposlarda xotin-qizlarning fidoiyligi, jasorati, aql-idroki, erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko‘rsatganliklari ayniqsa yorqin ifodalangan.

Tarixdan ma’lumki, dastlab Amudaryo asosiy tarmog‘i Uzbey orqali kasbiy dengiziga quyilgan. Uning o‘ng qirg‘og‘idagi erlar Turon, chap qirg‘og‘idagi erlar esa Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldingi ahamoniylar saklar vamassagetlar qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqealar sak va massagetlarning eposlarida o‘z ifodasini topgan.

Eron shohi Kir ko‘chmanchi sak, massaget qabilalariga qarshi urishib mag‘lubiyatga uchraydi va 529-yilda halok bo‘ladi. Tarixchilar sak va massagetlar Kir va uning qo‘Shinlarini avval o‘z hududlarining ancha ichkarisiga bostirib kirishiga imkon berib, keyin uning qo‘shinining katta qismini qirib tashlaganliklari haqida ma’lumot beradi.

Polienning «Harbiy hiylalar» asarida shunday rivoyat keltiriladi:

Saklarga qarshi Doro bosqinchilik yurishini boshlaydi. Qabila boshliqlari Saksfar, Omart, To‘marislar dushmanga qarshi chora ko‘rish yuzasidan maslahatlashib o‘tirganda yilqichi shiroq kirib keladi va Eron qo‘shinini yo‘q qilish rejasini bayon qiladi. U o‘z jonidan kechib, o‘z rejasini amalga oshirishi mumkin edi. Shuning uchun saklar boshliqlaridan u halok bo‘lgandan so‘ng, uning bolalariga g‘amxo‘rlik qilishni so‘raydi. Ular rozi bo‘lgach, yonidagi tig‘ini olib, o‘zining quloq, burnini kesadi, badanini yaralaydi. So‘ng Doro qoshiga borib, o‘zini saklardan jabr ko‘rgan qilib ko‘rsatadi va saklardan o‘ch olish uchun ularga yordam berishga, Doro qo‘shinini faqat o‘zi biladigan so‘qmoq yo‘l bilan saklar qarorgohiga boshlab borishga eng muqaddas suv va o‘t nomi bilan qasamyod qiladi. Doro uning qasamyodiga ishonadi. Shiroq ularga faqatgina etti kunlik oziq-ovqat olishni uqtiradi, etti kun ichida bemalol manzilga etib borishlarini aytadi. Shiroq qo‘shinni boshlab ketadi. Etti kun o‘tgandan keyin Doro qo‘shini oziq-ovqatsiz, suvsiz qolib, cho‘lning qoq o‘rtasida halokat yoqasida turardi. Ularning na orqaga qaytishga, na oldinga yurishga majoli qolmagan edi. Shoh yo‘l boshlovchini ushlashga buyuradi. Shiroq esa qah-qah otib kuladi va, – Men sizlarni

[23] Alpomish, Rustamxon. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 158-159-b.

ochlik va tashnalikda qoldirib, g‘alabaga erishdim, o‘z hamyurtlarimni boshidan kulfatni daf etishga muvaffaq bo‘ldim, – deydi. Shiroq halok bo‘ladi. Lekin, o‘z qabilasini bosqinchilar hujumidan saqlab qoladi. Tasodifan yoqqan yomg‘ir tufayligina shoh lashkarining bir qismi jon saqlab qoladi va orqaga chekinadi.

Bu rivoyatdagi shiroq vatanparvarlik va qahramonlik, o‘z yurtini benihoya sevuvchi timsoli sifatida ko‘z oldimizda gavdalanadi.

Gerodotning «Tarix» kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori To‘maris va Eron Shohi Kir haqidagi rivoyatlar ham o‘ziga xosdir.

Demak, xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari bu kabi rivoyat va dostonlarda, eng qadimgi epik yodgorliklarda, mif va afsonalarda saqlanib bizgacha yetib kelgan.

24.6. Eng qadimgi yozma manbalarda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi

«Avesto» (asli «Ovasto») so‘zi «Ogohnoma», «Donishnoma» degan ma’nolarni ifodalaydi. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, o‘z davrida o‘sha paytlarda bu dinga e’tiqod qiluvchilar uchun muqaddas kitob sanalgan va unga bir necha ming yillar davomida ixlos bilan amal qilib kelganlar.[24] Hozir esa, bu kitob ajdodlarimiz madaniyati va ma’naviy qadriyatlaridan darak beruvchi, jahon tamadduniga (sivilizatsiyasiga) muhim hissa qo‘shgan, olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan ona yurtimizning eng qadimgi, eng mo‘‘tabar, eng nodir, madaniy tarixiy, ma’rifiy yodgorligi sifatida o‘rganiladi.

«Avesto» uzoq davrlar mobaynida – miloddan oldingi 3 ming yillikning oxirlaridan boshlab og‘zaki tarzda shakllanib avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Muqaddas «Avesto» ning yozuvlari turli davrlarda yozilgan va bu yozuvlar har xil ijtimoiy muhitning mahsuli blgan. Ularni miloddan avvalgi XII-VIII-asrlar orasida Xorazmda tug‘ilib o‘sgan zardushtra (zardusht) bir tizimga solib, o‘zi ham «Avesto»ning «Gohlar» («Gotlar») qismin yozib kitobat qilgan va «zardushtiyya» diniga asos solgan. Ya’ni, zardusht o‘sha davrdagi ko‘pxudolik g‘oyalari va u g‘oya bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat va diniy marosimlarga qarshi chiqib yakkaxudolik g‘oyalarini targ‘ib etadi.

Abu Rayhon Beruniy ham zardushtrani insoniyatni ko‘pxudolik (poleteizm)dan yakka xudolik (monotiezm)ga targ‘ib etgan ilk payg‘ambarlardan biri bo‘lgan, deb ta’riflagan.

Ko‘pxudolik bilan bog‘liq bo‘lgan dahshatli odatlardan biri insonlarni qurbonlikka so‘yish bo‘lgan. Tarixning ana shunday chirkin, dahshatli davrlarida insoniyat xaloskori sifatida vatanimiz va millatimiz iftixori bo‘lmish zardusht mardlarcha maydonga chiqdi. Zardusht insoniyat hayoti uchun g‘oyat zararli bo‘lgan ko‘pxudolik e’tiqodlarining g‘ayriinsoniy mohiyatini chuqur anglab etdi va o‘z bilimlarini yakayu yagona Oliy Tangri – Ahura Mazda (Xurmuzd) vahiylari bilan boyitib, insoniyat ongi va mafkurasida inqilob yasab, o‘tmishning bunday dahshatli chirkin sarqitlariga bolta urub chil-parchin qilib tashladi va kishilik jamiyatining ma’naviy taraqqiyotini yangi yo‘nalishga soldi.

[24] Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Movarounnahr, 2002, 720 bet.

Uning ta’limoti, siymosi, uning nomi bilan ataladigan «zardushtiylik» dini insonlarga asrlar bo‘yi ma’naviy madad, ruhiy oziq bo‘lib xizmat qildi. «Avesto» dagi alqov qo‘Shiqlari, sanolar bashariyat tomonidan uzoq-uzoq yillar mobaynida qiroat bilan kuylab kelindi va insonlarda kelajakka umid, yaxshilik, ezgulik, mardlik, qahramonlik, pokizalik, rostgo‘ylik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, yovuzlikka nisbatan esa nafrat hissini uyg‘otishga xizmat qildi va mamlakatlar bo‘ylab keng tarqaldi. Jumladan, qadimgi Parfiya, Baqrtiya, So‘g‘diyona, Parkana, Ozarbayjon, Eron, Xuroson, Iroq, Mug‘ilistondan tortib to Suriya, Xitoy, shimoliy Hindiston, Rum, habashiston va boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning «Gohlar» («Gotlar») qismini o‘zi yozadi, kitobning qolgan qismini esa xalq og‘zaki ijodini bir tizimga soladi.

Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn mil. Avv. 330-yilda ahamoniylar imperiyasini mag‘lub etgach, insonlarni xaniflikka, yakkaxudolikka targ‘ib qilib, otashxonalarni vayron etgan. Olimlarga «Avesto»dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o‘rinlarini tarjima qilib qoldirib, qolgan ko‘pxudolik qismini yoqib yuborishni buyurgan.

O‘tmishda «Avesto» va zardushtning vatani qaerda bo‘lganligi to‘g‘risida olimlar o‘rtasida bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan. Pirovardida o‘ttizdan oshiq chet ellik mashhur avestoshunos olimlar va o‘zimizning qadimshunos, tarixchi, avestoshunos tadqiqotchi olimlarimiz «Avesto» va zardushtiylik dinining asoschisi zardushtning vatani **O‘zbekiston, Xorazm** deb qat’iy bir to‘xtamga kelganlar. Olimlarning bunday yakdillik bilan chiqargan xulosalarini bmtning maorif va madaniyat bo‘limi – YUNESKO ham tasdiqlagan.[1]

Ushbu fikrni o‘z o‘rnida yurtboshimiz ham ta’kidlab o‘tganlar: «Avesto eng mo‘‘tabar, qadimiy qo‘lyozmamiz… Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana Shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir».[2]

«Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lishi bilan birga, ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo‘yicha mukammal ma’lumot beradigan ulkan, eng ko‘hna manba hisoblanadi. Unda eramizdan oldingi ikki minginchi yillardan tortib to oltinchi asrgacha bo‘lgan davrdagi Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma’lumotlar bor. Bundan tashqari ushbu obidada iqtisodiy hayot, jo‘g‘rofiya, falakiyot, ilmi nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga doir ko‘p qimmatli ma’lumotlar mavjud.

«Avesto»da olov, tuproq, suv va havomuqaddas hisoblangan. Unga ko‘ra er, suv, zamin, xona, badan, kiyim-kechak, oziq-ovqatlarni ozoda tutish va saqlashga alohida e’tibor berilgan. Erni iflos qilgan va uni asrlash qoidalarini buzgan shaxslar 400 qamchi urish bilan jazolangan. «Avesto»dagi muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

[1] Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Movarounnahr, 2002, 219 bet.
[2] Karimov I.A. Adolatli jamiyat sari. – T.: 1998, 39-40-b.

1. Axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko‘mib tashlash. Shu yo‘l bilan mikroblar o‘ldirilgan yoki kamaygan.

2. Otash, issiqlik va sovuqlik yo‘li bilan yo‘qotish. «Avesto»da otash poklovchi va ofat ketkazuvchi vosita. U bilan hatto kiyim-kechaklarni zararsizlantirilgan.

3. Kimyoviy yo‘l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar tutatish yo‘li bilan.

«Avesto»da doimiy badantarbiya bilan shug‘ullanish, kunda yuz-qo‘lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi.

«Avesto»dan namunalar

Har bir inson o‘zi o‘sib-ulg‘aygan zaminini eng yaxshi va go‘zal mamlakat deb tushunmog‘i kerak.

Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi (tayanchi) bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o‘qishni va so‘ngra esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin.

Bolalar yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tkazish, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, erga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilishi shart.

Yaxshilik va ezgulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o‘z qo‘llari bilan moddiy noz-ne’matlar yaratishi lozim.

Inson butun umri davomida suv, toproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga haqlidir.

Yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 kishi qamchi urish jazosiga mahkumdir.

Yaxshilik ta’limini va sadoqatini amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinlar.

Ezgu o‘y, ezgu so‘z va savob ishlarni alqayman. O‘zimni barcha ezgu o‘ylarga, ezgu so‘zlar aytishga, yaxshilik ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon yo‘lardan yomon so‘zu yomon ishlardan yuz o‘giraman.

Qadimgi Xorazm, So‘g‘d, uyg‘ur, turkiy-run yozuvlarining ta’lim-tarbiyani rivojlantirishdagi o‘rni

Hozirgi o‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanishda ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug‘chilik, qabilachilik davrlariga kelib xo‘jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarmizning boy qadimiy madaniyatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqrtiya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o‘lkalarda turli qabila va elatlar yashagan. Bular hozirgi o‘zbek xalqining «ildizi» hisoblangan sak-massagetlar, so‘g‘diyonlar, xorazmiylar, baxtarlar, chochliklar va parkanaliklar kabi qabila va elatlar edi. Keyinchalik ular o‘zaro va boshqa ko‘plab qabila va urug‘lar bilan birlashib ketgan va hozirgi Markaziy Osiyo hududtdagi xalqlarning ajdodlaridir.

Bu elatlar yashagan hududlarda o‘ziga xos madaniy an’analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi birinchi asrlarning birinchi yarmida qadimiy davlatlar – Baqtriya va So‘g‘diyona, Xorazm, Marg‘iyona, Parkana, Parfiya kabi o‘lkalarda xalq xo‘jaligining turli sohalaridagi rivojlanish bilan birga madaniyat ham o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu taraqqiyot eramizdan oldingi IX-VI-asrlarda paydo bo‘lgan Ahamoniylar hukmronligi, keyinroq eramizdan avvalgi III-asr o‘rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya davlati, eramizning I-asrida esa kushonlar davlati, V-asrda Eftalitlar hukmronligi, so‘ngra sosoniylar emperiyasi va nihoyat, turk hoqonligi davrlarini o‘z ichiga oladi.

Ajdodlarimizning bu qadimiy madaniyatiga ta’lim-tarbiyaga oid boy meros ham kiradi. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha etib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilik, adabiyot va san’at namoyandalarining ijodiy merosi, san’at va adabiyot namunalari buning dalilidir.

Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan ma’lumotlarga qaraganda, eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lish namunasi ifodalangan ma’naviy madaniyat yodgorliklari, qadimgi grek tarixchisi Gerodotning «Tarix», Strabonning «Geografiya» asarlari, Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk», Urxun-Enasoy bitiklari va boshqa shu kabi adabiy-tarixiy manbalar saqlangan va shular orqali bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta’sir etgan bo‘lsa, insonning shakllana borishi ham, o‘z navbatida, insoniyat jamiyatining tarkib topa borishiga yordam bergan. Xullas, insonning o‘z-o‘zini anglashi va jamiyat taraqqiyoti bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Bu tarixiy jarayonni bilish inson tafakkurining qadimgi davrlardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanishi va shu bilan birga insonning ham tobora shakllana borganligi haqida to‘la tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga bolalarga dalalarni o‘lchash, suv toshqinlarining oldini olish, odamlarni davolash usullariga oid bilimlar berish ishlari avj oldi. Natijada maktablarga va yozuvga ehtiyoj sezila boshlaydi. Dastlab suratkashlik rivojlanib, piktografik xat (juda qadimgi tasviriy yozuv) paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik qo‘shni mamlakatlardan kirib kelgan harf bilan yozish usuli paydo bo‘ladi va tez tarqala boshlaydi.

Tadqiqotchilar eramizdan oldingi birinchi ming yillik o‘rtalarida oromiy yozuvi, Aleksandr Makedonskiy istilosidan so‘ng esa yunon yozuvi va shu bilan birga forsiy mixxat ham ma’lum vaqtlarda qo‘llanib kelinganini ta’kidlaydilar. O‘sha davrda Xorazm, So‘g‘d, kushan, Run (Urxun-Enisey), uyg‘ur va boshqa yozuvlar paydo bo‘lgan va bu yuksalish ta’lim-tarbiyaning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki inson ibtidoiy jamoa bo‘lib yashash tarzini asta-sekin rivojlantirib borib, jahon madaniyatida katta kashfiyotlar yaratdi. Chunonchi, Xitoyda qog‘ozning ixtiro etilishi, Hindistonda hisoblash o‘nlik sistemasining paydo bo‘lishi, Mesopotamiyada yer kurrasini graduslarga, sutkani soat, daqiqa va

soniyalarga bo‘lishning joriy etilishi, Markaziy Osiyoda O‘rta dengiz bilan Hindistonni bog‘lovchi karvon yo‘liningvujudga kelishi, keyin Markaziy Osiyo orqali Xitoydan O‘rta dengizga «Buyuk ipak yo‘li»ning ochilishi kabi muhim voqealar madaniyatning taraqqiy etishi va yozuvning tarqalishiga sabab bo‘ldi.

Demak, eramizning boshlarida hozirgi Markaziy Osiyo hududida biz yuqorida sanab o‘tgan, yunon va oromiy alifbosi asosida Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya yozuvlari shakllangan.

Eramizdan oldin taxminan 484 (480)-431 (425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta’lim-tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma’lumotlar berilgan:

Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir, – deydi olim, – shunga ko‘ra ular ko‘proq o‘g‘illarga ega bo‘lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o‘g‘li ko‘p bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari, bolalarning yoshiga ham e’tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurishga, kamondan otish, to‘g‘rilikka o‘tgatishgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan. Mabodo o‘g‘il bola vafot etsa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar.

O‘g‘il hech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onaga hurmatsizlikni faqat nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardan kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari Gerodot forslar uchun yolg‘onchilik va qarzdor bo‘lish Sharmandalik hisoblangan, deydi… yana ular daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo‘l yuvmaganlar. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar.

Gerodotning bu ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz farzandlarinini jasoratli, o‘z vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir etib tarbiyalashga katta e’tibor berganlar. Erkaklargina emas, hatto ayollar ham jasorat ko‘rsatgani yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan.

Plutarxning yozishicha, Aleksandr yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy aholi urf-odatlarini aralashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o‘ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va harbiy san’atini o‘rgatishga murabbiylar tayinlashga buyruq bergan.

Keyinchalik yunon alifbosining bu yurtda qabul qilinishi, o‘sha davrda ko‘plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o‘qitilganidan alolat beradi. Yoki So‘g‘d yozma yodgorliklari orasida «Eski xatlar» nomi bilan yuritiladigan va V.B.Xenning tomonidan aniqlangan qimmatli manbalar bor. Bu xatlar eramizningboshlaridagi so‘g‘d yozuvi haqida ma’lumot beradi. «Eski xatlar» Dunxuan Shahri (sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog‘ida yashagan so‘g‘dlik tijorat, savdo ahlining Samarqandga – o‘z ona yurtiga yozgan Shaxsiy xatlaridir.

Imperator Yan Di (615-617)ning elchisi Vey Szi hisobotlarida ham Samarqandda ta’lim-tarbiya haqida ma’lumotlar mavjud. «Aholisi (Samarqandning demoqchi) – mohir savdogarlardir. O‘g‘il bola besh yoshga to‘lar ekan, unga savod o‘rgata boshlaydilar; o‘qishni o‘rganishi bilan savdo ishlariga o‘rgata boshlaydilar». Boshqa bir xitoy tarixchisi Syuan-Szin esa Samarqand aholisining

axloqiy va xulq-odob qoidalariga rioya etishda boshqalarga o‘rnak bo‘lganliklarini aytib o‘tgan. Bu ma’lumotlar qadimda bolalar o‘qitiladigan savod maktablari bo‘lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-ismoniy mashqlarga va hunarga o‘rgatilganligi, ta’limdan maqsad – bolalarni hayotga tayyorlash ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Turk hoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi, vorisi bo‘lgan uyg‘urlar juda katta meros – o‘sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar qoldirganlar. Bu yodgorliklar birin-ketin yozilganligi – xronologik jihatdan ikki davrga bo‘linadi. Birinchi davrga xos obidalar eng qadimgi yodgorliklar bo‘lib, ular urxun yozuvi obidalari bilan umumiylikka ega bo‘lgan bitiktoshlardan iborat. Ikkinchi davrga tegishli yodgorliklarga esa so‘g‘d yozuvi asosida shaklangan uyg‘ur yozuvida bitlgan matnlar kiradi.

Urxun-Enasoy obidalari, ularning ma’rifiy ahamiyati.

Ajdodlarimizning qadimiy madaniyatiga, ta’lim-tarbiyaga oid yozma yodgorliklar sarasiga Urxun-Enasoy yodgorliklari kiradi. Turk hoqonligi tarkibiga kirgan turkiy Urug‘lar va ularning madaniyati Urxun-Enasoy yodgorliklari orqali aniqlangan. Urxun-Enasoy yodgorliklarining ko‘pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular asosan Urxun daryosi bo‘ylaridan, Enasoy daryosining yuqori qismidan, Qirg‘izistondagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal ko‘li atroflari, Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

Urxun-Enasoy yodgorliklari asosan toshlarga o‘yib bitilgan yozuvlardan, idish, tanga kabi buyumlarda va qog‘ozlarda yozilgan bitiklardan iborat bo‘lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o‘qilishi jumboq bo‘lib qoladi. Shunga ko‘ra u qadimgi skandinav-germat tillariga oid run, runiy yozuvi nomibilan ham yuritiladi. Faqat XIX-asrning 90-yillarida bu yozuvni dastlab daniyalik olim V.Tomsen va rus turkshunosi V.V.Radlov o‘qiyilar. Ular bu yodgorliklarni turkiy xalqlarga tegishli ekanligini aniqlab beradilar.

Urxun-Enasoy yozuvi bilan bitilgan eng yirik obidalarga quyidagilar kiradi:

1. O‘ngin (ongin) bitiktoshi – eng qadimiy va yirik yodnoma bo‘lib, 689-yoki 692-yillarga tegishli.
2. Tunyuquq bitiktoshi – 712-716-yillarda toshga o‘yib bitilgan.
3. Kul tegin bitiktoshi – 732-yilga tegishli bo‘lib, juda yaxshi saqlangan. Urxun daryosining Ko‘kshin irmog‘idan topilgan.
4. Bilga hoqon bitiktoshi – Kul tegin bitiktoshi bilan birga topilgan.
5. Quli chur bitiktoshi – VIII-asrga tegishli.
6. Moyun chur bitiktoshi – VIII-asrga (taxminan 759-yillar) tegishli.
7. Irq bitigi (folnoma).

Bu bitiktoshlar VII-VIII-asrlarga tegishli bo‘lib, turk hoqonligi davrida runiy yozuvida bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turai. So‘g‘diy yozuvi asosida paydo bo‘lgan

Qadimgi turkiy run yozuvi G‘arbiy va sharqiy turk hoqonligida keng tarqalgan edi.

24.7. Pedagogika tarixida gender tenglik masalalari va ularning rivojlanish bosqichlari

Pedagogika tarixida gender tenglik masalalari, ya’ni ta’lim-tarbiya jarayonida jamiyatda ayollar va erkaklarning o‘rni va mavqei, qadim davrlarda oiladagi farzand tarbiyasining rivojlanish bosqichlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Insoniyat tarixining guvohlik berishicha, jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Ming yillar davomida O‘rta Osiyo hududida ayollar hurmat va e’zozda bo‘lishgan bo‘lsa-da, ammo turli ob’ektiv va sub’ektiv omillar bois, o‘tmish haqidagi ma’lumotlarni ifoda etadigan tarixiy manbalarda, Sharq ayoli o‘tmishda qoloq hayot tarzi girdobida umr kechirgan, degan xulosalar o‘rin olgan edi. Shunday g‘arazli tasavvurlarning ildiz otishiga sabab bo‘lgan holatlardan biri, o‘zimizda haqiqiy manzarani tadqiq etishdagi havsalasizlik hisoblanadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgacha uzoq asrlar davomida ayollarning jamiyatdagi o‘rni yetarlicha o‘rganilgani yo‘q. Turli fanlar olimlari tomonidan tarixiy qo‘lyozma asarlar, moddiy yodgorliklar va boshqa manbalar orqali bu muammoni tadqiq qilishlari bugungi rivojlanish bosqichining dolzarb vazifasidir.

O‘rta Osiyo xalqlarining o‘tmishini o‘rganish va unda ayollarning tutgan o‘rni, maqomi va albatta ma’rifati darajasini aniqlash o‘sha davrning madaniyati va ma’naviyati darajasini ham belgilashga zamin yaratadi. Shu o‘rinda, bugungi O‘rta Osiyo ayolining jahon miqyosida topayotgan shuhrati, ularning ilm sohasida, iqtisodiyot, ma’naviy-ma’rifiy sohada qilayotgan mehnatlari, yurt taraqqiyotiga qo‘shayotgan sezilarli hissalarini alohida ta’kidlab, ularning o‘tmishda ham shunday ajdodlari borligini faxr va g‘urur to‘yg‘usiga aylantirish hayotiy zaruratga aylangani ayni haqiqatdir.

Madaniyat va ma’rifat doirasida ayollarning ta’lim ko‘rsatkichlarini tahlil qilish pedagogika tarixini yoritishda juda katta ahamiyatga molikdir. Zero hozirgacha ayollar ta’limi rivojlanishining barcha bosqichlarini qamrab olgan yaxlit, keng qamrovli, fundamental tadqiqotlar mavjud emas. Qolaversa, qadimgi Sharq ayollari hayoti, ta’lim va tarbiyasining eng qadimiy bosqichlari haqida esa, ma’lumot juda kam. Vaholanki, Sharq ayollari qadim zamonlardan boshlab ta’lim va tarbiya sohasida o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lganliklariga taxminlar qilish uchun tarixiy ma’lumotlar, arxelogik topilmalar va boshqa birlamchi manbalar anchagina yig‘ilgan. Ushbu rivojlanish dialektikasi ayollar ta’limi tarixining pedagogik jihatlari umumiy pedagogikaning ajralmas qismi hisoblanib, O‘rta Osiyo xalqlariga tegishli ma’lumotlari fan tomonidan hamon to‘liq o‘rganilmagan.

“Ayollar Eronning qadimgi tarixida” nomlangan kitob muallifining ta’kidlashicha, “Ko‘chmanchi turmush tarzi, dehqonchilik, odamlarning serhosil yerlarni qidirib aylanib yurishi, ularning zo‘ravonlik va qon to‘kilishlardan qochishi, asta-sekin erkaklarni mudofaa kuchiga aylantirib, ayollarni bolalar boquvchisi va tarbiyachisiga, qabila rahbariyatidagi oqsoqollarning buyruqlarini bajaruvchisiga aylantiradi”.[25]

[25] Маҳди Иқболий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. –11 б.

O‘rta Osiyo aholisining ta’lim va tarbiya muammolari qadim zamonlardan boshlab milliy an’analar, ma’naviy asoslar va xulq-atvorning umumbashariy e’tirof etilgan me’yorlar bilan bog‘liq edi. Qadimgi davrlarda, erkak va ayol o‘rtasidagi vazifalar taqsimlanishi sari ayol asta-sekin alohida va muhim maqom – o‘choq saqlovchisi maqomiga ega bo‘ldi. Tarixiy o‘lchovning o‘rta va dastlabki paleolit davrining oxirida kommunaning birinchi belgilari – qabilaviy jamoalar paydo bo‘ldi. Bu ayollar yuqori mavqega ega bo‘lgan matriarxal tizim edi. Aynan shu davrda tarbiya va ta’limning dastlabki tashkiliy shakllari, ya’ni maktablar eng qadimiy prototiplari ko‘rinishida paydo bo‘ldi.

Qadimgi davrlarda O‘rta Osiyo hududida yashovchi ajdodlarimizning zardushtiylik vujudga kelgan paytdan boshlab shakllangan pedagogikasi tarixida ayol erkak bilan bir xil mavqega ega bo‘lgan va qisman hatto uy tutish va bolalarni tarbiyalashda ba’zi afzalliklar ular tomonga o‘tgan. Tarbiya maktabi va qisman ta’lim ham ayol yetakchi bo‘lgan oiladan kelib chiqqan.

Mavjud manba va adabiyotlarda pedagogik va tarixiy yo‘nalish tadqiqotchilari tomonidan masalaning ba’zi jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, alohida mavzu sifatida o‘rganish ob’yektiga aylantirilmagan. Ilmiy va ilmiy–ommabop adabiyotlarning aksariyati shu paytgacha ayollar ta’lim jarayonining erkaklarnikidan tubdan farq qiladigan xususiyatlarini aniq tavsiflamay turib, umuman u yoki bu ta’lim yo‘nalishini o‘rganishga to‘xtalib o‘tishgan. Sharq ayollarining savodxonligi va ma’lumoti to‘g‘risidagi axborotlar turli xil manbalarda tarqalgan, biroq, ularning aksariyati tizimlashtirilmagan holda uchraydi.

Ma’lumki azaldan ayollar eng yaxshi an’anaviy qo‘shiqlar, go‘daklar uchun hikoyalar, ertak va afsonalar, hatto kichik she’rlar va boshqa she’rlarni avloddan-avlodga o‘tkazishda asosiy va jonli vosita bo‘lishgan. O‘sib kelayotgan bolalarda axloqiy va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda esa, ibratli hikoyalar va rivoyatlar alohida va ta’sirli kuchga ekanligi barchaga ayon. Qolaversa, oila hamisha bolalarni yoshligidan milliy urf-odatlar asosida tarbiyalagan.

24.8. «Avesto» eng qadimgi yozma yodgorlik sifatida

Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o`rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko`plab afsona va rivoyatlar yaratilgan bo`lib, ular avloddan avlodga og`zaki va yozma ravishda o`tib borgan. Agar ushbu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto” asari mundarijasidan o`rin olmaganda edi, biz ular haqida hech qanday ma'lumotga ega bo`lolmagan bo`lardik. “Avesto” asari kim tomonidan yaratilgani borasida turli qarashlar mavjud bo`lib, mashhur sharqshunos olim E.E.Bertelsning fikriga ko`ra, ushbu asar 1278-yilda Rayd Zardusht ibn Bahrom ibn Pajdu degan kishi tomonidan yozilgan. Mazkur fikr “Zardushtnoma” dostonida bayon etilgan ayrim fikrlar asosida yuzaga kelgan. Xususan, dostonda Avesto va Zendni Zardusht dunyoga keltirgani, uning tug`ilishi va keyingi hayoti xususidagi ma'lumotlar keltiriladi. Ya'ni, Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570-yilda tug`ilgan bo`lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman qohinlaridan biri tomonidan o`ldirilgan. Zardusht o`z davrida ikki xudolik g`oyasini ko`tarib chiqadi. Asta-sekin u

payg`ambar darajasiga ko`tariladi va o`zini Axura-Mazda, ya'ni, Oliy Tangri elchisi deya e'lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosi tarzida ikiga bo`ladi. Bu ikki dunyo o`rtasida bir-biriga qarama-qarshi g`oyalar ustuvor bo`lib, ular o`rtasida doimo kurash ketadi.

Zardusht tomonidan asoslangan din uning hayotligidayoq ko`plab o`lkalarga yoyiladi. Biroq, Zardusht vafot etganidan so`ng zardushtiylik dinining g`oyalari yanada keng yoyila boshlaydi. “Avesto” asari eramizdan avvalgi VI-asrning oxiri va IV-asrning boshlarida yaratilgan bo`lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o`tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to`liq kitob holida shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi asrga to`g`ri kelishi barcha manbalarda alohida qayd etiladi. G`arb, rus va o`zbek olimlari mazkur asar mazmunini har tomonlama tahlil etishga harakat qilishgan. Zero, “Avesto” asarida inson shaxsining kamolotga erishishiga oid ma'rifiy fikrlar ma'lum bir tizimda ifoda etilgandir. Mazkur asar g`oyalari orqali qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy hamda ijtimoiy qarashlari borasida muhim ma'lumotlarga ega bo`lamiz. «Avesto» diniy xarakterga ega bo`lish bilan birga o`zida falsafiy, siyosiy, filologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni ham qamrab olgan asardir. Abu Rayhon Beruniy o`zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida zardushtiylik dini qadimgi Xuroson, Fors, Iroq va Balxdan tortib Suriya yerlarigacha tarqalganligini aytadi.

Ozarbayjon olimi M. Rafiliy esa “Muxtasar Ozarbayjon adabiyoti tarixi” kitobida (1-jild, Baku, 1943, 2-3-betlar) “Avesto”ni faqat Ozarbayjon adabiyotining ma'naviy merosi deb e'tirof etadi. Tarixchi olim V.M.Avdievning fikriga ko`ra, “Avesto” nomli qadimgi diniy to`plamning dastlabki qismlari aynan O`rta Osiyo hududida vujudga kelgan, deyish uchun barcha asoslar yetarli. Zero, asarda keltirilgan ayrim rivoyatlar bu haqida dalolat beradi. Rivoyatlarda aytilishicha, zardushtiylik dinining birinchi “Muqaddas olovi” Xorazmda yoqilgan. “Avesto” asarida tasvirlangan “Ayriana Vayjo” mamlakati Xorazm bo`lgan bo`lishi mumkin. Bu mamlakatda Axura-Mazda Zardushtga ko`rinish bergan. “Ayriana Vayjo” degan afsonaviy mamlakatning “Avesto” asarida saqlanib qolgan tasviri Xorazmning geografik sharoitlariga to`la muvofiq keladi. S.P.Tolstov ham “Avesto”ning eng qadimgi zamonga oid qismi Markaziy Osiyo (Xorazm)da eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning birinchi yarmida yozilgan deb qayd etadi. “Avesto”da xudolar va qahramonlar to`g`risidagi xalq epik afsonalariga oid juda ko`p qimmatli ma'lumotlar jamlangan.

Asarda tasvirlangan xudo va qahramonlar O`rta Osiyo mamlakatlari va ularga qo`shni bo`lgan Eron va Afg`oniston o`lkalarida ish ko`radilar. “Avesto”da keltirilgan madhiyalarda shunday bir o`lka tasvirlanadiki, unda: “Bir talay qo`shinga qudratli yo`lboshchilar bosh bo`lgan, keng o`tloqlari va suvlari ko`p bo`lgan, baland tog`lari chorvachilik uchun zarur hamma narsani etishtiradi, unda chuqur-chuqur va sersuv ko`llar, kemalar yurib turadigan keng daryolar Iskat va Pourta, Mour (Marv), Xarova (Hirot), Gou So`g`d va Xvoyrezm (Xorazm) tomoniga pishqirib oqadilar (Yasht X, 14)”. Bunda zikr etilgan joylarning ta'rifi va nomlari boshqa qator jihatlari bilan birga qadimgi Zardusht dinining xuddi shu erda, Amudaryo havzasida vujudga kelganiga shubha qoldirmaydi. Zardusht

eramizdan avvalgi VI-asrda yashagan. Xorazmda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug`idan bo`lgan. Otasi Paurushasp, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug`ullanganlar.

Zardusht ko`p xudolikka sig`inish hamda ko`plab qurbonliklar qilinishi natijasida mollar qirilib ketayotganligi, shuningdek, turli qabilalar o`rtasida nizolar kelib chiqayotganligini ko`rib, uning oldini olish choralarini izlaydi va ana shu maqsadda o`z ta'limotini targ`ib qila boshlaydi. Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti va unda ilgari surilgan g`oyalar yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko`pxudolikka qarshi yakka xudolikni targ`ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o`rnatib, yer yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura Mazdani himoya qiladi.

Zardushtning yangi ta'limotini qabila a'zolari orasida targ`ib qilishini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. Ana shu ta'qib tufayli u Ray (Eron)ga qochadi va o`z dinining o`sha yerda to`laqonli shakllantirishga muvaffaq bo`ladi. “Avesto”ni shoh Vishtasp (Gushtasp)ga taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning homiysiga aylanadi. Vishtaspning farmoniga binoan otashxona - ibodatxonalar qurdiriladi, zardushtiylik dinining g`oyalari keng yoyila boshlaydi. Zardusht shoh Gushtasp vazirining qizi Havoviga uylangani, undan uch o`g`il – Istavatra, Urvatatnara, Xvarachitra va uch qiz – Freni, Triti, Pourichistalarni ko`rganligini qayd etadi. Vishtaspning farmoniga ko`ra 1200 bobdan iborat “Avesto”ni oltin taxtga yozdirilib, shoh otashkadasiga topshiriladi. “Avesto”ning kitob holidagi matni eramizdan oldin o`n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan. Bu nusxa Iskandar Makedonskiy istilosiga qadar Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, “Avesto” kitobida bayon etilgan tibbiyot, nujum, ilmi hikmat sohalariga oid g`oyalarni yunon tiliga tarjima qilinib, qolgan fikrlar bitilgan sahifalar yoqib yuboriladi. Zardushtning mazkur kitobi bizga qadar ikki nusxada etib kelgan. Mazkur nusxalarning birinchisi –duolar to`plamidan iborat bo`lib, “Vendidat-sede, ya'ni, “Pok Vendidat” deb ataladi. Ushbu kitobga “Yasna” va “Vispered”lar kiritilgan. Ikkinchi kitobda ham birinchisi kitobdagi kabi “Vendidat”, “Yasna” va “Vispered”lar o`rin olib, unda sharhlar ham beriladi. Izohli tarjima “Zand” (sharh ma'nosida) deb ataladi. Shuning uchun ham asarning sharhli nusxasi “Avesto va Zand” yoki “Zand Avesto” deb nomlangan.

Ikkinchi variantiga binoan “Avesto” asari quyidagi qismlardan tashkil topgan:

1. “Vendidat”. Mazkur qism 22 bobdan iborat bo`lib, asosan, Axura Mazda bilan Zardushtning o`rtasida kechgan savol-javobi shaklida yozilgan. U yomon ruhlarni, devlarni engish voqealari, gunohlardan pok bo`lish qoidalari hamda mifologik unsurlarni o`z ichiga oladi. Xarakterli jiqati so`z yuritilayotgan qismda devlarga qarshi yaratilgan qonun matni, ya'ni, qonunnoma mazmuni yoritilgan. qonunnomada aytilishicha, yomonlik timsoli bo`lgan devlarga nisbatan nafrat bilan qarash darkor.

Axura Mazda yurtda yaxshilik, xayrli ishlarni yuzaga keltirsa, Anhra Manu (Axriman) o`z yurtida yomonlikni qaror toptiradi.

2. “Vispered”. U 24 bobdan iborat bo`lib, ibodat qo`shiqlarini o`z ichiga oladi

3. “Yasna”. Yasnalar 72 bobdan iborat. Diniy ibodatlarni o`tkazish chog`ida, shuningdek, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo`shiqlar, xudolarga bag`ishlangan madhiyalar va boshqalar yasnalarni tashkil etgan. Ushbu qismning 17-bobi Gotlar deb yuritiladi. Gotlar “Avesto”ning eng qadimgi qismlari sanaladi.

4. Yashtlar. Yashtlar zardushtiylik dinining xudolari va ma'budalari sharafiga aytilgan 22 qo`shiq (gimn)larni o`z ichiga oladi.

5. Kichik Avesto (Xurda Avesto, Xvartak-apastak). quyosh, Oy, Ardvisura, Mitra, olov va boshqa xudo hamda ma'budalar sharafiga bag`ishlangan kichik ibodat (gimn) matnlaridan iborat.

Zardushtiylik dinining g`oyalari xususida so`z borganda, ularning to`g`rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o`tish lozim. Inson va uning jamiyatda tutgan o`rniga nisbatan munosabat masalasi “got”lar mazmunida o`z ifodasini topgan. “Avesto” tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o`tilganidek, Zardusht qadimgi qabilalar a'zolarining diniy e'tiqodlariga aylangan qarashlar mazmunini isloh qilgan. Zardusht ta'limotining ilg`or g`oyalari shundan iboratki, Axura Mazda (qodir iloh) dunyoda mavjud bo`lgan adolat va yaxshilikning ijodkori sanaladi. Anxra Mani (Yovuz ruh) barcha yomonliklarni yuzaga keltiradi. “Avesto”ning mazmuni borasida uning bizgacha etib kelgan parchalarda ilgari surilgan qarashlar mohiyatiga asoslanib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

“Vendidat”ning dastlabki uch bobida xalq hayotida yerning qay darajada ahamiyatga ega ekanligi kuylanadi. Chunonchi, birinchi bobda yovuzlik va adovat hukmron bo`lgan o`lkalar tasniflanar ekan, Axura Mazda Tinchlik va Adolat o`lkasining asoschisi, Anhra Manyu esa jaholat urug`ini sochuvchi sifatida talqin etiladi. Asarda ana shunday o`lkalardan 16 tasi qayd etib o`tiladi.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g`oyalariga ko`ra shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo`lishi Adolat o`lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo`lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo`riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko`makchisi sanalgan inson sahovatli bo`lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasm-rusumlarga rioya etish, Zardushtning tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo`l-yo`riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

Zardusht Axura Mazdadan dunyoda shodlik va baxt makoni, eng sevimli joy qaerda ekanini so`raganda, u shunday javob beradi: u shunday joyki, kishilar u erda uy-joy quradilar, otashkada (ibodatxona)lar barpo etadilar, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanib, bola-chaqali bo`ladilar; men har ikkala qo`li bilan mehnat qiluvchi kishini qo`llayman, uning ishiga baror, hosiliga baraka bag`ishlayman, deydi. Bunda mehnat, dehqonchilik yovuz kuchlarga qarshi kurash, yaxshilik manbai, tayanchi deb ko`rsatiladi. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, sahovatlilik belgisi - mehnat deb ko`rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg`u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil deya ta'kidlanadi.

Dehqonchilik bilan shug`ullanish, mo`l-ko`l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo`ysunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug`ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o`n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. “G`alla yerdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g`alla o`rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g`alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo`ladi. G`allaning mo`l-ko`l bo`lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi”. Ushbu misollarda “Avesto”da inson mehnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan g`oya ilgari suriladi. Samoviy dunyoda ham uchlik hukmronlik qiladi: Axura Mazda – Oliy tangri, ya'ni “qodir iloh” - o`t, alanga ruhiga, Asha (Arta) – Vazishta – “Eng yaxshi tartibot” (kohinlik va katta kohinning samoviy obrazi)ga, chorva ruhi – Voxu Mana, ya'ni, “Sahovatli fikr” (o`troq chorvadorlar va ularning boshliqlari jamoasining samoviy obrazi)ga tayanadi. Ana shu uchlik fikr, so`z va ish birligidan iborat axloqiy uchlikni ham o`zaro bo`lishib olishgan. Ezgu kuchlarga yovuz kuchlar qarshi bo`lgan.

Yovuz ruhlarga Drudjo (yolg`onchilik ruhi) boshchilik qilgan. Unga Yovuz fikr (Ako Mana), Talonchilik ruhi (Eshma) yordam bergan. Yovuz, yomon fikr - Ako Mana, yomon so`z – Drudjo hamda yovuz amal, yomon ish – Eshma obrazlari timsoli yordamida ifoda etilgan. Zardusht yovuzlik kuchlariga ko`maklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, shuningdek, chorvachilik rivojiga halal beruvchi yolg`onchilik ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz bo`ladi. “Kimki menga sodiq bo`lsa, eng yaxshi narsaga musharraf bo`ladi, kimki sodiq bo`lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog`in sigir ham oladi” (“Yasna”, 46-bob), deyiladi asarda.

“Yaxshi fikr” iborasining mazmuni o`zida ilohiy qonun ruhidagi g`oyalarga ega bo`lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko`rsatish, muhtojlarga ko`maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo`lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do`stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg`azab bo`lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o`ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi va nojo`ya harakatlar qiladi.“Avesto”dagi uchlikning haqiqiy manbalariga yondashiladigan bo`lsa, ular qadimgi zamon kishilarning axloqiy tasavvurlariga batamom muvofiq bo`lib tushadi. Fikr, so`z va ishning birligi ibtidoiy insonning ham ajralmas xislati edi. Uning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o`zi mansub bo`lgan jamoa bilan uzviy bog`langan. Jamoaning fikri uning ham fikri, jamoaning so`zlari uning ham so`zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo`lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg`unligi – urug`chilik jamiyatining muhim belgisidir. Jamoaning har qanday topshirig`ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun edi”.

“Yasht”larda ifoda etilgan har bir yasht muayyan xudo (Axura Mazda, Mehr Yasht, Ardvasur Yasht, Mitra va boshqalar)ga bag`ishlanadi. “Yasht”lar doirasida

qo`llangan gimnlarda Axura Mazdaga bag`ishlangan qasida alohida diqqatga sazovor. Masalan, birinchi, “Yasht” - “Xurmuzd Yasht”da Axura Mazda tilidan zardushtiylik g`oyasi ifodalanadi. Zardushtiylik ilohining etmish ikki nomi borligi ma'lum. Yuqorida ta'kidlanganidek, Zardusht butun hayoti davomida ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amaldan iborat uchlik g`oyasini ilgari suradi va ushbu g`oyaga avvalo uning o`zi amal qiladi.

Inson o`limidan so`ng marhumning faoliyati ustidan o`tkazilgan hisob-kitob vaqtida Haqiqat ilohi u tomonidan sodir etilgan ezgu va yovuz amallarni maxsus tarozida o`lchaydi. “Avesto” ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch hayotiy davrga bo`linadi. Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug`lik va insoniy saodat hukmron bo`lgan. Yagona jinoyatchi - hokim Yima Vivaxvant bo`lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go`shti ediradi. Ikkinchi davr hozirgi davr bo`lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o`rtasida kurash davom etadi. Uchinchi davr – bo`lg`usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o`rnatiladi. Bo`lg`usi yaxshi hayotni Artu o`rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat esa mustahkam bo`ladi, deyiladi. “Yaxshilik ta'limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalga oshirsinlar”.

Zardushtiylik ta'limotida 15 yosh balog`at yoshi sanalgan. O`smir balog`at yoshiga etganda unga Zardusht qonunlari – falsafa, axloq-odob qoidalari va axloqiy yo`riqlar mazmuni o`rgatilgan. O`smirlarning xudojo`y mehnatkash, adolatli bo`lib voyaga etishlari, o`y-niyat, so`z va ishida halollikka tayanishlariga alohida e'tibor berilgan. Bolalarga ularning yoshligidayoq ko`chat o`tkazish, daraxtlarni parvarish qilish, uy-ro`zg`or buyumlarini yasash, erga ishlov berish hamda chorva mollarini boqish borasidagi bilimlar berilib, amaliy ko`nikmalarning hosil bo`lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Zardushtiylik ta'limotining axloqiy yo`riqlariga binoan inson tomonidan o`z burchini his etishning eng birinchi belgisi ma'naviy poklik sanalgan. Ayollarga g`amxo`rlik ko`rsatish ijtimoiy zarurat hisoblangan. Ayniqsa, homilador ayollarga muruvvat ko`rsatish asosiy insoniy burch hisoblangan. Diniy g`oyalarga ko`ra tuproq, suv, havo hamda quyosh muqaddas sanaladi, odamlar ularni e'zozlash, quyoshga sajda qilishga da'vat etiladi.

Zardushtiylikda kishini holdan toydiradi degan fikrga ko`ra ro`za tutish man etilgan. Inson holdan toysa, o`z zimmasiga yuklangan vazifani bajara olmaydi, ya'ni, Axura Mazdaga yordam bera olmaydi, bu esa yovuz kuchlarning ezgulik kuchlari ustidan g`alaba qilishiga sharoit yaratib beradi, deyiladi. Och qolish va yaxshi ovqatlanmaslikning inson xulqining shakllanishga ham ta'sir etishi quyidagicha ta'kidlanadi: “Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham kuchayadi. Non mo`l-ko`l bo`lsa, axloqiy so`zlar, ilohiy fikrlar yaxshiroq idrok qilinadi”. Zardushtiylikda may iste'mol qilish ta'qiqlanmagan. Mayni me'yorida iste'mol qilish kishi organizmini mustahkamlaydi, ya'ni, ovqat yaxshi hazm bo`ladi, qon yaxshi yurishadi, kishi yaxshi uxlaydi, bu holatlar esa uning unumli ravishda aqliy mehnat qilishiga yordam beradi, kishilar o`rtasida do`stona

munosabatlarning qaror topishiga ko`maklashadi, axloqi yomon kishilar bilan axloqi yaxshi kishilarni bir-biridan ajratib olishiga yordam berishi qayd etib o`tiladi.

Zardushtiylikda dunyoviy noz-ne'matlardan voz kechish talab etilmaydi, balki noz-ne'matlarni me'yorida iste'mol qilish, ularning mazasidan lazzat olish, inson hayotining “yaxshi kun ko`rish uchun zarur narsalar mo`l-ko`lchiligida” xushchaqchaqlik va baxtiyorlik bilan o`tkazishi lozimligi to`g`risidagi fikrlar ilgari suriladi.“Avesto”da inson omili, uning salomatligini ta'minlash masalasi alohida bayon etilgan. Bugungi kunda xalq tabobatida qo`llanilib kelayotgan va kishilar salomatligi saqlashda muhim ahamiyat kasb etgan ayrim usullar xususida ma'lumotlar beriladi. Bildirilgan fikrlar mazmuniga ko`ra mavjud kasalliklarni davolashda dorivor o`simlik (giyoh)lar yordamida tayyorlangan vositalardan samarali foydalanilgani ma'lum bo`ladi. Ana shunday dorivor vositalar sirasida kunjut, ko`knori, zira, piyoz, savsan, turp, xurmo, sabzi, behi, asal, zaytun moyi, shakar, shira hamda sedananing nomi qayd etiladi. Ayrim kasalliklarni bartaraf etishda dorivor o`simliklarning ildizi, poyasi, bargi, guli, mevasi va urug`laridan tayyorlangan qaynatmalarning foydasi katta ekanligi ta'kidlanadi. Kasalliklar rivojlanish davri, holati va turiga ko`ra rejim asosida, duo o`qitish, parhez saqlash, dori iste'mol qilish, shuningdek, jarrohlik amallarini tashkil etish kabi yo`llar bilan davolangan. Asarda tabiblar tomonidan e'tirof etilgan va ularning faoliyatlarida asosiy axloqiy-ma'naviy g`oya bo`lib xizmat qilgan qasamnoma matni ham keltirilgan.

Sharq allomalari va mutafakkirlari yosh avlodni tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish bo‘yicha tengi yo‘q fikr, g‘oyalarni ilgari surganlar, ta’limotlar yaratganlar. Ilmiy merosni sinchkovlik bilan o‘rganish, tahlil qilish, tizimlashtirish hamda jahon fanining mazkur sohadagi yutuqlari bilan taqqoslash o‘zligimizni anglash imkonini kengaytirib, xalqimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tiborini yanada oshiradi.

Milliy pedagogikamiz tarixini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha ajdodlarimizning asrlar davomida to‘plagan tajribalarini o‘rganish esa ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz. Sharqdagi ta’lim-tarbiyaga oid ilk asarlardan biri bo‘lgan Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” – nafaqat diniy aqidalar majmuasi, balki badiiy, yuksak ahloqiy, falsafiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorlik hisoblanadi. Mazkur yodgorlikda ayrim qayd va ishoralar, nom va atamalar zardushtiylikning ilk kurtaklari paydo bo‘la boshlagan davrlarda ham hozirgi Movarounnahr va Xuroson xalqlari yashagan mintaqalarda ta’lim va tarbiya rivojlanganligini ko‘rsatadi.

O`zbek xalqi tarixan ta'lim tarbiya sohasida o`ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o`zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham nekbin pelagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o`z ifodasini topgan. Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi Yunon – Makedon qo`shinlari, so`ngra ibn Muslim Qutayba rahbarligida arab

istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o`sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilgan.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda: “Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o‘qishni, keyin esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”, — deyilgan. “Avesto”da inson o‘z mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutulish mumkin, degan ulug‘ g‘oya yotadi. Unda axloqiylikning asosi — sahovatlilik, deb ko‘rsatilgan. Ahloq — yaxshi fikr, so‘z va harakat birligidan iborat, deyilgan. “Avesto”dagi dalillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlar o‘qitilgan. Zardushtiylik dini, ya’ni yakka Tangriga e’tiqod rasman qabul qilingach, o‘lkada ta’lim-tarbiyaga e’tibor yanada kuchaygan. Ibodatxonalar huzurida podsholik tasarrufidagi maxsus maktablar tashkil qilingan, ta’lim tizimida matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, huquqshunoslik kabi fanlar o‘qitila boshlagan; bunda yoshlarning ma’naviy kamolotiga alohida e’tibor berilgan.

Bir tomondan yoshlarga zardushtiylik dini asoslari, ya’ni “goh”lar maxsus yodlatilsa, ikkinchi tomondan uch yaxshi ishda sustkashlik qilmaslik-“kori nek” (ezgu fikr), “guftori nek” (ezgu so‘z), “kirdori nek” (ezgu amal)ni hamisha esda tutish; uch yomon ishdan, ya’ni “andeshai bad” (xurofotchi), “guftori bad” (tangrini unutmoq, yolg‘onchi) va “kirdori bad” (hunarsiz, bilimsiz)dan yuz o‘girishni o‘rgatganlar.

Islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pelagogikasini ilmiy o`rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunnnig muhim va dolzarb muammosidir. Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa pedagogikasini asos qilib oldik va o`rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasini o`rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki, ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda haq edi Olmon olimi Xerler. Haqiqatan ham shunday, o`zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. Yuqoridagi fikrlarning o`zi madaniyat va ma'rifat Sharqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo`la oladi. Chunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimgi manbalarda «Avesto», Sug`d, Baqtriya, Urxun – Enisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi.

Ma’lumki “Avesto” o‘z mohiyatiga ko‘ra diniy asar, ammo u insoniyatda tabiatga nisbatan hurmat hissini uyg‘otib, ona-zaminga tabiatning ajralmas bir bo‘lagi sifatida qarashni o‘rgatadi. Shu sababdan, asarga nisbatan nafaqat o‘tmish ajdodlarning diniy merosi sifatida qarash, balki qadim tarixi, madaniyati va tafakkur tarzini o‘rganish uchun juda muhim bo‘lgan bebaho va tarixiy manba sifatida qarash to‘g‘ri bo‘ladi.

“Avesto” qadimgi ajdodlarimizni o‘ziga xos qadriyat va urf-odatlarining mohiyatini teologik-falsafiy asosda aks etgan. Unda “men ezgu fikr (niyat)larni, ezgu so‘zlarni va ezgu amallarni yoqtiraman. Men mazdayasna qonunlariga

asoslangan targ‘ibotlarni ulug‘layman”, degan fikrlar keltiriladi. Demak, zardushtiylikda iymonning uch tayanchi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi va amallarning insoniyligi ta’limotning asosini tashkil etadi. Bu qarashlar shaxs tarbiyasida muhim omil sanalgani bois, “Avesto”da ta’lim, tarbiya, ahloq, insonning ma’naviy kamolot darajasi maxsus o‘rganilganligini qayd etish lozim bo‘ladi.

“Avesta”da ayol "rita sia bonu" yoki "asha bonu" deb nomlangan. Sanskrit tilidan tarjima qilingan ushbu so‘zlar yorug‘lik, haqiqat va sadoqatni anglatadi. “Bonu” so‘zi bugungi kunda ham eng yaxshi fazilatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan ayol ismlarining qo‘shimchasi sifatida ishlatiladi. Masalan, forsiy tilida “kad” so‘zi “uy”, “o‘chog‘” ma’nosini anglatadi. O‘choqni muqaddas tutib, o‘y-ro‘zg‘orni mahorat bilan boshqaradigan ayol “kadbonu” deyiladi. Qadim zamonlardan buyon "Bonu" so‘zi nur, yorug‘lik va vafo sifatida ishlatilgan. “Ona” so‘zi ham sanskrit tilida alohida ma’noga ega, u “matri”ga o‘xshaydi va “tarbiyachi” degan ma’noni anglatadi.[26] “Savsari” sanskrit tilida opa-singillar ma’nosini ifoda etib bu ham xayrixohlik va muqaddaslikni anglatadi. Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, ayollar va xotin-qizlarga munosabat o‘zgacha nozik va mukammal bo‘lgan va qadimgi davrlardan boshlab ajdodlarimiz ona, ayol tushunchalarini sadoqat va muqaddaslikning ramzi deb hisoblashgan hamda ularga oilada bolalarining tarbiyachisi sifatida muhim maqom berishgan. “Avesta” zamonidagi jamiyatda oila “nmana”, oilaning eng katta ayoli “nmanapatni”, ya’ni uyning bekasi maqomiga ega bo‘lgan.[27]

O‘rta Osiyo hududining Pomir tog‘lari va tog‘oldi mintaqalaridan topilgan haykalchalar, tosh yozuvlari, yozma manbalar shaklidagi tarixiy yodgorliklar, qadimda ushbu maskanlarda ayollarning jamiyatdagi ustun mavqesiga egaligidan dalolat beradi. Insoniyat tarixi rivojlanishining ilk bosqichlarida, ayol-ona hamisha eri va oilaning boshqa erkaklari yo‘qligida, uyda o‘tirib uyda olovni saqlab turganida, bolalarni tarbiyalab, oziq-ovqat tayyorlab, mevalar yig‘ib, kiyim-kechak tikib, chorva mollarini boqib hattoki, yer haydagan paytlarda, O‘rta Osiyo xalqlarining ta’lim tizimiga tamal toshi quyilar edi. O‘shanda mehnat tarbiyasi ta’limning bosh mezoni hisoblangan. Kelajakda odamlarning chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarining intensiv o‘sishi nafaqat tegishli aqliy rivojlanishni, balki ma’lum bir jismoniy rivojlanishni ham talab qilar edi.

O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi davrlardan qolgan boy merosi deyarli butunlay xalq ijodiga asoslangan va ular mehnatsevarlik, halollik va adolatparvarlikka bag‘ishlangan. Bu manzarani, ayollar eng yaxshi an’anaviy qo‘shiqlar, go‘daklar uchun allalar, ertak va afsonalar, kichik va katta she’rlarni avloddan-avlodga o‘tkazishda asosiy vositachi yoki bog‘lovchi halqa bo‘lganliklarida ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki o‘sib borayotgan bolalarda axloqiy va vatanparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalash uchun ibratli hikoyalar va rivoyatlar asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu

[26] Маҳди Иқболий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. –66 б.

[27] Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна. Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.

o‘rinda oila, uning doirasida ayol bolalarni yoshligidan milliy urf-odatlar asosida tarbiyalab kelgan. Shunday qilib, antik davrda uydagi ta’lim bolalarning jismoniy va intellektual rivojlanish maktablarining dastlabki boshlang‘ich nuqtasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatga, jismoniy chidamlilikka, hunarmandchilikning har xil turlariga, xalq ijodi va milliy g‘ururga, muhabbat tuyg‘ularini tarbiyalash, aynan oiladan boshlanadi. Ayollar boshchiligidagi oila maktablari, bolalar tarbiyasining asosiy omiliga aylantirilgan.

Qadimgi odamlarning ta’lim-tarbiyasi jarayonida xulqiy, axloqiy, odob va diniy tushunchalarda ifoda etilgan xalqning ma’naviy qadriyatlari muhim rol o‘ynagan. Aynan shu jihatlar bois zamonaviy pedagogika ilmi yozma manbalardagi bizgacha yetib kelgan milliy ta’lim an’analarini o‘rganishga, ularni saqlashga va albatta ulardan saboq olishga ko‘proq e’tibor qaratishi va unga tayanishi lozimligi ahamiyat kasb etmoqda.

Qimmatli ma’lumotlarni uzatish va saqlashning asosiy vositasi sifatida og‘zaki nutqdan yozuvga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonini insonning ta’lim olish orqali qo‘lga kiritgan birinchi aqliy qobiliyatlari va intellektual mehnati natijalari ifodasi deb hisoblash mumkin. O‘rta Osiyo xalqlarinng asarlar majmuasidagi birinchi mukammal manbasi “Avesta” kitoblari to‘plami hisoblanadi. Ushbu kitobda insoniyatning boshlang‘ich rivojlanish bosqichi, eng qadimiy odamlarning birinchi axloqiy va estetik qadamlari ayniqsa yorqin tasvirlangan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, undagi ta’limotning zamirida har bir ezgu amalning hayotiy kuchga ega bo‘lishi uchun juda ko‘p pedagogik yondashuv, pedagogik omillar talqin qilingan. Buni quyida keltirilgan misollarda ko‘rishimiz mumkin.

“Avesta”da axloqiy, huquqiy va diniy kodeks sifatida, birinchi navbatda butun xalqqa murojaat qilingan: inson, avvalo, “ezgu maqsad, samimiy so‘zlar va kuchli iroda” ga ega bo‘lishi kerak, va “haqiqat, aql va ta’limot” unga hamisha hamroh bo‘lishi kerak.

Haqiqat, aql va ta’limot dinning asosiy shiori bo‘lganligi sababli, qadimgi davrlarda ham ta’lim, axloqiy va estetik asoslarga alohida e’tibor berilgan deb taxmin qilish mumkin. Zardushtiylik qonunlariga ko‘ra, oila jamiyatning ma’naviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Oilaga ega bo‘lganlar to‘g‘ri va yaxshi hayot kechirishadi deb ishonishgan. Shuning uchun oila yaratish va bolalarni tarbiyalash muqaddas ish deb qaralgan.[28]

Zardushtiylik dinida bolalarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega edi. Avesto davrida, yetti yoshga qadar, bola asosan onasi bilan birga tarbiyalangan. Yetti yoshga to‘lganida otasi uni maktabga berishi shart etib belgilangan edi. Unda yana shunday deyilgan: “Agar sizda voyaga yetmagan bolangiz bo‘lsa, uni maktabga yuboring, chunki bilim ko‘zning nuridir”. [29]

“Avesto”da bolalarni yoshligidan tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha ba’zi pedagogik qoidalar o‘z aksini topgan. Masalan, “Avesto”ga ko‘ra, bola o‘sishi

[28] Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

[29] Назаров Р. Философия образования эпохи зороастризма. BULLETIN of IICAS. Volume 14, 2011.//Авеста. Древнейшие гимны и иранские тексты /пер.

bilanoq, ota-onalar uni o‘qish uchun maktabga berishga majbur edilar. Agar ular buni qilmagan bo‘lsalar, ularning qilmishlari katta gunoh qilish bilan tenglashtirilar edi. Shu o‘rinda ayollarning zimmasiga yuklangan vazifa bolani tom ma’noda maktabga tayyorlash edi, ya’ni bolani savodini chiqarishda o‘qituvchi bilan birgalikda mehnat qilishi talab qilinar edi. Demak, o‘z-o‘zidan ayollar ta’limdan xabardor ekanliklarini taxmin qilsak mantiqan xato bo‘lmaydi.

Qadimgi davrlarda o‘qituvchilarga qat’iy talablar qo‘yilgan. Ular tunda o‘qish va ertalabki darsga tayyorgarlik ko‘rishlari kerak edi. “Avesto”da biz quyidagi tahrirni o‘qiymiz: “Hey, Zaratushtra, donishmandlarning o‘qishlari va bilimlari yo‘lida tunab qoladigan o‘qituvchining o‘rnini aniqla, toki uning fikrlari muammolar bilan band bo‘lmasin va qiyomat kuni uning yuragi shodlik va quvonchga to‘lsin hamda kelajak abadiy dunyoda unga jannatiy saodat ta’minlansin.”.[30]

Avesta davrida, maktablarda birinchi navbatda o‘qish va yozish, hisoblash, geometriya, astronomiya va tibbiyot bo‘yicha birinchi ko‘nikmalar berilgan. Maktabga borishi mumkin bo‘lgan bolalar doirasi juda tor edi. Shundan kelib chiqqan holda, quyi sinf bolalari o‘zlarini ota-onalarining kasbini o‘rganish bilan cheklanganlar va kelajakda o‘z avlodlariga o‘rgatganlar. Maktablar “dabistanam” deb nomlangan va ular ibodatxonalarda joylashgan bo‘lgan. “Dabiston” so‘zi bugun Eron va Afg‘onstonda maktab so‘zi ma’nosida ishlatiladi. Dabistonda qizlar o‘g‘il bolalar bilan birga o‘qiganlar. Ozarbodning o‘g‘li Zamonga bergan ko‘rsatmalarida: “Xotiningizning ta’lim olishga intilishlariga to‘sqinlik qilmang, toki keyinchalik qilgan ishingiz uchun sizni umidsizlik va qayg‘u qamrab olmasin.”. Ko‘rinib turibdiki, ayollarning ta’lim olishiga nafaqat to‘siq bo‘lmagan, balki aksincha uni qo‘llab-quvvatlash tamoyili ko‘rsatma mazmunida hayotga joriy etilgan ekan.

Zardushtiylik davrida ayollar ta’limi mazmuni, avvalambor, axloqiy-estetik qadriyatlarni va uy-ro‘zg‘or yurgizish mahoratini o‘z ichiga olgan. Qizlarga yoshligidanoq oilaning kichkina farzandlariga ta’lim berish, kattalarning nasihat va ko‘rsatmalarini tinglash, ro‘zg‘orni boshqarish, hisob-kitob, ob-havo o‘zgarishi va boshqa tabiiy hodisalarni hisoblash va bilish o‘rgatilgan.

Bugun jahondagi ilg‘or va zamonaviy ta’limning mazmuniga e’tibor berilsa, o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi eng dolzarb masalalar qatoridan o‘rin olgan. Qadimgi davrlarda ham ta’lim asosan hayotda zarur bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ekan. Masalan, chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalar bu yo‘nalishda barcha zarur bilimlarni o‘rganganlar va o‘rgatganlar. Shuningdek, qizlar va ayollar ip bilan ishlash, jundan ip tayyorlash, teridan kiyim tikish, qish uchun zaxira ovqat tayyorlash bo‘yicha ta’lim olganlar.

Manbalarga ko‘ra, Zaratushtra dinida qizlar muhim mavqega ega. Ota-onalarning istagiga ko‘ra ular ta’lim olishi mumkin edi. Qonunda 15 yoshgacha bo‘lgan qizlarga ta’lim berish belgilab quyilgan edi. Shuningdek, qizlarni uy

[30] История таджикского народа. Том II. Эпоха формирования таджикского народа. Душанбе, Алҳудо, 1999. 791 б.

ishlarini bilishi, ro‘zg‘or yuritishdan ogoh bo‘lishi, tozalik va tartibga hamisha rioya etishi, axloqiy va estetik qadriyatlarning asosiy tushunchalaridan ma’lumotga ega bo‘lishlari belgilangan edi.

Ushbu ko‘nikmalar bilan bir qatorda qizlarga maktablarda savodxonlik asoslari o‘rgatilsa-da, ammo bu ta’limning asosiy va zaruriy qismi emas edi. Savod mazmuni ta’lim vazifalaridan tashqariga chiqardi. Ta’limning asosiy g‘oyasi, amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish emas, balki diniy va axloqiy tarbiya edi. Shu bilan birga, tarixiy xronikalar va ayollar haykalchalaridan iborat bo‘lgan arxeologik topilmalariga muvofiq, qadimgi Sharq ayol-qizlari o‘qish, yozish, hisoblash, rasm chizish va kashtachilik qilishlari mumkin, degan xulosani yanada mustahkam ilmiy farazga aylantirish mumkin.

“Avesta” zamonida, din ta’limning motivatsion manbai bo‘lib qat’iy qoidalarga rioya qilish va marosimlarni bajarishni talab qilar edi. Natijada, inson o‘zining axloqiy amal va harakatlarini tartibga solishi zarur edi, ya’ni o‘zi-o‘zini tarbiyalashi, ro‘zg‘or yurgizish uchun kunlar va haftalarni bilishi, odamlar sonini, chorva mollarini va boshqalarni sanashni, shuningdek, o‘zinining diniy tasavvurlari va g‘oyalarini yozish va chizish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim edi.

Xulosa qilib aytganda, “Avesto” asarida insonning barkamol bo`lib etishishida uning so`zi, fikri hamda ishi ezgu bo`lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g`oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo`lgan. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo`lgan muayyan talablar o`z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq balki G`arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo`lib qoldi. Asarda ifoda etilayotgan masalalarning ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligi Zardusht g`oyalarining nazariy va amaliy ahamiyatini oshirib, uning qimmati bugungi kunda ham yuqori bo`lishiga olib kelgan.

24.9. Qadimgi zamon ta’lim va tarbiyasining pedagogik mazmuni, kasb, musiqa san’ati va jismoniy madaniyat maktablari

Qadimgi zamon maktabidagi asosiy mavzu ilohiyot bo‘lgan va bu fanni o‘qitishda yozuv muhim rol o‘ynar edi. Qadimgi dunyoning oxirgi davrlarida Zaratushtradan kelgan barcha ko‘rsatmalar allaqachon bambuk qog‘ozga yozilgan va kitoblarga aylantirilgan bo‘lgan. Kattaroq yoshdagilarga, shuningdek, qiziqqan kattalarga bugungi tasnifdagi ritorika, matematika, geografiya, astronomiya va tibbiyot kabi mavzular o‘qitilardi. Mavjud bo‘lgan barcha fanlardan qizlar tibbiyotni o‘rganishga ko‘proq intilishgan. Keyingi davrlarda yevristik suhbatlar va bahs-munozaralar maktab va maktabdagi o‘qitishning asosiy uslubiga aylangan.

Sosoniylar davrida ritorika, mantiq, falsafa, adabiyot va boshqa ko‘plab fanlarni mukammal biladigan o‘qituvchilar ko‘p bo‘lgan. Eng yaxshi o‘qituvchilar ko‘pincha qirol maktablarida o‘qitilgan va hukmdorning o‘zi tomonidan tayinlangan. Ushbu fanlarni biladigan ayol o‘qituvchilari oddiy maktablarda ham o‘qitilgan.

Tarixiy yozma manbalarga koʻra, birinchi marta alfasayisal yozuv, ya’ni ovozli harflar tizimi neolit davrida paydo boʻlganligi va Oʻrta Osiyo xalqlarining ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga yoʻl ochganligini aniqlash mumkin. Aqliy mehnatning oʻsib borayotgan roli haqida, Sharq xalqlari qadimiy madaniyatining eng qimmatli manbalaridan sanalmish koʻplab mixxat yozuvlari dalolat beradi. Daraxtlar, bambuk, hayvon terilari, toshlar, planshetlar, papiruslar, tuproq idishlari va plastinkalarda yozuvlar yozilgan. Ahamoniy yozuvlari turli xil narsalarda – metall idishlar, toshlar, vazalar, muhrlar, savdo yoʻllari, qabrlar, qurol-yaroq, saroylar devorlari va ustunlari, jun va ipak matolardan topilgan va hatto quruvchilar tomonidan saroylar poydevori ostiga qoʻyilgan.[31]

Oʻrta Osiyo hududida topilgan Xorazmning Koy-Krilgan qalasining eng qadimgi oromiy yozuvlari miloddan avvalgi IV-III-asrlarga tegishli. Olimlar Parfiyaning Nisodagi xuddi shunday yozuvlarni miloddan avvalgi I-asrga tegishli deb hisoblashgan. [32]

Arxeolog olimlarning taxminiga koʻra, qadimgi Panjikent qal’asidan topilgan soʻgʻd alifbosidagi harflar bilan butun xum va uning qismlariga siyoh bilan yozilgan arxeologik topilma VII-asrning oxiri yoki VIII-asrning birinchi yarmiga tegishli boʻlgan. Soʻgʻdiy alifbosi oromiy tiliga oʻxshash boʻlib, 23 harfdan iborat edi. Xuddi shunday yana bir tarixiy manbaga koʻra, Vatanidan, ya’ni qadimgi Soʻgʻddan uzoqda yashovchi samarqandlik bir qizning oʻz onasiga yozgan maktubidan anglash mumkinki qadimgi davrlarda qizlar oʻqish va yozishni ham bilishgan.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan Oʻrta Osiyodagi oromiy va soʻgʻd alifbosining dastlabki arxeologik topilmalarining dalolat berishicha, Oʻrta Osiyoda yozuvlar ish yuritish va kundalik hayotda juda keng foydalanilgan. Oʻrta Osiyoda yashagan barcha xalqlarning yozma adabiyoti keng tarqalgan boʻlib, ular asosan diniy xususiyatga ega boʻlgan hamda ularda ilohiy afsonalar koʻrinishida xalq hikmatlarini oʻzida mujassam etish ohanglari ustunlik qilgan.

Barcha davr va zamonlarda, har qanday ta’lim beshiklar qoʻshigʻi yoki qofiyali she’rlaridan boshlangan. Beshik ustida oʻtirgan ona farzandida kelajakdagi baxtli odamni koʻrishni orzu qiladi. U orzu va umidlarini ertak qoʻshiqlariga aylantiradi. Bunday qoʻshiqlar bolalar tomonidan tez va oson qabul qilinadi. Bolalar yoshligidan oʻzlarini qahramonlar, shoirlar, dengizchilar, shahzodalar yoki aqlli va maftunkor pari, mohir hunarmand, odamlarni aqli va iste’dodi bilan hayratga soladigan shoira va boshqalar sifatida koʻrib, shu ruhda tarbiyalanadilar. Bunday qoʻshiqlarni Oʻrta Osiyo xalqlari “Alla” deb atashadi, ya’ni “sokin lullab qoʻshiq aytish”. Deyarli har bir onaning oʻzi tarbiyalangan, onaning qoʻshigʻidan ilhomlangan va oʻz navbatida aqlli onasi yoki buvisiga taqlid qilib, bolalarini tarbiyalaydi.

Qadimda ajdodlarimiz diniy e’tiqodlari koʻpincha tabiiy, ulugʻvor hodisalar bilan oldindan belgilab qoʻyilgan. «Avesta»ning madhiyalarida yangi tugʻilgan

[31] Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана.М.: «Наука», 1980. – 416 б.

[32] Народы Средней Азии и Казахстана. Этнографические очерки. М.: Изд-во АН СССР, Т. I, 1962. – 791 б.

chaqaloqni quyosh nurlarida olovli suvda cho‘milish marosimi o‘tkazilganligi yozilgan. Shunday qilib, odamlar o‘zlarining barcha harakatlarini ibtidoiy nur homiyligida sodir bo‘lishiga ishonishgan. Ular quvonchli quyosh chiqishidan ko‘ra pokroq narsa yo‘q deb hisoblashgan.[33] Qadimiy she’rlarda tabiat hodisalaridagi mo‘jizalari haqidagi asosiy ohanglarning kelib chiqishi ham shunga bog‘liq edi, ya’ni dunyoning ajoyib mo‘jizalarini bilishga intilish. Masalan, Parfiya tilidagi mumtoz she’riyatda (qadimgi forscha) ajoyib nur daraxti haqida quyidagi so‘zlar mavjud:

Quyosh yorqin va oy porloq
Daraxt tanasidan porlab turgan uchqunlar,
Tongda qushlar quvonch bilan sayraydi
Kabutar o‘ynaydi, u bilan turli xil qo‘shlar.
Ovozlar ko‘ylaydi va qizlar sadosi.[34]

Qadimgi davrlarda ta’lim-tarbiyaning asosini folklor janri tashkil etgan. Folklor yaratilishida faol ishtirok etgan ayol-onalar tufayli ko‘proq farzandlarni tarannumiga bag‘ishlab misralar yozilgan. Bolajonlarga bag‘ishlangan she’rlar, ertaklar, afsonalar va qissadan iborat adabiy xazina eng kichkina yoshdagi bolalarning ta’lim-tarbiya maktabi edi. Ko‘pincha, ertaklarda bolalarni uzoq safarlarga olib boradigan, yaxshilik har doim yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadigan voqealar aytilgan. Bolalar uchun barcha kichik hikoyalar yoki ertaklar "Bor ekan, yo‘q ekan" so‘zlari bilan boshlangan. Keyingina hikoya yoki ertakning syujeti aytilgan. Shu o‘rinda, qadimgi O‘rta Osiyoning forsiyzabon xalqlarida qadimgi davrlardan adabiyotga va ayniqsa she’riyatga moyillik rivojlanganligi ko‘p manbalarda ta’kidlanadi. Shu sababli, ko‘plab ertaklarda hatto qofiya ham bo‘lgan va ular xalq tomonidan qisqa doston-afsonalar shaklida ham yozilgan.

Yake bud, yake nabud,
Sari gunbadi kabud
Pirazane nishasta bud ....
Tarjimasi:
Bir bor edi,bir yo‘q edi,
Moviy gumbaz ustida,
Bir kampir o‘tirgan edi... .

Ota-onalarga, urug‘ oqsoqollariga, donishmandlarga, hukmdor-larga hurmat, shuningdek ularning ko‘rsatmalarini bajarish qadimgi davrlardan nafaqat bolalar, balki kattalar tarbiyasi uchun ham asos bo‘lib kelgan. Mazmunan, bu tarbiya odamlarni avvalo, axloqiy jihatdan tarbiyalaydi, ularga hayotdan dono maslahatlar beradi, bu yerda haqiqat, bilim va kattalarga hurmat birinchi o‘ringa chiqadi. Bu borada hatto shunday satrlar yozilgan:

Bigardon ze behashamatū royu rӯy,
Rizoi padar v-oni modar biӵӯy.[35]
Tarjimasidan quyidagi mazmun kelib chiqadi

[33] Брагинский И.Б. Из истории персидской и таджикской литератур. М.: «Наука», 1972. – 524 б.
[34] O‘sha manba, 90-bet
[35] Пандномаи Анӯшервон. Душанбе, «Маориф ва фарҳанг», 2008. – 112 б.

Hashamatsizlikdan yuz o‘gir butun-la
Ota va ona roziligi yo‘lin izla

Ko‘rinib turganidek, onaga hurmat va ehtirom otasi bilan bir xil darajada joylashtiriladi. Oilaning farzandlari o‘rtasida bolalarni tarbiyalash va ta’lim olishida hech qanday cheklovlar yo‘q edi. Binobarin, ko‘plab ayollar ta’lim olishlari mumkin edi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, ayollar yozishdan foydalanish bo‘yicha erkaklardan faolroq bo‘lgan. Misol uchun eri bilan safarda bo‘lgan bir qizning onasiga yozgan maktub va yozishmalari, ayollar ham erkaklar kabi o‘qiy va yozishni bilganliklari haqidagi ushbu taxminning tasdig‘ini topsak bo‘ladi.

Qadimgi Sharqning ko‘p tarixiy va adabiy manbalarida o‘zlarini fan va adabiyotga bag‘ishlagan ayollarning ismlari ham saqlanib qolgan. Masalan, Eron shohi Kayqubodning Purin ismli qizi “Avesta”ning mingdan ziyod sahifalarini to‘plab, pahlaviy tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo‘lgan zamonasining eng o‘qimishli ayollardan biri bo‘lgan. Faruxru ismli yana bir ayol o‘zining aql-zakovati va ilm-fan sohasidagi intellektual qobiliyatlari bilan qirol saroyida xizmat qilish sharafiga erishgan va birinchi ayol-vazir bo‘lgan ayollardan edi. [36]

Tarixiy manbalarga ko‘ra, VIII-asrda samarqandliklar xitoylik ustalardan ipak qog‘oz yasashni o‘rganganlar. Qog‘oz sanoatining rivojlanishi va tarqalishi qog‘oz ishlab chiqarish bo‘yicha maxsus ustaxonalar yaratilishiga, shuningdek xattotlik maktabi, rasm va miniatyura maktabining, keyinchalik kitob bosmaxonasining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Ushbu davrda O‘rta Osiyoda ilm-fan va ta’limning yuksalishi ham ko‘zga tashlanadi. Ayollar erkaklar bilan bir qatorda kitoblarni yaratish, tarjima qilish va qayta yozishda, matolarga rasm chizishda va miniatyuralarni yaratishda bevosita ishtirok etganlar.

Mavjud manbalarning shahodat berishicha, ayniqsa, O‘rta Osiyodagi eng qadimgi ayollar kasb maktablari haqidagi ma’lumotlar e’tiborga sazovor. Qadimgi davrlarda kasbiy mahorat maktablari turli yo‘nalishlarga ega edi. Xususan, badiiy hunarmandchilik va badiiy tasvir maktablari asosiy rol o‘ynagan.

Arxelogik izlanishlar natijasida Sharqiy Pomirning baland tog‘laridan Oshxona va Qoratumshuk nomlangan qadimiy odamlar yashaydigan maskanlar ochilgan. Dengiz chuqurligidan 4200 metr balandlikda joylashgan Shaxta g‘orida O‘rta Osiyo tarixidagi eng qadimiy deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan toshga ishlangan rasmlar topilgan. Ularda hayvonlarning tosh rasmlari hayvonlarning yog‘i bilan aralashtirilgan tabiiy to‘q qizil rang bilan ishlangan. Ikki rangga bo‘yalgan qushlar, yovvoyi cho‘chqalar va ayiqlarning qiyofasiga kirgan odamlarning qoyatosh rasmlari o‘sha davr xalqlarining dastlabki san’atidan dalolat beradi

Ayollarning o‘z zamonasidagi ta’lim jarayoniga ta’siri, ishtiroki va undan bahramand bo‘lishining ehtimoli qadimda ham yuqori bo‘lgan. Masalan, ayollar, erkaklar bilan birga, axamoniylar gil yozuvlarini yozishda qatnashib, u orqali hatto pul topar edilar. Shuningdek, ular tosh yozuvlari va tasvirlarini erkaklar bilan birga silliqlashda qatnashgan.

[36] Маҳди Иқболий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. –83 б.

Odatda, 10 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan qizlar o‘z oilalari bilan, keyin esa kasb-hunar maktablarida iplar tikish, kashta tikish, yigirish, bo‘yash va matolarga naqsh solish, jun va novdalardan turli buyumlar yasashni o‘rganganlar. Ushbu maktablar ayollar va qizlarga o‘zlarining ijodiy g‘oyalarini amalga oshirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratar edi. 1964 yilda qadimiy Panjakentda o‘tkazilgan arxelogik qazishlar paytida devorlarning birida uzun naqshli libos va naqshli kaftan kiygan ayol qiyofasi tasvirlangan rasm topilgan. Uning tor beli oltin belbog‘ bilan bog‘langan.[37]

Ushbu rasm nafaqat badiiy asar, balki qadimgi ayollarning yuksak professional san’ati, go‘zallik va nafislikning oliy darajadagi namunasidan darak beradi. Kesish, tikish va kashtachilik, zamonaviy liboslar yaratish borasida ayollarga ta’lim berishning o‘zi yuqori darajadagi ijodiy yondashuv va muayyan ko‘nikmalarni talab etishi ayni haqiqat edi. Demak, bichish-tikish, kashtachilik va har xil turdagi kiyimlarni bezash maktabida ta’lim yaxshi yo‘lga quyilganligi taxmin qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Azaldan O‘rta Osiyo hududi paxta va paxtadan tikilgan kiyimlarni ishlab chiqarishda imtiyozga ega edi. V–VI-asrlarda qadimgi Parfiya va So‘g‘ddan paxta mahsulotlari Xitoyga eksport qilingan. Professional hunarmandlar o‘zlarining usullari bilan eng zo‘r paxta iplaridan to‘qilgan matolarni yasardilar. Ko‘p rangli matolardan ayollar issiq ustki kiyimlar, ayollar ko‘ylaklari, erkaklar ko‘ylaklari, kaftan, shim va haram shimlarini tikar edilar. To‘quvchilik ustalari o‘zlarining san’atlarini avloddan avlodga yetkazish orqali erkaklarga ip ishlab chiqarish texnikasini, ayollarga tikuvchilikni o‘rgatishar edi.

Jundan kigiz gilam va gilamchalar yasalgan. Qadimgi Rim yozuvchisi Pliniy bu haqda shunday degan: “qadimdan qo‘pol sochlari bo‘lgan mo‘ynali jun gilam uchun ishlatilgan”. Shuningdek, u gilamni gallar boshqa usulda va Parfiya qabilalari boshqacha usulda bo‘yashlari to‘g‘risidagi Gomerning dalolatini ham keltiradi.

Kigiz maktabiga ayollar qatorida erkaklar ham jalb qilingan. Pomir paypoqlari, Baqtriya va Parfiyaning jun liboslari, Xorazm telpaklari, So‘g‘diylarning boshlik, etik va kandizalari ko‘plab karvonlar orqali butun dunyoga tarqatilgan. Jun va matolarni tayyorlash mahoratiga o‘rgatadigan maktab o‘zining soddaligi bilan ko‘proq ayollarni jalb qilgan edi. Jun iplardan to‘qish va ularni rang-barang naqshlar bilan bezash baland tog‘larda eng sevimli mashg‘ulot edi. Kigizdan tayyorlangan buyumlar O‘rta Osiyo xalqlarining dasht uylari va tog‘dagi kulbalariga qulaylik va iliqlik bag‘ishlar edi. Uyda o‘tirgan hunarmand ayollar ko‘pincha o‘z farzandlari uchun issiq kiyimlar, bosh kiyimlar va jun poyabzal tikar edilar. Charm kiyim va chodirlarni tikish ham ayollarga ishonib topshirilgan. Yonma-yon ishlashgan ayol va erkaklar ishlariga teng ravishda mukofot olganlar.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki bugungi kunda ham O‘rta Osiyo davlatlarining tog‘li hududlarda kigizdan tayyorlangan buyumlar, bosh kiyimlar va jun

[37] Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

poyabzallardan keng foydalanishadi. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha O‘rta Osiyoga ipak pilla birinchi marta Xitoydan keltirilgan. Ipak tijorati Farg‘ona, So‘g‘d va Xurosonda keng miqyosda rivojlangan sari matolarda kashtado‘zlik va qo‘shimchalar o‘rniga to‘qilgan naqshlar paydo bo‘lgan. Ipak avval qirol oilasining sevimli kiyimiga aylanganligi bois, u yerdan u “shohiy” nomini olgan, ya’ni shohlarga munosib ma’nosini anglatgan.

Keyinchalik, O‘rta Osiyodagi ipak to‘quvchilik va to‘qimachilik bezaklari maktabi qadimgi Sharqning boshqa mintaqalarini ham o‘zining ko‘p qirraliligi bilan hayratga soldi, chunki u o‘rta sinf aholisi uchun juda qulay edi. Matolarda hayvonot dunyosi, haqiqiy va xayoliy qahramonlar, o‘simlik va geometrik shakllar tasvirlangan. Ushbu davrdagi So‘g‘d va Toxariston matolari Bolalik-tepa (O‘zbekiston) va Mug‘-qala (Tojikiston) tog‘larida olib borilgan qazish ishlari natijasida ma’lum bo‘lgan.

O‘rta Osiyoda, milodning IV-VIII-asrlarida hunarmandchilik, badiiy bezash maktablarining naqadar e’tiborda ekanligi ashyoviy dalillar bilan ham o‘z isbotini topgan. Masalan, shu davrlarga oid Panjikentda topilgan haykallardan birida usmonliga o‘tirgan ayol tasvirlangan. Liboslar tananing yuqori yarmiga mahkam o‘rnashgan, taroqsimon chekka bilan mahkamlangan, egnida ikki o‘ralgan ko‘ylakning buklangan etagi ko‘rinib turibdi, sirg‘alar, dumaloq qulflangan mash’ala, turli marjonlar va tikilgan plakatlar ko‘rinadi. Ushbu haykal nafaqat noma’lum ayolning kiyim-kechaklari va ko‘rkamligi haqida, balki tikishning nozikligi hamda ayollar kiyimlari va zargarlik buyumlarini yaratish bo‘yicha professional maktab mavjudligi haqida ham tasavvur hosil qilishga asos yaratadi. [38]

Ahamoniylarning loyli yozuvlarida ayollarning o‘zlari kiyimlarni tikish va tikish bo‘yicha katta ustaxonalarga rahbarlik qilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Ko‘pincha erkaklar ularning ko‘rsatmasi ostida ishlaganlar. Zodagon ayollar juda ko‘p pul yig‘ib, ko‘plab ishchilarni boshqargan.

Manbalarda Irdabama ismli ayol haqida o‘z ishini bir necha ayollar bilan boshlab, ko‘p ayollar o‘z farzandlari va hatto oilalari bilan birga ishlaydigan katta xo‘jalik rahbariga aylangani haqida ko‘plab rivoyat va hikoyalar mavjud.

O‘rta Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyasida musiqa san’ati sohasida boy va qadimiy meros, dunyo madaniyati xazinasiga bebaho hissa qo‘shganlari haqiqatdir. Hatto qadimgi davrlarda ham musiqa o‘qitishga alohida e’tibor berilardi, chunki musiqiy mahoratni anglash shaxsni takomillashtirish va yuqori intellektual kuchga erishishning yo‘li hisoblanar edi.

O‘rganilayotgan qadim davrda ayollar uchun musiqiy san’at maktablari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadimgi davr ma’rifat tizimi, jinsidan qat’i nazar, barchani ilm-fan va san’atga jalb qilishni qo‘llab-quvvatlagan. Keyinchalik qo‘shiqlar epik xazinalar asosini tashkil etgan. Asta-sekin xalq musiqasi va folklor an’analari klassik asarlarni targ‘ib qilish hamda tarqatish maktabining asosini tashkil etdi. She’riyat tanlovlari ko‘pincha musiqa bilan jur va hamohang o‘tkazilgan. Qo‘shiqlarning mazmuni odamlarning orzu-istaklarini – farzandlar uchun baxtli kelajak tilash, vijdonan mehnat qilish zarurati, ezgulikni yovuzlik

[38] Мешкерис В.А. Согдийская терракота. Душанбе, Дониш, 1989. - 326 б.

ustidan g‘alaba qozonish niyati, yaqinlariga mehr-oqibat va g‘amxo‘rlik qilishni tarannum etgan.

Ko‘p sonli arxeologik topilmalarda topilgan musiqa asboblarida o‘ynayotgan ayol va erkaklar qadimgi davrlarda ayollarning erkaklar bilan teng ravishda musiqa san’ati asoslarini erkin anglashlari mumkinligini ko‘rsatadi. Ular musiqa asboblarida chalishni, raqsga tushishni, qo‘shiqlar yaratishni va ularni jamiyat oldida kuylashni o‘rganishgan.

1933-yili Ayrtamda (Termiz yaqinida) topilgan I-asrga tegishli topilmada uch nafar musiqachilar tasvirlangan. Shuningdek, Eronda o‘tazilgan qazish paytida, topilgan mo‘hrlardan birida, qo‘lida nilufar ushlab turgan ayol tasvirlangan. Uning yonida arfa chalayotgan yana bir ayol o‘tiribdi. Chizmalar va mo‘hrlarning aksariyatida qo‘llarida arfa bo‘lgan ayollar tasvirlangan, bu esa ushbu asbobning ayollar orasida keng tarqalishini ko‘rsatadi.

Manbalarga ko‘ra, musiqiy asboblar juda xilma-xil bo‘lgan. Ularda ko‘pincha ayollar o‘ynashardi. O‘rta Osiyoning ko‘plab qadimiy musiqa asboblari haqidagi ma’lumot XIII-asr xitoy yozuvchisi Ma Duan-Linning ensiklopediyasida keltirilgan. Uning aytishiga ko‘ra, arablardan oldingi davrda Sug‘dda katta va torli dumbralar, gitara, beshta torli lyutalar va har xil naylar bo‘lgan. Ayrtamdan (Termiz yaqinida) topilgan topilmalarning birida So‘g‘diylarning barcha musiqa asboblari namoyish etilgan.[39]

Panjikentdan topilgan qadimgi yodgorliklar ichida arfa boshqacha ko‘rinishga ega. Ko‘rinishidan, g‘arbiy Osiyo arfasidan tashqari, hind arfasi ham ishlatilgan.

Mavjud manbalarga muvofiq, qadimgi ayollar uchun jismoniy tarbiyaning ham yo‘nalishlari serqirra bo‘lgan. Jismoniy madaniyat odamlarning hayot sinovlariga tayyorgarligi jarayoni sifatida qadimgi davrlarda paydo bo‘lgan. Tirikchilik uchun kurash, ov qilish va hujumlardan himoya qilish haqidagi doimiy tashvishlar ma’lum bir kuch va quvvatni talab qilgan. Inson jismoniy ko‘nikmalar va qobiliyatlarni asta-sekin o‘zlashtirib, har xil o‘lja, qush va baliqlarni ovlashni o‘rgana boshlagan. O‘sha paytda odamlar sog‘lom aql sog‘lom tanada ekanligiga amin edilar. Shuning uchun, tanani chiniqtirish, sog‘lig‘ini saqlash va o‘z uyi va vatanini dushmanlardan himoya qilishda dadil harakatlarni shakllantirish uchun, ularga turli jismoniy va sport mashqlari o‘rgatilgan. Yigitlar bilan bir qatorda qizlar ham o‘q otib, ot minib, ov qilishni o‘rganishgan.

Aholining o‘rta qatlami uchun oddiy maktablar bilan bir qatorda mahalla yaqinidagi o‘quv-tarbiya uylari ham mavjud bo‘lib, ularda o‘g‘il va qiz bolalarga ot minish, kamondan o‘q otish, nayza uloqtirish, yugurish va kurashni o‘rgatishgan. Qizlar uchun jismoniy tarbiya, ta’limning majburiy predmeti sifatida, dushmanlar hujum qilgan taqdirda, ayollar erkaklar bilan teng ravishda o‘z xalqi va davlati sharafini himoya qilishi uchun zarur edi. Ksenofontning yozishicha, bolalarni erta turishga, sovuqqa va issiqqa chidashga, yugurish va yurish paytida tanani chiniqtirishga o‘rgatishgan. [40] Farzandlarni davlat maktablariga berishlariga

[39] Тревер К.В. Памятники греко–бактрийского искусства. – М–Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – 180 б.
[40] Ксенофонт. Киропедия. – М.: «Наука», 1976, – 335 б.

ruxsat berilgan. Bunday maktablarda qizlar ham teng ravishda boshqa mavzularni o‘qishar, harbiy taktika va jismoniy tarbiya asoslarini o‘rganar edilar.

Qadimgi O‘rta Osiyoda qizlar va ayollar jismoniy tarbiya maktabida yaxshi tahsil olishgan. Ular qilichbozlik, otda yugurish, kamondan o‘q otish va erkaklar bilan kurashish mahoratiga ega edilar. O‘zlari bilan harbiy zirihlarni olib, o‘z vaqtida harbiy kiyimga o‘tirgan holda, erkaklar singari o‘z yerlarini himoya qilish uchun chiqib ketishlari mumkin edi. Xuddi shu ma’nodagi fikrning isbotini bir manbada shunday keltirilgan: Daryavaxushning Istotiro ismli qizining jasorati ko‘plab erkaklarni qiyin ahvolda qoldirar edi. Kir II-ning xotinlaridan biri – Asposiyo podshoh polkining jasur va epchil ayol qo‘mondoni edi.

Manbalarda Xushyorshoh boshchiligida kema kapitani bo‘lib xizmat qilgan Ortmis ismli ayolning yozuvlari mavjud. Ayni paytda ko‘plab ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlagani ta’kidlangan. Masalan, Pontiy ismli sarson va jasur qiz qo‘shinni boshqargan. Ushbu davrdagi ayollar, hatto tug‘ish davridagi vaqtinchalik bola parvarishi maqsadida chetlatilgandan keyin ham yana saflarga qo‘shilishlari va armiyani boshqarishlari mumkin edi.

Buyuk shoir va gumanist Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" dostonida mardlik va jasorat bilan hech qanday tarzda erkaklardan kam bo‘lmagan va ularga qarshi kurashga chiqqan ko‘plab ayollarning obrazini yaratgan. Masalan, Gurdofarid aslida Rustam ismli qahramonning qizi edi. Uning boshqa qizi Bonui Gushtosp Gevning rafiqasi edi. She’rda uning ismi ham tilga olingan. Uning uchinchi qizi ham bor edi – Zarbonu va u ham jasorat bobida singillaridan hech qanday farqi yo‘q edi.

Massaget qabilasining malikasi Tomiris[41] , Parfiya xalqining qizi Rodogun haqidagi Gerodotning hikoyalari, tarixchi Narshaxiyning 20 yil davomida arab bosqinchilariga qarshi donolik bilan qarshilik ko‘rsatgan malika Xotun[42] haqidagi hikoyasi ayollarning jismoniy tayyorgarligi, faolligi, vatanpar-varligining yorqin namunasidan dalolat beradi. Ular shaxsan o‘zlari jang maydoniga otlarida qilich ko‘tarib, o‘zlarining xalqiga hamdardlik bildirib va maydonda jasorat ko‘rsatganlar.

Qadimgi ayollar ko‘pincha tezyurar otlarda poyga qilish kabi sport turlari bilan shug‘ullanishgan. O‘sha paytda kamondan otish, otda yurish va qurol ishlatish san’ati bolalikdan ayollar uchun odatiy jismoniy mashqlar edi. Nasroniylik ilohiyotchisi Aleksandriyalik Klement shunday yozadi: "Saklar ayollari uchib ketishganida, erkaklar kabi orqaga o‘girilib, otlaridan o‘q uzdilar". Ushbu misollar qadimgi davrlarda mahorat maktablarining dargohida qizlar va ayollarning faol ta’lim va tarbiya olishlaridan darak beradi.

Qadimgi davrlarda ayollarning doimiy jangovar tayyorgar-ligini arxeologlar tomonidan Kavkaz, Turkmaniston, O‘zbekiston va Qirg‘izistondan topilgan topilmalar bilan ham baholash mumkin. Ushbu dafn marosimlarida ayollar

[41] Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред. Л.В.Баженова. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 172 б.

[42] Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан–Наршахи. Та’рих–и Бухара. (История Бухары). Перевод, комментарии и примечания Ш.Б. Камолиддина. Археолого–топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: SMIA – SIA, 2011. – 600 б.

jasadlari qoldiqlari yonidan qurollar ham topilgan. Miloddan avvalgi I asrda yashagan Rim tarixchisi Pompey Trog skiflar qudratli bo‘lgani kabi ulug‘vor ham bo‘lganligini yozgan. Ular Parfiya va Baqtriyaga, ularning xotinlari – Amazonlar qirolligiga asos solishdi. Skiflar har doim eng qadimgi qabilalar deb hisoblangan va ular qadimlilik borasida misrliklar bilan bahslashishgan.

Ko‘plab qadimgi tarixchilar va yozuvchilarning xotiralarida O‘rta Osiyodan kelgan oddiy qizlarning jasorati va mardligi aks ettirgan. O‘smirlik davrida, to‘ydan oldin odatda qizlar va o‘g‘il bolalar o‘zlarining sevimli sport turlari bo‘yicha musobaqa o‘tkazardilar. Qadimgi Rim yozuvchisi va faylasufi Klavdiy Elian o‘z hikoyalarida, agar saklardan birortasi qizga uylanmoqchi bo‘lsa, u bilan kurashish kerakligini yozadi. Agar kurashda ustunlik qizga tegishli bo‘lsa, mag‘lubiyatga uchragan polvon uning asiriga aylanadi va to‘liq uning ixtiyoriga keladi. Faqatgina qizni yutish orqali yigit uni o‘z ixtiyoriga olishi mumkin bo‘lgan.

Ko‘plab arxeologik topilmalar ot sportida ayollarning ustunligini ko‘rsatadi. Qora-kulrang otga minib, chap qo‘lida jilovni ushlab turgan ayolning qo‘lidagi tashqi tomonidagi yozuvda, "olijanob xonim" deb yozilgan, shuningdek, ot sportida zodagon ayollarning ustunligidan dalolat beradi. [43]

Qadimgi Panjikent devorlaridan topilgan devoriy rasmda, qo‘llarida qilich bilan ikki jangchi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan duel tasvirlangan, ulardan biri naqshli libos, shim va boshiga dubulg‘a bilan qalpoq kiygan ayoldir. Ushbu tasvir jang maydonida ayollarning jasorati va shijoati haqida ma’lumot beradi. Arxeologlar tomonidan kamon, xanjar va nayzali ayollarning tasviri ham topilgan.

Kamondan otish, ot sporti va jang maydonlarida ayollarga qarshilik ko‘rsatish qiyin edi. Ba’zi ayollar erkaklar zirihini kiyib, qo‘shinni boshqarganlar. Ular qo‘llarida bayroq ushlab raqiblarga jasorat bilan hujum qiladigan mukammal harbiy qo‘mondonlar edilar.

Qadimgi davrlar tarixini ob’ektiv o‘rganish asosida Sharq ayollarining ta’lim dasturi xilma-xil va qiziqarli bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin. Sharqning asosiy urf-odati va yaxshi tarbiya atributi hisoblangan uy ishlarini olib borish, bolalarni tarbiyalash va keksa oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish bilan bir qatorda, ayollar ovga chiqib, uylarini dushman hujumlaridan himoya qilganlar va bular barchasi jismoniy chiniqishni talab qilgan. Yosh qizlar tikishni, rasm chizishni, sanashni bilar, shuningdek musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirar, musiqa asboblarida chalib, qo‘shiq aytardilar.

Arxeologik va yozma materiallarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, antik davrda professional ustaxonalar va musiqa maktablari keng tarqalgan. Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ko‘plab ayollar shaxmat va narda o‘ynashgan, she’r yodlagan va qo‘shiqlar yaratgan.

Demak, qadimgi zamonlardan ayol-ona oilaviy tarbiya, oilaviy ta’lim asosida farzandlariga avvallari folklor asarlari – ertaklar, she’rlar va chistonlar orqali ma’naviy g‘izo berrib keldi. Keyinchalik yozuv paydo bo‘lishi bilan birinchi adabiy asarlar paydo bo‘ldi, ularning yaratilishida ayollar ham erkaklar bilan shug‘ullanishdi. Tadrijiy ravishda kasbiy mahorat, jismoniy tarbiya, san’at va

[43] Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б.

musiqa qadimgi Sharq maktablarida ta’limning asosiy yo‘nalishlariga aylanib bordi. Din va diniy ta’limot haqidagi bilimlar va fanlar Sharq xalqlarining dunyoqarashini, ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Shu tariqa, ta’lim jarayoni doirasida axloqiy tarbiya zaruriy, hayotiy xarakterga ega bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qadimgi zamonda umumiy ta’lim, jumladan ayollar ta’limi, qizlarning ta’limdagi qamrovi balkim ommaviy bo‘lmagan, barchada bunday ikmoniyatdan foydalanish sharoiti bo‘lmagan, ammo bu jarayoni mutloq bo‘lmagan degan ma’noni anglatmaydi. Ayollar zimmasiga yuklanadigan barcha tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lgan amallar aynan, tizimli pedagogik munosabatlar ifodasi bo‘lsa-da, ammo tizimli o‘rganilmaganligicha qolib ketgan. Binobarin, tarixning ma’lum davrlarida Sharq, jumladan O‘rta Osiyo ayollari savodsiz, faqat uyda o‘tirganlar, degan ilmiy farazlar ilgari surilgan va o‘ylaymizki ular g‘arazli maqsadlar yo‘lidagi uydirmalardan boshqa narsa emas edi.

XXV BOB. VII ASRDAN IX ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA URTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.

25.1. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim tarbiyaga ta’siri

VII-asr boshlarida islom g‘oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o‘z mavqeni mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni ham zabt etishni boshladi. Butun Arabiston yarim oroli shuningdek, Eron, Kavkaz orti, Suriya, shimoliy Afrika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi.

VII-asr o‘rtalaridan boshlab arablar Movarounnahrga ham hujum qilish rejasini tuza boshladilar.

Arab istilochilarining birinchi yurishi 651-yilda Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligida amalga oshirildi. 676-yilda esa Said ibn Usmon rahbarligida Buxoro, So‘g‘diyona, Kesh, Nasaf Shaharlariga hujum qilindi.

Arab istilochilarining ikkinchi yurishi 705-yilda Xuroson hokimi Qutayba ibn Muslim tomonidan boshlandi. U 706-yilda zarafshon vodiysiga yurish boshlab, Poykend, Buxoro, samarqand, So‘g‘d, Farg‘ona va boshqa Shaharlarni qo‘lga kiritdi, so‘ng Xorazmni zabt etdi. Qutaybaning istilochilik yurishi u 715-yilda arab qo‘zg‘olonchi jangchilar tomonidan Farg‘onada o‘ldirilgandan so‘ng to‘xtadi.

VIII-asrning o‘rtalariga kelibgina arablar Movarounnahrni zabt etishga to‘la erishdilar.

Arab istilochilari bosib olingan erlarda xalqni islom diniga kirita boshladilar. Tarixchi at-Tabariyning «At-Tabariy tarixi», narshaxiyning «Buxoro tarixi», V.V.Bartoldning tarixiy asarlarida keltirilishicha, arab istilochilarining Movarounnahr xalqini islom diniga kiritish jarayoni qiyin kechgan va bir necha yillarga cho‘zilgan. Chunki, Movarounnahr arab istilosigacha ham ma’naviy, ham iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakat bo‘lib, uning aholisi arab bosqinchilariga tezda bo‘ysuna qolmagan. Shuning uchun ham arab istilochilari xalqni bo‘ysundirish uchun harbiylar bilan bir qatorda, islom dini targ‘ibotchilaridan ham foydalandilar va asta-sekin ma’lum natijalarga erisha boshladilar. Chunki Movarounnahrda odamlar islomga qadar har xil xudolarga, quyoshga, Ko‘k dinga (Shaman),

muqaddas narsalarga topinar, ma’lum bir g‘oyaviy e’tiqod butun bir o‘lkada tarkib topmagan edi. Shuning uchun ham islom dinining yoyilishi va u bilan birga Shariat qonun-qoidalari, aqidalariga rioya qilish, yagona Allohga sig‘inish va Allohning rasuli Muhammad alayhissalom ko‘rsatmalariga amal qilish xalqning ongiga ta’sir etib, ularni bu dinni qabul qila boshlashiga olib keldi va islomiy qadriyatlar tarkib topishiga yo‘l ochdi.

Din nima?

Din tushunchasiga juda ko‘p va turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, «Islom» ensiklopediyasida: Din (arab.) – mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo‘ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo‘l tutish, odat qilish, e’tiqod qili Shva b. Dinda bandaning ollohga bo‘ysunishi, itoat qilishi, ibodati, parhezkorligi, olloh ko‘rsatgan yo‘lni tutishi, ma’lum ishlarni odat va e’tiqod qilish kabi ma’nolar bor. Musulmon ulamolar dinni «Sog‘lom aql egalarini ularni o‘z ixtiyorlariga binoan bu dunyoda salohiyatga, u dunyoda najotga eltuvchi ilohiy ko‘rsatmalar», deb ta’riflaganlar.

A.Abdurahmonovning «Saodatga eltuvchi bilim» kitobida din haqida quyidagi ta’riflar keltirilgan: Din –arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbekcha «ishonmoq, tanimoq» degan ma’noni bildiradi. Din insonning muqaddas ilohiy kuch – Xudo mavjudligiga asoslangan ongli dunyoqarashi, hissiyoti, e’tiqod qilishi va xatti-harakatlari majmuidir. Din komil insonni tarbiyalashda ulkan qudratga ega bo‘lgan ma’naviy, axloqiy kuchdir.

Islom (arab.– bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Olloh irodasiga topshirish) – jahonda keng tarqalgan uch dindan biridir. Islom dini odamlarni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun Olloh tomonidan yuborilgan ta’limotdir. Islom dinining asosi bo‘lmish Qur’oni karimda ham va payg‘ambarimiz Muhammad mustafo s.a.v.ning sunnatlari bo‘lmish Hadisi Sharifda ham insonlarni doimo go‘zal xulqli bo‘lishga targ‘ib qilingan. Go‘zal xulqlarning natijasi, ya’ni chin mo‘min, komil insonning savobli ishlari mukofoti jannat va aksincha yomon xulqlarning, ya’ni munofiqlarning gunohlari natijasi do‘zax ekanligi islom dinining asosiy g‘oyasidir. Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o‘rnida dinning ahamiyati katta. Dining asosiy maqsadlaridan biri, insondagi yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo‘lga kirib ketganlarni to‘g‘ri yo‘lga da’vat etishdir.

Islomda, uning muqaddas kitobi Qur’oni Karimda axloq masalasiga alohida e’tibor berilgan. Islomda olijanob axloqning eng muhim tushunchalari ta’riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson, kechirimli bo‘lish, sabr-toqat, rostgo‘ylik, Shirinso‘zlik, ota-onani, o‘zidan katta yoshdagilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Shu tarzda insoniyatning butun Amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajraladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olijanob axloqqa chaqirishlari, nojo‘ya ishlardan qaytarishlari Olloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki, jismoniy va ma’naviy pok bo‘lsa, unday kimsa axloqsizlik yo‘liga kirmaydi.

Islom dinining asosi quyidagilar: 1) kalima keltirish; 2) namoz o‘qish; 3) ro‘za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e’tirof etilgan. Imon 7 aqidani – Ollohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg‘ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir

(yaxshilik va yomonlik Olloh irodasi bilan bo‘lishi)ga va o‘lgandan keyin tirilishga ishonishni o‘z ichiga oladi.

Islom dinining asoschisi va targ‘ibotchili payg‘ambarimiz Muhammad ibn Abdulloh s.a.v. Dirlar. U kishi milodiy 571-yil 21-aprelda Makka shahrida tug‘ilganlar va 632-yil 8-iyunda 63 yoshda Madina shahrida vafot etdilar.25 yoshlarida beva Hadichaga uylanganlar, 40 yoshlarida payg‘ambarlik kelgan, 23 yil payg‘ambarlik, 19 marta jihod, 4 marta umra va 1 marta haj qilganlar. Otalari – Abdulloh, Onalari – Omina.

Arab tili ham, o‘z navbatida, yangi madaniyat tili bo‘lib maydonga chiqdi. Bu madaniyat ham qadimgi arab madaniyati, Shuningdek, arab davlati hududida yashagan boshqa xalqlar madaniyatining majmuasi edi. Arablar yunon fanining yutuqlaridan amaliy foydalandilar, ularning faylasuf olim, yozuvchilarining asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya, tibbiyot, kimyoga oid barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Hatto arab olimlari sun’iy oltin tayyorlash vositasi «falsafa toshi»ni izlaganlar (Kimyo fani alkimyodan boshlanib, oltin izlovchilar «alkimyogarlar» deb atalgan).

VI-VII-asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi va ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasi tizimiga ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik va ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma’naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o‘zlashtirishga yordam berdi.

Islom dini kishilik jamiyatining ibtidoiy davri xususiyatlaridan voqif bo'lish va O'rta asr Uyg‘onish davrining ro'y berishi uchun ma’naviyg‘oyaviy poydevor qo'ygan ijtimoiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqdi. Islom ta’limoti o'zining insonparvar g‘oyalari va ularni insonlar ongida chuqur singdira olish imkoniyatlari tufayli o'n to'rt asrdan buyon borliqni ong yordamida mafkuraviy tarzda idrok etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Islom ta’limotining bu qadar ulkan hududga yoyilishi va umuminsoniy qadriyat sifatida e’tirof etilishida Ollohning rasuli bolgan payg‘ambarimiz Muhammad alayhis-salomning o'rni beqiyosdir.[44]

Islom aqidalarining, uning axloqiy-huququiy tamoyillarining asosiy manbai «Qur’on»dir. Qur’on – dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo‘lib, arab tilida «qiroat» ma’nosini anglatadi. Qur’on 114 suradan iborat. Qur’on kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shunga ko‘ra u katta axloqiy qimmatga ega. Qur’onning axloqiy qimmati haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma’naviy kamolga etishida qay darajada muhim o‘ringa ega ekanligiga amin bo‘lamiz. SHuning uchun u mana necha asrlardan beri insoniyatning eng ulug‘ qadriyati sifatida ezozlanib kelnmoqda. Islom odamlarni yaxshilikka da’vat etadi,

[44] K.Hoshimov,S.Nishonova, Pedagogika tarixi o‘quv qo‘llanma 39-b

yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ‘ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik va yetuklikka, mahnat qilishga hamda er yuzini obod va go‘zal etishga undaydi. U adolat, tinchlik, tenglik, erkni tarannum etadi. Buni biz Qur’onning inson kamolotga erishishiga qay darajada o‘rin egallashini, uning insonga, butun borliqqa munosabatini, turmush tarzi va zulq-odob me’yorlarini tarkib toptirishda ulkan ahamiyatidan ham bilsak bo‘ladi.

Islom musulmonlarni taraqqiyot sari undab, insonlarni ilm olishga yo‘llaydi. Chunki, ilm bilan inson shaxsi kamolga etadi, jamiyat taraqqiy etadi. Olloh taolo oyati karimasida «Bu so‘zlarni faqat olimlar tushungaydirlar», deyilgan bo‘lsa, yana bir oyatda «Bilgan zotlar bilan bilmagan kimsalar tengmi?!» deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, Qur’onda ilm olishga, ilm o‘rganishga va ilmli kishilarni hurmat qilishga da’vat etiladi. Zero, ilm tufayligina inson shaxsi kamolotga erishib boradi. Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e’tibor beriladi. Bular ilm va haqiqatni dalillar bilan isbotlashda namoyon bo‘ladi. Qur’onda ilmni ishonchli dalillar bilan asoslash, taqlid qilishga yo‘l qo‘ymaslik masalalari talqin etiladi, har bir fikrni ko‘r-ko‘rona, mohiyatiga etmasdan asoslash qoralanadi.

Islomda bilim, aql inson kamoloti mezoni hisoblanib, inson ko‘rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo‘ladi, deyiladi.

Ma’lumki, ilm-fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga etishida katta ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra xulq-odob qoidalarini tarkib toptirishga Qur’onda asosiy e’tibor beriladi. Har bir shaxsning, jamiyatning ravnaq topishida axloqning asosiy roli tasvirlanadi. Zero, jamiyat a’zosi bo‘lgan har bir kishining axloqsizligi jamiyatga qay darajada zarar yetkazsa, yaxshi axloqli kishilar uning ravnaqiga shuncha hissa qo‘shadilar.

Qur’onda har bir mo‘min-musulmon bajarishi zarur bo‘lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir, deb tushuntiriladi. chunki, islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish, kishilarga yomonlikning hunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to‘g‘ri yo‘ldan yurishga chaqirishdan iboratdir.

Qur’onda insonda imonning o‘ziga xos mezoni sanalgan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to‘g‘rilik, vafodorlik va sodiqlik, sadoqat, sahiylikka katta e’tibor berilgan.

Qur’onda ota-ona hurmati yuqori o‘rinda turadi, yana oilaning boshqa a’zolariga, qarindoshlar, etimlar, kambag‘allar, qo‘ni-qo‘shnilarga ham yaxshilik qilish ta’kidlanadi.Tarbiyaviy ishlar salohiyatini oshirish, bola qalbida insoniy fazilatlarni shakllantirishda islom ta’li moti manbalarining o‘rni beqiyosdir. Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, o‘z davlatchiligimizni shakllantirishda Islom ta’limoti manbalarining asosini Qur’on va Hadis ilmini o`rganishga alohida ahamiyat qaratildi. Qur’on (arabchada-qiroat-o‘qish) ma’nosini anglatib, 114 ta suradan iborat. Qur’oni Karim kishilarni tinch-totuv yashashga, birodarlikka, tenglikka, saxiylik va mehr-muhabbat ko‘rsatishga undaydi. Shinga ko‘ra u katta axloqiy ahamiyatga ega. ”Qur’on’’ning axloqiy qimmati uning insonni ma’naviy kamolotga erishishida qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etadi. Shuning uchun ham u necha asrlardan buyon insoniylikning eng ulug‘

qadriyati sifatida e’zozlanib kelinmoqda. Islom odamlarni yaxshilikka da’vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Insonpar-varlikni targ‘ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma’naviy poklik va ravnaqqa, mehnat qilishga hamda yer yuzini obod va go‘zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ‘ib etadi.

Qur’oni Karimda ta’kidlanishicha, ota-ona bilan muloqotda bo‘ladigan farzandlar besh narsani bilishi kerak. Muloqot chog‘ida ular: ota-onalari qattiq-qurum gapirib yuborganlarida ham ularga malol kelib (uff) demasliklari; ota-onani xafa qiladigan so‘z so‘zlamasliklari; ota-onalariga doimo ehtirom bilan yaxshi so‘zlarni so‘zlashlari; ota-onalariga doimo rahm-shafqat ko‘rsatib, o‘zlarini ularning oldida kamtar tutishlari; Allohdan ota- onalariga rahmat tilab duo qilishlari lozim ekanligi uqtiriladi. Ota-onalar bolani dunyoga keltirishga sabab bo‘lganliklari uchun emas, balki uni odobli, hayoli, axloqli qilib voyaga etkazganliklari uchun olqishga sazovordirlar. Qur’oni Karimda kishilar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarni yaxshilash to‘g‘risida ham gap boradi va bu oily darajadagi insoniy xislat bo‘lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi, deyiladi. Bu xislat xoh jamiyat miqyosida bo‘lsin, xoh odamlar orasida bo‘lsin tinchlik, osoyishtalik keltiradi. Shuning uchun ham kishilarning o‘zaro aloqasini mustahkamlash misulmonchilik talablaridan sanaladi.Qur’oni Karimda insondagi eng zarur xislat sanalgan oilyjanoblik haqida ham fikr yuritiladi.

Oliyjanoblik – yaxshilikni o‘zi uchun emas, boshqalar uchun ham zarurligini anglash istagidir. Demak, oilyjanoblik ruhiy holat bo‘lib inson kamolotini ko‘rsatuvchi xislatdir.

Qur’oni Karimning ma’lum oyatlari shirinsuxanlikka, to‘g‘ri so‘z va muomala madaniyatiga bag‘ishlanadi. Chunki kishilarda shirinso‘zlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatdagina amalga oshadi. Shirinso‘zlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi, obro‘sini orttiradi, hurmatga sazovor qiladi. ”Kishilarga chiroyli sozlar so‘zlangiz”(Baqara surasi,53-oyat).

Qur’oni Karimda insonni ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy shakillantirishda, bir soz bilan aytganda komil insonni tarbiyalashda muhim manba ekanligi namoyon bo‘ladi. Qur’oni Karimdan keyin mo‘tabar sanalgan Hadisi Shariflarda musulmonlarning moddiy va ma’naviy jihatdan barkamolligi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, o‘zaro ahil bo‘lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafo-sadoqat, poklik kabi insoniy sifatlar haqidagi nasihatlari va yaxshi fazilatli bo‘lish yollari bayon etilgan.

Hadis – arabcha hikoya, habar, yangilik ma’nolarini anglatib Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom aytgan so‘zlari, qilgan ishlari va ko‘rsatmalari to‘plamidir. Uzoq vaqt davomida o‘zining mashhur hadislar to‘plamini yaratgan Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (809-870) juda boy va qimmatli meros qoldirgan. Ulardan ,,Al-Jome as-Sahih”(Ishochli to‘plam) va ,,Al-adab Al-mufrad” (Adab durdonalari) degan asarlari mashhur bo‘lib butun musulmon olamida tanilgan. Bu kitoblarga 1322 ta hadis kiritilgan. U bolalarning ota-onalari oldidagi burchi haqidagi masalalar bilan boshlanadi. Unda, shuningdek keksalar va yoshlar, qavm-qarindosh-lar o‘rtasida munosabat masalalari, ayollarning huquqlarini himoya qilish, tejamkor-lik va isrofgarchilik, kishilar o‘rtasidagi do‘stlik va burch haqidagi masalalar yoritilgan: Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom

dedilarki: „Topilgan molning eng tozasi (pokizasi) kishining peshona teri bilan topilgan mol va beg‘irrom halol savdodan topilgan pulidir’’ (128-hadis) Har bir odam, agarda ko‘ngli tinch, hayoti saodatli bo‘lishini istasa, u bahil bo‘lmasligi, ko‘ngilsiz holatlarga uchramaslikka harakat qilishi kerak. Kamtarlik insoniy eng go‘zal fazilatlardandir. Kamtarlik insonning madaniyati, odamiyligi mardligi kabi xislatlar bilan belgilanadi. Insonning kamtarligi avvalo uning mehnatida namoyon bo‘ladi. Kamtar kishida havoi-nafs, g‘urur, manmanlik bo‘lmaydi. U odob-axloqli, mehr-shafqatli bo‘ladi. Ishida, so‘zida qat’iy turadi.

Islom dini ilmga talabni ibodat darajasiga ko‘taradi. Islom ta’limotiga ko‘ra ilm olishda erkak ham, ayol ham teng huquqlidir. Chunonchi, Payg‘ambarimiz hadislarida ilm inson kamolotining negizi, ezgulik va poklik insonlarni turli ofatlardan saqlovchi vosita sifatida izohlanadi. Ilm-ulug‘ hikmat, ilm-iymon, e’tiqod.

Demak din asosini, Qur’oni Karimning mazmuni mohiyatini bilish, anglash uchun ham ilmli bo‘lish, uni mukammal egallash kerak. ”Bir soat ilm o‘rganish kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzalddir”(536-hadis)

”Ilmu hunarni Xitoyda bo‘lsa ham borib o‘rganinglar deb kishilarni ilm-hunar egallashga chaqiradilar.(126-hadis) Qur’oni Karimda ilmga katta e’tibor berilgan va „ilm”so‘zi 765-o‘rinda tilga olib o‘tiladi. Ilm o‘rganish har bir inson uchin farzdir. Ilm o‘rganishdan murod mansab emas, avval o‘qigan ilmiga o‘zi amal qilib, so‘ng xalq va Vatan oldidagi burchni ado etishdir.

Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgani tarixdan ma’lum. Qur’oni Karim oyatlari, Payg‘ambar alayhissalom hadislari, ulamo va hukamo-larimizning kitoblari tarbiyamizning manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sog‘liq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir.

Rasulullоh sallallohu alayhi vasallam „Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!“ deganlar. Shu bilan birga, „Hech bir ota o‘z farzandiga xulq-odobdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi“ deb, tarbiyada ota-onaning rolini belgilab o‘tganlar.

Islomiy (sharqona) tarbiya barcha mo‘min-u musulmonlarni nihoyatda xush xulqli, shirin so‘zli, oliyjanob bo‘lishga da’vat etadi.

Bir rivoyatda yaxshi tarbiya ko‘rganning o‘nta nishonasi sanab o‘tiladi:

1. Xalq to‘g‘ri deb topgan narsaga noto‘g‘ri deb qaramaslik.
2. O‘z nafsiga insof berishni so‘rash.
3. Boshqalardan ayb qidirmaslik.
4. Birovda yomonlik sodir bo‘lsa, uni yaxshilikka yo‘yish.
5. Agar gunohkor uzr so‘rasa, uning uzrini qabul qilish.
6. Muhojirlar hojatini chiqarish.
7. El g‘amini yeyish.
8. O‘z aybini tan olish.
9. El bilan ochiq yuzli bo‘lish.

10. Odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish.

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham, xususiyati ham o‘zgarib boradi. Buni ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ham ko‘rish mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaning maqsadi oddiy bo‘lib, shunchaki insonning hayot kechirishini ta’minlashga xizmat qilgan[45].

25.2. Ayollar ta’lim va tarbiyasini tashkil etishda islom dinining ta’siri

Islom ta’limotida inson shaxsining rivojlanishi va takomillashishi jamiyat axloqiy rivojlanishining asosi sifatida belgilangan. Islom tamoyillariga ko‘ra, jamiyatning maqsadga muvofiq rivojlanishi axloq va ijtimoiy adolatga asoslanadi. Bu jamiyat va uning a’zolari, shu jumladan, jamiyat hayotida asosiy rol o‘ynaydigan ayollarning uyg‘un rivojlanishiga erishishni anglatadi. Islom ta’limotiga ko‘ra har bir inson o‘zining qobiliyatlari, ehtiyojlari va shaxsiy fazilatlaridan qat’i nazar, o‘qish va tarbiyaga muhtojdir. Shaxsning ta’lim olishiga alohida ahamiyati berib, Islom dini Payg‘ambari (s.a.v.) “Ilm (fan) egallash har bir musulmon va musulmon ayol uchun majburiydir” deb ta’kidlab, ayollarning ta’limdagi rolini inkor etmaydi.

Islom dini ayol kishini ilmli, ma’rifatli bo‘lishga buyuradi. Tarixdan ma’lumki, ayollar ham aynan islom dini rahnamoligida ilm-fan va ma’naviyat-madaniyatning eng yuqori darajasiga ko‘tarilganlar. Binobarin, tarix sahifalarida ayollar ta’lim va tarbiyasiga islom dinining munosabati, e’tibori haqida mulohaza yuritganda, ba’zan noto‘g‘ri, noo‘rin fikrlarga duch kelish mumkin. Go‘yo, islom dini ayollarni paranji ortiga tortib, zulmat qorong‘uga botirib yuborgan ekan. Aslida esa, islom ta’limotida aynan shu masalada salbiy munosabat yo‘qligi ayni haqiqat. Ammo, islom dinining dunyoni turli burchaklarida turli xalq millatlari tomonidan qay darajada to‘g‘ri, asl mohiyati bo‘yicha qabul qilingani va talqin qilinishi, shu muammoning o‘zagini belgilaydi. Reaksion, mutaassib ko‘rinishda targ‘ib etilgan joylarda, islom niqobi ostida ayollar ko‘p haq-huquqlardan mahrum qilingani ham rost. Biroq, O‘rta Osiyo xalqlari tarixida bunday misollarni ommaviylashib ketgan holati kam kuzatiladi. Ushbu fikrimizga, tarixiy manbalar tahlili asos bo‘ladi.

Tarixga nazar tashlansa, O‘rta Osiyoda VIII–IX-asrlarda Islom dinining qaror topishi bilan, yagona din – islom diniga ega bo‘lgan markazlashgan davlat tashkil topdi. Ushbu davlatning nizomi yoki qonunlari majmuasi turli tarix, o‘ziga xoslik va madaniyatlarga ega bo‘lgan butun xalqlarni birlashtirgan Qur’oni Karim edi. O‘sha paytdan boshlab islom ta’limoti birinchi o‘rinda bo‘lgan yangi hayot, yangi mafkura bilan yangi maktablar shakllana boshlandi. Shariat atalmish, musulmon uchun ilohiy ko‘rsatma, endi erkaklar va ayollarni huquq va majburiyatlari bo‘yicha ajratib berdi.

Islom, qadimgi davrlardagidek ayollarga nafaqat uyni boshqarish va ro‘zg‘or yuritish bo‘yicha yuksak vazifalarni yuklaydi, balki uni qo‘llab-quvvatlash orqali uning sharafini himoya qiladi, ayollarga erining ruxsati va urug‘ oqsoqol-larining marhamati bilan faol turmush tarzini olib borish uchun keng imkoniyatlar beradi.

[45] O‘sha manba, 47-bet

Islom ayolga ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal qilishda faol ishtirok etish, ta’lim olish, tijorat bilan shug‘ullanish va hatto davlat boshqaruvida ishtirok etishni taqiqlamaydi.

Islom ayollarning hurmat-ehtiromini o‘rniga qo‘yib, ayollik latofatlarini saqlab qolish, ayollik vazifalarini to‘liq ado etish orqali o‘z jamiyatlariga, vatanlariga, dinlariga kerakli xizmatni ado etishlari uchun barcha sharoitni yaratib bergan.

Islomning dastlabki bosqichlarida ayollarga xijob kiyish majburiy bo‘lmagan. "Masalan, xitoylik sayohatchining so‘zlariga ko‘ra, 1221-yilda Samarqandda, ayollar juma kunlari erkaklar bilan birga masjidlarda ham qatnashganlar". [16, 239]. Biroq asta-sekin, arabcha uslub, ya’ni boshga paranji kiyish, parda bilan yopilish, ya’ni yakkalanish, O‘rta Osiyoda ham XX-asr boshlarigacha ayol turmush tarzining asosiy atributiga aylandi. Bunga ma’lum ob’yektiv va tarixiy sabablar borligi manbalarda keltirilgan. Islom dini musulmonlarning asosiy dini deb e’lon qilinishidan oldin arab qabilalari ko‘plab urug‘ va qabilalardan iborat edi. Urushlarda ayollar ko‘pincha erlari bilan birga qatnashgan. Ko‘plab arab qabilalarida matriarxat yoki ayollarni hurmat qilish hanuzgacha mavjud bo‘lgan. Islomdan oldingi arablar orasida ko‘p jihatdan ayollar erkaklar bilan teng bo‘lmaganiga qaramay, oila va jamiyatda ayollarga hurmat va muhabbat bilan munosabatda bo‘lishgan. [46]

Islom Payg‘ambari (s.a.v.) johiliyat zamonida ayollar va ularning haq-huquqlari xususida rivojlangan noto‘g‘ri urf-odatlarga qarshi chiqdi va ayol shaxsiyatini jamiyatga qaytardi. Ul hazrat ayol va erkakning tengligi haqida illohiy dasturlarni xalqqa yetkazar edi. Oilada qiz tug‘ilishi nang-nomus hisoblangan va ularni tiriklayin yerga kumadigan zamonda Payg‘ambar (s.a.v.) jamiyatning ayollarga nisbatan izzat-ehtirom bilan munosabat qilishni ta’kidlab, shu tartib orqali ayollaga bo‘lgan adolatsizlik va noto‘g‘ri qarashlarni bartaraf etdi.

Qur’oni karimda Fir’avning xotini Osiya yoki Hazrat Maryam kabi buyuk ayollarning namunalari shunday ishonchni vujudga keltiradikim, insoniyat yo‘lida yuksalish va rivojlanish faqatgina erkaklarga xos emas, balki ayollar ham kamolot chuqqilariga yetish uchun say’-harakat qilishlari mumkinligi yaqqol ifoda etadi.

Majburlab erga berish, ayollarga nisbatan qupollik qilish, ayollarni ijtimoiy ijobiy fa’oliyatlari va fikriy rivojlanishlariga to‘g‘on bo‘lishning barchasi xato odatlarning namunalari hisoblanadi. Ammo afsuski, bu odatlar islomiy ayrim jomealarda din nomi bilan amalga oshiriladi. Hatto ayrim vaqtlarda ayollarga ta’lim berish gunoh deb hisoblanardi va ayollarning masjidga borishlari man’ etilgan edi. Hamda siyosiy, ijtimoiy va madaniy vaz’iyatga nisbatan ayollarning ogohliklari noto‘g‘ri ish deb hisoblanardi. Holbuk,i Rasuli Akram (s) bu haqda shunday marhamat qilgan edi: “Musulmon har bir erkak va ayol ilm o‘rganishi va bilimga ega bo‘lishi lozim.”

Islom qabul qilingandan so‘ng, qalblarning pokligi uchun, boshqalarning ko‘zlari musulmon ayollarning tanaviy go‘zalligini sezmasligi uchun xijob olish urf bo‘lib qoldi. Ushbu an’ana o‘zlarining nozikligi va oqligini yonayotgan quyosh

[46] Ислам и женщины Востока: история и современность. Ташкент, «Фан», 1992.

va quriydigan shamoldan himoya qilish uchun uzoq vaqt yuzlarini yopib qo‘ygan boy oilalardan bo‘lgan arab ayollaridan qabul qilingan. Bu odat Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan diniy va axloqiy qonunga aylantirilgan.[47]

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning Qur’on va sunnatlari ayollarning Islomdagi mavqeini mustahkam qilib quygan eng muhim hujjatlardir. Ular ayolning haqiqiy pozitsiyasini va yuksalishini anglatadi.

Muhammad payg‘ambarning hayoti haqida ko‘plab hikoyalar mavjud bo‘lib, ularda uni ayollar bilan munosabatlarining ba’zi jihatlari ham ta’kidlangan. Masalan, kunlardan birida, sayohat paytida Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) tuyada ketayotgan bir necha ayolni ko‘rgan. Haydovchi, bunday sayohat ayollarga katta noqulaylik tug‘dirishini unutib, hayvonlarni juda tez haydab ketayotgan bo‘lgan. Shunda Payg‘ambar unga: "Sen billur qutilarni olib ketayapsan, ularga ehtiyot bo‘lgin!" deb murojaat qilgan ekan.

Ma’lumki, buyuk payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning ko‘p yillar davomida muhabbat va do‘stlik bilan birga yashagan qirq yoshli Xadichadan to‘rt qizi bor edi: Ruqayya, Zaynab, Umma Gulsum va Fotima. U, ayniqsa, buvisi, marhum otasining onasi va tirik Abu Tolibning onasi va Xadichaning onasi sharafiga nomlangan kenja qizi Fotimaga nisbatan o‘zgacha mehr-muhabbat ko‘rsatar edi.

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni o‘z qizlari bilan suhbatlashayotgan hollari juda ko‘p uchrab turar edi. U ularni tarbiyalar edi, ularga mehribonlik qilib, otalik mehri bilan munosabatda bo‘lib, ularni o‘z uylarida mehmonlar deb atadi. Islomda ayolning oiladagi e’tiborli o‘rni borligi ko‘rsatilgan, oilada farzand tarbiyasi to‘liqligicha soliha xotin va ona bo‘lish kabi buyuk mas’uliyat yuklangan ayollarga bog‘liqligi belgilab qo‘yilgan. Ayol uyda nafaqat xotirjamlik va osoyishtalikni saqlaydi, balki yosh avlodni ham tarbiyalaydi. U o‘sib borayotgan qizlarning tarbiyasi uchun ham javobgardir. Demak, ushbu mas’uliyatli vazifarlarni sifatli bajarish uchun ayolga kamida eng minimal hayotiy bilim, ko‘nikma va malaka lozim. Tabiiyki, bularning barchasi faqat vizual ko‘zatuvlar yoki instinktli qobiliyatlardan rivojlantirilmaydi, balki tizimli, maqsadli ta’limning o‘ziga xos o‘rni talab etiladi.

Yana manbalarga murojaat qilsak, VII-asrga kelib surunkali matnlarni yozib olish bilan birga yozilgan hadislar paydo bo‘ldi. Hadis so‘zi arab tilida “so‘z” degan ma’noni anglatadi. Demak, hadis deganda payg‘ambar tomonidan aytilgan gap-so‘zlari ko‘zda tutiladi va tushuniladi.[48] Shundan kelib chiqib, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning har qanday tarixiy yoki xayoliy hayoti bilan bog‘liq rivoyat va hikoyalar hadis sifatida paydo bo‘lgan. Ular rivoyat xarakteriga ega edi va hanuzgacha Payg‘ambar (s.a.v.)ning o‘zi va sahobalarining hayoti haqida tarixiy manba hisoblanadi. [49] Hadislarda ta’lim olish, ayollarning ta’limi haqida ko‘p fikrlar o‘rin olgan.

Garchi, Qur’on har bir musulmon ayolga jamiyatda sharafli va yuksak mavqega ega bo‘lish huquqini bergan bo‘lsa-da, o‘rta asrlarda ko‘plab

[47] Вахтин Ю.Б. Жизнь пророка Мухаммеда. М.: Политиздат, 1990. – 495 б.

[48] Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

[49] Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферaполь. 1898.

xalifalarning savodsizligi tufayli (ya’ni, bu yerda inson omili, islom ta’limoti bo‘yicha emas – B.S.) ayollarning bu boradagi huquqlari ko‘pincha buzilgan. Keyinchalik, hadisshunoslar (muhad-dislar) Payg‘ambar so‘zlarini takrorlash va Qur’on tafsirini o‘z zimmalariga olganlarida, Islom dinining mohiyati ayollarga nisbatan tushuntirilib, tegishli tarzda yetkazila boshlangan.

Xalq orasida "Oliyjanob ayolni ulug‘laydi, qallob esa uni kamsitadi" degan naql bor. Bu maqolning maqsadi erkaklarni o‘zini munosib tutishga chaqirishdir. Islom dini ayolga mazmunli va taqvodor hayot kechirish uchun katta imkoniyatlar yaratib bergani sababli, erini qo‘llab-quvvatlashidan foydalanib, Allohni bilish istagini ro‘yobga chiqardi.

Ma’lumki, o‘rta asrlarda ta’lim va fan diniy xususiyatga ega bo‘lgan va ko‘pincha ayollar erkaklar bilan teng ravishda ta’lim olishlari muammoga aylangan. Ammo, xuddi osmonda yolg‘iz yonayotgan yulduzlar singari, baribir islom davridagi ayollar ham bashariyat tarixida o‘zlari porlab, yorqin va noyob iz qoldirdilar. Aksariyat adabiyot vakillarining eng qiziqarli she’rlari, hushyor ruboiylari va mazmunli g‘azallari ayolga bag‘ishlangan. Shubhasiz ayollarning o‘zlari ham chuqur ma’noga ega she’rlar va achchiq syujetli dostonlar yaratuvchilari sifatida munosib hissa qo‘shganlar.

Nizomii Aruzii Samarqandiy “Chahor maqola” (To‘rt maqola) kitobida u bilan astronomiyani o‘rgangan qizi haqida gapirib beradi. U qiz 15 yoshida yulduzlar bilan mukammal hisoblashi va inson taqdirini bashorat qilish qobiliyatiga muyassar bo‘lgan edi. Ko‘pchilik unga murojaat qilishgan va u doimo to‘g‘ri yechimni topib bergan.

Islom dini kirib kelishi bilan O‘rta Osiyoda qadimgi davrlardan buyon hukmronlik qilib kelgan mavjud ta’lim tuzilmalari eskirib, endi yangicha diniy tarbiya va ta’lim muhim ahamiyatga kasb etadi. Natijada mavjud dabistonlar endi diniy maktablarga yo‘l beradi, oliy maktab maqomidagi dabiristonning esa tarkibi va mazmuni o‘zgarib, madrasaga aylanadi. Shu bilan birga, diniy ta’lim ayollarga faqat xususiy ayollar maktablarida o‘qish imkoniyatini berar edi.

Hukmron dinga aylangan Islom, ilm-fan va ta’limni ham o‘z talqinida boshqardi. Endi Islom aqidasi birinchi o‘ringa chiqadi, ya’ni dinshunoslik fanlari. Maktablarda tolibu talabalar dunyoviy fanlarga nisbatan ko‘proq Qur’onni o‘rganar edilar. Hisoblash asoslari kamdan-kam hollarda o‘rganilardi, ko‘pincha faqat tijorat qilish uchun o‘g‘il bolalarga o‘rgatilar edi. Ayollar esa zarur holdagina hisoblash ilmi bilan shug‘ullanganlar. Maktab o‘quv dasturi Qur’on va uning tafsiri, diniy va axloqiy ta’lim, diniy kitoblarni o‘qish va Qur’on oyatlari va suralarini yod olish uchun arab yozuvini o‘rganishdan iborat edi.

Arab tili va arab yozuviga asoslangan yozuv Islom dini va islom ta’limotining tarqalishida muhim vosita bo‘lgan. Qur’on matnlarini sinchkovlik bilan saqlash maqsadida, Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ushbu asarga ko‘plab ulamolarni jalb qilgan holda, ularni nozil bo‘lgan oyatlarni yozib qo‘yishlarini buyurgan. Keyinchalik arab tili va’z va ibodatlarda keng qo‘llanila boshlandi. Adabiyot va fan ham yangi arab yo‘nalishini qabul qilgan. Arab yozuvlari mahalliy yozuv turlarini asta-sekin almashtirib, O‘rta Osiyoda hukmronlik mavqeini qo‘lga kiritgan.

Arablar O‘rta Osiyoga kelguniga qadar adabiy So‘g‘d tili va yozuvi, shuningdek, Urxun deb nomlangan turkcha xat bor edi. So‘g‘diy tili keng tarqalgan bo‘lib, ancha keng bo‘lib, Samarqanddan Xitoygacha bo‘lgan hududlarni qamrab olgan. [50]

Aholining keng qismi o‘qish va yozishni o‘rgangan, jumladan, ayollarga erkaklar bilan teng ravishda ta’lim olish taqiqlanmagan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hayoti haqidagi rivoyatlarga ko‘ra, uning ikkinchi rafiqasi Oysha o‘zining aql-idrok qobiliyatlari, ishtiyoqi va islomni o‘rganish va tarqatish istagi tufayli Rasulullohning alohida sevgisiga loyiq bo‘lib, o‘sha davrdagi Islomning eng buyuk yetti olimalaridan biriga aylandi.[51]

Yozish uchun o‘quv quroli, dastasi bo‘lgan tekis taxtadan iborat edi. Keyinchalik, o‘qituvchi siyoh, qamish, qalam yoki g‘oz pari bilan yozadigan “lavh”, ya’ni sayqallangan taxtalardan foydalanganlar. Bu o‘quvchilarning kundalik yozuvlari saqlanadigan bir daftar turi edi. [52]

Siyohdon charmdan yasalgan idishda saqlanar edi. Siyohdon idish arab tilida davot, mahalliy asosiy fors-tojik lahjasida siyohdon deb nomlangan. Siyohdondan tashqari, kalamdon ham bor edi. Ular odatda yog‘ochdan yasalgan. Portfel yoki barcha o‘quv qurollari uchun sumkalar paxta matodan tayyorlangan. Ularni ayollar mohirlik bilan kashtado‘zlik qilishgan. Boy oilalarda sumkalar teridan qilingan. Shuningdek, qizlar maktablari o‘quvchilari uchun kashta tikilgan, plakatlar, naqshlar va boshqa bezaklar bilan bezatilgan turli xil charm va paxtadan ishlangan sumkalar ishlatilgan.

Xalq hayotiga chuqur kirib borgan holda, asta-sekin arab grafikasi O‘rta Osiyoda yashovchi barcha xalqlarning maktab ta’limida yozuvning asosiy turiga aylanadi. O‘zbeklar va tojiklarning mahalliy xalqlari vakillari arab yozuviga asoslangan holda o‘z tillarida ta’lim olishgan.

Ilk o‘rta asr davrining kam o‘rganilgan masalalaridan biri bu qizlarning oila va oilaviy tarbiyasi masalasidir. V.V.Bartold “kad” so‘zini tahlil qilib, bu uy degan ma’noni anglatadi, lekin “xona”ga qaraganda kengroq ma’noda. “Kad” tushunchasi oila boshlig‘ining o‘z uyidan tashqari, bitta umumiy panjara ichida joylashgan o‘g‘illari, boshqa qarindoshlari yashash joylari hamda ularga tegishli turli xil binolarni qamrab oladi. Bunday ulkan o‘choqni saqlovchi yoki xonadon bekasi kadbonu deb nomlangan.

O‘rta Osiyo xalqlari hayotida islom dini kirib kelishi bilan yangi diniy dunyoqarashning shakllanishi va musulmon e’tiqodining ko‘rsatmalarini amalga oshirish boshlandi. Mehnat va o‘qitish ta’limotning asosini tashkil etardi, hamma uchun ilm-fan va bilimga intilish mamnuniyat bilan qabul qilinar edi. Oila shaxsni tarbiyalashning asosini tashkil etuvchi maskan sifatida ulug‘landi va ayolga unda bolalarni tarbiyalashda axloqiy va ma’naviy fazilatlar manbai maqomi berildi.

---

[50] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. М.: «Издательство восточной литературы», 1963. – 760 б.

[51] Мустафа Эриш. Жены пророка – Матери всех Правоверных – 2 издание. М.:ИГ САД, 2009. - 120 б.

[52] Ширматов А.И. Школьное образование у таджиков во II половине XIX – начале XX вв. (до 1917 г.) Дисс. соис.канд. пед.наук. Душанбе, 1967.

Ayollar, shuningdek, musulmonchilik turmush tarzining barcha qattiq talablariga qaramay, erkaklar kabi o‘qish huquqiga ega edilar. Faqat erkaklar nazoratisiz yoki ruxsatisiz uydan chiqmaslik, erkaklar huzurida ovqat yemaslik, begonalarga yuzini ko‘rsatmaslik, begonalar bilan suhbat qilmaslik kabi cheklovlar ayollar uchun oddiy kundalik hayotiy va axloqiy me’yorga aylanib boraverar edi.

Musulmonlar uchun oila ta’limining eng muhim muassasasi hisoblangan. Oilaning otasi avvalo o‘g‘il va qiz bolalarning tarbiyasi uchun Alloh oldida, jamoat oldida va urug‘ oldida to‘liq javobgar edi. Shuni ta’kidlash joizki, otaning javobgarlik maqomi onaning g‘ayrat va zahmatlari bilan qoplanar edi.

Islom dini kirib kelgandan keyin ham afsonalar va rivoyatlar, ertaklar va qissalar, qo‘shiqlar va dostonlar, baytlar va to‘rtliklar, maqol va matallar, shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhisallamning xalq xotirasida saqlanib qolgan va bizgacha yetib kelgan hadislari tarzidagi rivoyatlari, O‘rta Osiyo xalqlarining farzandlarni bolalikdan tarbiyalashdagi boy tajriba sifatida o‘z maqomini saqlab qoldi. Oilaviy an’analarga asoslanib, xalq san’ati ajdodlarning ulug‘vor, qahramonlik harakatlari, ularning mehnatsevarligi, ma’naviy va axloqiy fazilatlarini ko‘p yillar davomida og‘zidan og‘ziga o‘tib, xalq xotirasida saqlanishini ta’minlar edi.

Qizlar va o‘g‘il bolalarni birinchi navbatda kunni ertalab tongdan boshlashga majburiy o‘rgatar edilar. Quyosh chiqishidan quyosh botishigacha bolalar uy ishlarini kattalar bilan bir qatorda bajardilar. Ular kattalarga uy saqlash, yig‘im-terim, uy hayvonlariga qarash, bolalar va qariyalarga g‘amxo‘rlik qilishda yordam berishardi. Maqol va matallar, hadislar va qiziqarli hikmatlar, hikoyalar orqali to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiriladigan samimiy so‘zlar ta’lim va tarbiya ishlarini rag‘batlantirar edi.

Bolaligidanoq, o‘g‘il va qizlar onasining yonida qolishgan, u ularning birinchi o‘qituvchisi hisoblangan. Farzandlarining birinchi tarbiyachisi va o‘qituvchisi sifatida ish olib borgan onasi ularning axloqi va jamiyatdagi xatti-harakatlar qoidalari va boshqa odamlar bilan munosabatlar haqidagi bilimlarning dastlabki asoslarini yaratgan. [53]

Xalq amaliy san’ati ular uchun ta’lim qobiliyatlari, birinchi navbatda nutqning asosi bo‘lib xizmat qildi. Oilada bolalar kattalar hayoti bilan tanishish uchun birinchi ta’lim imkoniyatlarini olardilar. Xalq ijodiyoti namunalari hayot va atrof-muhitni o‘rganish, uning boyligi va go‘zalligini ochish uchun asos bo‘lib xizmat qilar edi.

Oiladagi bolalarning dastlabki tarbiyasi bolalar bog‘chalari va beshik ustidagi hazillardan boshlangan. Keyin bolalarning yotishdan oldin, kechqurun va kech payti aytiladigan ertaklari va qiziqarli hikoyalari ularni ajoyib kelajakka ishontirib, o‘zlari qahramon bo‘lgan ulkan mamlakatlarga olib ketishar edi. Bunday ertaklar bolajonlarning qalbiga nekbinlik va ajoyib kelajakni yaratish kabi buyuk maqsadlarni singdirar edi.

[53] Кухарева Е.В. Образование в арабских странах из глубины веков до наших дней / Педагогика.// https://cyberleninka.ru/article/v/obrazovanie – v – arabskih – stranah – iz – glubiny – vekov – do – nashih – dney. Дата обращения 20.04.2019).

Movarounnahrga islom dini kelishi bilan Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va Allohning borligi to‘g‘risida ko‘plab ertaklar va hikoyalar paydo bo‘ldi. Bu hikoyalarning barchasi Qur’on suralaridan olingan va bolalarga qiziqarli ertaklar shaklida bayon qilingan: “Hajga birinchi da’vat haqidagi voqea” , “Eng sabrli odam to‘g‘risida”, “Luqmonning nasihati”, “Jasur bolakay”[54] va boshqalar bolalarga ish va o‘qish orqali baxtli kelajakka umid bog‘lashni talqin qilardi.

Haqiqiy insoniy xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan hayvonlar va qushlar haqidagi ertaklar, shuningdek, mard ajdodlarimizning mehnati va qahramonligi haqidagi rivoyatlar ularning uzoq o‘tmish hayotidan bizgacha yetib kelgan. “"Qahramon va qush Simurg”, “Qarg‘a va qo‘zichoq”, “Dehqon va oltin ko‘za”, “Chiroyli va aqlli Farishtamox” va boshqa ko‘plab ertaklar hayotdagi o‘z pozitsiyalarini bilish, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va jasorat haqidagi dastlabki g‘oyalarni olish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Mashhur arab ertaklari “Ming bir kecha” ning asosini qadimiy Eron “Ming ertak” (VIII-asr) ertaklar to‘plami tashkil etadi. Keyinchalik hind, yahudiy va arab ertaklari qo‘shilishi bilan “Ming bir kecha” kitobi nashr etildi. Ushbu kitobda vazirning chiroyli va aqlli qizi Shahrizoda har kuni shoh Shahriyorga qiziqarli va ibratli ertaklar aytib, boshqa ayollarni o‘limdan qutqaradi. Shahriyor qizning ongi va go‘zalligini zabt etadi va unga uylanadi. Kitobda ayollar o‘qiydigan, quradigan, adolat uchun kurashadigan va erkaklar bilan birga o‘z vatanini dushmanlardan himoya qiladigan 300 dan ortiq ertaklar mavjud.

Xalqning ijobiy fazilatlari va tarixini o‘zida mujassam etgan ertaklar bu xususiyatlarni avloddan avlodga o‘tishning samarali vositasiga aylangan. Ko‘pgina ertaklarda ayollar nafaqat go‘zalligi va jozibasi bilan, balki aql va jasorat bilan ham ajralib turadi. Islom paydo bo‘lishining dastlabki bosqichlarida ham ayollar oiladagi vaziyatning ma’shuqasi sifatida alohida mavqeini saqlab qoldi. Faqat uning ruxsati bilan uy sharoitida va oilaviy munosabatlarda muhim qarorlar qabul qilinar edi.

Tarixiy manbalar va xitoy tarixchisi Chjan Szyan (miloddan avvalgi II-asr) ning hikoyalariga ko‘ra, qadimgi O‘rta Osiyo Davan (Farg‘onaning qadimgi nomi) zaminida arablar istilosidan oldin ham erkaklar muhim muammolarni ayollarning roziligisiz hal qilishmagan deb ta’kidlashimiz mumkin. Bunday masalalar ham oilaviy, ham davlat ahamiyatidagi, umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalar bo‘lishi mumkin. Bu davrdagi ko‘plab ertaklarning asosini aynan ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglik g‘oyasi tashkil etadi, ular keyingi yillarda arablarning istilo qilinishi va ayollarni qulga aylantirish bilan bog‘liq holda o‘z ma’nosini yo‘qotadi.

Shuningdek, o‘zlarining aql-idroki va zukkoligi bilan faqat uy xo‘jaliklarini boshqaribgina qolmay, balki bolalarni tarbiyalagan, ularga yozma mahoratini o‘rgatadigan, hayot haqidagi qiziqarli hikoyalarni, yodgorlik ruboiylarini, buyuk shoirlarning g‘azallarini yod olgan, hikoya qiluvchi oddiy ayollarning hayoti haqida ko‘p asar va tarixiy tavsiflar bizgacha yetib kelgan.

[54] Санйаснаин Хан. Мой первый Коран. Сборник рассказов. Золотые истории из Корана/ Спб: Дил», 2018. – 320 б.

Qadim zamonlardan buyon ayollar qiyofasini eng to‘liq ochib beradigan asar kichik hikoya, qissa (novella, hikoyat) deb nomlanadi. Bunday hikoyalarning ko‘plab to‘plamlari bizgacha "Jome’-ul-hikoyot" nomi ostida yetib kelgan. Bunday hikoyalarda ayol masalasi alohida va markaziy o‘rinni egallaydi. Ko‘pgina ertaklar va afsonalarning mazmuniga qarab, xulosaga kelish mumkinki, ayollar uchun mo‘ljallangan ta’limning dastlabki davri dasturida axloqiy va estetik qadriyatlar, shuningdek, uy saqlash mahorati va jismoniy tarbiya bor edi. “Malikai Husnobod”, “Malikai Xubon”, “Malikai Jahon”, “Malikai Dono” nomli xalq ertaklari qahramonlari o‘zlarini va boshqalarni dushmanlardan aqllari bilan himoya qila oladigan, eng qiyin vaziyatlardan chiqib, g‘alaba qozonadigan go‘zal, aqlli, kuchli qizlardir.

Barcha mavjud tarbiya va ta’lim usullarini tahlil qilish, o‘sha davrda savodxonlik deyarli ta’lim doirasidan tashqariga chiqib ketganligi to‘g‘risida aniq xulosa chiqarishga imkon beradi. O‘rta asrlarda savodxonlikning asosini bolalarga og‘zaki va yozma folklor san’ati orqali yetkazilgan insonning axloqiy fazilatlari tashkil etdi. Bu ya’ni, onaning va otaning hayotdagi, kundalik turmushdagi shaxsiy namuna, ibratidir.

Ayollar uchun madrasalarga kirish taqiqlanganligi sababli, ular ko‘pincha o‘z kasbiy faoliyati bilan yoki uyda erlarining homiyligi ostida ta’lim olish bilan shug‘ullanishgan. Kasb-hunar maktablarining o‘ziga xos yo‘nalishlari mavjud edi.

Qadim zamonlardan boshlab O‘rta Osiyo hududi badiiy hunarmandchilik va savdo-sotiqning yirik markazi bo‘lgan. Hunarmandchilikning barcha turlari ushbu hududda yashovchi xalqlarning an’anaviy hayoti va urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq edi. Kasbiy ta’limning asosiy yo‘nalishi “Ustoz-shogird” usuli edi, ya’ni ishlab chiqarish faoliyati jarayonida usta rahbarligida kasbni o‘qitilar edi.

O‘rta asrlarda ayollar maktabdan tashqari kasb-hunar bo‘yicha ham ta’lim olganlar. Hunarmandchilikning avloddan-avlodga o‘tishi avlod ustalari – “ustoz”dan “shogird”gacha bo‘lgan urug‘ mutaxassislari tomonidan o‘qitilish orqali amalga oshirilgan. Erkak hunarmandlar manbalarda “do‘kon” deb nomlangan alohida xonada ishlagan.[55] Ayollar-shogirdlar ham o‘zlarining ustozlariga ega edilar, ammo erkaklarnikidan farqli o‘laroq, ular uyda yoki uyda ayol-ustozlardan o‘z hunarlarini o‘rganar edilar. “Ustoz-shogird” ta’limi qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo‘lgan kasbiy mahorat maktabidir. Mehnat jarayonlari va kasb-hunar ta’limi ishtirokchisiga aylanib, shogird jiddiy sinovlardan o‘tardi va nafaqat kattalarga kundalik muammolarni hal qilishda yordam berar edi, balki o‘zini o‘zi tarbiyalar edi. Ustoz-shogird maktabi oxirida “Bel bog‘lash” yoki “Kamarbandon” marosimi bilan yakunlangan. Ushbu an’anaviy marosim mahoratning ma’lum darajasiga yetganlarga bag‘ishlangan yig‘in bo‘lgan. O‘qish tez-tez to‘lanadigan edi, shuning uchun ham jamiyatning barcha qatlamlari o‘qishga qodir emas edilar.

Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va tijorat ishlarining rivojlanishi bilan O‘rta Osiyo hududida professional maktablar o‘z imkoniyatlarini kengaytirdilar.

[55] История народов Узбекистана. С древнейших времен до начала XVI века. Том I. Ташкент, 1950. – 413 б.

Ayollarning maqomi bu jarayonda ancha oshdi, chunki oilalar va butun ko‘chalar ma’lum bir hunarmandchilik turi bilan shug‘ullana boshladilar. Oilaviy maktablarning faoliyat yuritishida ayollarning o‘rni katta ahamiyatga ega edi. Shaharlarning rivojlanishi va qo‘shni mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo bo‘yicha diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi har xil turdagi ko‘nikmalarni va shunga muvofiq ravishda kasb-hunar maktablarini keng tarqatishga turtki berdi.

O‘rta Osiyoning yirik shaharlari, masalan Samarqand, Buxoro, Marv, Xorazm, Choch, Xo‘jand, Kulob, Ustrushana, Qo‘qon, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qarotegin va boshqalarda hunarmandlar va kosiblarning “guzar”lari paydo bo‘la boshladi. Bunday guzarlar “Guzari Misgaron” (mis ustalari ko‘chasi), “Guzari ohangaron” (temirchilar ko‘chasi), “Guzari kosibon” (hunarmandlar ko‘chasi), “Guzari kulolon” (kulollar ko‘chasi), “Guzari kolinbofon” (gilam to‘qish ko‘chasi) deb nomlangan. “Guzari muzaduzon” (poyabzalchilar ko‘chasi), “Guzari charmgaron” [charmchilar ko‘chasi] va boshqalar. Har bir guzar yoki ko‘chada alohida darslar o‘tkaziladigan o‘z maktabi yoki shunga moslashgan uy-hovli bo‘lgan. Ba’zida bunday maktablarda charchoq bilan bog‘liq bo‘lmagan begonalar qatnashishi mumkin edi. Nazariy tadqiqotlar amaliyot bilan mustahkamlangan. Ba’zi guzarlar bugungi kungacha mavjud.

Ayollar, ayniqsa teridan ayollar va bolalar uchun buyumlar yasashgan, shuningdek, erkaklarga oilada charm bilan ishlashda yordam berishgan. Xorazmda Yakkparsan qasrida mayin teridan tikilgan kichik ayollar yoki bolalar poyabzali topilgan. Poyabzalning bosh barmog‘i yegilgan, tovon terisi ipi bilan mustahkamlangan. Bu yerda ishlov berilmagan, oyoq uchi bukilgan terining qismlari ham topilgan. Teri tikilgandan so‘ng, u chakana savdo do‘konlarida boshqa hunarmandlarga yoki kosiblarga “mahsi” yoki “ichigi” ayollar va erkaklar poyabzallarini tikish, sumkalar, pichoq uchun charm g‘ilof, siyoh idishlari va boshqalar uchun qayta sotilar edi. Bu borada Mug‘ tog‘idagi boshqa moddiy madaniyat yodgorliklari qatorida topilgan mato parchalari, shuningdek, VII asr oxiri va VIII-asr boshlarida teriga, qog‘ozga va tayoqchalarga yozilgan hujjatlar katta ahamiyatga ega.

Narshaxiyning “Buxoro tarixi”da Buxoro va Samarqandning hunarmandchilik ustaxonalari haqida juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, uning guvohligiga ko‘ra, bu yerdan Shom (Suriya), Misr va Rum shahriga materiallarni eksport qilgan savdogarlar Buxoroga kelishgan. O‘sha davr hukmdorlari orasida ushbu materialdan kiyim kiymagan podshoh, amir, rais yoki amaldor yo‘q edi. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda gilamchalar, pardalar, matolar, yostiqlar to‘qilishga mo‘ljallangan katta ustaxonalar bo‘lgan. [56]

Boshqa hunarmandchilik turlari singari paxta ishlab chiqarish, paxta savdosi va undan kiyim tikish, ko‘plab odamlarni ushbu hunarmandchilik bilan shug‘ullanishga jalb qilgan edi. Ustrushana (O‘ra-tepa), Marg‘ilon, Qo‘qon, Samarqand, Buxoro kabi ko‘plab savdo shaharlarining ko‘chalari va qishloqlari

[56] Арипов М. (Орифи). Из истории педагогической мысли таджикского народа. Часть I (IX – XI) вв.), Душанбе, “Ирфон”, 1962. – 162 б.

o‘zlarining ixtisoslashgan "do‘konlariga" ega edilar, u yerda qizlar-o‘spirinlar, ayollar o‘qishga kelib kasb-hunar ta’limini olganlar.

Paxta matolari bilan ishlash sohasi ko‘proq ayollar va qizlarni jalb qilgan. Paxta va ipak matolardan erkaklar va ayollar uchun chiroyli kiyimlar tikilgan. O‘rta Osiyo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoj ko‘plab savdo karvonlarini paxta kiyimlari va poyafzallarini sotib olish va buyurtma olish uchun jalb qilgan edi.

Ayollar uchun yana bir ta’lim-tarbiya maskani aynan matolar aylanishi bilan bog‘liq jarayon edi. Ma’lumki, O‘rta Osiyo qadimgi davrlardan boshlab o‘zining adraslari, atlaslari va banoraslari bilan mashhur bo‘lgan. Ushbu matolar asosan Marg‘ilon va Xo‘jandda ishlab chiqarilgan. Paxtadan yasalgan adras va shoyi atlasdan tikilgan ko‘ylaklar va gullar, chapanlar-xalatlar va boshqalar O‘rta Osiyo xalqlarining sevimli kiyimlari bo‘lgan. Ularning ko‘pchiligining etaklari va yenglari qirralari paxtadan ipdan yasalgan shiraz (to‘quv) bilan bezatilgan bo‘lib, mahsulot jozibali va xaridorgir bo‘lgan. O‘rta Osiyodan Buyuk Ipak yo‘lining barcha yo‘nalishlarida karvonlarning to‘plamlari yo‘l olib, quyoshli Baqtriya va So‘g‘d o‘lkasini ulug‘lashgan edi.

Ipak pillasini tozalash bo‘yicha mashg‘ulotlar uchun ayollar “hasharlar” (qo‘shma xayriya ishlari) tashkil qilardilar, bir-birlari bilan yig‘ilib, qarindoshlariga yordam berishar edi. Keyin tayyorgarlik jarayoni, ayniqsa, yumshoq ayol qo‘llarini parvarish qilishni talab qildi. Bunday ishlarni bajarishga hammaga ham ruxsat berilmagan. Ipak yigiradigan ustaxonaga aylanish uchun qizlar maxsus maktabdan o‘tishlari kerak bo‘lgan. Uzoq o‘rta asrlarda o‘qimishli qizlar boylik bilan yaxshi oilaga kirishi mumkin edi. Shuning uchun, faqat bir nechtasi ipak ustalari maktabida o‘qish uchun jalb qilingan. Ipak matolari turli xil soyalarda va naqshlarda tayyorlangan. Fors tilida ular “shoyi” (turkchada “ipak”), “atlas”, paxta aralashmasi bo‘lgan ipak “banoralar” deb nomlangan.

S.Ayniyning xotiralari orasida Buxoro ustaxonalaridan birining ayollar va qizlarning ipak pillani tozalash ishlari haqida qiziqish bilan hikoya qiluvchi "Erkakka aylangan ayol" hikoyasi juda muhim o‘rin egallaydi. [57]

Shunday qilib, O‘rta asrlar hunarmandchiligida nafaqat erkaklar, balki ayollar ham ishlagan degan ma’lumotni taxmin qilish mumkin. Mahorat san’atiga erishish uchun ta’limni hamma egallashi mumkin edi. Musulmon ayollar o‘qish va kasb-hunar ta’limi qobiliyatlaridan ajralmagan. Bu o‘rta asrlarning tarixiy asarlarida ham ta’kidlangan. Jumladan, XI asr o‘rtalarida tuzilgan "Tarix-i Bayxaki" asarida asrning birinchi yarmidagi voqealar va hodisalarni aks ettiruvchi qismida ayollarning hunarmandchilikdagi ulkan mavqei haqida ma’lumotlar berilgan. Xuddi shunday hikoyalar, xuddi o‘sha davrda yashagan Abu Said Meyxeneyskiyning tarjimai holida ham uchraydi. Ushbu asarlar o‘sha davr hunarmandlari haqidagi barcha ma’lumotlarning bebaho manbai hisoblanadi. Tarixchilar ko‘pincha “ayol yigiruv hunarmandchiligini va qisman to‘quvchilikni deyarli monopollashtirganini” ta’kidlaydilar.

O‘rta Osiyoda ayollar kasb-hunar maktablari asosan xususiy bo‘lgan. Nazariy darslar tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan amaliyot bilan birga

[57] Айни С. Воспоминания. М.Л.: Издательство АН СССР, 1960. -1087 б.

o‘tkazilar edi. Bu ayniqsa, paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq hollarda ko‘zga tashlanadi, chunki bu ishlarda ko‘pincha ayollar shug‘ullanishgan.

Bunday tikuvchilik mahorati va kashtachilik san’ati maktablari ko‘p yo‘nalishlarga ega edi. To‘shak va poyabzal, naqshli yostiqlar, suzan, sharflar va ro‘mollar, dubulg‘alar, tilla kashtalar va oddiy chapan, bolalar beshiklari uchun aksessuarlar, bolalar va kattalar kiyimlari va hattoki poyabzal bo‘yicha ham hunar maktabi mavjud bo‘lgan ekan. Yorqin iplar bilan ishlangan sharflar va ayollar chapanlari, ko‘ylaklari va yostiqlari O‘rta Osiyo hunarmand ayollarining uylarini bezab turardi. [35, 280].

O‘ra-tepaning Olkoron guzari aholisi ipak iplarni bo‘yash va qayta sotish bilan shug‘ullanishgan. Bo‘yash bilan asosan ayollar, erkaklar esa savdo bilan shug‘ullanishgan.[58] Qadim zamonlardan boshlab Kulob va Baljuvondagi hunarmandlar qog‘oz va ipak matolarni to‘qishgan va ularda chiroyli va yorqin gullarga naqsh solishgan. Ipak matolarni bo‘yash uchun qizil, yashil, ko‘k, jigarrang bo‘yoqlardan foydalanilgan.

VI-VIII-asrlarda ham So‘g‘d naqshli ipak to‘qilgan (kimxob) bir rangli matolari bilan mashhur bo‘lgan. Ushbu matodan ayollar oltin iplar, dasturxon va kamzul bilan bezatilgan tashqi kiyim tikdilar.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, garchi ko‘plab manbalar ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdosida ayollarning o‘rni to‘g‘risida jim tursalar-da, ayollar savdoda teng darajada muvaffaqiyatga erishganlar va buning uchun hisoblash asoslarini o‘rganishgan. Katta shaharlardagi gavjum bozorlarda va chakana savdo do‘konlarida kurpa va kurpachalar, yostiqlar, bolalar uchun anjomlar, erkaklar uchun kamar sharflar, bosh kiyimlar, poyabzal va kattalar uchun kiyim-kechak savdo-sotiqlari asosan ayollar kasbiga aylangandi. 1886 yilgi ma’lumotlarda quyidagi bozorlar ro‘yxati keltirilgan: paxta sharflari sotiladigan bozor; mat iplarni sotadigan bozor; jun bozor; pastga sotish uchun; xalat kiyimi bozori.

O‘rta Osiyoning tog‘li Badaxshoniga tashrif buyurgan xitoylik ziyoratchilar qadimgi davrlarda mahalliy xalqlarning kiyimlarini ko‘rib hayratda qolishgan. Ularning ma’lumotlariga ko‘ra, har qanday mato ham Toxaristonda ishlab chiqarilgan degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Masalan: Badaxshonga tashrif buyurgan xitoylik ziyoratchi Son Yun (510 yil) oddiy odamlar teridan, boylar qimmatbaho matolardan kiyim kiyganligini ta’kidlaydi. Buddist ziyoratchilar o‘z esdaliklarida Badaxshon aholisi jun va teridan tikilgan kiyimlarni kiyishganligi haqida Badaxshonning kiyimlari haqida yozishgan. Boshqasining xabar berishicha, qishlari uzoq va sovuq bo‘lgan Vaxonda oddiy odamlar namat va teridan tikilgan kiyimlarni, shoyi va paxtaning shohini kiyishgan. Teri va paxtadan tikilgan kiyimlar Hutalda ham nishonlanadi. Shunday qilib, Vaxon, Xutal va Pomir (hozirgi Tojikistonning Tog‘li Badaxshon avtonom viloyati) deb nomlangan uzoq tog‘li hududlari bo‘lgan Toxariston qismi aholisi farovonlik va dabdabada yashashgan. Qadim zamonlardan buyon Buyuk Ipak yo‘li bu hududdan o‘tgan.

[58] Мухторов А. Гузары Ура–тюбе.Ташкент, Чулпон,1995. – 144 б.

Ushbu hudud aholisining boyligi ko‘pincha jangovar ko‘chmanchilarni o‘ziga jalb qilar edi.[59]

Pomirdagi barcha og‘ir sharoitlarga qaramay, odamlar bilimlarni o‘rganishga intilishgan. Uzoq qish kechalari va qattiq sovuq iqlimi odamlarni uyda o‘tirishga va o‘qishga majbur qilgan. Pomir bir tomondan Xitoy, Afg‘oniston va Hindiston bilan chegaradosh bo‘lganligi sababli, boshqa tomondan karvon yo‘llari ko‘pincha Pomir orqali quyi oqimlarda yashagan uyg‘urlar, turklar, so‘g‘dlar va boxtarlar bilan o‘tib borar edi.

Ko‘pgina yozma manbalarda dastlabki o‘rta asr O‘rta Osiyo va Hindiston o‘rtasida savdo aloqalari mavjudligiga bevosita dalolat beradi. Narshaxiy bu haqda Buxoroning mashhur “zandanachi” paxta matolari ko‘plab uzoq mamlakatlarga eksport qilinganligini yozadi. Balki ularni Pomir orqali ham Buxorodan olib ketishgan. Pomir aholisi savdo-sotiq orqali dabdabali hayot kechirgan va tillarni o‘rganishga moyil bo‘lgan. Pomir tili eng qadimiy Eron tillarining Sharqiy Eron guruhiga kiritilgan.

Gilam to‘qish qadim zamonlardan ayollar uchun ko‘p vaqt talab etgan kasb hisoblangan. Ushbu faoliyat va tijorat turiga oilalar jalb qilingan. Ko‘lob va Baljuvonda ko‘chmanchilar gilam, gilamchalar, gilamlar to‘qib yurishgan. Ularning katta podalari bor edi. Paxta va jun iplaridan gilamchalar Xorazmda ham qilingan.

Yuqorida ta’kidlanganidek, savdolarning sonini kuzatib borish va qayd etish uchun ayollar asosiy arifmetik mahoratga muhtoj edilar. Shuning uchun, majburiy tarzda ayollarni qizlar maktablarida arifmetikani o‘qib, hisoblashni o‘rganishlarini hayotiy ehtiyoj ekanligini tushuntirishgan. Odatda ayollar oddiy mahalla maktabiga qatnashib, ayollarni sanashni bibixalifadan o‘rgangan. Savdo rivojlangan yirik shaharlarda maktabga borish unchalik qiyin bo‘lmagan.

Savdo ayollarni til o‘rganishga ham majbur qilgan. Odatda yirik madaniy markazlarga turli mintaqalardan ziyoratchilar tashrif buyurishgan. Yonma-yon yashab, tojiklar va o‘zbeklar odatda ikkala tilni tushunar va gaplashar edilar. Ammo, savdo arab, hind va xitoy tillarini, keyinchalik esa rus tilini o‘rganish uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Shunday qilib, ko‘plab kasblarga ega bo‘lgan erkak aholisidan farqli o‘laroq, faqat kasb-hunar maktablari ayollar uchun mavjud edi. To‘qimachilik va tikuvchilik qobiliyati boy oilalarda ham rag‘batlantirilar edi. Va oddiy oilalarda mohir hunarmandlar yaxshi daromadli oilalarga uylanishi mumkin edi. Shu sababli, ajdodlarimiz orasida kasbiy mahoratni o‘rganishga intilish har doim rag‘batlantirilib kelingan.

Shunday qilib, Islomning kirib kelishi bilan ayollar o‘zlarining avvalgi mavqeini, ya’ni g‘ayratli va hukmron ayol, asosan, bolalarni tarbiyalash va uy-ro‘zg‘orni boshqarish bilan shug‘ullanadigan, vazmin, xushmuomala va diqqatli uy bekasi kabi maqomini yanada kuchaytirdi.

[59] Собирова К.Д. Изучение истории древнейших времен Памира в трудах академика Б.И.Искандарова Вестник ТНУ, 2019, №1

O‘rta asrlarning dastlabki davrida, O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga Islom kirib kelganidan so‘ng, erkaklar va ayollar uchun ta’limni tashkil etishda shariat qoidalariga muvofiq cheklovlar mavjud bo‘lgan. Ammo erkaklar egallagan ta’limning asoslari ayollar uchun ham ahamiyatini yo‘qotmadi. Ayollar maktablarida ayollar o‘qishgan va muvaffaqiyatli tugatgandan so‘ng ular an’anaviy maktablarda dars berishgan yoki xizmat qilishgan, kitoblardan muqaddas oyatlarni o‘qiganlar, ularning mazmunini sharhlaganlar va hokazo.

Sharqona an’analarga ko‘ra, insonni maqsadga axloqiy va vatanparvarlik fazilatlari orqali erishishga yo‘naltiradigan adabiy-badiiy asarlar tarbiyaning asosiy manbalari hisoblangan. Ayollar barcha ta’lim qobiliyatlari va tarbiyaviy fazilatlarni farzandlari orqali barcha avlodlarga yetkazishning asosiy bo‘g‘ini sifatida o‘z maqomini yo‘qotmagan. Hatto ba’zi ertaklarning motivlaridan ularning o‘zlari o‘tmishdoshlari haqida ertaklar yaratib, o‘z farzandlarini yaxshi fikr va niyatlar, jasorat va aql-idrok orqali baxtli hayotga ilhomlantirgan deb taxmin qilish mumkin.

Ayol hamon odatdagidek mahorat maktablarida ezgu maqsadga erishishda, uy ishlarini olib borishda, o‘zining kasbiy fazilatlariga tayanadi. Ayollar tut yoki paxtani qayta ishlaydi, paxtadan va ipakdan mato to‘qadi, uy uchun turli xil kiyim va anjomlar tikadi, matolarga naqshlar chizadi va qo‘llaydi, teridan har xil buyumlar va poyabzal tayyorlaydi, oltin va oddiy iplar bilan kashta tikadi va to‘qilgan anjomlar, paypoq, bosh kiyim va sharflarni hayotning ma’naviy mazmunini boyitishga yo‘naltiradi.

Boshqa tomondan islomiy jamiyatlarda mavjud bo‘lgan noto‘g‘ri madaniy dasturlar bu davlatlarda ayollarning nomunosib vaz’iyatlarga yuzma-yuz bo‘lishlari sababiga aylangan va bu esa mazkur jamiyatning diniy ayrim ahkomlarining noto‘g‘ri odob-an’analari va xurofotlari bilan aralashib qolganligining belgisi edi. Masalan, ayrim mamlakatlarda oiladagi qupollik, ya’ni qizlarga qarshi kamsitish, zudlik bilan turmushga chiqish, ularning savodxonligiga muxolifat qilish kabi narsalar qabilalarning urf-odatlaridan ildiz oladi va islom mubin diniga tegishli emas.

Qadimiy urf-odatlar dunyoning ayrim mintaqalarida, ayniqsa qishloqlarida ayollarni meros olish haq-huquqlaridan mahrum etishgan va shu tartib bilan vafot etgan shaxsdan qolgan barcha mol-mulk faqat bu oilaning erkaklariga nasib qilardi. Holbuki, Qur’oni majidda har bir erkak va ayol merosining hissasini ochiq aniqlab berilgan.

Islom dinining afzalliklaridan biri bu jamiyatlar-ning to‘g‘ri rasm-rusum, urf-odatlari va madaniyatlariga hurmat–ehtirom zohir etishdir. Ayni holda jamiyatning noto‘g‘ri rasm-rusum va odatlarini qayta ko‘rib chiqib isloh etadi. Bu esa tarixning turli davralarida, illohiy anbiyolar zuhur topish vaqtida amalga oshirilgan bir harakat sanaladi.

Ayollarning ilm olishlari masalasida, yuqorida aytib o‘tganimizdek, ayol va erkak musulmonlarga ilm o‘rganmoq farzi ayndir, deb belgilab quyilgan. Qur’onda faqatgina ayollarning o‘ziga xos, fitratiga muvofiq kelgan Allohning xitoblaridan tashqari (masalan, avratlarini to‘sish, bola emizish, idda muddati, taloq to‘g‘risida

va hokazo) qolgan barcha oyatlar Alloh taoloning bashariyatga, erkag-u ayolga qilgan xitoblari hisoblanadi.

Ilm haqidagi chaqiriqlar ham shular jumlasidandir. Islomda iymondan keyingi farzi aynlardan biri ilm olishlikdir (“farz” bajarilishi shart degan ma’noni ham anglatadi). Zero, Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ga yetkazgan birinchi kalom ham “O‘qi!” bo‘lgan. Chunki, diniy ta’limotga ko‘ra, Alloh taolo bandasini tafakkur qilib, borliqqa qarab, tahlil bilan O‘zini tanishini xohlaydi. Ko‘r-ko‘rona iymon keltirishlikni xush ko‘rmaydi.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Ilmni Chinda bo‘lsa ham borib, olinglar”, deganlar. Negadir hozirda musulmonlar orasida ilm deganda, faqat diniy ilmlar tushuniladi. Bu xato tushuncha. Islomda diniy, dunyoviy, degan gaplar bo‘lmagan. Ilm sohalarga bo‘lingan, xolos: fiqh, hadis, faroiz, tib, handasa, tarix, falakiyot ilmlari va hokazolar. Musulmonlar Qur’on va sunnatga amal qilgan vaqtlarida ularning orasidan ilmning barcha sohalarida dunyoga tanilgan allomalar yetishib chiqqan. Bunga o‘zimizning vatandoshlarimiz Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ulug‘bek, Zamaxshariy va boshqa ko‘plab olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

Islom olamida birinchi darsxonalar, madrasa va masjidlar ochilib, diniy va boshqa bilimlarni tahsil etishda ayol-erkak ajratilmagan. Chunki Islomda ilm olishda ayol-erkak tengdir. Shu fikrimizga dalel sifatida Imom Saraxsiy (r.a.)ning marhamatini keltirsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi: “Alloh taologa iymondan so‘ng, eng quvvatli farz – ilm talab etishdir. Chunki Rasulullоh (s.a.v.): “Ilm talab etmoq har musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, deb buyurganlar.

Islom ta’limotida ilm – nubuvvatning merosi hisoblanadi. Payg‘ambarlar ilmni meros qoldiradilar. Erkaklar nubuvvat merosida qanchalik haq sohibi bo‘lsalar, ayollar ham shunchalik haq sohibidirlar, deb talqin etiladi.

Shubhasiz, shariatning uch amal tayanchi bor. Bular: ilm, amal, ixlos. Shu uch ju’zdan har biri haqiqiylashsa, shariat haqiqiylashadi. Bir kishida bu uch ju’z bilan shariat vujudga kelsa, Alloh roziligi qozonilgan bo‘ladi.

To‘rt xalifa zamonlari o‘tib ketgach, Islom davlatlarida soxta din peshvolari tarafidan ayollarning ilm olishini ta’qiqlaydigan uydirma hadislar ham yuzaga keldi. Holbuki, Rasulullоh (s.a.v.) va Horun ar-Rashid davrlarida ayollar ilm tahsilining cho‘qqisida bo‘lganlar. Kimki “Muslima ayollarning ilm olishini din ta’qiqlagan yoki ta’qiqlaydi” iddaosini ilgari sursa, bilingizki, u kimsa Islomga xiyonat etgan.

Islom keltirgan ilm inqilobi ayollar uchun bir najot eshigidir. Madinada yangi tuzilgan Islom jamiyati va davlatida o‘qib-yozadigan ayollar ham oz emasdi. Mashhur sahobiya Ash-Shifo binti Abdulloh al-Adaviyya islomdan avval o‘qish-yozishni bilardi. So‘ng bir qancha sahobiyalarga o‘rgatdi (masalan, Hafsa binti Umar al-Foruq). O‘zi shu tariqa islomda ilk muallima bo‘ldi. Ash-Shifodan tashqari o‘qish-yozishni biladigan Hazrat Oisha, Hafsa, Ummu Salama, Karima bintul Miqdol, Ummu Gulsum binti Uqba va Oisha binti Sa’d kabi sahobiyalar zikr etilgan. Ular Muhammad (s.a.v.) so‘zlarini tushunib olib, odamlarga yetkazar edilar.

Olima sahobalar yonida shoiralar ham bor edi. Hazrati Payg‘ambar (s.a.v.) qizi Fotima az-Zahroning sut qarindoshi Ash-Shayma bintul Horis as-Sa’diyya, Al-Hafsa binti Amr ibnish-Sharid, Atiqa binti Zayd va Najiya binti Jundub al-Aslomiy shoira sahoba ayollar edilar. Tarixda Islom olamida mashhur ayollar Misr, Ispaniya va Afrikadagi mamlakatlarning bir qanchasiga daxldorlar. Molik bin Anasdan rivoyat etgan Obida al-Madaniyya, Imom Buxoriyning “Al-jome as-sahih”ini Makkada rivoyat etgan Karima al-Marvaziyya mashhurdirlar.

Tasavvuf sohasida ham ko‘zga ko‘ringan ayollar bo‘lgan, bulardan mashhurlari Robia al-Adaviyya, andalusiyalik Fotimalar ma’lum.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan manbalarning ma’lumotlari, adabiyotlardagi mulohazalar tahliliga tayanib, qadimgi zamon ayollar ta’lim tarbiyasidagi pedagogik omillar bo‘yicha ilmiy izlanishni tarkibiy qismi sifatida ayollar ta’lim va tarbiyasi tizimining shakllanishiga islom dinining ta’siri haqida shunday xulosa qilish mumkinki, aslida islom ta’limotida ayollar ta’limiga deyarli to‘siq yo‘q. Bu boradagi muammo asosan inson omiliga bog‘liq bo‘lib, islomning qaerda va qanday talqin etilishiga nisbatan tasvirlangan. Aksincha, islom ta’limotining ta’lim olishga, ta’limni tashkil etishga bo‘lgan munosabatida axloqiy tarbiya bilan bog‘liq pedagogik omillarni talaygina ko‘rishimiz mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan manbalarning ma’lumotlari, adabiyotlardagi mulohazalar tahliliga tayanib, qadimgi zamon ayollar ta’lim tarbiyasidagi pedagogik omillar bo‘yicha ilmiy izlanishni tarkibiy qismi sifatida ayollar ta’lim va tarbiyasi tizimining shakllanishiga islom dinining ta’siri haqida shunday xulosa qilish mumkinki, aslida islom ta’limotida ayollar ta’limiga deyarli to‘siq yo‘q. Bu boradagi muammo asosan inson omiliga bog‘liq bo‘lib, islomning qaerda va qanday talqin etilishiga nisbatan tasvirlangan. Aksincha, islom ta’limotining ta’lim olishga, ta’limni tashkil etishga bo‘lgan munosabatida axloqiy tarbiya bilan bog‘liq pedagogik omillarni talaygina ko‘rishimiz mumkin.

25.3. Musulmon maktablari va unda ta’lim- tarbiya mazmuni

Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiya rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatdilar. Maalan, arab mulklarining dastlabki xaritalari IX asrda tuzilgan bo‘lib, ularda daryolar oqimi to‘g‘risida mufassal ma’lumotlar bo‘lgan. Ispaniyadan Markaziy siyo va Hind daryosigacha cho‘zilgan musulmon dunyosi bu xaritada batafsil ko‘rsatilgan. Ko‘p hududlarga arabcha nomlar beriladi. Xususan, Movarounnahr ham arabcha bo‘lib, «daryo orti» ma’nosini bildiradi.

Islom Arabiston yarim orolida uning ko‘p asrlik tarixidan o‘sib chiqqan yaxlit diniy-siyosiy oqim sifatida vujudga kelgan bo‘lsa, ayni paytda u qadimgi dunyoni idrok etishning tushkunligi va o‘rta asr jamiyatining tiklanish davrida butun yaqin sharq ma’naviy ehtiyojiga aks sado ham bo‘ldi. Siyosiy g‘alaba hamda o‘ziga yangi o‘zga qarashlarni singdira bilishi tufayli u o‘rta asr davri borliqni mafkuraviy idrok etishning asosiy shakllaridan bo‘lib qoldi. Islomning g‘alaba qilishida uning asoschisi, Allohning vakili bo‘lgan payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning shaxsi katta rol o‘ynadi.

Movarounnahrda boshqa istilo etilgan davlatlar qatorida islom dini bilan birga uning muaddas kitobi «Qur'on»ning tili, arab tilini o‘rganish joriy etildi. Bu kitobni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlandi.

Musulmon maktablarida arab tili muhim fan sifatida o‘qitilardi, bilim Shu tilda o‘rganilar edi. Arabistondagi kaaba Movarounnahrda ham barcha masjidlar huzurida maktablar ochiladi va o‘g‘il bolalarga shu maktablarda Qurg‘on o‘qishni o‘rgatishga farmon beriladi. Bolalarni shu masjid imomi o‘qitar edi.

Uzoq o‘tmishimizdagi ta'lim-tarbiya tizimi, uning bosqichlari, muassasalarri yaxlit holda o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Ayniqsa, saqlanib qolgan oliy madrasalarga faqat me'moriy yodgorlik sifatida qaralib, ularning o‘tmish oliy ta'limi tizimidagi o‘rni deyarli o‘rganilmagan.

Bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarning ko‘pchiligi mamlakatimizda Islom tamadduni davrlariga tegishli bo‘lganligi sababli ularga ta'lim-tarbiya tizimi va muassasalari – maktab, madrasa, madrasai oliya kabi arabcha atamalar bilan atalgan.

Ma'lum bo‘lishicha, o‘tmish ta'lim-tarbiya tizimi uch bosqich va uning uch muassasasi – boshlang‘ich maktab, o‘rta maxsus (madrasa) va oliy, ya'ni madrasai oliyadan iborat bo‘lgan.

Ta'limning birinchi bosqichi boshlang‘ich maktab – «madrasat-ul-ibtidoiya», ikkinchi bosqichi – o‘rta maxsus bilim yurti – «madrasat-us-sonaviya» va uchinchi – oliy o‘quv yurti – «madrasat-ul-oliya» tarzida nomlanishi qayd qilingan. Shu bilan bir qatorda davr taqozosi bilan ta'limning ikkinchi bosqichi – ixtisoslashtirilgan bilim yurtlari – «madrasat-ul-harbiya» (harbiy bilim yurti), «madrasat-us-sano‘iya» (san'at bilim yurti), «madrasat-ul-muallimin» (pedagogika instituti) tarzida atalishi ham uqtirilgan.

O‘tmish ta'lim tizimidagi uchinchi bosqich – oliy ta'lim muassasasi «madrasai oliya» deb atalgan va u universitet maqomida bo‘lgan.

Manbalarda qayd qilinishicha, IX-X-asrlarda Samarqandda 17 ta madrasa bo‘lgan (hozirda ular saqlanmagan, nomlari ham ma'um emas). Bu madrasalar orasida madrasai oliyalari ham bo‘lganki, ularda faqat Movarounnahrdan emas, balki arab mamlakatlaridan ham tolibi ilmlar tahsil olganlar.

Bunday an'ana sohibqiron Amir Temur va temuriyzoda Mirzo Ulug‘bek davrida yanada yangicha va o‘ziga xos xususiyat bilan boyigan. Mirzo Ulug‘bekning Samarqanddagi madrasai oliya majmuasi keyinchalik qurdirilgan rasadxona bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, ular ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarning o‘zaro aloqadorligining yorqin namunasidir.

Madrasai oliyaga talabalarni qabul qilish, mudarrislarni tayinlash, ularni sinovdan o‘tkazish uchun Qozizoda Rumiy boshchiligidagi olimlar hay'ati va ilmiy kengash faoliyat ko‘rsatgan. Yig‘ilishlarda Mirzo Ulug‘bekning o‘zi ham qatnashgan. Talaba, mudarris va madrasa xodimlari moddiy va ma'naviy jihatdan rag‘batlantirilib turilgan. Madrasai oliyani bitirganlarga dars berish uchun ijozatnoma – diplomlar berilgan. Qozizoda Rumiy qo‘l qo‘ygan ana Shunday ijozatnomalardan biri O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanadi.

Mirzo Ulug‘bekning madrasai oliyasi keyinchalik zamon va davrlar taqozosi bilan bir maromda bo‘lmasa-da, XX-asr boshlarigacha o‘z faoliyatini davom ettirgan. XX-asrda Samarqandda tashkil etilgan va keyinchalik universitetga aylantirilgan pedakademiya Ulug‘bek asos solgan «madrasai oliya»ning o‘zgargan ko‘rinishi edi, desa bo‘ladi. Buni tabiiy hol deb atash mumkin, chunki G‘arb mamlakatlaridagi universitetlar ham o‘Sha o‘lkalardagi qadimiy seminariyalar asosida shakllangan.

Shunday ekan, Samarqand davlat universiteti Mirzo Ulug‘bek asos solgan «madrasai oliya»ning bevosita vorisi desa bo‘ladi.

25.4. Hadis ilmining paydo bo‘lishi

Hadis (arab. «xabar», «yangilik») – Muhammad (sav) ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, ko‘rsatmalari to‘g‘risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo‘ladi: matn va isnod. **Matn** – hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya’ni ma’nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari. **Isnod** (arab. – tirgak, dalil, asos) – har bir hadisning tarkibiy qismi. Isnod aytilgan so‘zni aytuvchisiga bog‘lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan isnodni bir ma’noda qo‘llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo‘lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab hadislarni to‘plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari Birma-bir ko‘rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hasoblanadi. Hadisning haqiqiy yoki soxta ekanini ulamolar shu ilmlarni taqqoslash yo‘li bilan tekshirgan. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatlari shartga to‘g‘ri kelsa, isnod to‘g‘ri, demak hadis ham to‘g‘ri deb hisoblangan.

Hadis ikki turga bo‘linadi:

1. Hadisi Qudsiy.
2. Hadisi Nabaviy.

Hadisi Qudsiy – ma’nosi olloh taoloniki bo‘lib, aytilishi Rusulullo (sav)dan bo‘lgan hadislar. Uni Olloh taolo o‘z nabiysiga ilhom berish, tushida ko‘rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg‘ambar (as) esa, buning ma’nosini Olloh nomidan, Olloh taolo aytdi, deb sahobalariga etkazganlar.

Hadislar e’tiborga olinishi jihatidan esa yana uch qismga bo‘linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif.

Qur’oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etiladi. Ularga aniqlik kiritish va izohlab uqtirish uchun Muhammad (sav) o‘z hadislarini aytganlar. Bu hadislarni payg‘ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat qilardi. Rasulullo (sav) hayotlik chog‘larida sahobalarning Qur’oni karimga hadislarni aralashtirib yuborishlaridan qo‘rqib, hadislarni yozishdan qaytarar edilar. Rasulullo (sav) vafotlaridan keyin hadislarni naql qilish odat tusiga kirdi. SHu munosabat bilan Payg‘ambarimiz (sav) hadislariga begona so‘zlar aralashib qolishidan va hadis naql qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan hadis zoe bo‘lishidan qo‘rqib, uni yozma shaklda to‘play boshladilar.

Hadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo‘lib, bular mehr-oqibat ko‘rsatish, sahiylik, ochiq ko‘ngillilik, ota-ona va kattalarga, qarindoshlarga g‘amxo‘rlik, hurmat, faqir-bechoralarga

muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni ulug‘lash, halollik, poklik, o‘zaro do‘st, tinch-totuv bo‘lish va boshqalardan iboratdir.

Bundan tashqari, insonning o‘zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand-nasihatlar ham o‘z ifodasini topganki, bularning barcha Qur’oni karim ko‘rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni shakllantirish mezoni sanaladi.

Hadislarda insonning ma’naviy kamoloti mezoni, uning tafakkur doirasi, dunyoqarashining kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani, o‘z bilimi bilan atrofdagilarga, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib etishishida muhim omil – **bilim** deb ko‘rsatiladi.

Hadislarni to'plash va ularga muayyan tartib berish asosan VIII-asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni eng bilimdon, turli fan asoslarini mukammal o'rgangan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishi (muhaddis)lar tartib bergan. VIII-XI-asrlarda to'rt yuzdan ortiq muhaddis hadis ilmi bilan shug‘ullangan. Mazkur bilimlarni o'rganishning o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, «hadis ilmi» nomi bilan yuritilgan. Keyingi -yillarda Muhammad alayhis-salomning hayoti, faoliyati hamda uning diniy-axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan hadislar, Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-jome’ as-sahih» («Ishonarli to'plam»), «Al-adab al-mufi^d» («Adab durdonalari»), Imom Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning «Ash-shamoil an-nabaviya» asarlari nashr etildi. «Hadis» yoki «Sunna» so'zlari bir ma’noni anglatib, Rasulullohning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat.[60]

Muhammad alayhis-salomning ibratli ishlari, e’tiqod, poklik va insonga xos ma’naviy-axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zlari, pandnasihatlari uning nomi bilan bog‘hq hadislarda mujassamlangan. Hadislar dastlab yozib borilmagan. Payg‘ambar Muhammad alayhissalom arab bo'lmagan kishilarning hadislarni Qur’oni Karim oyatlari bilan adashtirib yuborishlaridan cho'chib, hadislarning yozib borilishiga ruxsat etmaganlar. Biroq payg‘ambar Muhammad alayhis-salom huzurida sahobalar bo'lib, ular Rasuli akramdan eshitgan hadislarini yodlab borganlar. Jumladan, hazrati Abu Hurayra ana shunday mo'tabar kishilardan biri bo'lib, hadislarni mukammal yodlab borgan. Abu Hurayra tomonidan qayd etilgan hadislar to'g‘ri, ishonarli (sahih) hadislar hisoblangan. Lekin hadislarni yod olgan kishilar sonining tobora kamayib borishi natijasida ularning asta-sekin unutihb ketishi borasidagi xavf yuzaga keladi. Ana shu xavfning oldini olish maqsadida xalifalar ishonarli hadislarni to'plashga farmon berganlar. Hadislarni to'plash xususidagi farmon xalifa Umar tomonidan berilgan. Hadislarni yozib borish bilan mashg‘ul bo'lgan ilk muhaddislar sifatida Rabee bin Sabeh, Said ibn Abi Aruba, Molik bin Anas, Abdumalik bin Jurayj Makkiy, Abdurahmon al-Avzoiy Shoshiy, So'fyon Savriy Kufiy va boshqalardir.

Hadislarda insonning kamolotga erishishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar ifoda etilgan boiib, bu fazilatlar sirasiga o'zgalarga mehroqibat ko'rsatish, saxiylik, ochiq ko'ngillilik, ota-ona, kattalar va qarindoshlarga nisbatan m uruw atli bo'hsh, ularga g‘amxo'rlik qihsh, vatanga muhabbat, mehnat va kasb-hunarni

[60] K.Hoshimov,S.Nishonova, Pedagogika tarixi, 50-bet

ulug‘lash, halollik, poklik, do'stlik, oliyjanoblik, rahm-shafqatlilik, kam tarlik, rostgo'ylik va vijdonlilik kabi xislatlar kiritiladi. Bundan tashqari, insonning o'zini yomon illatlardan tiyishi, yaxshilik sari intihshi kerakligi borasidagi pandnasihatlar ham o'z aksini topganki, bularning barchasi Qur’oni Karimda qayd etilgan ko'rsatmalarga asoslanilg an va komil insonni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Islom ta’limoti g‘oyalariga ko'ra har bir musulmon eng avvalo iymonli bo'lishi kerak. Qur’oni Karim da ta ’kidlanganidek, Islom dini ta’limotining yaratilishidan muddao, murod kishilarda iymon, e’tiqodni shakllantirishdir. Hadislarda iymonning mukammal va mustahkam bo'lishi quyidagi uch shartga qat’iy amal qilinishiga bog‘liqligi ko'rsatilgan:

to'g‘ri e’tiqodh bo'lmoq;

kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lmoq;

kishi o'z ustida ishlamog‘i va o'zini ibodat va itoatga chaqirmog‘i.

Iymon daraxtga tenglashtiriladi va uning 60 dan ortiq shoxlari bor deya iymonning belgilari sanab o'tiladi. Bu belgilarning har biri inson ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi va m ukam m allashtiruvchi xislatlardir. Bular quyidagilardan iborat: «qo'li bilan va tili bilan o'zgalarga ozor bermagan kishi musulmondir», «o'zingiz yaxshi ko'rgan narsani birodaringizga ravo ko'rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo'min bo'la olmaysiz» (3-4-boblar);

«Uchta xislatni o'zida mujassam qilgan kishining iymoni mukammal bo'lgaydir: - insofli va adolatli bo'lmoq; - barchaga salom bermoq;

-kambag‘alligida ham sadaqa berib turmoq» (20-bob).

Bundan tashqari, kishilar uchun xos bo'lmagan munofiqlik xislati xususida ham so'z yuritiladi, chunonchi, «Rasulullоh sallallohu alayhi vassallam aytganlar: «Quyidagi to'rtta xislat kimda bo'lsa, aniq munofiq bo'lg‘aydir, kimdaki, ulardan bittasi bo'lsa uni tark etmaguncha munofiqlikdan bir xislati bor ekan, deyiladir: - omonatga xiyonat qilgaydir;

- so'zlasa yolg‘on so'zlaydir;

- shartnoma tuzsa, shartida turmagaydir;

- urishib qolsa, kek saqlagaydir va nohaqlik qiladir (25-bob)

Quyida hadislardan namunalar keltiramiz:

Har bir yaxshilik sadaqadir.(Imom Buxoriy rivoyati)

Islomda o‘ziga ham o‘zgaga ham zarar etkazish yoq.(Ibn Mojja rivoyati)

Musulmon kishi birodari bilan uch kundan ortiq gaplashmay yurishi halol emas. (Termiziy rivoyati)

Kimda to‘rt xislat bo‘lsa,foyda ko‘ribdi: rostgo‘ylik, hayo, chiroyli xulq va shukr.(Ibn Abbos rivoyati)

Musulmon kishi bemor birodari ziyoratiga borsa, qaytib kelguncha jannat bog‘lari ichida sayr qilib yurgan bo‘ladi.(Muslim rivoyati)

Alloh menga vahiy qildi:”Kamtarin bo‘linglar.Toki birov- birovga faxrlanmasin. Biror kishi biror kishiga zulm qilmasin.” (Muslim rivoyati)

Qo‘pol, beparda so‘zlarni gapirish Islomdan emas. Odamlar ichida islomi eng go‘zali axloqi eng go‘zalidir.(Imom Ahmad rivoyati)

Yaxsh narsani hech qachon arzimas sanama.Garchi birodaringni yuziga tabassum bilan qarash bo‘lsada.(Muslim rivoyati)

Chaqimchi jannatga kirmaydi.(Buxoriy rivoyati)

Kim yomonlikdan saqlansa, Allohning o‘zi uni yomonlikdan saqlaydi.(Tabaroniy rivoyati)

Kim yaxshi amalidan xursand bo‘lib,yomon amalidan xafa bo‘lsa,u mo‘mindir.(Ahmad rivoyati)

Yaxshi ishga sababchi bo‘lgan kishi uni ado etgan kabidir.(Termiziy rivoyati)

Do‘zaxdan yarimta xurmo berib yoki bir og‘iz shirin so‘z aytib bo‘lsa ham, saqlaninglar.(Imom Buxoriy rivoyati)

Aniqki, eng halol luqmangiz kasbingiz ortidan kelgan luqmadir. (Termiziy rivoyati)

Qaysi bir musulmon biror daraxt yoki ekin eksa va uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajru savob ato etiladi. .(Buxoriy rivoyati)

Kim rizqim ulug‘, umrim uzoq bo‘lsin desa, qarindosh-urug‘lariga mehr oqibatli bo‘lsin.

Elga sharaf kelmadi johu nasab,

Lek sharaf keldi hayou adab.

Bo‘lmas adabsiz kishilar arjumand,

Past etar ul haylni charxi baland. (A.Navoiy)

Hayo-insonning abadiy go‘zaligi va latofatidir.

Hayosiz yuz jonsiz jasadga o‘xshaydi.(Abu Ali ibn Sino).

Takabburlik va zulm–ulug‘likning ofati, hilm va tavoze-insonning ziynati, sharm-hayo uning eng g‘zal yoqimli libosidir. (Suqrot)

Inson dunyoni qanchalik bilsa, o‘zligini ham shunchalik anglaydi.

Hayo inson uchun eng sharafli va maqbul xislatdir. Hayo imon daraxtining shoxidur va olam barqarorligiga sababdur.Odob, bu yomon so‘zdan va yomon ishdan o‘zini tiymoqdur hamda o‘zining ham, o‘zganing ham izzatin saqlab,obro‘sini to‘kmaslikdur.

Mehribon va rahmli bo‘lmoq umrning va rizqning barakali bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Hech kim ishni bamaslahat qilganidan ziyon ko‘rgan emas.

Ustoz va muallimlar hurmatini o‘rniga qo‘yganlar bu dunyoda ham,oxiratda ham barakayu saodat topar.

Yaxshilar bilan hamsuhbat bo‘lish va donolar bilan muloqot qilish saodatga elitar.

Ulug‘lar aytibdurlarki, barcha insonlar aqlga muhtojdirlar. Aql esa tajribaga suyanadi.Chunki tajriba aqlning oynasidur.Hayot tajribasi ko‘p umr ko‘rish natijasida hosil bo‘ladur.

Yaxshilar bilan hamsuhbat bo‘lish baxti davlat keltiradi. Yomonlar bilan birga bo‘lish afsus va nadomatga yoliqtiradi.

Odob-ning o‘g‘li. Bir kuni xalifa Ma’mun odob bilan so‘zlayotgan bir boladan: ”Kimning o‘g‘lisan?”-deb so‘radi. Bola:”Odobning o‘gliman”,-deb avob berdi.Bu javobni eshitgan Ma’mun:”Qanday chiroyli otang bor ekan-a”, - deb unga tahsin o‘qidi.

Odobning foydasi. Odob bir bulutki, uning tomchi yomg‘iri yaxshi kishilarning amal ekinzoriga yog‘sa umid polizini abadiy ko‘kalamzoriga aylanadi va yaxshi nom hosilidan foydalar xirmonini barpo qiladi.

Rivoyat:Qadim zamonda uchta sarkarda oralarida kim kuchliroq ekanini sinab ko‘rmoqchi bo‘libdi. Buning uchin ular shogirdlarini chaqirishibdi. Har bir sarkarda shogirdlariga navbat bilan ustoziga toshlar otib turishni buyuribdi. Birinchi sarkarda uchib kelayotgan toshlarni ustalik bilan qaytaribdi. Ikkinchi sarkarda ustalik bilan toshlarga chap beribdi. Uchinchi sarkardaga esa birorta ham shogirdi tosh otmabdi.

Xulosa- Ey farzand, bilgilki, ilmning boshi odob va axloqdir. Ular bo‘lmagan joyda hech qanday ilmu hunar naf bermaydi.

Rivoyat: Bir kuni Luqmonu hakimdan so‘rashdi:

-Sen donishmandlikni kimdan o‘rganding? -Ko‘rlardan. Ular atrofni ko‘ra olmaganlari sababli ko‘p qoqildilar, to‘siqlarga uchraydilar, yiqiladilar. Xulosa: Ey farzand, agar ko‘zing ochiq bo‘lsa, atrofi-ngdagilarning bosayotgan qadamlariga razm sol. Shunda hayot yo‘lingda kamroq qoqilasan.

Rivoyat: Yo‘l yoqasida bir gadoy tilanchilik qilib turar edi. Bir otliq odam yonidan o‘tib ketayotib qamchisi bilan uni bir urdi va yo‘lida davom etdi. Gadoy uning orqasidan qarab: -Baxtli bo‘l!-dedi. Buni ko‘rib turgan bir yo‘lovchi:

-U seni ursayu sen unga baxt tilasang, bu qanaqasi?-deb so‘radi

- Shinda tilanchi:-Agar u baxtli bo‘lganida meni urmas edi! –deb javob berdi.

Rivoyat: Bir bolaning buvasi hayot saboqlaridan gapirib nabirasiga shunday dedi:

-Bolaginam, har bir insonning ichida go‘yo ikkita bo‘ri yashaydi. Ular doimo bir-biri bilan kurashadi. Bo‘rilarning biri ochko‘z, badjahl, yolgonchi va hasadchi bo‘lsa, ikkinchisi rostgo‘y, mehribon, ochiqko‘ngil va saxiydir. Buvasining gaplaridan ta’sirlangan nabira so‘radi:

-Buvajon, oxirida qaysi bo‘ri yutib chiqadi?

-Sen qaysi bo‘rini ko‘proq boqsang, o‘shanisi yutib chiqadi,-dedi buvasi. Xulosa- Ey farzand, sen hayotda rostgo‘y, mehribon, ochiq ko‘ngil va saxiy bo‘lgin, ana shunda xotirjam bo‘lasan. Tinchlik va xotirjamlik katta ne’matdir.

25.5. Muhaddis (Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy va boshqalr)ning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimni **muhaddis** deymiz. Muhaddislar, asosan, ahdisni Payg‘ambari (sav)dan qaysi yo‘llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib o‘zlarigacha etib kelganini aniqlaydigan olimlardir. Ular bu ulkan mas’ulitli ishni amalga oshirishdajuda ham aniq va ishonchli yo‘llarni tanlashgan.

«Hadis» va «sunnat» so‘zlari muhaddislar o‘rtasida bir ma’noda qo‘llanilib, janob Payg‘ambarimizning aytgan so‘zlari, fe’l-atorlari, axloqlari, taqdirlari va payg‘ambarlikka qadar bo‘lgn hamda payg‘ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya’ni hayot yo‘llarini anglatadi. Rasululloh (sav)ning turli sharotlarda shariat ahkomlariga oid aytgan so‘zlari ham hadis bo‘lib, fe’l-atforlari esa ul zot qilgan va sohobalar tarafidan naql etilgan amallardir. Sahobalarning Payg‘ambarimiz ma’qullagan so‘zlari va xatti-harakatlari **taqrir** deyilib, ular shar’iylik huquqiga

egadir. Zero, janob Rasulullоh shariatga xilof narsalarni hech qachon ma’qullagan emaslar!

Hadislar janob Rasulullohning hayotliklarida jamlangan emas edi. CHunki, janob Payg‘ambarimiz sahobalariga «Mendan Qur’oni Kariymdan bo‘lak hech narsani yozib olmanglar, agar kimki biror narsa yozib olgan bo‘lsa, uni yo‘q qilsin!» - der edilar. Bundan albatta Payg‘ambarimiz hayotliklarida hadislar mutlaqo yozib borilmagan, degan xulosa kelib chiqmaydi. CHunki, ba’zi hollarda Payg‘ambarimizning o‘zlari sahobalarga mol-hollardan olinadigan zakot miqdori haqida joylardagi hokimlarga yozib yuborishni amr qilganlar. SHuningdek, ayrim sahobalarga o‘z shaxsiy maqsadlari uchun hadislarni qayd qilib borishga ijozat ham berilgan edi. Abdulloh ibn Amir ibn Anas, Ali bin Abu Tolib va boshqalar to‘plagan hadislar bunga dalildir. Dastlabki hadis to‘plamlari to‘g‘ri (sahih) bo‘lgan. Ammo, keyinchalik, milliy-siyosiy ixtiloflar, dinga foyda keltirish maqsadida Payg‘ambarimiz nomlaridan yolg‘on hadislar to‘qish, fiqh va ilmi kalom sohasidagi ziddiyatlar, amir va hokimlarga hushomadgo‘ylik oqibatida ko‘plab ishonarsiz hadislar ham yuzaga kelgan. Ana shunday bir sharoitda o‘zlarining butun bilim va hayotlarini to‘g‘ri hadislarni aniqlab, jamlashdek ezgu ishga sarflashni o‘zlariga maqsad qilib qo‘ygan muhaddislar paydo bo‘ldi. Bu borada ilk qAdam qo‘ygan shaxs – xalifa Umar ibn Abdulaziz bo‘ldi. U joylardagi o‘z noiblariga Muhammad alayhissalomning hadislarini jamlashni amr qildi. Birinchi hadis kitobini Ibn Shihob az-Zuhriy yozdilar. Undan keyin birin-ketin ko‘plab hadis to‘plamlari tasnif etila boshladi. Biroq, Ibn SHihob az-Zuhriy va u kishidan keyingi muhaddislarning hadis to‘plamlari muayyan tartibga solinmagan, boblarga ajratilmagan bo‘lib, ularda Payg‘ambarimiz hadislari sahobalar va tobeinlarning fatvolari bilan chalkashtirib yuborilgan edi.

Xijriy 3-asr, darhaqiqat, ilmi hadis uchun oltin davr bo‘ldi. Bu davrda hadis ta’lif etish sohasida «musnad», «sahih» va «sunnan» deb atalmish turli yo‘nalishlar vujudga kelldi.

1) «Musnad» yo‘nalishida tasnif etilgan to‘plamlarda turli mavzudagi hadislar bir joyda keltirilib, ular hadis rivoyat qiluvchi sahobalarning islom dinini qabul qilgan vaqtiga ko‘ra yoki alifbo tartibida joylashtirilgan. Abdulloh ibn Muso, Imom Ahmad ibn Hanbalning hadis kitoblari ana shu yo‘nalishga mansubdir.

2) «Sahih» yo‘nalishiga buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy asos solganlar. Bu yo‘nalishda ta’lif etilgan to‘plamlarga faqat to‘g‘ri, ishonarli hadislar kiritilgan.

3) «Sunnan» yo‘nalishidagi to‘plamlarda esa, to‘g‘ri, ishonarli hadislar bilan bir qatorda «zaif» hadislar ham keltirilgan. Abu Dovud, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Ibn Mojaning muallafotlari ana shu yo‘nalishga mansubdir.

Muvarounnahrda birinchi bo‘lib hadis to‘plami ta’lif etgan muhaddis – Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziydirlar. Bundan tashqari vatandoshlarimizdan Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imom al-Haysam ibn Kulayb ash-SHoshiy, Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Barakotiy, Ibrohim ibn Ma’qil an-Nasafiy, Na’ima ibn Hammod al-Marvaziy, Xofiz al-Xorazmiy, Jamoluddin an-Nasafiy, Imom Abulhasan Ahmad ibn Muhammad as-Samarqandiy va boshqalar ham hadis to‘plamlari tasnif etishgan.

Ikkinchi – «sahih» yo‘nalishining asoschisi, islom olamida eng etuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hijriy 194-yilda Buxoroda tavallud topganlar. O‘n yoshga to‘lmaslaridan ilmi hadis o‘rganmoqqa kirishganlar. O‘n olti yoshlarida onalari va akalari bilan birga hajga borib, to‘rt yil Makkada yashaganlar. So‘ng, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadisi shariflarini to‘plab tartibga solmoq niyatida bir qancha islom mamlakatlarini kezib, shayxu ulamolardan ko‘plab hadislar yozib olganlar. Jami – 600 ming hadis to‘plab, shundan 100 sing «sahih» va 200 ming «g‘ayri sahih» hadislarni yod olganlar. Hadis ilmi bobida quvvatu iqtidorlari benihoyat ortib, islom olamida katta hurmat qozonganlar. Minglab shogirdlar etishtirganlar. Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zur’a, YUsuf al-Farobiy, Abu Bakr ibn Huzayma kabi mashhur muhaddislar shular jumlasidandir.

Imom Buxoriy, ona yurtlari Buxoroga qaytib kelgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadilar. Ammo, ul zotning boshlagan bu sa’yu harakatlari hukmdorga xush kelmaydi, shul boisdan Buxoroni tark etib, Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog‘iga ravona bo‘ladilar va o‘sha erda istiqomat qilib qoladilar. Hijriy 256-yili Ramazon hayiti kuni 62 yoshda vafot etadilar vash u erning o‘ziga dafn qilinadilar.

Imom Buxoriyning «Al-Jomi’ as-sahih» («Ishonarli to‘plam») deb nomlangan 4 jilddan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan hadis to‘plamlari orasida eng ishonarli va mukammalidir. To‘plamda Payg‘ambar (sav) hadislaridan tashqari, fiqh (islom huquqshunosligi), islom marosimchiligi, axloq-odob, ta’lim-tarbiya hamda o‘sha davr tarixi va etnografiyasiga doir ma’lumotlar ham mavjud. Unga 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng «sahih» hadislar kiritilgan. Mazkur to‘plam Misr va boshqa bir qancha mamlakatlarda juda ko‘p marta CHop etilgan, unga yirik ulamolar tomonidan sharhlar bitilgan.

XXVI BOB. IX-XII ASRLAR.SHARQ UYG‘OINSH DAVRIDA PEDAGOGIKFIKRLARNING RIVOJLANISHI.

26.1. IX-XII-asrlar – Sharq Uyg‘onish davri

IX-XII-asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o‘lka sifatida mashhur bo‘lib, bu erda qadimiy an’analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an’analari qorishuvi asosida islomiy falsafiy va tabiiy ilmlar – asronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jo‘g‘rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda maxsus hadisshunoslik va islom fiqhshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi.

Bu davr ma’naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko‘pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo‘lib, ilmlar bir-biridan ajralmas, uzviy bog‘liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko‘p sohalarda ijod qilib, o‘chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga, matematika, asronomiya, tibbiyot, mantiiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma’naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etganiki,

islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko‘ramiz.

IX-XII-asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta’limotlari, oqimlari ham jamiyat ma’naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o‘ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’lumki, G‘arb adabiyotlarida Yevropa mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV-XVI-asrlarni Renessans – Uyg‘onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq, ko‘pchilik mualliflar sharqda shunday jarayon bo‘lganligidan ko‘z yumadilar. Holbuki, IX-XII-asrlarda Markaziy siyoda Yevropadan bir necha asrlar ilgari madaniy yuksalish yuz berganini hech kim inkor eta olmaydi. U Yevropadagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq bo‘lmasa-da madaniyat tarixida o‘lmas iz qoldirdi va Evropa Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Shuning uchun biz IX-XII-asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg‘onish davri, aniqrog‘i ilk Uyg‘onish davri deb atashga ham to‘la asosimiz bor. Bu ilk Uyg‘onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Evropa mamlakatlaridan farqli o‘laroq mustaqilikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Yaqin va O‘rta sharqda, jumladan Eron, Kavkaz ort iva O‘rta Osiyoda savdo aloqalarining rivojlanganligi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta’sir etdi. M.Xayrullayev ta’kidlaganidek, «yaqin va O‘rta sharq mamlakatlaridagi madaniy yuksalishga olib kelgan sabab feodal munosabatlar yangi bosqichi bo‘ldi. Bu davr madaniy taraqqiyotida arab halifaligiga bo‘yso‘ngan mamlakatlarning xo‘jalik iqtisodiy aloqalarning kuchayishi va buning oqibatida turli madaniyatlar – Hind, O‘rta Osiyo, Eron, Arab, yunon, Rim madaniyatlarining yaqindan o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’sir jtib borishi katta rol o‘ynadi»[1].

Bu davrda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan er maydonlari kengaytirildi, ko‘plab sug‘orish inshootlari tiklandi va yangilari qurildi, paxta, zig‘ir, kanop ekilib, ular tolasidan mato to‘qilgan. Movarounnahrda, xususan, O‘rganch, Farg‘na, Samarqand va Buxoro to‘qimachilik mahsulotlari, ayniqsa Samarqand va Buxoro Shoyisi dunyoga mashhur bo‘lgan. Qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi savdoning rivojlanishiga yo‘l ochdi. Natijada yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarining chet davlatlar: Ispaniya, Xindiston, Xitoy, Vizantiya bilan savdo ishlari ko‘lami ortib bordi.

Markaziy Osiyoda ilk Uyg‘onish davri haqida so‘z borganda, quyidagi omillarni alohida ko‘rsatmoq zarur:

A) IX-XII-asrlarda arab xalifaligidan qutilib, erli mustaqil davlatlarning vujudga kelganligi.

B) yagona din – Islom tufayli katta hudud – yaqin va O‘rta sharqdagi turli xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning rivoj topishi, madaniyat, ma’naviyatda ma’lum umumiylik vujudga kela borganligi;

[1] Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkirlari. T.: O‘zbekiston, 1971, 43-b.

V) oldingi «Ipak yo‘li» ahamiyatining oshuvi, mamlakatlararo savdo-sotiqning, hunarmandchilikning ko‘paygani, Shaharlarning rivoji;

G) jahon madaniyati avval erishgan yutuqlar, xususan, qadimgi yunon, hind, eron madaniyati, ilm-fani yutuqlari inkor etilmay, aksincha, vorislik davom qilgani, undan keng foydalangani.

X-asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar – Toxiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, xorazmshoxlar davlatlarining paydo bo‘lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi. Bu davrda pul muomalasi rivojlandi. Jamiyat siyosiy, ijtioiy, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, albatta madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi.

Somoniylar davlati Marv, Buxoro, samarqand va O‘rganch o‘sha davrning madaniy markazlaridan sanalardi.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X-asr o‘rtalariga kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi, ammo yoziladigan hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo‘lsa ham, arab imlosida yozilar edi.

O‘sha davrda Buxoroda katta kitob bozori bo‘lgan kitob do‘konlarida olim va fozil kishilar uchrashib, ilmiy bahs-munozaralar o‘tkazganlar.

Abu Ali ibn Sino kitob do‘konlarining birida Farobiyning Arestotel «Metafizika»siga yozgan Sharhlarini sotib olganligini tarjimai holida hikoya qiladi. Buxoro amiri saroyida esa yirik kutubxona mavjud bo‘lgan, bu kutubxonani o‘Sha davrdagi sheroz kutubxonasi bilan bellasha oladigan yagona kutubxona sifatida tan olganlar.

Samoniylar davrida Ro‘dakiy, Firdavsiy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar yashab ijod etganlar.

X-asrning ikkinchi yarmida tashkil topgan Qoraxoniylar davlatida ham ba’zi xonlar o‘z saroylarida kutubxonalar tashkil etdilar. Bu kutubxonalarda arab va hatto G‘arbiy Evropa olimlarining asarlari ham mavjud edi. Bu davrda turkiy til Shakllanib bordi. Yusuf Xos Hojib, Mahmud qoshg‘ariy kabi olimlar o‘zlarining jahon ahamiyatiga ega bo‘lgan asarlarini yaratdilar.

XI-asr boshida G‘aznaviylar davlati, keyinroq saljo‘qiylar, xorazmshoxlar davlati tashkil topdi. G‘aznaviylar davrida ham ilmiy, ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlandi. Mahmud G‘aznaviy o‘z saroyiga juda katta madaniy boyliklarni to‘playdi, olimlarni ilmiy ishga jalb etadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy ham Mahmud saroyida yashab, mashhur «Hindiston» asarini Shu erda yaratgan.

XI-asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa taraqqiy etadi. Xorazm Shohi Ma’mun o‘z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan «Baytul hikma» - «donishmandlik uyi»da qomusiy olimlar – Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, tarixchi Miskavayx, riyoziyotchi Abu Nasr ibn Iroq, faylasuf Abu Salh al-Masihiy, tabib Abdulhayr Hammor kabi olimlar ilmiy ijod bilan Shug‘ullanganlar, lekin toj taxt uchun kurash natijasida bui lm dargohi o‘z faoliyatini to‘xtatadi.

Saljo‘qiylardan Alp Arslon Muhammad hokimiyatni boshqargan davrda uning vaziri Nizom ul-Mulk o‘z davrining mashhur siyosiy arbobi va

ma’rifatparvar inson sifatida dovruq qozondi. U G‘aznaviylar ish uslubiga bir oz o‘zgartirishlar kiritib, hokimiyatni boshqarishning o‘z uslubini ishlab chiqadi va uni o‘zining «Siyosatnoma» asarida (1091-1092) bayon etadi.

Nizom ul-Mulkning maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari beqiyos. U 1067 yilda Bag‘dodda o‘zining Shaxsiy jamg‘armasiga o‘Sha davrning eng mashhur o‘quv yurti – «Nizomiyya» madrasasini qurdiradi. U olimlar, din peshvolari, so‘fiylarga katta e’tibor berib, ularga homiylik qiladi.

26.2. O‘rta Osiyo allomalarining ta’lim-tarbiya haqidagi falsafiy qarashlari

Sharq jonlanish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi. Birinchi yo‘nalish — matematika-tibbiyot yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakalogiya va boshqa shunga o‘xshash fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniylar matematikaga oid, Zakarnyo Ar-Roziy va Ibn Sino kimyo va tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo‘nalish — ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish, bunda falsafa, tarix, matniq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va shunga o‘xshash boshqa fanlar bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar Forobiy, Al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshaxiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar. Uchinchi yo‘nalish — ta’lim va tarbiya yo‘nalishi bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarn tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyaniig nazariyasini ifodalaganlar. Ma’lumki, Sharq jonlanish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan. Ma’rifiy risolalarda asosan axloqning nazariy va amaliy masalalari tahlil etilgan. Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Navoiylarning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv haqida”, “Ahloq haqida risola”, “Ishq risolasi”, “Qutadg‘u bilik”, “Axloqi Nosiriy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Muxsiniy”, “Hibbatul haqoyiq”, “Qobusnoma”, “Guliston”, “Bo‘ston”, “Maxbubul-qulub” kabi ta’lim va tarbiyaga oid asarlari inson shaxsini, ma’naviyatini shakllantirish muammosini hal etishda sof ma’rifiy asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishishi yuksak xulq-odob, ilmfanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan.

Forobiy(873-950) o‘z asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari haqida fikr yuritadi. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt va saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ixso al-ulum”, “Ilmlarning kelib chiqishi”, “Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan. Forobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb biladi. U ta’lim-tarbiyaga birinchi bo‘lib ta’rif bergan olim.Ma’rifat — tarbiyalanuvchining xohishi va 22 irodasini kerakli yo‘nalishda boshqyarshi san’atidir, deydi Forobiy. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-ta’limning

nazariy fazilatlarni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Forobiy yana aytadi: “Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini byrlashtirish”.

Forobiy bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm xikmatni o‘rganagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘ – salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi ahloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”. Bu fikrlardan Forobiyning ta’lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor berganligi ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog‘i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi. Forobiy “tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun tarbiya beruvchining o‘zi tarbiyali bo‘lmog‘i shart”, deydi. Abu Ali Ibn Sino(980-1037)ham bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro‘zg‘or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila, ota–onaning asosiy maqsadi va vazifasidir.

O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota– ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g‘ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatda bo‘lish, unga nasihat qilishdir.Ibn Sino bolada ahloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy, aqliy tarbiya bilan o‘zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil, deb biladi. Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan bilimlarga yetishishga da’vat etgan. U bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’lim-tarbiyada quyidagi tamoyillarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi: - bolalarga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik; - ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish; - olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi; - jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish; - bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish; - o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish. Ibn Snno o‘zining “Tadbiri manzil” asarining “Bolani maktabda o‘qitish va tarbiyalash” bo‘limida to‘xtalib, ta’lim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Bolalarga bilim berish pedagogning asosiy burchidir. Shunga ko‘ra, Ibn Sino pedagog qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi: - bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo‘lish; - berilayotgan bilimni bolalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish; - ta’limda turli usullardan foydalanish; - fanga qiziqtira olish; - berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish; - bilimlarni bolalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish; - har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab olgan ijtimoiy muhit alohida rol o‘ynashini, ana shu muhit insonning atrof dunyoni bilishinigina emas, balki uning hulqida yaxshi yoki yomon

jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etishini, shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lish, uni yomon ijtimoiy muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilai bir qatorda jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlaydi. Bolaga hali u tug‘ilmasdan turib g‘amxo‘rlik qilish, go‘daklik davridan boshlab tarbiyani boshlash zarurligini ta’kidlaydi.

Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uning kamolga yetishida asosiy mezon sifatida talqin qilinadi. Yusuf Xos Hojib(1015—1070) o‘z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. U “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asari muallifidir.“Qutadg‘u bilig” -baxt 24 va saodatga eltuvchi bilim, ta’lim degan ma’noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasixatlari, ta’lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk ma’rifiy asar ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. “Qutadg‘u bilig” — XI asr so‘z san’atining nodir namunasi bo‘lib, unda o‘z davrining ilg‘or ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy masalalari badiiy talqin qilingan, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, ilm-fani, urf-odat va an’analari, turmush tarzi, qadriyatlari xususida batafsil ma’lumot berilgan.

Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o‘tish olimning ta’lim-tarbiya, axloq masalalarini qay darajada chuqur bilganligi adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirin so‘zlik, saxovat, mardlik, xurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql-zakovat, xalollik, ezgulik kabi, xislatlar ulug‘lanadi. “Qutadg‘u bilig”da bosh masalalardan biri komil insonni tarbiyalashdir. Yusuf Xos Hojib bu asari orqali o‘z tasavvurida eng komil, jamiyatning o‘sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday qo‘rgan bo‘lsa, shu asosda o‘z prinsiplarini bayon etadi. Mana shunday axloqiy masalalardan biri oila va farzand tarbiyasi masalasidir. Bu umuminsoniy axloqiy normaga Sharq etikasiga ahamiyat berib kelgan. Sharq xalqining ulug‘ an’anasini, oilaviy hayotini, turmush tarzi va tarbiya usullarini chuqur bilgan shoir mazkur muhim axloqiy muammoni o‘ziga xos falsafiy talqin qiladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun, u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog‘i shart. Shundagina ularning noo‘rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi. Yusuf Xos Hojibning mazkur asari insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o‘zining badiiy ifodasini topgan yirik ta’limiy-axloqiy dostondir. Olim insonni kamolga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi: 1. Aqliy kamolot-bilim va zakovat. O‘quvga bo‘lish. 2. Axloqiy kamolot. 3. Jismoniy kamolot. Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir. 25 Kaykovusning (XI asr) “Qobusnoma” asari Sharqda saqlanib kelayotgan an’anaga ko‘ra pand-nasixattarzida yozilgan bo‘lib, bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan, yoshlarni hayotga, amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. U Sharq ma’rifatchilik fikri taraqqiyotida inson kamolotinn shakllantirishda muhim o‘rinni egallaydi.U yoshlarga o‘zini uch narsadan: ko‘zni

yomon nazardan, qo‘lni yomon ishdan, tilni yomon so‘zdan saqlashni tavsiya etadi.

Kaykovusning “Qobusnoma”si XI-asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o‘sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar, ifodali o‘qish, xattotlik, she’r yozish, musiqa bilimini egallashi kabilar o‘z ifodasini topgan. Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyat bilan bog‘lab olib bordi, uning o‘gitlari har qanday tuzumda ham o‘z qiymatini yo‘qotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulugbek (1394—1449)Markaziy Osiyo xalqlari ilm–fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ siymolardan biridir. U avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da’vat etdi.

Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta’minlashga ishondi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa, o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim. Mirzo Ulug‘bek o‘z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib yetishuviga alohida ahamiyat beradi. Mirzo Ulug‘bekning fikricha, odam sog‘lom va baquvvat bo‘lishi uchun yoshlik chog‘idayoq jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishi, ta’lim– tarbiyada qalloblik bo‘lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo‘lishi kerak. Mirzo Ulug‘bekning oila muhiti sog‘lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo‘lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi, ya’ni oilada ota–onalar ayniqsa o‘qimishli ota – onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim.

Qomusiy bilimlar soxibi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham va san’atning turli sohalari; adabiyot, tarix, til, musiqa, xattotlik, tasviriy san’at, me’morchilik va boshqa bilimlarni rivojlantirish bilan birga ta’lim-tarbiyani takomillashtirishga ham katta e’tibor bergandi. Alisher Navoiy (1441-1501) o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbnya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ma’rifiy asarlarida komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etadi. Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatparvar allomasi snfatida islomdagi ta’lim-tarbiya aqidalari, o‘zidan ilgari o‘tgan mutafakkirlarning karashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o‘rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning moxiyatini yoritib berdi. Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. U bilimni uzluksiz o‘rganish zarur, deydi. Buyuk alloma bilim olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hatto ta’lim tizimini o‘z davrida maktab, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda bilim olish imkoniyatlaridan foydalanishni

tavsiya etadi. Alisher Navoiy har bir inson aqlli, ahloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo‘lmog‘i lozim, deb ta’kidlardi.

Navoiy bunday fazilatlarga ega bo‘lgan barkamol insonning faqat badiiy obrazini yaratib qolmay, uni tarbiyalash usullarini ham bayon etdi va ma’rifat, ilm-fan taraqqiyotida “Nazmul-javohir”, “Xayratul-abror”, “Mahbubul-qulub”dek shoh asarlari bilan munosib o‘ringa ega bo‘ldi. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. “Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur.

Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir–birlariga bo‘lgan ruxiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi”, deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi uqtiradi. Buyuk shoir va olim, fors–tojik mumtoz adabiyotning ulug‘ namoyondasi Nuriddin Abduraxmon Jomiy (1414-1492) o‘zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o‘lmas me’ros qoldiradi. U o‘z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo‘lda yozilgan “Bahoriston” asarida ta’lim–tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi. Jomiyo‘z asarlarida yoshlarni ilmlarini egallashga da’vat etadi. U o‘z pedagogik qarashlarida kishilarni adolat, xushmuomalalik va dono so‘z bilan zulmkorlarga ta’sir etishga da’vat etadi. A.Jomiy “Muallim bilimli, aqlli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi”, deb ta’kidlagan. G‘arb mutafakkirlaridan Yan Amos Komenskiy(1592-1670)o‘z davrining ilg‘or g‘oyalariga tayangan holda “Hammani hamma narsaga o‘rgatish” to‘g‘risida da’vat bilan chiqdi. Uning “Buyuk didaktika” degan katta risolasi nazariy pedagogikaning ilk asarlaridan hisoblanadi.

Ya.A.Komenskiy bolalarda kamtarlik, mo‘min-qobillik, shafqatlilik, pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. Ya.A.Komenskiy intizomning ahamiyati juda kattaligini ko‘rsatdi. Buning isboti uchun u chexlarning “Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir”, deb maqomini keltiradi. Uning eng katta xizmati shundaki, u o‘rta asrdagi kaltak vositasi bilan o‘rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni talab qildi. “Yaxshi yo‘lga qo‘yilgan maktab qonunlari”nomli asarida ta’lim oluvchilar xatti-harakatlariga taalluqli qimmatli qoidalar bayon etilgan. Komenskiyning pedagogika sohasidagi merosi ta’lim-tarbiyada ahamiyati juda kattadir. Uning ko‘p tillarga tarjima qilingan darsliklari ko‘pgina mamlakatlarda, shuningdek, XVII-XVIII-asrlarda Rossiyada ham keng tarqaldi va 150 yildan ko‘proq davr davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi. Uning asrlari, qimmatli fikrlari hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. Komenskiy barcha asarlarida, jumladan “Buyuk didaktika” asarida tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lish tamoyilini birinchi bo‘lib yaratdi. Bu tamoyil XVIII-XIX-asr pedagoglari tomonidan ham qayta-qayta takrorlandi.Komenskiy inson tabiatning bir qismidir, shuning uchun ham u tabiatga bo‘ysunadi, deb

hisobladi. U “Buyuk didaktika” asarida bayon qilgan fikrlarning barchasi pedagogik tajribalari, orttirgan bilimlari bilan qimmatlidir. Bu asar din bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, unda tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini isbotlab berishdagi fikrlari va ko‘rsatmalari diqqatga sazovordir.U o‘z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga (tug‘ma belgilariga) e’tibor berishligini ko‘rsatadi.

Komenskiy hamma maktablar uchun umumiy bo‘lgan bir tizim bo‘lishi, bolalarning qaysi toifaga mansubligidan, ota-onalarining kimligidan qat’iy nazar ona tilidagi maktablar hamma bolalar uchun umumiy va majburiydir, deb ta’kidlaydi.Komenskiy boshlang‘ich umumiy ta’lim g‘oyasini ilgari surdi. Komenskiy fikricha, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud:

1. O‘zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya).
2. O‘z-o‘zini boshqarish (axloqiy tarbiya).
3. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya). Komenskiy tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina insonga aylanadi, u har qanday bolani ham odam qilishi mumkin, deydi.Komenskiy birinchi bo‘lib ko‘rsatmalilik tamoyilini asoslab berdi. U mumkin bo‘lgan narsalarning o‘zini, mumkin bo‘lmaganlarda esa rasmlardan foydalanish kerak, deb ko‘rsatadi. O‘sha davrgacha to‘plangan ko‘rsatmalik tamoyili asosidagi bilimlarni umumlashtirdi, guruhlashtirdi va kengaytirdi, amalda keng qo‘lladi.

Komenskiy o‘qitilayotgan materialni ta’lim oluvchilarning mustahkam, asosli ravishda o‘zlashtirishlariga katta e’tibor berdi. Shuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini, ta’lim oluvchilarning qobiliyatini o‘stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo‘lishi, ta’lim oluvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o‘stirishga harakat qildi. Komenskiy maktabda o‘quv yili va uni o‘quv choraklariga bo‘lish to‘g‘risidagi tushunchani, ta’tilni kiritdi, o‘quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi, o‘quv mashg‘ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va buni amalda qo‘lladi. Shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalossi (1746-1827) pedagogning kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarga to‘xtalib o‘tadi. Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vilgelm Adolf Disterveg (1790-1866) pedagogning ta’limdagi roliga baho berib, u o‘z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi ta’lim oluvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. Pedagogta’lim oluvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlab o‘tgan. Taniqli rus pedagogi Konstantin Dmitrievich Ushinskiy (1824- 1870) pedagogni kasbiy faoliyatiga yuksak baho berib, uning mashaqqatli 29 mehnatini ta’riflab shunday deydi: “Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo‘lgan o‘ttiz yoki qirqta ta’lim oluvchining ongini butun dars davomida mashg‘ul qilib turish uchun pedagog o‘z so‘zlari va bergan masalalari to‘g‘risida ko‘p bosh qotirishi, serdiqqat bo‘lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo‘lgan har bir kishi pedagog bo‘lishga layoqatli bo‘lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta’rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zarur matonat va mahorat talab qilinadi”. Buyuk rus adibi Lev Nikolaevich Tolstoy (1828-1910) pedagog faoliyati va fazilatini quyidagicha ta’kidlaydi: “...agar

o‘qituvchi faqat ishiga havas qo‘ygan bo‘lsa, u yaxshi o‘qituvchi bo‘ladi. Agar o‘qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo‘ygan bo‘lsa, u oldingi o‘qituvchidan yaxshiroq bo‘ladi. Bordi-yu, ikkala xislatni ham mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratli o‘qituvchi bo‘ladi”.

26.3. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari

Muhammad ibn Al-Xorazmiy (783-850). Jahon ilm-ma’rifatining buyuk nomoyondasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy taxminan 783 yilda Xorazmiyda dunyoga kelib, 847-850-yillar oraligida Bag‘dodda vafot etgan.

Xorazmiy tug‘ilib voyaga etayotgan davrda Movarounnahr yirik madaniy va savdo markazlaridan biri edi.

Olimning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Al-Majusiydir, Abu-Abdulloh Muhammad Islomga o‘tganlarga beriladigan an’anaviy ism bo‘lgan. Xorazmiyning avlodlari majusiy koxinlaridan, ya’ni "Mug‘ullar" dan bo‘lib, islomni otasi qabul qilgan bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarida yozilishiga ko‘ra Xorazmiy boshlang‘ich ma’lumotni o‘z uyida olgan, chunki uning otasi qadimiy diniy hamda dunyoviy bilimlardan xabardor bo‘lgan. Shu tufayli al-Xorazmiy bolaligidanoq bu ilmiy manbalardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Muhammad Xorazmiy matematika bilan juda berilib Shug‘ullangan, bu sohaga oid barcha asarlarni qunt bilan o‘rgangan, Arab, fors, xind, yunon tillarini ham o‘rganib, bu tilda yaratilgana asarlarni ham o‘qiy oladigan bo‘ladi. Lekin Xorazmiyning vatanidan chetda yashaganligini turlicha sharxlashadi. Chunonchi otasi majusiy koxinlardan bo‘lganligi uchun ham arab mutassabbilari uni ta’qib qilganligi sababli u Xorazmni tashlab ketishga majbur bo‘lgan, degan fikrlar ham mavjud.

Xorazmiyshunos olim A.Axmedov xalifa Xorun ar-rashidning o‘g‘li Ma’mun-ar rashid Marvda xalifa noibi turganda saroyida juda ko‘p olimlarni to‘plagan, so‘ng xalifa bo‘lib ko‘tarilgach ularni ham Bog‘dodda olib ketganini ta’kidlaydi. Biz A.Axmedovning fikriga qo‘Shilgan holda yana quyidagilarni ham bayon etmokchimiz.

Buning sabablari -**birinchilardan**, o‘Sha davrda barcha ilmga intilgan olimlar ma’lum fanlarni egallab olganda so‘ng ilm-fan markazlariga safar qilganlar va u erda etuk olimlar bilan muloqotda bo‘lib, turli fanlar bo‘yicha baxs-munozara yuritganlar maxsus tayyorgarlikdan va sinovlardan o‘tganlar, o‘zlarini fan olamida sinab ko‘rganlar. **Ikkinchidan**, xalifalikda ilm markazi sanalgan damashq va Bog‘dodda ilm-fanning taraqqiy etganligi va Shaxsan xalifalarning ilm-fan taraqqiyotiga xomiylik qilganligi ham olimlarni jalb etgan.

"Baytul Xikma" da matematika, geodeziya, geografiya falakkiyot va boshqa sohalar bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi va al-Xorazmiy makzabi yaratiladi. Olimning ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo‘ldi.

Xalifa al-Ma’mun xatto Muhammad al-Xorazmiy boshchiligida Xindiston va Rum (Vizantiya) Xazariya (Volganing quyi oqimidagi) gi o‘lkaga bir necha marta ilmiy safarlar uyushtiradi.

Olim insonning kamolga etishi va insoniy munosabatlarda ilm-fanning muhimligi g‘oyasini ilgari so‘rgan holda pedagogik fikr tarakkiyotida ham

munosib urin egallaydi. Xorazmiy matematika, geografiya, geodeziya, falakkiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasidagi yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyatchi olim sifatida tarixda qolgan.

"Al-Jabr va muqobala" asari bilan ham matematika fanini rivojlantirib o‘zidan avvalgi bilimlarni o‘rgandi va ularni sintezlashtirish hamda amalda qo‘llash usullarini bayon etdi. Shu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomli lotincha transkripsiyada "Algoritm" shaklini oldi, keyinchalik hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi algoritm algorifmga aylandi. U matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini ham berdi, meros taqsim qilishda vasiyatnomalarni tuzishda, mol taqsim etishda odamlarga kerak bo‘ladigan amaliy ishlarga zarur bo‘lgan hisoblarni taqdim etdi.

Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi "Xind arifmetikasi haqida kitob" ("Hisob al xind")dir. Asar o‘nlik tizimi raqamlari (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) ga bag‘ishlangan.

Xorazmiy xindlarning falakkiyot va matematikaga oid "Sindixind" nomli qo‘llanmasini ukib, uning yangilish va kiyin tomonlarini kayta ishlab yangi boblar qo‘Shdi va uni "Kiskargan sindixind" ("Algoritm xind hisobi haqida") deb atadi. Asar faqat sharqdagina emas. Evropada ham qo‘llanma sifatida Shuxrat taratli. O‘nlik tizimining kashf etilishi sanoq tizimida inklobiy uzgarish yasadi va ta’rif beradilar. Evropaga o‘nlik tizim raqamlaridan foydalanib eng katta sonlarni yozish va joylarni anik kursatish X-XI-asrlarda arablardan kirib kelgan.

Xorazmiy arifmetikaning algoritmlari bo‘lgan qo‘shish, ayrish, ko‘paytirish, bo‘lish koidalarini yaratgan. Turli "jins" dagi sonlarni ko‘paytirish algoritmi ham bergan. Masalan, minut sekundlarni bir-biriga ko‘paytirish uchun avvalo, bir xil Shaklga keltirish ya’ni sekunl yoki minutga aylantirishni ko‘rsatgan. Maxsus bobda kasr va mlmizdan chikarish amallarini yozgan.

Xorazmiy o‘zining falakkiyotga doir ishlarida xindlarning falakkiyot jadvallarni tahlil etib, "Xorazmiy ziji" nomli bilan mashhur bo‘lgan astronomiy jadvallar tuzdi.

Ma’lumotlarga ko‘ra VIII-XV-asrlarda hammasi bo‘lib trigonometriya, falakkiyotga oid 100 ga yakin zij-jadval mavjud bo‘lgan. Ularning qatoriga boshqa olimlar bilan birga Xorazmiy tuzgan zijlar ham bor.

Xorazmiyning "Sinus ziji"ri asari XII-asrda lotin tillari tarjima etilib, bir necha asr mobaynida undan foydalanib kelindi.

Bundan tashqari, "Kitob suratil ard" ("Erning surati kitobi") geografiyaga oid dastlabki kitob sanaladi. Bu asar A.Axmedovning taxminiga ko‘ra xaritani tavsiflagan asardir. U Xorazimiyning ko‘p yillar olib borgan tekshirish-kuzatishlar ishlari natijasi bo‘ldi. Unda olim sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib mamlakat va shaharlarning harakatlarini tuzadi, nomlar ro‘parasida uzunlik va kenglik darajalarini ko‘rsatadi. U geografiyaga oid yasashida yerni yetti iqlimga bo‘ladi, yer xaritasini tuzadi. Tashkilotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra olamning turt xaritasini tuzadi. Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra- olamning to‘rt xaritasi - Azov dengizi, Nil daryosi yaqin va O‘rta sharq mamlakatlari xaritasi

saqlanib qolgan. Uning yuqoridagi asari ham sharq va G‘arbda katta ahamiyatga egadir.

Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga uzining ulkan hissasini qo‘Shdi. "Al kitob al muxtasarfi hisob aljabr va muqobala " asarida ("Aljabr va al muqobala hisobi haqida qisqacha kitob") sonli kvadrat va chiziqli tenglamalar ularni yechish yo‘llarni bayon etadi.

Risola uch qismdan iborat bo‘lib, **birinchisi**-algebraik qism uning oxirida savdo muomlasiga oid kichik bir bo‘lim keltiriladi. **Ikkinchi** - geometrik qism algebraik usul qo‘llab ulchashlar haqida, **uchinchi** qism vasiyatlar haqida bo‘lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi.

Al-Xorazmiy matematika fanida abstraksiya (mavxumiylik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo‘li bilan umumiy yechish usullarini hal etdi, deduksiya yo‘li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Xorazmiy bilim olishda talabaning shaxsiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e’tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to‘plash ularni ifodalash va kuzatilganlarni uyushtira olish malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishga katta baho beradi. "Ul-kitob al muxtasar fi hisob aljabr va al-muqobala" asarida olmishlarni uch guruhga bo‘ladi. Ulardan o‘zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalaridan o‘zib ketadi va uni o‘zidan keyin keluvchilarga meros qilib qolidiradi.

Boshqasi o‘zidan avvalgilarining asarlarini sharxlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi yo‘lni yogitali va uni tushunarliroq qiladi yoki bu ayrim kitoblaridan nuqsonlar topadigan yechilib yotganini to‘playdigan odam bo‘lib u o‘zidan avvalgilar hamisha yaxshi fikrda bo‘ladi, takabburlik qilmayli va o‘zi qilgan ishidan mag’rurlanmaydi.

Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlarning ma’naviy yuksakligini yoritsa, ikkinchi tomondan, o‘sha davrda ilmiy-tadqiqot ishlari va o‘qitilishning usul va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko‘rsatadi.

Ko‘pchilik mutaffaqqiyatlar qatori Xorazmiy ham bilim berishning ko‘rgazmali tajriba usullari, savol-javob malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, bilimlarni sinash usullaridan foydalangan.

Masalan, Xorazmiyning arifmetikaga oid risollari uning tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e’tibor berganligini ko‘rsatadi. Xorazmiy bilishni sezgidan mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etgan: "Sezgi" orqali bilish bu qisman bilish bo‘lsa, "mantiqiy" bayon qilish esa haqiqiy, bilishning muhim tomonini namoyon etadi. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo‘shdi. U birinchildan bo‘lib, sinov-kuzatish va sinov usullariga asos soldi, samoviy qismlarning harakatini aks ettiruvchi jadval asosida matematik masalalarni algoritm usulida yechishni isbotlab berdi. U matematik masalalarni g‘oyallarni asosida odamlarning amaliy talablari natijasida yuzaga kelishini asoslaydi. Masalan, yer ishlari, binolar qurish, kanallar ochish. U birinchi marta insonnlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik shakllarda ifodaladi. Xorazmiy ilmiy faoliyatining metodologik jihatlariga katta ahamiyat berdi.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy Yevropa va sharqda falakkiyot va matematika sohasidagi yangi davr ochdi. Xindlarning o‘nlik tizim raqamlari Xorazmiy tufayli "Arab raqamlari" nomi bilan butun dunyoga yoyildi.

Xorazmiyning hayotiy va amaliy muammolarni hal etishga oid tavsiya etgan usullari fikriga oid masalalarni yechishda muhim qo‘llanma bo‘ldi.

Xorazmiyning falakkiyot va geodeziyaga oid kuzatishlari, geografiyaga oid asarlari, u chizgan Yer xaritasi ham sharq va G‘arb olimlari uchun chizgan tekshirish- kuzatish ishlarini olib borishda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qildi. Olim "Yer sathini o‘lchash" ("Alstralyabiya") "quyosh soati to‘g‘risida", "yaxudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash" va boshqa asarlari bilan ham fan rivojiga katta hissa q o‘shdi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, al-Xorazmiy ilmiy bilim ta’lim usullari, ilm fanga qo‘shgan ulkan hissasi bilan insonni aqliy kamolga yetkazishda, ta’lim-tarbiyada o‘z o‘rniga egadir.

Olimning ijodi haqidagi ma’lumotlar ham uning hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar kabi juda kam. Saqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, uning qalamiga mansub asarlarning soni o‘ndan ortiqdir:

1. Arifmetik asar ("Algoritmi xind hisobi haqida") nomi bilan ma’lum. Asarning arabcha nusxalari saqlanmagan.

2. Al-kitob al-muxtassar fi hisob al-jabr val-muqobala (al-jabr almuqobala hisobi haqida qisqacha kitob)

3. "Ziji al-Xorazmiy " (Xorazmiy Ziji) arabcha nusxada saqlanmagan. Asarning 1007-yili ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy (X-XI) kayta ishlagan nusxadan XII-asrda Adelard Bat bajargan lotincha tajrimaning nusxalari mavjud.

4. Muhammad ibn al-Xorazmiyning ajoyib ishlaridan, Asturlab yordamida azimutni aniqlash ("Zaraif min amal Muhammad ibn Musa al-Xorazmiy ta rif as-samt bi-l-asturlob"), yagona arabcha qo‘lyozmasi Istanbulda Ayo So‘fiyo kutubxonasidan 4830G‘13-raqamli inventar (198-200-varaqlar, xijriy 620-yili ko‘chirilgan) raqam bilan saqanadi. Ruscha tajrimasi nashr etilgan.

5. Mramar soat haqida kitob (Kitob ar-ruhama)

6. Tarix kitobi (Kitob at-ta rix)

7. Abu Maslama al-Majritiy o‘zining "g‘oyat al-xakim" nomli asarida Xorazmiyning astromatik ma’noga ega asaridan sitata keltirdi. Bu asar saqlanmagan.

8. Yaxudiylarning bayramlari haqida risola. (Risola fi istixroj ta rix al-yaxud va a yoxidim) kalendarga taalluqli. Bu kitob tarjima qilingan.

9. Surati-l-arz kitobi (Kitob surati – l-asrl) - Xorazmiy "Geografiya"si bu asar ham muallif tomonlaridan tarjima qilingan.

10. Asturloblar bilan amal tutish haqida kitob (Kitob al-amal bi-l - asturlobot.

26.4. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar

Farobiy manbalarda "Al-faylasuf at-turkiy" deb yuritiladi. Farobiyning millati darhaqiqat turk bo‘lib, Movarounnahrda G’arb viloyatining Vasij qishlog‘idagi

xijriy 257 (melodiy 873) yilda tug‘ilgani, otasi armiya qo‘mondoni bo‘lgani aytiladi. Farobiy dastlab Marvda tahsil ko‘rgan. Keyin Bog‘dodga ketdi. Falsafaga teran bir qiziqishi bor edi. Abu mashr Mottabin yunusdan mantiq darsi oldi. Oraliqda bir bora Xarronga ketdi. Safarda yunon Xaylon bilan tanishdi. Undan mantiq va falsafa ilmini o‘rgandi. Ilm tahsilini qattiq sevganidan falsafiy madaniyatni ortirish uchun yana Bog‘dodga qaytdi; yunon faylasufini va ayniqsa, Arastu (Aristotel)ning asarlarini sinchiklab o‘rgandi. Islom ilmlarini ham yaxshi bilar edi. Yaxshilik qilishni sevar edi. Xalifa Mutadir zamonida atrofiga ziyo tarata boshladi.

Talay falsafiy asarlar yoza boshladi. Ba’zi asarlarni ham qulay anglashilsin deya Sharh etdi. Bir asno shom (Suriyaga) va Misrga ketdi. Shomga qaytdi. Xalaf (Aleppo) va shom hududlarining sultoni Sayf ad-Davlat Farobiyga ko‘p hurmat ko‘rsatadi. Nihoyat Farobiy xijriy 339 (milodiy 950) yilda hayotdan ko‘z yumdi. Undan juda ko‘p asarlar meros qolgan. Turli ilm sohalarida zamonning eng mashhur olimi edi. Ayniqsa, falsafa, mantiq, psixologiya, musiqa, matematika va tib bilimlariga doir tadqiqotlari bilan keng Shuhrat qozongan.

Abu Nasr Al Farobiy qalamiga mansur asarlari 160 dan ortiqdir. Ular "Talxisu Navomisu Aflotun" (Aflotun qonuniyalarini mohiyati) "Nufuzli shahar aholisining maslavi", "Baxt saodatga erishuvchi risola" va hakozolardir. Al Farobiy o‘zining ko‘p qirrali ijodi bilan kelajak avlodni bilim va madaniyatga erishishida inson kamolotiga alohida e’tibor berdi.

Farobiy insonning qadr-qimmatiga, uning aql zakovanining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi: inson Farobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudod emas, u o‘z mohiyatiga ko‘ra aql idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi. Uning aql idroki mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo‘yadi. Bu hayot ongli va aniq maqsadni ko‘zlagan bo‘lishi, faqat shaxsiy emas balki, ijtimoiy ahamiyatga ham molik bo‘lishi lozim.

Farobiy pedagogik qarashlarida insonning barcha axloqiy imkoniyatlari yaxshilik va yomonlik, foyda va zarar haqidagi mulohazalarni) baxtga erishishdan iborat birdan bir maqsad mevasi deb biladi. Uning fikricha, bir kishining baxti boshqalarning shaxsiy rohat farog‘atiga erishishning zarur shartidir. Ijtimoiy va shaxsiy jihatlarning birligi orqaligina yalpi baxtga erishiladi.

Farobiyning fikricha, barcha axloqiy normalar va qoidalar, yaxshi yoki yaramas, ijobiy yoki salbiy, axloqiy xatti harakatlar, xullas insonning barcha harakatlari uning o‘z baxtiga erishishiga qanday munosabatda bo‘lishi bilan baholanadi.

Abu Nasr Farobiy o‘z davrining qator ilmlarini chuqur o‘rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirgan. U o‘z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo‘lib nom qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o‘rganish kerak», «Substansiya haqida», «Falsafa manbalari», «Logikaga kirish», «Masalalar manbai» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Abu Nasr Farobiy birinchilardan bo‘lib, o‘z davri ilmlar klassifakatsiyasini yaratgan va unga bag‘ishlab qator risolalar yozdi. U o‘z davrida musiqa

masalalariga atab katta asar yozib, musiqa nazariyasining tafsilini berdi va sharqda keng tarqalgan nay, nog‘ora, chang, rubob kabi qator Musiqa asboblari ta’rifini yozib qoldirdi. Uning bu asari sharq musiqashunosligi tarixida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘z davrining qomusiy olimi bo‘lib, riyoziyot, tibbiyot, arab grammatikasi, alximiya, falakkiyot, mantiqqa oid asarlar muallifidir.

Lekin Farobiy avvalambor mashhur faylasuf – falsafaning eng muhim masalalari bo‘yicha qator asarlarning muallifi sifatida shuhrat qozondi. U sharqda qadim yunon falsafasi ayniqsa, qadimgi dunyoning qomusiy olimi Aristotelning asarlarini o‘rganish, ularga sharhlar yozish, g‘oyalarini targ‘ib etish va yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdi. Aristotel «Birinchi muallim» deb nom olgan bo‘lsa, butun sharqda Farobiy «Ikkinchi muallim» unvoniga sazovor bo‘ldi.

U Aristotelning barcha falsafiy asarlariga yana qadimgi yunon olimlari Platon, Galen, Evklid, Parfariy, Sokrat kabilarning risolalariga sharhlar yaratdi.

Abu Ali ibn Sinoning yozishicha, u buyuk yunon faylasufi Aristotelning «Metofizika» kitobini 11 marotaba o‘qib tushuna olmagan ekan va bundan mayus tortib, hafsalasi pir bo‘lib, bu kitobni tokchaga tashlab qo‘ygan ekan. Kunlardan bir kuni u bozordan o‘tib ketayotganida kambag‘al, bechora, bir kishi qo‘lidagi kitobni odamlarga sotib olishlarini yolvorib so‘rab turganini, eyarga bir burda noni ham yo‘qligini aytib odamlarga zorlanib turganini ko‘rib qolibdi.

Ibn Sino unga rahmi kelib, kitobni ko‘rib ham o‘tirmay sotib olibdi-da uyiga kelib uni varaqlab ko‘ribdi. Ko‘ribdi-yu, hayhot!…. Kitob o‘zi izlab yurgan, Farobiyning Aristotelni «Metafizika» kitobiga yozgan sharhi ekan. Kitobni bir marta o‘qib chiqishidayoq Aristotelni tushunib, uni to‘la o‘zlashtirib olgan ekan. Shundan keyin u bundan azbaroyi xursand bo‘lganidan yurtga ziyofat bergan ekan[61].

Farobiy o‘z davrida ijtimoiy-siyosiy masalalar bo‘yicha birinchi bo‘lib yirik asarlar yaratgan mutafakkirdir. U ijtimoiy hayotning turli masalalari, ayniqsa, davlat tuzilishi va uni boshqarish, turli ijtimioiy nizolarning oldini olish kabi hamda kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi ijtimoiy masalalarni olg‘a surdi. Yetuk jamoani vujudga keltirish komil insonni yaratish muammosini hal etish bilan bog‘liq ekanligini birinchi bor O‘rta asr sharoitida Farobiy olg‘a surdi. «Uning ideal shahar aholilarining raylari», «Ideal jamoa haqida», «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» kabi mashhur asarlari shu masalalarga bag‘ishlangan.

U olamning turli-tumanligi, tabiatning nihoyatda boyligini e’tirof etib, ular asosida 4 element: yer, suv, olov, havo mavjudligini ta’kidlaydi, shu bilan birga olamning ibtidosi, boshlanishi boshlang‘ich yaratguvchi kuchdan nurlanish yordamida pog‘onama-pog‘ona vujudga kelganligini ta’kidlaydi.

Ba’zi manbalarda Farobiy yetmishdan ortiq tilni bilganligi ta’kindalanadi.

Shu o‘rinda, Abu Nasr Farobiyning **axloqli kishi** to‘g‘risidagi fikrini keltirishni joiz topdik. U «o‘n ikki tug‘ma xislatni» birlashtirgan kishigina axloqli bo‘la oladi, deb ta’kidlaydi. Ular:

[61] Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Movarounnahr, 2002, 720 b. (14-b).

- **birinchidan**, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi kerakki, bu organlari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

- **ikkinchidan**, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini (haqqoniyligini) tezda payqay olsin;

- **uchinchidan**, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birortasini xotiradan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin;

- **to‘rtinchidan**, zehni shu darajada tez va o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

- **beshinchidan**, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

- **oltinchidan**, bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin;

- y**ettinchidan**, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol qilishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin;

- **sakkizinchidan**, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin;

- **to‘qqizinchidan**, ruhi g‘ururli va o‘z vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga intiladigan bo‘lsin;

- **o‘ninchidan**, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

- **o‘n birinchidan**, o‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga hurmat bilan, adolatsizlikka, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin, go‘zal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ‘ib etadigan holda adolatsizlik natijalarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin;

- **o‘n ikkinchidan**, adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida, adolatsizlik, pastkashlik oldida qat’iy so‘zlik bo‘lsin, o‘zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin.

Farobiy inson uchun xos bo‘lgan bu o‘n ikki xislatni o‘z asarida ilmiy-falsafiy jihatdan asoslab beradi. Bu asar yoshlarimizning axloqiy tarbiyasida, ayniqsa, o‘zligini anglashda bebaho manbaa bo‘lib hisoblanadi.

Abu Nasr Farobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida», «Ixso al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida» kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Farobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergan bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Farobiy «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm

o‘rganiladi, bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o‘rgangan, tabiiy ilmlarni tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat – o‘simlik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Farobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi, u boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deb hisoblaydi.

Bunga Farobiy ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini to‘g‘ri bilib oladi va hayotda to‘g‘ri yo‘l tutadi, boshqalar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘ladi, jamiyat tartib-qoidalariga rioya qiladi.

Farobiy ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan etuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Insonning axloqiy xislatlarini shakllantirish asosan tarbiya va tarbiyachining, bilimdon muallimning vazifasidir.

Abu Nasr Farobiy ilg‘or pedagogik qarashlari ilk o‘rta asr madaniyatining yuksalgan davridagi bu sohadagi yuqori g‘oyalarni o‘zida mujassam qila oladi. Farobiy falsafasi, jumladan, uning pedagogik g‘oyalari, xususan ijtimoiy pedagogikasi sharq va G‘arbning so‘nggi mutafakkir olimlariga – Ibn Sino, Beruniy, Miskaviyx, ibn rushd, ibn Xoldun, Rodjer Bekon, David, Didakta, Spinoza kabilarga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Farobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan olim sanaladi. **Ta’lim** – degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir, deydi olim. Abu Nasr Farobiy yana aytadiki, «Ta’lim – degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy faziltni birlashtirish, tarbiya esa Shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazalatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishi, o‘rganishidir», - deydi.

Farobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarni birlashltirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta’lim so‘z va o‘rganish bilan, tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkialasi birlashsa, yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Bu muhim vazifa tajribali tarbiyachilar tomonidan ta’lim-tarbiyaning turli metodlari yordamida amalga oshiriladi. Farobiy

ta’lim-tarbiya ishlarini ikki yo‘l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Amaliy fazilatlar va amaliy san’at (kasb-hunar)lar va ularni bajarishga odatlanish masalasiga kelganda, bu odat ikki yo‘l bilan hosil qilinadi: bulardan **birinchisi** - qanoatbaxsh so‘zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo‘l (yoki usul) – majbur etish yo‘li. Bu usul gapga kirmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo‘llaniladi. Chunki ular o‘z istaklaricha, so‘z bilan g‘ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o‘rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo‘ladi. Kasb-hunarlarni va juz’iy san’tlarni egallashga intilish bo‘lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chunki, shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san’at ahllariga aylantirishdir.

Demak, Farobiy ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko‘zlaydi.

26.5. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari

O‘rta asrning buyuk qomusiy olimi bo‘lgan Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ham tabiy, ham ijtimoiy fanlar rivojlanishiga ko‘p hissa qo‘shgan.

Beruniyning mashhur asarlaridan: «Qadimgi xalqlardadan qolgan yodgorliklar» («Al-osorul boqiya an il qurun il holiya»); «Turar joylar orasidagi oraliqni belgilash uchun joylarning chegaralarini aniqlash» («Seodeziya»); «Hindiston»; «Qimmatbaho toshlarni aniqlash haqida to‘plam» («Mineralogiya»); «Kitob as-Saydona» («Tibbiyotda borishunoslik»); «yulduzshunoslikda boshlang‘ich ta’limotlarni aniqlash»; «Qonuniy Mas’udiy» kabilardir. Uning turli hajmdagi 150 ta asarlari hozirgi kunda aniqlangan, lekin shulardan 30 taginasi yetib kelgan. Ulug‘ olimning turli fanlarga doir asarlari orasida ijtimoiy ta’limotlari, dunyoqarashi ifodalangan asarlari alohida o‘rin tutadi. Masalan, «Kitob –axborotil mubayyizot vilqaromita» («Oq kiyimliklar va karamatiylar xabarlari haqia kitob»), «Kitobul maqolot val-arz vad-diyonot» («Maqolalar, e’tiqodlar va dinlar haqida kitob») «Geodeziya», «Mineralogiya» nomlari bilan tarjima qilingan asarlari ham anashular jumlasidandir.

Olim «Mineralogiya» nomli asarida inson yer yuzidagi barcha mavjudotlarga qaraganda mas’uliyatliroq vazifalarni bajarishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «Inson tabiatning eng oliy zoti kamolotidir, inson zoti barcha hayvonlardan yuqori turadi… Insonga katta sharaf ko‘rsatilgan –unga aql-zakovat va kuch armug‘on etilgan. Shu sababdan, insonning ma’naviy qiyofasi uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga mos bo‘lishi uchun u yuksak axloqi, bilimli, ma’rifatli bo‘lmog‘i darkor»[1].

Beruniy ilmni va ilm ahlini ulug‘laydi, insonlarni ham shunga chaqiradi. Barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda deb baladi. U o‘zining «Hindiston» asarida jamiyat taraqqiyotining ilmga bog‘liqligini shunday tushuntiradi: «Ilmlar

[1] O.Hasanboyeva, J.Homidov. Pedagogika tarixi. T.: O‘qituvchi, 1997. 47 b.

ko‘pdir. Ular zamoni iqbolli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa, ko‘payadi. Odamlarni ilmga da’vat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘Sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi… Hukmronning ilm ahlini ko‘proq maqtab, ulardan xursand bo‘lish ham ilmlarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi».

Beruniy ilmlar insonning ehtiyojidan paydo bo‘lgan deb hisoblaydi. «Ularni kishining turmushi uchun bo‘lgan ehtiyojlari dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq otdi. Fanning foydasi –ular yordamida oltin va kumush to‘plash emas, balki kerakli narsalar hosil qilishdir»[2] -deb yozadi u «Geodeziya» asarida va fanlarni quyidagicha ta’riflaydi: «**Musiqa** –insonga ichki ta’sir etib, yoqimli kayfiyat bag‘ishlaydi: **til** –nutqning tarozisi va muomala qurolidir: **geodeziya** – harakatsiz yulduz va quyosh orqali shaharlarning joylashishini mukammal o‘rgatadi; **geologiya, geografiya** va **gidrologiya** –yer haqidagi fanlardir; geometriya –jismlarning shakllarini falakkiyot –koinot sirlarini, mineralogiya – javohir va toshlarni o‘rgatadi; dorishunoslik –tibbiyot ilmlaridan xabardor qiladi». Beruniy fanlarni ta’riflash bilan birga ularni o‘qitish usullarini ham bayon etgan. O‘quvchiga bilim berishda:

- O‘quvchini zeriktirmaslik;
- Bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;
- Uzviylik, izchillikka rioya qilish; mavzularni qiziqarli, asosan ko‘rgazmali bayon etish.

Beruniy ilmni quyidagi uch yo‘l bilan hosil bo‘lishini alohida uqtirgan:

1. Har bir ilm va san’atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shuni to‘g‘ri boshlash zarur.
2. Ilm boshlanish joyiga yaqinlashgan sari to o‘ziga borib yetguncha soddalashtirib borish.
3. Ilm o‘rganish vaqt va sabrni talab etadi. Shoshilish kerak emas.

Beruniy ilm ahlini hurmat qilsagina, ilmlar yanada rivojlanib ketishini qayta-qayta uqtirgan edi. O‘zi esa, juda ko‘p olim va podsholarga saboq ham bergan. Beruniyning tolmas zakovatidan Sulton Mas’ud ham bahra olgan, ya’ni undan falakkiyotshunoslik ilmini o‘rgangan, Beruniy tahlilidagi darsliklar g‘oyat tushunarli, sodda bo‘lib, ilmga cheksiz muhabbat uyg‘otgan.

Beruniyning pedagogik qarashlari faqat o‘z zamonasida emas, hozirgi ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Beruniy o‘z asarlarida ta’limning ko‘rsatmali, izchil, maqsadga muvofiq bo‘lishi kerakligini, shaxsning barkamolligi, kishilar o‘rtasidagi ijobiy axloqiy munosabatlar va oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlarning mohiyatini asoslab bergan;

Beruniy ilm-fanning muxlisi va buyuk xomiysi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashiga bog‘liq, odamlarning baxti esa uning ma’rifatida deb bilgan. Ma’rifat dushmanlariga, yomon urf-odatlarga, adolatsizlikka qarshi bo‘lgan. Inson kamoloti o‘tmishdagi faylasuf-mutafakkirlar

[2] Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. T.: 1968. 40-б.

tomonidan ifodalangan bo‘lsada, Beruniy uni yanada rivojlantirgan va to‘g‘ri asoslagan.

Beruniy tavsifi bo‘yicha bolalarni quyidagi tarbiya usullari orqali komillikka erishtirish mumkin:



Olimning fikricha axloqiylik komillikning eng muhim mezonidir. Lekin bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit-jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi.

26.6. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida

Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo‘lgan allomalardan biri, o‘rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sino (980-1037)dir. U qomusiy olim sifatida matematika, astronomiya, fizika, kimyo, filologiya, mantiq, ta’lim-tarbiya sohalarida ijod etib, dunyoga mashhur yirik asarlarni meros qilib qoldirdi. Abu Ali ibn Sino Buxoro yaqinadagi afshona qishlog‘ida tug‘ildi. Keyinroq uning otasi Buxoroga ko‘chib o‘tdi. Abu Ali ibn Sino o‘zi mustaqil holda barcha fanlar bilan shug‘ullana boshladi. U ayniqsa til ilmini chuqur egallab oldi, bu sohada unga Buxoroda Abu Mansur Qamariy ta’lim berdi. Ibn Sino so‘ngra falsafani o‘rganishga kirishdi.

X-asr boshlariga kelib, ibn Sino Xorazmga –Urganchga ko‘chib o‘tdi. Xorazmda u bir qator olimlar bilan hamkorlikda Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma’mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug‘ullana boshlaydi. Xorazmda o‘zining yirik asarlari «Tib qonunlari», «Ash-shifo» kitoblari ustida ish olib bordi.

Ibn Sino 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratgan. Jumladan: «Al-Qonun», «Xayy ibn yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-ishq» («ishq haqida risola»), «Kitob fi ma’no ziyorat» («Ziyorat qilishning ma’nosi haqida»), «Risolat fi mohiyat as-salot» («Nomozning mohiyati haqida risola»), «Risolat fi-daf al-gam min al mivt» («O‘limdan keladigan gamni daf qilish haqida risola»), «Risolat al-kadr», «An-Najot», «Ash Shifo», «donishnoma», «Kitob ash-ishorat» va at tanbixot» va boshqalar.

Ibn Sino o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etib, fanlarni tasniflaydi. Yirik falsafiy asari «Kitob-ash-Shifo»da quyidagicha tasnifni uchratishimiz mumkin:



Kitobning tabiiy fanlar qismi 8 bobdan iborat bo‘lib, bunda falsafaning asosiy qismi bo‘lgan tabiatdagi hodisalarni, ya’ni osmon va olam, borliq va buzilish, ta’sir va ta’sirlanish, jon haqida, o‘simliklar, hayvonlar to‘g‘risidagi ilmiy fikrlar asoslab berilgan.

Abu Ali ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. U axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi. Dunyoda mavjud bo‘lgan jami narsalar tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o‘zi esa mohiyat e’tibori bilan yaxshilikdir. Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi. Ichki quvvatlarning ta’sirlari va ta’sirlanishlari takrorlanaversa, ular uchun kuchli bir malaka hosil bo‘ladi. Axloq ham shunday vujudga keladi.

Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta’rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, donolik, jasurlik bilan adolatga ega bo‘ladi, yomon illatlardan o‘zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo‘‘tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik, sadoqat, initilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Qanoat va mo‘tadillikni insonning hissiy quvvatiga kiritadi, chidamlilik, aqllilikni g‘azab quvvatiga, donolik, ehtiyotkorlikni ziyraklikka, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinish, sofdillikni tafovut quvvatiga kiritadi. Olim qanoatni hissiy fazilatlardan sanaydi va inson o‘zini ta’magirlikdan tiysa,

mo‘tadillikka rioya etsa, o‘zida hirsning namoyon bo‘lishini engadi, inson yomon illatlarni yengishda o‘z imkoniyatlarini ongli sarf etishi lozim, deydi.

Ibn Sino har bir axloqiy xislatlarning ta’rifini beradi:

Mo‘tadillik – tan uchun zaruriy oziq va xulq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

Saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko‘maklashuvchi insoniy quvvat;

G‘azab – biror ishni bajarishda jasurlik;

Chidamlilik – inson o‘z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat;

Ziyraklik – narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat;

Achinish – kishilar baxtsizlik, azob-uqubatga duchor bo‘lganda, ular bilan xushmuomalada bo‘luvchi insoniy quvvat;

Kamtarlik – xudbin ishlar bilan shug‘ullanishdan to‘xtatuvchi kuch.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to‘sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik, naftarni ko‘rsatib o‘tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni – zehni o‘tkirlikka, shafqtsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni – sevgi-muhabbatga qarama-qarshi illat sifatida ta’riflaydi.

Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezoni sanalgan ma’rifatni egallashga da’vat etadi. Chunki, ilm fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak.

Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk bo‘lmagan kishilar qatoriga qo‘shadi.

Tavsiya qilgan ta’lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



Ibn Sino bilim olishga, bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat berib, «Tadbir ul manozil» asarining maxsus bo‘limini shu masalaga bag‘ishlaydi. U ta’limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;

- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini inobatga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish. bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Talabaga bilim berish o‘qituvchining mas’uliyatli burchidir. Shunga ko‘ra ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo‘l-yo‘riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish.

Har bir so‘zni bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga yetkazish zarur[62],deydi olim.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Ibn Sino insonning kamolga yetishida to‘sqinlik qiluvchi nuqsolar sifatida johillik, nodanlik, shafqatsizlik, takabburlik, nafratni ko‘rsatib o‘tadi. Johillikni – ilmga, nodonlikni –zehni o‘tkirlikka, shafqatsizlik, takabburlikni adolatga, nafratni-sevgi-muhammatga qarama-qarshi illat sifatida ta’riflaydi.

Ibn Sino yuksak axloqiy hislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do‘st bo‘lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki, har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do‘stona yashashga intiladi.

Ibn Sinoning yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash haqidagi fikrlaridan hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish albatta ijodiy natija beradi.

Abu Ali ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do‘st bo‘lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki, har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan birga yashar ekan, ular bilan do‘stona shashga intiladi. Modomiki, inson aloqaga muhtoj ekan, boshqa birov bilan qo‘shnichilik qilish uchun uning uyi yoniga uy soladi, o‘zining ehtiyojini qondirish uchun esa ishlab chiqarish mahsulotlarini almashtiradi, dushmanlardan saqlanish uchun o‘zgalar bilan birlashadi. Mana shu tariqa kishilarda birlik hissi, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbat va umumiy axloqiy negizlar ishlab chiqila boshlaydi. U insonda yaxshi xulqning shakllanishida xushxulq, ilmli do‘st muhim rol o‘ynaydi, deydi. Olim do‘stlikni shunday ta’riflaydi:

- har qanday qiyinchiliklarga qaramay o‘z do‘stini xavf-xatarda yolg‘iz qoldirmaydigan do‘stlik;
- manfaatlari o‘xshash va g‘oyaviy yaqin do‘stlik;

[62] S.Rahimov. Abu Ali ibn Sini ta’lim va tarbiya haqida. T.: O‘qituvchi, 1991, 75 б.

- o‘z shaxsiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do‘stlik. Ibn Sino birinchi va ikkinchi xil do‘stlikni haqiqiy do‘stlik, deb e’tirof etadi.

Olim haqiqiy do‘stlik natijasida sevgi-muhabbat paydo bo‘lishi mumkinligini aytadi. U «Risolai ishq» asarida sevgi-muhabbatning asl mohiyatini ham ijtimoiy, ham fiziologik jihatdan yoritib beradi. Insonlarga ularning tashqi ko‘rinishiga qarab emas, u tabiiy zarurat sifatida namoyon bo‘ladi, lekin inson o‘z tuyg‘ularini boshqara olishi, aql va farosat bilan haqiqiy sevgini hirs tuyg‘usidan, ehtiros kuchidan ajrata bilishi zarur deydi. Shundagina inson haqiqiy kamolotga erisha oladi. Chunki haqiqiy sevgi, olimning fikricha, inson zimmasiga axloqiy, huquqiy burch yuklaydi. Bu esa olimning sevgiga ijtimoiy omil sifatida ham qaraganligini ko‘rsatadi.

Abu Ali ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyaning o‘zaro aloqada amalga oshirishning ilmiy ta’limotini, usullarini yaratib, ta’lim-tarbiya sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Uning fikricha, kishi aqliy va jismoniy jihatdan qanchalik yetuk bo‘lmasin, agar undagi bilim va kuch axloq me’yorlariga mos tushmasa, bunday kishi jamiyatning haqiqiy a’zosi hisoblana olmaydi. O‘zi uchungina yashamasdan xalq uchun, uning manfaati uchun yashashga intiluvchi kishilarni ibn Sino yaxshi axloqli insonlar deb hisoblaydi

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlirni o‘rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko‘proq yaxshi axloqiy xislatlarni mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi, deb ta’lim beradi.

Inson hissiy va ma’naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe’l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o‘rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o‘ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishiga ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham, bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo‘lish kerakligini, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiviy qarashlarida oila, oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki, inson avvalo oilada kamolga yetadi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta e’tibor beradi. Oila munosabatlariga to‘xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o‘rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy ta’sirini ta’kidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmand, dehqonlar mehnatini ulug‘laydi va qimorboz, sudxo‘r kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy ta’sir etishini to‘g‘ri talqin etadi.

Ibn Sino insonni ulug‘lovchi olim sifatida uning har tomonlama rivojlanishiga ishongan holda avvalo, bilimlarga ega bo‘lishi va bu bilimlarni egallash vositasida aqliy tarbiyani amalga oshirishga oid qarashlari diqqatga sazovordir. Ibn Sinoning axloq bobidagi qarashlarida esa sof insoniy xislatlar, munosabatlar, odob-axloq qoidalari me’yorlari o‘z ifodasini topgan.

Ibn Sinoning inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida

axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalangan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o‘rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

26.7. Sharq Uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma’naviyatga, Uyg‘onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o‘tish mumkin:

- koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, moda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish, ilm-fan ma’rifat, ma’naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylanishi;
- insonni koinotni yaratuvchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish, ularni yaratuvchining eng ulug‘ va yuksak ijodi deb baholash, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi deb ilish;
- axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo‘l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo‘lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do‘stlik, o‘zaro yordam, ko‘maklashuvga chaqirish bu davr madaniyatining yetakchi jihatlaridandir;
- komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, zaro kelishuv, birlikka ega bo‘lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;
- mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi, bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma’naviyatli, ilmli, axloqli bo‘lishi, jamoani yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta’minotining muhim xislatlaridir.

Sharq Uyg‘onish davrida ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi.

Birinchi yo‘nalish – matematika-tibbiyot yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot, farmakologiya va boshqa shularga turdosh fanlar kiritilib, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, Ibn Sino, Jurjoniy tibbiyot va falsafa, Abu Rayhon Beruniy tibbiyotga oid yirik asarlar yaratdilar.

Ikkinchi yo‘nalish – ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lib, bunda falsafa, tarix, mantiiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo‘lib, bu sohada Farobiy, al-Kindiy, Ibn Sino, Zahiriddin Bayhaqiy, Muhammad Narshahiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar.

Biz yuqorida zikr etgan olimlar qomusiy olimlar bo‘lib, ular o‘z sohalarida ish olib borish bilan bir qatorda boshqa bir qancha fanlarga doir ham tadqiqotlar olib borganlar.

Uchinchi yo‘nalish – ta’limiy-axloqiy yo‘nalish bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy

asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta’limiy-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Ma’lumki, Sharq Uyg‘onish davrida inson muammosi ma’naviyat sohasidagi asosiy masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insoning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug‘lash etakchi o‘rin tutgan.

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha bir qator mutafakkir va allomalar ijod qilganligini quyidagi chizmada ko‘rishimiz mumkin:



Insonparvarlik g‘oyasini amalga oshirishning asosiy vositalari sifatida yuksak axloqiy odatlar, insoniy munosabatlar va xislatlarni tarkib toptirishga olib keluvchi ta’lim-tarbiyani amalga oshirish muhim masala qilib qo‘yilgan. Zero, insoniylik g‘oyasida yuksak axloqiy xislatlar ifodalanganligi uchun ham sharq Uyg‘onish davri falsafasi va pedaogikasida ta’limiy-axloqiy yo‘nalish muhim ahamiyat kasb etadi. Axloq masalasi faylasuflarning, buyuk mutafakkirlarning, ham tarixchi-yu shoir va adiblarning ham birdek diqqat markazida bo‘ldi. Ta’limiy-axloqiy risolalar paydo bo‘lib, axloqning ham nazariy-ham amaliy masalalari tahlil etildi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Axloq haqida risola», «ishq risolasi», «Qutadg‘u bilig», «Axloqi Nosiriy», «Axloqi Jaloliy», «Axloqi Muhsiniy», «Hibatul-haqoyiq», «Qobusnoma», «Guliton», «Bo‘ston», «Mahbub ul-qulub» kabi Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Tusiy, Davoniy, Koshifiy, Kaykovus, Sa’diy, Jomiy, Alisher Navoiylarning ta’limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma’naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etishda sof pedagogik asarlar sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshishi mumkin, degan g‘oya ilgari surildi. Ilmiy bilimga asoslanuvchi metod shakllandi, natijada aqliy tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘ldi: Xorazmiy, Farobiylar bu metodni asoslab berishgan buyuk mutafakkirlar edi. Bular bilan bir qatorda o‘sha davrda yaratilgan barcha ta’limiy-axloqiy risolalarda ham aqliy tarbiyada zehnni tarbiyalash, aqliy kamolot yo‘llari, bilimlarni asl mohiyatini yoritishga harakat qildilar.

Lekin, biz shu paytgacha tayangan materialistik ta’limotga asosan olimlar yuksak axloq haqidagi g‘oyalarni islomning axloqiy dogmatikasiga qarshi ishlab chiqilgan, o‘z fikrini mantiiqiy, izchil asosli ifodalashga asoslangan ratsionalistik ta’limot ham islom falsafasi – kalomning hissiy bilishni va aqliy bilishdan iborat ta’limotini – sehrli bilish haqidagi ta’limotiga qarshi Shakllangan, deb ta’lim berdilar. Aslini olganda esa, sharq Uyg‘onish davrining ta’limiy-axloqiy qarashlarining asosi Islomning umuminsoniy va o‘ziga xos haq-huquqlariga, talab va tamoyillariga borib taqaladi.

Zero, barcha mutafakkirlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarining asosi ham Qur’on va Hadis ta’limotiga asoslanadi. Chunki biz nazarda tutayotgan davrdan boshlab savod o‘rgatish Qur’on va Hadislarni o‘rgatish va ulardagi ko‘rsatmalarni o‘zlashtirish bilan birga olib borilgan. Shunga ko‘ra Qur’on va Hadislardagi pand-nasihatlar ham olimlar, ham adiblar ijodiga ta’sir etgan. Hadislardagi umuminsoniy fazilatlarga alohida urg‘u berilgan. Ularda ilgari surilgan musulmonlarning muhim xislatlari: halollik, poklik, saxovat, himmat, mehr-oqibat, ehson, sharm-hayo, ilm izlash, muomala qoidalari, axloq mezonlari va boshqalar o‘z ifodasini topgan va sharq adabiyotiga, jumladan ta’limiy-axloqiy asarlarga ta’sir etdi. Hadislar ta’siri yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asaridan boshlanib, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq», Sa’diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» va boshqa asarlar negizida ko‘rinadi. Ham g‘oya, ham mazmun, ham shakl buning dalilidir.

Masalan, Qur’onda ham, Hadislarda ham, ta’limiy-axloqiy dostonlarda ham ilm ta’rifi bilan birga xulq-odob qoidalari, turmush odobi yoritiladi.

Mazkur ta’limot mutafakkirlarimiz ijodida ilmiy talqin etiladi. Xususan, al-Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ta’limiy-axloqiy fikrlari ham avvalo Qur’on oyatlarining ilmiy talqinidir. Chunki, Farobiy ilm yo‘li bilan Allohni tanigan. Zero, Qur’onda ham, Hadisda ham haqiqiy ilm tolibi musulson hisoblanishi ta’kidlanadi.

Mutafakkirlarning o‘z ishlarida o‘qitish va ta’lim-tarbiyaga e’tibori natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga orta bordi. Aniq fanlarni o‘qitishning uslubi masalalariga ayniqsa e’tibor kuchaydi. Pedagogika sohasida inson va uni kamolga yetish bilan bog‘liq muammo asosiy o‘rinni egalladi.

Mutafakkirlar ta’lim-tarbiyaga oid fikrlarida inson kamoloti muammosini baxt-saodatga erishish uchun shiroit yaratish, degan g‘oyani ilgari surish bilan bog‘lab talqin etdilar. «Farobiy, Nizomiy, Jomiy, Navoiy asarlarida oliy axloq, ma’rifatga, ma’naviy erkinlikka erishuv baxt-saodat, deb talqin etildi va bu baxt-saodat adolatli, zulmdan holi, ideal etuk jamoa va ideal rahbar hokim bilan bog‘liq holda tasavvur etildi. Yetuk jamoa haqidagi insonlarning barchasini baxt-saodatga erishtiruvchi ideal tuzum haqidagi utopiya sharq Uyg‘onish davri ijtimoiy-etnik fikrni taraqqiyotining eng katta yutuqlaridan biri bo‘ldi», - deydi farobiyshunos olim M.Xayrullayev.

Sharq Uyg‘onish davri ta’limiy-didaktik asarlarida inson shaxsining kamol topish yo‘llari, usullari bayon etildi. Haqiqiy yuksak axloqli inson xislatlari haqida fikr yuritilganda birinchi o‘rinda adolatparvarlik g‘oyasi yotadi. Masalan, adolatli

hukmdor haqida so‘z yuritilar ekan, agar hukmdor adolatli bo‘lsa, uning qo‘l ostidagi fuqarolar ham baxt-saodatli hayot kechiradi, deyiladi.

Uyg‘onish davri pedagogikasida kasb-hunar o‘rganish ilm o‘rganish bilan bab-baravar talab etiladi. Har bir yosh yigit, u qaysi tabaqa farzandi bo‘lmasin, kasb-hunar o‘rganishi zarurligi alohida ta’kidlandi. Har bir hunarmand mehnat madaniyatini, o‘z kasbiga e’tiqod va hurmatni tarkib toptirish, tejamkorlikka rioya etish, o‘z ishini sifatli bajarishga yo‘llangan.

Bundan tashqari, insonni kamolotga yetkazuvchi axloqiy xislatlar sifatida do‘stlik, sadoqat va vafo, sevgi va muhabbat, vatanparvarlik, samimiylik, saxovat, muruvvat, erkinlik, irodalilik, jasurlik kabilar ilgari suriladi. Salbiy xislatlar sifatida rashk, riyokorlik, xudbinlik, ochko‘zlik, hirs, sotqinlik kabilar qoralanadi.

Xulosa qilib aytganda, islom dinining yoyilishi, markazlashgan Arab xalifaligida ilm-fan taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish Movarounnahr va Xurosonda IX-asrlarga kelib ma’naviy ko‘tarilishi – «sharq Renesansi» - Uyg‘onish davrini boshlab berdi.

Butun sharqda bo‘lgani kabi Muvarounnahrda ham ilm-fan va ma’rifat sohasida o‘z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo‘lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar yetishib chiqdi.

Ular o‘z ilmiy ishlarida axloq-odob masalalariga ham katta e’tibor berdilar. Bularda ilgari surilgan g‘oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamol topishida pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, Sharq Uyg‘onish davrida sof pedagogik asarlar yaratib, ta’lim va tarbiyada inson etukligining xususiy va umumiy yo‘llari haqida o‘lmas ta’limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga keldi.

Demak, biz Sharq Uyg‘onish ta’lim-tarbiya muammolarini tahlil etar ekanmiz, uni ikki yo‘nalishda - qomusiy olimlar ijodiy merosida ta’lim-tarbiya muammosi va sof ta’limiy-axloqiy asarlarda komil insonni tarbiyalash muammolarining hal etilishi orqali ifodalanganini ko‘ramiz.

26.8. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida ta’lim-tarbiya masalalari

Xalqimizning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvorga oid xislatlari XI-asrda yashab ijod etgan ulug‘ olim, mutafakkir **Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk»** asarida keng bayon etilgan. Ushbu asarlarda qadimgi turkiy xalqlar tili tarkibiga kirgan so‘zlarning arabcha izohli tarjimasi berilgan. Bu kitobni qadimiy turkiy tilning izohli lug‘ati deyish mumkin.

«Devon»dagi qo‘shiqlarda tabiat manzaralari, ov va jang tasvirlari, sevgi-muhabbat tuyg‘ulari, o‘git-nasihatlar o‘z ifodasini topgan. She’rlarda ilm olishning qadri, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo‘stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ‘ib etuvchi, o‘z manfaatini ko‘zlagan molparast, baxil, ochko‘z, do‘stiga va xalqiga xiyonat kabi salbiy tomonlarini qoralaydigan she’rlar ko‘p uchraydi. Bunday she’rlar turkiy xalqlar qadim-qadimlardan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berganligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, pand-nasihatlarda asosiy o‘rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat qilish to‘g‘risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarni ilmli kishilarga yaqinlashish, ulardan o‘gitlar olishni maslahat beraladi.

«Devonu lug‘atit turk» asarida xalqning ta’lim-tarbiyaga oid tajribalari ifodalangan maqollar ham mavjud. Maqollarda ham qo‘shiqlardagi kabi do‘stlik va hamkorlik, mehnatga muhabbat, ilm olishga va kasb-hunar egallashga undash, vatanparvarlik va qon-qarindoshlik tuyg‘usi tejamkorlikning ahamiyati, isrofgarlikning oldini olish, adolat va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning oqibatlari, xulq-odob qoidalari, sihat-salomatlikni saqlashga oid o‘gitlar talqin etiladi.

Demak, kishilarni mukammallashtirishga xizmat qiladigan «Devonu lug‘atit turk» asaridagi she’riy parchalar, maqollar ezgulikni targ‘ib qilgan, insonning kamolga etishiga katta ta’sir etgan. Ushbu jihatlari bilan Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asari bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

26.9. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari – pandnoma asar sifatida

Yusuf Xos Hojib O‘rta Osiyoning yirik Shaharlaridan biri Bolasog‘unda tug‘ilgan. Uning hayoti haqida batafsil ma’lumot bizgacha etib kelmagan. Lekin u o‘zining 1069-1070-yillarda yozgan **«Qutadg‘u bilig»** («Saodatga yo‘llovchi bilim») asari bilan butun dunyoga ma’lum bo‘lgan mutafakkirdir.

«Qutadg‘u bilig» ta’lim va tarbiya, ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga oid darslikdir. Ushbu asarda mutafakkir o‘zining axloqiy-siyosiy va pedagogik fikrlarini bayon qilgan.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo‘lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o‘rni, burch va vazifalari haidagi muammolar o‘ziga xos bir tarzda bayon etiladi. Mutafakkir kitobning an’anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag‘ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o‘rnini ham yoritadi.

Yusuf Xos Hojib bilimni buyuk, o‘quvni ulug‘ deb ta’riflaydi. Chunki, zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi. O‘sha davrdayoq olim «Bilim hatto, osmon sari yo‘l ochur», deb bashorat qiladi.

Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kerakligini ta’kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi. U bilimlilik va bilimsizlikning oqibatlari haqida ham fikr yuritadi. Inson bilimsiz, nodon, johil bo‘lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo‘lsa, ezgu ishlarni ro‘yobga chiqarishini ta’riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga yetkazishning yana bir va eng muhim tomoni uni axloqiy kamol toptirish, deb qaraydi. Mutafakkir o‘zining axloqiy qarashlarini, ya’ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning barcha tabaqalari o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Olim insonning haqiqiy kamolga etishida aqliy va axloqiy tomondangina emas, balki jismoniy tomondan ham sog‘lom bo‘lishi kerakligiga katta e’tibor beradi.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga yetishining yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham, bu asar o‘zining ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

26.10. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asarida didaktik qarashlar

Qoraxoniylar hukmronligi davrida ta’limiy-axloqiy jihatdan eng yuksak sanalgan asarlardan biri **Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq»** («Haqiqatlar sovg‘asi») asaridir. Mazkur asar mazmuni ham o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy, diniy, axloqiy, iqtisodiy masalalari tashkil etib, unda o‘sh davrdagi ta’limiy-axloqiy asarlarda bo‘lgani kabi bilimlilik, adolat, saxovat, muruvvat kabi xislatlar ulug‘lanadi,yetuk insonni tarbiyalash g‘oyasi ilgari suriladi.

Asar o‘n to‘rt bobdan iborat. Dostonning dastlabki 4 bobi an’anaga ko‘ra muqaddima bo‘lib, beshinchi bobdan asosiy qism boshlanadi. Bu boblarda, asosan bilimning ahamiyati, jaholatning zarari, til odobi, dunyoning foniyligi, saxovat va baxillik, kamtarlik hamda axloqiylikning eng muhim xususiyatlari tarannum etiladi.

Ahmad Yugnakiy o‘zining insonni kamolga yetkazish haqidagi qarashlari bilan pedagogik fikr taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega. U inson kamoloti uchun muhim bo‘lgan aqliy va axloqiy qoida va talablarni o‘zida mujassamlashtirgan «Hibatul-haqoyiq» asarida komil insonni shakllantirishning o‘ziga xos tizimini yaratdi. Bunda u insonni kamolga etkazishning eng muhim va asosiy mezonlaridan biri – insonning bilimga ega bo‘lishi, ya’ni unga aqliy tarbiya berish deb bildi. So‘ng ma’naviy-axloqiy kamolga etkazuvchi so‘z odobi, insondagi halollik, rostgo‘ylik, saxiylik, kamtarlik, samimiylik, qanoat, chinakam do‘st bo‘lishni eng muhim insoniy xislatlar sifatida ta’riflaydi va bularga qarama-qarshi bo‘lgan jaholat, baxillik, ochko‘zlik, yolg‘onchilik, takabburlik, zolimlik, shoshqaloqlik kabi millatlarni qoralab, ularning yomon oqibatlarini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asari xalqni, ayniqsa, yoshlarni ma’naviy kamolotga yo‘llaydi, ijtimoiy hayotdagi kishilar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ahillik, saxovat, yaxshilik bilan hal etib, ochko‘zlik, baxillik, jaholatni ilm-ma’rifat bilan bartaraf etishni da’vat etadi.

«Hibatul-haqoyiq» asaridagi ma’rifiy-tarbiyaviy masalalar yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganligi uchun ham bu asar necha asrlardan buyon ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda.

26.11. Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati

XI-asrning 82–83-yillarida arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab «Nasihatnoma»sini yaratadi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra uni bobosi podshoh shamsul-maoliy Qobus sharafiga «Qobusnoma» deb ataydi.

«Qobusnoma» 1860-yilda o‘sha davrda hali 16 yoshli shahzoda bo‘lgan Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910) topshirig‘i bilan buyuk shoir va mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan birinchi bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

«Qobusnoma» pand-nasihat tarzida yozilgan bo‘lib, mana bir necha asrlardan beri xalqlarni, jumladan yoshlarni ma’naviy hayotga tayyorlashda, ularni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalashda muhim qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

Kaykovus odamlarning xislatlarini uch xilga bo‘ladi: biri aql, biri rostlik, yana biri juvonmardlikdir. U bilim va aqlning ahamiyatini ulug‘lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo‘yadi.

Asarda yoshlar tarbiyasida – juvonmardlik talablaridan eng muhimi, axloq tarbiyasi, deb ko‘rsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish, adolatlilik, samimiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadini amalga oshirishga harakat qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim o‘rin tutadi. U axloqlilikning birinchi belgichi suxandonlik deb biladi. U notiqlikda rost so‘zlash kerakligini ta’kidlaydi.

Kaykovusning axloqiy o‘gitlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus Qur’on va Hadislardagi talablardan kelib chiqqan holda o‘zining nuqtai nazarlarini bayon qiladi: «O‘z farzanding sening haqingda qanday bo‘lishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo‘lg‘il, nedinkim sen ota-onang haqida ne ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki farzand mevaga, ota-ona daraxtga o‘xshaydir»[63].

Kaykovus oilada ota vazifasi va burchiga alohida e’tibor beradi. Farzand tug‘ilganda avvalo unga yaxshi ot qo‘yish, undan so‘ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o‘qitish, ulg‘aya boshlaganda kasb-hunar o‘rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so‘ng suvda suzishni o‘rgatish kerak, deydi. Kaykovus otaning burchi yana o‘z farzandiga adab ham o‘rgatishda, deb ta’kidlaydi. U ilm, hunar va adabni farzandga meros qoldirish har bir otaning farzandi haqqini bajargani, deb hisoblaydi. Kaykovus otalarning o‘z farzandlariga nisbatan qattiqqo‘l bo‘lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o‘zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki, otaning o‘z qo‘li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qaladi. Lekin, otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, deb ta’lim beradi.

Kaykovusning hayotda xulq-odob qoidalariga qanday amal qilish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo‘lishi haqidagi qarashlari ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik rtasidagi

[63] Kaykovus. Qobusnoma. (nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov) T.: O‘qituvchi, 2006. – 208 b. (30-b).

qarama-qarshilik asosida bayon etiladi. Kaykovus yuksak axloqiylikning yana bir tarkibiy qismi do‘stlik deb biladi va do‘st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan, uning asosiy talablarini talqin etadi.

Asarda jismoniy tarbiyaga ham katta e’tibor berilga, zero Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag‘ishlar ekan, ularning eng avvalo, jismonan sog‘lom bo‘lib kamolga yetishini alohida ta’kidlaydi.

Demak, Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI-asrda yuzaga kelgan yirik tarbiyaviy asardir. Bunda o‘sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san’ati, ifodali o‘qish, xattotlik san’ati, she’r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo‘lish, shatranj va nard o‘yinini bilish kabilar ham o‘z ifodasini topgan. Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga etkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tadbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o‘z qimmatini yuqotmadi va amaliy hayot dasturi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

XXVII BOB. XIV ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI-ASRDA MOVARAUNNAXRDA TARBIYA VA MAKTAB

27.1. Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri

Qariyb bir yarim asr davomida mo‘g‘ullar istibdodi ostida xonavayron bo‘lgan Movarounnahr xalqi XIV-asrning boshlariga kelib mo‘g‘ul istilochilari zulmidan qutula boshladi. Movarounnahrda kuchli davlat tuzishga bo‘lgan intilish g‘olib keldi. Mo‘g‘ul istilochilariga qarshi Buxoroda xalq Mahmud Torobiy boshchiligida qo‘zg‘aldi, Samarqand va Xurosonda esa Sarbadorlar qo‘zg‘olonlari ro‘y berdi. Natijada Sarbadorlar uzoq muddat hatto, hokimiyatni ham boshqarib turdilar.

XIV-asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrning feodal tarqoqligiga barham berildi, mamlakat mo‘g‘ul bosqinchilaridan tozalandi. XIV-asrning oxiri va XV-asrlarda Markaziy Osiyoda feodal munosabatlar yanada rivoj topa boshladi.

Sohibqiron Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Markazlashgan buyuk Temur davlatining barpo etilishi bilan Movarounnahrda yana fan va madaniyat, maorif qaytadan ravnaq topa boshladi.

Shuning uchun ham, XIV-asrning ikkinchi yarmi va XV-asr tarixda Sharq uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi deb ataladi. Chunki, bu davr madaniyati o‘z tamoyillari, yo‘nalishi, iqtisodiy asosi jihatidan IX-XII-asr madaniyatining davomi sanaladi.

Shu bois, XIV-asr oxiri va XV-asrlarda Movarounnahrdagi Sharq uyg‘onish davri madaniy ravnaqini IX-XII asrlardagi madaniy rivojlanishidan ajratib olib ko‘rsatish mumkin emas. XIV-asrning uchinchi choragi va XV-asrda Markaziy Osiyoda iqtisodiyot, fan va madaniyat o‘sdi. Amir Temur hukmronligi davrida jahonning ko‘plab shaharlarida Samarqandga hunarmandlar, olimu fozillar,

san’atkorlar, muhandislar olib kelindi va ularning boy tajribalari, ijodiy mahoratlaridan ilm- ma’rifat, madaniyat, qurilish jabhalarida keng foydalanildi. Samarqand va Hirotda madrasalar, kutubxona va rasadxona qurildi. Tibbiyot ilmini o‘rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Riyoziyot, falakiyot, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, falsafa hamda tarbiyashunoslikka oid asarlar yaratildi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom, Sa’diy meroslarini, shuningdek, yunon-rim madaniyatini o‘rganishga havas kuchaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Temur va uning izdoshlari, temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi. Ayniqsa Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-ma’rifat markaziga aylandi.

Amir Temur saltanatni bino qilish va uni mustahkamlash uchun juda katta xizmat qildi. Ana shunday buyuk xizmatlaridan eng muhimi, mamlakatda ta’lim tizimini rivojlantirish sohasiga qaratilganligi edi. Chunki, uning e’tiqodiga ko‘ra bilimdon va tadbirkor insongina mamlkatning rivojlanishiga hissa qo‘sha oladi. Shuning uchun ham sohibqiron bilimli va ishbilarmon, tadbirkor kishilarni tarbiyalashga katta e’tibor beradi. Bu borada ta’lim tizimining o‘ziga xos o‘rni bo‘lishi kerakligini anglagan holda maktab va madrasalar qurdiradi. Saltanat poytaxti Samarqand atrofida o‘n ikki bog‘ va qasr yaratadi, shahar arki Ko‘ksaroy, uning atrofida esa Bo‘stonsaroylar bino etadi. Jome’ masjidi, maqbaralar, me’moriy yodgorliklar qurdiradi. Bu ishlarga faqat Amirning o‘zi emas, uning atrofidagi yaqinlari ham turli madrasalar qurishga bosh-qosh bo‘ladilar. Bulardan Amir Temurning amirlaridan Idigu Temur, mavlono Qutbiddin, umr yo‘ldoshi Saroymulkxonim, nabirasi Muhammad Sultonlar ham madrasalar qurdiradilar.

Madrasalar ma’lum darajada ixtisoslashgan edi. Masalan, boshqaruv kadrlarni tayyorlash Muhammad Sulton madrasasida, diniy muassasalar uchun kadrlar tayyorlash mavlono Qutbiddin sadr madrasasi, umumiy mutaxassislar, ya’ni ziyoli, imom, olim, maktab o‘qituvchisi tayyorlashga Idigu Temur, Saroymulkxonim madrasalari ixtisoslashgan. Lekin ularning hammasida Qur’on, Hadis, fiqh o‘rganilgan. Shuningdek madrasalarning ixtisosligiga ko‘ra umumiy aqliya, umumiy askariya, umumiy ma’muriyatlar ham o‘rgatilgani haqida ma’lumotlar bor.

Madrasalarda darslar arab, fors, turkiy (o‘zbek) tillarida olib borilgan. Arab tili grammatikasini o‘rgatishga ko‘proq vaqt ajratilgan. Shuning uchun Sa’diy Sheroziyning «Guliston», «Bo‘ston», Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» va boshqalar ham o‘qitilgan.

Har bir madrasaning vaqfnomasida tolibi ilmlar, mudarrislar va boshqa xodimlarni qabul qilish, o‘quv ishlarini yuritish belgilangan[64].

Ulug‘bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya kabi fanlar ayniqsa, rivoj topdi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va Shular bilan barobar diniy bilimlarning ham ravnaq topishiga katta e’tibor berildi. Oliy maktab — madrasalar qurildi. Buxoro, Samarqand va g‘ijduvonda qurilgan uch madrasada fan taraqqiyotida ilmiy markaz bo‘lib keldi.

[64] Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta’lim — madrasai oliya — Universitet tarixidan lavhalar. Samarqand: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 38-47-b.

Buxorodagi madrasa peshtoqiga bitilgan quyidagi yozuvlar haligacha ko‘zga yaqqol tashlanadi: «Ilm olmoqqa intilmoq har bir muslim va muslima uchun qarzu farzdir».

Ulug‘bek 1428—1429-yillarda Samarqandda rasadxona qurdiradi. 1437-yilda ana shu rasadxonada «Ko‘ragoniy jadvali»ni, ya’ni yulduzlar jadvalini tuzadi. U yaratgan kutubxonada esa fanning turli sohalariga oid 1500 jild kitob mavjud edi.

Samarqand shahrida X asrda 17 ta madrasa bo‘lib, ularda yirik olimlar dars bergan bo‘lsa, XIV-XV-asrlarga kelib ular soni yanada ortdi. Tabobat ilmi, tarix, adabiyot va san’at ham rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonasi keng rivoj topadi. Uning rahbarligida kitoblarni ro‘yxatdan o‘tkazish va ilmiy matn ishlari ham olib borilgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarining shu davrda to‘liq matni tuzilib, miniatyuralar bilan bezatilgan.

Bular XIV-asrning ikkinchi yarmi va XV-asr Markaziy Osiyo tarixida uyg‘onish davri bo‘lib tarixga kirgan deya olishimizga asos bo‘la oladi.

Bu davrda o‘zbek adabiyotida ham ancha siljish ro‘y berib, Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Durbek va Lutfiylar tomonidan qimmatli asarlar yaratildi. Shuningdek, tarixiy va adabiy asarlarni o‘zbekchaga tarjima qilish ishlari jonlandi.

Ulug‘bek olimlarga homiylik qilib, fan ahlini rag‘batlantirdi, uning o‘zi, ayniqsa, astronomiya va matematika fanlari bo‘yicha muhim ishlarni amalga oshirdi. Samarqandda Ulug‘bek tomonidan rasadxonaning barpo etilishi va uning o‘sha davr ilmiy markaziga aylanishi muhim voqea hisoblandi. Shu davrda Samarqandda Qozizoda Rumiy, Jamshid bin Ma’sudi, Mo‘yiddin va uning o‘g‘li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjondi va boshqalar ijod etdilar. Hirotda esa Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug‘ rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, hattot Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar ijodiyot cho‘qqilariga ko‘tarildilar.

Ulug‘bekning shogirdi Aloviddin Ali ibn Muhammad Qushchi Samarqandiy (1403—1474) o‘sha davrda Movarounnahrning madaniy va ilmiy hayotida katta rol’ o‘ynadi. Astronomiya to‘g‘risida «Risolai dar falakiyot» degan kitob yozgan Ali Qushchini o‘z davrining Ptolomeyi deyishardi. Uning mazkur asarida geometrik bilimlarning asoslari bayon qilindi, nuqta, chiziq, yuza, aylana va shu kabi tushunchalar to‘la ta’riflab berildi, tabiiyot fanlari va shuning singarilar sohasida boshlang‘ich bilimlar bayon qilindi. Bu asar hamma narsa oddiy va murakkab narsalarga bo‘linib ta’riflanadi.

Sulton Husayn Boyqaro davrida olimlar va shoirlar Samarqanddan Hirotga ko‘chib o‘tdilar. Hirot ilmiy-madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy Hirotda fan, madaniyat, ma’rifat ishlarini yo‘lga qo‘yishda, u erni obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da Hirot to‘g‘risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko‘rmaganligini aytadi.

Alisher Navoiy ham masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko‘priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng xushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari guruhi fan, adabiyot, san’atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

Hirotda Alisher Navoiy bilan birga Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, xattotlar — Sulton Ali Mashhadiy, kotib Mir Ali, sozanda — Qulmuhammad, tarixchilar — Abdurazzoq Samarqandiy, Xondamir va boshqalar yashab ijod etgan.

Hirotda xattotlik san'ati rivojlangan. Hatto Buxoroda «Hirot yozuvi» mirzalar, xattotlar tomonidan 1920-yilgacha qo'llanilganini tarixchilar manbalarda keltiradilar.

Bu davrda Movarounnahrda ham san'at, arxitektura, binokorlik texnikasi ancha ravnaq topdi. Musiqa, tasviriy san'at, madaniyat, adabiyot, ta'lim-tarbiyaga oid qator asarlar yaratildi. Hasan Buxoriy Nisoriyning (1556) «Muzakkir al-ahbob» tazkirasi, Mutribiyning «Tazkira - tush shuaro» (1604—1605) to'plamlari, tarixiy va adabiy yodgorlik bo'lgan «Boburnoma» o'sha davrda yaratilgan asarlar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Amin Ahmad Roziy «Haft iqlim» («Etti iqlim») degan geografik bibliografik lug'at tuzdi.

XVI-asrda xattotlik san'ati yuksak darajaga etdi. Sulton Ali mashhadiy, Mirali Halaviy, Mahmud ibn Ishoq ash-Shixaybiy va boshqalar ustoz xattot bo'lib nom qozondilar. Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy xattotlik san'atining nazariyasi to'g'risida asar yozdi.

Bu davrda bir qator ilm maskanlari bunyod etildi. Jumladan: Shayboniyxon madrasasi, Abdurahim sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi Kalon va boshqa inshootlarning qurilishi ta'lim-tarbiya jarayonida muhim bosqich bo'ldi.

Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish borasida ham ma'lum darajada imkoniyatlar yaratildi. Xususiy maktablar yuzaga keldi, muallim yollab bolalarni uyda o'qitish tadbirlari odat tusiga kirdi.

Shahar va qishloqlarda, ovullarda ochilgan maktablarda bolalarni o'qitish 6 yoshdan boshlandi. Olti yoshli bolalar maktabga borib, alifbeni o'rganar, uning ayrim harflarini chizishni mashq qilar edilar. O'quvchilar maktablarda savod chiqarganlaridan keyin madrasaga kirib ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olar edilar.

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV-XVI-asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi.

27.2. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri

Tasavvuf, so'fiylik – islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash. Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi, ilohiy muhabbat bilan yuksalib borish bu ta'limotning asosiy g'oyalaridir. Shu bois, tasavvuf chuqur insonparvarlik g'oyalari bilan omuxta bo'lib, haqiqat talabida yurgan odamlar qalbiga yo'l topdi, odamlarning poklik, abadiy hayot, ko'ngil hurriyati haqidagi orzularini ifodalab keldi. Xalqimiz so'fiy darveshlarga hurmat-ehtirom orqali Alloh taologa, uning insonni ulug'lagan qudrati va fayzu futuhiga e'tiqodlarini izhor etganlar. Shayxlarning karomatlari, so'zlari va siyratu surati yuksak axloq va ilohiy muqaddaslik namunasi sifatida qabul qilingan. Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy rahbarlari, ruhoniy murabbiy sifatida maydonga chiqib, payg'ambar faoliyati, holatlarini davom ettirisha jazm etganlar.

Ulug‘ so‘fiy va shoir Farididdin Attor o‘zining «Tazkiratul avliyo» asari muqaddimasida qayd etadiki, avliyolarning so‘zi kishi qalbining malhami va ruhining quvvatidir. Kimki avliyo so‘zini diliga jo etsa, u Qur’on va Hadislar mag‘ziga eshik ochadi, o‘zining holati, axloqini, qilayotgan ishlarining yaxshi-yomonligini o‘ylaydigan bo‘lib qoladi va hayot, oxirat, insoniylik to‘g‘risida mulohaza yuritib, ichki olamini tartibga soladi.

So‘fiylik butun Sharq ma’naviy hayotida komil inson haqidagi g‘oyalarning shakllanishida muhim rol o‘ynadi. So‘fiylik musulmon Sharqi xalqlarining ko‘p asrlik ma’naviya hayotining g‘oyaviy asosini belgilab bergan ta’limot bo‘lib maydonga chiqdi. U ilohiy poklik va insoniy go‘zallikni idrok etish yo‘li, haq va haqiqatni himoya etish vositasi bo‘lib xizmat qildi.

So‘fiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo‘lida to‘rt bosqichni o‘tishi kerak, deb hisoblaydilar:

Birinchisi – Shariat. Shariat qonun-qoidalariga qat’iy amal qilish, chunki shariat qonun bo‘lib, bu qonun – vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkkinchisi – tariqat – nafsni tiyish, ma’naviy muhabbatni chuqurlashtirib, Xudo to‘g‘risida o‘ylash, ya’ni tariqat ko‘ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi faoliyat.

Uchinchisi – ma’rifat – hamma narsaning, butun borliqning asosi – Xudo ekanligini anglash. Bunda odam uning barcha kibru havo, manmanlik, shon-shuhrat bema’ni bo‘lib ko‘rinadi. Shunda u orif, ya’ni bilimli, xudoni tanigan bo‘ladi.

To‘rtinchisi – haqiqat – bunda so‘fiy xudoning dargohiga erishadi, Allohning vasliga etadi, Alloh roziligiga erishadi. So‘fiylarning eng oliy maqsadi ham shudir.

So‘fiylik ko‘p qirrali oqim bo‘lib, «sof», «yagona» so‘fiylik hech qachon bo‘lmagan. U turli ko‘rinishlarda, oqimlar tarzida namoyon bo‘lmagan. Ammo har biri ham inson kamoloti muammosiga turlicha yondashib, uni o‘z yo‘li, qarashlari orqali talqin etgan. Shunga ko‘ra tadqiqotchilar so‘fiylikni uch oqimga mansub deb biladilar.

1-oqim Mansur Halloj, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiylarga mansub bo‘lgan oqim.

2-oqimga mansub so‘fiylar birinchi oqim namoyondalari qarashlarini qabul qilgan, ammo ularni islom dini tartib-qoidalariga moslashtirgan. Bu oqimning eng mashhur nazariyotchisi Zayniddin binni Muhammad Imom G‘azzoliy (1058-1111), Ahmad yassaviy (1041-1166)lardir.

3-oqim naqshbandiya ta’limoti bilan bog‘liq. Bu oqim XIII asrning oxirlarida Shakllana borib, XIV-XV-asrlarda Markaziy Osiyoda keng rivojlangan.

Naqshbandiya tariqati-tasavvuf oqimlari ichida eng oxirgi, takomillashgan tariqatdirkim, uning asoschisi Xoja Baxouddin Naqshbanddir. Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyalaridan biri, ma’lumki, «Dil ba yoru dast ba kor», ya’ni har doim inson qanday dunyoviy ish bilan band bo‘lmasin, dilida Allohni yod etib, zinhor uni utunmasligi kerak.

Naqshbandiya o‘zidan oldingi tariqatlardan bevosita hayotga yaqinligi bilan ajralib turadi. U tasavvufdagi ilgari o‘ta qattiq oqimni yumshatib,

mo‘‘tadillashtirdi. Bu tariqat kasbu kor kishilariga juda mos keladi. Chunki, bunday kishilar tirikchiligidan voz kechib, faqat tariqat bilan mashg‘ul bo‘lsalar, hech kim ularga o‘z-o‘zidan bir burda non bermaydi.

Naqshbandiya tariqatining tarki-dunyochilik qilmay, dunyoviy ishlardan yuz o‘girmay turib ham Allohga yetishish mumkinligini ko‘rsatib berganligi Islom olamida uning mavqeini oshirib jahon uzra keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Bahouddin Naqshband davrlaridan boshlab mavqei orta borgan bu tariqatning shuhrati jahonni tutdi. XV-asrda yashab o‘tgan mashhur Shayxlardan biri – Xoja Ubaydulloh Axror Valiy, tasavvuf adabiyotining yirik namoyandalari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham bevosita naqshbandiya tariqatining vakillari edilar.

Xo‘ja Ahmad Yassaviy hayoti, vafot etgan yillari haqida turlicha ma’lumotlar mavjud. Jumladan, mavlono Xusomidin Sig‘noqiy «Xo‘ja Ahmad Yassaviy 130-yil umr ko‘rgan», deb yozadi ayrim ma’lumotlarga qaraganda, u zoti sharif payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga e’tiqod yuzasidan 63 yoshga kirganda yer tubida, g‘orda yashab hayot kechirganlar. Lekin u yerda necha yil yashaganlari aniq ma’lum emas. Ammo, o‘zlarining hikmatlarida yozilishicha, 125 yoshga kirganligi haqida ma’lumot berilgan. Shu yoshda ham tetik bo‘lib, hikmat misralarini bitgan.

Xo‘ja Ahmad Yassaviy taxminan 125-130-yoshlar orasida, ya’ni (1041-yilda tug‘ilgan) 1166(67) yilda yassida olamdan o‘tgan. Ulug‘ bobomiz Jahongir Amir Temur 1395-1397-yillarda uning kichik qabri ustiga ulug‘vor bino qurdirgan bo‘lib, u hamon o‘zining salobati, ko‘rkamligi bilan ziyoratchilarni o‘ziga maftun qilib kelmoqda. Shoirning yassaviy taxallusi bilan qoldirgan adabiy merosi asosan to‘rtliklardan iborat. Shuningdek, uning adabiy merosida ayrim g‘azal va masnaviylar ham mavjud. Shoir ijodining g‘oyaviy yo‘nalishi tasavvufona bo‘lib, kishilarni bu dunyoda pok, halol, beozor, etim-g‘ariblarga mehr-Shafqatli bo‘lib yashashga da’vat qilishdan iborat. Bu yo‘lda insonlar o‘zlarini turli nojo‘ya yo‘llarga boshlovchi nafsni jilovlashga chaqiradilar.

Ahmad Yassaviy Yusuf Hamadoniyga Shogird to‘shadi va uning ta’limotini rivojlantirib «yassaviya» tariqatini yaratadi. «yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo‘lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. «Hikmat»da o‘z aql kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga etishish yo‘lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy beayov tanqid qiladi.

27.3. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat, ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat rivojlanib o‘ziga xos renessans vujudga kelgan. Chunki, Amir Temur boshchiligida kuchli, markazlashgan davlat barpo qilingan. Mamlakatda qat’iy qonunchilik, adolatli tartib-intizom o‘rnatilgan. Ma’naviy-madaniy meros tiklangan, ilm-fan ravnaq topib mamlakat ma’naviy hayoti yuksalgan. Temuriylar davrida mo‘g‘ullar bosqini natijasida oyoqosti qilingan madaniy boyliklar, ma’naviy meros va qadriyatlar tiklangan. Ilm

maskanlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va ma’rifatga intilish, komil inson tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Binobarin, bu davr jahon tarixidan va milliy davlatchiligimiz tarixidan munosib joy olgan.

Movarounnahrda Amir Temur hokimiyat taxtiga kelishi bilan davlatning poytaxti Samarqand, Buxoro, Kashmir, Hirot va undan keyin butun Hindistonda ilm-fan va madaniyat yuksala boshlangan. O‘z g‘oyalarida ilg‘or bo‘lgan Amir Temur o‘z xalqining madaniy hayotini begona deb hisoblamagan hamda ilm-fan va madaniyat, shahar iqtisodiyoti va me’morchiligining o‘sishi uchun barcha sa’y-harakatlarini sarflagan. U ona tilidan tashqari, fors tilini yaxshi bilar edi.[65]

Amir Temur Movarounnahrni tiklashni reja asosida, qurultoylar o‘tkazishdan boshlagan edi. Amir Temur Sharq ayollaridagi tengsiz nafosat, matonat va insoniy fazilatlarni o‘z vaqtida payqab olgan. Shuning uchun ham ularga barcha imkoniyatalar yaratib berilgan. Bu anjumanlarda shahzodalar, amaldorlar, amirlar, lashkarboshilar, olim va ulamolar qatorida saroy malikalari ham qatnashib, davlat hayotiga oid barcha muhim masalalarni bahamjihat hal qilganlar. Zarur qarorlar qabul qilib, tadbirlar belgilash jarayoniga ham ayollar faol jalb qilingan.

Manbalarga ko‘ra, jahongir bunday ish uslubini keyin ham davom ettirib, katta yurishlar oldidan saroy xonimlari bilan kengashlar o‘tkazilgan. Demak, ayollar Amir Temur va uning sulolasi hukmronligi davrida Movarounnahr davlatining siyosiy, madaniy hayotida muhim o‘rin tutganlar va katta hissa qo‘shganlar. Shunday ekan, ayollar ta’lim va tarbiyasi ham e’tibordan chetda qolmagan.

Amir Temur tarix haqidagi hikoyalarni tinglashni juda yaxshi ko‘rar va yurishlarda ko‘pincha qissaxonlarni olib yurar ekan. Hofizi Abruning yozishicha, Amir Temur turklar, arablar, forslar tarixi haqida ma’lumotga ega bo‘lgan Mashhur tarixchi Ibn Xaldun u bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo‘lgan.[66]

Amir Temur ilmu-fan rivojiga rahnamolik qilgan, o‘zi esa tarix, jug‘rofiya, tib ilmlarini yaxshi bilgan, adabiyot va shaxmatni sevgan. U ulamo va shoirlarni behad hurmat qilgan, e’zozlagan. Sababi, uning o‘zi ham o‘z davrining olimi va donishmandi bo‘lgan. Uning mug‘oliblaridan biri Ibn Arabshoh Temurni «Sharqu G‘arb tarixining otasi va onasi edi» deganda to‘g‘ri baho berib, mubolag‘a qilmagan edi. Temurning qadami qaerga yetgan bo‘lmasin, u o‘sha yerdagi olimu ulamolar, shoirlar, san’atkorlar, me’morlar, hunarmandlar, kasbkorlarni yig‘ib suhbat aylagan, ularga topshiriqlar va vazifalar bergan, osoyishta ijod, bunyodkorlik bilan shug‘ullanishga imkoniyat yaratib bergan, moddiy yordam berib xomiylik qilgan. Chunonchi, u Damashqda islom ulamolarini yig‘ib, Qur’on haqida katta munozara o‘tkazgan ekan.

Ozarbayjonning Boylaqon shahrida ham olimlar bilan kengash o‘tkazib, ular oldiga katta vazifalar qo‘yadi. Rumning Basra shahrida joylashgan eng katta kutubxonadagi nodir kitoblarini Samarqandga keltirib bu yerdagi kitoblar bilan qo‘shib Ko‘ksaroyda ulkan bilim maskani - kutubxona tashkil etadi. Bu kutubxona xazinasidan minglab kishilar bahramand bo‘lgan, ular orasidan yetuk olimlar

[65] Бартольд В.В. Сочинения. Том II, часть 1. – М.: «Издательство Восточной литературы», 1963 – 1020 б.

[66] Ислам и женщины Востока: история и современность. Ташкент, «Фан», 1992

yetishib chiqqan. Fahmlash mumkinki, Temurning kutubxonasi o‘z davrida yer yuzidagi ulkan va eng boy kutubxonalardan biri bo‘lgan. Negaki poytaxt Samarqandga nafaqat kitoblar, balki Amir Temur saltanati xududidagi eng nufuzli olimlar ham yig‘ilgan edilar. Amir Temurning bevosita g‘amhurligida yuzlab olimlar ilmu-fanda ijod qilganlar.[67]

Chingiziylar qabilasidan Saroy Mulk Xonumga uylanganidan so‘ng, uni “katta xonim” etib tayinlaydi. O‘zining yurishlarida u tez-tez o‘qimishli ayollar va ularning ezgu ishlari haqida hikoyalar eshitgan, shuning uchun u ayollarga yaxshi tarbiya va ta’lim olishlari uchun sharoit yaratgan. Mashhur sayyoh Rui Gonsales de Klavixoning Temur saroyiga, Samarqandga qilgan sayohat kundaligidagi yozuvlariga ko‘ra, Amir Temur xotinlariga ko‘chaga chiqib, erkak mehmonlar bilan xotirjam suhbatlashish, ularni qabul qilish va suhbat o‘tkazishga ruxsat bergan.[68]

Amir Temur Movarounnahr va Xuroson o‘lkalarida davlat idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda, obodonlash-tirishda, temuriy shahzodalarni tarbiyalashda “uning xotinlardan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika (Saroy Mulk xonim)” Bibixonimning xizmatlari cheksiz bo‘lgan. Sohibqiron bu oqila ayolga nabiralari, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzolarni tarbiyalash vazifasini ishonib topshirgan. U o‘zining maftunkor latofati, yorga sadoqati, dono va hozirjavobligi, cheksiz insoniy fazilatlarga ega bo‘lganligi bilan boshqa malikalardan ajralib turgan, shuning uchun ham Saroymulkxonim Amir Temurning hurmati, sadoqatiga sazovor bo‘lgan.

Hukmdorning rafiqasi, aqlli va o‘qimishli Saroy Mulk-Xonim sharqiy ayol maqomini saqlab qola oldi, u nafaqat temuriylar urug‘ining barcha bolalarini o‘sha davrning eng yaxshi an’analarida tarbiyalagan, balki ko‘plab ayollarga ilm-fan va ta’limni tushunishga, qamrab olishlariga yo‘l ochgan. Amir Temur va uning merosxo‘rlari davrida o‘sha ayollarning ko‘plari musulmonlar davridagi o‘qimishli ayollarning yorqin namunalariga aylanishadi. Amir Temur sharqqa harbiy harakatlar bilan band bo‘lib qolib, armiyani boqishga mo‘ljallagan mablag‘i tugab qoladi, shunda u maxsus kishi orqali Saroymulkxonimga maktub yo‘llab, zar berib yuborishni so‘raydi. Bu holatdan xabardor bo‘lgan Saroymulkxonim “Amiri Sohibqiron zaringiz tamom bo‘lgan bo‘lsa, siyosatingiz ham tugadimi?” – degan mazmunda javob maktubi yo‘llaydi.

Temuriylar davrida ayollar ta’lim va tarbiyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilgan. O‘sha davrda tadrijiy tarzda ayollarning ta’lim olish yo‘lidagi sa’y-harakatlari qo‘llab-quvvatlangan. Masalan, adabiyotni bilishi va xususan, fors tilida she’rlar yozishi ayollarning intellektual qobiliyatining atributi hisoblangan. Bilimli ayolni ajratib turadigan yana bir fazilat bu Qur’ondan oyatlarni aniq o‘qish va keyinchalik “Qori-begim” maqomini olish qobiliyati sanalgan. Zodagon oilalarda bolalarni tarbiyalash har bir ayol bajarishi

[67] Ахадов Ш.А., Эгамов Т.Б. Амир Темур ва темурийлар даврининг интеллектуал салохияти. Самарқанд – 2004,

[68] Сарай–мульк ханым. Материал из Википедии – свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.org/wiki/.

kerak bo‘lgan eng yaqin kasb sifatida ayolga ishonib topshirilgan alohida vazifa edi. Hayotda ushbu uchta fazilatni o‘zida mujassam eta oladigan ayollar bilimli ayol sifatida hurmat va ehtirom qozongan.

Amir Temur o‘z farzandlarida ilm-fan va ta’limga qiziqishni uyg‘otishga harakat qilganligi bois, ta’lim tarbiya masalalari hamisha diqqat markazida bo‘lgan. Jumladan, ayollar ta’lim va tarbiyasi. O‘zi shaxsan doimo nabiralariga katta qiziqish ko‘rsatgan, asosan o‘z xotinlaridan birining shaxsida ularga vasiylar tayinlagan. U nabirasi, keyinchalik buyuk olim-astronomga aylangan Shohruh o‘g‘li – Ulug‘bek uchun o‘ziga xos mehr ko‘rsatdi. Unga bolaligidanoq o‘zining katta xotini Saroy Mulk-Xonimni homiysi qilib tayinlagan. [69] Amir Temur hatto o‘g‘illari va nevaralariga kelin tanlashda ham o‘zi ishtirok etgan. Bo‘lajak kelinni oilasi, nasl-nasabi va ta’lim – tarbiyasiga jiddiy e’tibor bergan. Shu o‘rinda Sohibqiron Amir Temurning ayolga, oilaga muqaddas deb qaraganini isbotlovchi fikrlari mavjud: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘lik-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasibasi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusrlardan holi bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim.”

Amir Temurning ilm-ma’rifatga qaratgan katta e’tiborini uning «Tuzuklari»da ham kurish mumkin. Unda, jumladan shunday satrlarni o‘qiymiz: «Musulmonlarga diniy masalalardan ta’lim berib, shariat aqidalar va Islom dini ilmlaridan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. [70]... Yana amr qildimki, har bir shaharda masjid va madrasalar bino qilsinlar, kasallar uchun shifoxonalar qursinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar.

Buyuk temuriyzodalardan biri – Ulug‘bek go‘dakligidanoq o‘zining aqlli va ziyrak buvisining hikoyalaridan tabiatning ko‘plab sirlarini, geografiyasini o‘rgangan, shuningdek tarix va adabiyot to‘g‘risida dastlabki bilimlarni olgan. Farzandlariga yaxshi ta’lim bergan onasi Gavharshod Begim adabiyot va san’atga alohida e’tibor beradiganlar sirasidan edi. U o‘z davrining eng o‘qimishli ayollarini mehmonga taklif qilar, suhbatlar uyushtirib ularni rag‘batlantirib turar edi. Shoira Mehriniso ularning oilasida tez-tez mehmon bo‘lib turar va alohida hurmat va ehtiromga sazovor edi.

Shoirlarning bilim darajasini ulug‘laydigan yana bir xususiyati – bu sodir bo‘lgan voqea haqida bir zumda she’r yozish qobiliyatidir. Shoira Mehriniso tez-tez bunday vazifani yengillashtirar, saroy suhbatdoshlarini zukkoligi va nutqiy savodxonligi bilan quvontirar edi.[71]. U haqida ko‘plab ma’lumotlarni tarixiy manbalarda va uning zamondoshlarining hikoyalarida topish mumkin.

Amir Temurdan boshlab, keyinchalik barcha merosxo‘rlar va barcha sulola a’zolari uchun o‘qimishli ayollarning hurmati va izzat-ikromi alohida ahamiyat kasb etdi. Sohibqiron 1399-yil Hindiston safaridan qaytganidan so‘ng Bibixonim

[69] История народов Узбекистана: с древнейших времен до начала XVI века. Том 1. Ташкент, «Издательство АН Уз ССР», 1960. – 473 б.

[70] Темур тузуклари Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018. – 145-184 б.

[71] Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симфераполь. 1898.

sharafiga machit va madrasa qurishga buyruq beradi. Hozir ham bu muhtasham bino Samarqand koʻrkiga koʻrk qoʻshib turibdi.

Amir Temur hukmronligi davrida saroyning obroʻ-eʼtiborli boshqa malikalari uchun ham bogʻlar, maqbaralar bunyod qilingan. Samarqanddagi «Bogʻi behisht» uning suyukli xotini Tuman ogʻa sharafiga qurilgan.

Oʻz davrining taniqli olimi va maʼrifatchisiga aylangan Mirzo Ulugʻbek butun xalqqa bilimlarni oʻrganish boʻyicha alohida yoʻnalish beradi. Samarqanddagi taniqli madrasalardan birining asosiy peshtoq yuqorisida, Ulugʻbekning talabiga binoan quyidagi soʻzlar oʻyib yozilgan: "Ilm olishga intilish har bir musulmon va musulmon ayolning burchidir".[72] U va ushbu sulolaning keyingi hukmdorlari ularni tushunishga intilgan barcha ayollarga taʼlim olishga keng imkoniyatlar berdilar.

Fors manbalarida fors adabiyoti tarixiga soʻz ustasi sifatida kirib kelgan koʻplab shoiralarning ismlari keltirilgan. Masalan, XIII-XIV-asrlarda Fotima, Gulshaniy, Hijobiy, Otuniy, Bibi va boshqalar mazmunli satrlari bilan mashhur boʻlishdi. Oʻz hunarmandchiligini va bilimlarini avlodlardan avlodlarga yetkazish anʼanasi Oʻrta Osiyoning koʻplab bilimli odamlarini kelajakda oʻz ishlarini davom ettira oladigan avlodlarini tarbiyalash va ularga tegishli taʼlim berishni majbur qildi.

Manbalarga koʻra, Temuriylar davrida xotin-qizlar uchun alohida maktablar ochilgan. Bu yerda otinbibilar oʻqituvchilik qilganlar. Oddiy xalqning qizlariga taʼlim beradigan maktablar ham mavjud boʻlib, ular mahallalarda tashkil etilgan. Maxsus taʼlim olgan otinbibilar bu maktablarda qizlarga saboq berganlar.

Binobarin, ayollar koʻpincha ilm-fan va ayniqsa adabiyotni bilishda muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, sheʼriyatda eng muvaffaqiyatli boʻlgan XV-asr shoiri Xoja Ismati Buxoriyning rafiqasi – u Ismatiy taxallusi bilan yozgan, shoir Hasan Ali Jalayrning qizi – Dilshodxotun va uning qizi Ofoqbika, amir Yodgorning qizi - Faxruniso va boshqalar.

Oʻrta asrlarda ilm-fan, adabiyot va sanʼatning yuksalishi Zahiriddin Boburning (XVI-asr) Hindistonda hokimiyat tepasiga kelishi bilan koʻzatilgan, u yerda ayniqsa, fors adabiyoti juda yaxshi rivojlangan. Ushbu sulola davlat oʻzgarishlarida, insonparvarligi va ilgʻor gʻoyalari bilan mamlakat tarixida muhim rol oʻynagan.

Temuriylar oilasining davomi boʻlgan yuksak axloqiy tamoyillar ruhida tarbiyalangan Bobur va uning vorislari hind xalqi hayotini yaxshilash, ularga sifat jihatidan yangi hayot berish, ilm-fan, adabiyot va sanʼatni rivojlantirish uchun kurashdilar. Taʼlimni rivojlantirish davlat oldida turgan asosiy vazifalardan biri edi. Boburiylar oiladagi qoʻpol despotizmga, diniy aqidaparastlik va kastalarning boʻlinishiga qarshi turdilar. Ularning fikriga koʻra, oilada barcha bolalarning munosabatlari oʻzaro hurmatga asoslangan holda qurilishi kerak edi.

[72] История народов Узбекистана: с древнейших времен до начала XVI века. Том 1. Ташкент, «Издательство АН Уз ССР», 1960. – 473 б.

Ta’lim masalalari bo‘yicha asl g‘oyalarni Akbar va uning eng yaqin hamkori Abul Fazl Allamiy bildirgan. Ular birinchi navbatda o‘zlariga insonning hayotini yaxshilashni maqsad qilib qo‘yishgan. [73]

Ushbu sulola hukmronligi davrida deyarli har bir oilada qizlarga dars beradigan o‘qituvchilar bo‘lgan. Akbar o‘z saroyida qizlar uchun yaratgan maktab keng tanilgan edi. Qizlar va o‘g‘il bolalar uchun musulmon maktablari butun Hindistonda mavjud bo‘lib, ularda asosan fors va arab tillarida dars berishgan.

Boburiylar sulolasi erkaklar va ayollar o‘rtasida bilim olishga to‘sqinlik qilmaganligi sababli, bu yerda musulmon dunyosining eng savodli ayollari avlodi yetishib chiqqan, masalan: Gulbadanbegim (Boburning qizi), Gulrux Begim (Boburning qizi), Baxshi Bonu Begim, (Humoyun qizi), Salima Sulton Begim (Akbarning qizi), Nurjahon Begim (Jahongirning rafiqasi), Jahonoro Begim (Shohjahonning qizi) va Zebunniso Begim (Avrangzebning qizi). Ularning har biri yorqin va betakror nur qoldirib, Hindistonning ilm-fani, adabiyoti va san’atining ravnaqiga fors tilida hissa qo‘shdi.

Gulbadan Begim otasi vafotidan keyin mamlakatni boshqargan akasi Humoyunga bag‘ishlangan "Humoyunnoma" tarixiy asari bilan ilm-fan rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi. U bu kitobni atigi sakkiz yoshida otasining talabiga binoan yozishni boshladi. U shunday dalolat beradi: "Menga tovuslar taxti hukmdori Bobur va samoviy taxt hukmdori Humoyun hayotidan barcha voqealarni yozish buyurilgan".[74] Kitob fors tilida yozilgan. Ushbu kitobda u ko‘plab tarixiy voqealar, etnografiya va saroydagi oila a’zolarining hayotini tasvirlaydi. Unga ko‘ra, saroyda ayollar uchun ayol yarmining o‘qishi uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilgan. Bobur Mirzo hattoki saroyga aloqador 96 ayol xazinadan nafaqa olishga buyruq bergan.[75]

Gulbadan Begim shuningdek, ayollar poyga musobaqalarida qatnashishi yoki erkaklar kiyimida kiyingan xokkeyda o‘ynashi, musiqa asboblarida chalishi va qo‘shiq kuylashi mumkinligi haqida ma’lumot beradi. Ular ko‘pincha oilalari bilan shaxmat va tavla o‘ynashgan.

Ushbu kitobdan tashqari Gulbadan Begim va uning singlisi Gulrux Begim fors tilida she’rlar yozdilar. Gulbadan Humoyunning vafotidan keyin o‘zini uning o‘g‘li Akbar Mirzoning tarbiyasiga bag‘ishlaydi. U o‘rta asrlarda barcha kuzatuvlarini alohida kitobga yozgan birinchi yozuvchi, tarixchi, o‘qituvchi va shoira edi. Uning shogirdi Humoyun Akbar Mirzo keyinchalik mamlakatni 26 yil boshqargan, Hindistonda ilm-fan va ta’limning obro‘sini yuqori intellektual darajaga ko‘targan.

Baxshi Bonu Begim Bobur Mirzoning nabirasi va Humoyun Mirzoning qizi edi. Ushbu ayolning mislsiz iste’dodi ko‘p yillar davomida Boburiylar oilasi a’zolarining kam o‘rganilgan tarixiy voqealari pardasi ostida qoldi. Baxshi Bonu

---

[73] Атахонов Т., Лутфуллоев М., Шарифов Ф. Очеркҳои афкори педагогӣ (воситаи таълим). – Душанбе, 2005. – 304 б.

[74] Shabbir Ahmad. Cultural contacts between India and central Asia: A study of Central Asian impact on Indian life based on Persian sources From Babur to Akbar (AD 1526–1605). // Thesis Submitted to the Jawaharlal Nehru University in the Fulfilment of the Requirements for the Award of the Degree of doctor of philosophy. – Jawaharlal Nehru University, 2010.

[75] Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома: Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг уғли – Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи. Т.: «Маънавият”, 1998. – 104 б.

"Guro‘g‘li" folklor dostoniga asos yaratib, O‘rta Osiyo xalqlari san’atiga ulkan hissa qo‘sha oldi. U o‘z qo‘shiqlarida saroy hayoti va fathlar paytida sodir bo‘lgan voqealar va foydali mavqe uchun urug‘ ichidagi kurashni kuylagan. Qo‘shiq vatanparvarlik va ona Vatanga muhabbat bilan to‘yingan. Garchi keyingi yillarda og‘izdan og‘izga o‘tib, uning qo‘shiqlari asl mazmunini yo‘qotgan bo‘lsa-da, uning nomi "Guro‘g‘li" eposining asoschisi sifatida tarixda qoldi.

Baxshi Bonu Begim Nihoniy taxallusi bilan fors tilida ruboiy va g‘azallar yaratgan. Uning she’rlaridan namunalar ko‘plab tazkiralarda (biografik to‘plamlarda) keltirilgan.[76] Baxshi Bonu Begim o‘zining vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg‘usini birinchi o‘ringa olib chiqadigan she’rlari bilan yorqin va noyob iz qoldirdi. Uning asarlarida ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi va qorong‘udan qutulish ilmning qirralarini anglash orqali amalga oshiriladi.

Salima Sulton Begim Humoyunning o‘g‘li Akbar Mirzoning uzoq qarindoshi edi. Kelajakda u Akbar Mirzoning eng sevimli rafiqasi va maslahatchisi bo‘ladi. U ham shoirlik qobiliyatiga ega bo‘lgan, “Maxfiy” taxallusi bilan fors tilida she’rlar yozgan. O‘sha davrning ko‘plab tazkiralarida, shu jumladan Saidali Hasanxonning “Subhi gulshan” tazkirasida uning ruboiylari va g‘azallaridan namuna keltirilgan.

Boburiylar saltanatining “Maxfiy” taxallusi bilan go‘zal she’rlar yozgan yana bir ayol Jahongirshohning (Akbar Mirzoning o‘g‘li) rafiqasi Nurjahon Begim (Mehriniso) edi. U keyinchalik qashshoqlashgan eronlik ziyoli Mirza G‘iyosbekning oilasida mukammal ma’lumot oldi. So‘ng, u o‘zining aqli va iste’dodi bilan Jahongir Mirzoni mag‘lub etadi va nafaqat uning rafiqasi, balki “Podshoh-begim” unvoniga ega bo‘lgan birinchi maslahatchi bo‘ladi. Xolasining nazorati va bevosita ishtirokida o‘sgan uning shogirdi Mumtaz Mahal Boburiylar sulolasining iste’dodli, aqlli va eng go‘zal malikasi sifatida xalq xotirasida qoldi. Uning sharafiga qurilgan maqbara hanuzgacha Hindistondagi Toj Mahal singari dunyoning tanlangan 7 mo‘jizasi qatoriga kiradi.

Nurjahon Begim davlatning xayriya ishlariga ulkan hissa qo‘shdi. U kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam uyushtirdi, iste’dodli odamlarni va ta’lim olishga intilganlarni rag‘batlantirdi, shahar va qishloqlarda masjidlar va maktablar qurdi. Uning moddiy va ma’naviy ko‘magi bilan ko‘plab rassomlar, olimlar, hunarmandlar va shoir-o‘qituvchilar kitob sanoatining rivojlanishiga hissa qo‘shdilar.

Nurjahonning jiyani Begim Mumtaz Mahal xayriya tadbirlarini uyushtirish va olimlar va shoirlarga homiylik qilishda o‘zining aql-zakovati va iste’dodi bilan hind xalqi qalbida noyob iz qoldirdi. Jahongir Mirzoning vorisi Shohjahon uning sharafiga Toj Mahal saroyini qurdirgan. U qizi Jahonar Begimni o‘sha davrning eng yaxshi an’analarida tarbiyalagan. Uning uchun saroyda tashkil etilgan mukammal va keng qamrovli ta’lim Boburiylar sulolasi ayollari tomonidan o‘rta asr olimlari va mutafakkirlari orasida yanada ulug‘lanadi.

Mumtoz Mahalning sevimli qizi, Jahonoro Begim ilm-fanga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ayollardan biridir. U Hindistonning Ajmer shahrida tug‘ilgan.

[76] Раҳмонӣ Могаҳ. Парданишинони сухангӯй. Кобул,1910.

Uning ustozi Satilaniso Xonum ham onasiga dunyoviy ilmlarning ko‘p sirlarini o‘rgatgan. U falsafa, tibbiyot va she’riyatni chuqur bilishdan tashqari, Jahonoroga Qur’on va ruhiy ilmning barcha nozikliklarini ochib bergan. Jahonoro bobosi imperator Akbar kutubxonasidan foydalangan holda asta-sekin fors, turkiy, hind va arab tillarida she’riyat olamini o‘rgangan va fors tilida she’rlar yozishni boshlagan. Shuningdek, u musiqa asboblarini chalib o‘zi qo‘shiq kuylagan va shaxmatni chiroyli o‘ynagan.Ukasi Dorushukuhning talabiga binoan u so‘fiylikning diniy talqinini o‘rganishga hissa qo‘shgan birinchi ayol bo‘ladi.[77]U tez-tez maslahatlashib, ustozi Mulloshoh Badaxshiga xat yozgan, o‘sha paytda yozishmalar va boshqa uchrashuvlar ayollar uchun qat’iyan man etilgan edi. U 26 yoshida “Munisul-arvoh” va “Sohibiya” nomli ikkita asar yozib otasi Shohjahonga sovg‘a qilgan. Birinchi kitob “Munisul-arvoh” ingliz tiliga tarjima qilingan va keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan.

Jahonoro ta’lim va madaniyatning rivojlanishiga homiylik qilgan. Uning “Madadu Maosh” xayriya jamg‘armasi ehtiyojmandlarga yordam tashkil etish, ta’lim, masjid va madrasalar qurilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Jahanoroning o‘z oilasi yo‘q edi, u hayotini otasi Shohjahonga bag‘ishladi, hayotining so‘nggi kunlariga qadar unga g‘amxo‘rlik qildi. Shuningdek, u jiyani - Dorushukuhning ukasi Jonibegimning qizi va opasi Purhunar Bonu Begimni tarbiyalaydi va ular keyinchalik Hindistonda Bobur sulolasi merosxo‘rlarining o‘qituvchilariga aylanishdi.

Jahonoro ijodining davomchisi Shohjahonning nabirasi, Avrangzeb qizi Zebunniso Begim edi. U Hindistonning Dehli shahrida tug‘ilgan. Zebunnisoning onasi Dilras Bonu Eronning Safaviylar sulolasidan edi. Dilras Bonu qizini o‘sha davrning eng yaxshi an’analarida tarbiyalay oldi. Avrangzebning barcha qizlarining (Zinatunniso, Zubdatniso, Badriniso va Mehriniso) ustozi – Hafiza Maryam ularni mehr va g‘amxo‘rlik bilan asta-sekin davr, adabiyot va san’atning yetakchi fanlarini o‘rganishga jalb qildi. Yetti yoshida u Qur’onning barcha suralarini yoddan o‘qiy olardi, buning uchun otasi uni o‘ttiz ming ashrafiy bilan mukofotlaydi.

Asta-sekin Zebunniso falsafa, matematika, astronomiya va tarixni o‘rganadi. U ona forsiy tilidan tashqari arab tilini ham o‘rganadi va uzoq vaqt davomida ushbu tilda kitoblar o‘qiydi. Uning iltimosiga binoan ko‘plab mavjud kitoblar qayta yoziladi va ko‘paytiriladi, arab, turk va urdu tillaridan fors tiliga tarjima qilinadi. Zebunniso “Zebi Tafosir” (Tafsirlarning go‘zalligi) nomli Qur’on tafsirining muallifi.

O‘z davrining shoirlari orasidagi uning shuhrati ezgulik g‘oyalari va bilimga bo‘lgan ishtiyoq singdirilgan fikrlarning nafis taqdimoti orqali erishildi. U tushunarli va sodd so‘zlar bilan insonning hayotda munosib o‘rnini ta’kidlab, yuksak axloqni ustun qo‘yadi. Sharqiy ayol, uning ichki dunyosi va ma’naviy

[77] Michelle Lee Folk Regina. A Study of the Concept of Rebellion Among Indian Women Saints: A Case Study of the Hindu Alvar Antal and the Sufi Jahanara Begam Sahib. //A Thesis Submitted to the Faculty of Graduate Studies and Research in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Religious Studies University of Regina. Saskatchewan, 2002.

olijanobligi ham alohida o‘rin tutadi. Uning she’rlarini umumiy soni 4 ming bayt va g‘azaldan iborat.

Zebunniso juda chiroyli qo‘lyozmaga ega bo‘lib, she’rlarini “Maxfiy” taxallusi bilan yozgan. Uning “Devoni Maxfiy” she’rlari to‘plami bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Zebunnisoning hayoti parchalari ko‘plab tarixiy manbalarda va adabiy asarlarda tasvirlangan. U birinchi navbatda singillari Mehriniso, Zubdatniso va Faxrunisolarning ustozi va tarbiyachisi hisoblanadi. Zebunniso tez-tez she’rlarini ularga bag‘ishlab, ularga o‘qib, singillarini xushnud etardi va ularning ko‘zlaridagi ifodali quvonchni ko‘rishdan mamnun bulardi. U va uning she’riyatdagi ishonchli do‘sti, singlisi Faxruniso bolalikdan she’rlar yozishgan, saroyda kattalar va bolalar qurshovida she’rlarini qiroat qilishgan.

Zebunniso ayollarning tarbiyasi va axloqi masalasini birinchi o‘ringa qo‘yadi va ularni bag‘rikenglikka undaydi. Uning she’riy satrlari atrofdagi tubsizlik va zulmatdan chiqish yo‘li sifatida bilimga intilishni aniq ko‘rsatib turibdi.

Niholi davlati dunyo mazallati bor meorad,
Ba sad mulki shahanshohy madeh ganji qanoatro.

Tarjimasi:

Dunyo davlatining niholi bir zumda qulashi mumkin,
Yuzlab qirollik boyligig‘a voz kechmang sabr ganjidin.

Shoira Zebunniso shoirlarga va olimlarga hamisha homiylik qildi, ularni rag‘batlantirdi va oq fotiha so‘zlarini aytdi. U kunlarining oxiriga qadar o‘z davrining shoirlari orasida yuqori baholangan she’rlar yozdi. Uning satrlarida chuqur falsafiy ma’noga ega umidsizlik va tushkunlik sezilgan bo‘lsa-da, u baribir har kimni sabr-toqatli bo‘lishga va har qanday parchani ushlab turishga, har qanday somonni ushlashga, beparvo o‘tirmaslikka, ilmning qirralarini o‘qishga va o‘zlashtirishga undaydi.

Saroyda mehr va g‘amxo‘rlik bilan o‘ralganligi bois hamisha o‘z hayotini asirlikdadek his qilardi. U shohning qizi sifatida xavfsizlikda, barcha istaklar amalga oshirilgan holda hayot kechirib, baribir o‘z orzu istaklarini hayotning boyligida emas balki so‘z boyligida amalga oshirishni tasavvurida shunday ifodalaydi:

Bulbul az gul bigzarad, chun dar chaman binad maro,
Butparastū kay kunad, gar barhaman binad maro!
Dar suxan Maxfū shudam monandi bӯ dar bargi gul,
Har kū xohad didanam, gӯ, dar suxan binad maro!

Tarjimasi:

Atirguldan kechar bulbul chamanda ko‘rsa meni,
Butparastlik qilarmikin barxaman ko‘rsa meni!
So‘zlarda Maxfiy bo‘ldim gul hidi barglardadek,.
Kim meni ko‘rgisi bor ayt, so‘zda ko‘rsin meni

Ayol shoiralar ko‘pincha o‘zlarining ilg‘or qarashlarini she’riy satrlarida aks ettirganlar. Ular o‘z davrining yetakchi o‘qituvchilari tomonidan tarbiyalangan va keyinchalik ular o‘zlari o‘zlarining va boshqalarning farzandlari uchun o‘qituvchi bo‘lishgan. Har bir bilimli ayol ortida ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlagan o‘qituvchi va

murabbiylar turadi. Ko‘pincha otalari va bobolari ilm yoki ta’limning vakillari bo‘lgan oilalarda va ushbu oilaning o‘g‘il-qizlari shu yo‘nalishda ta’lim olishgan.

Ko‘plab o‘qimishli ayollar ham o‘zlarining maktablariga ega edilar. Masalan, shoira Podshohotunning maktabi xattotlik va kitoblarni qayta yozish bilan shug‘ullangan. Mashhur “To‘rt maqola” hikoyalarining muallifi Nizomii Aruzii Samarqandiyning qizi astrologiyada iqtidorli va o‘z maktabiga ega bo‘lgan.

Ko‘plab shoiralarning tarjimai holi adabiy doiralar vakillari tomonidan yozilgan tazkira va she’riy antologiyalarda yoritilgan. Shularning birinchilaridan biri 1556 yilda yozilgan Faxri Hiraviyning “Javohir-ul-ajoib” nomli tazkirasi hisoblanadi. Shundan keyin boshqa to‘plamlar paydo bo‘lib, ularning nomlari tarixda ta’lim va ilm-fanning eng yaxshi namoyandalari sifatida qolgan shoirlarning tarjimai holi va merosi haqida ma’lumot beradi. Mirzo Muhammad Malikulquttobi Sheroziyning “Tazkirat-ul-havotin” [1869], noma’lum muallifning “Tazkirai shoirot”, Abulqosim Muhtasham Shervoni Bahopulining “Axtari tobon” [1877], Muhammad Zehni Afandining “Mashohir-un-niso” to‘plamlari (1877) shunday manbalar sirasiga kiradi[78].

Shunday qilib, ma’naviy, jismoniy va vatanparvarlik tarbiyasi o‘rta asr mualliflarining ko‘plab asarlarining asosiy syujetini qamrab oladi. Ushbu g‘oya Firdavsiyning "Shohnoma"sida ham ayollarning yorqin rolini ta’kidlagan holda tarannum etilagan. Uning she’riyatidagi tuvalalarda ayollar o‘zgacha fayz bilan chizilgan. Bular qilich ko‘tarishni, ot minishni, yerni zabt etishni va o‘z uyi va oilasini himoya qilishni, eng kuchli qahramonlar bilan jang maydonida chiqishlarni biladigan noyob go‘zal ayollar.

O‘zining ongi va fikrlari hukmronligi bilan maftun etadigan ayol oilaviy baxtning o‘ziga xos xususiyati sifatida Sharqning buyuk mutafakkirlari Rudakiy, Forobiy, Ibn Sino, Xusrav Dehlaviy, Navoiy, Jomiy va boshqalarning asarlarida ham o‘z aksini topgan. Ularning tarbiyaviy asarlarida ayollarni istino qilmagan holda umuman ta’limga alohida ustunlik beriladi.

Ilm-fan va ta’lim taraqqiyotida ayollarning hissasi ham juda muhimdir. Itoat pardasi ostida o‘tirib, o‘z hayotlarini ilm o‘rganish bilan bog‘laydilar, ularga so‘z san’atida teng keladigani yo‘q. Xalq pedagogikasining kelib chiqishi – intilish, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, jasorat va matonat – o‘z satrlarida oq fotiha so‘zlari bilan himoya qilinadi.

Manbalar ma’lumotiga ko‘ra sohibqiron shahzoda Xalil Sulton tanlagan qaylig‘i (Shodimulk xonim)ni ko‘rikdan o‘tkazganda undan ko‘ngli to‘lmaydi va to‘y qilishga rozilik bermaydi. Shunga qaramasdan Xalil Sulton unga uylanadi. Tarixdan ma’lumki, bu ayol Xalil Sulton taqdirida fojeali rol o‘ynadi, Xalil Sulton o‘zboshimchalik bilan Samarqand taxtini egallab olgandan so‘ng Amir Temurning xotini Bibixonim Shodmulk xonim tomonidan zaharlab o‘ldirildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Amir Temur davrida ayollar ta’limiga bo‘lgan munosabatni o‘rganish yoshlar uchun ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy g‘ururni yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

[78] Алиева А.И. Педагогическая обоснованность инновационной технологии обучения грамоте в школах Республики Таджикистан.

XIV-asrning 50-yillarida Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. Markazlashgan yirik feodal davlat barpo etildi. Madaniyat, maorifqaytadan yuksala boshladi. Shuning uchun XIV-asrning 2-yarmi va XV-asr tarixida sharq uyg‘onish davrining 2-bosqichi deb ataladi.

Temur Movorounnahrga boshqa o‘lkalardan hunarmandlarni olib keltirdi. Samarqand va Xirotda madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurildi. Tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, geografiya, tarix, adabiyot, falsafa, tabiatshunoslikka oid ajoyib asarlar yaratildi. Temurdan so‘ng temuriylar davrida mamlakat Movorounnahr va Xuroson davlatiga ajralgan holda boshqarildi. Samarqand va Xirot madaniyati, ilm-fan markaziga aylandi. Shohizinda, Go‘riamir, Bibixonim masjidi, Registon maydoni, qator bog‘lar va boshqalar barpo etildi.

Ulug‘bek zamoniga kelib esa matematika, astronomiya fanlari rivojlandi. Tibbiyot, tarix, adabiyot va diniy bilimlarga e’tibor berildi. Buxoro, Samarqand, G‘ijdivonda madrasalar qurildi. Bu davlatda adabiyot sohasida Atoiy, Sakkokiy, Haydar Horazmiy, Durbek, Lutfiylarning qimmatli asarlari yaratildi.

Samarqandda Qozizoda Rumiy, Mansur koshiy, Xirotda Navoiy, Jomiy, Behzod, tarixchi Xondamir, xattot Sulton Ali mashhadiy va boshqalar ijodi gulladi. Ali qushchi astronomiyaga oid «Risola dar falakkiyot» asarini yozib, unda geometrik bilim asoslari, tibbiyot fanlari va boshqa sohalarga oid boshlang‘ich bilimlarni bayon etdi.

XV-asrda tarix fani rivoj topdi, Xofizu Abru «Zabdan tovara» (Tarixning qaymog‘i) kitobini yozib, unda 1427-yilgacha bo‘lgan voqealarni bayon etdi. Abdurazzoq Samarqandiy buni davom ettirib «Ikki saodatli yulduzning chiqish joyi va ikki dengizning qo‘shilish joyi» asarida 1471-yilgacha voqealarni bayon etdi. «Ravzatus safo» asarini yozgan Mirxond, «Habibus siyar» asarini yozgan Xondamir asarining bir qismi Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrga bag‘ishlandi. Shu asarlarda qator ilm maskanlari: shayboniyxon madrasasi, Abdurahim Sadr madrasasi, Mirarab madrasasi, masjidi kalon va boshqalar qurildi.

Xususiy maktablar yuzaga keldi, uyda muallim yo‘llab o‘qitish odat tusiga kirdi. Shahar qishloq, ovullarda ochilgan maktablarda o‘qitish 6 yoshdan boshlandi. Bolalar maktabda alifbe o‘rganib, ayrim harflarni chizishni mashq qilar edilar. O‘quvchilar maktablarda savod chiqargach madrasaga kirib diniy va dunyoviy ta’limlardan bilim olardilar. «Temur tuzuklari»da o‘zi amal qilgan o‘n bir sifatni yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirsak, Shuning o‘zi ta’lim-tarbiya sohasidagi g‘oyalarni yoshlarimizni tarbiyalashda tadbirkor bo‘lishdan odamlar bilan maslahatlashib, nozik va tarbiya ko‘rgan aqlli kishilar bilan birga kelishib, e’tiqodli, iymonli qilib tarbiyalashda e’tiborni kuchaytirsak foydadan xoli bo‘lmaydi.

Temur din arboblari, olimlarni, ilmni va ilm ahlini xurmatlovchi Shaxs bo‘lgan. Temur tuzuklarida Shunday yoziladi: «Har bir Shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqalar qurishni buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalarda ta’lim berib, Shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir Shaharga olimlar va madarrislar tayin qildim»[2].

[2] Temur tuzuklari. (Forschadan A.Sog‘uniy tarjimasi). T.: Sharq, 2005, 160 b.

Amir Temur odob, axloq iymon-e’tiqod, tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan insonlardan bo‘lgan. Bunga ishonch hosil qilish uchun sohibqiron haqidagi asarlar, uning o‘zi yaratgan tuzuklar va o‘gitlarni ko‘rish kifoya. Temur o‘gutlarini mohiyat va mazmuniga qarab uyiga guruhlarga ajratish mumkin: a) din va Shariat, b) davlat va uni idora etish, v) kengash o‘tkazish, g) podsho va vazirlar. Uning odob-axloqqa oid o‘gitlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- adolat va adolatsizlik;
- do‘st va dushmanlik;
- muomala va shirinsuhanlik;
- so‘z va ishning birligi;
- botirlik va qo‘rqoqlik.

Amir Temurning o‘gitlari odob-axloq borasida dastur to‘la oladi. Buning katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘lgan pedagogika deyish mumkin.

27.4. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, millat pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘Shgan buyuk siymolardan biridir.

1411-yili 17 yoshli Ulug‘bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib belgilanadi. Uning tashabbusi bilan o‘lkada ilm-fan, ayniqsa falakkiyot ilmi yuksala bordi. U riyoziyot fanini mukammal egallagan va ungacha hech kim unchalik tez va aniq hisoblay olmagan.

U davlatning madaniy markazlaridan Buxoro (1417), Samarqand (1420) keyinchalik G‘ijdivonda (1433) madrasalar qurdirdi. Bu madrasalarda mashhur olimlar, ilohiyot ilmlaridan tashqari riyoziyot, xandasa, astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, ilmi aruzdan dars berishgan.

Madrasalarda mashhur, bilimli kishilar mudarrislik qildi. Yirik olimlardan Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin jamshid ibn Mas’ud, Mansur koshiy, Muhammad Birjoniy, Ali qushchi kabilar faoliyat ko‘rsatdi. Madrasada Ulug‘bekning o‘zi ham astronomiyadan ma’ruzalar o‘qigan.

Madrasa qurdirganidan 4 yil o‘tgach, Obiraxmat soyining bo‘yida rasadxona qurdiradi. Uning qurilishiga 5 yil ketadi. Kutubxona ochib, mashhur asarlarni yig‘adi. Madrasa bilan rasadxona o‘rtasida mustahkam aloqa bor edi. Rasadxonada ishlaganlarning bir qismi madrasada mudarrislik ham qilishgan. Bu esa riyoziyot va yulduz ilmini yuksaklikka ko‘tardi.

Ulug‘bekning «Ziji Ulug‘bek» asari juda mashhurdir. Yana riyoziyotga oid «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», yulduzlarga bag‘ishlangan «Risolai Ulug‘bek» va tarixga oid «Tarixi arba’ ulus» asarlari bor.

27.5. Ulug‘bek davrida maktab islohoti

Ulug‘bek yoshlar ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor beradi. Madrasalarda o‘qitish tizimini jonlantiradi. O‘qish muddati 15-20 yildan 8 yilga tushuriladi. O‘quvchilar bilan rasadxonada amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishni joriy etadi.

Ulug‘bek o‘qituvchi-mudarrisga katta talablar qo‘yadi. Mudarrislar avvalambor, o‘zini tarbiyalamog‘i, bilim va malakalarni egallamog‘i, o‘z ustida tinmay ishlashi, darslarni yuqori saviyada o‘tishga ahamiyat berish kerak. U ta’limda darsliklarning o‘rnini muhim deb biladi. Shuning uchun darslik mazmuniga katta e’tibor beradi va mualliflar oldiga jiddiy talablar qo‘yadi. Darslik hayot haqiqatidan uzoq bo‘lmasligi, sodda, tushunarli tilda yozilishi lozim.

Ulug‘bek ta’limga matematika, falakkiyot, adabiyot, tarix fanlariga katta ahamiyat beradi. U o‘z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog‘lom, xarbiy hunar egallagan, jasur, mard bo‘lib yetishishlariga alohida e’tibor beradi. U do‘stlik va birodarlikni ulug‘laydi.

27.6. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) – o‘zbek xalqining ilm va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo‘Shgan mutafakkir olim, tarixchi, qonunshunos va lirik shoirdir. Bobur ilm-fan, san’at, madaniyat va ularning sohalari bilan yaqindan tanishgan, uning ijodini asosan lirik she’rlar va adabiy-tarixiy asarlar tashkil qiladi.

Z.M.Boburning «Boburnoma» asari qomusiy xarakterdagi asar bo‘lib, unga tarix, geografiya, botanika va boshqa fan sohalariga oid ma’lumotlar berilgan.

Bobur musulmonchilik qoidalari va qonunshunoslikka bag‘ishlangan «Mubayyin», arab alfavitining islohiga oid «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyaga oid «Mufassal», musiqa va harbiy san’at haqidagi asarlar yaratgan.



Adib fan va ma’rifatni yuqori darajdada qadrlaydi. Ilm, adabiyot san’at ahillari bilan yaqin aloqada bo‘ladi, ularga homiylik qiladi. Ilm va bilimdonlikni ulug‘laydi. U kamtarlik, o‘zini tuta bilish, ezgulik, vafodorlik, boshqalarga

yaxshilik qilish sifatlarini ulug‘lash, yovuzlik, zulm, qabixlikni qoralaydi. Boburning pedagogik qarashlaridagi bosh masala Vatanga cheksiz muhammatdir.

«Boburnoma»da o‘zbek, tojik, afg‘on, hind va boshqa xalqlarning kasb-kori, urf-odati, madaniyati, dini, adabiyoti, turmush tarzi haqida keng ma’lumotlar beriladi.

XXVIII BOB. XIV-ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI-ASRDA MOVARAUNNAXRDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.

28.1. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) fan va san’atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san’at, me’morchilik rivojlanish bilan birga ta’lim-tarbiya takomillashishiga katta e’tibor beradi. U o‘zining «Hamsa», «Mahbub ul qulub» kabi ta’limiy axloqiy asarlarida, shuningdek «Munojat», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul ul-lug‘atayn», «Qirq hadis» asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi. Uning pedagogik qarashlari insonparvarlik g‘oyasi bilan sug‘orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam,
Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.
Yoki
Odami ersang demagil odami
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o‘rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o‘z vakfidan mablag‘ ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi.

Adib ustoz-murabbiylarga ham katta talablar qo‘yadi, ularni avvalo o‘zlari bilimli va tarbiyali bo‘lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila[1].

Alisher Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini ifodalagan bo‘lsa, ta’limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo‘llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o‘z davrining ilg‘or, ma’rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta’lim-tarbiya aqidalari, o‘zidan ilgari o‘tgan mutafakkirlarning qarashlarini an’anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o‘rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo‘lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan

[1] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 98 b.

Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o‘zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong‘ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo‘lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko‘rsatadigan omil sifatida ta’riflaydi. Bu fikrni «Nazmul javohir» asarida:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo‘q ilmga anga ahmaq devoni,
Majlisdaki ilm bo‘lsa uchmaq de oni[1].

Ya’ni, ilmli, oqil odam o‘z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni engib o‘tadi, Kim ilmni o‘ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo‘lmaydi va ilmning vazifasin inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta’riflaydi. Shunga ko‘ra u, o‘z asarlarida kishilarni ilm-ma’rufatli bo‘lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashdan maqsad ham xalqining, o‘z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta’kidlaydi. Masalan, Mirzo Ulug‘bekni shunday insonlardan, deb ta’riflab, uning nomi ilmu xikmatda, tarixda abadiy qoldi, deydi.

Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmli bo‘lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, tavoze’, adab, ishq va vafo hamda Shu singari fazilatlarga ham ega bo‘lishi lozimligini bir necha bor ta’kidlagan edi.

Shoirning «Hamsa»siga kirgan «Xayratul abror» dostoni va «Mahbubul qulub» asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi.

«Hayratul abror» muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she’riy hikoyadan tashkil topgan bo‘lib, maqolatning har birida Navoiy o‘z davri uchun zarur bo‘lgan biror ijtimoiy siyosiy yoki ixloqiy masalani qo‘yadi, uni o‘z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqish va atroflicha tahlil qiladi va unga insoniy munosabat bildiradi. «Hayratul abror»dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

Falsafiy masalalar.
Ijtimoiy-siyosiy masalar.
Axloqiy-ta’limiy masalalar.

Asarning 5-maqolati insoniy fazilatlardan biri –saxiylikka bag‘ishlanadi, saxiylik qoidalarini ko‘rsatib beradi. U saxiy insonni shunday ta’riflaydi: «Ey xushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko‘tarib, ahvoli yaxshi bo‘lsa ham, yomon bo‘lsa ham birovdan molu amal tama’ qilmasa…u qo‘lida bor narsa bilan qo‘li qisqa odamni xursand qiladi…birovning yarasini ko‘rsa malhamini ayamaydi»[2].

[1] Alisher Navoiy. Nazmul-javohir. Asarlar, 15 tomlik, T.: 1968, 15-tom. – 45-b.
[2] Alisher Navoiy. Hayratul abror. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. 156 b.

6-maqolat tarbiyaga bag‘ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo‘yish, so‘ngra yaxshi muallimga berish, yashi tarbiya berishni maslahat beradi. Bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:[3]

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshiga.
Ikki jahoningga tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Navoiyning «Mahbub ul qulub» asari asosida insonparvarlik, xalqparvarlik g‘oyasi yotadi. U inson haqida qayg‘uradi, uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashiqli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo‘lgan illatlarni nafratlaydi. Asar uch qismdan iborat:



1-qismda feodal jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o‘rni va vazifasi haqida so‘z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug‘lanadi.

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odabli insonlar ulug‘lanishi, hurmatli bo‘lishi ko‘rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik, muruvvat, karam, vafo, muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyotsiz –elga e’tiborsiz», «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim», «Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur».

Navoiy ilmni va ilm ahllarini ulug‘laydi. Mamlakat obodonligini ta’minlashda xalq ahvolini engillashtirishdi ilm ahliga katta umid bog‘laydi. Navoiyning ta’lim-tarbiya haqidagi o‘gitlari, uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining uzviy qismini tashkil iladi. U butun umri davomida ilm-ma’rifatni targ‘ib qiladi. Navoiy merosini chuqur o‘rganish undan ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish hozirgi kunimizning muhim talablaridan biridir.

28.2. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni rivojiga qo‘shgan hissasi

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o‘rganishni targ‘ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig‘ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e’tibor beradi. Masalan, Navoiy o‘zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab oib, o‘z vaqfidan

[3] O‘sha asardan. 157 b.

mablag‘ ajratgan. Madrasada ta’lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o‘rganish, etuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi. U bilimlarni tinmay uzluksiz o‘rganish zarur, deydi. Bunda har qanday qiinchilikni engib o‘tish muhimligi, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko‘rish, uni oxrigacha etkazish, chidam va sabot bilan o‘rganishni ta’kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o‘z davrida to‘g‘ri ifodalab, hattoki ta’lim tizimini ham belgilab beradi, ya’ni alisher Navoiy ta’lim tizimini o‘z davrida maktab, madrasalarda o‘qish, olim, hunarmand, san’atkorlarga shogird tushi byoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

28.3. Navoiyning o‘qituvchi (mudarris) to‘g‘risidagi fikrlari

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o‘zlari ham bilimli va tarbiyali bo‘lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o‘qituvchi ma’lumotli, o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur, deydi. Masalan, u «Mahbub ul qulub» asarida shunday fikr bildiradi: «Uning ishi odam qo‘lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi, ko‘rkim bunga nima etsin. Shunisi ham borki, u to‘dada fahm-farosati ozlar bo‘ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo‘ladi. Har qanday bo‘lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko‘pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila»[79]

Alisher Navoiy o‘qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo‘ysa, unga bo‘lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma’naviy pok bo‘lishlarini talab etadi: «mudarris kerakki, g‘arazi mansab bo‘lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchung dars berishga havas krgazmasa va olg‘irlik uchun gap-so‘z va g‘avg‘o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo‘lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o‘rin bo‘lmasa… Yaramasliklardan qo‘rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o‘zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa; qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo‘lsa va qilar ishlarni qilmaslikunga qoida va odat bo‘lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»[80]

Navoiy o‘zi barpo etgan «Ixlosiya» madrasasida o‘z zamonasining etuk mudarrislarini yig‘di va ilm izlagan talabalar ana Shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga etishida ilmu fanning hamiyatini ko‘rsatib o‘tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm

[79] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 192-193-b.

[80] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 189-190-b..

ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalarig ham e'tiborni qartdi. Xulosa qilib aytganda, alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlari o'zidan oldin o'tgan salaflarining bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi.

28.4. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari

Abdurahmon Jomiy XV-asrda yashagan mutafakkirlar kabi inson va uning yuksak axloqiy xislatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etish orqali kishilarning baxt-saodatini ta'minlash yo'llari xususidagi g'oyalarni ifoda etadi. Allomaning to'liq ismi Nuriddin Abdurahmon ibni Ahmad bo'lib, u 1414-yilning 7-noyabrida Jom shahrida tavallud topgan. Abdurahmon Jomiylarning oilasi keyinchalik Hirot shahriga ko'chib o'tadi. Bu davrda Xurosonda Shohruh Mirzo hukmronlik qilar, Hirot shahri esa eng yirik madaniy markazlardan biri sanalardi.

Alloma va she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy o'rtasida mustahkam do'stona aloqa mavjud bo'lib, ushbu aloqa ham badiiy ijod, ham maishiy turmush, ham ijtimoiy munosabatlar sohasida yaqqol ko'zga tashlanar edi. 1469 yilda Hirot shahrida asos solingan mazkur do'stlik alloma hayotining so'nggi daqiqalarigacha davom etdi.

Alloma uchta lirik devoni, ta'lim-tarbiya masalalariga oid «Bahoriston», shuningdek, ettita dostonni o'z ichiga olgan «Haft avrang» («Etti taxt») nomli asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib o'ringa ega bo'ldi.

Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari «Bahoriston» asari hamda «Haft avrang» («Yetti taxt») asarining tarkibidan o'rin olgan «Tuhfatul ahror» va «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonlarida aks etadi. Allomaning "Bahoriston" asari Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan «Guliston» asari yaratilgan uslubda yozilgan bo'lib, unda Abdurahmon Jomiy haqiqiy kamolotga erishgan inson va uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi borasida to'xtalib o'tadi.

Abdurahmon Jomiy ham boshqa allomalar kabi inson kamolotining birinchi mezoni uning bilimlilik darajasi deya ta'kidlaydi.

«Haft avrang» asarining birinchi dostoni bo'lgan «Tuhfatul-ahror»da ham Abdurahmon Jomiy ilmning inson hayotidagi ahamiyati ko'rsatib berar ekan, ilm har qanday muammolarni echishda insonga yordam berishini ko'rsatib o'tadi.

Alloma o'zining mashhur «Silsilatuz zahab» («Oltin tizmalar») dostonining «Sevimli aziz farzandga nasihat»" nomli bobida, har bir yoshning bilim olishi zaruriyat ekanligini ta'kidlaydi. Zero, inson umri juda qisqa bo'lib, u umrni behuda o'tkazmasligi, shuningdek, muayyan darajada bilimlarni egallagandan so'ng unga amal qilish lozim, amaliyotda qo'llanilmaydigan ilm ham behudadir degan fikrlarni ilgari suradi

Abdurahmon Jomiy bilimlarni yoshlikdan egallash maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaydi. Ayni o'rinda johillikni qoralab, dono bilan nodon kishilarni bir-birlariga qarama-qarshi qo'yadi. Abdurahmon Jomiy donolikni olqishlar ekan, avvalo, mamlakatni boshqaruvchi hukmdorlar ilmli bo'lishi zarurligini, agar rahbar

nodon, johil bo‘lsa, el boshiga juda ko‘p nadomat, kulfat va zulm yog‘ilishi mumkinligiga alohida urg‘u berib o‘tadi.

“Bahoriston” asarida esa ilmni behuda egallamaslik, har bir Shaxs jamiyat va o‘zi uchun foydasi tegadigan ilmlarni egallashi zarurligini ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, Abdurahmon Jomiy mazkur o‘rinda ilmning inson uchun ahamiyati darajasini to‘g‘ri talqin etadi. Alloma ilm va hunarni e’zozlagan rahbarning o‘z xalqi hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lishi hamda rahbar qachonki, elning ehtiromiga muyassar bo‘lar ekan, ana Shundagina mamlakat gullab yashnashi mumkinligini ta’kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o‘rni va rolini ochib berish bilan birga har bir kishi tomonidan ma’lum hunar sirlarini o‘zlashtirish foydadan holi bo‘lmasligini uqtiradi. Ayni o‘rinda insonning qadr-qimmati uning molu mulki bilan emas, aksincha, u tomonidan egallangan hunarning kishilar maishiy hayotini farovonligini ta’minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishiga urg‘u berib o‘tadi. Xususan, asarda mazkur fikr mohiyatini to‘laqonli yoritishga xizmat qiluvchi quyidagi misralar keltiriladi. Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o‘tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o‘xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o‘rganishga, bu yo‘lda sabrli, matonatli bo‘lishga undaydi. Ilmu hunar kishi mushkul ahvolga tushib qolgan damlarda ham asqotuvchi vosita, aksariyat hollarda esa kishi nomini abadiylashtirilishini ta’minlovsi omil ekanligini qayta-qayta uqtirar ekan, har bir inson xoh yosh, xoh keksa, xoh shohu xoh gadoy bo‘lsin hunar o‘rganishi farz ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur fikrning haqqoniyligini «Iskandar xiradnomasi» dostonida sohibi qiron Iskandarning ilmu hunar o‘rganish o‘ylidagi sa’i-harakatlarini boshqalarga nisbatan namuna sifatida ko‘rsatish orqali ochib beradi. Farzandining bilim, hunar va donishmandlik sirlarini o‘rganib olishi uni baxt-saodatga olib boruvchi yo‘l ekanligini chuqur anglab etgan yunon podshohi Faylaqus o‘g‘li Iskandarni mashhur olim, mutafakkir Arastuning oldiga olib kelib, unga ilmu hunar sirlarini o‘rgatishni iltimos qiladi. Arastu Iskandarning layoqati, shuningdek, ilmu hunar asoslarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini inobatga olgan holda unga mavjud bilimlarni o‘rgatish bilan birga uni davlatni muvaffaqiyatli boshqarish sirlaridan ham ogoh etadi. Iskandar qiyofasida namoyon bo‘lgan ishtiyoq, ilmu hunar o‘rganish yo‘lida har qanday mashaqqatlardan cho‘chimaslik xislati uning etuk, bilimli, mard va o‘ta darajada ziyrak inson bo‘lib shakllanishiga yordam beradi.

Abdurahmon Jomiy insonni shaxs sifatida tarbiyalashda moddiy omillar bilan bir qatorda ma’naviy omillarning roli ham beqiyos ekanligini ta’kidlagan holda, mazkur omillar sirasida musiqaning alohida o‘rni va roli borligini ko‘rsatib beradi. Alloma «Musiqa haqida risola» nomli asarida musiqa ilmining shakllanishi, ohanglarning turlari, maqom kuylarining mazmuni, musiqa asboblari hamda ularning vazifalari borasidagi ma’lumotlarni bayon etar ekan, musiqaning inson ruhiga turlicha ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tadi. Xususan, ayrim musiqiy asarlar insonning ruhiyatiga ijobiy ta’sir etib, uning kayfiyatini ko‘tarsa, ayrim kuy yoki qo‘shiqlar kishida tushkun kayfiyatni hosil qilishiga alohida urg‘u beradi.

Alloma dono hamda nodon odamlarni bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yadi.

Bilimli, dono insonlar bilan bilimsiz, nodon insonlar o‘rtasida hamkorlik, hamfikrlilik yuzaga kelmaydi, zero, nodon odam hamisha ma’lum xatti-harakatlarning asl mohiyatini to‘g‘ri baholay olmaydi. Abdurahmon Jomiy o‘zining «Bahoriston» asarida mazkur fikrning nechog‘lik haqiqat ekanligini quyidagi misollar orqali ochib beradi:

«Bir bo‘zchi bir olimga pulini omonat qo‘ygan edi. Bir necha kundan keyin o‘ziga kerak bo‘lib qoldi va olimning uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o‘tirib mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o‘tirishar edi.

- Ey, ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo‘lib qoldi, - dedi bo‘zchi olimga.

- Birpas o‘tir, darsim tamom bo‘lsin.

Bo‘zchi kutib o‘tirdi, ammo dars cho‘zilib ketdi, domlaning dars paytida boshini chayqab qo‘yish odati bor edi. Shoshib turgan kosib buni ko‘rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o‘yladi-da, ustodga:

- Sen kirib omonatni olib chiq, sening o‘rningga men bosh irg‘ab turay, imshim zarur, - dedi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida ham boshqa allomalarning asarlarida ifoda etilganidek shaxs tarbiyasini samarali tashkil etish masalalariga katta e’tibor beriladi. Etuk insonga xos bo‘lgan axloqiy xislatlar uning barcha asarlarida keng ifoda etiladi. Xususan, komil inson qiyofasida aks etuvchi ma’naviy-axloqiy sifatlar - yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, rostgo‘ylik, do‘stlik, mehnatsevarlik kabilarni tarbiyalash zarurligi ta’kidlanadi. Saxovat, kamtarlik hamda oliyjanoblikni esa eng ulug‘ insoniy fazilatlardan deb biladi. “Bahoriston” asarida alloma “saxovat biror narsaga qarab yoki biror narsa evaziga bo‘lsa, hatto talab etilgan narsa maqtov va minnatdorchilik bo‘lgani taqdirda ham u saxovat emas”, - deydi.

Abdurahmon Jomiy insoniylik fazilatlaridan sanalgan kamtarlikni targ‘ib etar ekan, kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlarni qoralaydi. Shu o‘rinda alloma takabbur, manman shaxslar bosh ko‘targan boshoq kabi o‘roq zarbi bilan erga yiqilib, sarg‘ayib, so‘lishi muqarrar ekanligiga urg‘u bersa, kamtar kishilar xususida so‘z yuritganda esa tuproqqa tashlangan donni qushlar avaylab erdan ko‘tarib ketganlaridek, ular ham e’zozda bo‘ladilar, deya ta’kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy asarlarining mazmunida ulug‘langan yana bir insoniy sifat – bu do‘stlik va unga nisbatan sadoqatli bo‘lish g‘oyasidir. Insonlar bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatga kirishar ekanlar, ular o‘rtasida yuzaga keluvchi do‘stona munosabat yuksak kamolotning yorqin belgisi sifatida namoyon bo‘ladi, deya qayd etadi alloma. U haqiqiy do‘stlikning muhim belgilari sirasiga do‘stga sodiqlik, qiyin va murakkab vaziyatlarda undan qochmaslik, aksincha, hamdard, mehribon bo‘lish, do‘stligi evaziga biror narsani ta’ma qilmaslik kabi xislatlarni kiritadi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida yaxshilik barkamol insonga xos bo‘lgan muhim axloqiy xislat mohiyatini ifoda etuvchi xatti-harakat sifatida ulug‘lanilishi bejiz emas. Zero, Er yuzida yaxshilik va yomonlikning mangu barqaror bo‘lishi, ular o‘rtasida boradigan abadiy kurash, shuningdek, yaxshilik va ezgulikning yomonlik va yovuzlik ustidan g‘olib kelishiga bo‘lgan yuksak ishonch tuyg‘usi eng

qadimgi ma’rifiy yodgorliklardan tortib, barcha pandnoma janrida yaratilgan ma’rifiy asarlarning asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurahmon Jomiynnig etti dostondan iborat “Haft avrang” (“Yetti taxt”) asarining “Tuhfat-ul-ahror” (“Erkinlar tuhfasi”), “Sabhat-ul-abror” (“Yaxshilar tasbihi”), “Silsilatuz zahab” (“Oltin tizmalar”) kabi falsafiy-axloqiy asarlari hamda “Xiradnomai Iskandar” nomli dostonida allomaning barkamol inson tarbiyasiga oid umuminsoniy g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Alloma o‘z asarlarida yuksak insoniy sifatlarni tarannum etar ekan, ularning eng muhimlari sifatida quyidagi xislatlarni qayd etadi ham mazkur xislatlarning har bir inson qiyofasida aks etishi hayotiy zaruriyat deya hisoblaydi: insoniylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, saxovat va karam, mehr-muruvvat, chin inchoniy muhabbat, rostgo‘ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik va boshqalar. Ayni vaqtda insonning takabburlik, molu dunyoga qirs qo‘yish, yolg‘onchilik,johillik, ta’magirlik kabi salbiy xislatlardan xalos bo‘lishini maqsadga muvofiq deb topadi. Abdurahmon Jomiy insonga xos bo‘lgan ma’naviy-axloqiy sifatlar va shaxsda ularni shakllantirish masalalarini o‘z asarlarida she’riy misralar orqali yanada ta’sirchan uslubda ochib berishga harakat qiladi. Yuqorida nomlari qayd etilgan asarlarda bayon etilgan fikrlar hayotiy xususiyatga egaligi bois asrlar davomida o‘zining nazariy qimmatini saqlab qolishga muyassar bo‘lmoqda.

28.5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqi Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o‘rni

XV-asrda faqat Eronda emas, balki Xuroson va Movarounnahrda ham ijtimoiy-falsafiy, ma’rifiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri Jaloliddin Davoniydir. Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiylarning ijtimoiy fikrlari bilan ko‘p jihatdan tutash keladi. Ular dunyoqarashining mag‘zini komil inson tarbiyalash uchun yuksak insoniy fazilatlarni tarkib toptirish tashkil etadi.

Jaloliddin Muhammad Ibn Asad as-Siddiqiy al-Davoniy Eronning Kazarun viloyatidagi Davon qishlog‘ida 1427-yilda dunyoga kelgan.

Jaloliddin Davoniy boshlang‘ich ma’lumotni qishlog‘ida olgach, sherozga keladi va u erda Dorul ay-tom madrasasida tahsil ko‘radi. Madrasada u musulmon qonunshunosligi (fiqh) bilan maxsus shug‘ullanadi hamda ilm-fan sirlarini mashhur odamlardan o‘rgana boshlaydi.

Uning otasi Sa’diddin ham o‘z zamonining fozil kishilaridan bo‘lib, o‘g‘lining ham ilm-fanni chuqur egallashiga yordam beradi.

Madrasani tamomlagach, Davoniyning ilmiy qobiliyatidan xabardor bo‘lgan eron hukmdori Sulton Yoqub Oq qo‘yinli tomonidan sheroz shahriga qozi etib tayinlanadi. U madrasada ham mudarrislik, ham qozilik vazifalari bilan Shug‘ullana boshlaydi. Davoniy faqat o‘z yurtida emas, balki o‘zga mamlakatlarda ham shuhrat qozonadi. Turli shaharlardan talabalar kelib, unda tahsil oladilar va ular orasidan ham etuk fozilu fuzalolar etishib chiqadi.

Davoniy keyinchalik Eron, Iroq, Hindistonda, koshon, g‘ilon, Tabriz, Hirot Shaharlarida sayohatlarda bo‘lib, ko‘plab olimlar bilan hamsuhbat bo‘lib, o‘zining bilimi, dunyoqarashini yanada boyitgan.

Davoniy umrining oxirgi yillarini o‘z qishlog‘ida o‘tkazgan. Olim 1502 yilda vafot etgan. U Kazarun yaqinidagi qishlog‘i Davonga dafn etilgan. Davoniy o‘z davrining ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan qomusiy olim. Uning yirik olim bo‘lib etishishida Samarqand, Hirot ilmiy muhitining ham katta ta’siri bo‘lgan. Chunki, ilm-fan XIV—XV-asrlarda xuddi ana shu ikki yirik fan va madaniyat markazida taraqqiy etgan. Davoniy bu ikki shahar ilm ahllari, shuningdek, Vizantiya, Ozarbayjon, Qirmon, Hurmuz, Tabariston, Xuroson va Jurjon olimlari bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Ayniqsa, Hirotda bo‘lganda mashhur shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy bilan uchrashgan va keyinchalik u yerdan ketganidan so‘ng ham alloma bilan xat yozishib turgan.

Demak, Davoniyning yetuk olim bo‘lib yetishishida yaqin va o‘rta sharq, Movarounnahrdagi yetuk olimlar bilan hamkorlik qilishi muhim omil bo‘lgan. Davoniyning madrasadagi uzoq vaqt mudarrislik faoliyati uning ta’lim-tarbiya to‘g‘risida o‘z qarashlariga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Davoniyning she’rlari ham «Foniy» taxallusi bilan chop etilgan. Lekin dunyoga mashhur bo‘lgan, fors tilida yozilgan «Ahloqi Jaloliy» asari dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan va shuhrat qozongan. Mazkur asar 1470-1478-yillarda yaratilib, g‘arbiy Eron Hokimi Uzun Hasan Oq qo‘yinliga bag‘ishlangan. Bu asar1839-yilda V.F.Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. 1911-yilda Kal’kuttada nashr qilingan. 1948-yilda eshonjon Ibn Muhammadxo‘ja tomonidan o‘zbek tiliga qisqacha tarjima qilingan. Mazkur asarni rus sharqshunosi A.A.Semyonov, R’e va Braunlar fikriga tayangan holda uni musulmon sharqidagi mashhur kitoblar qatoriga qo‘shadi, deydi tadqiqotchi[81].

Haqiqatan ham ushbu asar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va boshqalarning axloq mavzuidagi asarlari qatorida turadi va axloqiy tarbiyada o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan asar sanaladi.

«Axloqi Jaloliy»da ham inson kamoloti uchun eng zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar yo‘llari va usullari bayon etiladi.

«Axloqi Jaloliy» uch qismdan iborat. Birinchi qism — axloq faniga, ikkinchi qism — «Odamning ichki holati» oilaviy hayotiga, uchinchi qism — «shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati», deb atalib, unda muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar ko‘tariladi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, xalqning farovon hayot kechirishida podsholarning o‘rni, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni bayon etiladi.

Biz, asosan Davoniyning insonning haqiqiy kamolotga etishida aqliy va axloqiy shakllanishi masalalariga to‘xtalamiz. Avvalo, Davoniy va boshqa mutafakkirlarga ergashib o‘zining axloqiy qarashlarini o‘z salaflari kabi talqin etdi. Masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Miskaveyx, Nasriddin Tusiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotga erishishda adolat, donolik, shijoat singari yuksak fazilatlarga ega bo‘lishi, hissiy bilim bilan bir qatorda narsa va hodisalarning mohiyatini idrok qilishni to‘g‘ri talqin etdi. Davoniy insonning kamolga erishishi uning boshqalar bilan munosabatiga ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi, jamiyatda, ma’lum ijtimoiy muhitda, boshqalar bilan aloqada Shallanib tarbiya topgan inson o‘zi yashagan

[81] Aliqulov X. Jaloliddin Davoniy. T.: O‘zbekiston, 1992, 20-b.

jamiyatda adolat hukmron bo‘lsa, unda baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi. Shuning uchun u «Axloqi Jaloliy» asarida jamiyatni adolatli — fozil shaharga va johil shaharlarga bo‘ladi. Forobiy kabi Davoniy ham fozil shahar boshqaruvchisida o‘nta eng yaxshi fazilat mujassamlangan bo‘lishi kerak, deydi. Bular: birinchisi — hukmdor odamlarni e’zozlashi; ikkinchisi — davlat ishlarini adolatli ijro etishi; uchinchisi — hirs va shahvatga berilmasligi; to‘rtinchisi — hukmdorlikda shoshma-shosharlik va g‘azabga yo‘l qo‘ymasligi, balki shafqat va muruvvatga asoslanishi; beshinchisi — xalqning ehtiyojini qondirish uchun xudoning irodasidan kelib chiqishi; oltinchidan — xalq ehtiyojini qondirishga oid ishlarni bajarishga harakat qilishi; ettinchisi — halqqa nisbatan odil bo‘lishi; sakkizinchi — har bir ishni maslahatlashib, kengashib hal etishi; to‘qqizinchisi — har bir kishini uning qobiliyatiga monand lavozimga tayinlashi, qobiliyatsiz kishilarga yuqori lavozim bermaslikni; o‘ninchisi — adolatli farmonlar chiqarishi, qonunni buzishga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Shuningdek, Devoniy hukmdorning diniy majburiyatlarga ham rioya etishi kerakligini ta’kidlagan. Ko‘rinib turibdiki, adolatli shox timsoli Davoniy istagan axloqiy kamol topgan shaxsdir.

Davoniy «Axloqi Jaloliy»da ijtimoiy-siyosiy masalalarga qayta-qayta murojaat etadi. Chunonchi, jamiyatning paydo bo‘lishi, davlat va uni boshqarish masalalari, adolatli va adolatsiz podsholar, ilm-fan taraqqiyotining jamiyatda tutgan o‘rni, aqliy va axloqiy tarbiya, insonda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish masalallari va boshqalar shular jumlasidan.

Davoniy o‘z asarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, inson faqat jamiyatda, kishilar orasida, ular bilan munosabatda Shakllanadi, degan fikrni ilgari suradi. U o‘tmish olimlarining ta’lim-tarbiyaga oid asarlaridagi an’analarni rivojlantirgan holda o‘z qarashlarini o‘tkir ruhshunos olim sifatida ham talqin etadi, uning fikricha bola yaxshi fazilatlarni ta’lim-tarbiya natijasida egallashi mumkin. Chunki, bolada his-tuyg‘u juda erta Shakllana boradi, u ulg‘aya borgan sari ayrim juz’iy narsalarni ham ajrata boshlaydi, tana a’zolari mustahkamlanadi, narsa va hodisalarni bir-biridan ajrata boshlaydi, yaxshilik va yomonlik to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘la boshlaydi, aqli to‘lishib, ongi o‘sadi, deydi olim. Ana Shu paydo bo‘lgan sezgi va aql orqali tashqi dunyoni bilishi mumkin deydi.

Davoniyning fikricha bolaning tarbiya olishi, odob-axloqli bo‘lishi uning keyingi tarbiyasiga ham bog‘liq. Chunki, hayotda har kuni bola ko‘radigan, muloqotda bo‘ladigan narsalar uning xulqiga yaxshi va yomon ta’sir etadi. Bolada har kuni kerak bo‘ladigan insoniy xislatlar: yurish-turish qoidalari, xushmuomalalik, ota-ona va boshqa katta yoshlilarni hurmat qilish, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikni o‘rganish, shirinsuxanlik, kamtarlik, so‘zlashuv odobiga rioya qilish kundalik turmushda o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, bunday xislatlarni bolalarda har kuni tarbiyalanib borilishi muhim. Bunday tarbiyada esa ota-ona oldiga katta vazifalar qo‘yiladi. Ota va ona bola tarbiyasida bab-baravar mas’uliyatlidir, deydi Davoniy.

Ota bolaning yaxshi fazilatlarni egallab, kasb-hunar o‘rganib borishi, ilm-fanni chuqur o‘zlashtirib olishi uchun moddiy asos, ya’ni kiyim-kechak, kerakli buyumlar bilan ta’minlaydi. Ona bola tarbiyasida asosiy qiyinchiliklarni boshidan kechiruvchi sanaladi. U bolaga yashash uchun quvvat beradi, ehtiyotlab asraydi,

mehr-shafqatini ayamaydi. Bolaga oddiy axloqiy qoidalarni o‘rgatish, yurish-turish, eyish-ichish qoidalariga rioya etish, o‘z qilmishi oldida javob berish mas’uliyatini his etishini tarkib toptirishda ota va ona burchlidir.

Bola tarbiyasida ota-ona bilan bir qatorda maktabga chiqqandan so‘ng muallim ham javobgar sanaladi, deydi olim. Buning uchun muallimning o‘zi ham yaxshi tarbiya topgan bo‘lishi shart. Shu o‘rinda, Davoniy muallimning xislatlariga, bola va uning o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor beradi. Davoniy muallimni «Ma’naviy padar» deb ataydi. Chunki, ota bolani jisman hayotga keltirib, jismonan tarbiyalasa, muallim uni ma’naviy jihatdan kamolotga yetkazadi, deydi olim. Ruh qanchalik badanga yaqin tursa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga shunchalik yaqin deb ko‘rsatadi. U ota-ona tarbiyasi bilan muallim tarbiyasini taqqoslar ekan, muallimning tarbiya usuli, metodlari ota-onanikidan yuqoriroqdir, deb ta’kidlaydi. Chunki, ota-ona tarbiya usullari, metodlari bilan muallimchalik qurollanmagan bo‘ladi, muallim esa tarbiya berish bilan birga ilm cho‘qqilarini egallashda ham zahmat chekadi va shogirdning olgan ta’limi va tarbiyasi umrbod uning hayot yo‘lini belgilab beradi, deb aytadi.

Shu o‘rinda, Davoniyning aqliy tarbiya haqidagi qarashlarini keltirish o‘rinlidir. Chunki, olimning qarashlarida aqliy tarbiya va bilimlarni egallash masalalari muhim o‘rinni egallaydi. Bolalarga bilim berish yoshlikdan boshlash zarurligini ta’kidlaydi. Mutafakkirlarning fikrini davom ettirgan holda Davoniy ham inson aqlining qudratiga, uning ijtimoiy hodisalarni bilishiga, aql ilohiy ulug‘ bir ne’mat, haqiqat mezoni ekanligiga ishonadi. Chunki, inson aql yordamida o‘z hatti-harakatini, faoliyatini boshqaradi.

Davoniyning fikricha, aql ijtimoiy hayotning barcha sohasida, xoh davlat ishida, xoh ilmni o‘rganishda, xoh ijobiy xulq-odob qoidalarini egallashda bo‘lsin, xoh shirinsuxanlik, she’riyatda bo‘lsin, faol qatnashadi. Uning bu aqidasi, ya’ni aqliy bilishga tayanishi ilm-fan, ma’rifat, ta’lim-tarbiya va axloq masalalarini talqin etishida ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Davoniy shuning uchun ham bolalarga ta’lim-tarbiya berishda aqliy tarbiyaga katta o‘rin beradi. Ilm kishilarni yomon odatlardan, razil ishlardan saqlaydi, ilm bilan shug‘ullanish har bir inson uchun hech qachon kech bo‘lmaydi, deydi Davoniy. Aflotundan: «Qancha vaqtgacha ta’lim olish va ilm o‘rganish yaxshi? — deb so‘rabdilar. U: nodonlikning va johillikning ayb ekanligi qay vaqtgacha bo‘lsa, ilm o‘rganish o‘Sha vaqtgacha yaxshidir»[82] — deb javob bergan ekan.

Davoniy olimlarning jamiyatda, davlatni boshqarishda tutgan o‘rniga katta ahamiyat beradi, uning fikriga ko‘ra haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan murakkab muammolarni echishda ishtirok etishi kerak. Olimlar tabiat sirlarini o‘rganish, ta’lim-tarbiya ishlari bilan shug‘ullanishi, omma o‘rtasida adolat qoidalari hamda axloq normalarini tarqatish bilan shug‘ullanishi, boshqalardan ilgarigi safda turishi kerak. Ularning maslahatlaridan davlat muassasalarini boshqaruvchilar foydalanishi muhim, deb uqtiradi.

Davoniy ham boshqa mutafakkirlar kabi podshohlarning ma’rifatli bo‘lishini istaydi. Ana shunday podsholar o‘z atrofiga bilimdon kishilarni to‘playdi va ilm

[82] Aliqulov X., Omonboyeva R Jomiy va davoniy ta’lim-tarbiya haqida. T.:, O‘qituvchi, 1981, 36-b.

ahlining jamiyat taraqqiyotida katta rol’ o‘ynashini tushunadi, deydi.

Davoniy insonning ma’rifatli, yuksak fazilatli bo‘lishida tabiiy fanlarning roli katta, deydi. Matematika, astronomiya, tibbiy fanlar jamiyatga ulkan foyda keltiruvchi ilm sohalaridir, deb biladi. Riyoziyot fanini o‘rgangan kishining tabiati qat’iy va sabotli bo‘ladi, deydi. Tib ilmining esa jamiyatga foydasi haqida gapirib, tabiblarga zarur bo‘lgan kasalga tashxis qo‘yish masalalariga to‘xtab o‘tadi. Tabib bemorga to‘g‘ri va aniq tashxis qo‘ygandan so‘nggina bemorni davolash kerakligini uqtiradi.

Davoniy adolatni inson aqliy kamoloti bilan birgalikda qaraydi. U hamma ruhiy quvvatlar birlashib aqlga bo‘ysungan taqdirdagina haqiqiy adolat namoyon bo‘ladi, deydi. Haqiqiy odil kishi butun quvvatini, aqlini yaxshi xislatlarni kasb etishga qaratishi kerak, adolat odamlarni baxt-saodatli qilishi lozim deb ta’kidlaydi olim.

Davoniy inson o‘rtasidagi do‘stlik tuyg‘usini ham ulug‘lab, bolalarni do‘stlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat beradi. Bola dunyoqarashining tarkib topishida do‘stlikning ta’siri katta. Do‘stsiz inson muayyan jamiyatda yashay olmaydi. Do‘st o‘zaro muomalada ayniqsa, inson boshiga kulfat tushganda bilinadi, ammo haqiqiy do‘st bilan soxta do‘stni ajrata bilish kerak, deb o‘qtiradi olim. Dushman esa kishining o‘ziga, kamchiligiga e’tibor bermaydi, balki hammaning oldida uni fosh qilishga intiladi, deydi.

Davoniy kishilar o‘rtasidagi adovatni ham qoralaydi. O‘zaro nizolarda hurmat yo‘qoladi, Shubha va gumonlar ko‘payib, janjallar chiqadi, deb ta’kidlaydi. Davoniy sevgi va muhabbat to‘g‘risida ham fikr yuritib, uni ijtimoiy muammolar bilan bog‘lab talqin etadi. Davoniy o‘z davri mutafakkiri sifatida ilohiy sevgini tan olgani holda, insonning bu dunyoda faol hayot kechirishi, tabiat va hayotni sevishi, uni yuksaklikka ko‘tarishi haqida ham o‘z qarashlarini bayon etadi.

Uning mulohazalariga ko‘ra tug‘ma va Shu bilan birga inson iroda va istagiga asoslangan sevgi mavjud. U sevgi-muhabbatni besh xilga bo‘ladi:

Ilohiy sevgi.

Ota-ona muhabbati

Muallimning o‘z talabasiga muhabbati.

Podshohning o‘z fuqarolariga muhabbati.

Ilm-ma’rifatga muhabbat.

Xususan, insonning o‘zaro munosabatisiz, sevgisiz kamolotga erishishi mumkin emas, deydi.

Demak, Davoniyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya va axloq to‘g‘risidagi fikrlari ta’lim-tarbiya tarixida muhim ahamiyatga ega. Chunki u yuksak axloqiy fazilatlarni tarannum etadi, kishilarning baxt-saodatli bo‘lishi uchun tavsiyalari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Davoniyning aqliy tarbiya, insoniy fazilatlarni tarkib toptirish borasidagi tarbiya usullari sharq pedagogikasining qimmatli xazinasi bo‘lib hisoblanadiki, bu tavsiyalardan biz ta’lim-tarbiya jarayonida foydalansak, milliy qadriyatlarimizga murojaat etgan bo‘lamiz va u ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda eng munosib yo‘l bo‘ladi.

XXIX BOB. XVII-ASRDAN XIX-ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

29.1. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya

Movarounnaxrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi inqirozga yuz tutib, uning o‘rniga Shayboniylar hukmronligi o‘rnatildi. Lekin Shayboniyxon ham (1451-1510) kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga qay darajada harakat qilgan bo‘lsa ham, uning o‘limidan so‘ng o‘zaro urushlar avj olib ketib, bu hududda uch xonlik, avvalo Buxoro va Xorazm, XVIII-asr oxiriga kelib, Qo‘qon xonligi paydo bo‘ldi. Xonliklar davrida boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatiladi. Jumladan, Hindiston Shox Akbar, Sharqiy Ovrupodan Ivan Grozniylar bilan do‘stona aloqalar o‘rnatildi. Buxoro xoni Abdullaxon 1001 ta rabot va sardobalar qurdirdi, madrasa, masjidlar, xonaqox va ko‘priklar, suv omborlari va boshqa inshootlar qurildi. Tibbiyot sohasida Sultonali Samarqandiyning “Dastur al-iloj”, Muxammad Yusuf Maxxolning “Taxqiq al-xumayyot”, “Zubdat ul-qaxxolin” asarlari, Shayboniyxonning “Tavorixi guzidayi nusratnoma”, Boburning “Boburnoma”, Koshifiyning “Badoye ul-vaqoe”, Fazliddin Ibn Ruzbekxonning “Mehmonnomayi Buxoro” kabi asarlarida o‘sha davrning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, adabiy, ma’rifiy hayoti o‘‘z aksini topgan.

XVII-XVIII-asrlarda me’morchilik sohasida ham katta inshootlar qurildi. Masalan, Buxoroda Imomqulixonning nufuzli amaldoridan Nodir devonbegi masjid, xovuz, madraslardan iborat katta me’moriy ansambl qurdidi. Shuningdek, Samarqanddan 4 chaqirim Janubda Xo‘ja Axror qabri oldiga madrasa va Nomozgoh barpo etdi. Bu davrda Muhammad Balxning 5000 baytdan iborat “Subxonqulixonnoma”, Mirmuxammad Amir Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Muhammad Vali Samarqandiyning 200 nafar adabiyot arboblarining tarjimai holiga oid ma’lumotlar berilgan, “Muzakkirul asxob” nomli asari, shuningdek, Sayido Nasafi, Sufi Olloyor, Boboraxim Mashrablarning asarlari yuzaga keldi. Bu davrda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida; turmushida ham, oilada ham har bir kishi alohida diniy talablarga rioya etar edi.

Madrasalarda deyarlik ilohiy bilimlar berilishiga qaramay, madirasni bitirganlardan mudarris, mufti, qozi, imomlar bilan bir qatorda mashxur shoir, olimlar ham yetishib chi1di. Boborahim Mashrab, Muhammad Amin Kosoniy-Namanganiy, Fazliy Namanganiy, Sayido Nasafiy, Sufi Olloyor, Muhammad Mir Olim Buxoriy, Abdulog‘oziy Baxodirxon ana shunday ilm sohiblaridir.

Bu davrda ko‘prok adabiyot tarix, me’morchilik, tasvriy san’at rivojlanadi. Lekin tabiiy fanlarga ham oid ajratilgan «Hisoblash usullari haqida risola» nomli matematikaga doir muhim asar ham yuzaga keldi.

Abdulg‘oziyning «Shajarai turk» asari ham Sharq, ham Ovrupo olimlarning diqqatini o‘ziga tortdi. Bundan tashqari qator tarixiy asarlar ham maydonga keldi. XVI-asrda yashagan ma’rifatparvar olim Sufi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» asari «Sufi Olloyor» nomi bilan mashxur bo‘lib, maktablarda savod chiqarilishi bilan o‘qitilar edi. Unda islom dinining-asosiy qoidalari, aqidalari bayon etilgan. Qo‘qonda ham ko‘plab ilmiy, ma’rifiy maskanlar paydo bo‘lib, yirik adabiy muhit yaratilgan. Faziliy va Mushrif tomonidan tuzilgan «Majmuat ush-Shuaro» to‘plami

buning misolidir. Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Xivada bino bo‘lgan shayx Jalol madrasasi, Samarqandda Registon maydoni, Sherdor va Tillaqori, Devonbegi, Xivada Arabmuhammad madrasalari ilm-ma’rifatning rivojlanishga katta xissa qo‘shdi.

Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, xandasa, mantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalarga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish, huquqshunoslik, savdo- sotiq ishlariga oid, meros va boylik taqsimoti kabi dunyoviy hamda ilmiy bilimlar o‘rgatilar edi. Shuningdek, barcha madrasalarda albatta fan sifatida «Qur’on», «Tafsir», «Odob-os-solixin», «Maslik ul-Mutaqqin», «Sabod ul-ojizin», «Kimyoi sodat», «Hadislar» o‘qitilar edi. O‘qish muddati 15-20 yilni tashkil etib, masjid yonidagi maktabda esa bolalar 7 yil alifbo, abjad, Qur’on, farzi ayn, chor kitob, Xoja Xafiz, “Maslik ul- Mutaqqin», Mirzo Bedildan savod o‘rgatilar edi. O‘zbek bolalari o‘qiydigan maktablarda «Kitob Fuzuliy», «Lison ut-tayr», «Devoni Alisher Navoiy», «Qissai devona Mashrab», Sufi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» kitobi o‘qitilgan.

29.2. Qizlar maktabi va unda ta’lim mazmuni

Ta’lim-tarbiya jarayonida ayollar ta’limi ham rivojlana boshlandi. O‘qimishli, ma’rifatli, ziyoli ayollar tomonidan maktablar tashkil etiladi va bu maktablar otinlar maktabi deb nomlandi. O‘zbek diyorida otinlar maktabining yirik namoyondalaridan biri –Jahon otin Uvaysiy edi. Jahon otin Uvaysiy (1789-90 Marg‘ilon- 1850 y. Marg‘ilon) –XIX-asr Qo‘qon madaniy muhitning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri yetuk shoira va maktabdor muallimalardandir. Jahon otin Uvaysiyning she’rlar va maktabdorlik xizmatlari xalq ommasi orasida yoyilgan. U Marg‘ilonning Childuxtaron mahallasida she’riyatda ixlosmand Siddiq bobo (Qaynar devona ham deb atashadi) va Chinni bibilar oilasida dunyoga keladi. Otasi kosibchilik qilgan, onasi esa savodli ayol bo‘lib, maktabdorlik qilgan va mahalla ahli qizlarini o‘itgan. Jahon otin juda yoshligidan boshlab onasidan savod o‘rganagan, kichikligidayoq akasi ikkalasi Oxunjon xofizdan dutor, tanbur chalish, musiqa ilmining amaliy tomonlarini ham egallaydi. Otasidan esa arab, fors tillari va adabiyot sirlarini o‘rganishga harakat qiladi. Otasi tez orada vafot etib, onasi bilan qolgan Jahon otin o‘zi mustaqil ravishda Xofiz, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil kabi Sharq she’riyatining buyuk namoyondalari ijodini urganadi. Onasi va akasi Oxunjon Jahon otinni 17 yoshida Marg‘ilonga Xojixon ismli kishiga uzatadilar. Xojixon savodli, adabiyootga do‘st va ma’rifatli inson edi. Jahon otin undan ikki farzand ko‘radi. Jahon otin Uvaysiy endi mustaqil ravishda Marg‘ilon va uning atrofidagi qizlarni o‘qita boshladi. Qizlarga xat-savod o‘rgatadi. Muallimlik kasbiga Uvaysiy ixlos bilan qaraydi. Ilmga tashna qizlarga sidqidil bilan dars beradi. Bu hol uning g‘azallarida ham o‘z ifodasini topgandir:

Uchradi qaydin menga, chun Oy ila Kun ikkisi,
Ko‘rdim ahvolini alar Farxodu Majnun ikkisi,
Zexni g‘avvosimni soldim fazl baxrin qa’riga,
Chun sadaf batnida onlar duru maknun ikkisi.
Shahri dilda aql shoxin lashkardur beshmor ,
Yuz tuman lashkarga keltirdi shabixun ikkisi.

Keldikim ikki pari gul tashlab aylab qanot,
Ilm koni ichra Vaysiy, bo‘ldi mamnun ikkisi.

Shunisi diqqatga sazovorki, shoira o‘z toliblari va shogirdlarining yutuqlaridan quvonib, ularga muvashshaxlar ham bag‘ishlagan.

Masalan:

Jahon gulzorida hoki kudumingdan yetar ziynat,
Xiromingdan topar jon gulshanu oroyishu nazxot.

Bu Jahon bibi ismi shogirdiga yozilgan muvashshax bulib, Jahon bibi, Xayot, Baqo, Dilorom ismli qizlar Uvaysiydan ilm o‘rganganlar.Ular ham Jahon otin yordamida fors –tojik, turkiy tillarda yuksak saviyadagi she’rlar yozishga kodir shoiralar bo‘lganlar.

Marg‘ilon tumanining hokimi Umarbek bo‘lganidan keyin, bu paytda maktabdor va shoira sifatida Shuxrat qozongan Uvaysiy Nodira bilan yaqinlashadi. Bu yaqinlik keyincha Qo‘qonda Nodirabegimning fojiali qatl etilguncha davom etadi.

Shunda Uvaysiy erining yilini o‘tkazib ikki bolasi bilan Nodira taklifiga binoan, Qo‘qonga keladi. Endi Uvaysiy Nodirabegim himoyasida bo‘ladi. Qo‘qonda Uvaysiy xon saroyida yashaydi. U xaramdagi qizlarga, kanizaklarga ham xat-savod o‘rgatadi. Kanizaklarga boshlangich ta’lim berish bilan shugullanadi.

Uvaysiy xon saroyida 3-4 yildan ortiq yashay olmaydi va boshqa yerga ko‘chib o‘tadi. Shoira bu yangi joyda yana uzi sevgan mashg‘ulotini davom ettiradi. Shu bilan birga Nodira iltimosi bilan uning himoyasidagi tutqunlarni ham o‘qitadi. Uvaysiy qizlarga xat- savod o‘rgatish bilan birga, sozanda- xonanda qizlar guruxhini ixlos bor qizlar ichidan yig‘ib, ularga san’atning ayrim sirlarini o‘rgatadi. Yang hovlida dars berayotgan bir paytda Uvaysiy Nodira huzuriga borib qaytsa, eshigining qulfi singan,

Xona ichidagi tanburlar yuq ekan. Uvaysiy surushtirib bilsa, bu ig‘vogarlarning ishi bo‘lib chiqadi. Bu xususida Nodira Umarxon orqali tanburlarni o‘rniga qaytarishda yordam beradi.

Ma’lumki, qizlar maktabida talabalar zexnini tarbiyalash, bilimlarni mustaxkamlash, uzoq esda saqlab qolish, tafakkur qobiliyatini mustaxkamlashga xam katta e’tibor beriladi. Shu maqsadda chiston (topishmoq)larni yechish, muvashshaxlar yozish, adabiy asarni sharxlash va izoxlash kabilardan foydalanilgan. Bu usullar talabani ragbatlantirgan, uning ukishga bulgan kizikishini va kobiliyatini oshirgan.

Chunonchi, Jahon otin (Uvaysiy) mashxur shoira bo‘lishi bilan birga mohir muallima ham bo‘lgan. U o‘z darslarida qizlarning zehnini tarbiyalashda quyidagi chiston, muammo, muvashshaxlardan foydalangan (chiston –topishmoq, muammo- she’rda kishi nomi, sana va shu kabilar yashiringan janr, misralar boshidagi xarflarni to‘plaganda kishi nomi chiqadigan she’r- muvashshax):

Ul na qush ko‘rinmaskim, shafaq bolu pari,
Misliul raf-raf suvoru bilsangiz, yuqtur tani.
Voqif erur kecha- kunduz xizmatida to‘rt tani,
Qon ilan ermish murassa bul chiyiston maskani.

(qalb, to‘rt g‘ulom-ko‘z, og‘iz, quloq, burun)
Ul nadurkim sobz tunlik, yoz yog‘ochning boshida,
Qush yalang‘och aylanga aylagay barcha haloyiq qoshida.
Barcha qushlarning sungoki ichida,
Ul na qushdirkim sungoki toshida.
(yong‘oq)
Ikki mahbubni ko‘rdim, bir-birisin ko‘rmagan,
Ikkisining o‘rtasiga, do‘stlar qil sig‘magan.
(kun va tun)
Ul nadurkim poyi yo‘q, yursa boshi birla yurar,
Yurganida xok surmay, ancha ustolik qilar.
(suv).

29.3. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida

Munis Xorazmiy (1778-1829). XIX-asr boshlarida Xiva xonligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk insonlardan biri – shermuhammad ibn Avazbiy mirob o‘g‘li Munis edi. 1778-yilda Xiva Shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida mirob oilasida tavallud topgan adib: “Men, Munis, Xivada yashovchi yuz toifasidan bo‘lgan Amir eshimbiyning avlodidandirma”, deb yozgan.

Uning bolalik va yoshlik yillari Qiyot qishlog‘ida o‘tdi va ulg‘aygach, Xivadagi madrasalardan birida tahsil ko‘rdi va ustozi Sayyid eshonxo‘jadan saboq oldi. Arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti, shuningdek mumtoz musiqa hamda tarix fanini qunt bilan o‘rgandi. U mohir hattot bo‘lib, kufiy, rayhoniy, xatti Shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan. She’riyat olamida uning tahallusi Munis bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “ulfat”, “hamdam”, “do‘st” demakdir. Nizomiydan tortib to o‘zi yashagan davrga qadar o‘tgan so‘z san’atkaorlarining ijodi bilan oshno bo‘lgan Shoir, o‘zining “Manga” radifli g‘azalida Nizomiy, Xisrav Dehlaviy ijodidan naqadar lazzatlanganligini, Hofiz sheroziy, Lutfiy asarlari orqali she’riyat bo‘stoniga qadam qo‘yganini, Firdavsiyning ijod bog‘ida orom olganini, Anvariydan nur emib, Sa’diy va Jomiydan cheksiz bahramand bo‘lganini, Bedilning ajoyib so‘zlaridan fayz topib, nihoyat buyuk alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyni o‘ziga homiy bilganini zo‘r mamnuniyat bilan qayd qiladi.

Munis tez orada el-yurt hamda Xiva hukumdori Avaz inoq nazariga tushadi. 1804 yilda Shoir alifbo sifatida foydalanish uchun “Savodi ta’lim” kitobini yozib tugatadi. Yana Shu yili ijod namunalarini “Munis ul-ushshoq” (“oshiqlar do‘sti”) degan nom bilan to‘plab, uni 1813-yilda 16892 misradan iborat katta devonga aylantiradi. Ushbu asarda Shoirning g‘azallari, muxammaslari, ruboiylari, mustazodlari, tuyuqlari, to‘rtlik va maxsus ikkilik baytlari mavjud bo‘lib, bulardan tashqari devon oxirida shoirning 1804-yilda nazm bilan yozib tamomlangan kalligrafiyaga oid “Savodi ta’lim” nomli asari ham ilova qilingan. Ushbu kichik risolada chiroyli xat yozish usullari bayon qilingan. Risola ikki qismdan iborat. Asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli asboblar to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ikkinchi qismda esa, xat mashqi va uning usuli haqida amaliy yo‘l bilan ta’lim beriladi. Shoir o‘zining ushbu risolasi boshida

kishilik jamiyatida yozuvning katta ahamiyatga ega ekanligini qayd qilib, Shunday bayon qiladi:

So‘z mahzanining nishonasi ham,
Ma’ni durining xazonasi ham,
Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,
Xat bo‘lmasa bo‘lg‘ay erdi nobud.

Munisning She’rlar to‘plami (devoni) o‘zi hayot chog‘ida va o‘zidan keyin ham xivalik hattotlar tomonidan bir necha bor ko‘chirilgan. Shu bilan birga 1875-yilda Xiva toshbosmaxonasida “Savodi ta’lim” risolasi bilan birga bosilgan.

Hozirgi vaqtda shoirning qabri Xiva yaqinidagi shayx Mavlon bobo qabristonida bo‘lib, maqbarasi avlodlar tomonidan e’zozlanib, 1989, 1999-yillarda ta’mirlandi.

29.4. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy haqida bizgacha juda oz ma’lumot etib kelgan. Lekin hozirgi paytda bizga ma’lum bo‘lgan “Odob as-solihin” asarining o‘ziyoq bizga uni mashhur pedagog olim sifatida tanitadi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy 1740-yilda qoshg‘arda kambag‘al dehqon oilasida tug‘ilgan va 1843-yilda u shu erda vafot etgan. Biz olimning qay darajada tarbiyashunos ekanligini u tomonidan yaratilgan asarlarning mazmunidan bilamiz. Bizgacha uning “Odob as-solihin” (“yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat al-masoyil” (“Masalalarning qaymog‘i”), “Dur al-muzoxir” (“Ko‘makdoShlarning durdonasi”) hamda “Tazkirai xojagon” (“Xojalar tazkirasi”) nomli asarlari etib kelgan.

Sharqning buyuk allomalari - yusuf Xos Hojib, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad yassaviy, Sa’diy sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, alisher Navoiy va boshqalar yuksak ahloqiylikni shakllantirishga oid yirik asarlar, hikmatlar yaratganlar. Shu bilan birga hulq-odob tarbiyasiga oid “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Jaloliy”, “Axloqi Nosiriy”, “Qobusnoma” kabi asarlar yaratilgan.

O‘zida shaxs va uning tarbiyasini yo‘lga qo‘yish masalalarini aks ettiruvchi asarlarni yaratish an’anasi mavjud bo‘lgan davrda Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan turkiy tilda “Odob as-solihin” (“yaxshi kishilar odobi”), “Zubdat as-masoyil” (“Masalalarning qaymog‘i”) nomli asarlar yaratildi. “Odob as-solihin” asari 5 marta, 1889-hamda 190-yillarda Toshkent shahrida va 1891, 1892-hamda 1986-yillarda Istambul shahrida qayta nashr etilgan.

Mazkur asarning nomi va mazmunidan ham anglanib turganidek, unda ilgari surilgan g‘oyalar insonning hayoti davomida zarur ahamiyat kasb etuvchi hulq-odob qoidalari xususida kishilar, shu jumladan, yoshlarga muayyan darajada ma’lumotlar berishga xizmat qiladi. “Odob as-solihin” asarida ijtimoiy hayot hamda kundalik turmushda har bir inson tomonidan qat’iy amal qilinishi zarur bo‘lgan zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) odob va ahloq qoidalari, ularning ijtimoiy ahamiyati, yoshlar tarbiyasini yo‘lga qo‘yishdagi o‘rni va roli borasida batafsil so‘z yuritiladi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari muallifning o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, muqaddima va 7 bobdan iborat bo‘lib, har bir bob o‘zida 4 faslni aks ettiradi.

Muqaddimada asarning maqsadi ochib beriladi. Asarning yozilishidan ko‘zda tutilgan maqsad borasida so‘z yuritilar ekan, insonning ijobiy hulq-atvorga ega bo‘lishini taqozo etuvchi ijtimoiy zaruriyat mohiyati batafsil ochib beriladi. Asarda ilgari surilgan asosiy g‘oya – insonlarning ijobiy xulq-atvorga ega bo‘lishlari jamiyatda ruhiy xotirjamlik va moddiy farovonlikni qaror toptiruvchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iboratdir. Alloma mazkur g‘oya mohiyatini Sharhlar ekan, inson odob-axloq qoidalarini egallay olmasa hamda ijobiy hulq-atvori bilan muaddab (odobli) va muzazzab (toza) bo‘lmasa, nafaqat o‘zi, balki butun dunyoga yomonlik tarqatadi degan qarashni ilgari suradi. Ayi o‘rinda quyidagi masnaviyni keltiradi:

Beadab tanho va xudro dosht bad,
Balki otash dar xama ofoq zar.
(Adabsiz nafaqat o‘zi uchun yomonlik qiladi,
Balki butun dunyoga o‘t qo‘yadi).

Shunday ekan, har bir inson ichki hamda tashqi odob qoidalarining mohiyatini to‘laqonli ravishda anglab, ularga qat’iy amal qilishi zarur. Inson odob-axloq qoidalarining mohiyatidan qanday yo‘l va usullar orqali boxabar bo‘lishi mumkin degan savolga javob berar ekan, alloma ular etuk mutafakkirlar tomonidan qimmatli, mo‘’tabar kitoblarda jam etganligi, mazkur kitoblarning mazmuni bilan tanishish orqali odob-axloq qoidalari va ularga amal qilish Shartlari xususida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Asarda komil inson bo‘lib etishishda kundalik hayot hamda amaliy turmushda o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) odob-axloq qoidalari: salomlashish, ruxsat so‘rash, muloqot, uxlash, yo‘l yurish, mehmon kutish, ziyofat, ovqatlanish, Shuningdek, er-xotin munosabatlarini yo‘lga qo‘yish odobi va ularga amal qilish Shartlari borasida so‘z yuritiladi. Suhbat ahlining o‘zini tutishi, tozalik, ozodalik hamda safarga chiqish qoidalari ham asar mazmunining markaziy qismidan o‘rin olgan.

Birinchi bob salomlashish, ko‘rishish, qo‘l olishish hamda ruxsat so‘rash qoidalari to‘g‘risida ma’lumotlar berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mazkur bob to‘rt fasldan tashkil topgan.

Ikkinchi faslda esa salomlashish odobining o‘n ikki qoidasi borasida fikr yuritiladi. Mazkur o‘rinda salom berish va alik olish masalasida bugungi kunga qadar davom etib kelayotgan munozaraga nuqta qo‘yilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, salom bermak sunnat, javobi farzu ayyondir. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning e’tirof etishicha, salom quyidagi holatlarda quyidagi kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiqdir: ulug‘ kichikka, otliq piyodaga, yuruvchi o‘ltirguvchiga, ozchilik ko‘pchilikka, xonaga kirib keluvchi, xona ichkarisida o‘tirgan kishilarga salom bergay”, deb ta’kidlar ekan, bir kishi ko‘pchilik oldiga kirib kelganda, birinchi bo‘lib salom berishi, ko‘pchilik esa baravar ovoz chiqarmasdan salomga alik olishi joizligiga alohida e’tiborni qaratadi. Allomaning salomlashish odobi xususidagi fikrlari bilan tanishar

ekanmiz, ta’lim muassasalarida muallim sinf xonasi yoki auditoriyaga kirib kelganda, “Kim oldin salom berishi kerak?”, degan muammoning echimini topgandek bo‘lamiz.

Birinchi bobning uchinchi faslida berilgan muloqot (uchrashuv) odobiga oid tavsiyalar ham diqqatga sazovor. Bunda uchrashganda qo‘l berib ko‘rishish, lekin qo‘l uchi bilan emas, astoydil, biroq qo‘lni silamay, ochiq yuz bilan ko‘rishish odobi bayon etiladi[83]. Quchoqlashib ko‘rishish, safardan qaytgan kishi hamda yosh bolalar bilan ko‘rishish, o‘pib ko‘rishish odoblari bayon etiladi.

Ikkinchi bobda uxlamoq, kiyim kiyish, yo‘l yurish odoblari haqida fikr yuritiladi. Masalan, uxlash oldidan eshiklarni mahkamlab yopish, idishlarning og‘zini berkitish, o‘rnidagi ko‘rpa-to‘shaklarni bir bora qoqib yozish, o‘choqdagi olovni hamda chiroqni o‘chirish, uxlaydigan o‘rnini yumshoq qilmaslik, o‘ng qo‘lga bir oz suyanib yotish tavsiya etiladiki, ushbu qoidalarning ahamiyati ularga rioya qilmaslik natijasida ro‘y bergan noxush voqealar misolida ochib beriladi.

Uchinchi bobda suhbatlashish odobi borasida so‘z yuritiladi. Bizga yaxshi ma’lumki, suhbatlashish odobi va uning Shartlariga amal qilish ijtimoiy munosabatlarning mo‘’tadil kechishini ta’minlovchi asosiy va o‘ta muhim omillardan biri bo‘lib, aksariyat mualliflar tomonidan yaratilgan hamda axloq-odob muammolariga bag‘ishlangan asarlar mazmunidan alohida o‘rin olgan. «Odob as-solihin» asarida ham muallif suhbatlashish odobi va uning o‘ziga xos jihatlari borasida batafsil so‘z yuritadi.

Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy “Odob as-solihin” asarida, kasal holini so‘rash, ta’ziya va musibat odoblari haqida ham fikr yuritadi. Ushbu holatlarda amal qilinadigan qoidalar mohiyatidan xabardor bo‘lish ham har bir kishi uchun foydadan holi bo‘lmaydi.

Bemor holini so‘rash qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shni, yoru birodar, Shuningdek, do‘st uchun farz ekanligi, bemorning millati va diniy e’tiqodidan qat’iy nazar, uning yoniga ochiq yuz bilan kirish, unga ko‘nglini ko‘taruvchi so‘zlar bilan murojaat qilish, bemor oldiga bashang kiyinib yoki kir libosda bormaslik, bemor yotgan xonaga kulib kirib, uning bosh tomoniga yaqin o‘tirish, ko‘p so‘zlanishib bemorni toliqtirib qo‘ymaslik, qo‘lni peshonasiga qo‘yib hol so‘rash, bemorni kun yoki kunora kelib toliqtirib qo‘ymaslik, bemorning ko‘ngli tilaydigan narsalarni so‘rab-surishtirib, ularni topib kelish, ammo bemorning muolajasida uni harom narsalardan saqlash, bemor oldida ko‘p o‘tirmaslik, agar bemor oldida uzoq vaqt qolish zaruriyati yuzaga kelsa, uning ko‘ngliga yoqadigan, xush keladigan so‘zlar yoki hikoyatlardan so‘zlab o‘tirish maqsadga muvofiq ekanligiga alohida urg‘u beradi.

Mazkur bobda emak-ichmak odoblari xususida ham so‘z yuritiladi. Unda taomni mumkin qadar oz iste’mol qilish, shubhali tuyulgan taomlarni iste’mol qilmaslik, faqirona ovqatlarga qanoat qilish, go‘shtli taomlarni kam tanavvul etish, ovqatlarni tanavvul qilishda ularning pishirilish holatiga ko‘ra bir-biri bilan aralashtirib yubormaslik, ya’ni, baliqni sut bilan, sutni nordon meva yoki taom bilan, sutni tuxum bilan, qovurilgan go‘shtni qaynatilgan go‘sht bilan, qotgan

[83] Hoshimov K. va boshq. Pdeagogika tarixi. T.: O‘qituvchi, 1996. – 123 b.

go‘shtni yangi go‘sht bilan, issiq taom yoki ichimlikni sovuq taom yoki ichimlik bilan, ichni qotiruvchi taom yoki mevalarni ichni suruvchi taom yoki mevalar bilan birga iste’mol qilish sog‘likka ziyon etkazuvchi holatlar ekanligi alohida uqtirib o‘tiladi. Alloma taom iste’mol qilish odoblari borasida so‘z yuritar ekan, taomni o‘tirgan holda eyish maqsadga muvofiq ekanligiga e’tiborni qaratadi. Bu boradagi odob qoidalari sirasiga quyidagi holatlar qam kirishiga: alohida urg‘u beradi: katta yoshli kishilar taomga qo‘l urmagunlaricha, taomga qo‘l uzatmaslik, taom iste’mol qilishda ozodalikka qat’iy rioya etish, shuningdek, uning turiga ko‘ra qulay idishlardan foydalanish, mevalarni ko‘zga surib (bizning fikrimizcha, mazkur harakat muayyan meva pishib etiladigan mavsum (davr)ga etib kelinganlik, yana bir yil sog‘-salomatlikda umr kechirganlik uchun Shukuronalik belgisi sifatida ado etiladi), keyin yeyish, taomni iste’mol qilishdan avval va keyin qo‘l yuvish, yuvilgan qo‘lning suvini silkitmaslik, qo‘lni toza sochiqqa artish, taomdan so‘ng sohibi xonadon sharafiga duo qilish, mazkur mehmondorchilikda yoshi katta kishilar ham ishtirok etayotgan bo‘lsalar, ularning duo qilishlarini kutish kabi qoidalarining mohiyatini batafsil ochib beradi.

Yettinchi bobda safar qoidalari va ularning mohiyati yoritib beriladi. Allomaning fikriga ko‘ra, safarga chiqishdan ko‘zlangan maqsad quyidagi uch ko‘rinishda ifodalanadi: farz, fazilat, muboh (ruxsat etiladigan). Ayni o‘rinda safar farzining o‘zi quyidagi besh ko‘rinishni namoyon etadi: jihod, haj, ota va onaning chaqirig‘iga muvofiq, raddi mazolim (zulmni qaytarish) hamda ilm olish maqsadida uyushtirilgan safar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Muhammad Sodiq Qoshg‘ariy tomonidan yaratilgan “Odob as-solihin” asari jamiyat a’zolari, Shu jumladan, yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur asar har bir inson tomonidan o‘rganilishi va kundalik turmushda qat’iy amal qilinishi zarur bo‘lgan hulq-odob qoidalarining majmui sanaladi. Shu bois Sharq pedagogikasi tarixida mazkur asar ham Unsurul-Maoliy Kaykovusning “Qobusnoma” asari kabi o‘z o‘rni va mavqeiga ega.

XXX BOB. XIX-ASRNING 2-YARMI XX-ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR

30.1. XIX-asrning ikkinchi yarmida Turkistonda maktablar tizimi

XIX-asrning o‘rtalarida Turkistonda boshlang‘ich ma’lumot beradigan maktablar hamda o‘rta va oliy diniy ta’lim beradigan madrasalar mavjud edi.

Maktablarning aksariyati diniy ta’lim beruvchi maktablar edi. Bu maktablar arab tilida Qur’oni o‘qishni o‘rgatish va har bir musulmon uchun zarur bo‘lgan vazifalarni o‘rgatar edi.

Shahar maktablarida diniy ta’limdan tashqari umumiy ta’lim elementlari - yecish va hisoblash o‘rgatilar edi, mashhur shoirlarning she’r va g‘azallari ham o‘qitilar edi. Bunday maktab o‘quvchilar badavlat oilalar farzandlari bo‘lar edi. Ular o‘qishni tamomlab savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan shug‘ullanar edilar, ba’zilari qo‘shimcha ta’lim olib xattotlik bilan shug‘ullanar, ba’zilari madrasaga

kirib o‘qishni davom ettirardilar. Oliy diniy maktab bo‘lgan madrasalarda o‘rta asrga oid diniy falsafa, musulmon huquqlari, arab tili grammatikasi va mantiq ilmlaridan dars o‘tilgan. Madrasani tomonlaganlar imomlik qilish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo‘lganlar. Maktab va madrasalarda asosan o‘g‘il bolalar o‘qitilar edi. Maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab va fors tojik tillarida olib borilar edi.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin maktab va madrasalarda ba’zi o‘zgarishlar yuz berdi. Musulmon maktablarida bosmaxonada chop etilgan darsliklar paydo bo‘ldi. Mustamlaka ma’muriyati mashg‘ulotlar o‘rta asr tartibida olib borilayotgan musulmon maktablari ishiga aralashmas edilar.

1917-yil to‘ntarishidan so‘ng Markaziy Osiyoda 3 ta davlat (Buxoro amirligi, Xiva, Qo‘qon xonligi) o‘rnida yangi yo‘nalishdagi mafkuraga asoslangan respublikalar (Turkiston Muxtor Jumxuriyati, Buxoro xalq Respublikasi, Xiva xalq Respublikasi) tashkil topdi. Yangi sho‘ro Hukumati avvalgi ta’lim tizimi, o‘quv-tarbiyaviy ishlarni isloh qilish, xalq maorifi tizimining yangi shaklini joriy etish yuzasidan bir qator vazifalarni belgilab berdi. Bunday tadbirlarni amalga oshirish Turkistonda Xalq Komissarlari Sovetining 1918-yil 14-maydagi dekreti asosida boshlandi. Yagona sho‘ro "Mehnat maktabi" xalq maorifi uchun aosiy negiz qilib olindi. 1918-yil 20-yanvarda "cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to‘g‘risida"gi dekretga asoslanib, mullalar va ziyoli din ahllarining maktablarda dars berishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida dekret qabul qilindi. Mazkur dekretga muvofiq aholining barcha tabaqalari bolalari millati, dini va jinsidan qat’iy nazar maktabi tekin o‘qitilishi to‘g‘risida buyruq chiqarildi. Turkistonda 1918-yil may oyining boshida maktab tubdan qayta qurildi va e’lon qilindi.

30.2. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati

1918-yil iyunda toshkentda maorif xodimlarining birinchi s’ezda ochildi, unda xalq maorifi sohasidagi ahvol muhokama qilindi, qayta ko‘rish tadbirlari belgilandi.

1918-yil dekabrda Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi buyruq chiqarib, hamma maktablarda ona tili o‘qitish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

1918-yil avgustda Turkiston Respublikasining Markaziy Ijroya Komiteti «Maktablarda o‘quvchilarni o‘z ona tilida o‘qitishga o‘tish to‘g‘risida» dekret chiqardi, bu o‘lka xalqlari milliy madaniyatlari istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Oradan uch oy o‘tgach "Turkiston maktablarining strukturasi to‘g‘risida Nizom" chiqarildi.

1918-yil bahoriga kelib respublikada ishlab turgan maktablar soni 330 taga etdi.

1919-yilining boshida maktablar soni Farg‘onada (viloyatida) 350 ta, Sirdaryo viloyatida 839 ta, Samarqand viloyatida 216 ta edi.

1918-yil iyun oyida toshkentda dorilmuallimin ochildi (millat eshlaridan mualimlar instituti).

1918-21-yillarda mahaliy millatdan 3 mingga yaqin muallim tayyorlandi.

1918-yillarda Turkiston sharqshunoslik ishstituti, Timiryazev nomli bilim yurti, Milliy xotin-qizlar uchun bilim yurtlari ochildi.

1921-yilda ximiya-farmakologiya instituti, konservatoriya 6 ta qishloq xo‘jalik texnikumi ishga tushdi. Bo‘lar orasida 1918-yil 21-aprelda ishga tutgash toshkentda ochilgan Turkiston xalq universiteti alohida ahamiyat etadi. Universitetning Toshkentda yoki shaharda, Andijon, Qo‘qon, Samarqand va Jizzaxda bo‘limlari bor edi.

RSFSR Xalq Komisarlari Sovetining 1920-yil 7-sentyabrdagi dekretiga binoan toshkent xalq universitei negizida Turkiston davlat universiteti (Tosh DU) tashkil etildi.

1920-yillarda Turkiston bolalarining 25% maktabda o‘qitilar edi.

O‘qituvchi kadr tayerlashga katta e’bor berildi. 1925-yilda O‘zbekiston qishloqlarida ishlab turgan muallimlar soni 2748 kishiga yetdi. 1924-25-o‘quv yilida xalq maorifi ehtiyojlariga 11, 4 million so‘m eki respublika byudjetning 24% sarflandi.

XX-asr boshlariga kelib, mahalliy fuqaro bolalaridan ilmli kishilar tayyorlash maqsadida Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy – Feruz (1844-1910yy). Katta ishlarni amalga oshirdi. Bevosita uning tashabbusi bilan 1884-yili o‘z saroyida maktab ochilib, bu maktabda rus o‘qituvchisi va Mirzo, Rahmonquli qori kabi mahoratli ta’lim-tarbiya ustalari yoshlarga bilim beri shishi bilan Shug‘ullandilar.

30.3. Turkistonda maktablar tizimi

Maktablarni tashkil etishda mahalliy aholi orasidan birinchi muallim sifatida etishib chiqqan Hamza, Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, T. N. Qori Niyoziy, To‘xtanazar Shermuhamedov, Ergash Komilov, Oqilxon Sharofiddinov va shu singari ziyolilar faol qatnashdilar.

Qizlarni o‘qitish uchun alohida maktablar ochildi, bunday maktablar 1920-yil boshida Toshkentda 12 ta, Andijonda 2 tasi ochilgan. Qo‘qonda shunday maktablarda o‘zbek qizlaridan 270 tasi, qirg‘iz qizlaridan 13 tasi o‘qir edi. Shunday qilib, o‘lkamizda yangi maktablar ochildi va mahalliy aholidan milliy o‘qituvchilar tayyorlash, milliy darsliklar nashr etish, sho‘ro mafkurasi asosida ta’lim-tarbiyaviy jaraenni amalga oshirish yuzasidan tadbirlar belgilandi.

Feruz farmongia muvofiq 1904-yilning 10-noyabrida Urganchda birinchi yangi usul maktabi ochildi. Unda Husayn Qo‘shaev degan Turkiyadan kelgan o‘qituvchi yoshlarga ta’lim-tarbiya bera boshladi.

Husayn Qo‘shaev 1906-1907-o‘quv yilida xonlikdagi ilg‘or ma’rifatparvar kishilarning istaklarini hisobga olib, Urganchda qizlar maktabi tashkil etdi. Feruz unga homiylik qilib, Xazina hisobidan maktab uchun alohida mablag‘ ajratib berdi.

Feruz homiyligidagi bu maktabda Husayn Qo‘shaevning turmush o‘rtog‘i Komila Qo‘shaeva qizlarga bilim bera boshladi.

1909-yilga kelib Feruz qo‘li ostidagi madrasalar soni 130 taga yetib, undagi mullavachchalar 2300 kishidan ortib ketdi.

Feruz Xiva ziyolilari orasida nufuzli o‘rinni egallagan ma’rifatparvar Komil Xorazmiyni Toshkent shahrida gimnaziya va maktablardagi o‘qitish usulini

o‘rganib kelish maqsadida safarga jo‘natadi. Safardan qaytgach, Komil Xorazmiy bu sohadagi ishlarni anchagina jonlantirib yubordi.

Mazkur maktab o‘quv dasturi hamda rejasiga – riyoziyot, tarix, jo‘g‘rofiya, tabiat, rus tili, mahalliy savod (ona tili) va islomshunoslik fanlarini o‘qitish belgilanadi. Mashg‘ulot jarayonida sharq mutafakkirlari – Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Sa’diy Sheroziy, Mashrab, So‘fi Ollayor kabilar bilan bir qatorda rus shoir, yozuvchilarining asarlari o‘rganildi. Shuningdek, u vohada san’at, maorif va madaniyat rivojiga rahnamolik qilib, saroydi «podshohi zamon tipolitografiyasi»ni tashkil qildi.

«Litografiya» – yunoncha so‘z bo‘lib, «litos» – tosh va «grafos» yozaman degan ma’noni bildiradi. Bu atama o‘zbek tilida toshbosma tarzida qo‘llanib kelingan.

Feruz saroyidagi bu toshbosmaxonada ilk bor Abu Nasr Farobiyning «Nisobus - sibyon» (Bolalar nasibasi), Alisher Navoiyning «Hamsa» asaridan parcha, «Hayrat ul-abror» dostoni, Shermuhammad Munisning «Munis ul-ushshoq» devoni, Yoqubxo‘ja ibn Ibrohimxo‘janing «Devoni Xolis» to‘plami, Feruzning «Devoni Feruz» va boshqa o‘nlab asarlar nashr etilgan.

30.4. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojidagi xizmati

Vladimir Petrovich Nalivkin 1852-yilda tug‘ilgan. U Turkiston ta’lim tizimiga katta xissa qo‘shgan Markaziy Osiyo etnografi va tadqiqotchisi, birinchi ruscha-o‘zbekcha lug‘at muallifi Shu bilan birga harbiy xizmatchi bo‘lgan. Nalivkin 1884-yilda Toshkentdagi rus-tuzem maktabida birinchi o‘qituvchi sifatida ish boshladi. Toshkentda Turkiston o‘qituvchilar seminarida o‘zbek va tojik tillarida o‘qituvchilik qildi va rus-tuzem maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlashda ishtirok etdi. U 1890-1895-yillarda Turkiston o‘lkasining Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand xalq ta’limi bo‘limlarida inspektor bo‘lib faoliyat olib bordi. Bu vaqt ichida Nalivkin o‘quv-uslubiy qo‘llanma, lug‘at va ilmiy maqolalar chop ettirdi, o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha lug‘at tayyorladi, o‘zbek tili grammatikasi ustida ishladi. “Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi” “Kratkoy istorii Kokandskogo xanstva” (1886) asari muallifi, ushbu asar 1889-yilda Parijda fransuz tiliga tarjima qilingan.

Nalikov Turkiston o‘lkasi tarixi yuzasidan tarixiy-etnografik xarakterdagi ocherklar yozib bordi. 1908-yilda “Mening dunyoqarashim” (Moyo mirovozzrenie) nomli qo‘lyozmasida o‘zining sotsializm haqidagi qarashlarini yozib qoldirgan.

30.5. Turkistonda rus maktablarining ochilishi

Musulmon aholisi yashaydigan joylarda qadimdan maktab-madrasa va hokazolar mavjud bo‘lib, bularga qarshi chor hukumati Rossiyadagi ko‘p sonli xalqlar uchun maxsus hukumat maktablari barpo qilar edi. Bu maktablarning ko‘pchiligida o‘qitish rus tilida olib borilar edi. Ularning biri – to‘rt yillik, ikkinchisi – ikki yillik edi. Ba’zi bir to‘rt yillik maktablarda internatlar ham bo‘lib, ularda ko‘proq feodallarning va mahalliy aholining boy qatlami bolalari ta’lim olardi. Turkistonning 1880 yilda Rossiya tasarrufiga o‘tganidan keyin Markaziy

Osiyodagi rus-tuzem maktablari ancha mashhur bo‘ldi. Ammo mehnatkashlarning bolalari uchun yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan ikki yillik savod chiqarish maktablari ochilgan edi. O‘qish muddati ikki yil bo‘lgan milliy maktablardan, masalan, qozoqlarda ovul maktablari, deb atalgan maktablar tipik maktab sanalar edi.

Dastlabki ovul maktablari 1892-yilda To‘rg‘ay oblastining ovullarida tashkil topgan bo‘lib, aholini ko‘chmanchilik turmushiga moslashtirilgan edi. Ovul maktablarida rus tili, arifmetika qozoq alifbosi va islom dini o‘qitilar edi. Bu maktablarda o‘qitish o‘quvchilarning ona tilida olib borilardi, lekin ularning saviyasi juda past edi. 1916-yilda 169 ta ovul maktabi bo‘lib, ularda 5 ming o‘quvchi o‘qirdi, bu maktab yoshidagi barcha qozoq bolalarining faqat bir foizga yaqininigina tashkil etardi, xolos.

Markaziy Osiyo va shimoliy Kavkazning musulmon aholisi uchun ularni ruslashtirish maqsadini ko‘zda tutgan rus-tuzem maktablari XIX-asrning 80-yillaridan boshlab ochila boshladi. Bu maktablar o‘z dasturlariga ko‘ra rus ministerlik maktablaridan islom dinining o‘qitilishi bilangina farq qilar edi. Rus-tuzem maktablarida o‘qitish rus tilida, diniy ta’limot esa o‘quvchilarning ona tilida olib borilardi.

30.6. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi

Rus muhojirlari Turkiston general-gubernatorining farmoniga binoan, o‘lkada rus maktablari, rus tuzem maktablari, gimnaziya kabi maktablarni ochish va bu maktablarni kengaytirish hisobiga mahalliy maktablar, maktab madrasalarni siqib chiqarish maqsadida maorif islohotini o‘tkaza boshladilar.

Bu bilan go‘yoki, ular Markaziy Osiyo aholisining savodxonlik darajasini oshirmoqchi bo‘ldilar va har bir qilingan ishni bo‘rttirib ko‘rsatishga urindilar.

1917-yilgi to‘ntarishgacha 21 foiz savodxon bo‘lgan o‘lka aholisini, yoppasiga savodsiz edi, deya kamsitishga urindilar, quruq bo‘hton yog‘dirdilar.

O‘lka aholisini savodxon qilish uchun eng avvalo rus, rus tuzem, gimnaziya kabi o‘quv maskanlari kerak, madrasa va «usuli qadimiya» eski usul maktablarida, otinlar maktablarida savod chiqarib bo‘lmaydi degan siyosatni yurgizishga harakat qildilar.

Bunga biz 1897-yildagi Rossiya tomonidan o‘tkazilgan aholini ro‘yxati ma’lumotlarini ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan, o‘Sha aholi ro‘yxatida qayd etilishicha, Markaziy (o‘rta) Osiyo aholisining savodxondik darajasi quyidagicha belgilangan:

Tojiklar – 99,5 % savodsiz;

Qirg‘izlar – 99,4 % savodsiz;

Turkmanlar – 99,3 % savodsiz;

O‘zbeklar – 98,4 % savodsiz;

Qozoqlar – 97,9 % savodsiz deb hisoblangan.

Bu ko‘rsatkichlarning barchasi uydurma edi. Aslida Turkiston o‘lkasi xalqlarining savodxonlik darajasi chor Rossiyasi aholisininng savodxonlik darajasidan past emas edi. Chunki, Turkiston o‘lkasi xalqlari 1917-yilgi to‘ntarishdan oldin shaxsiy va ommaviy maktablar, madrasalarda bilim olganlar, yuksak ilm egasi bo‘lganlar.

Zero, yuqorida qayd etilgan aholi ro‘yxati ma’lumotnomasida rus xalqidan, rus millatidan boshqa millatga mansub fuqarolarni ataylab kamsitish chor Rossiyasining asosiy mafkuraviy kurashi natijasidir. Chunki, ular rus va rus-tuzem maktablarini bitirganlarnigina savodli deb hisoblanganlar. Hatto, ular dunyoviy maktablar ochish, ona tilidagi darsliklar, gazeta va jurnallar nashr qilish va hokazolarni qat’iy ta’qib qilar edilar.

Ayni vaqtda chor hukumati rus bo‘lmagan aholi yashaydigan joylarda maktablar ochar, bu maktablar esa o‘z oldiga ruslashtirish maqsadini qo‘yar edi.

Chor hukumati tomonidan XX-asrning 60-yillarida maktab ustavlari tasdiqlanib, Shular asosida boshlang‘ich hamda o‘rta maktablar qayta tuzilib, rus bo‘lmagan xalqlar uchun maktablar tashkil etishga doir davlat hujjatlarini ishlab chiqishga kirishdilar.

Maktab ishiga taalluqli asosiy siyosiy va idealogiya sohasidagi ko‘rsatmalar 1870-yilda chor Rossiyasi xalq maorifi noziri D.A.Tolstoy tomonidan ifodalab berilgan edi. «Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo‘lmagan) xalqlarning ma’lumotli bo‘lishining oxirgi maqsadi, deb ma’lum qilgan edi, u, - Shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo‘lishi kerak». Ruslashtirish ko‘rsatmasi 1870-yilda e’lon qilingan bo‘lib, unga binoan rus millatiga mansub bo‘lmagan barcha xalqlar uchta toifaga bo‘lingan edi.

«Juda kam ruslashgan xalqlar», bularga sharqiy Sibir’ va Povolj’e xalqlari kirar edi. Bu xalqlar uchun ochilgan maktablarda o‘qishni ona tilida boshlash va keyinchalik rus tilida o‘qitishga o‘tish tavsiya qilinar edi.

«Ruslar ham yashaydigan rayonlarda yashovchi xalqlar». Bu joylardagi maktablarda o‘qitishning dastlab rus tilida olib borish ayrim hollarda ona tilining yordamiga tayanish va mumkin qadar tezroq faqat rus tilida o‘qitishga o‘tish taklif qilinar edi (masalan, gruzin bolalari o‘qitiladigan maktablarda o‘qitish Shunday olib boriladi).

«Yetarli darajada ruslashgan xalqlar». Ukrainlar, bellarus va boshqalar, bularning maktablarida o‘qitishni faqat rus tilida olib borish tayinlangan edi. Mazkur «Qoida»larni mana Shu toifaga kiritilgan xalqlarga qo‘llanishnish 60 yillarda ijtimoiy harakat jarayonida vujudga kelgan ona tilida o‘qitish tajribasini batamom siqib chiqarishga olib keladi.

Mana shu umumiy direktiv hujjat asosida ulkan Rossiya imperiyasining ayrim hududlardagi maktablarning ta’lim-tarbiyaviy ishi prinsiplarini belgilab beradigan yo‘l-yo‘riqlar yaratiladi va e’lon qilinadi.

1776-yilda Markaziy Osiyo tumanining general-gubernatori huzurida Turkiston o‘quv yurtlarining maxsus boshqarmasi tashkil etilgan bo‘lib, avvalo, ruslashtirish siyosatini amalga oshirish vazifasi uning zimmasiga yuklatilgan edi.

Tegishli davlat hujjatlari bilan maktablarning ish tartibini belgilab va maktab idorasi organlari o‘z maqsadlarida mustahkamlanib olgach, chorizm o‘qituvchilarning faoliyatini injiqlik bilan sinchiklab nazorat qilish tizimini to‘xtovsiz oshirib bordi.

Tarixda o‘zbek xalqi ko‘p bosqinchilarni ko‘rgan. Masalan, mo‘g‘ul-tatar bosqinchiligini oladigan bo‘lsak, ular odamlarni qirgan, boyliklarini talon-taroj qilgan... Ammo madaniyatiga, tiliga va diniga tegmagan. Eng dahshatlisi, ruslar

Turkistonda barcha bosqinchilik ishlarini olib borish bilan birga xalqning urf-odatidan, tili va dinidan ham ayirmoqchi bo‘ldilar.

General Rozenbax esa shunday degan edi: «o‘lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim». Haqiqatdan ham mustamlaka davrida rus-tuzem maktablari vujudga keldi. Bu maktablarning asl maqsadi, o‘lkani ruslashtirish edi. Afsuski bu o‘rinda boshqa tishga tegadigan nozik bir holat ham bor. «Tuzemes» degani ruscha o‘zbekcha lug‘atda «mahalliy xalq», «tub aholi» deb tarjima qilingan. Rus olimi Vladimir Dal’ning «Velikorus jonli tilining izohli lug‘ati» kitobida mana Shunday jumlalar yoziladi: «Tuzemes. Mestno‘y otnosyahiysya do izvestnoy strano‘...Tuzemno‘e jiteli chasti Okeanii stoyat na nizshey stupeni chelovechestva».

XX-asr boshlarida Turkistonda hammasi bo‘lib 20925 ishchi bo‘lgan, xolos. Temir yo‘llar o‘lkamizning barcha boyliklarini Rossiyaga tashib olib ketish maqsadida qurilgan. Yangi ochilgan turli maktablar mustamlakachi amaldorlar uchun tilmochlar tayyorlab berish uchun xizmat qilgan.

30.7. Turkiston ma’rifatparvarlik harakati g‘oyalarida ayollar ta’lim-tarbiyasi masalasining faollashtirilishi

Turkistonda ma’rifatchilik harakati g‘oyalarining jamiyatga kirib borishi jarayoni o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi. Bu yerda avvalo rus chorizmining geosiyosiy maqsadlari ortidagi harakatlar, keyin, jamiyatdagi milliy o‘yg‘onish doirasida harakatga kelgan kuchlar umumiy maqsad, ya’ni jamiyatda ma’rifatni rivojlantirish uchun intilishlari kabi jarayonlarning bir paytda kechishi ko‘zga tashlanadi. Binobarin, ushbu mavzuni yoritish davomida albatta Rossiya chorizmi tomonidan amalga oshirilgan faoliyat hamda mahalliy ziyolilar tomonidan ilgari so‘rilgan g‘oyalar va hayotga joriy etilgan ishlari ko‘rib chiqiladi. Aytish lozimki har ikkala tomondan ham ma’rifat nurlari uchun kurash olib borilar ekan, ta’lim masalasi va uning doirasida ayollar ta’limiga e’tibor tobora kuchayib borishi seziladi. Demak, ayollar ta’lim tarbiyasi hayotning dolzarb masalasiga aylanib, diniy va dunyoviy ta’limni zamon ruhiga moslashtirish zarurati zamondoshlarning vazifasi bo‘lgan edi.

O‘rta Osiyoning birinchi ma’rifatchilari qatoriga A.Donish, S.Ayniy, M.Behbudiy, A.Qodiriy, A.Shakuriy, F.Xo‘jaev, A.Fitrat, I.Ibrat, M.Saidjonov, Ajziy va boshqalar kiradi. Ular gumanistik va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi jamiyat qurish, shuningdek, musulmonlar xalq ta’limi islohotlarini o‘tkazish, iqtisodiyotni rivojlantirish, odamlarning turmush darajasini oshirish va boshqa ko‘p narsalarni qo‘llab-quvvatladilar. Asta-sekin ta’limiy g‘oyalar keng tarqalib, xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlana boshladi. Endi ziyolilar xotin-qizlar ta’limi masalasini yanada ochiqroq aytish, faollashtirishni boshladilar.

Jadidchilik harakatining taniqli shaxslaridan biri Ahmad Donish edi. U Buxoroda, oilaning barcha a’zolari uchun ta’lim juda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oilada tug‘ilgan. A. Donish arab tilini mukammal bilgan va xattotligi yaxshi bo‘lgan, she’rlar yozgan va tarixga ehtiromi bo‘lgan. 1857-yilda u Buxoro amirligi elchixonasining kotibi sifatida Sankt-Peterburgga qilgan safaridan so‘ng rus madaniyati va dunyoviy fanlarni o‘rganishni targ‘ib qila boshladi. U birinchi

marta rus ayollarini ko‘rib O‘rta Osiyolik musulmon ayollardan juda farq qilayotganini ta’kidlagan[84].

Rus hayotini ko‘rish, rus ayollariga qoyil qolish, ularning fe’l-atvorining qat’iyligi, ochiqligi va samimiyligi, Sharqdagi ayollarning qullik holatini taqqoslash natijasida Donish ularning taqdiri haqida qattiq tashvishlangan. U ushbu masalani faol ravishda muhokama qiladi va oila misolida yoritib beradi, bu yerda nikoh ishlari va bolalarni tarbiyalashda o‘zaro tushunishni kuzatish kerak, degan xulosaga keladi. “Nikoh qoidalari va qaynonaning adovati to‘g‘risida”gi risolasida u oilaviy hayot va ayollarning huquqlari masalalariga batafsil to‘xtaydi. U o‘sha vaziyatdagi adolatizlikni qonunlarning noto‘g‘riligida ko‘radi. U ayollarning oiladagi rolini tariflab, “Dunyoda yaxshi va odobli xotindan yuqori yaxshilik yo‘q” deydi[85].

Ayol haqida gapirish qat’iyan man etilgan bir paytda Ahmad Donish ayolning hayotidan pardani olib tashlaydi va boshqalarga ayollar huquqlarini yanada jasorat bilan himoya qilishga imkon yaratadi. Garchi uning asarlarida sharq ayollarini o‘qitish bo‘yicha hech qanday maxsus chaqiriqlar bo‘lmasa-da, ammo Rossiyaning madaniyatli va o‘qimishli ayolini maqtash va uni musulmon ayol hayoti bilan taqqoslash O‘rta Osiyo adabiy doiralarida yangi davr ayollari tarbiyasi va ta’limi to‘g‘risida gapirishga zamin yaratadi.

Donish bilan uchrashish va suhbatlashish sharafi Buxoro viloyatining Soktare qishlog‘ida tug‘ilgan taniqli yozuvchi va ma’rifatparvar Sadriddin Ayniga nasib etgan. "Buxoro inqilobi tarixi" asarida u shunday yozadi: “Ahmad Donishning “Navodir-ul-vaqoe’” (“Nodir voqealar”) kitobini o‘qib, beqiyos zavq oldim. Kitob shu qadar ajoyib ediki, men uni qayta o‘qishni xohladim. Keyin nima uchun uni “kofir” deb atashganini tushundim. Qo‘rqmasdan, u o‘z kitobida ruhoniylarning barcha salbiy tomonlarini ochib bergan, dars metodikasining barcha kamchiliklarini ko‘rsatgan va madrasada o‘tkazilgan ko‘plab darslarning foydasizligini yoritib bergan.

Bu davrda, 1883-yili jadidlarning “Tarjumon” gazetasi sahifalarida birinchi marta maktab masalasi ko‘tarildi. Xalq ta’limi to‘g‘risida qiziqarli va mazmunli hikoyalar nashr etila boshlandi. Sadriddin Ayniy maktab hayoti bilan tanishib, keyinchalik Turkiston o‘lkasining maktab hayotiga to‘liq kirib boradi va darsliklar ham yozadi.

Yozuvchi sifatida S.Ayniy hayotining qizlar maktabida o‘qigan davrini juda qiziqarli tasvirlaydi. U musulmon ayollarining taqdiridan qattiq xavotirda edi. O‘z asarlarida ayollar qiyofasini aks ettirgan holda, ayollar ulushiga tushgan baxt va baxtizliklarning ijtimoiy va madaniy shartlariga tayangan[86].

Maorifparvar va dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxoroda tug‘ilgan. Uning otasi islom huquqshunosligining taniqli olimi bo‘lgan. Uning oilasi Buxoro

---

[84] Хӯҷақулов Б. Адабиёти давраи бедории миллӣ (нимаи дуюми асри 19 ва ибтидои асри XX). Китоби дарсӣ. Тошканд, Нашриёти Илмии давлатии «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2015. – 360 б.

[85] Аҳмади Дониш. Наводир – ул – вақоеъ. Китоби 2. Душанбе, нашриёти «Дониш», 1980, – 340 б.

[86] Шоева Н.А. Проблема женской эмансипации в повестях таджикских писателей. Автореферат дисс.соис.канд. фил.наук. Душанбе – 2017.

ruhoniylari orasida eng ma’lumotli oilalardan biri hisoblangan. Behbudiylar oilasida barcha oila a’zolari irsiy “Qori”, ya’ni Qur’on o‘qiydiganlar edi. Hatto uning ikkita singlisi ham Qur’onni va unga sharhlarni mukammal bilgan va ularning eng kattasi “Qori-begim” - Qur’on o‘qigan ayol deb nomlanish sharafiga muyassar bo‘lgan[87].

1899-yilda ijodiy faoliyatini boshlashdan oldin Behbudiy Haj ziyoratiga bordi va 1903-1904-yillarda Sankt-Peterburg, Moskva, Qazon, Orenburg, Qrim, Turkiyaga tashrif buyurdi. Keyinchalik u o‘zining barcha taassurotlari va xotiralarini “Oina” gazetasida e’lon qiladi. Arxitektura, iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi barcha ko‘rgan narsalaridan tashqari u ushbu mamlakatlardagi ayollarning mavqeiga e’tibor beradi. U o‘zi ko‘rgan taraqqiyotni va unda kuzatilgan salbiy tomonlarni tahlil qiladi. Tez-tez mahalliy gazetalar sahifalarida ayollar uchun ta’limning ahamiyati to‘g‘risida gapirib, barcha mablag‘larni ta’lim uchun sarflashga chaqiradi. U qizlar uchun ta’lim o‘g‘il bolalarnikidan kam emas deb hisoblagan.

Behbudiy ayollarning shaxsiyatini tan olishga e’tibor berib, ayollar eng yuksak hurmatga loyiqligini ta’kidlab yozgan edi: “Ayol bu insoniyat bilan bog‘liq shaxsdir. Ayol mutafakkirlarni dunyoga keltiradi, tarbiyalaydi va buyuk shaxs darajasiga yetkazadi. Ayollar eng yuksak ehtiromga sazovordir. Ularga erkinlik berish, ta’lim olish imkoniyatini berish kerak va buning uchun ularni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kerak. Shariat ayollarga bilim olishlarini taqiqlamaydi, aksincha, ularni qattiq qo‘llab-quvvatlaydi”

Ta’kidlaganimizdek, XVIII-asrning boshlaridanoq podshoh Rossiyasi birinchi marta Rossiya imperiyasining Samara viloyatida va ayniqsa O‘rta Osiyoda tabiiy resurslarga boy yerlarning iqtisodiy foydalari to‘g‘risida gapira boshladi.

1787-yildayoq podsho Rossiyasi qozoq qabilalarining ayrim qismlariga birinchi marta Uraldan o‘tib, Volga bo‘yida yurishga ruxsat berdi. Keyinchalik, boshqa yerlarni bosib olish sharoitlarini o‘rganish uchun O‘rta Osiyoga kazak polklari, geograflar, topograflar, tarixchilar va boshqa olimlar yuborildi. 1789 yilda Omsk shahrida qozoq zodagonlari farzandlari uchun birinchi "Osiyo maktabi" tashkil etildi. Bu holat rus maktablarining Rossiyadan tashqarida ham tarqalishiga yo‘l ochdi.

Imperator Yekaterina II hokimiyatga kelguniga qadar Rossiyada ayollarning ta’limiga jiddiy ahamiyat berilmagan. 1764-yilda birinchi bo‘lib har ikki jinsdagi yoshlarni o‘qitish uchun Bosh muassasa tashkil etildi. Smolniyda dvoryanlar qizlari uchun “Zodagon qizlar instituti” (1765) va unin qoshida meshanlar qizlari uchun maktab ochildi[88].

Chor Rossiyasining missionerlik va ma’rifatchilik strategiyasining asosiy maqsadi joylarda mahalliy aholini ruslashtirish va assimilyatsiya qilish edi. Bu borada, muhim qarorlardan biri rus maktablari va gimnaziyalariga “ayniqsa mahalliy millat vakillaridan” bolalarni jalb qilish edi. Chor Rossiyasining Xalq

[87] Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2 – х томах. Феномен джадидизма. II. Ташкент «Узбекистан», 2009. – 170 б.

[88] Аминова Л.Я. История женского образования в Башкирии. Вторая половина XIX – начало XX века: Монография, – Уфа: РИО РУНМЦ МО РБ, 2005. – 186 б.

ta’limi vazirligi 1859-yil 5-martda barcha sinf bolalariga (7 yoshdan 14 yoshgacha) 1-sonli Fortda Sirdaryo yo‘nalishidagi birinchi maktablarning dasturini tasdiqladi. Qabul qilingan bolalar soni 56 kishini [33 o‘g‘il va 23 qiz] tashkil etdi, shuning uchun ikkala jins vakillari uchun 50 kishilik maktab ochilishi kerak edi.

Rossiyalik muhojirlar ixcham yashagan joylarda erkaklar maktablaridan alohida bo‘lgan mustaqil ayollar maktablari paydo bo‘la boshladi. 1861-yil 9-fevralda 1-sonli Fortda (Kazala) ruhoniy Aleksandr Gavrilovich Pobedonossev ayollar maktabini ochdi, unda 13 qiz tahsil olgan. Ularning birinchi o‘qituvchisi Pobedonossevning o‘z qarindoshi Kiryakova edi[89].

1865-yilda chor Rossiyasi Orenburg orqali Chimkentni, 1867-yil iyulda Sirdaryo viloyatini, so‘ngra hozirgi O‘zbekiston va Qozog‘istonning Semirechensk viloyatini qo‘shib olib, shu tariqa Toshkent shahridagi ma’muriy markaz bilan Turkiston general-gubernatorligining poydevorini qo‘ydi. Shakllanishning oxiriga kelib “Turkiston o‘lkasi shimolda Ural, To‘rg‘ay, Akmola va Semipalatinsk viloyatlari bilan, janubda - Eron va Afg‘oniston bilan; Sharqda - Xitoy bilan, G‘arbda - Kaspiy dengizi bilan chegaradosh bo‘ldi[90].” O‘sha vaqtdan boshlab Eron, Afg‘oniston va Hindistondan ajralib, Turkiston mintaqasida fors yoki tojik tilida so‘zlashadigan mahalliy aholining faqat bir qismi qoldi. Shuningdek, fors yoki tojik tili qozoqlar, qirg‘izlar, o‘zbeklar va turkmanlarning turkiy lahjalarida so‘zlashadigan ma’rifatchilik harakati vakilari orasida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.

Rossiya hukumati oldida tub xalqlarni shosholinch ruslash-tirish va ularning rus xalqiga qo‘shilishi vazifasi turardi. Qisqa vaqt ichida mahalliy millat bolalarining ishtirokini inobatga olgan holda maktablarda, gimnaziyalarda va kollejlarda bolalarni o‘qitish dasturini tuzish kerak edi. Rossiyaning haqiqiy niyatlari to‘g‘risida birinchi hujjat 1870-yil mart oyida "Rossiyada yashovchi chet elliklarning ta’lim olish choralari to‘g‘risida" nashr etilgan. Keyinchalik, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi butun siyosati ushbu tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan edi.

O‘rta Osiyo xalqlarining mavjud bo‘lgan musulmon an’analariga ko‘ra, o‘g‘il va qiz bolalarning maktabda birga o‘qishlari Qur’onda belgilangan va shariat qonunlari bilan qat’iyan taqiqlangan edi. Ammo rus ko‘chmanchilarining mafkuraviy ishlardagi jiddiy sa’y-harakatlari tufayli asta-sekin ta’lim masalalarida erkak va ayol ta’limi tushunchalarining o‘zaro yaqinlashishi tendensiyasi kuzatila boshlandi.

Kaufman musulmon ta’limiga qarshi emas edi. U an’anaviy diniy maktablarning faoliyatiga aralashmagan va mahalliy maktabni majburan bekor qilishga qarshi bo‘lgan. Kaufman “mahalliy” yoshlar o‘zlari rus tipidagi ta’lim muassasalariga kelishini orzu qilar edi va “faqat xalq ta’limi mintaqani ruhan zabt etishga qodir” deb hisoblar edi.

---

[89] Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865 – 1917 гг). – Ташкент, «Фан», 1966. – 124 б.

[90] Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркистан в начале XX века: связи – отношения – влияние. Ташкент, Akademnashr, 2011. – 384 б.

1867-yilga kelib general-gubernator K.P.Kaufman Rossiyaning bosib olingan hududlarida xalq ta’limi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Bu ishda Rossiyaning taniqli fan va madaniyat namoyandalari Nalivkin, Ostroumov, Krachkovskiy, Grameniskiy, Oshanin, Novikov, Sichev, Vasilev va boshqalar qatnashgan. Ayniqsa, rus o‘qituvchilarining optimizmi va g‘ayratini alohida ta’kidlash kerak. Masalan, Iskander deb nomlangan qishloqlardan birida rossiyalik mehmon Avgust Petrovich Kalinin maktab yaratib, bolalarga dars berishga qaror qildi, ammo mahalliy dehqonlar shunchalik kambag‘al ediki, hatto uni boqishga qiynalishgan.

1877-yil yanvarga kelib Turkiston o‘lkasining 11 ta rus-tuzem maktablarida 154 nafar mahalliy o‘g‘il va 5 qiz, quyi o‘quv yurtlarida esa 154 nafar mahalliy aholi ulardan 2 nafar qiz tahsil olishgan. O‘quvchilar soni 1896-yilda ko‘paygan. Shunday qilib, 1896-yilga kelib mahalliy o‘quvchi o‘g‘il bolalarning umumiy soni 824 nafarga, qizlar esa 14 taga, quyi ta’lim muassasalarida mahalliy o‘g‘il bolalar soni 803 kishini tashkil etib shundan 6 nafari qizlar bo‘lgan[91].

Nihoyat, 1884-yilga kelib, g‘oya muallifi bo‘lgan taniqli sharqshunos-tilshunos V.V. Radlov mahalliy aholi bilan ishlash dasturi to‘liq ishlab chiqildi va unga ko‘ra, birinchi rus-mahalliy maktab ochildi. 1884-yil 19-dekabrda boy fuqaro, sart (tojik) Sayid-Azimning o‘g‘li Sayid-G‘ani uyida mahalliy bolalar uchun yangi maktab yoki cherkov maktabi ochildi. “Maktab muhitidan faqat doska, rus alifbosi va daftarlaridan tashqari ruscha hamma narsa chiqarib tashlandi,. Talabalar uchun polga kurpacha (paxtali ko‘rpa) tushab, ular kitoblarni musulmon maktablarida bo‘lgani kabi qo‘llarida ushlab turishgan.” Tojik va o‘zbek tillarini bilgan V.P.Nalivkin rus tili o‘qituvchisi etib tayinlandi..

V.V.Bartoldning so‘zlariga ko‘ra: “Maktab Yevropaning turmush tarzini qisman o‘zlashtirgan boy sartning uyida ochilganiga qaramay, g‘ayritabiiy atmosfera bilan mahalliy aholini xijolat qilmaslik uchun, unga ataylab hech qanday sinf mebellari joylashtirilmagan.”

Bunday qaror ruhoniylarning e’tiborini maktabning haddan tashqari yevropalashgan muhitiga jalb qilmaslik uchun zarur bo‘lgan. Shuningdek, bunday maktablar diniy fikrlovchi ommaning hamda asta-sekin o‘z mavqeini yuqotayotgan diniy ruhoniylarning hujumlari ob’yekti bo‘lib qolishi mumkin edi. Chunki, hokimiyatni saqlab qolish uchun o‘z xizmatchilariga katta vakolatlarni berganlar asosan ruhoniylar edi.

Rus-mahalliy maktablar Yevropa tipidagi birinchi maktablar bo‘lib, ularda O‘rta Osiyo hududida yashovchi milliy ozchiliklar vakillari dunyoviy ta’lim bilan birinchi tanishdilar. Aynan rus-mahalliy maktablarining joriy etilishi bilan "inqilobgacha bo‘lgan O‘rta Osiyoda nafaqat qo‘shma ta’lim, balki hatto yaqin qarindoshlik yoki nikohda bo‘lmagan erkaklar va ayollar o‘rtasida umumiy stolda uchrashuvlar ham mumkin emas, deb hisoblangan" bir paytda, ayollar va erkaklar uchun birgalikdagi ta’lim bosqichi boshlandi.

[91] Сафаралиев Б.Б. Народное образование как показатель социокультурной ситуации в истории среднеазиатского общества. Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2011/2 (26).

Maktablar uchun o‘quv dasturining takomillashtirilishi va darsliklarning tuzilishi bilan ta’lim maktablarini malakali o‘qituvchilar bilan ta’minlash va to‘ldirish masalasi kun tartibidan o‘rin oldi. O‘qituvchilarining yetishmasligi hamda Rossiyadan kelgan o‘qituvchilarning mahalliy tillarni bilmasligi belgilangan maqsad – Turkiston o‘lkasi xalqlarini ruslashtirishga erishishni qiyinlashtirar edi. Shunga qaramay, bir necha o‘n yilliklar davomida Turkiston general-gebernatorligida rus maktablari, kollejlari va gimnaziyalari allaqachon ish boshladi. Ruslarga tashrif buyurish uchun cherkov maktablari, gimnaziya va kollejlar soni ko‘paydi. Bunday maktablarga mahalliy aholini jalb qilish ham rag‘batlantirildi. Asta-sekin maktabga mahalliy millatlar qizlari ham jalb qilindi.

Turkiston o‘lkasi iqtisodiyotini ko‘tarish uchun eng qisqa vaqt ichida rus tilini biladigan va rus tilida gaplasha oladigan kadrlar tayyorlash zarur edi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida mafkuraviy ishlarni to‘g‘ri yo‘naltirish kerak edi. Rossiya Xalq ta’limi vazirligi oldida Turkiston o‘lkasining mahalliy aholisini rus-mahalliy maktablar, kollejlar va gimnaziyalarda o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ma’rifatli ziyolilar asosiy o‘qituvchi kuchga aylanishi kerak edi. Ushbu muammoni tezroq hal qilishda Rossiyaning taniqli sharqshunoslari, tarixchilari, o‘qituvchilari va ma’rifatchilari jalb qilindi.

1867-yil iyulda Turkiston viloyati mustaqil Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi. Rasmiy hukumat oldida maktab-larning holatini yaxshilab o‘rganib, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun tegishli choralarni ko‘rishi vazifasi turar edi.

Rus o‘qituvchisi va ma’rifatchi V.P.Nalivkin rafiqasi Mariya Vladimirovna Nalivkina bilan birgalikda mahalliy tillarni va shevalarni yaxshi bilishlari tufayli kelajakda Turkiston o‘lkasi xalq ta’limini rivojlantirishga va o‘lka xalqlari tarixi va hayotini o‘rganishda ulkan hissa qo‘shdilar. V.P.Nalivkin Toshkentdagi birinchi rus-tuzem maktabining birinchi o‘qituvchi-laridan edi. Nalivkinlar tashqi ko‘rinish, kiyim-kechak va til bilan mahalliy odamlardan farq qilmasdan, odamlar hayotiga kirib borishgan edilar. Ular birgalikda O‘rta Osiyoning urf-odatlari, tillari va madaniyatini o‘rgandilar. Tojik va o‘zbek tillarini mukammal biladigan Mariya Vladimirovna, hech qanday begona kishi kirolmaydigan jamiyatning ayollar olami bilan bemalol muloqot qila olardi. Ularning birgalikdagi izlanishlari natijasi 1888 yilda Qozonda nashr etilgan “Farg‘onaning muqim mahalliy aholisi ayolining hayotidan ocherk” (“Ocherk byta jenщiny osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergany”) kitobi bo‘ldi. Kitobda Farg‘ona vodiysidagi ayollar hayoti, urf-odatlari va madaniyati batafsil bayon etilgan.

Birinchi rus-mahalliy maktabining tashkilotchisi sifatida, birinchi kunlardanoq V. Nalivkin ishtiyoq bilan ishlay boshladi, keyinchalik maktab ishlari sohasidagi eng faol shaxslardan biriga aylandi. U davlat tomonidan qo‘yilgan maqsadlarga tezkorlik bilan erishish uchun madrasaning ta’lim hayotini isloh qilishni va arab grammatikasi bo‘yicha darslik tuzishni, musulmon ilohiyoti va huquqi bo‘yicha kerakli qo‘llanmalarni o‘zbek tiliga tarjima qilishni taklif qildi. Ammo o‘sha davrda uning takliflari ma’qullanmagan edi.

U o‘zbek va fors tillarini mukammal bilganligi bois, birinchi marta Turkiston o‘qituvchilar seminariyasida dars bergan. Turkiston aholisi orasida rus tili va rus

madaniyatini yoyish muhimligini anglagan holda, u ruslar va mahalliy aholining intellektual jihatdan bosqichma-bosqich yaqinlashishi, viloyatning barcha hudud-larida rus va mahalliy o‘qituvchisi bo‘lgan maxsus boshlang‘ich maktablarni bosqichma-bosqich ochilishi haqida ko‘p fikr bildirar edi. 1886 yilda u rus-tuzem maktablari uchun rus tilini o‘rganish bo‘yicha "Turkiston o‘lkasi muqim aholisining rus-musulmon maktablari uchun alifbo" darsligini tuzdi. Keyinchalik u maktab o‘quv dasturini geografiya, Rossiya tarixi, Qo‘qon xonligi tarixi, rus-fors lug‘ati va o‘qituvchilar seminariyasi uchun ocherklar bilan to‘ldirdi.

Mashhur o‘qituvchi N.I.Ilminskiyga Rossiyaning sharqiy chekkalarida yashagan musulmon, aholisi uchun chet el ta’lim tizimini yaratish vazifasi yuklatildi[92]. Shuningdek, bu o‘qituvchiga rus va musulmon maktablarini birlashtira oladigan dunyoviy maktabni yaratish vazifasi topshirildi.

1870-yilda Ilminskiy tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida “Rossiyada istiqomat qiluvchi chet elliklarni o‘qitish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida qoidalar” qabul qilindi, uning afzalliklaridan biri “chet elliklarni” o‘z ona tili asosida o‘qitish edi. Chet elliklar orasida bu sof rus ta’limi doktrinasi o‘zining nomuvofiqligini ko‘rsatgan bo‘lsa-da, u gruzin va qozoq maktablarida sinovdan o‘tkazilgandan so‘ng, Turkistonda bu jarayon to‘xtatilmadi. Ruslar va “chet eliklar”ning birgalikdagi mashg‘ulotlari ularni bir-biriga yaqinlashtiradi va tez assimilyatsiya qiladi deb taxmin qilingan edi.

Qozoq tilidagi rus alifbosi bo‘yicha bir necha muvaffaqiyatli tajribalardan so‘ng Aleksandr II «tatar tili va arab alifbosi o‘rniga qozoq tilidan rus harflari bilan foydalanishga ruxsat berdi. Shunday qilib, Rossiyada birinchi marta qozoq maktablari uchun rus alifbosining poydevori yaratildi, keyinchalik bu Turkiston o‘lkasidagi barcha xalqlar uchun ham asos bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik general-gubernator Chernyaev dasturga "o‘zbek va fors" tillarini kiritishni taklif qildi.

Rus alifbosini joriy etish boshlanishi mahalliy aholi uchun oson o‘rganiladigan darsliklarni yozishga turtki berdi. Rus-mahalliy maktablar uchun birinchi darsliklarni S.M. Grameniskiy ishlab chiqdi. Uning darsliklari uslubiy nuqtai nazardan eng qulay deb hisoblandi, chunki ularda she’riyat va nasr, taniqli rus yozuvchilarining ertaklari, Rossiya haqidagi geografik ma’lumotlar, tabiatshunoslik bo‘yicha boshlang‘ich ma’lumotlar mavjud edi. Grameniskiyning uchta kitobi haqida gap ketmoqda: “O‘qish uchun birinchi kitob” – chet el maktablarida rus tilini o‘qitish bo‘yicha qo‘llanma, “O‘qish uchun ikkinchi kitob” va “O‘qish uchun uchinchi kitob”. Rus tili bo‘yicha darsliklardan tashqari, u O‘rta Osiyoning mahalliy aholisi tomonidan rus tilini o‘rganishga yo‘l ochib bergan “Boshlang‘ich arifmetika” (1891), “Arifmetikani boshlang‘ich o‘qitish uchun masalalar va misollar to‘plami” (1892), ga muallif edi.

Ilminskiy tajribasida ruscha harflar bilan darsliklar tuzish taklif qilingan bo‘lsa-da, rus-tuzem maktablarda hali arab va fors tillarida tuzilgan eski darsliklar

[92] Ильминский Н.И. Некоторые сведения о его деятельности и о последних днях его жизни. Казань, 1892. – 135 б.

mavjud bo‘lib, bu ta’lim jarayonini susaytirar edi. Bolalar bir vaqtning o‘zida uchta rus, arab va fors tillarining grammatikasi asoslarini o‘rganishlari kerak edi[93].

Ushbu masala bo‘yicha Turkiston o‘lkasidagi ta’lim holatini o‘rganayotgan o‘qituvchilar o‘rtasida bahs-munozaralar kelib chiqqan bo‘lsa-da, Grameniskiy rus transkripsiyasini joriy etish mahalliy va rus savodxonligini o‘qitish muvaffaqiyatiga zararli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlar edi.

Shunday qilib, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘qigan Turkiston o‘lkasining barcha rus-tuzem maktablari va kollejlarida o‘quv dasturi quyidagi fanlardan iborat edi:

1. Alifbodan boshlanadigan savodxonlik asoslari.
2. Rus tili va o‘qish majburiy fan sifatida.
3. Arifmetika
4. Dinshunoslik asoslari - xristianlar va musulmonlar uchun alohida.
5. Tabiatshunoslik
6. Geografiya
7. Rossiya tarixi, keyinchalik Turkiston tarixi.

Mahalliy maktablardan farqli o‘laroq rus-tuzem maktablarida darslar aniq belgilangan dasturlar bo‘yicha olib borilar edi, darslar belgilangan dars davomiyligi bilan jadval bo‘yicha o‘tkazilar edi, o‘quv yili keyingi yilning 1 avgustidan 1 iyungacha davom etardi. Asta-sekin maktablarda qat’iy intizom bilan birgalikda sinf xonalari va o‘quv qurollari o‘zgartirildi. O‘quvchilar maktabga mato yoki teridan tikilgan sumkalar, siyoh va pat bilan borishadi. Ular daftarlardan va rangli rasmli kitoblardan foydalanardilar.

Barcha rus-tuzem maktablar uchun yagona dasturni ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiya tashkil qilindi. Ushbu tuzilgan dasturning mazmuniga ko‘ra har bir o‘quv yilida musulmonlik savodxonligi darsligini o‘rganish ko‘zda tutilgan edi. Masalan, birinchi o‘quv yilining darsligi “Ustodi Avval” muallifi Saidrasul Xo‘ja edi, ikkinchi yilda ham xuddi shu darslikdan foydalangan holda o‘qishni davom ettirardilar, shuningdek “Qur’on” dan 50 ta surani o‘qirdilar. O‘qishning uchinchi yili uchun A.Kalinin “Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablar uchun xrestomatiya” tuzdi, shuningdek, “Qur’on” ning 17 surasini qo‘shdi. To‘rtinchi yili o‘quvchilar musulmonlar Tosh-Xo‘ja-Ishon ta’limotining tafsir kursini o‘tab, arifmetikani o‘rganardilar va “Qur’on” ni o‘rganishni yakuniga yetkazardilar. Keyinchalik katta yutuqqa erishgan mahalliy ziyolilar maktablar uchun o‘zlarining eksperimental darsliklarini tuzdilar.

Chor Rossiyasi boy resurs bazasi sanalmish Turkiston o‘lkasida iloji boricha tezroq mahalliy ishchilar va davlat xizmatchilarini tayyorlashga umid bog‘lagan edi. Imperiyaning muvaffaqiyatli siyosati aholining, asosan maktablarning ta’lim bazasini oshirishga qaratilgan edi. O‘lkaning barcha hududlarida rus-tuzem maktablari ochilib faoliyat boshladi.

1886-yilda chor Rossiyasi Davlat Kengashining "Turkiston o‘lkasida boshlang‘ich xalq ta’limi tarkibidagi ba’zi o‘zgarishlar to‘g‘risida" qarori chiqdi. Ushbu hujjat Turkiston general-gubernatorligi hududidagi rus-tuzem

[93] Убайдуллаев Н.К. История народного образования Таджикистана второй половины XIX – начала XX вв., Дисс. соис.канд. ист.наук. Душанбе, 2003.

maktablarining qonuniy tasdiqlanishini belgiladi va 1917-yilgacha amal qildi. 1894-yili Buxoroda, 1895-yili Xujandda shu kabi maktablar ochildi. 1895-yili Turkiston o‘lkasida rus tilidagi 23 maktab faoliyat yuritgan. 1908-yili allaqachon 126 ta maktab ishlagan, ularda 6213 o‘quvchi tahsil olgan. Rus-tuzem maktablari tojik va o‘zbek aholisi farzandlarini birlashtirgan. O‘qituvchilarning qaysi tilni bilishlariga ko‘ra, ushbu tillarning birida bolalarga darslar o‘tkazilar edi.

Statistika tahliliga ko‘ra 1896-yil 1-yanvar holatiga Turkiston o‘lkasida 1 ta ayollar gimnaziyasi, 11 ta ayollar cherkov maktabi, 45 ta har ikki jinsdagi bolalarni birgalikda o‘qitish uchun maktablar va 28 ta rus-tuzem maktablari va kollejlari mavjud bo‘lgan. 1896-yil 1 yanvarga qadar Toshkent shahridagi boshlang‘ich umumta’lim maktablariga 811 bola qamrab olingan bo‘lib, shundan 283 nafari qizlar edi.

Ko‘proq rus bolalari bilan birga o‘qigan va birga yashagan maktab-internatlarning mahalliy o‘quvchilari samarali o‘qiganlar. Chunki ular yaxshi rus o‘qituvchilarining nazorati va rahbarligida edilar.

1900-yili butun Turkiston o‘lkasida qizlar uchun maktablar odamlar tomonidan ehtiyotkorlik bilan, lekin asosan ma’qullab qabul qilindi. Texnologik yangiliklarni ma’qullagan taniqli madaniyat homiysi – Xiva xoni Muhammad Rahim (Feruz) yordamida 1906-yili Urganchda qizlar uchun maktab ochildi[94].

General-gubernatorlik tashkil etilishi bilan Rossiyadan kelgan ruslar va musulmonlar oqimi asta-sekin o‘sishni boshladi. Muhojirlar soni juda ko‘paygan 1880 yildan boshlab yangi aholi punktlari shakllana boshladi.Tashrif buyurganlarning aksariyati mahalliy aholini o‘qitishda qatnashishni, xususan, xalq ta’limi tizimini rivojlantirishga intilishlarini istashdi.

Ta’lim tizimini takomillashtirish va mahalliy musulmon maktablarida dunyoviy fanlarni o‘rganish bo‘yicha yangi o‘quv dasturini bosqichma-bosqich joriy yetish maqsadida mavjud musulmon maktablari alohida nazoratga olindi. Rossiya hukumati 1875-yilda “Turkistonning barcha diniy maktablarini o‘lkaning ta’lim muassasalari ma’muriyatiga bo‘ysundirish to‘g‘risida” qonun chiqargan.

Keyinchalik hamma joyda rus-tuzem maktablari ochila boshladi. Ammo Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablariga ayollarni jalb qilish qiyin muammolarga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun bu masalaga katta ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish taqozo etilardi. Turkiston o‘lkasi uchun ilg‘or yangilik shundan iborat ediki, rus-mahalliy maktablarning ta’siri ostida va unga parallel ravishda savodli ayollar katta qizlar uchun maktablar ochdilar. Bunday maktablar rus-tuzem maktablaridan ajralib faoliyat yuritardi. Maktabni tugatgandan so‘ng, qizlar o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishga kirishar edi.

Chor Rossiyasi o‘z maqsadlariga erishishi uchun rus musulmon ayollarining Turkiston o‘lkasining ayollari hayotiga kirib, ularni bilim olish va rus tilini o‘rganishga yo‘naltirishlari muhim edi. Turkiston o‘lkasida ayollar ta’lim dasturi uchta yo‘nalishda amalga oshirilgan edi: yangi rus-tuzem maktablari va ayollar

[94] Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2 – х томах. Феномен джадидизма. II. Ташкент «Узбекистан», 2009. – 170 б.

gimnaziyalari, shuningdek, dunyoviy yo‘nalishdagi mavjud an’anaviy maktablarda.

Rus qizlari bilan birgalikda maktab va kollejlarga o‘qishga kiradigan qizlar soni asta-sekin o‘sib bordi. Ayollar uchun gimnaziyalar paydo bo‘ldi, bu “shubhasiz O‘rta Osiyoda ayollar ta’limining shakllanishida nisbatan ilg‘or hodisa” bo‘ldi va “ayollar gimnaziyalari ayollar va erkaklar o‘rtasida tenglikni o‘rnatish uchun kurashda katta ahamiyat kasb etardi[95].”

“1901-yil 5-sentyabrda Toshkentda Maryinskiy ayollar maktabi ochildi. Dastlab ikkita sinf bor edi, 1913-yildan – to‘rtta oddiy va 1 ta tayyorgarlik sinfi ochilar edi. Maktab qizlarga umumiy boshlang‘ich ta’lim berishni maqsad qilgan. Bitirgandan so‘ng, uning shogirdlari ayollar gimnaziyasiga kirish huquqiga ega edilar. Qizlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan edi. Ular asosiy kutubxonadan, o‘quv qo‘llanmalaridan va boshqa o‘quv materiallaridan foydalanganlar. Ushbu maktabni bitirgan qizlar chuqur bilimlari bilan ajralib turardi.

Ko‘pincha maktablar o‘g‘il va qiz bolalar uchun alohida ochilgan. 1876-yil 10-sentyabrda o‘lkaning ta’lim muassasalari boshlig‘i Toshkentda tayyorgarlik, birinchi, ikkinchi va uchinchi sinflar tarkibida ayollar gimnaziyasini ochish to‘g‘risida buyruq chiqardi.

1906-yilga kelib, an’anaviy musulmon maktablari allaqachon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan va rus-tuzem maktablari esa O‘rta Osiyodagi musulmon aholini to‘liq qoniqtirmagan, degan xulosaga kelish mumkin edi. Bundan tashqari, darsliklar, o‘qituvchilarning yetishmasligi, yagona o‘quv dasturining va rus tilini o‘rganish uchun qulay til muhiti yo‘qligi bu maktablarning rivojlanish sur’atini pasaytirdi.

Musulmon o‘qituvchilari va talabalari bo‘lgan xususiy maktablar ko‘proq muvaffaqiyatga erishgan bo‘lishiga qaramay, o‘quv to‘lovlari sababli barcha ham bu maktablarga bormas edi. Qizlar va o‘g‘il bolalar, shuningdek diniy tushunchalar o‘rtasidagi mavjud to‘siq mahalliy aholi bolalarini rus-tuzem maktablaridagi bepul ta’limga keng jalb qilishga imkoniyat bermadi.

Mahalliy musulmonlar uchun kirib kelgan yevropacha ta’lim hamon yot va begona bo‘lib qolgan edi. Aholini rus tilidagi maktablarga jalb qilish jarayoni kadrlar masalasida zudlik bilan o‘zgarishlarni talab qildi. Rus tilini biladigan mahalliy o‘qimishli kadrlarsiz o‘qitish kerakli natijalarga erisha olmadi.

Ayollar bilan ishlash, kadrlar masalasini ayollar orasidan tezda hal qilishni talab qilar edi. Bularning barchasiga qaramay, umuman olganda, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasi aholisi ta’limiga nisbatan olib borgan siyosati ilg‘or ahamiyatga ega edi.

Rus tilini o‘rganish orqali ko‘pchilik birinchi marta Rossiyaning va boshqa ko‘plab Yevropa mamlakatlarining katta yutuqlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Birinchi marta ishchilar va dehqonlarga ishlab chiqarishda ishlash imkoniyati berildi.

Dunyoviy ta’lim olgan oddiy xalq farzandlari keyinchalik O‘rta Osiyoning ilg‘or aholisi va Rossiya amaldorlarining asosini tashkil etdilar. Ayollar esa

[95] Кочаров В.Т. Из истории организации и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865 – 1917 гг). – Ташкент, «Фан», 1966. – 124 б.

o‘zlarining ta’lim olish huquqlari va erkaklar bilan teng ravishda ish joylarini talab qilish masalalarini ko‘tarishni boshladilar.

80-yillarning boshlarida podsho Rossiyasi oldida dolzarb vazifa – rus tilidagi maktablarni mahalliy tillarni biladigan kadrlar bilan ta’minlash vazifasi turar edi. 1893-yil 21-iyundagi Turkiston davlat maktablari inspektorining hisobotida Samarqand viloyatining Xujand shahrida rus-tuzem maktab yo‘qligi va boshqa joylarda bunday maktablarga ehtiyoj katta ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, “ushbu maktabda mavjud bo‘lgan kechki kurslarda, voyaga yetgan mahalliy aholi bilan rus tili darslari noto‘g‘ri va muvaffaqiyatsiz” bo‘lib o‘tayotgani, chunki ushbu maktab o‘qituvchisi “sart tilini bilmasligi” qayd etilgan[96].”

Mahalliy tillarni biladigan xodimlarning yetishmasligi arab grafikasi tushirilgan yeski uslubdagi darsliklardan kirill yozuviga o‘tishni kechiktirdi. Mavjud maktablarning o‘qitish uslublari yangi talablarga javob bermadi. 1905 yilda Toshkentda birinchi ikki sinflik rus-tuzem maktabi ochildi. Ushbu maktabda birinchi marta “Ustad-i avval” (“Birinchi o‘qituvchi”) nomli ovozli usuli bo‘yicha savodxonlikni o‘rgatish uchun Sayidrasul Sayidazizov tomonidan tuzilgan alifbodan foydalanildi va uning davomi sifatida boshqa o‘qituvchi Aliasqar Kalinin tomonidan tuzilgan xrestomatiya foydalanildi.

1903-yilda Saidaxmad Vasliyning “Alifboi zaboni tojik” (Tojik tilining alifbosi) darsligi “Bayon-ul-huruf” (Harflarni izohlash) nomi bilan nashr etildi. Keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Asbobi savod” (Savod o‘qitish asbobi), 1905 yilda Mirsaid Abdusalomning “Xudomo‘zi” (O‘z-o‘zini o‘qitish), 1908-1909-yillarda Xojimuin Shukurullozodaning “Rahnamoi savod” (Savod bo‘yicha qo‘llanma), 1908-Sadriddin Ayniyning “Tahzib-us-sibyon” (Farzandlarni tarbiyalash), 1909-yil Mahmadrasul Rasulining “Rohbari forsi” (Fors rahbari), 1911-yil Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat-ul-atfol” (Bolalar uchun kitob), 1913-yilda Ismatullo Rahmatullozodaning “Rohbari maktab” (Maktab rahbari) kitoblari nashr etildi.

1870-yil mart oyida Rossiya Xalq ta’limi vazirligi mahalliy va ruslarning qo‘shma boshlang‘ich ta’limi uchun to‘rt yillik maktab yaratish rejasi amalga oshirish maqsadida "Rossiyada yashovchi chet yelliklarni o‘qitish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida" reja ishlab chiqdi. Ushbu maktablarga o‘qituvchilarni Turkiston o‘qituvchilar seminariyasi tayyorlashi kerak edi. Shu tariqa, mahalliy aholi uchun o‘quv rejalari tuzildi, dasturlari va darsliklari yaratildi, maktablarda ta’lim va tarbiya ishlarining tashkiliy shakllari uslublari ishlab chiqildi.

O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi ilg‘or texnologiyalarning kirib kelshi va savdo-sotiqning o‘sishi, demokratik va ozodlik g‘oyalarining tarqalishi, ilm-fan, madaniyat va ta’limning rivojlanishi uchun imkoniyatlar ochdi. Mamlakat iqtisodiyotini yaxshilashga qaratilgan mafkuraviy ishlar uchun malakali kadrlar tayyorlash hukumatning dolzarb vazifasi bo‘lib qoldi. Qisqa vaqt ichida fabrikalar va zavodlar uchun malakali xodimlarni tayyorlash zarur edi. Xalq ta’limi tizimi

[96] Убайдуллаев Н.К. История народного образования Таджикистана второй половины XIX – начала XX вв., Дисс. соис.канд. ист.наук. Душанбе, 2003.

oldida o‘quv dasturiga rus tilini biladigan va mutaxassislik olgan malakali kadrlar tayyorlashni kiritish zarurati turar edi.

Kaufmanning talab va ko‘rsatmasiga binoan hunarmandchilik yo‘nlishlari bilan maktablar ochish to‘g‘risida buyruq berildi. Ushbu maktablarda ular mahalliy sharoitga ko‘ra keyinchalik ma’lum bir daromadni va’da qilishi mumkin bo‘lgan hunarmandchilik va hunarlarni o‘rgatdilar va o‘rgandilar. Shuningdek, general-gubernator qizlarni ushbu maktablarga jalb qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Kasb-hunar maktablarida qizlarni o‘qitish uchun turli xil kasblar yo‘nalishlari bo‘yicha dasturlar tuzilgan, masalan, kiyim tikish, to‘qish, kashtachilik va boshqalar. Endigina Rossiya imperiyasiga qo‘shilgan, islomning asoslari juda kuchli bo‘lgan Turkistonda qizlarni bunday ta’lim muassasalariga jalb qilish oson bo‘lmagan. Qizlar uchun maktablar juda sekin rivojlandi, ammo ularda ish ancha samarali bo‘ldi. Qizlar asta-sekin oddiy savodxonlikni emas, balki qo‘shimcha daromad olish uchun kerakli kasbni egallashdi. Darslarni tez-tez fors tilini biladigan boshqird va tatar millatiga mansub turkiyzabon musulmon ayollar olib borgan.

General-gubernator K.P.Kaufman Turkiston o‘lkasidagi barcha maktablarning holatini tahlil qilib, bolalarni hunarmandchilik yo‘nalishi va jinsga qarab ajratish mumkin degan xulosaga keldi. Shunday qilib, o‘g‘il bolalarga duradgorlik va temirchilikni o‘rgatish; qizlar ko‘ylak, ayollar ko‘ylaklarini tikish, foydali ovqat tayyorlash va hk. Bu qizlarni nafaqat maktabga jalb qilish, balki ularni har qanday hayotiy zarur bo‘lgan kasbga o‘rgatish uchun birinchi o‘rinishlardan biri edi.

Ikkala jinsdagi bolalar uchun hunarmandchilik darslari bo‘lgan maktablar va kollejlar asta-sekin ochila boshladi. 1869-yil 22-oktyabrda Toshkentda birinchi marta o‘g‘il va qiz bolalarga qo‘shma ta’lim beradigan 4-sinflik gimnaziya ochildi. Maktab dars jadvaliga qizlar uchun igna ishi, o‘g‘il bolalar uchun qadimiy tillar, alifbo bilan yangi boshlanuvchilarga tayyorgarlik mashg‘ulotlari kiritildi. Maktabda kutubxona ochildi, undan kitoblarni Turkiston o‘lkasining boshqa maktablaridan olish mumkin edi. Maktab bolalarni turli yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilishga tayyorlashni o‘z zimmasiga oldi. [89]. Keyinchalik bunday maktablar va gimnaziyalar butun Turkiston mintaqasida ochildi. Samarqandda birinchi rus maktabi 1870-yilda, Toshkentda ushbu tipdagi uch sinfli xalq maktabi 1871-yilda, Chimkent shahrida qizlar bo‘limi bilan xalq maktabi uchun 1875 yilda ochilgan, O‘ra-Teppada 1885-yilda mavjud jami 20 ta maktabda 250 o‘quvchi, 70 qiz tahsil olgan.

General-gubernator F. Kaufman buyrug‘i bilan savodxonlik maktablari ham ochilgan, ularda bolalar hunarmandchilikka o‘rgatilgan. 1867-yilda Toshkentda 25 o‘quvchiga mo‘ljallangan birinchi davlat maktabi, Xujandda 13 talaba uchun cherkov maktabi ochilgan.

Dastlab Qozon dinshunoslik akademiyasining o‘quvchilari O‘rta Osiyodagi bunday maktablarga inspektor sifatida tayinlangan. Rossiyasining sharqiy qismidagi chet elliklar uchun ishlab chiqilgan maxsus qoidalar 1870-yil 26-martda nashr etilgan. Ushbu qoidalar 1906-yil 31-martda qayta nashr etilgan bo‘lib, uning uchinchi bandi bo‘yicha tatarlarining bolalari uchun maxsus boshlang‘ich maktablarning ochilishi ko‘zda tutilgan, unda qizlarning ta’lim olishlari uchun

smenalar tashkil etildi. Ushbu maktablar qoshida mahalliy maktab va madrasalarning rus sinflarini ochish va ularni qizlar uchun maktab xazinasi hisobidan tashkil etish ko‘zda tutilgan edi.

Bunday maktablar asta-sekin Toshkent va Xujand, Samarqand va Farg‘onada ochila boshladi. Masalan, Farg‘ona viloyatining 1902-yildagi statistik hisobotida aytilishicha, 1902-yilda Yangi Marg‘ilonda viloyat shaharlari tomonidan ajratilgan mablag‘ evaziga ayollar gimnaziyasi qurilgan. Gimnaziya davlat xazinasi tomonidan mablag‘ bilan ta’minlangan. 1902-yil o‘quv yilining boshiga kelib o‘quvchilar soni 186 kishini tashkil etgan va 1903-yil 1 yanvarga qadar 157 qiz o‘qigan[97].

Shunday qilib, 1900-yilning boshlaridan boshlab Farg‘ona viloyatining barcha shaharlari - Xo‘jand, O‘ra-Teppa, Farg‘ona va Marg‘ilonda ayollar uchun maktablar ochila boshladi. 1903-yilda 269 rus-tuzem maktablarida 3050 qiz ta’lim olgan.

XIX-asrning boshlarida Rossiya imperiyasi deyarli strategik rejalariga erishdi. Rus xalqining Turkiston mintaqasidagi tub millatlar bilan yaqinlashishining asosiy siyosati yordamida mavjud mafkura ham o‘zgargan edi. Endi aholining asosiy qismi ta’limga intila boshladi. Rossiyaning yetakchi mutaxassislari va o‘qituvchilari maktablar uchun darsliklar yaratdilar, kutubxonalar ochdilar, qizlarning o‘qishlari uchun sharoit muhayyo qildilar. Birinchi hunarmandchilik darslari o‘qishni istaganlarni jalb qila boshladi. Turkiston o‘lkasining iqtisodiyotini yaxshilash uchun xalq ta’limi malakali kadrlar tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Aholisi asosan rus tilida so‘zlashadigan va biladigan Yevropa tipidagi qishloqlar paydo bo‘ldi.

XVIII-asr oxiri va XIX-asrning boshlarida ayollar maktablari-dagi vaziyat deyarli o‘rta asr maktablarining holatidan farq qilmas edi. O‘quv markazlari faqat Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona, Kulob kabi yirik shaharlarda joylashgan edi. Erkak va ayol maktablari katta qishloqlarda ham mavjud edi.

Qizlar avvallari maktabga kamdan-kam hollarda borgan va o‘qish va yozishni o‘rgangan. Bo‘lajak kelinlar uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar ko‘proq uyda olingan. Turkiston o‘lkasidagi ayollarning odob-axloqi va urf-odatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi: 8-9 yoshdan boshlab ona asta-sekin qizini kelajakda bajarishi kerak bo‘lgan ishlarga odatlantira boshlagan. U birinchi navbatda paxta tikishni, paxta tozalashni, yigirishni yoki boshqa oilaviy hunarmandchilik ishlarini qilishni o‘rgangan.

Rivojlantiruvchi asarlarni o‘qish va tushunish qadim zamonlardan buyon juda rivojlangan va zamonaviy oilalar tarbiyasida mashhur bo‘lgan. Oddiy oilalarda bolalar “jumboqlar yechish va topishmoqlar topishni” juda yaxshi ko‘rar edilar, ayniqsa, qish oqshomlarida ertaklarni tinglash va aytib berish an’anaga aylanib qolgan edi.

O‘rta Osiyoda ta’lim tizimining birinchi tadqiqotchilari rus sharqshunoslari va olimlari bo‘lganlar. Ularning ko‘plari uchun mahalliy lahjalarni o‘rganish va

[97] Ежегодник Ферганской области. Том II. Издание Ферганского областного статистического управления. – Новый Маргелан, 1908.

ularning yozilishi juda zerikarli va bir hil bo‘lib tuyulgan edi. Masalan, masalan, Ye.S. Vulfsonning ta’kidlashicha, erkaklar va ayollar maktablaridagi mashg‘ulotlar umumiy qabul qilingan usul bo‘yicha bir xil va zerikarli bo‘lgan. Ta’lim deyarli erkaklar cherkov maktablarida bo‘lgani kabi amalga oshirilgan. V.T.Kocharovga ko‘ra, o‘quvchi yog‘och yoki qalay plitalarga chizgan arab harflari orqali o‘rgatilgan. N.P.Ostroumovning yozishicha, bolalar bu harflarni juda qiyinchilik bilan o‘rganishgan. Ta’lim muvaffaqiyati arab alifbosining o‘ziga xos xususiyatlari bilan murakkab bo‘lgan o‘qish san’atining o‘zlashtirish darajasi bilan baholangan. Zero, bu jarayon matndagi diakritik nuqtalar, zeru zabar belgilari bilan o‘ta murakkab edi. Ushbu nuktalar va belgilar mavjud bo‘lmagan taqdirda, talabadan kuchli e’tibor va tezkor aqlga ega bo‘lish talab qilingan. Ayollar maktablarida qizlarga diniy urflar - namoz o‘qish, tahorat va ibodat qilish o‘rgatilgan.

Aslida maktablarning asosiy vazifasi musulmonlarning diniy burchlarini o‘rganish edi. O‘zini savodli deb bilgan har bir kishining yana bir vazifasi taniqli fors va ba’zi turkiy shoirlarning she’rlarini yod olish edi. Ushbu dastur erkak va ayol maktablari uchun majburiy edi. Shunday qilib, maktablarda to‘liq o‘quv kursi asosan arab-fors alifbosi va xattotlik, arifmetika asoslarini o‘rganishni, so‘ngra an’anaviy kitoblar: “Haftyak”, “Qur’on”, “Chorkitob”, “Maslakulmuttakin” va shoirlar Hofiz, Bedil va Navoiy asarlarini ketma-ket o‘qishni aks ettirgan.

Rus tadqiqotchilari bunday maktablarning ijobiy va shu bilan birga salbiy tavsif berishadi. Masalan, E.Vulfson shunday deb yozadi: "Maktab o‘quvchilari muqaddas kitoblarni o‘qishdan tashqari, xalq orasida katta sharafga ega bo‘lgan forscha oyatlarni yodlashadi". M.Terentev esa, o‘qitish usullarining qoloqligini tanqid qilib, namoz o‘qiyotganda kundalik hayotda zarur bo‘lgan Qur’onning bir necha suralarini yodlab olgani va o‘z ma’lumoti zaxirasini Firdavsiy va Hofizning bir nechta she’rlari bilan boyitib, maktabni tark etishini ta’kidlaydi.

Islom dini qabul qilingan paytdan boshlab (VII asr) o‘zgarishsiz bo‘lgan maktab o‘quv dasturi O‘rta Osiyo aholisini o‘zlarini qondira olmadi. Biroq, keyinchalik Rossiya siyosatining yangi tizimi bilan birga yuzaga kelgan xalq ta’limi markazlashtirilgan boshqaruvining yo‘qligi sababli, mavjud maktablarda dasturlar va maxsus uslublar mavjud emas edi.

Maktabda o‘rganilgan birinchi kitob “Chorkitob” edi. Ko‘pgina tojik maktablarida “Chorkitob” hamda Sharofuddin Buxoriyning “Nomi hak” (Haq nomi), Qozi Azuddinning “Bidon” (Bilgin), Jaloluddin Rumiyning “Muhammad-ul-muslimin”, Fariduddin Attorning “Pandnoma” (Nasihatnoma) kitoblaridan o‘rganilgan[98].

Maktablar mahallalarda, ya’ni bir necha o‘nlab oilalar ixcham yashaydigan joylarda joylashgan. Maktablar aholining barcha qatlamlari uchun qulay bo‘lgan va keng tarqalgan. Erkak maktab o‘quvchilari masjidda yoki qorixonda bo‘lishlari mumkin edi. Erkak maktablaridan farqli o‘laroq, ayollar maktablari faqat xususiy bo‘lib, faqat uyning ayol yarmida ochilgan. Masalan, tog‘li hududlarda, Pomirda, qizlar uchun bunday maktablar deyarli yo‘q edi. Qattiq tog‘li sharoitlar tufayli

[98] Атахонов Т., Лутфуллоев М., Шарифов Ф. Очеркҳои афкори педагогӣ (воситаи таълим). – Душанбе, 2005. – 304 б.

Pomirda savod juda past edi va faqat bir necha badavlat tojiklarning bolalari o‘qigan.

O‘qishdan tashqari, qizlar o‘zlarining Bibi-Otun, Bibi-Xalifa yoki Otun-Bibilari (o‘qituvchi) uchun yuvish, tozalash va pishirish ishlarini bajarganlar. O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati uchun talabalar tomonidan munosib taqdirlangan. O‘qituvchining ishi uchun pul, puldan tashqari ularga turli xil sovg‘alar - sovg‘alar, nonlar, quritilgan mevalar va boshqalar ham berilgan.

Farg‘ona viloyatining oddiy aholisi orasida uzoq vaqt yashagan Nalivkinlar, kattaroq yoshdagi bolalar qanday qilib yosh o‘g‘il yoki qiz bolalarni maktabga olib kelganlarida o‘zlari bilan tortiq olib kelishlarini batafsil bayon qilganlar. [76, 58]. Qizlarning tez-tez ko‘ngil ochishlari qo‘g‘irchoqlar bilan o‘ynash edi. O‘g‘il bolalar va qizlar odatda bolaligidan birga o‘ynashgan, ammo 8-9 yoshga kelib qizlar o‘g‘il bolalar bilan o‘ynashni to‘xtatishgan[99]. Biroq ular faqat do‘stlari bilan o‘ynashadi, tobora ko‘proq qo‘g‘irchoqlar bilan o‘ynashgan. Xuddi shu yoshda qizlar tikuvchilik, paxta va ipni tozalashni o‘rganishni boshlaganlar, iloji bo‘lsa va xohlasa, shu yoshdan boshlab savodxonlik boshlanar edi.

O‘g‘il bolalar maktabda yozgi mavsumdan tashqari, dalada yoki bog‘da ota-onalariga yordam berishdan tashqari, butun bir yil davomida o‘qishgan. Qizlar uchun o‘qish davri o‘g‘il bolalarnikiga qaraganda qisqa bo‘lganligi sababli, qizlar yozda o‘qishni davom ettirishardi.

Boshlang‘ich maktablardan tashqari, qizlarning voyaga yetguniga qadar boshqa ta’lim olish imkoniyati yo‘q edi, xususiy maktablar bundan mustasno. Ikkinchi bosqich - madrasa ayollar uchun mavjud emas edi, chunki u yerda faqat erkaklar o‘qigan. Bunday maktablarning yana bir ijobiy tomoni shundaki, ular ba’zida bu yerda turli kasblar bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishgan. Ular bo‘sh vaqtlarida do‘ppi tikish, suzani va chakan to‘qish, shuningdek chopon tikish bilan shug‘ullanishgan. Chorshanba, payshanba va juma kunlari bolalar odatda dam olishgan. Idi Qurbon, Idi Ramazon bayramlarida ham maktabda dars bo‘lmagan. Shunday qilib, tegishli mashg‘ulotlar bilan yiliga atigi 120 o‘quv kuni bor edi.

Ayollar maktablarida sinf taqsimoti mavjud emas edi. Opa-singillar bir sinfda o‘qishgan, bir-birlariga qoldirilgan darslarni o‘zlashtirishda yordam berishgan. S.Ayniy o‘z xotiralarida ayollar maktablarini juda to‘liq tavsiflaydi, chunki u o‘zi Buxoro ayollar maktabida savodxonlikni o‘rgangan, bu yerda faqat yosh bolalar (odatda 7-8 yoshgacha) kattalar talabiga binoan kirishlari mumkin edi. Erkaklar maktabiga kirish uchun muvaffaqiyatsiz urinishdan so‘ng, otasi uni bibixalifa boshchiligidagi ayollar maktabiga olib boradi. O‘g‘il bolalar maktabidan farqli o‘laroq, bu yerda o‘qish uchun yanada qulay sharoitlar mavjud edi. S.Ayniyning hikoyalariga ko‘ra, bu yerda boshqa majburiy fanlardan tashqari, abjad hisobi ham o‘qitilgan. Savodxonlik bo‘yicha mashg‘ulotlar erta tongdan soat 12 gacha davom etgan, keyin qizlar o‘qishni tugatib, tushlikka o‘tirganlar. Tushlikdan keyin esa o‘qituvchiga kir yuvish va boshqa tozalash ishlarda yordam berilgan.

[99] Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казань, Типография императорского университета, 1886. – 245 б.

Shunday qilib, ayollarning savodxonligini o‘qitish bo‘yicha aniq dastur va metodika mavjud emasligiga qaramay, bunday maktablarda qizlar boshlang‘ich ta’lim olishlari mumkin edi va ularning keyingi o‘sishi ularning iste’dodi va o‘zining shug‘ullanish darajasiga bog‘liq edi. Maktabni tugatganlarning aksariyati keyinchalik o‘qituvchi bo‘lib xususiy maktablar ochdilar, biroq yerda o‘qitish tizimi deyarli o‘zgarishsiz qoldi.

O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi arafasida musulmon qizlar maktablarining ta’lim dasturi haqidagi ma’lumotlar o‘rganil-ganda, O‘rta Osiyoda o‘g‘il va qiz bolalar uchun maktab dasturi deyarli bir xil bo‘lgani va quyidagi fanlardan iborat ekanligini ko‘rish mumkin:

1. Arab-fors alfaviti asoslarini o‘rganish (Alifbe).
2. Muqaddas kitoblarni o‘rganish va talqin qilish (Islomshunoslik).
3. Fors va turkiy shoirlar ijodini o‘rganish (Adabiyot).
4. "Hisob" (Arifmetika).

O‘quv yili odatda yil bo‘yi davom etadi, ammo har kuni emas. Haftaning kunlari quyidagicha taqsimlangan edi: o‘quv kunlari – “tahsil” (shanba, yakshanba, dushanba va seshanba), dam olish kunlari –“ta’til” (chorshanba, payshanba, juma), dam olish kunlari ham o‘rganilgan materialni takrorlash uchun mo‘ljallangan.

Arab-fors alfaviti asoslarini o‘rganish. Ushbu fan eng qiyin maktab fanlaridan biri edi. O‘qitish uch bosqichda o‘tkazilardi. Avvalo, o‘qituvchi yodlash uchun harflarning barcha yozish usullari va ularning nomlarini o‘rgatar edi. Ikkinchi bosqichda bolalar o‘rganilgan harflar yordamida hecalar tuzar edilar. Uchinchi bosqichda so‘zlar allaqachon tuzilgan va o‘qilgan. Maktablarda ko‘pincha maktabni tugatgandan keyin ham kamdan-kam hollarda talaba diktant ostida oddiy iborani yozishi mumkin edi. Imlo texnikasini zeru zabar belgilari murakkablashtirar edi. Ayollar maktablarida ham alfavit asoslari erkaklarnikidek o‘qitilgan[100].

Musulmon maktablarida alfavitni o‘qitish jarayoni bir necha bosqichlarga bo‘lingan. O‘qituvchi planshetda xat yozilishini ko‘rsatib, keyin qismlarga ajratib talaffuz qilgan, chunki arab alifbosidagi bitta harfning yozilishi bir nechta variantlardan iborat edi. Harflarni va ularning odatiy belgilarini (harakat) yodlagandan so‘ng, hissalarda o‘qish bosqichi boshlangan. Uchinchi bosqich so‘zlarni tuzish va ularni o‘qishdan iborat edi. O‘qish abjad usuli bilan birga edi. Ushbu yondashuv diqqatni va mantiqiy fikrlash aloqasini talab qilar edi. Bolalar ko‘pincha Abjad o‘qishni o‘rganishda qiynalishgan. Yozma mashg‘ulotlarni davom ettirish din asoslari va muqaddas kitoblarni o‘rganish bilan birga olib borilgan.

Muqaddas kitoblarni o‘rganish va sharhlash (islomshunoslik). Islom dini asoslarini o‘rgangan birinchi kitob “Haftyak” edi. Ushbu kitobda har bir savodli odam bilishi kerak bo‘lgan Qur’onning eng muhim qismlari keltirilgan. Haftyakni o‘rganish ba’zan 2-3 yil davom etar edi, chunki bolalar arabcha matnni tushunmasdan, Haftyakni mexanik ravishda yodlab olardilar." Haftyakdan keyin

[100] Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. (1865 – 1924 годы). М.: «Издательство Академии педагогических наук РСФСР», 1960. – 512 б.

“Chorkitob”ni o‘rganishga kirishganlar, unda musulmon dinining asoslarini belgilab beruvchi shariatdan fors tilidagi ko‘chirmalar ham guruhlangan edi.

Maktablarda kitob yetarli emas edi. Bitta "Haftyak" kitobi barcha talabalar uchun yagona qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu kitob faqat ustozning (o‘qituvchining) qo‘lida edi. U kitobni o‘z ixtiyori bilan o‘qirdi, kerakli joylarni kichik doskaga yozib qo‘yardi, boshqalar ularni “taxtacha”, “lavh” yoki planshetlariga ko‘chirib olishar edi. To‘liq matnni yodlab bo‘lgach, keyingi bir bobni o‘rganishga kirishardilar.

Ushbu kitoblarni o‘qib, o‘rgangandan so‘ng, yozuvni o‘rganishning ikkinchi bosqichi parallel ravishda boshlangan. Maktub yozish muallifi Alisher Navoiy bo‘lgan “Mufradot” kitobidan o‘rganilgan. She’riy shaklda bitirgan ushbu kitob o‘quvchilarga chiroyli qo‘l yozuvi ahamiyati to‘g‘risida, ya’ni xattotlik, yozuvning mazmuni va uning hayotdagi o‘rni va yozuvni majburiy o‘rganish lozimligi bo‘yicha maslahatlar berilgan edi. “Mufradot” dan keyin “murakkabot” - yozma topshiriqlar berilar edi. Bolalar harflarni bog‘lash va hissalarga bo‘lib mashq qilishgan. Bolalar ko‘pincha bunday mashqlarni bajarishga qiynalishgan. Shuning uchun bu bosqich “murakkabot” deb nomlangan, ya’ni. “Murakkablik”. Bu davr ba’zan ikki yoki uch yilgacha cho‘zilgan. Murakkabot tugagandan so‘ng muqattaot jarayoni boshlangan. “Muqattaot” ni o‘qitish jarayonida yozuvni o‘rganish she’riyat bilan birlashtirildi. So‘z boyligini va boshqa ba’zi bir majburiy bilimlarni olish uchun imlo o‘rganishda muvaffaqiyat qozonish uchun baytlar, ruboiylar va qisqa she’rlarni, ba’zan odamlar va joylarning nomlarini o‘rganganlar.

Fors shoirlari asarlarini o‘rganish. She’riy to‘plamlarni o‘qish qizlar uchun maktabning asosiy mavzusi edi. Darslarda qizlar Hofiz, Sa’diy, Jomiy, Bedil va boshqa shoirlarning fors tilidagi she’rlarini yod olishgan. Ko‘pincha bu she’rlarning syujeti bolalar tushunchasiga moslashtirilmagan. Erkaklar maktablaridan farqli o‘laroq, ayollar maktablari Islom asoslarini o‘rganishda va Qur’on o‘qishdan ko‘ra ko‘proq adabiyotni o‘rganish bilan shug‘ullanishgan.

Yozuvning barcha uch bosqichlarini o‘rganib, adabiyot va Qur’onni o‘rganish bilan birgalikda o‘g‘il yoki qiz bolalar allaqachon savodli deb hisoblangan. Talabalarning savodxonligi Qur’on surasi, yetakchi shoirlarning baytlari va xattotlik ilmi bo‘yicha sinovdan o‘tkazilar edi. Iste’dodli qizlar she’rlar yozardilar, bu talaba bilimining eng yaxshi ko‘rsatkichi deb hisoblandi.

“Hisob” (Arifmetika). Ushbu fan arifmetikaning to‘rtta qoidalarini o‘rganish va tushunishdan iborat edi, biroq, ayollar maktablarida bu mavzuga kam e’tibor berilar edi. Savodli o‘qituvchilar bo‘lgan ba’zi ayollar maktablarida “abjad” hisoblash asoslari o‘rgatilgan. Abjad - arabcha harflardan foydalangan holda raqamlarni belgilashning bir turi. Ya’ni, arab alifbosidagi har bir harf ma’lum bir son qiymatiga ega. “Abjad” so‘zining o‘zi arab alifbosining dastlabki to‘rt harfidan (“alif”, “be”, “jim” va “dol”) tashkil topgan. Ushbu raqamlar tizimida 1 dan 1000 gacha bo‘lgan barcha raqamlarni 28 ta arab harflar birikmasi yordamida ifodalanishi mumkin. Barcha 28 ta harflarning ketma-ketligini yodlashni osonlashtirish uchun ular 8 ta so‘zga birlashtirildi: abjad (4 ta harf), havvaz (3 ta harf), hutti (3 ta harf), kalaman (4 ta harf), sa’fas (4 ta harf), qarashat (4 ta harf), saxiz (3 ta harf) va zazig‘ (3 ta harf).

O‘rta asr maktablarida abjad savodxonlikni o‘qitishning uchinchi bosqichiga kiritilgan va abjad o‘qishga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni o‘qishdan iborat bo‘lgan, ya’ni xatlarni o‘qish abjad (harflarning son ma’nosi) bilan boshlangan.

Abjad sharq adabiyotining o‘ziga xos hodisasidir va o‘rta asr Sharqida keng tarqalgan, chunki o‘sha davrdagi ilm-fan she’riyat bilan chambarchas bog‘liq edi. O‘rta Osiyoning deyarli barcha olimlari har tomonlama qiziqish va barcha sohalarda: matematikadan va tibbiyotdan geografiya va she’riyatgacha bo‘lgan ajoyib qobiliyatlari bilan ajralib turardi. Shunday qilib, Abu Ali Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Umar Xayyom va boshqa ko‘plab shoirlar va olimlar o‘z fikrlarini shifrlangan abjad harflari bilan ifoda etgan holda she’rlar yozganlar.

Musulmon maktablarining ko‘p asrlik faoliyatida o‘qituvchilar abjad usulidan keng foydalanishgan. Ular nafaqat g‘azallar yoki jumboqlarni o‘zlari yaratganlar, balki talabalarni o‘zlarini abjad iboralarini tuzishga majbur qilganlar va asta-sekin she’riy hikoyalarni qo‘shishga o‘tganlar. Bunday ta’limotlarning kelib chiqishi maktablardan boshlangan va abjad nazariyasi bo‘yicha chuqurroq bilimlar madrasalarda o‘zlashtirilgan.

Ko‘plab she’rlar, hikoyalar, jumboqlarni keltirish mumkinki, u yerda ushbu tizim turli xil arifmetik va boshqa muammolarni hal qilishda keng qo‘llanilgan. Masalan,

Bir turna, bir guruh turnalarga shunday debdi:

- Salom, yuzta turnalar!

Turnalar javob berishibdi:

- Biz yuzta emasmiz, agar biz o‘z sonimizga shuncha son qo‘shsak va yana uning yarimini va yana choragini qo‘shsak, keyin sen ham bizga qo‘shilsang, shunda yuzta bo‘lamiz!

Ko‘p asrlar davomida chistonlar yaratishda shoirlar asosan ikkita she’riy usulni qo‘lladilar: yoki arab alifbosidagi har bir harfning (abjad) raqamli qiymati ishlatilgan yoki oddiy jumboqlarni yaratish usuli. XIX asr shoirasi Jahonxotin Uvaysiy uzoq vaqt davomida qizlarga dars berib, o‘qituvchilik qilgan. Bolalarda aql-idrok va so‘z birikmalariga muhabbatni tarbiyalashga hissa qo‘shgan ko‘p sonli chistonlar (topishmoqlar) va hazillarni o‘z o‘quvchilari uchun u abjad usulida yaratgan.

Maktabda abjadni o‘rganishning asosiy afzalligi mantiqiy fikrlashni rivojlantirish edi. Aslida, bu tizim nihoyatda murakkab bo‘lgan va u “maxfiy til” deb nomlangan. U ma’lum g‘oya va tushunchalarni yetkazish uchun adabiy asarlarda keng qo‘llanilgan. Abjadni maktabda o‘qitish o‘qituvchining savodxonligi darajasiga bog‘liq edi.

Mashhur yozuvchi S.Ayniy, erkaklar maktabida o‘qigan, hech qanday bilimni o‘zlashtira olmagan. Otasi uni qizlar maktabiga yuborgan, bu haqda u o‘z xotiralarida shunday yozgan: “Men qizlar maktabida o‘qidim. “Xaftyak”ni tugatdim, Qur’ondan bir necha suralarni o‘rgandim, “Chorkitob”ni o‘qiy boshladim, Xoja Hofizning bir nechta g‘azallarini yodladim, ammo o‘qish va hisoblashni o‘rganma olmadim” .

Uning so‘zlariga ko‘ra, otasi buni har kuni, bir soatdan vaqt ajratib o‘zi bajarishiga to‘g‘ri kelgan. Bir yil o‘tgach, u abjad hisobiga ko‘ra jasorat bilan sanab va she’riy iboralar tuzishi mumkin bo‘ldi.

Maktablarda o‘qituvchilar maxsus, tizimli o‘qitish uslublariga ega emas edilar. Biroq, O‘rta Osiyo Rossiyaga qo‘shilishidan va yangi uslubiy maktablar ochilishidan oldin, abjad savodxonlikni o‘qitishning nisbatan yagona samarali usuli bo‘lib qoldi. Ushbu usul yozuv, adabiyot va arifmetikani bitta bilimga birlashtirdi, bolalarda mantiqiy fikrlash va aql-idrokni yoshligidan rivojlantirdi.

Ayollar maktablari odatda boshlang‘ich ta’lim berardi. Bunday maktablarda ham aniq o‘qitish usullari va dasturlari mavjud emas edi. Yigirmanchi asrning boshlariga qadar ayollar uchun musulmon maktablari faqat konfessional xarakterga ega edi.

Shuningdek, yuqori sinf bolalari uchun xususiy maktablar mavjud bo‘lib, ularda qizlarga turli fanlardan dars berish uchun eng yaxshi o‘qituvchilar jalb qilingan. Bunday maktablarda qizlar falsafa, axloq, tarix, she’riyat, mantiq, matematika va tillar bo‘yicha chuqur bilimlarga ega bo‘lishardi. Ushbu ta’lim davrining o‘ziga xos xususiyati qizlar uchun maktablarning nodavlat rivojlanishi, o‘quv rejalari, metodikalari va ta’lim mazmunining parokandaligi edi.

Maktabda yosh bo‘yicha toifalar bo‘lmaganligi sababli, ushbu fanlarni 6 yoshdan 13-14 yoshgacha bo‘lgan qizlar, o‘g‘il bolalar yesa biroz ko‘proq vaqt davomida o‘rganishgan. Maktabni tugatgandan so‘ng, qizlar odatda Otun-bibi, ya’ni xonim-o‘qituvchi bo‘lishardi. Erkaklar maktablariga qaraganda qizlarga dars bergani uchun ular ko‘proq mukofot olishardi, chunki odatda ayollar maktablariga boy odamlarning qizlari, ayniqsa savdogarlar, borar edilar.

Ko‘pincha Otun-Bibi aholining ayol yarmi o‘rtasida yaxshi foyda keltiradigan diniy va kundalik marosimlarga xizmat qilgan.

Rossiyaga musulmon ayollarning kelishi bilan musulmon maktablarida maktab fanlari ko‘paymoqda, chunki qizlar yuqoridagi fanlarni o‘rganishdan tashqari, dunyoviy fanlarni asta-sekin o‘rganishni boshlaydilar. Shuningdek, ular kesish va tikish, uy-ro‘zg‘or ishlari, ovqat pishirish va hokazo asoslarini o‘rganadilar.

Maktablarning bunday holati O‘rta Osiyoda rus chorizmi kelguniga qadar bo‘lgan. Turkiston o‘lkasi tashkil etilgandan keyin ko‘pgina musulmon oilalar yaxshi hayot izlab bu yerga ko‘chib kelishdi. O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi ruhoniy konfessiya maktablarini, ayniqsa uning birinchi bosqichi - maktablarni tubdan o‘zgartirdi.

XX-asrning boshlarida siyosiy maydonda jadidizm deb nomlangan yangi harakat paydo bo‘ldi. Jadidlar orasida mavjud musulmon maktablarini qayta tashkil etishga va ularga dunyoviy yo‘nalish berishga intilayotgan mahalliy ma’rifatchilik vakillari ham bo‘lgan.

30.8. Jadidchilik harakatida xotin-qizlar ta’limi masalasining yoritilishi

Jadid mutafakkirlarining ijtimoiy, siyosiy, ilmiy qarashlarini o‘rganar ekanmiz, uning har bir davr uchun ahamiyatli jihatlari ko‘p ekanligini tushunib boramiz. Lekin shunga qaramasdan ushbu mutafakkirlar ijodi sobiq ittifoq davrida

deyarli o‘rganilmagan. Chunki bu mavzuda gap ketganda uning javharida milliy o‘zlik, milliy qadriyat, millat g‘ururi kabi xalqni, millatni harakatga keltiruvchi, o‘zligini anglashga yordam beruvchi omillar mavjudligi oshkor bo‘lar edi. Bu esa albatta sovetlar olib borgan siyosatga mutlaqo to‘g‘ri kelmagan.

Mustaqillik xalqimizga ko‘pgina yutuqlar qatorida jadid mutafakkirlarimizning asarlarini o‘qib o‘rganish baxtini ham nasib ayladi, ularning ma’naviy merosidan xalqimiz bahramand bo‘ldi. Adabiyotshunoslar faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar tomonidan ularning badiiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari tadqiq etildi.

Jadid mutafakkirlarining fikricha, mavjud eski uslubdagi ta’lim tizimi Turkiston xalqlarini dunyoning rivojlangan davlatlari xalqlaridan ancha ortda qolishiga sabab bo‘lgan edi. Endi jahonning ilg‘or ilm-fanini egallamasdan turib, dunyo bilan barobar yashab bo‘lmasligini ta’kidlardilar. Uni o‘rganish uchun esa, til bilmoq zarur edi. Ayni paytda o‘zlikni saqlash ham kerak, degan fikrdan yiroq bo‘lmagan edilar. Yana bir tarafdan dinni saqlash ham jamiyat oldida turgan muhim masalalardan biri sifatida talqin qilinardi. Demak, taraqqiy etishi uchun mana shu uch asosni mahkam ushlab, ular o‘rtasidagi muvozatni saqlay bilish lozim edi.

Tarixdan ma’lumki O‘rta Osiyo chorizm qo‘shinlari tomonidan bosib olingandan keyin o‘lkada o‘ziga xos tarixiy-siyosiy vaziyat yuzaga keldi, milliy zulm kuchaydi. Bu zulm birinchi navbatda, madaniyat, fan, san’atga shu bilan birgalikda ijtimoiy va pedagogik fikr hamda turmush tarziga ham ta’sir ko‘rsatdi. O‘lkaga kirib kelgan yevropacha turmush tarzi xalqimizning asriy turmush, urf-odat, an’analari bilan to‘qnashdi[101].

Mana shu sohada ma’lum ziddiyat bilan bir qatorda ayrim yangicha turmush tarziga yaqinlashuv jarayoni ham yuz berdi. Bu voqea va tarixiy hodisa XIX-asrning oxiri XX-boshlarida boshlangan jarayon sifatida rivojlana boshladi. Jadid mutafakkirlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonning iqtisodiy qoloqliklarining sabablari haqida gapirib, uning sababini, turkistonliklarning o‘zida deb biladi. “Ayb jaholatga va maktabsizlikka va ruhoniylarning musohabalarida, diniy va milliy ishlarg‘a diqqat etmaganlarindadur.”

Jadidchilik harakatining xarakterida ularning dasturlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy, ma’naviy kamchilikla-rini tanqid ostiga olib, ularga qarshi kurashga yetakchilik qilishni ko‘rish mumkin. Chunki, ular o‘zlarining oldiga qo‘ygan bosh maqsadlarini amalga oshirish uchun avvalo xalqni tarbiyalash zarurligini vzifa sifatida belgilab olgan edilar. Agar jadidlar harakatining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini umumlashtirib ifoda etadigan bo‘lsak, jadidlar millatni ozodlikka olib chiqish uchun Turkiston xalqlarini erkparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mutaassib din peshvolarini soxta da’vatlaridan ommani muxofaza qilish, turkistonliklarni jahonning boshqa millatlari bilan har jihatdan teng yashay olishlari, jahon madaniyati sivilizatsiyasidan xabardor bo‘lish darajasiga ko‘tarish va nihoyat Turkistonda xotin-qizlar emansipatsiyasiga va

[101] Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. Т.: Фан., 1996 . – 218 б.

feministik o‘zgarishga erishish kabi vazifalarni amalga oshirishni eng muxim va ob’ektiv zarurat deb bildilar.

Mazkur vazifalarni bajarish asnosida butun Turkiston uchun yagona bo‘lgan milliy g‘oyani yaratish va uni amaliyotga tadbiq etish lozim edi. Shu o‘rinda aytish joizki, ushbu sanab o‘tilgan vazifalar tahlil qilinsa, ularning hammasi qaysidir darajada hozirgi davrning ham hayotiy muammolari bo‘lib hisoblanadi. Misol uchun, jadid mutafakkir ayollaridan biri bo‘lgan Anbar Otinning asarlarida ko‘tarilgan masalalarning mohiyati bugun ham ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘rish mumkin. Anbar Otin o‘zining “Qarolar falsafasi” (1910) risolasida jamiyatning axloqiy, siyosiy, ijtimoiy muammolarini tasvirlab bergan. U insonning ma’naviy kamolotini aql, ilm-ma’rifat bilan bog‘laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidani ilgari surgan. Uning asarlarida axloqsizlik botqog‘iga botib borayotgan jamiyat tanqid qilinadi, shariat va tariqat namoyandalarining aynib ketganligi, boylardan insof ko‘tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi.

Shoiraning “Muqimiyga”, “Mingboshi kal” “Omil hajvi”, “Olimjon hoji ta’rifi” kabi she’rlarida ana shu yo‘nalishni ko‘rish mumkin. Tanqidiy badiiy shakldagi bu yo‘nalish “Qarolar falsafasi” risolasida falsafiy tahliliy shakl kasb etadi. “Qarolar falsafasi” asari asosan bir-birining ziddi bo‘lmish ikki muammo – ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bag‘ishlangan. O‘zining zamonasida ijtimoiy adolatsizlik doirasida ayollarning jamiyatdagi pasayib ketgan o‘rni va maqomi ham shoirani tashvishga soladi.

Asar ko‘p o‘rinlarda falsafiy-majoziy talqinlardan iborat. Ayniqsa, uning birinchi faslida, qora va oq ranglarning majoziy hamda botiniy mohiyati o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Qora mehnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tanayu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarning qoraligi ta’kidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: “Ul qaro xalq oftob so‘zanida mehnat qilib, o‘zlari har qancha kuyganlari holda, hosillarini hamtovoqlariga tuhfa qilurlar. Misol andoqdurki, qazon bovujud qoradur, o‘zi o‘tda kuyib qaro bo‘lg‘oni holda ovqat pishurib odamlarni to‘ydirur. Qarolar bordurlarki, alar o‘zlari qaro bo‘lg‘oni holda, ma’rifat nuri siyratlarida to‘ladur va ul nurlarni fasohat va til durdonalari vositasi ila olamg‘a oq shu’la socharlar. Misol uldurki, qaro charog‘ o‘zi qaro yog‘, kuyundig‘a giriftor bo‘lg‘oni holda, nuri ilan kulbani ravshan qilur[102].”

Asarning ikkinchi faslida Anbar otin o‘sha davrdagi ayollar ahvolini, ularning bevosita va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar natijasida o‘z iqtidori, iste’dodi, latofatini namoyon qila olmasliklarini aytib o‘tadi. Ular, hatto, ko‘cha-ko‘ylarga zarurat yuzasidan, masalan, qarindosh-urug‘larini ko‘rgani borish uchun chiqqanlarida, eski paranjiga o‘ranib, kampirlar kabi bukchayib yuradilar. Chunki, agar qaddi-qomatini adl tutib, yoki ochilib-sochilib yursalar, ularga erkaklar tajovuz qilishlari mumkin. Bunday axloqsizlikning ildizi ijtimoiy adolatsizlikka borib taqaladi: kambag‘alligi tufayli uylanish, oila boshlig‘i bo‘lish huquqidan mahrum bo‘lgan bunday erkaklar shayton vasvasasiga tushib, shahvoniy nafslarini

[102] Анбар Отин. Танланган асарлар. Т., Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

tiyolmay qoladilar. Lekin taraqqiyparvar shoira kelajakka katta ishonch bilan qaraydi: bu ijtimoiy-axloqiy illatlar albatta o‘tib ketadi, hurlik, tenglik zamonlari keladi.

Mana, bu haqda Anbar otinning o‘zi shunday deydi: “Bir zamoni bo‘lurki, kamina mushtipar kabi olijanob orzu qilg‘ondan ziyoda bo‘lur... alarni mazlumalar avlodi xatarsiz tavallud o‘lub, yaxshi parvarish topub, xushro‘y va xushxo‘y, botamiz va vatando‘st, serg‘ayratu mehmondo‘st bo‘lub, kamolg‘a yetur. Ul zamonda barcha xalq sohibjamol bo‘lur... Ul zamonda odam axloqi ul darajag‘a yeturki, xurusi mijoz gala xotunlik rusumini tark etar va har er bitta xotin ila farog‘atvor kun kechirg‘ay... Ul vaqt qizlar ilmi dunyoviy tahsilig‘a muyassar bo‘lub, urfon taxtida qaror topib, ellar va ulug‘lar safig‘a doxil bo‘lurlar, alar hayrat va mehnatda erlarg‘a hamfo va yovar bo‘lub, obro‘ topib, hurmat va ikromg‘a sazovor bo‘lurlar.”

Anbar Otin o‘sha davr muammosini keskin tanqid ostiga olib, vaziyatga real baho bergan. U jamiyatdagi ijtimoiy, ma’naviy muammolar haqidagi fikr-mulohazasini davom ettirib, mustabid tuzumda millat ravnaq topa olmasligini aytadi. Millat rivoji uchun avvalo mustaqillik zarur, lekin buni qanday qo‘lga kiritish kerak, degan savolga Anbar otin uning ikki yo‘lini aytib o‘tadi. Biri – aqlni inson o‘ziga vazir qilib, falsafiy mushohada yordamida ish ko‘rish orqali bunga erishish mumkin: “Vaqtiki ilm daraja qilib, falsafa ravnaq topsa, bu chigillarim kushoda bo‘lur. Falsafa iborasi ila qarshi va zid so‘zlarni muqoyyyasa qilg‘onda bu chigillar ochilur”. Ikkinchi yo‘l esa o‘z haq-huquqini himoya etish maqsadida amaliy harakat qilish, mustamlakachilik zulmiga va adolatsizlikka qarshi birlashmoq, qo‘lda qurol bilan chiqmoq. Bu yo‘lni shoira shunday ifodalaydi: “... albatta, aqlu idrok va jamoatg‘a takya qilib, barcha shayx so‘fiylardan yiroq va barcha tarsu vahmdin emin bo‘lib, zolimlarg‘a qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan hazar qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf qilmoq zarurdir.”

Abdulla Avloniy ham Anbar Otin singari o‘sha davr ma’naviy muammolarini tasvirlab o‘tgan. Uning fikricha, o‘sha davrdagi asosiy maishiy, ma’naviy muammo bu tarbiya masalasi bo‘lgan. Faylasuf-pedagog, avvalo, millatni tarbiyalashni o‘z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to‘xtaladi: otalar – to‘ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar – o‘zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualli-minni tugatishi kerak bo‘lgan, mudarrislar esa – darslari beimtihon, isloh yaqiniga yo‘lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari – ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviylashtirishga, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo‘lga olishlari kerak. Avloniy Rusiya hukumati u yer-bu yerda yangicha maktablar ochgani – shunchaki jahon jamoatchiligini chalg‘itish ekanini, ochiq bo‘lmasa ham, ishora bilan aytib o‘tadi. Hukumat hammaning otasi, o‘z fuqarosining bolalarini tarbiya qilmog‘i lozim. Rusiya hukumati esa o‘gay, o‘gay bo‘lsa ham, u yer-bu yerda maktab ochib, bolalarni tekin o‘qitadi, deydi u. Avloniy ana shu “o‘gay tarbiyadan” ko‘ra milliy tarbiyamiz usullarini yangilashni afzal biladi va o‘z davrini “tarbiyaning zamoni” – tarbiyaning ayni vaqti deb ataydi. Uning bu boradagi qarashlari hanuz o‘z kuchini yo‘qotmaganligini; tarbiya – hozir ham, ya’ni XXI asr jamiyati uchun ham dolzarb muammo ekanini

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asrida Avloniyning quyidagi fikrlarini keltirish yo‘li bilan ta’kidlaydi: “Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning yozganidek, “Tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman[103].”

Mahmudho‘ja Behbudiy ham Abdulla Avloniy fikrlarini davom ettirib, jamiyatni tashvishga soladigan, orqaga tortayotgan muammolar bu – odamlarning ma’rifatsizligi, din peshvolari va amaldorlarning axloqsizligi, oilada diniy va dunyoviy tarbiyaning sustligi ekanligini ko‘rsatadi. Behbudiy kishilarni axloqan, ma’nan tarbiyalash uchun maktablarning o‘zi kifoya qilmasligini, millatni o‘stirish uchun o‘zini ko‘radigan oyna zarurligini aytib o‘tadi. U o‘sha davr uchun teatr zaruratini asarlarida ochib beradi va bu tashabbusga o‘zi boshchilik qiladi.

Jadid mutafakkirlari ham ta’limning shaxs kamolotidagi rolini yaxshi tushunganlar va xalqni ma’rifatli qilishda ta’limni dastiyor qilganlar. Ta’lim xususida mavzu ochilsa, albatta, jadidchilik harakati vakillari tomonidan tashkil etilgan “Usuli jadid” maktablari ko‘z oldimizga keladi. Umuman olganda, jadidchilikning poydevori, tamal toshi “Usuli jadid” maktablari edi. Chunki, maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa shakllantirish lozim. Eski, an’anaviy usulda bu ishni amalga oshirish mushkul edi, chunki zamon o‘zgarib, tezkorlikni talab qilar edi. Ikkinchidan, endi bulajak o‘quvchi tarix, geografiya, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlardan zamonaviy bilimlarni olishi va bilishi kerak edi.

Jadid mutafakkirlarining bosh g‘oyachisi Ismoilbek Gaspirinskiy ham ta’lim masalasiga juda jiddiy e’tibor bergan. Uning fikricha, millatning savodi o‘z tilida chiqmog‘i kerak edi. Milliy tarbiya, muqaddas g‘oyalar, avlodning ong tafakkuriga ona tilida singmog‘i lozim. “sut bilan kirgan” degan iborada gap ko‘p. Ismoilbekning harakatlari bilan 1884-yili Turkistonda “Usuli jadid” maktablari ochildi. Va bu qisqa muddat ichida jamoatchilik e’tiborini tortdi. “...1884-sanasi Bog‘chasaroyda bir maktabni usuli jadidga qo‘ymish edim, – deb yozadi Ismoilbek. – Samarasi umidimdan ziyoda o‘ldi. Soir (ko‘p) viloyatlardan usul qo‘rmiya (ko‘rmakka) kelib-kedanlar o‘lub, bu soyada har tarafadan ikki yuzdan mutajovuz (ortiq) maktablar usulimi qabul etdilar...” Ismoilbek yangi maktablarning mutlaqo boshqa usulda emas, balki “Ota-bobo kunlaridan qolmish milliy maktablarni isloh etmak usuli jadid demakdir[104].” – deya tushuntiradi.

1888-yili ushbu maktablar uchun birinchi darslik “Xojai sibyon” (Bolalar muallimi) chiqariladi. U ushbu asarda “Usuli jadid” maktablarga bo‘lgan ehtiyojni tushuntiradi va “Usuli qadim”dan farqini tushuntirib beradi. “Xojalarga ta’limot” (Muallimlarga yo‘llanma) faslida “Usuli jadid”ning osondan murakkabga qarab borishini va uning o‘ziga xos xususiyatlarini sharhlaydi. Unda bolaning eng muvofiq yoshi (6-7)dan tortib, o‘quv soatlarining bolalar yoshiga muvofiq taqsimlanishi lozimligigacha, o‘qish bilan yozishni qo‘shib olib borishdan har bir harfni sadosi bilan o‘rgatishgacha, darslar orasidagi tanaffus, imtihon xullas,

[103] Каримов И.А. Юксак мънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият. 2008. – 176 б.

[104] Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симфераполь. 1898

bugungi zamonaviy maktabga nima kerak bo‘lsa barchasi haqidagi masalalar qamrab olingan edi.

Darslikning har bir darsidan keyin savollar berilgan bo‘lib, muallif fikricha, ular o‘quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun “buyuk vosita” edi. Muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga diqqatini qaratadi va har bir harfni alohida “sadosi bilan” muntazam va izchil o‘rgatishni ta’kidlaydi. Ushbu usul shunga ko‘ra “usuli savtiya” (tovush usuli) deb ham ataladi. Shu tariqa, o‘qitadigan darsning mazmunidan uni o‘qitish usuli va baholash jarayonigacha, o‘quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu qishki va yozgi ta’tiligacha, maktabning joylashish o‘rnidan, sinf xonalarning jihozi-yu yorug‘lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko‘rib chiqilib, maktab ta’limining yangi dasturi maydonga keltirildi.

Bu dastur “usuli jadid” nomi bilan shuhrat topdi. Jadid atamasining ommalashuvi ham birinchi navbatda “Usuli jadid” bilan bog‘liq. Demak, jadid maktablari o‘z faoliyatini boshlagach, Turkistonda ta’lim tizimi asta-sekin rivojlanishga yuz tutdi. Yangi usuldagi maktablarda ayollar ta’limiga ham e’tibor yo‘lga quyildi.

Maktablar uchun yangi darsliklar chop etildi. Jumladan, 1907-1910-yillarda Munavvar qorining “Adibi avval”, “Adibi soniy” darsliklari, Abdulla Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” majmuasi, “Birinchi muallim”, “Muxtasari tarixi anbiyo va tarixi islom”, Buxoroda Ayniyning “Tahzib-us-sibyon” kitoblari chop etildi. 1911-1913-yillarda ular yoniga Rustambek Yusufbekovning “Ta’limi avval”, “Ta’limi soniy”si, Munavvar Qoriyning “Havoyiji diniya”, “Er yuzi” (Jo‘g‘rofiya), qo‘qonlik Mirzo Xayrullohning “Tuhfat ul-atfol”, Fitratning “Muxtasar tarixi islom”, Avloniyning “Maktab gulistoni”, “Turkiy guliston yoxud axloq” kabi ko‘plab kitoblar qo‘shildi. Bular ham o‘z navbatida ta’lim sifatining tubdan oshishiga katta hissa qo‘shdi.Demak, maktabda ta’lim bir qadar yo‘lga tushgach, jadidlar navbatdagi muammo – oliy ta’lim muammosiga e’tibor qaratdilar.

Jadidlar yoshlarni G‘arb va Sharqning taraqqiy topgan mamlakatlariga o‘qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar. Ular 1909-yili 12-mayda Toshkentda “Jamiyati xayriya” ni ochadilar. Uning muassislari viloyat xududidagi nochor, muhtoj musulmon-larnining moddiy-ma’naviy axvolini yaxshilash, jumladan, yetimlar, keksalar, nogironlar uchun kasalxona, choyxona, oshxona, yotoq joylar ochishdan tortib, yoshlarni maktabda o‘qitish, so‘ng oliy tahsil uchun chet ellarga yuborishgacha bo‘lgan masalalarni ko‘zda tutar edi. Natijada, ko‘plab yoshlar Moskva kabi yirik shaharlarda taxsil olib qaytishadi. Keyinchalik, oliy ta’limni maqsad qilgan ko‘plab jamiyatlar tashkil etildi va yoshlar Turkiya, Germaniya kabi davlatlarning katta oliygohlarida tahsil olib kelishga musharraf bo‘ldilar.

Behbudiy oliy ta’lim zarurati haqida gapirib “oyna” jurnalida quyidagilarni aytadi: “Hozirgi zamon ahvolig‘a oshno kishilarga va boshiga ish tushganlarga, barcha tojir va mansabdorlarg‘a albatta ma’lumdurki, bizg‘a muvofiqi zamona odamlar kerak, ya’ni musulmon do‘qtir, musulmon muxandis musulmon zakunchi,

tijoratxonalarda musulmon “agent” ishboshilar, podshohlik mahkamalarida musulmon ma’murlari, musulmon sudyalari, natarius, bonkalarda musulmon sarkorlari va ... kerakdur[105].” Umuman olganda, jadid mutafakkirlari ta’limning milliy cheklanishlariga erk bermaslikka dunyo yangiliklari ila ta’limni boyitib borishga katta e’tibor qaratadilar. Behbudiy chet tillarini o‘rganishga ham katta e’tibor qaratadi. U “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasida turkistonliklarni til o‘rganishga chaqiradi: “Biz turkistoniy-larg‘a turkiy, forsiy, arabiy va rusiyni bilmoq lozimdur[106].”

Yuqorida ta’kidaganmizdek, jadidchilik jamiyat hayotiga yangi maktablarni kiritdi. Ko‘plab mutaassiblar bu faoliyatni ta’qib ostiga olgan edi. Bunga 1914 yilda Saidahmad Siddiqiyning “usuli jadid” bilan o‘qitgani uchun Samarqandda Ulug‘bek madrasasida bir necha ming kishi huzurida “kofir” deb e’lon qilinishini, Muallim So‘fizodani o‘z yurti Chustdan haydab yuborilganini, Mirmuhsin Shermuhammedovni Chorsu bozorida toshbo‘ron qilinganini misol keltirish mumkin. Ammo, barcha qarshiliklarga qaramasdan jadidlar Turkistonda ta’limni ko‘tarishga harakat qildilar va bu borada o‘z yo‘llaridan qaytmadilar. “Ular hayotni, voqea-xodisalarni, milliy mustaqillik va qaramlikni idrok etib xalqning millatning istiqbolini to‘g‘ri tasavvur etdilar.”[65, 142].

Jadidchilikning dastlabki izdoshlari bu ilm-fan va ayniqsa adabiyot bilan bog‘liq bo‘lgan ziyolilarning qismi edi. Qadim zamonlardan adabiyot xalq hayotida sodir bo‘layotgan barcha axloqiy, intellektual va siyosiy yangiliklarning boshida bo‘lgan. Xalq hayotida yangi shakllanish ehtimoli istisno etilmaydi, bu tezda, avvalo, ziyolilar orasida o‘z qo‘llab-quvvatlashini topadi.

Jadidlar ta’lim tizimi, kitob nashri, davriy nashrlar, madaniyat shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadilar. Qattiq senzuraga qaramay, ular “Taraqqiy”, “Shuhrat”, “Xurshid”, “Samarqand”, “Buxoroi Sharif”, “Sadoi Farg‘ona”, “Sadoi Turkiston”, “Oina”, “Turon” va boshqa gazeta va jurnallarni nashr etishni boshladilar. Xalqning milliy qadriyatlarini, ilg‘or urf-odatlarini, tarixi, madaniyati, insoniy huquqlarini tiklash uchun kurashib, katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘ldilar.

Jadidchilikning deyarli barcha vakillari millat tayanchi sifatida ayollar va qizlarni ma’naviyat va ma’rifat sohasiga jalb qilishga alohida e’tibor berishdi. Jadidlar ayollarning mavqei butun jamiyatning intellektual rivojlanishini belgilaydi, deb hisoblashgan. Tashkil etilgan yangi usuldagi maktablari va ta’limdagi usullari mavjud musulmon maktabining yangi modeli edi. Yangi usuldagi maktablar tarafdorlari tomonidan bayon qilingan islohotlar, musulmonlarning o‘quv maktablari o‘rniga yangi dunyoviy ta’lim joriy etildi. Ammo, panturkistlar ta’siri ostida ta’limni qayta tashkil etishdan tashqari, ular o‘z harakatlarini o‘sha paytdagi mavjud boshqaruv uslubiga qarshi yo‘naltira boshladilar, ularning rejalari va orzulari keng tarqalmadi va amalga oshirilmadi.

Zamonaviy tarixiy maydonda savodli ayollar, musulmon maktablarining yetakchi o‘qituvchilari o‘zlarining dadil takliflari va ma’ruzalari bilan chiqdilar.

[105] Маҳмудхўжа Беҳбудий Танланган асарлар Т.: Маънавият. 2006. – 167 б.
[106] O‘sha mavba,173-b

Ta’kidlaganimizdek, Behbudiy yangi usuldagi maktablar uchun qator darsliklar yozdi: “Alifboi maktabi Islomiya” (Islom maktabining Alifbesi), “Asbobi savod” (Savod asbobi), “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” (Tanlangan umumiy geografiya), “Kitob ul-atfol” (Bolalar uchun kitob), “Muxtasari ta’rixi Islom” (Islomning qisqacha tarixi) va boshqalar.

Taraqqiyot va ma’rifatning yana bir qizg‘in targ‘ibotchisi olim, o‘qituvchi, shoir, dramaturg, musiqashunos, faylasuf, tabib, shuningdek, taniqli davlat va siyosat arbobi Abdurauf Fitrat edi. U maktablarni isloh qilish va ularda o‘qitish metodikasi uchun kurashgan, yangi maktablarni tashkil qilishda va ularning o‘quv-tarbiyaviy ishlarida qatnashgan, darsliklar yaratgan: “O‘qish” yoki "Xonish", “O‘zbek tili morfologiyasi to‘g‘risida”, “Tojik tili morfologiyasi” va boshqalar.

Fitrat O‘rta Osiyo adabiy doirasiga “Bayonoti sayyohi hind” (Hindistonlik sayyohning hikoyalari) asari bilan tanish. Unda u an’anaviy Buxoro maktablari va madrasalaridagi qo‘llaniladigan o‘qitish usullarining qoloqligini ko‘rsatib, ochiq va shafqatsiz tanqid qiladi. Aynan shu asarda birinchi navbatda ayollar tarbiyasi mavzusi ochiqchasiga ko‘tarilgan. Hikoya Hindistondagi ikki kishi, Buxoro mudarrisi va chet ellikning polemikasidan iborat. Suhbat jadidlarning ta’lim va dunyoqarashining ko‘plab muammolari haqida ma’lumot beradi. Ayollarning johilligi mavzusi shafqatsiz tanqid qilinadi. Masalan, chet ellik kishi so‘raydi:

- Ayting-chi, ayollar siz bilan o‘qiydimi?

Mudarris javob beradi:

- Yo‘q, ayollar o‘qimaydilar.

- Nega siz ularga ta’lim bermaysiz? Ularning aqli erkaklarnikiga qaraganda kam rivojlanganmi?

Suhbatni chet ellik kishi davom ettiradi:

- Amerika va Fransiya ayollarini tahlil qilib, biz ayollarning aqliy qobiliyati erkaklarnikidan kam emasligini bilib oldik. Payg‘ambaringiz yana shunday deydi: “Talab ul ilm farizatun ala kulli muslimin va muslimatin”, (ya’ni, ilm o‘rganish har bir musulmon va muslimaning vazifasidir). Ayolning ma’lumoti foydali. Chunki har birimiz, avvalambor, onadan ta’lim olamiz. Agar ona o‘qimagan va tarbiyasi bo‘lmasa, unda uning farzandi ham johil bo‘lib qoladi. Ma’lumoti bo‘lmagan ayol – bu uyda va hatto butun mamlakatdagi baxtizlik.

Bunday dialog orqali birinchi marta ta’lim harakati g‘oyasining mohiyati ochiq izohlanadi: jinsi, millati va e’tiqodidan qat’i nazar, har kim bilim olishi mumkin. Buxoro va Samarqand singari sobiq mashhur ilmiy markazlarda mavjud bo‘lgan maktab va madrasalarning orqada qolishi to‘g‘risida savollar tug‘iladi.

Fitrat, boshqa barcha zamondoshlari singari, faqat ayollarning mavqei va ularning bilim darajasi haqida gapirdi. Ular “ayollarning qiyin ijtimoiy va kundalik ahvolini angladilar” va Turkistonning kelajagi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash onalar qo‘lida deb haqli ravishda ishonishdi, ona qancha tarbiyalansa, yosh avlod ham shunday tarbiyalanadi.

Fitrat ayollar ta’limining eng qizg‘in tarafdori va Turkiston ayollarining qo‘riqchisi bo‘lgan. Fitrat o‘zining “Oila yoki uni qanday boshqarish kerak” kitobida ayollarning nihoyatda og‘ir ahvolini batafsil tavsiflaydi va ularni

tafakkurining konservatizm sabablarini “Islomni qullikka aylantirgan noto‘g‘ri tushunchalar” doirasida ko‘radi.

XX-asrning boshlarida tashrif buyurgan Rossiya musulmonlari O‘rta Osiyo musulmonlari hayotiga faol qo‘shila boshladilar. Hamma joyda xususiy maktablar ochila boshladi, ularning o‘quv rejalari dunyoviy fanlarni o‘rganishni o‘z ichiga olgan. Bunday maktablarga odatda musulmon dinining vakillari, asosan, Turkistonga rus ishchilari yoki ularning qarindoshlari tarkibida kelgan tatar yoki boshqird millatlari vakillari boshchilik qilgan edilar. Ularning xotinlari qizlar maktablarining asoschilari bo‘lgan. Bunday maktablar avvallari Rossiyadan kelgan o‘sha musulmon mehmonlarning farzandlarini o‘qitish uchun mo‘ljallangan edi.

Ushbu maktablar I.Gaspirinskiy g‘oyalariga asoslanganligi va Qur’on asoslaridan tashqari boshqa dunyoviy fanlarni ham o‘rganganliklari sababli ular yangi usullar deb nomlangan.

S.Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi” kitobida tatar bolalari tashrif buyuradigan maktabning tatar o‘qituvchisi ta’siri ostida o‘zining pedagogik faoliyatining boshlanishi haqida hikoya qiladi. U 1907 yilda tatar mulla Nizom Sobitov o‘z uyida qanday qilib tatar bolalari uchun maktab ochganini juda qiziq aytib beradi. Ushbu maktabda u Qazon ustozlaridan biri bo‘lgan Abdurahmon Saadiyni (Kerim Saadiyning akasi) o‘qituvchi etib tayinlagan. Ta’limning birinchi yilida u yerda 10-12 tatar bolalari o‘qigan.Keyin u 1908 yilda I.Gaspirinskiy Buxoroga kelganidan keyin bu maktab umumiy jadidlar maktabiga aylantirildi, bu yerda barcha bolalar o‘qishi mumkin bo‘lgan va uni Muzaffariya maktabi deb atashdi.

S.Ayniy o‘z asarlarida alohida mavzuni o‘zining pedagogik kasbi tarixiga bag‘ishlagan. U birinchi tatar o‘qituvchisi haqida gapiradi, u uni pedagogik faoliyatga yo‘naltirgan va "Buxoro inqilobi tarixi" asarida tatar maktabi bilan bog‘liq hayotidan parchalarni tasvirlab bergan: “Biz maktabga kirganimizdan faxrlanib, u yerdan hayrat bilan chiqib ketdik. O‘sha kundan boshlab maktab haqidagi savol butun miyamni to‘liq qamrab oldi.”

Maktabdan olingan taassurotlar ostida S.Ayniy tatar o‘qituvchilari rahbarligida birinchi yangi uslubdagi xususiy maktablar mavjudligini bilib, M.Shakuriyning maktabini o‘rganadi. Keyinchalik 1908 yilda Buxoroda u tatar o‘qituvchisi ko‘magi va uslubiy tavsiyalari bilan tojik bolalari uchun maktab ochdi. Pedagogik ish bilan bog‘lanib, u maktablar uchun birinchi darsliklarni yozadi.

Shu misoldan ko‘rinib turibdiki, Rossiyadan tashrif buyurgan musulmonlar Qur’on bilan birga boshqa mavzular o‘rganiladigan yangi usul maktablarining asosini yaratdilar. Bunday maktablar aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi, chunki ularning afzalliklari bor edi. Birinchidan, bunday maktablarda musulmon maktablari asosidagi mavzular o‘rganilgan: bular Qur’on va adabiyotning asoslari. Ikkinchidan, bunday maktablar ona tilida o‘qitiladi. Bu ta’lim sifatini oshirish uchun islohot o‘tkazilgan odatiy musulmon maktabi edi.

Turkiston o‘lkasidagi birinchi yangi usul maktablari 1890-yillarning boshlarida ish boshladi. Birinchi maktab Farg‘onada tashkil etilgan bo‘lib, u yerda faqat tatar millatiga mansub bolalar ta’lim olishgan. 1897 yilda Andijon paxta

tozalash zavodining musulmon ishchilari uchun yana bir maktab ochildi, u yerda asta-sekin mahalliy millat farzandlari jalb qilindi.

Chor Rossiyasi yangi usul maktablarini qo‘llab-quvvatlamadi, shuning uchun barcha maktablar aholining o‘zi mablag‘lari bilan ta’minlandi. Tashrif buyurgan tatarlar, maktablarni ochib, ularni o‘z mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatladilar. Shunday qilib, “Verniy” shahridagi qizlar uchun maktabda, uning ishonchli vakili, Vyatka viloyatidan Z.Tazetdinov edi, Ufa madrasasini tugatgan tatar qizlari, M.Yakupova va M.Sagdievalar dars berdilar va moddiy yordam tatar savdogari X.Gabdulvaliev va uning o‘g‘illari tomonidan ta’minlandi.

Keyinchalik, mahalliy ziyolilar yangi usul maktablarini ochish tashabbusini qo‘lga oldilar. Tojik va o‘zbek tillarida maktablar ochila boshladi. 1898 yilda tojik tilida faoliyat yuritadigan yangi usul maktabi Qo‘qonda domulla Salohutdin tomonidan ochilgan, keyin shunday maktabni 1899 yilda Toshkentda Mannon Qori ochgan, tashabbusni Shamsiddin domla qo‘llab-quvvatlab xuddi shu maktabni Andijonda ochgan.

1904-yili taniqli pedagog Munavvar Qori Abdurashidxonov tomonidan Toshkentda “savtiya” (harf-ovoz usuli) usulidagi yangi usul yoki jadidcha maktab ochildi. Maktabga qobiliyatli bolalar jalb etildi, o‘zining o‘quv dasturi tuzildi hamda yangi usul bo‘yicha o‘quv dasturlari, darsliklar yaratildi. Birinchi marotaba Munavvar Qori tomonidan jamiyat oldida imtihon uyushtirildi. O‘quvchilar imtihoniga nafaqat ota-onalar, balki ulamolar, olimlar, shoirlar va hatto ma’rifatni qo‘llab quvvatlagan boylar taklif etilgan. 1912-yil Toshkentda 12 ta yangi usul maktablari amal qilgan.

Barcha yangi usul maktablari mahalliy xalqlarning milliy madaniyati, islom dini, an’analari va urf-odatlarini himoya qilgan. Yangi usul maktablari ko‘proq erkaklarni qamrab oldi. Qizlar uchun alohida yangi usul maktablari kam edi. Mahalliy aholining qizlari ayollarning yangi uslubiy maktabida o‘qigan alohida misollar mavjud. Shunday qilib, 1912–1914-yillarda Pishpek (Qirg‘iziston) shahrida 70 qiz o‘qigan (ulardan 50 nafari tatar, 20 nafari qirg‘iz). Ularga Qazon va Ufada ta’lim olgan tatarlar dars bergan. Mashg‘ulotlar asosan erkaklar maktabidagi kabi dastur asosida o‘tkazilgan va tikuvchilik qo‘shimcha predmet edi.

1915-yilda Kistakuz shahrida birinchi yangi usul maktabi ochildi, bir yil o‘tib Xujand shahrida ikkita shunday maktab ochildi.

Shunday qilib, XIX-asrning oxirida O‘rta Osiyo aholisi orasida yangi usuldagi maktablar o‘z qo‘llab-quvvatlanishini topgan va uning o‘rnagiga binoan mahalliy millat bolalari uchun maktablar tashkil etila boshlangan bo‘lsa-da, kelajakda ular uchta sababga ko‘ra keng tarqalishi mumkin emas edi: birinchidan, bu maktablar mahalliy darajada tashkil etilgan, xususiy odamlar tashabbusi bilan va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi; ikkinchidan, ushbu maktablarda faqat badavlat odamlarning bolalari o‘qishgan, bu ma’lum bir o‘quv to‘lovi mavjudligi sababli; uchinchisida, aniq dastur va metodika bo‘yicha parallel ravishda ishlagan rus-tuzem maktablaridan farqli o‘laroq, bunday maktablarda darslar yolg‘iz bo‘lgan o‘qituvchilarning bilimlari asosida olib borilgan.

XIX-asrning oxirida ayollar maktablari barcha mavjud bo‘lgan maktablarning uchdan bir qismini tashkil etdi. Masalan, faqat bitta shahar O‘ra-teppaning deyarli barcha guzarlarida (ko‘chalarida) qizlar uchun maktablar mavjud bo‘lib, ularda 6 dan 12-15 gacha o‘quvchilar tahsil olgan.

Ta’kidlash joizki XIX-asr oxiri – XX-asr boshida Turkistonda xotin-qizlar masalasi ijtimoiy hayotning muhim, ammo ziddiyatli masalalaridan biri bo‘lib qolgan edi. Ushbu muammoni o‘rganish jarayonida bu masalaga o‘lka matbuotida ham alohida e’tibor qaratilganligi yaqqol seziladi. Xotin-qizlarga ta’lim, ilm berish masalasi ayniqsa, matbuot sahifalarida jumladan, “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalarida muntazam va keng yoritila boshlandi.

Ma’lumki, Turkiston mahalliy ayollarining ba’zilari otinoyilar qo‘lida savod chiqarib, diniy ta’lim olganlar edi. Otinoyilar qizlarga o‘z uylarida savod o‘rgatib, diniy ta’limdan tashqari, she’riyatdan ham saboq berishgan. XIX-asr oxiri – XX-asr boshlarida Dilshod Barno, Anbar Otin, Uvaysiy, Nozimaxonim kabi o‘zbek ayollari o‘z ijodida ayollarning ahvoli, yashash sharoiti, oila va jamiyatdagi o‘rni kabi masalalarni aks ettirishga harakat qilganlar. Lekin hamon mahalliy ayollar dunyoviy ta’lim olish imkoniyatidan mahrum edilar. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyparvar kuchlarining mazkur masalaga e’tibori kuchayib borgan. Xususan, “Sadoi Turkiston” gazetasi tomonidan o‘lkada qizlarga keng diniy bilim beradigan va oz darajada bo‘lsa-da, geografiya, hisob, tarix va til qoidalarini o‘rgatadigan bironta ibtidoiy maktab yo‘qligi tanqid ostiga olinadi.

Jadid matbuotida o‘g‘il bolalarga qaraganda, qizlarga ilm berish muhimroq ekanligi ta’kidlangan. 1914-yilda “Sadoi Turkiston” gazetasi: “O‘g‘il bolalardin ko‘ra qiz bolalarga ilm, hunar lozim ekanligini xotiringizdan chiqarmasdan, tezdin ibtidoiy maktablar ochmakka, ma’suma qizlaringizni dunyoda baxtli va saodat ila yashaturg‘a oshig‘ingiz”, - deb murojaat qilgan.

Masalani muhokamasiga kirishib ketgan tarakqiyparvar ziyolilar uning barcha jihatlarini tahlil qilardilar. Masalan, ular o‘qigan ayollarning o‘z farzandlariga yaxshi tarbiya bera olishi e’tirof etishgan.

Turkiston matbuotida ayollar o‘z muammolariga xalq e’tiborini qaratishga harakat qilib, ayol-qizlar uchun maktablar ochib, ularga ilm berish zarurati ta’kidlanar edi. Chop etilgan maqolalarda ayollar turmushining ayanchli ahvoli qayta–qayta ijtimoiy muammo sifatida o‘rta tashlanar edi.

Muhammadsharif So‘fizoda o‘z she’rida Turkiston ayollarining ilmsizlik ahvoliga jiddiy achingani holda, ularga:

Millat islomiyasining bonusi,
O‘zbek elining qaro ko‘z ohusi.
Kor qilur bir kuni johil og‘usi,
Ilm va amal ushbu kasal dorusi.
Boy dadangiz ozgina pul bersa ham,
Daftar oling siz onga, yo bir qalam. - deya murojaat qilgan.

Yana bir shoir To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo) esa o‘zining “Hamshiralar tilidan” nomli she’rida Turkiston ayollari nomidan otalarga murojaat kilib, ularni maktabga berish, o‘qitish, ilm-ma’rifatli bo‘lishlari uchun imkoniyat yaratishlarini o‘tinib so‘raydi. Hatgo ularning bu yo‘lda “ipak kiyimlar, oltin taqinchoqlardan

ham voz kechishlari, agarda ilm olmasalar, Lut qavmidek yer yutushiga tayyor ekanliklari”ni ham aytadi.

Turkiston ma’rifatparvarlari ayol-qizlarning ma’rifatli bo‘lishlari millatning keyingi taraqqiyoti va taqdirini belgilovchi omil ekanligini kayd etish bilan birga o‘sha tarixiy davrda “ayol-qizlar va maorif masalasi”ni yechilishi zarur bo‘lgan muammolar qatorida turganligini e’tirof etishgan. “Sadoi Turkiston” gazetasi Turkiston tarixining murakkab bir davrda xotin-qizlar o‘rtasida ilm-ma’rifatning ahamiyatini targ‘ib kiluvchi muhim bir nashr bo‘ldi

Gazetaning ko‘pi sonlarida Turkistonda usuli jadid qizlar maktablarining vujudga kelishi jarayonida o‘zbek-tatar xalqlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining qanday taraqqiy etganini ko‘rish mumkin. Masalan, To‘qmoq shahrida istiqomat qilgan badavlat tatarlar maktab qurish va uni jihozlash ishlariga homiylik qilishgan. 1914 yili yangi ta’mirlangan o‘g‘il bolalar maktabiga dars berish uchun M.Is’hoqov taklif qilingan, qizlar maktabida esa uning rafiqasi Ravzatulhayot ta’lim bergan.

Qizlar maktabida besh sinflik o‘quv dasturi yangi usul asosida o‘qitilgan va 3-sinfdan ularga hunar o‘rgatilgan. Uquv yili yakunidagi imtihonga o‘quvchilarning ota-onalari hamda shaharning obro‘li kishilari taklif qilingan. Uquvchi qizlar ular oldida imtihon topshirganlar. Mazkur tartib mahalliy aholiga ma’qul tushgan. Chunki, qizlar ota-onalari hamda shaharning obro‘li kishilar oldida imtihon topshirish uchun alohida mas’uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rishgan. Bu esa ularning o‘z ustilarida muntazam ishlab mukammal bilim egallashlariga sabab bo‘lgan. Mahalliy aholi o‘rtasida jadid tatar maktablari obro‘sining oshishiga sabab bo‘lgan omillardan biri ham shu edi.

1914-yil 22-may kuni shunday imtihonlardan biri Toshkent shahrining Sebzor dahasi Taxtapul mahallasidagi “Rahimiya” maktabida amalga oshirilgan. Mazkur maktabda 15 nafar qizlar o‘qigan va shu yili maktabda birinchi marotaba imtihon bo‘lib o‘tgan. Imtihon erta soat 8 da boshlanib, tushki soat 13 ga qadar davom etgan. Imtihonga ko‘plab mahalliy ayollar yigilib, ular har bir o‘quvchining imtihondan qanday o‘tish jarayonlarini kuzatib borishgan. Shuni ta’kidlash joizki, har bir jadid maktabida shunday tartibni joriy etilgan. Bu esa usuli jadid maktablarini xalq orasida ommalashishining garovi bo‘lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, ba’zan mahalliy hukumatning ta’kib va tazyiqpari bois tatar muallimlari ochgan maktablar ta’minoti qiyin bir ahvolda qolganliklari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Aynan shunday holat Zaynabullo Jingitov maktabida kuzatilgan. U 1912-yili Ufa shahridagi “Oliya” madrasasini tamomlab, Turkistonga kelgan va o‘g‘il bolalar maktabida faoliyat ko‘rsatgan. Zaynabullo dastlab 2-3 yil davomida mahapliy millat bolalarini tekinga o‘qitgan. Ma’lum vaqtdan so‘ng o‘qitish ishlarining muvaffakiyatli kechganligiga ishonch hosil qilishgach, mahalliy aholining o‘z bolalarini bu maktabga berishi ko‘paygan. Qizlar maktabida esa uning rafiqasi muallimalik qilgan. Uqitish ishlarini olib borish uchun maxsus binoning yo‘kligi sababli mazkur muallima ta’lim jarayonini juda qiyin sharoitda bo‘lsa-da, o‘z uyida olib borgan.

Azal-azaldan ma’rifatga intilgan O‘rta Osiyo xalqlari mustamlaka zulmi asoratida bo‘lgan og‘ir damlarda ham o‘z farzandlarini ilmli qilishga intilib keldi.

Bunday sharoitda xalqlarning madaniy-ma’rifiy sohalardagi hamkorligi ularning ruslashtirish siyosati oqibatlaridan ma’lum darajada omon qolishlariga sabab bo‘lgan. Zamonaviy bilimlarni egallaganlari tufayli tatar xotin-qizlari nafaqat Rossiya, balki Yevropaning nufuzli oliygoxdarida ham tahsil olganlar. Jumladan, Sora Shakulova 1913-yili Sorbonna universitetining aniq fanlar fakultetini, 1915-yili esa Moskva universitetining fizika-matematika fakultetini tamomlagan.

XX-asr boshlarida chiqqan barcha gazetalar singari, “Sadoi Farg‘ona” ham maktab va madrasa islohi masalasiga alohida e’tibor bergan. Uning 1-sonida Shokir Muxtorovning “Islohni nimadan boshlarg‘a?” maqolasi bosilgan. Unda taraqqiy etgan mamlakatlar ibtidoiy tarbiyani har jihatdan mukammal yo‘lga qo‘yganliklari sababli ta’lim sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritganliklari bayon etilgan. Shu bois ishni eng avvalo ibtidoiy maktablarni isloh qilishdan boshlash kerak, deb hisoblaydi muallif [107].

Jadidchilik harakati ayollar ta’limi masalasini to‘liq hal qila olmadi. Ammo paydo bo‘lgan tatar va boshqird musulmonlari tashabbusi bilan tashkil etilgan yangi usul maktablari, mahalliy qizlarga dunyoviy ilmlar o‘qitiladigan, qizlar uchun yangi usul maktablarida boshqa millat qizlari bilan birgalikda o‘qish imkoniyatini berdi. Ushbu maktablar ayniqsa, yangi davrda talab qilinadigan kasb mahoratini o‘rgatish imkoniyati bilan o‘ziga jalb qildi. Biroq. to‘lov tizimi, shuningdek o‘z tilidan boshqa tilda o‘qitish, mavjud bo‘lgan yangi maktablarda o‘qish uchun talabgor sifatida avvaliga kam odam murojaat etdi. Bilimlarni o‘zlashtirishga intilishlari kuchli bo‘lganlar, ko‘plab ota-onalarni qizlarini rus tilidagi maktablarga berishga majbur qilishadi, bu esa majburiy o‘qish uchun to‘lovlarni nazarda tutmagan edi.

Jadidchilik namoyondalaridan Mahmudho‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar tomonidan e’lon qilingan qator maqolalarda **tarbiya masalalari** tahlil etiladi. Ularning maqolalarida jamiyat taqdiri oila muhitiga bog‘liq bo‘lsa, oila ma’naviyatining o‘zi kimga yoki nimaga bog‘liq, degan haqli savollarni o‘rtaga qo‘yadilar.

Ularning fikricha, agar oilada sog‘lom turmush tarzi ustivor bo‘lib, farzand har jihatdan to‘g‘ri tarbiya topgan bo‘lsa, u shubhasiz, uyidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko‘chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo‘llaydi, natijada jamityadagi barcha munosabatlarga ta’sir o‘tkazadi. Jumladan, “Ta’lim va tarbiya” maqolasida bu borada fikr yuritib, muallif shunday yozadi: “Bolaga ona birinchi omil va murabbiydir. Onani ta’siri bolaga, otani ta’siridan ziyodadur. Chunki ona bolani bir necha oylar qoni birla himoyalantirur. Va ba’d az tavallud sanalarcha suti birla parvarish etur. Va muddatlarcha og‘ushi mushfiq onasiga tarbiya etur.”

Jadidchilik harakati namoyondalari yangi davr va yangi tuzim kurashida, ya’ni mustamlakachilk zulmidan qutilish uchun, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisobladilar. Ularning fikricha, oilaning asosini to‘g‘ri qurmay turib va yosh avlodni to‘la qonli to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millat taqdiri uning oilasi holatiga bog‘liq.

[107] Шокир Мухтор. Ислоҳни нимадан бошларға? // “Садои Фаргона”. - 1914 йил, - 4 апрель. № 1

Tarbiya masalasi jadid mutafakkirlarining ijodida muhim o‘rin egallagan. Bu masalani ham ba’zi jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Dastlab, Abdulla Avloniydan boshlaymiz, chunki hech qaysi mutafakkir Avloniychalik tarbiya xususiyada ko‘p aytmagan va yozmagan. Uning juda ko‘p maqolalari va asarlari aynan ma’naviy, axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Avloniyning inson tarbiyasiga bag‘ishlangan eng katta asari “Turkiy guliston yoxud axloq” deb nomlanadi. Ushbu asardagi man’anaviy-falsafiy yondashuvning yangilangan mohiyati shunda ediki, tadqiqot ob’ekti sifatida makon va zamondagi umumiy mavhumiy inson emas, balki, muayyan, XX-asr boshlaridagi, milliy ozodlikka, yangicha hayot tarziga intilishni o‘z oldiga niyat qilib qo‘ygan Turkiston fuqarosi olinadi. Ana shu yangi inson tarbiyasi bosh masala tarzida o‘rtaga tashlanadi. Muallif avvalo, millatni tarbiyalovchi tarbiyachi masalasiga to‘xtaladi. Avloniyning fikricha, buni amalga oshirishdan oldin tarbiyachining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi lozim.

Avloniy tarbiyani, qadimgi va O‘rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an’analariga suyanib, uchga bo‘ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Shular orasidan axloq tarbiyasiga alohida urg‘u berib, uni “insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi”tarbiya deb baholaydi. Fazilatlarni faylasuf-pedagog yaxshi xulqlar, illatlarni esa – yomon xulqlar deb ataydi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an’anaviy bo‘lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to‘xtaladi.

Vatanni suymoq, lozim bo‘lsa, uning yo‘lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. “Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydig‘imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimo‘lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi[108].”, - deb yozadi Avloniy.

Vijdon Avloniy fikricha, inson niyatlari va qilmishlarini aks ettiruvchi eng musaffo axloqiy ko‘zgudir, ya’ni “inson aqli va fikrining haqiqiy mezoni.”

Shuningdek, mutafakkir intizom, iqtisod, idrok va zako singari o‘sha davrlarda hali ko‘p quloq o‘rganmagan fazilatlarni ham alohida e’tibor bilan nazariy-amaliy tahlildan o‘tkazadi, o‘quvchiga iloji boricha qisqa va lo‘nda tarzda taqdim etishga intiladi.

Abdulla Avloniy o‘z risolasida “yomon xulqlar”ga - illatlar tahliliga katta o‘rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to‘siq bo‘ladigan illatlardan biri sifatida alloma jaholatni keltiradi, jaholatni “insoniyatning eng zo‘r dushmani va yomon xulqlarning boshlig‘i”deb ta’riflaydi. Avloniy g‘azab, shahvat, hasad, kizb, tama’ singari illatlarga ham atroflicha to‘xtaladi.

Avloniy oiladagi tarbiyani maktab tarbiyasi uchun katta madad deya baholaydi. U ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga yangicha yondashadi. Bola shaxsini oyoq osti qiladigan, bola qalbiga, hissiga shikast yetkazadigan jismoniy jazoni qoralaydi. Bolani sevish va unga ustalik bilan ta’sir

[108] Авлоний А. Ўсон миллат. Т., Шарқ, 1993, 94-б.

ko‘rsatish zarur, uni ishontirish vositasi bilan burchni anglash yo‘liga solish kerak, deb hisoblaydi.

Muallifning bu boradagi fikrlariga xulosa yasab, shuni aytish mumkinki, Avloniy o‘sha davr tarbiya usullarini zamonga mos emasligini to‘g‘ri anglagan va ularani isloh etish zaruratini to‘la ko‘rsatgan. Chunki, zamonga mos tarbiyagina yosh avlodni millat jonkuyariga aylantirishi mumkin, deb hisoblaydi.

Jadid mutafakkirlari orasida Abdurauf Fitrat ham o‘zining tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari bilan alohida o‘rin tutadi. Uning “Rahbari najot” (Najot yo‘li), “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”, “Hind sayyohining qissasi” asarlarida tarbiya masalalari keng yoritilgan. Fitrat ushbu asarlarida ilm-ma’rifatning inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi, shuningdek, ma’naviyat rivojidagi hayotbaxsh mohiyatiga katta ahamiyat beradi. Bu borada ilm-fan, o‘qish va o‘qitishning zamonaviy ilmiy asosda yo‘lga qo‘yilishini ma’rifatli hayot uchun kurashda eng qudratli vosita deb bilgan.

Fitrat har doim maorif ishlari bilan band bo‘lgan va bu ishlarga jiddiy yondashgan. Turkistonlik talabalarni xorijga yuborish ishlariga bosh bo‘lgan. U faqat maorif ishlari bilan band bo‘lmay, Samarqand Pedakademiyasida, Toshkent Davlat Pedagogika institutida, 1934 yilda O‘zbekiston fanlar komiteti qoshida ochilgan ilmiy tadqiqot institutlarida mumtoz Sharq adabiyoti tarixidan, ona tilidan dars beradilar.

Fitrat millat tinchligi va ravnaqi har qanday qadriyatdan ustin ekanligini ta’kidlaydi. Va buni ta’minlash har bir millat vakili uchun ham farz, ham qarz ekanligini alohida uqtiradi. U millatning intizomi haqida gapirib, shunday yozadi: “har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi.”

Fitratning tarbiya xususidagi qarashlari uning “Oila” asarida kengroq o‘rin egallagan. Ushbu kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, muallif kitobning birinchi qismini, ma’lum ma’noda me’yoriy dasturilamal tarzida tuzgan. Undan yangi oila qurmoqchi bo‘lgan har bir turkistonlik kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin edi. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning ma’naviy, axloqiy, iqtisodiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi.

Kitobning ikkinchi qismi farzand tarbiyasiga bag‘ishlangan. Fitrat ham tarbiyani an’anaviy yo‘nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg‘unligida haqiqiy inson kamol topadi, deb hisoblaydi muallif. Kitobning bu qismida Fitrat, ma’lum ma’noda, o‘ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o‘rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a’zosi sifatida, ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. “Iroda va ixtiyor” sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da’vat etadi, iroda tarbiyasining to‘rt banddan iborat qoida-bosqichlarini taklif etadi.

Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zo‘ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta’kidlaydi. “Ota-onalarning haq-huquqlari” bobida ham balog‘atga yetgan farzandning erkinlik darajasi haqida fikr yuritiladi.

Umuman olganda, Fitratning “Oila” kitobida jamiyatdagi ijtimoiy va ma’naviy muammolar uyg‘unlashib ketgan. Lekin unda pedagogik-didaktik uslub emas, jangovar chorlov uslubi ustun. Fitrat uchun yuksak axloqiylik erk va erksevarlik bilan mustahkam bog‘liq. Turkiston va turkistonlikni ozod ko‘rish, ya’ni milliy mustaqillik mafkurasi kitobning ruhiga singdirib yuborilgan. Uni o‘qigan kishi nafaqat axloqiy fazilatlar nimalardan iborat va ularga qanday erishish kerakligini, balki milliy ozodlik, shaxsiy erkinlik nima-yu, uni qanday qilib qo‘lga kiritish mumkinligini anglab oladi. Shu bois mutafakkir-jadid Abdurauf Fitratning “Oila” katta pedagogik ahamiyatga molik. Ayni paytda, ushbu asar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan ajoyib axloqiy-ma’rifiy risola sifatida e’tiborga sazovor.

Mahmudho‘ja Behbudiy ham tarbiya xususida juda ko‘p fikr-mulohazalar bildirgan. U o‘zining qator asarlari va maqolalarida tarbiya muammolarini ko‘taradi. “Padarkush yohud o‘qimagan bolaning xoli” deb nomlangan p’esasi buning yorqin misolidir.

U ushbu dramasida ma’rifatsizlik, jaxolat, axloqsizlik, hamda farzand tarbiyasiga noto‘g‘ri yondashuv qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi haqida bayon qiladi. U tom ma’noda millatning dardini ko‘rsatishga harakat qiladi. U ushbu asarida ziyoli tilidan shunday deydi: “Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bevatan va bandi qilg‘on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanga darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyaning mevasi va naijasidir. Dunyoga tarqqiyo qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiyo qiladi. Asir va zabun bo‘lganlarida beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qitmaymiz, bul tariqa yomon xodisalar va badbaxtliklar oramizda doimo xukm-farmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qimoq va o‘qitmoqdan boshqa iloj yo‘q”

Mutafakkir kuyunganida jon bor. Sababi, o‘sha davrlarda boylar o‘zlarining boyliklarini faqat bazmu jamshid va kayfu safoga sarflar o‘zlarning farzandlari tarbiyasiga mutalaqo ahamiyat bermasdilar. Umuman olganda, Behbudiyning boshlab bergan teatr ishini ahamiyatini tushungan jadidlar bu faoliyatga jiddiy e’tibor bera boshladilar.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan fikr-mulohazalar, tarixiy faktlar hamda ilmiy-adabiy xulosalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, jadidchilik davri, jadidlar vakillari tomonidan, aholining ma’rifati sohasida chuqur islohotlar joriy etish muammosi yuzasidan, o‘sha davr taqozosi bilan hamnafas bo‘lgan g‘oyalar ilgari surildi. Unda eng muhim nuqtasi jamiyatda ayollarning faolligi, ularning bilim olishlari, millat tarbiyasidagi maqomi masalalarining o‘rin olganligi edi. Mavzuimiz doirasida ayollar ta’limi va tarbiyasining ijtimoiy muammo sifatida, xalq ongiga singdirish masalasiga jadidchilik harakatining nechog‘lik salomoqli hissasi borligi o‘z aksini topdi. Shuningdek, ta’kidlash joizkim, ayollar ta’lim va tarbiyasi ilmiy muammo sifatida uzoq o‘tmishda ham parokanda yoritilganligi sabab, yaxlit manzaraga ega bo‘lmagani kabi, jadidchilik davriga tegishli

ma’lumotlarda ham shunday holat kuzatiladi. Binobarin, biz barcha mavjud adabiyotlar, davriy matbuotga tayanib masalaga oydinlik kiritishga harakat qildik.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, jamiyatda ayol maqomi uning ta’lim va tarbiyasi tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, farzand tarbiyasi, kamoloti eng avvalo, aynan ona, so‘ng ota-ona tashvishi bo‘lib, nihoyat millat va jamiyat muammosiga aylanadi. Unga befarqlik esa, jamiyatda ko‘p muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Shuning uchun har bir davrda ayollar ta’limi va tarbiyasi jamiyat oldida turadigan eng muxi masala bo‘lib qolaveradi.

30.9. Dunyoviy ta’limni qo‘llab-quvvatlashda ma’rifatparvar ayollar o‘rni

Ma’rifatparvarlik va jadidchilik harakatlarining dasturlarida ayollar ta’lim tarbiyasining muammolari qanchalik faollashtirilmasin va qanchalik yoritilmasin, baribir ayollarning o‘zlari masalaga aralashib, uning asl mohiyatini tushuntirma-gunlaricha, natijadorligi samarasiz qolaverdi. XIX-asr oxiri va XX-boshlarida ma’rifat olamidan ogoh bo‘lgan ayollar so‘z minbaridan foydalanib, goh she’rlar orqali va goh maqolalar orqali xalq ommasining diqqat e’tiborini masalaga jalb etishga erishdilar.

XIX-asrning oxirida O‘rta Osiyoning taraqqiyparvar ayollari xalq ta’limini o‘zgartirishda faol ishtirok etishlari bois masala ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshladi. Ma’rifatparvar ayollar o‘zlari amalda maktablarda darslar tashkil etib, ayollar ta’limining zamonaviy mazmun mohiyatiga ehtiyoj borligini talqin qilishga kirishdilar. Maktab o‘qituvchilari sifatida ularning o‘zlari darslarini qiziqarli o‘tkaza boshladilar. Bularga Dilshod, Anbarotun, Uvaysiy, Samar-Bonu va boshqalarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. O‘sha paytda jamiyatda ularni ma’rifatli ayollar deb atashgan. Ular o‘z maktablarida qizlarni yoshligidan yig‘ishgan. 13-14 yoshgacha qizlar bunday ma’rifatchilarning maktablarida nafaqat yozma va arab grafikasini o‘rganishgan, balki mashhur mumtoz shoirlar Hofiz, Sa’diy, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, Gulxaniy va boshqalar ijodi bilan ham tanishganlar. Bunday maktablarda qizlarga musulmon adabiyoti asoslari va she’r to‘qishning yuqori mahorati, she’rlarida abjad hisobi (arifmetika) dan foydalanish o‘rgatilgan.

O‘zining tadqiqotida P.Pashino bunday maktablarni “ko‘pincha, qizlar uzoq vaqt davomida o‘g‘il bolalardan ham ko‘proq bilim olishlari mumkin” deb to‘g‘ri baholaydi.Haqiqatan ham, dunyo bilan aloqasi bo‘lmagan, uyda o‘tirgan qizlarning aksariyati o‘g‘il bolalarga qaraganda ancha rivojlangan va ular katta qiziqish va zavq bilan savodli ayollar darslariga qatnashgan. Bunday maktablarda ular ko‘pincha adabiyotni fors tilidan o‘zbek tiliga va aksincha tarjima qilish bilan shug‘ullanishgan. Yigirmanchi asrning boshlarida ular allaqachon rus tilida gapirishlari mumkin bo‘lgan.

Ta’lim olishdagi barcha qiyinchilik va to‘siqlarga qaramay, ayollar o‘qish va mashhur bo‘lish imkoniyatiga ega edilar. Vulfsonning so‘zlariga ko‘ra, she’rlari xalq orasida yuqori baholangan va paytgacha shuhrat qozongan ikki shoira xon saroyiga kelgan. Ammo odat bo‘yicha, ayollarga, erkaklar jamiyatida paydo bo‘lish taqiqlanganligi sabab, ulardan biri erkaklar kiyimida, xonning oldiga ochiq

yuz bilan kirgan ekan. Uning jasorati va iste'dodiga qoyil qolgan xon unga ulkan sharaflar ko‘rsatgan va uni saxiylik bilan mukofotlagan ekan.[109]

Ma'rifatli ayollarning yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Dilshod Barno merosini o‘rgangan akademik A.Muxtorov monografik asarida Qayumov nomli bir kimsaning xotiralaridan shunday parchalar keltirgan: "ijaraga olgan hujralarda yashovchi rus oilalari soni 20 oilaga ko‘paygan. XIX-asrning 90-yillarida yashaydigan mahallasida asta-sekin Qo‘qon bolalari rus bolalari bilan bemalol muloqot qilishlari, rus adabiyotlarini o‘qishlari va uylariga olib borishlari mumkin edi."[110]

Shoira va tarixchi Dilshod qizlarga mahalliy aholini davolash uchun kelgan rus ayol shifokorlarning roli, ularning yutuqlari, 1905 yilda uzoq tanaffusdan so‘ng o‘z vatani Istravshanga birinchi bor kelgan temir yo‘l haqida, ko‘plab o‘qituvchilar va ularning asarlari haqida tez-tez hikoyalar aytib turardi. O‘sha paytda mahalliy gazetalar sahifalarida chiqishlar qilar edi.

Shoira qadimiy Istravshan shahrida (bugungi Tojikistonning O‘ra-teppa shahri) kambag‘al, ammo savodli odam oilasida tug‘ilgan. Otasi Rahimqul So‘fiy muazzin bo‘lgan va she'rlar ham yozgan.

Dilshod fojiali hayot kechirgan. Barcha vatandoshlari O‘ra-teppa shahri aholisi bilan birgalikda Umarxonning qulligiga tushib qolgan. Qo‘qondagi xon haramidan qochib, u masjid imomining xotiniga aylangan. Qo‘qonda ko‘p erkaklarga o‘qish va yozishni o‘rgatgan. Dilshod to‘rt yil davomida qaynonasidan ilm va turkiy (o‘zbek) tilni o‘rganadi va keyinchalik o‘qituvchi bo‘lib maktabni meros qilib oladi. 51 yil maktabda ta'lim bergan Dilshod Barno har yili 20-30 qizni tarbiyalab chiqargan.

Ma'lumotlarda keltirilishicha pedagogik faoliyati davomida 891 nafar qiz Dilshoddan tahsil olgan va ularning ichidan o‘zlarining so‘zlariga ko‘ra, to‘rtdan biri she'riyatni sevadigan va ustozlari kabi shoiralarga aylangan. Keyinchalik o‘zining tarixiy asarida Dilshod o‘qituvchi va shoir bo‘lgan eng qobiliyatli Xayriniso, Bahriniso, Anbarotun, Mastura, Fazilat Bonu va Karomat qizlarining ismlarini sanab o‘tgan.

Ta'kidlaganimizdek, Dilshod nafaqat o‘qituvchi, balki tarixchi ham bo‘lgan. U qullik va Istravshan xalqlarining Farg‘ona viloyatiga ko‘chishi tarixini tavsiflovchi "Ta'rixi muhojiron" ("Muhojirlar tarixi") nomli tarixiy kitobning muallifi. Shuningdek, Dilshod XIX-asr adabiy muhiti, shoirlari, jumladan, diniy xurofotlardan xoli bo‘lgan so‘fiy shoirlari haqida ko‘plab xotiralar qoldirgan. U o‘zi singari qizlarga dars bergan shoiralarning ismlarini keltirib o‘tgan. Aytish joizki, tarixchi ayollar qatorida Dilshod Barno Muhammad Bobur shohning qizi Gulbadan Begimdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Maktabdagi ishi haqida u "mening suhbatdoshlarim va do‘stlarim she'riyatni bilishga qobiliyatli aqlli qizlar va ayollar bo‘lgan"ligini yozadi. O‘zbek tilida so‘zlashadigan o‘quvchilar bilan maktabda o‘qituvchi sifatida u boshqa kitoblar

[109] Вульфсон Э.Б. Как живут сарты. М., 1908. – 118 б.

[110] Мухтаров А. Дильшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX – начале XX вв. Душанбе, «Дониш»,1969. – 372 б.

qatori ularga ozarbayjon mumtoz shoiri Fuzuliy asarlari bo‘yicha dars bergan. Bu Dilshodga ozarbayjon tilini o‘rganishda va unda she’r yozishda yordam bergan.

Dilshodning xotiralarida aytilishicha, uning maktabida qizlar arab alifbosiga asoslangan tojik va o‘zbek tillarining asoslarini o‘rgangan. Shuningdek, ular buyuk shoirlar Hofiz, Navoiy, Bedil va Fuzuliy ijodidan namunalar yodlagan. Uning shogirdlaridan biri, bo‘lajak shoira Anbar otin haqidagi xotiralaridan, ma’lum bo‘lishicha, darslarda qoidalar “adaba” ekanligi, ya’ni axloq va tarbiya birinchi o‘ringa chiqqanini aytadi.

Dilshod o‘z maktabida diniy marosimlarga rioya qilishning asosiy qoidalarini o‘rgatish uchun qaynab turgan musulmon maktablarida qabul qilingan dasturlarning umumiy yodlash usuliga intilmadi. Aksincha, Dilshod Sharq mumtoz adabiyotini o‘rganish orqali eng qimmat axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga harakat qildi. O‘quv mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli o‘tkazish uchun u kitob, qog‘oz, qalam va alifbo harflari haqida yengil qofiyalar va topishmoqlarni yozgan. Dilshod shogirdlariga yuksak odob-axloq, mehr-oqibat, poklik va mehnat haqidagi barcha o‘gitlarga vijdonan amal qilishni o‘rgatgan.

Eng muhimi Dilshod Barno yaxshi hayotdan umidvor bo‘lib, yaqinda maktablarda hali unga noma’lum bo‘lgan ko‘plab fanlarni o‘rgatadigan kunlar kelishini tushundi. Qolaversa, u ayollarning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirish va erkaklar bilan teng huquqli jamiyatda huquqlarni ta’minlash uchun kurashgan o‘z davrining birinchi ma’rifatparvar ayoli bo‘ldi.

Dilshod Barno qizlariga o‘qish va ijodga muhabbatni o‘rgatdi, bu yerda qog‘oz va qalam asosiy rol o‘ynadi. O‘quv mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli o‘tkazish uchun u kitob, qog‘oz, qalam, qalam va alifbo harflari haqida o‘ziga xos ijodkorlik bilan qiziqarli qofiyalar tuzib qiziqarli topishmoqlar yaratdi. U ko‘pincha butun umrini ta’limga bag‘ishlagan o‘qituvchisini eslardi. Shoira Sulaymonqul Rajining zamondoshlaridan birining so‘zlariga ko‘ra, u qamish qalam o‘rniga qalam ishlatgan birinchi o‘qituvchi bo‘lgan.

Dilshod ustozining yuksak odob-axloq, mehr-oqibat, poklik va mehnat haqidagi barcha ta’limotlariga vijdonan amal qilgan va shogirdlariga ham buni o‘rgatgan. U qizlariga uning o‘qituvchisi "xalq hayotini" yaxshi ko‘rishini, odamlar orasida ishlashni ko‘rsatganini yetkazdi va "yolg‘iz odam hech qachon mehribon deb hisoblanmaydi" deb o‘git berar edi. Shoira bu haqda shunday deydi: "U qo‘liga qalam olib, xalq hayoti to‘g‘risida she’rlar yozishni boshladi va o‘qituvchi buyurgan hamma narsaga rioya qildi."[111]

Dilshod albatta yaxshi va ma’rifatli kunlardan umidvor bo‘lib yashadi, kelajakda ochilajak maktablarda yangi fanlarni o‘rgatadigan zamon kelishiga ishondi. U qizlarini hayotlari yaqin orada o‘zgarishiga umid bog‘ladi va ularni ham ishontirdi. Shoira 106 yil yashab, o‘zining barcha ilg‘or fikrlari va umidlarini she’rli satrlarda yozdi, shuningdek, “Barno tanlangan she’rlari” kitobini qoldirdi.

Tutiqiz, Xayriniso, Bahriniso, Anbarotun singari shoiralar bevosita Dilshodi Barnoning shogirdlaridandir. Undan bizga qadar tojik va uzbek tillaridagi

[111] Мухтаров А. Дильшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX – начале XX вв. Душанбе, «Дониш»,1969. – 372 б.

she’rlarni o‘z ichiga olgan “Muntaxab-ul-ash’or” (Tanlangan she’rlar), “Ta’rixi muhojiron” (Muhojirlar tarixi) kitoblari meros bulib qolgan. Ikki tilda barobar ijod etgan — zullisonayn ijodkor Dilshodi Barno 1906/7 yili Qo‘qonda vafot etgan[112].

Ma’rifatparvar ayollarning yana bir vakili, iste’dodli shoira Anbar Otin edi. Qo‘qonda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Anbarning shoira bo‘lib yetishida Uvaysiy va Dilshodi Barnolarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Zeroki, Anbaroy Uvaysiyning jiyani bo‘lib, yetti yasharligidan Dilshodi Barno maktabida tahsil olgan.

Dilshodning shogirdi Anbarotun keyinchalik “ustod” Dilshod Barnoning izdoshiga aylandi. Anbarotun haqida Dilshod shunday yozgan edi: "Men uning tarbiyasi bilan 10 yoshigacha shug‘ullanganman, bu qiz taniqli shoira bo‘lishiga doimo umid qilganman."

Anbaroy yoshligidanok o‘zining nozik didi, zukkoligi bilan mahalla ayollari orasida katta shuhrat qozongan. Tasodif sabab bir ma’rifiy bazmda Anbar Otin zinadan yiqilib, bir umrga nogiron bo‘lib qolgan. Ammo nogironlik Anbar Otin ruhiyatini sundirmaydi. Hayotining qisqa davrida o‘z asrining taniqli, ilg‘or shoiralaridan bir bo‘lishga o‘lgurgan. Anbarotun erkinlikni tashviq etuvchi she’rlari uchun og‘ir jarohatlar olgan. U Jomiy, Navoiy singari shoirlarga ergashib jushqin lirik g‘azallar, ma’rifat-parvarlik ruhida she’rlar yozdi.

Anbarotun talabalariga katta hayrat va minnatdorchilik bilan ruslar haqida so‘zlab berib, ularning qalbida ruslar siymosida taraqqiyparvar kuchlarga muhabbat uyg‘otar edi. Uning o‘zi farzandlari va nabiralari ham ruslar singari o‘z stollarida o‘tirib, taxtachalarga emas, daftarlarda yozishni orzu qilar edi. U ham yurti istiqlolga erishib, hur zamonlar kelishini orzu qilar edi. Ushbu satrlar fikrimizning yorqin dalilidir:

Kelib xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod,

Bu vayrona diyorimda shaharlar aylagay bunyod.

U o‘z ustozi va qalbining irodasi ta’sirida o‘zboshimchalikga qarshi tosh otuvchi she’rlar yaratdi, birinchi marta o‘z davrining taniqli ma’rifatparvarlariga maktublar yozdi. Anbarotun, ko‘pchilik qatori O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishidan katta o‘zgarishlarni kutgan edi. Hayotining oxirgi kunlariga qadar u ayollar va ayollar tarbiyasi uchun butun ijodini bag‘ishladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, faqat mehnat va ta’lim insonni yuqori intellektual darajaga ko‘tarishi mumkin.

Taniqli o‘zbek lirik shoirasi **Jahon Otin Uvaysiy** Marg‘ilon shahrining Childuxtaron mahallasida dunyoga keldi. Uning otasi, onasi va akasi o‘z davrining ma’rifatli kishilaridan bo‘lib, Uvaysiyning tarbiyasida katta rol uynashgan. XIX asrning 90-yillari oxirida shoira marg‘ilonlik Xojixon ismli kishiga turmushga chiqadi. Uvaysiy bir qiz va bir o‘g‘il ko‘rgach, oradan bir oz vaqt o‘tib, umr yo‘ldoshi vafot etadi.

Uvaysiy shoira sifatida shuhrat orttiradi. O‘sha vaqtlarda Marg‘ilonda yashayotgan Umarxonning rafiqasi Nodira Uvaysiyni devonga olib keladi va bu ikki shoira o‘rtasida umrbod do‘stlik rishtalari bog‘lanadi.

[112] Машриқзамин — ҳикмат бўстони. // Тарж., тўпловчи ҳамда изоҳ муаллифлари: Ҳ.Ҳомидий ва Маҳмуд Ҳасаний. Масъул муҳаррир: F. Ас-Салом/. — Т.: Шарқ НМК. 1997. 400-бет

Nodira Qo‘qonga ko‘chib kelgandan keyin Uvaysiyni maxsus yorliq bilan Marg‘ilondan chaqirtirib oladi va unga alohida hovli-joy olib berib, doimiy rahnamolik qiladi. Uvaysiy saroyda Nodira bilan birgalikda umrguzaronlik qiladi. Biroq, hayot sinovlari 1822-yildan so‘ng Uvaysiy boshiga ketma-ket tashvishlar tushiradi; uning Xokiy taxallusi bilan she’rlar yozuvchi shoira qizi bevaqt vafot etadi. O‘g‘li Muhammadxon Koshg‘arga urushga junatiladi. Shuning uchun u Nodiradan ruxsat olib, o‘z ona shahri Marg‘ilonga ko‘chib ketadi va o‘sha yerda qashshoqlikda umr kechirdi.

Olimlarning taxminiga ko‘ra, Uvaysiy 65 yoshlarida vafot etgan. Umr bo‘yi tasavvuf falsafi g‘oyalarini ifodalovchi va dunyoviy masalalarga bag‘ishlangan lirik she’rlar yozdi. Shoiraning she’rlarini o‘z ichiga olgan bir qo‘lyozma devon O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institutida saqlanadi. Unda Uvaysiyning lirik she’rlari xamda “Shahzoda Hasan” va tugallanmay qolgan “Voqeai Muhammadalixon” nomli tarixiy dostoni mavjud.

Shoira nafaqat she’rlari bilan, balki tinimsiz pedagogik mehnati bilan ham xalq orasida hurmat qozonganlardan edi. U, o‘z davrining boshqa ma’rifatparvarlari singari, dunyoviy ma’lumot olish va ta’lim olish huquqini joriy qilishda ayollarni qo‘llab-quvvatlashni ochiqdan-ochiq qo‘llab-quvvatladi. Uvaysiy ayollar adabiy muhiti orasida she’riyat va ma’rifatni o‘z oilasining muqaddas an’anasi deb bilgan[113].

Qizlar, barcha mutaassiblik qonunlariga zid ravishda, birinchi marta o‘z stollarida o‘tirdilar, bir maktabda va hattoki o‘g‘il bolalar bilan bir sinfda darsliklardan o‘qishni boshladilar. Ayollarning bu pozitsiyasi qora pardada qul bo‘lgan ayolning hayot tarzining yigirma asrlik yopilishini va ilgari o‘zgarmagan ayollar maktablarida o‘qitishning mazmuni va uslublarini tubdan o‘zgartirdi. Ayollarning huquqlari va ularning tengligi masalasini ko‘targan birinchi o‘qituvchi ayollar paydo bo‘ldi. Biz yuqorida aytib o‘tgan demokrat shoiralar, dunyoqarashi rivojlangan, yuksak madaniyatli ayollar ayniqsa bu borada ajralib turardi. Masalan, Nodiraning badiiy asarlari mukammal ta’lim, chuqur g‘oyaviy mazmun va yuksak badiiy shakl namunasi bo‘lib xizmat qiladi. Uning ijodi zamonaviy hayotning ezgulik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, insonparvarlik va adolat, insonni axloqiy tarbiyalash, uning ma’naviy takomillashtirish muammolari kabi muhim masalalarini aks yettiradi. Shoiraning chuqur insonparvarlik she’rlari insonning tabiiy huquqlari, ezilgan va xo‘rlangan Sharq ayollarini himoya qilishda otashin ovozga o‘xshab yangradi.

Shoira zamondoshlari, Uzlat, Uvaysiylar o‘zlarining xotiralari va hikoyalarida Nodiraning yosh yillarini, uning shoirlik mahorati cho‘qqisiga chiqish yo‘lini, devonlarining yaratilishini tasvirlab, uning siyosiy, ijtimoiy, adabiy va pedagogik faoliyatini tavsiflaydilar. Nodira qiynalgan ayol yuragi, ezilgan tomirlar, oyoq osti qilingan orzular, amalga oshmagan umidlar haqida gapirdi. U jaholatni, jirkanchlikni, zulmni qoralaydi.

Buyuk ayol, o‘qituvchi va psixolog, inson qadr-qimmatini, sodiq do‘stlikni, odamlarga bo‘lgan muhabbatni kuylagan Nodira eri Umarxon adolatli va dono

[113] Мирзозода Х. Таърихи адабиёти тоҷик. Душанбе, Маориф, 1987. – 488 б.

hukmdor bo‘lishiga umid qilib yashadi. Ammo, shohga aylanib, Umarxon Farg‘ona viloyatini zolimlik tarzda boshqargan, eng yuqori diniy shaxslar qo‘lida itoatkor vosita bo‘lgan. Nodira onalikdan baxtiyor edi - taqdir unga ikki o‘g‘il hadya etdi.

Nodira ijodining o‘ziga xos xususiyati - bu yuqori darajadagi aristokratiya va axloq qoidalaridan ayrim shaxslarning yosh avlodga nisbatan noloyiq ishlarini qoralashdir. Shoira shohning qadr-qimmati so‘zda emas, balki uning ishlarida, o‘zini zo‘ravonlik bilan emas, balki yuksak axloq va olijanoblik bilan yuksaltirish kerak, degan fikrni davom ettiradi.

Shoh shohlik darajasi bilan emas, balki xayriya, mehribonlik va adolat bilan faxrlanishi kerak. Nodira yaxshilik dunyosi orqali yomonlik dunyosiga qarshi chiqadi.

Fozilbekning "Mukammal tarixi Farg‘ona" ("Farg‘onaning to‘liq tarixi") asarlarida Mohlar-oyim (Nodira) ikkita madrasani qurgani haqida xabar berilgan. Madrasadagi barcha talabalar bepul o‘qiganlar, kiyim-kechaklar bilan ta’minlanganlar va madrasa javonlarida turli xil kitoblar va qo‘lyozmalarning yaxshi to‘plamlari bo‘lgan.

Shoir Mutrib eslaganidek, Nodiraning tashabbusi bilan Alisher Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Bobur va ularning zamondoshlari devonlarining eng taniqli tarixiy asarlari va adabiy yodgorliklarini yozishmalar va tarjima qilish ishlari olib borilgan edi.

Nodira ulamolar ishining barcha aniqligini tekshirib, savodxonlikni nazorat qilar edi. U qo‘lyozmalarni shaxsan tekshirib ko‘rib, shundan so‘ng muqovalarini tayyorlashga ruxsat berar edi, Nodira mohir kotiblarni kumush qalamdan ishlangan sovg‘alar bilan taqdirlagan va ularga "Oltin qalam egasi" unvonini bergan.

Nodira o‘zini iste’dodli yoshlar bilan o‘rab oldi va Uvaysiy bilan birgalikda yosh qizlarda she’riyatga muhabbat uyg‘otishga harakat qildi. Shogirdlarining ongi va kuzatuvchanligini rivojlantirish uchun Uvaysiyning kundalik mavzularda yozilgan she’riy topishmoqlaridan foydalanilgan. Nodira va Uvaysiy o‘z o‘quvchilarining estetik didini rivojlantirib, ularda adabiyotga muhabbat uyg‘otdilar, ularni bilim, ilm va donolikni qadrlashga da’vat etdilar.

Nodira yoshlarga katta kuch va e’tibor berdi, ularni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatishga intildi, ilg‘or va yaxshilikka bo‘lgan mehr muhabbatni qo‘llab-quvvatladi. Shoiraning ushbu ta’lim faoliyati ta’lim olish va axloqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan chaqiriqlarda ifodalangan.

O‘qituvchilar bahrubayt o‘yinidan ham foydalanishgan: o‘yinchilardan biri o‘rganilganlardan biron oyat o‘qigan, qolgan talabalar esa avvalgi oyatning so‘nggi so‘zidan yoki oxirgi xatidan boshlab boshqasini tezda eslashga harakat qilishgan.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan davrning ma’rifatli ayollari shoiralar tojik va o‘zbek tillarida she’rlar yozganlar. XIX-asrning ikkinchi yarmidagi adabiy muhit ularning she’rlarini yuqori baholadi. Garchi bu ayollarning taqdiri, o‘sha davrdagi ko‘plab o‘qimishli ayollar singari, erkin fikrlashlari uchun barchani hayratga solgan bo‘lsa-da, ular o‘zlarining qat’iy ayolliklarini aks ettirgan she’rlar yozishdan qo‘rqmaganlar. Qolaversa, ayollar adabiy muhiti orasida she’riyat va ma’rifatni o‘z oilasining muqaddas an’anasi deb bilgan ayol-qizlar ko‘p bo‘lgan.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, XX-asr boshlariga kelib, ayollarning Turkiston matbuotida faol ishtiroki ko‘zga tashlanadi. Ular butun e’tiborni ayollarning mavjud muammolariga qaratishga harakat qilishgan. Chunonchi, “Sadoi Turkiston” gazetasida “Xonimlar tovushi” sarlavhasi ostida toshkentlik Poshshoxonim Jalilovaning xotin-qizlar uchun maktab ochib, ularga ilm berishga da’vati chop etilgan. Unda musulmon ayollardan ham muallima, muharrir hamda hamshiralar yetishtirish, ularning ahvolini gazetalarda muhokama va munozara qilish masalasi ko‘tarilgan[114].

Ayollar tomonidan yozilgan ayollar ta’limiga doir maqolalar kundan kunga mahalliy gazetalarda ko‘payib boradi. Salima Yoqubova va Maxfuza Maqsudova "Sadoi Turkiston" gazetasida birinchi marotaba nafaqat nikoh va oila, balki ta’lim masalasini ham ko‘tardilar. Ularning fikriga ko‘ra, Yevropada bo‘lgani kabi, Turkiston o‘lkasi ayollari uchun ham dunyoviy maktablarni ochish kerak edi. O‘qitish masalasini ko‘tarishda ular ayollarning maktabda ham o‘rganishi va o‘qitishi kerakligini ta’kidlaydilar. O‘qitish faoliyati faqat o‘qitish kursini tugatganligi to‘g‘risida guvohnomaga ega bo‘lganlar tomonidan amalga oshirilishi kerak, degan talab ilgari so‘rilgan. Shuningdek, ta’kidlanishicha, qizlar maktablaridagi o‘qituvchilarga ma’lum maosh to‘lanishi lozim edi[115].

“Sadoi Fargona” gazetasida chop etilgan maqolasida samaralik Sora Muzaffariya ayollar turmushining ayanchli ahvolda bo‘lishiga ularning o‘zlari sababchi ekanligini ta’kidlagan holda “bizda iste’dod ham bor, qobiliyat ham bor, ong va fikr ham bor. Bir uy ichinigina emas, ba’zi erlar ham o‘rniga keltura olmaslik mamlakatlar idora qiladurgan quvvat ham bor”, deb yozgan edi. U, asta-sekin bo‘lsa ham, dunyoda xotin-qizlar (islom olami bundan mustasno) jamiyat ishlarida ishtirok eta boshlaganligini alohida ta’kidlab, Turkiston musulmon ayollariga tatar xotin-qizlarini namuna qilib ko‘rsatadi va bu haqda quyidagilarni yozadi: “Bu xususda tatar xotinlarga tashakkur aytmay o‘ta olmaymiz. Chunki ular har xususda o‘zlarining extiyojlarini ko‘ra boshladilar. Maktablar, jamiyatlar, kutubxonalar va qiroatxonalar kabi muassasalar ochibgina qolmasdan, rus dorulfununlariga, hatto Yevropa dorulilmuallimlariga borib kelmoqqa jasorat qilg‘uvchilar bo‘ldi. Ammo islom olamidagi boshqa xonimlarni qarasang, hech qanoat qiladurgan harakat yo‘q.”

O‘sha davrda Turkistonlik taraqqiyparvar ayollar jamiyat hayotidagi o‘z mavqelarini ko‘tarish uchun matbuotdan samarali foydalanishga intilganlar. Turkiston ayollarini ilm-ma’rifatli bo‘lishga undab, ko‘plab maqolalar yozganlardan yana bir ayol Z.Fathiddinzoda bo‘lgan. Uning “Sadoi Turkiston” gazetasida bosilgan maqolasida: “Butun insoniyat olamining tirikchiligi yolg‘iz xotunlar soyasidandir, deb aytsak, shoyad xato qilmagan bo‘lurmiz. Xotunlar butun olami insoniyatining onasidirlar: payg‘ambarlar, rasullar, podshoxlar, olimlar, adiblar va shoirlar hammasi shul muhtaram volidalarning bolalaridirlar... Dini islom erlarga qanday huquq berg‘on bo‘lsa, xotunlarga ham shunday huquq

[114] Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // СадоиТуркистон, - 1914. – 12 ноябрь

[115] Эмомов А. Мақоми “Ҳафтяк” дар низоми мактабҳои кӯҳна. Религия и общество. № 8 августи соли 2018

berub, umuminsonlar orasiga musovat va adolat qonuni ko‘ymishdir”, - deb ayollarga bo‘lgan munosabatni baland pardada ifodalagan.[116]

Turkistonlik ma’rifatli ayollarning jamiyat hayotidagi ayollar maqomi uchun olib borgan intilishlari xorijiy mamlakatlar olimlarining ham diqqatini o‘ziga jalb etgan. Ular ham tarixiy manbalar, ma’lumotlarni o‘rganib ilmiy xulosalar taqdim etmoqdalar. Jumladan, Indiana universitetining Markaziy Yevroosiyo fakulteti xodimi, olima Marian Kamp Turkiston ayollari, xususan, o‘zbek ayollari rolining XIX asrdan buyon turli hukumat boshqaruvlari davomida o‘zgarishi, ularning jamiyatdagi o‘rni va faoliyati haqida “O‘zbekiston yangi ayoli: Islom, Zamonaviylik va Kommunizm davrida paranjining yechilishi”.

Uning fikriga ko‘ra, mustamlaka davri Jadidlarining xotin-qizlarni ilmga jalb qilish va ularni jamiyatda o‘z o‘rnini belgilash borasidagi islohotlari Sovet davridagi ayollarni qo‘llab-quvvatlash harakatlariga asos bo‘lgandi. Ya’ni, xotin-qizlarga bilim berish va ularni jamiyat rivojiga hissa qo‘shishiga sharoit yaratish borasidagi o‘y va harakatlar Sovet tizimi va Kommunistik partiya yuzaga kelishidan ancha oldin boshlanganligi ta’kidlanadi.

Tadqiqotchi Marian Kampning ta’kidlashicha, jadidlar xayolida xotin-qizlarni bilimli qilib tarbiyalash butun Turkiston halqi madaniyatini rivojlanishiga hissa qo‘shishi tayin edi. Shu asnoda qizlar va ayollarni o‘z tilida yozish va o‘qish savodini oshirish targ‘ib etilgandi. Ko‘plab ayollar hayotini o‘zgartirishga hissa qo‘shish uchun partiyada ishtirok etish orqali erishish mumkinligiga ishonib, partiyaga a’zo bo‘lishgan.

Ayollar borasidagi islohotlar millatni tiklash bilan o‘zaro bog‘langan mulohazalar bilan bog‘liq edi. Ammo, Turkistonlik musulmonlarning xotin qizlarni rag‘batlantirish va millatni tiklash borasidagi fikrlari o‘zaro uyg‘un emasdi. Jadidlar millatni yo‘q bo‘lishidan cho‘chigan holda, millat ayollarini bilimli voyaga yetkazish bilangina millatni qayta tiklash mumkinligiga ishonishgan va islohotlarga chuqur ma’no berishgandi. Millat deganda, “Turkistonlik”, ya’ni Markaziy Osiyoning turkiy va tojik tillarida so‘zlovchi xalq nazarda tutilgandi.

Jadidlar misolidagi Markaziy Osiyo islohotchilari ayollar ta’limi va turmush hayotini o‘zgartirishni targ‘ibot qilishgandi.

Marian Kampning o‘z tadqiqotida keltirilgan misollari orasida turkistonlik ayollarning chaqiruvi va xatlari diqqatga sazovor. Chunonchi, 1906 yilda qo‘qonlik ayol, Tojiya birinchi turk tilidagi ayollar jurnaliga xat yozib, u turkistonlik musulmon ayollarning ahvoli haqida o‘zbek ayollari nomidan shikoyat qilgan:

“Hurmatli Shafiqa xanum, biz kamtarona holda quyidagilarni ma’lum qilamiz… Hammaga ayon bo‘lsa kerak, bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o‘sish va islohotlarga katta ahamiyat berilayapti. Musulmon ayollari ham o‘ziga xos haftalik nashrga ega va ular o‘z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma’lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo, biz Rossiya markazida faoliyat ko‘rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda, bu yerda o‘z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo‘qligidan

[116] Татарлар // Садои Туркистон, - 1914. - 29 июль.

afsusdamiz. Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz, Sartiya (*ya'ni, o'troq Turkistonlik)* musulmon ayollari ko'p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro'znomaning faqat bir necha satrlarida, biz, Sartiya musulmon ayollarining Qrim va Qozon ayollariga nisbatan o'z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o'z huquqlarimizga ega bo'lardik.

Biroq bu amalga oshadimi? Oh, bu qashshoqlik! Biz hammamiz ilm va ta'limga muhtojmiz!

Biz hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo'lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o'qishni bilishini ta'qidlash lozim. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo'lmasa kerak…

Biz o'z farzandlarimizni o'zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz, farzanlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan No'gay o'qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo'lgan urinishlarimiz bizga yo'l ochib bermay, qiyinchilik tug'dirib, dong qotib kolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo'lda davom etadigan bo'lsak, bir kun, biz, musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o'z holimizni o'zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o'rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o'g'il va qizlarimizni No'gay maktabiga yuborishga yo'l bering!"[117].

Tojiyaning muharrirga yo'llagan maktubi Turkiston ayollarining inqilobdan oldingi nashriyotlari orasida nihoyatda noyob misoldir. Xatda Jadidlar tomonidan o'sha paytlarda muhokama qilinayotgan muammolar ko'tarilgan, ammo ular Tojiya tomonidan ayollar muammosi sifatida ta'kid etilgani juda ham noyobdir. Tojiya, Sartiya ayollarining o'z huquqlarini bilmasligi va ularni qutqarishning yagona yo'li – bu ularga zamonaviy ta'lim berish ekanligiga alohida urg'u beradi.

Uning murojaati Jadidlar chaqiruvi, ya'ni islomiy ta'limni zamonaviy, g'arb ta'limiga munosib tarzda o'zgartirishga undaydi. Tojiyaning fikr va g'oyalari uning islomiy hayot va turkiy nashr bilan aloqalari borligini aks ettiradi. U o'z murojaatida Rossiyadagi musulmon ayollari, ya'ni tatar millatiga mansub ayollarning harakatlarini nazarda tutgan. Bunga sabab, u o'zini musulmon ayollar muhitida ko'rib, muammolarga yechim kengroq islomiy jamoada topilishi mumkinligiga ishongandi.

Ma'lum bo'lishicha, Tojiya immigrantlar oqimini ko'rgan Qo'qon shahrida yashagan. Shahar Rossiya imperiyasi temir yo'l xizmatiga bog'langandan so'ng ko'plab ruslar va tatar musulmonlarini qabul qilgandi. Qo'qon savdogarlari, tatarlar, ruslar va markaziy osiyoliklar paxta va don eksportiga sarmoya kiritishgandi va shahar bank tizimida rivojlangandi. 1900 yilda Qo'qonda to'rtta nashriyot uylari, bir necha kitob do'konlari mavjud bo'lib, yangi usuldagi Jadidlar maktablari bir qancha maktab va madrasalar qatoriga qo'shilgan edi.

[117] Michelle Lee Folk Regina. A Study of the Concept of Rebellion Among Indian Women Saints: A Case Study of the Hindu Alvar Antal and the Sufi Jahanara Begam Sahib. //A Thesis Submitted to the Faculty of Graduate Studies and Research in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Religious Studies University of Regina. Saskatchewan, 2002.

Jadidlarning ayollar hayotini takomillashtirish va yangi, zamonaviy ta’limni targ‘ib qilish harakatlari ba’zilar tomonidan shikoyatga sabab bo‘lgandi. Turkiston Viloyatining Gazetasi yozuvchilari ularni ayollarni Shariyat tomonidan talab qilingan paranji va chachvonlarini yechib tashlashida va ularni savodxon bo‘lib, nodiniy bo‘lishiga sababchi bo‘lganlikda ayblashgan. Xotin qizlarni o‘qib, ta’lim olishini targ‘ib etish harakatlari diniy konservativ musulmonlar tomonidan g‘azabli norozilikka duchor bo‘lgan edi.

Yuqorida tilga olingan Marian Kampning kitobida yana bir e’tiborga molik ayollar maktubi keltirilgan. Unga muvofiq, 1907-yilda bir turkistonlik musulmon ayol Duma musulmon a’zolariga maktub yozadi. U o‘z maktubida musulmon ayollarining erkaklar tomonidan to‘rt devor orasida qamalib qolgani va shariyat ayollarga tijorat bilan shug‘ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlarni berishini, Istanbul va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklari haqida shikoyat qiladi va Dumaning musulmon a’zolaridan turkistonlik ayollarga bu huquqlarni ta’minlashlarini talab qilgan holda o‘z fikrlarini ochiq holda bayon etadi.

Umuman, Turkistonlik musulmon ayollarining Rus imperiyasi davridagi islohotlar borasidagi faol harakatlari va murojaatlarida ikkilamchi huquqlar nazarda tutilgandi: siyosiy va diniy, Islomiy huquqlar. Ushbu ayol murojaatini imperiya Dumasi musulmonlar muovinligiga yo‘llashi, uning ayollarni hukumat olididagi siyosiy fuqarolik huquqlariga ishora bergandi. Shu bilan birga, u ayollarga shariyat tomonidan berilgan haqlarini musulmonlar tomonidan paymol etilganligi va agar ular ta’lim olishsa, o‘z huquqlarini qayta tiklashga erishishini ta’kidlaydi.

Ayollar ta’lim va tarbiyasi masalasini tadqiq etish jarayonida yana bir muhim faktga duch keldik. Bu ilk ayollar isyoni haqidagi ma’lumot edi. Unga ko‘ra, 1916-yilda Rus ma’muriyatiga qarshi Turkiston shahar va qishloqlari bo‘ylab isyonlar ko‘tarildi. Bu holat tarixda birinchi marta ro‘y bergan, o‘ziga xos, ayollar qatnashgan isyon edi. Turkiston ayollari ilgari hech ommaviy chiqishlarda va qo‘zg‘olonlarda qatnashmagan edi.

Turkistonda imperiya boshqaruvi davrida turli isyonlar ro‘y bergandi. Bu isyon esa harbiy mehnat amallarining o‘zgartirilishi siyosatiga bog‘liq bo‘lib, butun Turkiston (bugungi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston) bo‘ylab odamlarni jalb qilgan va mustamlaka hukumatga qarshi kurashga chaqirgandi. Bu isyon ba’zi tarixchilar tomonidan “milliy ozodlik harakati” deb atalgan.

Biroq, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona shaharlaridagi isyonlar hukumat armiyasi tomonidan to‘xtatilgan. Qirg‘iz va qozoq tumanlarida isyonlar davom etgandi. Turkistonlik ayollarning isyonda qatnashish sabablari haqida turli mulohazalar mavjud va aniq tafsilotlar yo‘q. Ba’zilar o‘zlari qatnashishga qaror qilgan, boshqalar esa erkaklar tomonidan undalgani va ayrimlarning yig‘im-terim mavsumida erkaklarning ketishini ma’qul ko‘rishmagani tufayli isyonga qo‘shilganligi haqida taxminiy fikrlar mavjud. Ayollarning hajmi ko‘pchilikni tashkil etgani, ularni erkaklar va chaqiruvchilar tomonidan masjid, bozor va boshqa ommaviy joylarda jalb qilinganligini taxmin qilishga undaydi.

Shunday qilib, chorizm mustamlakachilik siyosatining og‘ir sharoitida ayollar, shoiralar, o‘qituvchilar Markaziy Osiyo xalqlarining savodxonligi, o‘z-o‘zini anglashi va vatanparvarligi darajasini oshirishda o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan, bu Turkistonda ta’limning rivojlanish tarixi ushbu davlatlarning buyuk o‘qituvchi ayollari asarlarini o‘rganmasdan tasavvur qilib bo‘lmasligini aniq ko‘rsatib turibdi. Biroq, O‘rta Osiyoda ayol ta’limi va tarbiyasi hali to‘liq o‘rganilmaganligi bois bu mavzu bugungi pedagogika ilmining yaxshi o‘rganilmagan ilmiy muammolar qatlamlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘rta Osiyo pedagogikasi tarixining XIX-asr oxiri XX-asr boshlaridagi davrida ma’rifatchi, shoira, olima va tarixshunos ayollarga bag‘ishlangan yorqin sahifalar juda ko‘p. Biroq, ularning deyarli barchasi uchun xarakterli bo‘lgan bir syujet ko‘zga tashlanadi, ya’ni aksariyatining hayoti va faoliyati obro‘sizlantirish bo‘roni hamda mashaqqatlari sinovlardan o‘tadi va hatto ko‘pincha fojiali tarzda tugaydi.

Tabiiyki, zamon zayli sabab, qat’iy shariat va odat qonunlarining hukmronligi bois o‘sha davrlarda musulmon ayoli, masalan, yevropa ayoliga tenglasha olmasdi yoki jamiyatda yevropalik ayol singari maqomga ega bo‘lolmas edi. Shunga qaramasdan, ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun shujoat bilan kirib kelishdi. Musulmon ayoli bilimga intilish namunasini, erkinlikka ega bo‘lish uchun harakat ibratini, adolatsizlikka qarshi kurashish misolini hayotiy amallar bilan namoyish etib, shu bilan birga farzandlarini tarbiyalagan, ijod bilan shug‘ullangan. Demak, ma’rifatparvar ayollarning ta’lim-tarbiyani qo‘llashdagi o‘rinlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki, jadid mutafakkirlarining millatni ma’rifatga olib chiqish yo‘lidagi harakatlari besamar ketmadi. Bugungi dorulomon kunlar mana shu ulug‘ insonlarning zaxmatli harakati mevasidir. Zero, ular biz uchun haqiqiy axloqiy namunalardir. Ayni paytda ular yodini, “elim deb, yurtim deb yonib yashagan” ulug‘ insonlar xotirasini e’zozlashning o‘zi ham yuksak ma’naviyat va axloqiylik timsolidir.

Jadid mutafakkirlari o‘sha zamon jaholat botqog‘ida yotgan xalqni ma’rifat osmoniga olib chiqishga intildilar. Bu maqsad yo‘lida bor kuch-g‘ayratlari, shijoatlari hatto jonlarini ham fido qilishga tayyor edilar. Jadidlarning jonbozliklari tufayli Turkistonda yangi uslubdagi maktablar, oliy o‘quv yurtlari paydo bo‘ldi, yoshlar chet ellarda taxsil olib, dunyo tanidilar. Bularning barchasi millat ma’naviyatining yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Biz jadid mutafakkirlarining ijtimoiy, ma’naviy hayot haqidagi fikr-muohazalari bilan tanishib, ularning bu boradagi fikrlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini ko‘ramiz.

O‘rta Osiyoda pedagogika tarixi g‘ayrioddiy darajada asrlar va zamonlar ovozini takrorlaydigan yorqin sahifalarga boy. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri nafaqat oilada, balki jamoat hayotida ham o‘qituvchi, shoira ayollarning pedagogik jarayonida ishtirok etishidir. Rivojlanishning har bir bosqichida Robiya – (X-asr), Mehri- (XV-asr), Zebuniso (XVII-asr), Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod – (XIX-asr), Anbar otin (XIX-XX-asr boshlari) va boshqalar singari shoiralar nomlarini uchratamiz.

Turkiston mintaqasidagi ayollar ta’limi tarixini o‘rganib, shunday xulosaga kelish mumkinki, Turkistonning chorizm imperiyasiga qo‘shilishi O‘rta Osiyodagi musulmon ayollarning hayoti va ijtimoiy mavqeini sezilarli darajada o‘zgartirib yubordi. Ayollarning huquqlari to‘g‘risida nafaqat birinchi marta gaplashildi, balki odamlarning ongida ayollarning jamiyatni to‘laqonli a’zolari maqomi to‘g‘risida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi.

30.11. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari

Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri, jahonga mashhur bo‘lgan o‘zbekning yagona jo‘g‘rofiyashunosi, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug‘ pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo‘ja Behbudiy 1874-yil 10-martda Samarqandning Bahshitepa qishlog‘ida ruhoniy oilasida tavallud topgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy «usuli jadid» maktalari uchun bir qator darsliklar yozadi. «Muntaxbai jo‘g‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya»), «Kitobatulqatfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madxali jo‘g‘rofi umroniy» («Aholi jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofiya rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Amaliyoti islom» kabi kitoblari darslik sifatida o‘qitilgan.

Behbudiy ta’lim va tarbiya hamda uning muammolari to‘g‘risida boy publitsistik meros qoldirdi. Jumladan, «Imon va islom», «Ixtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadida», «Hurriyat – ozodlik – erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas to‘rt til lozim», «Turkiston», «Millatni Kim isloh etar», «yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yohud taraqqiyning yo‘li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqinda» va boshqalar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning yangi maktablar uchun yozilgan asarlari maktalarning islohida katta hodisa bo‘ldi. Ayni davrda bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo‘llanildi. Bu kitoblarning bugungi kunda ham qadri yo‘qolganicha yo‘q.

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o‘qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab etishtirish masalasini qo‘yardi.

Behbudiy «usuli jadid» maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o‘tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta’minot masalalari va boshqa ko‘p jihatlarini G‘aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o‘rgandi. Shular asosida Turkistonda «usuli jadid» maktalarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u Shu maktablarni kitoblar bilan ta’minlashda ham jonbozlik ko‘rsatdi. U Samarqandning eski Shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o‘z hovlisida maktab ochdi.

Mashhur pedagog Abduqodir shakuriyning yangi usuldagi maktabini o‘z hovlisiga ko‘chirib keldi.

Behbudiy butun vujudi bilan muallim edi. Uning o‘zi ham yuqori sinf talabalariga jo‘g‘rofiya va tarixdan saboq berar edi. Misr, Turkiya, Qozon va boshqa joylardan olib kelgan turli yangi-yangi kitoblarini yuqori sinf o‘quvchilariga hamda eng yaxshi o‘qiganlarga va muallimlarga tortiq qilardi. U ne qilsa ulug‘ Turkiston uchun va uning kelajagi bo‘lgan yoshlar uchun qilardi.

Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi –maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi maktab, saodatning, fozil insonning ma’naviy chashmasi maktab, degan aqidaga amal qilardi.

Toshkentlik **Saidrasulxo‘ja** domla mufti Saidazizxo‘ja maxtum mufti o‘g‘li arab, rus va fors tillarini yaxshi bilgan o‘zbek ziyolilaridan biridir. U 1866-yilda shayxontoxur dahasining Degrez mahallasida ziyoli oilasida dunyoga kelgan, maktab yoshiga etgach, 6-7 yoshida mahallasidagi domlaning maktabxonasida o‘qigan, uni bitirgach, Shu dahadagi madrasai Mahdum dasturxonchida tahsil olgan, ayni choqda 1-rus tuzem maktabida ham o‘qigan. 1900-yilda madrasani hatm qilgan, rus-tuzem maktabini bitirganligi to‘g‘risida ham guvohnoma olgan. Shu yil o‘zi bitirgan rus-tuzem maktabiga musulmoncha sinf o‘qituvchisi etib ishga qabul qilingan. Tez orada rus-tuzem maktablari va o‘zbek o‘qituvchilari o‘rtasida ilmi va odobi bilan og‘izga tushgan, maktab mudiri, tajribali pedagog S.M.Sichev yosh o‘qituvchiga har tomonlama yordam beradi.

S.Saidazizov o‘zbekcha alifbe kitobini yozishni 1902-yilning fevral oyida tugallagan. Uni «Ustodi avval» deb nomladi. «Ustodi avval» 1918-yilga qadar e’lon qilingan 10 dan ortiq o‘zbekcha alifbe kitoblari ichida metodik tuzilishi, berilgan materiallarining salmog‘i va bolalarga yaqinligi jihatdan ajralib turadi.

«Ustodi avval» darsligi ikki qismdan iborat:

1. O‘zbekcha xat-savodni chiqarish.

2. Arabcha, ya’ni «Qur’on xati»ni, suralarini o‘qishga o‘rgatishdan iborat.

Birinchi qismining o‘zi ham uchga bo‘linadi:

1) Xat-savodni o‘rgatishga tayyorgarlik davri;

2) Alifbe davri. 32 harfning yozilishi, so‘zda kelishi.

3) Qiroat davri – «zer-zabar» yuzasidan malaka hosil qilish, so‘ngra o‘qish uchun so‘z birikmalari hamda matnlar berilgan.

«Ustodi avval»ning arabcha o‘qishga o‘rgatish qismi o‘ziga xos ilmiy asoslangan qoidalar asosida tuzilgan. Bunda ta’limning ongli bo‘lishiga muallif alohida e’tibor bergan. Turkistondagi hamma maktab turlarida diniy ta’lim maktablarning o‘quv rejasiga kiritilgan o‘quv fanlaridan biri bo‘lgan.

Turkistonda birinchi bo‘lib o‘z ona tilida o‘qitishni S.Saidazizov boshlagan. Uning o‘zi bu to‘g‘rida Shunday degan edi: «Ustodi avval»ning foydasi daf’atan o‘qimoq, yozmoq uchun ko‘proqdir. Alifboni o‘qib va bitib bo‘lgandan keyin hikoyatlarga yaqin kitob oxiridagi alifboni qur’oniy boshlatub, oldin ham oz-oz saboq beriladur to oxirigacha». «Ustodi avval»ni birinchi bo‘lib muallifning o‘zi amalda sinab ko‘rddi va boshqa muallimlarni ham sinab ko‘rishga chaqirdi.

Jadidchilikning asoschisi ma’rifatparvar **Ismoilbek Gaspirali** hisoblanadi. U o‘qitishning yangi usuliga asos soldi. 1884-yili 12 bolani «usuli jadid»da o‘qita

boshladi. Bolalar 40 kun ichida savodini chiqarishadi. Ular uchun «Xo‘jai sibyon» («Bolalar muallimi») darsligini yaratdi. 1883-yildan «Tarjimon» gazetasini chiqara boshladi.

Gaspiralining g‘oyalari ta’sirida O‘rta Osiyoda ko‘plab jadid ma’rifatparvarlari etishib chiqdi.

Muhammad Qori Abdurashidxonov (1872-1931) toshkent Shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Onasi otin oyi edi. Oiladagi ilmga chanqoqlik muhiti o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Abdurashidxonov 1901-yili birinchi jadid maktabini ochishga muvaffat bo‘ldi. Yangi maktablar uchun tovush usulida «Adibi avval»(1907), «Adibi soniy» darsliklarini yozdi. 1906-yili Ismoil Obid muharrirligida «Taraqqiy» gazetasini tashkil qildi. Darsliklari qayta-qayta nashr yuzini ko‘rdi.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat (1886-1938) Buxoroda tug‘ilgan. Dastlab maktabda, so‘ngra Mirarab madrasasida o‘qidi. U adabiyot, tarix, falsafani chuqur o‘rgandi. 1909-yili «Jamiyat xayriya» ko‘magida Turkiyaga o‘qitishga borib, 4 yil davomida ilm-fan cho‘qqilarini egallashga erishdi. U erda «Munozara» va «Hind sayyohi qissasi» asarlarini yozdi. Bunda Buxorodagi o‘quv-o‘qituv ishlari, ularni tubdan o‘zgartirish masalalariga e’tibor berilgan. «Rahbari najot» (1913), «Oila» (1916) asarlari. «O‘quv» (1917) darsligini yozdi. 1922-23-yillarda Buxoro xalq maorifi noziri bo‘lib, chet ellarga o‘qishga talaba va o‘quvchilar yuborishga rahbarlik qildi. 1923-24-yillarda Moskva va Leningrad (Peterburg)da yashab ijod qildi, professor unvonini oldi. Keyin qator oliy o‘quv yurtlari, tadqiqot institutlari pedagogik va ilmiy faoliyat bilan Shug‘ullandi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) toshkentda hunarmand oilasida dunyoga keldi. Maktabda, so‘ngra Abdumalikboy madrasasida o‘qidi. Yoshligidan She’rlar yozdi. 1904 yili Mirobodda yangi usuldagi maktab ochdi. 1907-yili uning muharrirligida «shahrat» gazetasi chiqa boshladi. 1909-yili «Jamiyati xayriya» tashkil qilib, bolalar o‘qishi uchun sarmoyadorlik orqali maktablarga tarqatdi. Mavloniy maktabining dovrug‘i keng tarqaldi, chor hukumati talabi bilan o‘lka mamuriyati maktabni 1908 yil yopdi.

Shundan so‘ng, 1909-yili Avloniy Degrez mahallasida maktab ochdi. Darsliklar yozishga kirishdi. 1909-1917-yillarda uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy guluston yohud axloq», «Maktab gulustoni», «Adabiyot yohud milliy She’rlar» to‘plamlari nashr etildi. 1917-yildan so‘ng ham turli o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida pedagogik faoliyat bilan Shug‘ullandi. «Mehnat qahramoni» unvoni, «O‘zbekiston xalq maorifi zarbdori» nomiga sazovor bo‘ldi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to‘rt bo‘limga ajratadi:

1. «Tarbiyaning zamoni».
2. «Badan tarbiyasi».
3. «Fikr tarbiyasi».
4. «Axloq tarbiyasi» va bu haqida hamda uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritadi.

«Tarbiyaning zamoni» bo‘limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi.

«Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur» deb uqtiradi Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq, deb hisoblaydi, adib.

Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umirining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan – uy, bog‘cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Abdulla Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma’noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi, u birinchi navbatda bolaning sog‘ligi haqida g‘amxo‘rlik qilish lozimligini uqtiradi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma’rifatga ega bo‘lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o‘qumoq, o‘qutmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdur».

Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiya uzviy bog‘liq ekanini ham ta’kidlaydi: «Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur» - deydi.

Abdulla Avloniy «Usuli jadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yohud milliy She’rlar» hamda «Birinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yohud axloq» (1913), «Ikkinchi muallim» (1915), «Maktab gulistoni» (1917) kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlari hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug‘lab, o‘z xalqini ilmli, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi.

Asrimiz boshlarida yangi maktablar uchun yozilgan alifbelar anchagina edi. Shular orasida Avloniyning «Birinchi muallim»i ham o‘ziga xos o‘ringa ega. «Birinchi muallim» 1917-yil to‘ntarishgi qadar bir 4 marta nashr etilgan. Avloniy uni yozishda mavjud darsliklarga, birinchi navbatda Saidrasul Aziziyning «Ustodi avval»iga suyanadi (dars berish jarayonida orttirgan tajribalaridan samarali foydalanadi).

Avloniyning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Uning «Birinchi muallim»ini alifbe, «Ikkinchi muallim»ini – xrestomatiya deb Shartli ravishda atash mumkin. Kitoblarda tarbiyaga alohida e’tibor qaratilgan. «Birinchi muallim»ga «Maktab», «Baxtli va baxtsiz bola», «yaxshilik erda qolmas», «Qanoat», «Ittifoq» kabi hikoya va She’rlar kirgan, ularni oxirida tarbiyaviy ahamiyatga molik mushohada yuritilgan. Darsliklarga xalq og‘zaki ijodi namunalari, zamon ruhi bilan sug‘rilgan va o‘quvchilarga moslashtirilgan hikoya, rivoyatlar kiritilgan.

«Ikkinchi mualim»ga «Saxiylik», «Baxtlilik», «Aqlli bola», «Kampir ila cho‘l yalpizi», «Tama’ bolasi» kabi hikoyalar kiritilib, ularda xushfe’llik, aql va donishmandik Sharaflanadi, qo‘pollik, badnafslik baxillik hajvga olingan.

Abdulqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘ildi. Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin

Samarqand Shahridagi madrasaga o‘qishga kirdi. Shakuriy o‘zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hollarida rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o‘qitish usullari bilan tanishligini qayd qiladi. Shundan keyin yosh muallimda o‘z xalqining bolalari uchun ham Shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo‘ladi.

Shakuriy maktabida tojik va o‘zbek bolalari birga o‘qitilar edi. Bu erda tojik tili asosiy til hisoblanar, bolaning savodi chiqqach, o‘zbek va tojik tillarida yozilgan kitoblar o‘qitilar edi. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarni ozarbayjon va tatar adabiyoti namunalari bilan tanishtirish maqsadida Shu tillarda yozilgan ayrim parchalar ham o‘qitilar edi. Shakuriyning tarjimai holida aytilishicha, bu maktabning to‘liq dasturi bo‘lgan.

U vaqtlarda maktablarda Qur’oni Karim o‘qitilar va yodlatilar edi. Shuning uchun yangi usul maktablarida ham diniy kitoblar o‘qitilar edi, chunki hech bir ota-ona Qur’on yoki biror diniy kitob o‘qitilmagan maktabga bolalarini bermas edi. Shuning uchun maktablarda «Haftiyak» ham asosiy o‘qish kitoblaridan biri hisoblanar edi.

Shakuriy o‘z o‘quvchilar uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtirar edi. Imtihonda u ota-onalar oldida o‘quvchilar bilimining natijalarini namoyish qildirar edi, ota-onalar esa o‘z bolalarining qisqa muddat ichida xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma’lumotga ega bo‘lganini ko‘rib hayratlanardilar. Shakuriy maktabining Shuhrati keng tarqala boshladi, o‘rta Osiyodagi boshqa ma’rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Shakuriy o‘z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o‘z mablag‘lari hisobiga nashr qildirgan. Chunki, tojik va o‘zbek bolalarini tatar tilida yozilgan darsliklar bilan o‘qitish katta qiyinchiliklar tug‘dirar, bu darsliklar bolalar uchun uncha tushunarli emas edi. Shuning uchun, u o‘quvchilarga ularning ona tilida darsliklar yaratish zarur, deb hisoblardi.

Shakuriy tomonidan 1907-yilda yozilgan ikkinchi kitob «Jome’ ul hikoyat» («Hikoyalar to‘plami»)dir. U qayta tuzatilib, to‘ldirilib, 1911-yilda ikkinchi marta nashr qilingan. Kitob boshlang‘ich maktabning ikkinchi sinfi uchun xrestomatiyadir. Yetmish ikki betli bu kitobning matni nafis qog‘ozda aniq, chiroyli xat bilan yozilgan. Birinchi qismiga tarbiyaviy ahamiyatga molik 48 ta kichik-kichik hikoyalar kiritilgan. Ikkinchi qismida mumtoz yozuvchilarning asarlari va tarjimalaridan olingan 15 ta She’riy parcha berilgan. Kitobning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati Shundan ibortaki, undagi o‘quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shakuriy tomonidan tuzilgan va nashr qilingan yana bir kitob «Zubdat ul ash’or» to‘plami bo‘lib, unda ko‘p Shoirlarning She’rlari berilgan. Kitobdagi yangi usul maktabiga atab yozilgan tojik tilidagi She’rda Shunday deyiladi:

Ey muallim, maktabing taraqqiyot topib, sernur bo‘lsin, yaxshi noming to abad dunyoda mashhur bo‘lsin. G‘ayrat qil, toki biz olimu dono bo‘laylik, – axir, bir savtiya usulining sevguchilarimiz, tarbiyat qil, har kishining xotirini Shod qil. Har fandan bizga o‘rgat, biz bahramand bo‘lib nodonlikni nari quvaylik. Garchi nodon kishilar senga ta’na-haqorat etsalar ham g‘am ema. Albatta, dushmanlar Sharmsor bo‘lurlar!

Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, unda o‘z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o‘g‘il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o‘qita boshlaydi.

usuldagi maktab tashkil qilib, unda o‘z rahbarligida xotini muallimalik qilar edi. Keyinchalik o‘g‘il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o‘qita boshlaydi.

Demak, u Samarqandda yangi usuldagi maktabning targ‘ibotchi va tashkilotchilaridan biri edi. Bu ishda u hech qanday moddiy manfaatni ko‘zda tutmas va ayni choqda hech kim unga moddiy yordam bermas edi. Samarqand maktablariga shakuriy birinchi bo‘lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo‘jalik va bog‘dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o‘rgatar edi, bu mashg‘ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

1925-yilda A.Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o‘z mablag‘lari hisobiga to‘rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi.

XXXI BOB. 1917-1945-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

31.1. Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati

1917-yil to‘ntarishidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy va xalq maorifi sohalarida keskin o‘zgarish yuz berdi.

Turkiston o‘lkasida milliy demokratiya vakillari, mashhur ma’rifatparvar ziyolilar tomonidan yangi usuldagi maktablarning keng tarmog‘ini yaratish, maktab-maorif borasida zudlik bilan islohotlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator takliflar ilgari surildi.

Bu davrda milliy ziyolilar faoliyati keng tus oldi, jumladan: jadidchi ziyolilar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Fitrat, cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, g‘ozi yunus, xurshid va boshqa ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar va yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish sohasida faoliyat ko‘rsatdilar.

1917-yil fevralidan oktyabr’ orasida Turkistonning yirik Shaharlarida turli tillarda dars beriladigan xususiy maktablar ochildi.

Turkiston o‘lkasining markazi - toshkentda 1917-yil 9-14-may kunlari o‘qituvchilarning 1-o‘lka qurultoyi bo‘lib, bunda «Turkiston o‘qituvchilar ittifoqi» tashkil etildi.

1918-yilning 23-martida RSFSR Maorif Xalq Komissarligi Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarligi kengashi o‘lka xalq ta’limi kengashini tashkil etish haqida buyruq chiqardi. Mazkur kengash Turkiston hududida xalq ta’limi tizimiga rahbarlik qilishi lozim edi. Joylarda ularning viloyat, Shahar, uezd kengashlari huzurida xalq ta’limi kengashlari tashkil etildi.

1918-yilning yozida Samarqandda “musulmon o‘qituvchilari uchun pedagogik kurslar” ochildi. O‘sha yilning kuzida toshkentda - toshkent uezdining tub erli aholisi uchun maktab o‘qituvchilari kurslari ochildi.

1918-yil 9-aprelda Munavvar Qori uyida to‘plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo‘limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. Ular 22 kun ichida musulmon bo‘limi dasturlarini tuzadilar. O‘Sha yilning 3 mayida dorilfununning musulmon bo‘limi rahbariyatiga saylov bo‘lib, unda Munavvar Qori rais (rektor), Iso To‘xtaboev birinchi muovin, Burxon Habib ikkinchi muovin, Abdusamad Qori Ziyobov xazinador, Muxtor Bokir sarkotib bo‘lib saylandi. 13-may (yakshanba) kuni toshkentning eski Shahar qismida Vikula Morozovning sobiq do‘koni binosi (hozirgi o‘zbek yosh tomoshabinlar teatri)da musulmon aholi uchun “Xalq dorilfununi” ochiladi. Bu bo‘lim tez orada o‘ziga xos yirik bilim maskaniga aylanadi.

Universitet tarkibida ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-matematika, tarix-filologiya, qishloq xo‘jaligi va texnika fakul’teti bor edi. 1919-yil fevraldan universitet qoshida ishchi fakul’teti ham faoliyat ko‘rsata boshladi.

1918-yil noyabrda toshkentda maxsus sharqshunoslik ixtisosligidagi oliy ta’limning to‘ng‘ichi - Turkiston Sharq instituti tashkil qilindi. Institut haqidagi Nizomda uning asosiy vazifalari qilib Turkiston mahalliy aholisi va qo‘shni mamlakatlar aholisi tilini yaxshi biladigan sharqshunos olimlar va amaliyotchi xodimlar tayyorlashdir, deb belgilab qo‘yilgan edi.

1920-yilda Turkiston xalq universitetiga muqobil Turkiston davlat universiteti (keyin o‘rta Osiyo, hozirgi M.Ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti) tashkil qilindi.

Universitet faoliyatining birinchi yili oxiriga kelib unda 6 ta fakul’tet: ijtimoiy-iqtisodiy, tarix-filologiya, fizika-matematika, texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jalik fakul’tetlari ish olib bordi.

Vaqt o‘tishi bilan universitet faqat eng yirik o‘quv yurtigina emas, balki ilmiy-nazariy va amaliy tafakkurning, tabiiy va amaliy fanlarning juda xilma-xil sohalari bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarning eng muhim markazi ham bo‘lib qoldi.

Bol’Sheviklarning aksil milliy, umuminsoniy ilg‘or ma’rifatchilikka dushmanlik qilishlariga qaramasdan 1917-1924-yillarda o‘zbekistonning hozirgi hududida madaniy-ma’rifiy turmush vujudga keldi, xalq ma’naviyatida o‘z aksini topdi.

Xalq ta’limining iste’dodli tashkilotchilari Abdulqodir shakuriy, Ismatulla Rahmatullaev, ishoqxon Ibrat, Munavvar Qori, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdulla Avloniy va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi, ijtimoiy-siyosiy, diniy to‘siqlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg‘or fikr egalarini, buyuk olimlarni etkazdi, insoniyatga ilm-fan, ma’naviyat sohasida o‘lmas durdona asarlar, fikrlar qoldirdi.

Bunday ilg‘or fikrli mutafakkir olimlarning asarlari Turkiston o‘lkasi maktablarida to 1917-yil oktyabr’ to‘ntarishiga qadar asosiy manba sifatida foydalanib kelingan. Jumladan, «Haftiyak» kitobi bo‘lib, unda Qur’on suralaridan ettitadan biri tanlab olingan. Taxminan, VIII asrlarda yozilgan. X-XII-asrlarda

fors-tojik tilida islom dini ruknlari bayon etilgan “Chorkitob”, XII-asrlardan boshlab esa Ahmad Yassaviyning hikmatlari asosida bilimlar berilgan.

Abu Nasr Forobiy, yusuf Xos Hojib, Abulqosim Mahmud bin Umar zamaxshariy, alisher Navoiy asarlaridan ham keng foydalanilgan. Zero, bunday nodir asarlar va Sharq mutafakkirlarining oliyjanob hikmatlari, g‘oyalari XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlarida Turkiston o‘lkasida pedagogik va uslubiy fikrlarning taraqqiy etishida muhim rol’ o‘ynadi. Ayniqsa Turkiston xalqlarining ma’rifatparvarlik pedagogikasi taraqqiyotida asosiy zamin bo‘ldi.

Markaziy Osiyo, jumladan Turkiston o‘lkasida mahalliy maktablarning xususiyati, ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, uni tashkil etish usullari o‘Sha davr tarbiyasi maqsadiga mos bo‘lgan.

Umuman Markaziy Osiyoda Oktyabr’ to‘ntarishiga qadar bir necha turdagi maktablar mavjud edi. Ular:

1. Musulmon diniy maktablar:
A) maktab (xona) - eski maktab;
B) qorixona;
V) madrasa;
2. Rus maktablari:
A) umumiy ma’lumot maktablari;
B) kasb maktablari;
V) rus-tuzem maktablari;
G) rus tilini o‘rgatish maktablari.
3. “Yangi usul” maktablari (usuli jadid).

Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotidagi kuchlar o‘rtasida yuz berayotgan sinfiy kurashning murakkabligi maktab-maorif masalalarida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Demak, endi turli vositalarni ishga solib yangi mazmundagi ma’rifatni tashviq qilish, tarbiya usullarini zamonaviylashtirish ta’limda qulay usullarni topish muammolari turar edi. Bu borada Turkiston o‘lkasidagi dastlabki maktablarda ilg‘or-ma’rifatparvar pedagoglar - toshkentlik Saidrasul Saidazizov, Abdulla Avloniy, namanganlik ishoqjon Junaydullaev - Ibrat, samarqandlik Abduqodir shakuriy, Saidahmad Siddiqiy, Ismatulla Rahmatullaev, qo‘qonlik Hamza Hakimzoda Niyoziylar muhim rol’ o‘ynashdi.

Ular XIX-asrning II-yarmida maydonga kelgan ma’rifatchilik harakatining merosxo‘rlari sifatida butun o‘lkada katta obro‘ga ega bo‘lib, rus, ozarbayjon, tatar va boshqa qardosh xalq pedagoglarining ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini hamda darsliklarini o‘rganib o‘lka maktablarida keng yoyishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Turkistonda ochilgan rus va tatar muallimlari boshchilik qilgan o‘zbek maktablarida qo‘llangan usullardan foydalanib o‘zlari tashkil qilgan maktablarda uzoq vaqt davom etgan “hijo” usuli o‘rniga “usuli savtiya”da ta’limni tashkil qildilar va darsliklar yaratdilar.

32.2. 1924-1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani

1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa qartasi qaytadan tuzildi.

Sobiq Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya rahbarligida respublikada adolatsiz milliy siyosat amalga oshirildi.

To‘ntariShning dastlabki kunlaridan boshlaboq mamlakatda bir tomonlama madaniy inqilobning amalga oshirilishiga alohida ahamiyat berildi, maktablarda o‘quv-tarbiya ishlari mazmuni tuzumning maqsadi asosida o‘zgardi. Din va «Qur’oni Karim»ga e’tibor umuman taqiqlandi. Tarix darslarida voqealar buzib talqin etildi. Adabiyot darslariga esa ko‘proq rus yozuchilarining asarlari bilan tanishtirishga katta ahamiyat berildi.

Sho‘rolar tuzumi davrida kommunistik firqa qarorlari asosida pedagogika fanini shakllantirishda rus pedagoglari asarlaridan unumli foydalanib asarlar yozishga zo‘r berildi. Aksariyat hollarda esa rus pedagog olimlari yozgan darsliklardan foydalanildi. Natijada o‘zbek pedagogikasi markscha-lenincha nazariya doirasida Shakllangan soxta fanga aylanib ketdi. Bu davrda nafaqat pedagogika, balki boshqa fanlarning ham rivojlanishi sust kechdi. Masalan, «o‘zbekiston tarixi» aslida «SSSR tarixi» darsligining ilovasi edi. «SSSR tarixi» esa Rossiya tarixidan iborat bo‘lganligi ma’lum. Xuddi Shu kabi o‘zbek pedagogikasi ham sovet pedagogikasining tarkibiy qismiga aylandi. O‘Sha davrlarda yozilgan ko‘pgina pedagogik asarlar bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Chunki o‘zbek pedagogikasi nihoyatda siyosiylashgan edi. Pedagog olimlar tadqiqotlarida Marks, Engel’s, Lenin asarlaridan ko‘chirmalar asosiy o‘rinni ishg‘ol qilardi.

Bolalar va o‘smirlarga umumiy ta’lim berishni tezlashtirish hamda kattalar o‘rtasida savodsizlikni tugatish harakati boshlandi. 1930-yil 14-avgustda sobiq SSR Ittifoqi Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Soveti tomonidan qaror qabul qilindi. Bu qaror umumiy boshlang‘ich ta’limni joriy etish va savodsizlikni qisqartirishga yordam berdi.

30-yillarning oxirlariga kelib, umumiy etti yillik ta’limni amalga oshirishga kirishildi.

Biroq bu borada jiddiy xatoliklarga yo‘l qo‘yildi. Jumladan, maktab yoshidagi bolalarning bir qismi o‘qishga tortilmadi. Mahalliy millat bolalari orasida o‘qishni tashlab ketish ortib bordi. Ko‘pgina maktablarda muallimlarning bilim darajasi etarli bo‘lmaganligi tufayli o‘qish saviyasi talabga javob bermas edi. Shuningdek, maktablar soni muttasil ortib borayotgan bo‘lsada, ularning o‘quv moddiy bazasi nochor ahvolda qolayotgan edi.

Ma’lumki, bol’sheviklar mafkurasi negizida sinfiy kurash g‘oyasi ustivorlik qildi. O‘zgacha fikrlashni «sinfiy dushman» deb baholandi.

Ta’lim sohasini «sinfiy dushman»dan tozalash maqsadida hatto maxsus qarorlar ham qabul qilindi. Masalan, VKP (b) MQ o‘rta Osiyo byurosi 1933-yil 27-martda o‘qituvchi kadrlar safini tozalash haqida qaror qabul qiladi va uning natijalari Shu yilning 25-aprelida bo‘lib o‘tgan o‘rta osiyo bo‘yicha partiyaning madaniy sohaga bag‘ishlangan kengashida muhokama qilinadi. Bunda mavjud 700 o‘qituvchidan faqat 120 tasi maktablarda ishlashga loyiq deb topildi.

Bunday «tozalash»dan maqsad saviyasi past bo‘lsada mehnatkash tabaqalaridan chiqqan kishilarni tanlab olib, eng zakovatli omilkor kishilarni siqib chiqarib, «Shaklan milliy, mazmunan proletar madaniyati»ni vujudga keltirishdan iborat edi. «tozalash»da kishining qobiliyati, madaniy saviyasi va ma’lumot darajasi emas, balki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy mezon qilib olindi.

Sobiq SSSR MK va xkkning 1929-yil 7-avgust qaroriga asosan arab alifbesi o‘rniga lotin alifbosi qabul qilindi. Arab yozuvining lotinlashtirilishi dinga qarshi tashviqotning bir Shakli edi. Bu islohotning oqibatida sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o‘zida mujassam qilgan minglab arab yozuvidagi qimmatbaho manbalardan o‘zbekiston xalqlarini mahrum qildilar. O‘Sha davrning taniqli tilshunos olimi g‘ozi Olim yunusov va ilg‘or pedagoglar bu islohotni madaniy bilimsizlik deb baholadilar.

1940-yilning may oyida o‘zbekistonda «o‘zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitidan rus grafikasi asosidagi yangi o‘zbek alfavitiga ko‘chirish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi.

Mazkur siyosatlar tufayli o‘zbek xalqi o‘z tarixi, milliy urf-odatu an’ana, umuminsoniy qadriyatlarini bilish va o‘rganish imkoniyatlaridan mahrum bo‘ldi. Millat taqdiri, maorif ravnaqi uchun jon fido qilgan, erkin, hur fikrli alloma ma’rifatparvarlar — Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori abdurashidxonov, Elbek, Otajon hoshimov, shokir Sulaymon, cho‘lpon, Abdulla Qodiriy qatl etildi. Usmon Nosir, Botu va boshqalar Sibirga surgun qilindi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan xulosa shuki, go‘yo to‘ntarish Turkiston o‘lkasida ma’rifatning, ijtimoiy tuzumning, ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. O‘lkada juda ko‘plab ziyolilar etishib chiqdi, zavod va fabrikalar qurildi, lotincha savodsizlikka barham berildi. Lekin kezi kelganda shu narsani ham qayd etish kerakki, Oktyabr’ to‘ntarishi o‘lkada, yuqorida ta’kidlanganidek, sobiq sovet ishlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etish bilan birga, o‘zbek milliy qadriyatlariga putur etkazishga, milliy xalqni ruslashtirishga harakat qilingani, ma’naviyatimizning yo‘qolayotganligiga, tariximizning toptalishiga urinishlar bo‘lganligini hech kim inkor etolmaydi, albatta, chunki har qanday xalq o‘z milliyligi, qadriyatlari va madaniyati bilan buyukdir. O‘zbek xalqining ana shu buyukligi ruslar istilosi ostida ko‘p yillar davomida toptalib, oyoq osti qilindi. Endilikda shukrlar bo‘lsinki, mustaqillik sharofati bilan yo‘qotayozgan barcha milliy va ma’naviy boyliklarimiz, qadriyatlarimiz tiklanmoqda.

Bu albatta, shu bugungi o‘zbek maktabini, uning ta’lim-tarbiyasini Sharqona uslubda, jahon redagogikasining ilg‘or tamoyillari asosida qayta qurishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixdan ma’lumki, sobiq Sovet davlati, xalqi o‘z boshidan kechirgan og‘ir davrlardan biri ikkinchi jahon urushi yillaridir. O‘Sha davrda mamlakatimiz yoshlarini, xususan respublikamiz yoshlarini yuqori axloq ruhida, ayniqsa vatanparvarlik, do‘stlik, mehnatsevarlik, ongli intizom, fidokorlik, birdamlik ruhida tarbiyalash avj olib ketdi. Bu tarixiy sharoit taqozosi edi.

Ikkinchi jahon urushi davrida maktablarning o‘quv dasturlari Sharoitga moslashtirildi.

1943-yilda O‘zbekiston hududida 154 ta bolalar uyi bor edi. Bolalar uyining soni 1945-yilga kelib 242 taga, undagi tarbiyalanuvchilar soni esa 31.500 ga yetdi.

Urush davrida o‘qituvchilar sonini ko‘paytirishga alohida e’tibor berildi. Chunki ko‘pchilik pedagoglar frontga safarbar qilinganligi uchun Respublika bo‘yicha 1940-1941-o‘quv yilida 36267 nafar o‘qituvchidan 30616 kishi qoldi. Frontga ketgan o‘qituvchilar o‘rnini to‘ldirish uchun qisqa muddatli o‘qituvchilar tayyorlash kurslari ochildi. 1941-yildan 1943-yilgacha bu kurslarni 16 ming o‘qituvchi bitirib chiqdi. Boshqa sohada ishlayotgan o‘qituvchilar ham maktabga qaytarildi.

Mahalliy maktablar uchun o‘qituvchilar tayyorlash ishiga, ayniqsa, o‘zbek xotin-qizlaridan ko‘proq jalb etish zarurligi alohida qayd etildi.

Shaharlardagi maktablarda o‘qish uch smenada olib borilar edi. Bu hol esa tabiiy holatda ta’lim-tarbiya jarayonini qiyinlashtirishga olib kelgan edi. Darslar 40 minutga qisqargan. Ashula va rasm darslari umuman o‘tilmagan.

Kitoblarning etishmasligi tufayli o‘qituvchilar og‘zaki tushuntirishga katta e’tibor berdilar. Yangi o‘tiladigan dars o‘qituvchi tomonidan doskaga yozilar, o‘quvchilar uni daftarga ko‘chirib olishar edi.

Sharoit taqozosi bilan ko‘pchilik o‘quvchilar ham maktabda o‘qib, ham qishloq xo‘jalik ishlarida faol qatnashdilar. Barcha ishlab chiqarish muassasalarida, zavod va fabrikalar qoshida kurslar ochilib, o‘quvchilar o‘qishdan ajralmagan holda mehnat qildilar.

O‘zbekiston mahalliy Sovetlari, sobiq SSSR XKS ko‘rsatmasiga binoan, 1943-yilning 1-yanvaridan boshlab 8-10-sinf o‘quvchilarini hamda katta yoshdagi o‘zbek o‘qituvchilarini o‘qish haqi to‘lashdan ozod etdi. Qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq, turkman va boshqa mahalliy xalqlar bolalari ham o‘qish haqi to‘lashdan ozod bo‘lishdi.

1942-yilning boshida sobiq SSSR Xalq Komissarlari Soveti qishloq xo‘jalik asoslarini maktabda o‘qitiladigan fanlardan biri sifatida kiritish haqida buyruq chiqardi.

Davlatning maxsus ko‘rsatmasiga binoan 1943-yildan boshlab ba’zi maktablarda o‘quv ishlab chiqarish ustaxonalari ochila boshlandi.

XXXII BOB. 1945-1991-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

32.1. 1945-1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji

Ikkinchi jahon urushi g‘alaba bilan tamom bo‘lgach respublika xalq ta’limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni engib o‘tishga to‘g‘ri keldi.

Urush davrida maktablar tarmog‘i birmuncha qisqargan, o‘quvchilar soni ham Shunga yarasha kamaygan edi. Ko‘pchilik o‘quvchilar turli sinflardan o‘qishni tashlab, frontga, front uchun qurol-aslaha ishlab chiqaradigan zavod va fabrikalarga ishga ketib qolishdi.

O‘sha yillarda yangi maktab binolari qurilmaganligi va eski maktablarni o‘z vaqtida ta’mirlanmaganligi sababli ko‘p maktab binolari o‘quv jarayonini maromida tashkil etish va gigiena talablariga javob bermas edi.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda o‘quvchilarning maktabni tashlab ketishi garchi birmuncha kamaygan bo‘lsa ham, har holda davom etaverdi: 1945-46-o‘quv yilida o‘zbekiston maktablaridagi o‘quvchilar soni rejadagi 1 mln.10 ming kishi o‘rniga 823 ming kishidan iborat bo‘ldi. Sinfda qolgan o‘quvchilar soni ham ko‘p bo‘lib, 1946-yilda u barcha o‘quvchilarning 37%ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o‘qishni tugaguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko‘ndalang bo‘lib turardi.

O‘qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o‘qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko‘pchiligi halok bo‘lgandi. Xususan, 1947-yilda respublika bo‘yicha 4 ming o‘qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorif bo‘limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta’lim bo‘yicha direktor muovinlarining 60% dan ko‘prog‘i tegishli ma’lumotga ega emasdi. 1950-yilda 7125 maktab o‘qituvchilarga muhtojlik sezardi.

Rasmiy Hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillarda o‘zbekiston tarixi, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tili, musiqa va ashula darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soat kamayib ketdi. Ulardan bo‘shagan soatlarga esa rus tili va adabiyoti fani o‘qitildi. Masalan, o‘qituvchilar «XIX-asrni ikkinchi yarmi XX-asr boshlarida o‘zbek adabiy muhiti», «Milliy madaniy jarayonlar» to‘g‘risidagi mavzularda dars o‘tishi lozim bo‘lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko‘rsatib berishga majbur bo‘ldilar. Natijada boy va ko‘hna o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang‘ich maktablarda rus tili va adabiyoti fanlari uchun 1600 soat ajratilgan.[118]

Xalq xo‘jaligini tiklash hamda rivojlantirish sohasida urushdan keyingi birinchi besh yillikda o‘ziga xos jiddiy kamchiliklarga duch kelindi. Birinchidan, aholi o‘zi tug‘ilib o‘sgan Shaharlariga qaytib ko‘chib o‘tayotganligi sababli aholi sonida keskin o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ikkinchidan, majburiy ta’lim maktablarida o‘qitiladigan bolalarni hisobga olishning aniq va tezkor tizimi belgilanmagan edi.

Shuning uchun ham maorif xodimlari tezlik bilan maktab shoxobchalarini tiklash va kengaytirish hamda ota-onalari bilan birga evakuasiyadan qaytib kelayotgan bolalarni yo urush vaqtida maktabni tashlab ketgan bolalarni maktablarga tortish sohasida juda katta ishlar qilish kerak edi. Bunday mas’uliyatni bajarishda ular dastlab boshlang‘ich maktablarni tamomlagan bolalarning hammasini to‘la ravishda o‘qishga tortishga ayniqsa katta e’tibor berishlari lozim edi, bu ish ancha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu esa bolalarni va o‘smirlarni umumiy-majburiy o‘qitishni kengaytirish uchun zarur shart-sharoit yaratib berdi.

Bu davrga kelib o‘rta maktabni bitirib chiqayotganlarning soni oliy o‘quv yurtlariga qabul qilinayotganlarning soniga qaraganda ancha ortib ketdi. O‘rta

[118] Насыров Р. Социальное развитие сел Узбекистана. (1965—1983)-Т., 1994, с.27—28.

maktablarni tamomlab chiqqanlarning ko‘plari sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ishlashlariga to‘g‘ri keldi. Biroq ular bu amaliy faoliyatga etarli sur’atda tayyorlanmagan edilar: maktablarda o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi.

O‘rta maktablarni tamomlaganlarni maxsus kasbiy tayyorlarligini oshirish maqsadida texnikumlar soni ko‘paytirildi va shu texnikumlar qoshida to‘liq o‘rta ma’lumotli kishilarni qabul qiladigan bo‘limlar ochildi. Bu bo‘limlarga o‘qish muddati 2-3 yil qilib belgilandi. Mehnat zahiralari tizimida o‘rta maktab negizidagi texnika bilim yurtlari ochila boshladi. Bu texnika bilim yurtlari 1-2 yillik o‘qish muddati bilan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlab berishi kerak edi.

Urushdan keyingi yillarda 1943-yilda ochilgan ishchi va dehqon yoshlari maktablari (kechki va smenali) tarmog‘i birmuncha kengaytirildi.

1951-55-yillarga mo‘ljallangan beshinchi besh yillik rejada politexnika ta’limiga katta o‘rin berildi. Shu munosabat bilan ittifoqdosh respublikalarning Ta’lim vazirliklari o‘quv rejalari va dasturlarini qayta qurib, politexnika ta’limini oshirish to‘g‘risida maktablarga ko‘rsatmalar berdilar.

1957-58-o‘quv yilidan boshlab ba’zi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida boshlang‘ich maktab uchun oliy pedagogika ma’lumotiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar tayyorlashga kirishildi va buning uchun maxsus fakul’tetlar tashkil etildi. Lekin urushdan keyingi yillarda hamda mavjud jamiyatni rivojlantirish jarayonida respublika maktablarida hamma narsa risoladagidek olib borildi deyish xato bo‘lar edi. Chunki, o‘tgan davrlar chuqur tahlil qilinganda qator kamchiliklar borligini ko‘rish mumkin. Chunonchi, ko‘pgina maktablarda o‘quv-tarbiya ishlarining sifati davlat standarti talablariga etarlicha javob bera olmas, bir sinfda ikki yil qolgan o‘quvchilar soni hamon ko‘p, o‘quvchilarning maktabni tashlab ketishlari esa tobora ko‘payayotgan edi. Ko‘pgina maktablarning moddiy-texnika bazasi tipovoy talablariga javob berolmasdi, maktablarda matematika, fizika, rus tili va chet tili fanlarida dars beradigan malakali o‘qituvchilar etishmas edi, etti yillik umumiy majburiy ta’limni amalga oshirish va o‘rta ta’limni rivojlantirish borasidagi ishlarda ham muayyan nuqsonlar yo‘q emas edi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish o‘Sha kunning birinchi galdagi vazifasi edi.

Boshlang‘ich maktabda to‘rt yillik boshlang‘ich ta’limdan uch yillik boshlang‘ich ta’limga o‘tish amalga oshirildi.

To‘liqsiz etti yillik o‘rta maktab tashkil etilib, umumiy majburiy sakkiz yillik ta’lim maktabiga aylantirildi.

Sakkiz yillik maktabni tamomlagan o‘quvchilar quyidagi o‘quv yurtlarida o‘qishlari mumkin edi. Ular:

1) To‘liq umumiy ta’lim o‘rta maktablarida (IX-X-sinflarda);

2) o‘qish muddati uch-to‘rt yillik bo‘lgan texnikumlarda;

3) hunar va umumiy ta’lim bilimlarini birgalikda beradigan hunar-texnika bilim yurtlarida hamda

4) ishchi va qishloq yoshlari maktablarida.

1959-1975-yillarda respublikada internat-maktablar, maxsus maktablar va kuni uzaytirilgan guruhlar tarmog‘i rivojlandi va ularda tarbiyalanuvchilarning soni o‘sdi; jismonan nuqsonli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil qilindi;

pedagog xodimlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmog‘i kengaytirildi.

70-80-yillarda o‘zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o‘zgarmay qolaverdi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilanmadi. Ammo maktablar, o‘quvchilar soni yildan-yilga ortib boraverdi. Masalan, o‘zbekistonda 1945-46-o‘quv yilida jami 4525 maktab bo‘lib, ularda qariyb 998 ming o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1970-71-o‘quv yilida respublikaning umumiy ta’lim maktablari soni 7072 taga, o‘quvchilar soni esa 3 mln.164 ming kishiga etdi. 1970-1980-yillarda xalq ta’limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag‘ 11% dan 8% ga kamayib ketdi. 5% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi[119].

Umuman xulosa qilib aytganda urushdan keyingi va tinch qurilish davridan to mustaqillik davrigacha respublika sobiq Ittifoq ta’sirida rivojlandi, takomillashib bordi. Lekin shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘zbekiston maorifi, fan va madaniyati rus va Yevropa madaniyati ta’sirida rivojlandi, ammo bu albatta o‘zbek xalqining milliyligidan, asrlardan beri avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlardan ajralgan holda rivojlanish edi.

Respublika aholisi madaniyatining o‘sishida ta’lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo‘lib qo‘shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bog‘liq.O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda o‘zbek xalqining sa’y-harakatlari bilan ta’lim sohasida ma’lum yutuqlarga erishildi. 1940-41-o‘quv yilidan 1970-71-o‘quv yiligacha bo‘lgan davrda umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta’lim maktablari tarmog‘i ham kengayib bordi.

Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma’naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta’limga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Jumladan, ko‘pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, ko‘pgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortig‘i markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi.

Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi ta’minlanmasdi. Buning sababi xalq ta’limiga qoldiq prinsipi asosida mablag‘ ajratilishida ko‘rinardi. Fan, madaniyat va xalq ta’limiga sarf-xarajatlar byudjet mablag‘ining atigi 2,7 foizini tashkil etardi.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi sessiyasida “O‘zbekiston SSRda majburiy etti yillik ta’limni to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi.

Yangi qonunga ko‘ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo‘lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi,

[119] Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е—90-е г. и проблемы и тенденции. — Т., 1996. С.20.

o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to‘g‘ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959-yil martda O‘zbekiston Oliy Soveti “Maktab xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo‘lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o‘zgarmadi.

O‘zbekistonda maktabning turmush bilan bog‘lanishini mustahkamlash to‘g‘risidagi 1959-yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o‘qishni ishlab chiqarish bilan qo‘shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bildn o‘n yillik o‘rta maktablar qayta tashkil etilib, o‘n bir yillik o‘rta maktablarga aylantirildi, ularda o‘quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o‘rgana boshladilar, O‘quvchilarga kasb ta’limi berishga yuzlab korxonalar, xo‘jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o‘quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o‘quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta’limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi. Korxonalar, xo‘jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablar yo‘q edi. Mehnat ta’limi o‘qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o‘rganish bekor qilindi.

Bu davrda respublika maktablari o‘qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta’minlandi. Biroq oliy ma’lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o‘qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og‘ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o‘qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar.

Sovetlar davrida maktablarning o‘quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O‘zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o‘rgatilmasdi. Ona tilini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o‘zbek adabiy tilining yozma va og‘zaki shakllarini puxta o‘zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi va ma’naviy madaniyati ham maktabda deyarli o‘rgatilmas edi. Sovetlar davrida “SSSR tarixi” deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o‘qitilardi. Unga ilova sifatida “O‘zbekiston SSR tarixi” bir necha soatgina o‘qitilar, ko‘p hollarda bu kurs o‘tilmay qolib ketardi.

Maktablarda iqtidorli bolalarni o‘qitishga e’tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg‘usi, ulug‘ allomalarimiz va ular qoldirgan ma’naviy meros, o‘z ona tili, urf-odatlari bilan faxrlanish hissi shakllantirilmasdi.

Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o‘qitish o‘ta siyosatlashtirildi. Ko‘zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an’analar va ma’naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an’anasi ko‘zga tashlanib bordi. Ta’lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik prinsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliy-madaniy qadriyatlarni, urf-odatlarni o‘rganishiga to‘sqinlik qildi.

70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro‘y bergan kamchilik va muammolar ta’limga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shunday bo‘lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O‘zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985-yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi.

Jamiyatdagi turg‘unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi kiyinchiliklar, ma’naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Umumta’lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo‘yab ko‘rsatish hollari salbiy ta’sir qildi. Yaqin o‘tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g‘ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma’naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko‘proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o‘zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o‘qish-o‘qitishda sifat o‘zgarishining ro‘y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81 o‘quv yilida respublikamizda mavjud 7000 dan ortiq umumta’lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og‘ir bo‘ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko‘prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisdigi sababli 5800 ta maktabda o‘qish ikki smenada olib borilardi. Madaniy-ma’rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» prinsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta’minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e’tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta’limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo‘shib hisoblaganda ular byudjet mablag‘darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta’limi oldida turgan asosiy ta’lim-tarbiya ishlari ko‘p tomondan o‘qituvchi kadrlar sifatiga bog‘liq edi. 80-yillarning o‘rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma’lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo‘ldi, ularda ma’lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o‘qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o‘quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. O‘quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etilishi ta’lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi.

1985-1990-yillar xalq ta’limi tizimida ayrim siljishlar ruy berdi. Ammo bu davrda ta’lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’limda rivojlanishning ekstensiv yo‘li o‘z

imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib bo‘ldi. O‘qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta’lim tizimining chirishi kuchaya bordi.

80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko‘zidan yashirishga o‘rinishdan bo‘lak narsa emasdi. Islohotdan ko‘zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko‘tarish, mutaxassis va o‘quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta’limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta’minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi.

Chunonchi, 1985-1990-yillarda O‘zbekistonda 3693 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan yangi o‘quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig‘i bilan bu raqam 920 ming o‘ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi.

1985-yilda respublika maktablarida o‘quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990 yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o‘qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro‘sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990-yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o‘rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o‘rtacha 17 mingdan yosh o‘qituvchilar tayyorlangani holda, maktabda faoliyat ko‘rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta’lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

32.2.1924-1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani

Ma’lumki, 1924-yilda amalga oshirilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida mintaqa kartasi qaytadan tuzildi. Shuni ta’kidlash lozimki, 20-30-yillardagi juda murakkab, siyosiy ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar respublikaning milliy madaniyatiga har hil tarzda ta’sir o‘tkazdi, barcha sohadagi o‘zgarishlarni qarama-qarshi tusga kiritdi va respublika taraqqiyotining asosiy tendentsiyalari hamda yo‘nalishlarini uzoq yillarga belgilab berdi. Respublika sharoitlarida madaniy taraqqiyotning zamonaviy rivojlangan darajasiga o‘tish xaddan tashqari katta qiyinchiliklarni yengish bilan bog‘liq bo‘lib, keskin mafkuraviy kurash bilan birgalikda davom etib bordi. Shunday bo‘lsada, madaniyatni yangidan qurish jarayonlari tobora ustuvor tus oldi. Buning sabablari avvalo o‘zbek xalqining azaldan bilimga intilishi, madaniy merosni qadrlashida ko‘rinadi. Bundan tashqari oktyabr to‘ntarishidan avval madaniy ishlar olib borgan jadid deb atalmish ziyolilar xalqqa yordam berish uchun maorif sohasi, maktablarda ishlab, o‘z faoliyatlarini davom ettirdilar. Bu jarayonlar avvalo darslar ona tilida olib boriladigan I (besh yillik ta’lim) va II (turt yillik ta’lim) bosqich maktablarni va ularni darsliklar, o‘quv qurollari bilan ta’minlash, maorif institutlari, o‘qituvchilarni tayyorlash kurslari va boshqalarni tashkil etishdan iborat bo‘ldi. 1924-25-o‘quv yilida respublika byudjetining 24 foizi xalq maorifi uchun ajratildi. Bu maktab qurilishini tezlashtirishga imkon berdi. I va II bosqichdagi umumta’lim maktablarining soni 1928-29-o‘quv yiliga kelib deyarli

2,5 mingtaga yetdi. Shu bilan bir vaqtda katta yoshli aholi o‘rtasida savodsizlikni tugatish yuzasidan keng miqyosda kampaniya avj oldirildi.

1921-22-o‘quv yilidayoq respublikaning ko‘pgina shaharlari va qishloq joylarida mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko‘rsatdi, ularda 50 ming kishi xat-savod chiqardi. Savodsizlikni tugatish ishi tiklash davrining dastlabki yillarida kiyinchiliklarga duch keldi: o‘qituvchilar, maktab binolari, asbob-jixozlar, o‘quv qo‘llanmalari, pul mablag‘lari etishmas edi. Biroq bu soha, garchi qiyinchilik bilan bo‘lsada, izga tusha boshladi, katta yoshli kishilarni o‘qitish shakl va usullari takomillashtirildi, savod maktablari tarmog‘i birmuncha kengaytirildi, savodsizlikni tugatuvchi mahalliy o‘qituvchilar soni oshdi. Bu dastlabki yutuqlar keyingi yillarda savodxonlikni oshirish yuzasidan avj olgan umumxalq harakatining debochasi bo‘ldi. Hamza Xakimzoda Niyoziy, T.Shermuhamedov, T.N.Qori Niyoziy, Ergash Komilov, Abdulqodir Nabixo‘jaev, Rozi Nazarov, Muharrama Qodirova, Zebuniso Polvonova, P.Qayumov, K.Abdurashidov va boshqalar yangi maktab yaratish, uni rivojlantirish uchun faol kurashdilar hamda dastlabki o‘qituvchilardan bo‘lib qoldilar. Shu yillarda Markaz siyosiy rahbariyati sovet tuzumiga sodiq bo‘lgan pedagog kadrlarni ko‘p miqdorda, tezkorlik bilan tayyorlab, ular orqali aholini, ayniqsa, yosh avlodni kommunistik g‘oyalar asosida tarbiyalash maqsadida qarorlar va rejalar ishlab chiqdi. Ularni og‘ishmay amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni ayamadi, bor ma’rifatchilarni hamda partiya, sovet, jamoat tashkilotlarining kuch-quvvatini safarbar qildi.

Maktablarning pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogika o‘quv yurtlarining keng tarmogi yaratildi: texnikumlar, maorif institutlari, o‘quv yurtlari ochildi. Ularda jadal sur’atlar bilan ommaviy miqyosda yangi o‘qituvchi kadrlar yetishtirib chiqarildi. 20-yillarning oxirlariga kelib ularning soni respublikada deyarli 5,5 mingtaga yetib qoldi. Xalq maorifi rivojlanib bordi. Xalqning bilimga bo‘lgan intilishi kun-sayin kuchayib borishi natijasida umumiy savodxonlik o‘sdi, bu narsa millatning ma’naviy imkoniyatlari yuksalishiga, ijodiy faoliyati ortib borishiga yordam berdi. Shunday bo‘lsada, bu jarayonlar partiyaning madaniy sohada zo‘rlik ko‘rsatishi tufayli mushkulliklarga uchradi.

Xalq maorifida bu narsa avvaliga milliy ta’lim shakllari yoyiladigan sohalarni cheklab qo‘yish, keyinchalik esa ularni butunlay yo‘q qilib yuborishda o‘z aksini topdi. Chunonchi, 20-yillarning boshlarida sovet maktablari bilan birgalikda eski usul maktablari, diniy tashkilotlar tomonidan ta’minlab boriladigan vaqf maktablari va madrasalari ham ishlab turar edi. 1925-yilda O‘zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar bo‘lib, ulardan 250 tasi yashirin holda ish olib borgan. Lekin sovet hokimiyatining insonparvarlikka zid siyosati natijasida ular 1928-yilga kelib o‘z faoliyatini amalda tugatdilar. Xalq ma’rifatining yuksalishi yo‘lida hamon g‘ov bo‘lib turgan muammo aholining savodxonligini oshirish bo‘lib, savodsizlikka barham berish davr talabi edi. Bu maqsadda ko‘plab yangi savod maktablari va kurslar ochildi. Minglab aholi savodli bo‘ldi. Shuni aytish joizki, 1930-yili umumiy boshlangich ta’limning joriy etilishi savodsizlik ko‘lamlarini qisqartirishga yordam berdi. Ajratilgan mablag‘lar

maktablar maydonini ancha kengaytirishga, ularning moddiy bazasini mustahkamlashga imkon berdi. Umumiy ta’limni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar, talabalar, ilm-fan xodimlari, yoshlar jamoalarining katta armiyasi safarbar etildi. 30-yillarning oxirlarida umumiy yetti yillik ta’limni amalga oshirishga kirishildi. 1940-yili respublikada barcha turdagi 5,5 mingdan ortiq umumta’lim maktablari ishlab turdi, ularda 1,3 mln.ga yaqin bolalar o‘qidi. Biroq bu davrda maktab yoshidagi hamma bolalarni ham, ayniqsa, qishloq joylarida o‘qishga jalb qilishning imkoni bo‘lmadi: maktab binolari, uskuna-jihozlar, o‘qituvchilar yetishmas edi va hokazo. Maktab ta’limi turli sohadagi bilimlarni egallab olgan, jamoat hayotiga faol qo‘shilib keta oladigan, oliy o‘quv yurtlari va texnikumlarga kirib o‘qiy oladigan savodxon yoshlarni yetishtirib chiqarishni ko‘paytirishga imkon bera oladigan jiddiy islohotga muhtoj edi. Afsuski, xalq ta’limiga buyruqbozlik nuqtai nazaridan turib, ekstensiv ravishda yondashish kuchayib bordi. Buning natijasida sifat muammolari chetga surilib, miqdor ko‘rsatkichlari birinchi o‘ringa o‘tdi. Ahvolni xo‘jako‘rsinga yaxshilash orqasidan quvish jamiyatning madaniy holatiga yomon ta’sir o‘tkazdi hamda oliy va o‘rta maktabga sezilarli darajada zarar yetkazdi. Respublika taraqqiyotining manfaatlari xalq xo‘jaligi va madaniyatining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni tezlashtirishni talab qilar edi. Tabiiyki, buni markaziy hukumat tushunardi, lekin unga O‘zbekistonning xalq xo‘jaligi barcha tarmoqlarida sotsializm, marksizm-leninizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan itoatgo‘y yuqori malakali mutaxassis kadrlar kerak edi, Shuning uchun oliy o‘quv yurtlarining ta’lim-tarbiya dasturlari, o‘quv rejalari, qo‘llanmalari va hokazolari avvalo kommunizm printsiplariga asoslangan bo‘lib, mutaxassislarni 4-5 yil muddat davomida partiya, sovet davlatiga sadoqatli bo‘lish bilan birga sinfiylik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. 20-yillarning ikkinchi yarmida o‘rta maxsus va oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlaydigan turli o‘quv yurtlari ochildi.

Davlat sinfiy tamoyilga amal qilib, bu o‘quv yurtlariga ishchi va dehqonlarning kirishi uchun sharoitlarni ta’minlab berdi. Boshqa toifadagi odamlar bu o‘quv yurtlariga kira olmas edi. Oliy o‘quv yutlarida o‘qish uchun zarur bo‘lgan umumiy ma’lumotni qisqa muddat ichida olish maqsadida ishchi fakultetlari tarmogi yaratildi. Shu tufayli 20-yillarning oxiridayoq respublikadagi oliy o‘quv yurtlarida asosan ishchi va dehqonlardan iborat 4 ming nafarga yaqin talabalar o‘qir edi. Mutaxassislar tayyorlashda RSFSR va boshqa respublikalar ham O‘zbekistonga yordam berdilar. 1927-yili faqatgina Rossiya Federatsiyasidagi oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida O‘zbekistondan kelgan 300ga yaqin talabalar ta’lim oldi. O‘rta Osiyodagi birinchi oliy o‘quv yurti – 1918-yili ochilgan Turkiston davlat universiteti – bu vaqtga kelib oliy ta’limning eng yirik markaziga aylandi. Universitet mutaxassislar yetishtirib chiqarish sur’atlarini yildan-yilga oshirib bordi: uni bitirib chiqgan kishilar soni 1928-yilga kelib 5 baravar ko‘paydi. Ammo ular orasida mahalliy xalq namoyandalari hamon kam sonni tashkil etardi. Sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, kolxozlar va sovxozlar tuzilishi, yangi-yangi idoralarning paydo bo‘lishi tegishli mutaxassislarga bo‘lgan talabni kuchaytirdi. Institutlar va texnikumlarga mutaxassislar etishtirib chiqarishni miqdor jihatidan ko‘paytirish vazifasi yuklandi, buning natijasida o‘qish

muddatlari ancha qisqartirildi. Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o‘quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo‘jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo‘llari, to‘qimachilik transport, tibbiyot institutlari va boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933-yili Samarqandda O‘zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) barpo etildi. 30-yillarning oxirlarida respublikada 44 ming talaba o‘qiydigan 30 ta oliy o‘quv yurtlari va 98 ta texnikumlar ishlab turdi. Institut va texnikumlarni bitirib chiquvchilarning soni bir necha baravar ko‘paydi. Bu yangi mutaxassislar xalq xo‘jaligi safiga kelib qo‘shildi. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda asosan ularning soni ko‘paytirildi, sifatiga esa e’tibor berilmadi. Institut va texnikumlarda mahalliy millat vakillari kam edi. Yuqori malakali o‘zbek professor-o‘qituvchilari va o‘zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmasdi. 20-30-yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e’tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926-yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o‘qigan bo‘lsa, 1936-yilda 186 ming ayol savodini chiqargan. Kasb-hunar ta’limi tarmoqlariga xotin-qizlar keng jalb qilindi. Dastlab ayollar orasidan savodsizlikni bitirish kurslari o‘qituvchilari, bog‘cha, yasli tarbiyachilari, maktab o‘qituvchilari tayyorlandi. Masalan, 1928-yilda Samarqand pedagogika kursida 73 nafar ayol o‘qigan. 1929-yilda o‘ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1932-yilda respublika oliy o‘quv yurtlaridagi talabalarning 20 foizini o‘zbek xotin-qizlari tashkil qilgan.

30-yillarda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida xotin-qizlardan yetishib chiqqan mutaxassislar ishlay boshladi. Urushning suronli yillarida respublika oliy o‘quv yurtlari va texnikumlar o‘z faoliyatlarini davom ettirdilar. Katta qiyinchiliklarga qaramay, ular sanoat, qishloq xo‘jaligi, maorif, tabobat va boshqa sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlab beradigan chinakam manba bo‘lib qoldi. 1943-yidda respublikada 41 oliy o‘quv yurti (ularnng 12 tasi ko‘chirib kelingan) va 52 o‘rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko‘rsatdi. Urush yillari davomida ularda 20 mingdan ziyod oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar yetishtirildiki, bu xalq xo‘jaligini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash imkonini berdi. Ular o‘z navbatida samarali mehnat qilib, fashizmni tor-mor keltirish ishiga munosib hissa qo‘shdilar. Pedagogik kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor berildi, chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi. Urush yillari O‘zbekistonda barcha turdagi qo‘shinlar uchun zobit kadr va mutaxassislar ham tayyorlandi. Toshkeshtga piyodalar bilim yurti ham ko‘chirib keltirilib, respublikamizda joylashtirilgan bir necha harbiy bilim yurtlari, oliy o‘quv yurtlarining harbiy fakultetlarida, o‘nlab turli kurslarda kadrlar tayyorlandi.

1945-1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji. Respublika aholisi madaniyatining o‘sishida ta’lim nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, qobiliyatini yuzaga chiqarish, ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning bir-biriga payvasta bo‘lib qo‘shilishiga yordam beradi. Ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim vazifalarini hal qilish aholining bilim darajasiga bog‘liq. O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda o‘zbek xalqining sa’y-harakatlari bilan

ta’lim sohasida ma’lum yutuqlarga erishildi. 1940-41-o‘quv yilidan 1970-71-o‘quv yiligacha bo‘lgan davrda umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar soni 2,5 baravar ortdi. Shunga yarasha umumta’lim maktablari tarmog‘i ham kengayib bordi. Biroq iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma’naviy va madaniy sohani rivojlantirishdagi nuqsonlar ta’limga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Jumladan, ko‘pgina maktablar, ayniqsa, qishloq joylarda namunaviy loyihalarsiz qurildi, ko‘pgina chala ishlari bilan foydalanishga topshirildi. Qishloq maktablarining 75 foizga yaqini vodoprovod, kanalizatsiyaga, yarmidan ortig‘i markazdan turib isitish moslamalariga ega emas edi. Respublikadagi talay maktablar zarur jihoz, mebel, asbob-uskunalar bilan yaxshi ta’minlanmasdi. Buning sababi xalq ta’limiga qoldiq printsipi asosida mablag‘ ajratilishida ko‘rinardi. Fan, madaniyat va xalq ta’limiga sarf-harajatlar byudjet mablag‘ining atigi 2,7 foizini tashkil etardi. O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi sessiyasida “O‘zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta’limni to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi. Yangi Qonunga ko‘ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo‘lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to‘g‘ri kelmasdi. Shuning uchun xam 1959-yil martda O‘zbekiston Oliy Soveti “Maktab xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo‘lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o‘zgarmadi. O‘zbekistonda maktabning turmush bilan bog‘lanishini mustahkamlash to‘g‘risidagi 1959-yilda respublika hukumati qabul qilgan qonunga asosan o‘qishni ishlab chiqarish bilan qo‘shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bilan o‘n yillik o‘rta maktablar qayta tashkil etilib, o‘n bir yillik o‘rta maktablarga aylantirildi, ularda o‘quvchilar fan asoslari bilan birga ishlab chiqarish kasblarini ham o‘rgana boshladilar, O‘quvchilarga kasb ta’limi berishga yuzlab korxonalar, xo‘jaliklar jalb qilindi, maktablarda minglab o‘quv kabinetlari, laboratoriyalar, ustaxonalar, o‘quv-tajriba, yer uchastkalari tashkil etildi. Shunga qaramay, ishlab chiqarish ta’limini maktablarda joriy qilish katta kiyinchiliklarga duch keldi.

Korxonalar, xo‘jaliklar bu ishga tayyor emas edilar. Maktablarda ustaxonalarni zarur asbob-uskuna bilan jihozlashga mablag‘ yo‘q edi. Mehnat ta’limi o‘qituvchilari yetishmasdi. Buning oqibatida islohot kutilgan natijani bermadi va majburiy kasb o‘rganish bekor qilindi. Bu davrda respublika maktablari o‘qituvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta’minlandi. Biroq oliy ma’lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o‘qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilardi, xolos. Ayniqsa, qishloqlarda ahvol og‘ir edi. Qishloq maktablarida fizika, matematika, rus tili va chet tili o‘qituvchilari yetishmasdi. Aksariyat hollarda o‘qituvchilar o‘z mutaxassisligiga kirmagan fanlardan dars berardilar. Sovetlar davrida maktablarning o‘quv-tarbiya ishlarida katta nuqsonlar mavjud edi. O‘zbek tiliga davlat maqomi berilmaganligi, davlat idoralarida ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi tufayli maktablarda ona tili chuqur o‘rgatilmasdi. Ona tilini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari rus tiliga

ajratilgan dars soatlarining yarmini ham tashkil qilmas edi. Yoshlar maktabni o‘zbek adabiy tilining yozma va og‘zaki shakllarini puxta o‘zlashtirmay, bitirib chiqib ketardilar. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi va ma’naviy madaniyati ham maktabda deyarli o‘rgatilmas edi. Sovetlar davrida “SSSR tarixi” deb nomlangan, aslida Rossiya tarixidan iborat fan o‘qitilardi. Unga ilova sifatida “O‘zbekiston SSR tarixi” bir necha soatgina o‘qitilar, ko‘p hollarda bu kurs o‘tilmay qolib ketardi. Maktablarda iqtidorli bolalarni o‘qitishga e’tibor berilmas edi. Maktab bolalari qalbida ona-Vatan tuyg‘usi, ulug‘ allomalarimiz va ular qoldirgan ma’naviy meros, o‘z ona tili, urf-odatlari bilan faxrlanish hissi shakllantirilmasdi. Maktablarda ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o‘qitish o‘ta siyosatlashtirildi. Ko‘zdan kechirilayotgan davrda maorif sohasida erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, yoshlarni milliy an’analar va ma’naviy madaniyat manbalaridan uzoqlashtirish an’anasi ko‘zga tashlanib bordi. Ta’lim va tarbiya ishlariga partiyaviylik va sinfiylik printsiplari asosida yondashish yoshlarning umumbashariy, milliymadaniy qadriyatlarni, urf-odatlarni o‘rganishiga to‘sqinlik qildi. 70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro‘y bergan kamchilik va muammolar ta’limga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Shunday bo‘lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O‘zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar soni va shunga yarasha maktablar soni ham yildan-yilga ortib bordi, ularning soni 1985-yilga kelib 7000 dan ortiqni tashkil etdi. Jamiyatdagi turg‘unlik holatlari, ijtimoiy turmush sharoitining yomonlashuvi, iqtisodiyotdagi qiyinchiliklar, ma’naviy va madaniy soha muammolari maorif tizimiga ham jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Umumta’lim maktablarining ahvoli yomonlashdi. Ayniqsa, 70-yillarda va 80-yillarning boshlarida respublikamiz turmushining boshqa sohalarida bo‘lgani kabi, xalq maorifi ishiga ham dabdababozlik, haqiqatni bo‘yab ko‘rsatish hollari salbiy ta’sir qildi. Yaqin o‘tmishda keng yoyilgan ijtimoiy adolat printsiplarining buzilishi, dinimiz, milliy g‘ururimizning kamsitilishi yosh avlod tarbiyasiga ma’naviy zarar yetkazdi. Ularning aksariyat qismida mudroqlik, hafsalasizlik, loqaydlik kayfiyatlari ko‘proq kuzatildi.

Yoshlarning zamonaviy texnologiyani yetarli o‘zlashtirib olmaganliklari sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan va madaniyatni yanada taraqqiy ettirishga xalaqit berardi. Bunga asosiy sabab maorifning keng tarmoqli tizimi vujudga keltirilmaganligi, o‘qish-o‘qitishda sifat o‘zgarishining ro‘y bermaganligida edi. Masalan, 1980-81-o‘quv yilida respublikamizda mavjud 7000dan ortiq umumta’lim maktablarining 60 foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya holatida edi. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og‘ir bo‘ldi. Ularning 75 foizga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko‘prori markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisligi sababli 5800 ta maktabda o‘qish ikki smenada olib borilardi. Madaniy-ma’rifiy soha uchun resurslarni taqsimlash «qoldiq» printsipida amalga oshirilganligidan maktablar uchun bino yetishmasdi, ular jihozlar, yangi asbob-uskunalar bilan sust ta’minlangan edi. Bu soha uzoq yillar davomida diqqat-e’tibordan chetda qolib keldi, hayotimizning eng ortda qolgan sohalaridan biriga aylandi. Fan, madaniyat va xalq ta’limiga qilinadigan sarf-xarajatlarni qo‘shib hisoblaganda ular byudjet

mablag‘darining 2,7 foizidan ortmas edi. Respublikamiz xalq ta’limi oldida turgan asosiy ta’lim-tarbiya ishlari ko‘p tomondan o‘qituvchi kadrlar sifatiga bog‘liq edi. 80-yillarning o‘rtalariga kelganda shaharlardagi kunduzgi umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilarning 80 foizga yaqini oliy ma’lumotli edi. Qishloqlarda axvol birmuncha yomonroq bo‘ldi, ularda ma’lumotli pedagoglar yetishmas edi. Pedagoglar yetishmasligidan bir soha o‘qituvchisi boshqa fandan ham dars berishga majbur edi. Bunday hol o‘quvchilar bilimlari sifatiga salbiy ta’sir o‘tkazdi.

O‘quvchilarning 3-4 oylab qishloq xo‘jalik ishlariga jalb etilishi ta’lim saviyasining pasayib ketishiga, bilimlarning sifati qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi. 1985-1990-yillar xalq ta’limi tizimida ayrim siljishlar ro‘y berdi. Ammo bu davrda ta’lim va tarbiya sohasidagi ziddiyatli holatlar yanada keskinlashdi. Maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’limda rivojlanishning ekstensiv yo‘li o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanib bo‘ldi. O‘qituvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortgani sari sovet ta’lim tizimining chirishi kuchaya bordi. 80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan xalq maorifidagi islohotlar mavjud muammolarni xalq ko‘zidan yashirishga urinishdan bo‘lak narsa emasdi. Islohotdan ko‘zlangan maqsad «sovet tizimi»ni yuqori darajaga ko‘tarish, mutaxassis va o‘quvchilar bilim saviyasini oshirish, ta’limni demokratlashtirishdan iborat edi. Biroq mazkur maqsadga sovet mafkurasi va u olib borayotgan kommunistik yondashuv asosida erishish mumkin emasdi. 80-yillarning o‘rtalaridan boshlangan islohotlar moddiy jihatdan ta’minlanmaganligi uchun ham oxiriga yetmadi. Chunonchi, 1985-1990-yillarda O‘zbekistonda 3693 ming o‘quvchiga mo‘ljallangan yangi o‘quv yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig‘i bilan bu raqam 920 ming o‘ringa tushirildi. Respublika qishloqlaridagi maktablarning 80 foizi esa moslashtirilmagan binolarda joylashgan edi. 1985-yilda respublika maktablarida o‘quvchilar soni 2684 mingga yetdi. Bu raqam 1990-yilga kelib 245 mingga kamaydi. Buning boisi o‘qituvchilarni ijtimoiy himoyalash, ularning obro‘sini orttirishda davlat rasmiy siyosatidagi xato va kamchiliklarda edi. 1985-1990-yillarda respublikadagi 14 pedagogika instituti va 38 o‘rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o‘rtacha 17 mingdan yosh o‘qituvchilar tayyorlangani xolda, maktabda faoliyat ko‘rsatuvchilar sonining muttasil kamayishi ta’lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

32.3. 1945-1991-yillarda hunar-texnika va oliy ta’lim tizimi

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston sanoati uchun malakali ishchi kadrlar hunar-texnika bilim yurtlarida va bevosita ishlab chiqarish jarayonida yakka tartibda hunar kurslarida tayyorlandi. Respublikadagi xunar maktablari, temir yo‘l, binokorlik o‘quv yurtlari, yirik korxonalar qoshidagi fabrika-zavod ta’limi (FZO) maktablari sanoatni ri-vojlantirishga katta hissa qo‘shdi. 1940-1955 yillarda xalq xo‘jaligi uchun jami 143 ming malakali ishchilar tayyorlab berildi. Ishchi kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bordi. Malakali kadrlar tayyorlash ham o‘sib bordi.

1966-1970-yillarda hunar-texnika o‘quv yurtlari xalq xo‘jaligiga 172 ming nafar ishchilarni tayyorlab berdi.

Shu bilan birga, respublika hunar-texnika ta’limida katta kamchiliklar mavjud edi. O‘quv yurtlarida o‘zbeklar va boshqa tub aholi vakillari, xotin-qizlar soni kam edi. Korxonalarda turar joy va zarur maishiy sharoitlarning yo‘qligidan yosh ishchilarning ko‘pchiligi ishlab chiqarishda o‘rnashib qolmasdi. 1962-yilda oziq-ovqat, engil, trikotaj, gaz va neft sanoatidagi o‘zbek va boshqa yerli aholidan bo‘lgan ishchi va xizmatchilar soni 30 foizdan sal ortiqni tashkil qilardi. Mashinasozlik, metall ishlash sanoati va og‘ir sanoatning boshqa sohalarida o‘zbek va mahalliy millat vakillari soni juda oz edi. 1963-yili Toshkent asbobsozlik zavodidagi ishchi va xizmatchilar orasida o‘zbeklar va boshqa tub millat vakillari ulushi 20 foizni tashkil etdi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri muxandis-texnik kadrlar edi. Oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlari tayyorlovchi malakali mutaxassislar soni ortib bordi. 1960-1970-yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya’ni 3 baravardan ziyod ko‘paydi.

Oliy maktabning asosiy vazifasi xalq xo‘jaligi va madaniyatning barcha tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iborat. Urushdan keyingi yillarda respublika oliy o‘quv yurtlari Markaz ko‘rsatmasi, dasturlari asosida o‘quv-tarbiya ishlarini olib bordi. Bu davrda oliy maktabda mutaxassis kadrlar tayyorlash son jihatdan o‘sdi, lekin ularning sifati talab darajasida bo‘lmay keldi.

Talabalar doirasi ancha kengaydi. 1960-61-o‘quv yilida O‘zbekiston oliy maktablarida 100 ming nafar talaba ta’lim olgan bo‘lsa, 1970-71-o‘quv yilida ularning soni 230 mingga etdi. Bu davr ichida oliy maktab respublika xalq xo‘jaligi uchun etkazib bergan diplomli mutaxassislar soni 2, 5 baravar ortgan.

Oliy o‘quv yurtlari soni 1940-yildagi 30 tadan 1970-yilda 38 taga ko‘paydi. Xalq xo‘jaligining rivojlanishi yangi oliy o‘quv yurtlarini ochishni talab qildi. Urushdan keyingi yillarda Toshkent elektrotexnik aloqa institut, Toshkent avtomobil yo‘llari instituti, Andijon paxtachilik instituti, Andijon tibbiyot instituti, Andijon tillar pedagogika instituti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat texnologiya instituti, Farg‘ona politexnika instituti va boshqa oliy o‘quv yurtlari malakali kadrlarga bo‘lgan talabni kondirdi. Maorif, sanoat, qurilish, transport, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, san’at va boshqa soxalarda mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Oliy o‘quv yurtlaridagi professor va o‘qituvchilar soni ham yildan-yilga oshib bordi. Oliy maktablarda 1958-yili 5 ming ilmiy-pedagog xodim ishlagan bo‘lsa, 1965 yilda bu son 8 mingtaga etdi. Oliy o‘quv yurtlari olimlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan ijodiy hamkorlikda fan, iqtisodiyot va madaniyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan talay ilmiy ishlar, salmoqli asarlar yaratdilar.

Biroq, oliy maktab ham totalitar tartibot ta’siridan chetda qolmadi. Buning natijasida oliy maktabda qator salbiy hodisalar ruy berdi. Miqdoriy, yalpi ko‘rsatkichlar ketidan quvish, xalq xo‘jaligi talab-ehtiyojlariga mos kelmaydigan mutaxassisliklar bo‘yicha o‘qitish shular jumlasidandir. Oliy maktabning moddiy-texnik bazasi ham juda zaif bo‘lib qoldi.

Respublika oliy o‘quv yurtlarida sirtqi va kechki ta’lim keng rivojlandi. Ayniqsa, 1959-yilgi maktabning hayot bilan bog‘liqligini mustahkamlash to‘g‘risidagi qonun asosida ta’limning bu shakllari yanada kengaydi. Respublikaning barcha institutlarida sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi.

1940-yilda sirtqi va kechki ta’lim tizimida o‘qiyotgan talabalar respublika oliy o‘quv yurtlaridagi jami, talabalarning 20 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, 1966-yilda ularning salmog‘i 62 foizga etdi. O‘sha vaqtda sirtqi va kechki bo‘limlardagi talabalarning soni jihatidan mamlakatimiz birinchi o‘rinda deb maqtanish rasm bo‘ldi. Lekin bu aslida achinarli hol eli. Sirtqi va kechki bo‘limlarda ta’lim olgan talabalar ixtisosliklari bo‘yicha yetarli nazariy bilimga ega bo‘lmasdilar. Ular ko‘proq bilim olish uchun emas, diplom uchun o‘qirdilar. Bu yillarda oliy o‘quv yurtlari va ular tayyorlagan mutaxassislar soni ko‘paydi, biroq sifati pasaydi.

Respublika oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya ishlari mafkuralashtirib yuborilganligi sababli kunduzgi bo‘limlarda o‘qigan talabalarning ko‘p vaqti mutlaqo keraksiz bo‘lgan ilmiy kommunizm, KPSS tarixi, siyosiy iqtisod, markscha-lenincha falsafa, ilmiy ateizm kabi «fanlar»ni o‘rganishga sarflanar edi. Bu hol talabalarning asosiy ixtisosligi bo‘yicha fanlarni chuqur, o‘zlashtirishiga xalaqit berardi.

Oliy maktablarda milliy kadrlar tayyorlash talab darajasida emas edi. Ko‘p fanlardan, ayniqsa, tabiiy fanlardan darsliklar rus tilida chiqarilgandi. Ularni o‘zbek tiliga tarjima qilishga ongli ravishda e’tibor berilmasdi. O‘zbek talabalari rus tilidagi darslik va qo‘llanmalardan foydalanishga majbur edilar. Ayniqsa, qishloqlardan kelgan, rus tilini bilmaydigan talabalar qiynalardilar. Ular ko‘pincha rus tilida o‘qitiladigan fanlarni o‘zlashtira olmay, o‘qishni tashlab ketishga majbur bo‘lardilar. Bir amallab institutni bitirib chiqqan mutaxassislarning bilim darajalari past bo‘lardi. Institutlarda o‘zbek guruhlarida rus tilida dars o‘tish Markazning O‘zbekistonda olib borgan ruslashtirish siyosati natijasi edi.

70-yillarga kelib respublikamizda Respublikaning oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari xalq xo‘jaligi va madaniyat talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlashda muayyan natijalarni qo‘lga kiritdilar. Yildan-yilga talabalar soni ortib bordi. 1971-1975-yillarda oliy o‘quv yurtlarini tug‘allagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo‘jaligiga etkazib berildi. Oliy o‘quv yurtlarining soni 1985-yilda 42 taga yetdi.

80-yillarning o‘rtalarida respublika o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 282 ming nafar o‘quvchi ta’lim oldi. Bu har yili necha o‘n minglab malakali mutaxassislar bilan respublika xalq xo‘jaligini ta’minlashga imkon berdi. Xalq xo‘jaligining boshqa sohalari uchun ham ko‘plab mutaxassislar tayyorlandi. Masalan, 1970-yilda oliy maktabni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo‘lsa, bu raqam 1990-yilga kelib 508 mingga yetdi. Biroq bular faqat son ko‘rsatkichlari edi, xolos. Mutaxassislar saviyasi nuqtai nazaridan mamlakat boshqa davlatlardan ortda qolib kelardi.

32.4. Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo‘shgan hissasi

Siddiq Rajabov 1910-yili 1-aprelda Qozog‘iston Respublikasining Avliyoota (hozirgi Taroz) shahrida tavallud topdi. U shu shaharda to‘liqsiz o‘rta maktabni tugatib, 1926-yili Farg‘ona pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi.Texnikumni 1930-yili tugatadi. Shu oraliqda, 1928-29-yillarda Qashqadaryoning G‘uzor tumanidagi olis bir qishlog‘ida ochilgan maktabda o‘qituvchilik qiladi. 1930-yili Farg‘ona pedagogika institutiga o‘qishga kiradi. Institutni tugatgach, 1934-37-yillarda O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti aspiranturasida o‘qiydi. 1935-yili yangidan ochilgan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika insitutining pedagogika kafedrasiga o‘qituvchi qilib ishga qabul qilinadi. Urush yillarida “Qizil O‘zbekiston” gazetasining ma’sul kotibi bo‘lib ishlaydi.

Siddiq Rajabov 1947-1963-yillarda Nizomiy nomidagi TDPIning pedagogika kafedrasi mudiri lavozimida, 1960-1966-yillarda esa O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining direktori lavozimida ishlaydi. 1966-yili Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutiga ishga qaytadi va shu institutning umumiy pedagogika kafedrasiga 1990-yilgacha mudirlik qiladi.

S.Rajabov XIX-asr va XX-asr boshlarida Buxoroda maktab va maorif taraqqiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1941-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Siddiq Rajabov pedagogika fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi o‘zbek olimidir. 1917-1957-yillardagi O‘zbekiston maktablari tarixini o‘rgangan olim, shu mavzuga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasini Moskvada himoya qildi va 1958-yili birinchilardan bo‘lib pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi.

Olimning qalamidan chiqqan ilmiy maqolalarda yoshlarni insoniylikka, mehnatga, vatanparvarlikka tarbiyalash mavzusi keng o‘rin oldi. Pedagog-olim birqancha risolalarida K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko va H.H.Niyoziylarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarini yoritib berdi. 1960-yili unga professor ilmiy unvoni berildi.

1968-yili professor Siddiq Rajabov Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi bo‘lib saylandi. S.Rajabov pedagogika sohasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi tarixidagi yagona akademikdir.

Akademik Rajabov Sharq donishmandlarining pedagogik merosini o‘qib-o‘rganish va keng ommaga tanitishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. Ayniqsa, o‘zi boshi-qoshida yurib, 1986-yili rus tilida “O‘zbek pedagogik fikrlar antologiyasi” kitobini Moskvaning “Pedagogika” nashriyotida chop ettirishi O‘zbekiston fanida juda katta yutuq bo‘ldi. Hamdo‘stlik davlatlaridan birnechtasigina bunday salmoqli pedagogik asarni chop ettira olganini hisobga olsak, Siddiq Rajabov pedagogika fani tarixini beqiyos manbalar bilan to‘ldirgan juda katta vatanparvar olimdir.

Olimning yana bir katta mehnati YA.A.Komenskiyning “Buyuk didaktika” asarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarijima qilishni tashkil etishi bo‘ldi. S.Rajabovning mas’ul muharriligida professor Malla Ochilov bu kitobni tarjima qilib, 1975-yili nashr ettirdi.

Siddiq Rajabov butun umri davomida pedagogika fanining rivojlanishiga xizmat qildi. Olimning O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo‘shgan eng katta hissasi, bu albatta, pedagogika oliygohlari talabalari uchun “Pedagogika” darsligini chop ettirishi bo‘ldi. Olim darslikning redaktsiyasini boshqardi, birnechta qismlarini o‘zi yozdi, 1962, 1966 va 1981-yillarda qayta-qayta to‘ldirib, nashr ettirdi.

O‘zining ilmiy-pedagogik faoliyati davomida olim yosh tadqiqotchilarga hamisha yordam berib keldi. S.Rajabov uzoq yillar davomida pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy daraja beradigan ixtisoslashtirilgan Kengashni boshqarib, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham olimlar tayyorlab berishda juda katta xizmat qildi. Akademik Rajabov 7 nafar fan doktori, 130 nafar fan nomzodini tayyorladi.

O‘zbekistonda pedagogika fanining rivojlanishiga qo‘shgan juda katta xizmati uchun S.Rajabovga 1964-yilda“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni berildi. Bir qancha orden va medallar bilan taqdirlandi.

XXXIII BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI

33.1. Ta'limni kelajakda yangi bosqichga ko‘tarish masalasi

Ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2018-yil 5-sentyabr kuni davlatimiz rahbarining “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, qator qarorlari qabul qilindi.

Hujjatda, ushbu sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta'limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiy o‘rta ta'lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Jumladan: **birinchidan,** joylarda umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, umumta'lim muassasalari rahbarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish masalalarini hal etish, idoraviy mansub tashkilotlarning mulkidan samarali foydalanishda xalq ta'limi boshqaruv organlari rolining yetarli darajada emasligi; **ikkinchidan,** umumta'lim muassasalari rahbarlari zimmasiga ularga xos bo‘lmagan vazifalar va funksiyalarni yuklash, muassasa direktori va uning o‘rinbosarlari o‘rtasida vakolatlarning aniq taqsimlanmaganligi, ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlari va parametrlari mavjud emasligi; **uchinchidan,** umumiy o‘rta ta'limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida xalq ta'limi bo‘limlari va umumta'lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik darajasining pastligi; **to‘rtinchidan,** rahbarlar, o‘qituvchilar va umumta'lim muassasalari boshqa xodimlarining kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlarining samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko‘payib ketganligi; **beshinchidan,** ta'lim sifatini

ta'minlash, o‘qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining yetarli darajada emasligi, o‘quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi; **oltinchidan,** xalq ta'limi tizimi muassasalarini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash mexanizmining mukammal emasligi, ularning faoliyatiga zamonaviy me'moriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi aytib o‘tilgan.

Prezident Farmonida xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari etib qo‘ydagilarni belgilab berilgan:

- umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o‘quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash;
- ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining muvofiqlashtiruvchi roli va mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish;
- rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish;
- xalq ta'limi muassasalarini boshqarish tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shaffof va samarali jamoatchilik nazoratiga erishish, shu jumladan barcha muassasalarning telekommunikatsiya tarmoqlariga ulanishini ta'minlash, barcha foydalanishi mumkin bo‘lgan ma'lumotlar manbasini yaratish, ularning faoliyatini baholashning elektron reyting tizimini joriy etish;
- xalq ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish;
- zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo‘li bilan umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko‘rsatishga oid faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tarmog‘ini yanada rivojlantirish, ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish;
- xalq ta'limi tizimiga ilg‘or xorijiy tajribani, o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish.

Bundan tashqari, 2018-yil 1-sentyabrdan maktablarda faoliyat olib borayotgan 450 mingdan ziyod pedagog va rahbar xodimlarning maoshi oshirildi. Xalq ta'limi xodimlariga uy, yer, maishiy texnika, chorva va mashina sotib olish uchun imtiyozli kreditlar berish tizimi joriy etildi. Ular uchun maxsus davlat mukofoti

ta'sis qilindi. O‘qituvchilarni boshqa ishlarga jalb etish, maktablarda asossiz tekshiruvlar o‘tkazish amaliyotiga chek qo‘yildi.

Ushbu sa'y-harakatlar natijasida xalq ta'limi tizimi joriy yilda 16 ming nafar oliy ma'lumotli yosh kadr bilan to‘ldirildi. Qariyb 13 ming nafar erkak o‘qituvchi maktablarga qaytdi.

Keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Prezident qarori bilan 2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2018-yilda mamlakatimizda 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etildi. Fanlar akademiyasi va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ishlari boshlandi.

Albatta, bunday e'tibor yaqin kelajakda o‘z samarasini beradi. Lekin barcha sohalarda jadal islohotlar olib borilayotgan bir paytda shu sur'atga mos ilg‘or kadrlar mamlakatimizga bugun kerak.

Hozirgi tizimli o‘zgarishlar jarayonida aksariyat mutaxassislarning bunga tayyor emasligi, ularning bilimi, malakasi va ko‘nikmasi zamon talabiga javob bermasligi ayon bo‘lib qoldi.

Masalan, horijda doktorantura va magistraturada o‘qitish, malaka oshirish va stajirovkani tashkil qilish bo‘yicha dastlabki ehtiyoj 3,5 mingdan ortiq. Yurtimizda xalqaro ilmiy va amaliy tajriba ega 600 nafardan ziyod vatandoshlarimizga ehtiyoj mavjud. 1000 ga yaqin xorijiy olimlar va ekspertlarni jalb etishga talab bor.

Ya'ni, bugun kechiktirib bo‘lmaydigan, oddiy ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj 5 mingdan ziyodni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarishdagi talab ham inobatga olinsa bu raqam kamida 50-100 baravarga oshadi.

«Bu hali bugungi ehtiyoj. Yaqin va uzoq istiqboldagi iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan bizga qaysi soha uchun qanday mutaxassis kerak bo‘ladi? Shuni hozirdan chuqur o‘ylashimiz, zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlarni tarbiyalashimiz kerak. Bu masala bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz», – dedi Shavkat Mirziyoev.

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 25-sentyabrdagi Farmoniga[17] muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilgan edi.

Jamg‘arma oldiga O‘zbekistonlik iqtidorli yoshlarni doktorantura va magistratura dasturlari bo‘yicha o‘qitish, turli soha mutaxassislarining malakasini oshirish va stajirovkasini tashkil etish, xorijdagi vatandoshlar bilan doimiy muloqot o‘rnatish, ularni mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiyiqtisodiy islohotlarga jalb qilish, chet eldagi universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qo‘mak berish vazifalari qo‘yilgan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 2019-yilda davlat byudjetidan 45 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan. Prezidentimiz ko‘rsatmasiga muvofiq, bu mablag‘ yanada oshiriladigan bo‘ldi.

Vazirlar Mahkamasiga “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan birgalikda barcha vazirlik va idoralar kesimida xorijda kadrlar tayyorlash, stajirovkasini tashkillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Oliy ta'lim vazirligi, “El-yurt umidi” jamg‘armasiga kadrlarni xorijga yuborish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni aniqlab, tanlov e'lon qilish bo‘yicha topshiriq berildi.

Jamg‘arma Tashqi ishlar vazirligi, Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda xorijda qimmatli tajribaga ega bo‘lgan vatandoshlarimiz to‘g‘risidagi ma'lumotlarni shakllantirib borishi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mamlakatlar va mutaxassisliklar kesimida vatandoshlar to‘g‘risida ma'lumotlar reestrini tezroq ishga tushirishi zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoev mamlakatimizga jalb etilayotgan har qanday xorijiy investitsiyaning ma'lum bir qismini malakali mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirish kerakligini alohida ta'kidladi.

Yig‘ilishda yana bir masala – istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlab olish, ularning kasb malakasini uzluksiz oshirib borishga ko‘maklashish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-maydagi “Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[18] qarorida respublika bo‘yicha vazirlik, idora va tashkilotlarda rahbar kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qoplash maqsadida tanlov o‘tkazish belgilangan edi.

Tanlovning dastlabki bosqichidan so‘ng 8 ming 334 talabgordan 3 ming 825 nafari keyingi bosqichlarga tavsiya etildi. Yakunda 50 nafar yuqori malakali kadr tanlab olinadi.

Davlatimiz rahbari tanlovning final bosqichi ishtirokchilarini qisqa muddatli kurslar orqali malakasini oshirish kerakligini ta'kidladi. Tanlov g‘oliblarining stajirovkasi qaysi rivojlangan mamalakatda, qaysi tashkilotlar va qanday mezonlar asosida o‘tkazilishini aniq belgilash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Ta'lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish masalasida bir ahamiyatli xujjatga e'tibor bersak, bu Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[19].

Hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang‘ich 4 sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida o‘qitish va ta'lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun;

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berildi.

Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;
- ta'lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;
- ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

  ta'lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- umumiy o‘rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;
- O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;
- xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lim va fan darajasiga bog‘liq. Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko‘proq talablar qo‘ymoqda.

Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o‘zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda “Kasbiy kompetentlik” sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda

ishlash va hamkorlik qilishga bo‘lgan qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

33.2. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar

Mamlakatimizning rivojlanishi, uning taraqqiyoti, yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, zamon talabiga mos bilimlarni chuqur egallagan mutaxassislar, ularning malakasi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham yurtimizda yangi zamon avlodini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini yangicha shakllantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Bugungi kunda chinakam bilimli, ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun kurasha olishi mumkin.

Kelajak yosh avlodning yangicha, erkin, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, haqiqatni aytishdan cho‘chimaydigan, mavjud qiyinchiliklar, muammolarni ochiq-oydin bayon etadigan, Vatanimizning ravnaqi va kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, yoshlar qilib voyaga yetkazish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida Yangi O‘zbekistonni yaratish uchun iqtisodiy, ta’lim, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar kabi sohalarda yangi imkoniyatlar yaratilmoqda. Oxirgi to‘rt yil davomida mamlakatimiz rivojlanishi va taraqqiyoti butkul yangi bosqichga qadam qo‘ydi, hayot jarayonlari tezlashdi.

Jumladan, ta’lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yil 19-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Ushbu qonunni takomillashtirish jarayonida 238 ta normaga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Bir necha normativ-huquqiy hujjatlarni qisqartirish, umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo‘llashga ta’sir etmaydigan qonun hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish natijasida 123 ta norma chiqarib tashlandi. Ularning o‘rniga 54 ta yangi to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi normalar kiritildi. Ortiqcha ma’muriy tartib-taomillar va tartibga solishning eskirgan mexanizmlarini bartaraf etish hisobiga kiritilgan 7 ta moddadan butunlay voz kechilib, aniq sohalardagi munosabatlarni tartibga soluvchi 9 ta yangi modda kiritildi.

Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida ham ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, ularning huquqiy asoslari yaratilmoqda. 2016-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Unda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har

tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun vazifalar belgilab berildi.

2019-yil 16-dekabrda maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu normativ-hujjatda respublikamizda har bir bola uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi belgilab berildi.

Maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim, tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyaviy ta’sirining birligi, maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarga ta’lim va tarbiya berish uyg‘unligi, bolaning shaxsini rivojlantirish, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning izchilligi hamda uzluksizligi ta’minlandi.

Ta’lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi, ta’lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi, maktabgacha ta’lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo‘lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi kabi asosiy qoidalar belgilandi.

2019-yil 8-mayda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2020-yil 30-yanvarda maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta’limi bilan kengroq qamrab olinishini ta’minlash maqsadida “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi.

Ushbu hujjatlarga ko‘ra maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirildi, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi, maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar joriy etildi.

Shuningdek, respublika bo‘ylab davlat bilan xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish rag‘batlantirilib, tijorat banklari va xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish orqali tadbirkorlarga uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratish belgilab qo‘yildi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ilg‘or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta’limi muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangi takomillashtirilgan davlat ta’lim standartlari bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda. Ular ta’lim-tarbiya jarayoniga prinsipial yangi yondashuvning joriy etilishiga va u orqali o‘quvchilarda olgan bilimlarini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olishga, mustaqil ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga undaydi.

Iqtidorli bolalarni aniqlash, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma’nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirish maqsadida 2019-yil 20-fevralda “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror Prezident tomonidan imzolandi. Prezident maktablari faoliyatini tashkil etish maqsadida
2019-yil 25-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Yoshlarning iste’dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorini ro‘yobga chiqarish, uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog‘lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo‘lishga intilish tuyg‘usini shakllantirish maqsadida ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi.

2020-yil 11-martda Vazirlar Mahkamasi “Ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Yangi turdagi umumta’lim muassasalarini barpo etish va muqaddam qurilgan binolarni bosqichma-bosqich zamon talablariga moslashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish orqali umumiy o‘rta ta’limni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2019-yil 26-noyabrda “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida Prezident qarori qabul qilindi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ta’lim tizimi va mazmuni xalqaro standartlar talablariga javob beradigan holda tashkil qilishni talab etildi. Bu qonun hujjatlarida ta’lim-tarbiya sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish choralari belgilab berildi. Oliy o‘quv yurtini isloh qilayotganda ularning boshqa davlatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan aloqasini mustahkamlashga e’tibor qaratildi, horijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorliklarni yo‘lga qo‘yib, almashinuv dasturlari ishlab chiqildi.

Shunday ta’lim sohasidagi xalqaro aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda bo‘lg‘usi o‘qituvchilar va umuman barcha ta’lim xodimlari ham jahon pedagogikasini, ayniqsa rivojlangan davlatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlarini bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos Sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihadan etuk insonlar bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoiylik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalarini qurish, ta’mirlash va kapital ta’mirlash barobarida ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kampyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash nazarda tutilgan.

2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirishning qo‘Shimcha manbalarini izlashda oliy o‘quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo‘li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

O‘rta maxsus ta’lim tizimiga 2017-yilda birinchi marta 10-sinflarga o‘quvchilar qabul qilish yo‘lga qo‘yildi. Bu akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga qabul jarayonlari bilan barobar olib borildi. Bunda asosan ota-onalar va o‘quvchilarning xohish va istaklari inobatga olindi.

2016-2017-o‘quv yilida 466 mingdan ortiq o‘quvchilar umumta’lim maktablarini tamomlagan bo‘lib, Shundan 170 mingdan ziyodi kasb-hunar kollejlariga o‘qishga kirgan, 288 ming, ya’ni oltmish foizidan ortig‘i 10-sinflarda o‘qishni davom ettirdi. O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi 2019 yilga qadar amal qilindi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 11-iyul kuni “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Kasb-hunar ta’limi markazi tugatildi.

Yoshlarning ulug‘ ajdodlarimiz merosini o‘rganishi, ularga mos etuk kadrlar bo‘lib voyaga etishiga alohida e’tibor qaratildi. Sohalar bo‘yicha chuqurlashtirilgan bilim berish maqsadida buyuk siymolar nomi bilan ataluvchi ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari faoliyati ishga tushirildi. Xususan, ulug‘ ajdodimiz Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab, Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati, “Astronomiya va aeronavtika” bog‘i tashkil etildi.

Mazkur maktablar oldiga qo‘yilgan talablardan biri – yuqori malakali, sohaning bilimdoni bo‘lgan o‘qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish bilan birgalikda, maktabda chet tilini ham chuqur o‘qitishdir.

33.3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida

Har bir suveren davlatning bosh huquqiy asosi bu uning Konstitutsiyasidir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo‘lib, muqaddima, 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining qoidalari hamisha ustivor, birlamchi kuchga ega, boshqa qonunlarning barchasi u yoki bu tarzda konstitutsiyaviy me’yorlar asosida yaratiladi, uni rivojlantiradi va ro‘yobga chiqaradi. Uning asosida me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqiladi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasi kuchli axloqiy zaminga egadir. Unda avvalo insonparvarlik, adolat g‘oyalari mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning markazida inson, fuqaro, uning huquqlari va qonuniy manfaatlari turadi.

O‘zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun harakat qilar ekan, har tomonlama rivojlangan, erkin shaxsni shakllantirishni o‘zining asosiy asosiy vazifalaridan biri deb belgiladi. Ta’limsohasida maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosatini olib borish va bu vazifani echishda asosiy vositalardan biridir.

Ta’lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. O‘zbekston Respublikasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (1948-yil 10-dekabr) asoslab berilgan huquqni amalga oshirishning faoliyat ko‘rsatayotgan mexanizmini yaratdi.

Ta’lim olish huquqiga tegishli xalqaro hujjat (1960-yil 14-dekabrdagi Ta’lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya) shuni e’tirof etadiki, “ta’lim” iborasi o‘qitishning barcha turlarini va bosqichlarini qamrab oladi va ta’lim olish imkoniga ega bo‘lish, ta’limning darajasi va sifati, shuningdek, ta’lim berish sharoitlarini o‘z ichiga oladi.

Xalqaro huquq normalari boshlang‘ich ta’limning majburiy va bepul qilishni, o‘rta ta’limni uning barcha turlarida umum erishadigan qilishni va undan hammaning foydalanishini ta’minlashni, oliy ta’limni to‘la tenglik asosida va har bir kishining qobiliyatidan kelib chiqib, qonunda belgilangan o‘qishning majburiyligini ta’minlashni tavsiya etadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zi olgan majburiyatlarga amal qilib uzluksiz ta’limning barqaror tizimini yaratdi, Shaxsning ta’lim olish huquqini amalga oshirish mexanizmini mustahkamlab qo‘ydi. Ta’limning yagona tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim; umumiy o‘rta ta’lim; o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi; oliy ta’lim; oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir” deb ko‘rsatilgan.

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta’lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an’analarimizga, ilg‘or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta’lim va

tarbiya sohasiga ustivor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar Shu yo‘lda safarbar etilib kelindi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonun 5 bo‘lim va 34 moddadan iborat edi. 2020-yil 23-sentyabrda Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning yangi tahririda ta’lim tizimi va uni isloh qilish borasida birnecha o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin.Bu borada darslikning “Pedagogika nazariyasi” qismida to‘xtalib o‘tgan edik. Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan.

Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta’lim olishni tashkil etish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek, ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;
- barcha turdagi ta’lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo‘lishi;
- oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga asosan ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilab berilgan.

Ushbu qonunda tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega ekanligi hamda pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmasligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qoidalariga, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlarasosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rishni: Davlat ta’lim standartlarini joriy etishni, yagni o‘quv rejalari, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni, o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o‘zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o‘quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi etarli emasligi, yuqori malakali pedagog kadrlarning etishmasligi, sifatli

o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyot hamda didaktik materiallarning kamligi, ta’lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida puxta o‘zaro hamkorlik va o‘zaro foydali integratsiyaning etishmasligi kadrlar tayyorlashning majud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi **maqsadi** – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining **vazifalari**:

- ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmuasi sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;
- ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarining, ustivorligini ta’minlovchi me’yoriy, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, Shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor sohadir.

Kadrlar tayyorlash milliy tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

- ta’limning uzluksizligini ta’minlash;
- pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ta’lim jarayonini mazmunan isloh qilish;
- ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar;
- iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar;
- ta’lim tizimini boshqarish;
- kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
- ta’lim tizimini moliyalashtirish;
- moddiy-texnika ta’minoti;
- ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
- ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish;
- ta’lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash;
- fan bilan ta’lim jarayoni aloqadorligini rivojlantirish;

- ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
- ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

33.4. Milliy dasturni ruyobga chiqarish bosqichlari

1. 1997-2001-yillar bu bosqichda ta’lim qonuni asosida ta’lim tizimi va mazmuni qayta ko‘rildi. DTS yaratildi.

2. 2001-2005-yillarni o‘z ichiga olib milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish rejalashtirildi va sifat bosqichi deb nomlandi.

3. 2005-va undan keyingi yillarni o‘z ichiga qamrab olgan. Bu davrda ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanishi, o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnalogiyalar bilan to‘liq tahminlanishi, milliy (elita) oliy ta’lim muassasalari qaror topishi ko‘zda tutilgan.

Birinchi bosqich (1997-2001-yillar) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish.

Ikkinchi bosqich (2001-2005-yillar) – Milliy dasturni to‘liq ro‘yobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish. Bu bosqichda, shuningdek, ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish tahminlanadi, ularning faoliyatida raqobatga asoslangan muhit vujudga keltiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadini ro‘yobga chiqarishning ikkinchi bosqichida ta’lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o‘quv-tarbiya jarayonining yuqori sifatli.o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan tahminlash, uzluksiz ta’lim tizimini axborot lashtirish vazifalarining ham hal etilishiga alohida urg‘u beriladi.

Uchinchi bosqich (2005-va undan keyingi yillar) – to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish. Bu bosqichda:

- ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash;
- o‘quv-tarbiya jarayoni yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq tahminlanishi;
- milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish;
- ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyug‘ter axborot tarmog‘i bilan to‘liqqamrab olinishiga erishish kabi vazifalarning ham ijobiy yechimi tahminlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlari.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta’lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida «yuksak mahnaviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi:

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o‘ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiy o‘rta hamda uch yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’liminining joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o‘z navbatida umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o‘tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:



1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning istehmolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o‘zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o‘zida ijtimoiy tahsirlar yordamida mahnaviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o‘zlashtirilgan bilim, faoliyat ko‘nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak mahnaviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z oldiga muayyan maqsadni qo‘ya olishi hamda unga erishish yo‘lida tinimsiz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi.

O‘z-o‘zini anglash tuyg‘usiga ega bo‘lish, ta’lim sohasidagi xizmatlardan to‘laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo‘la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o‘ziga bog‘liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida ehtibor qaratilgan.

«Ta’lim xizmatlarining istehmolchisi sifatida shaxsga davlat ta’limini olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o‘tish kafolatlanadi. Ta’lim olish jarayonida shaxs davlat ta’lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish

sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi hamda tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi».

2. Davlat va jamiyat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o‘zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak Ma’naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o‘rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o‘z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta’lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o‘zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mashuliyatini o‘z zimmasiga oluvchi subekt sifatida namoyon boiadi.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo‘lidagi faoliyatini ham uyg‘unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

- fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlarining ro‘yobga chiqarilishiga;
- majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini olishga;
- davlat grantlari yoki pulli-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga;
- davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan tahminlashga;
- ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;
- ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga;
- sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishi.

3. Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

33.5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari

Mustaqillik yillarida pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi tizimi ishlab chiqilib, uzluksiz ta’limda o‘qitish sifati va samaradorligini bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy, ma’naviy-axloqiy tayyorgarligi belgilab berishi haqidagi qat’iy xulosaga kelindi. Ana shu sababli ham “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning asosiy maqsadi sifatida ta’lim sohasini tubdan isloh qilish uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga

javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash belgilab berildi”[120]. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning boy milliy madaniy-tarixiy an’analar, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta’limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik davrida o‘ziga xos pedagogik nazariyalar maktabi vujudga keldi. Mazkur pedagogik nazariyaning tadrijiy rivojlanishi bu davrda yetakchi bo‘lgan millatning ijtimoiy, ilmiy tafakkur darajasini yaqqol ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik fikrlarning taraqqiyoti davlat tomonidan ta’lim-tarbiya oldiga qo‘yilgan ijtimoiy buyurtmaga bevosita bog‘liqdir. Chunki ijtimoiy buyurtmada davlat va jamiyat ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Jamiyat a’zolarining ijtimoiy ehtiyojlari ta’lim orqali qondirilar ekan, xuddi Shu ta’lim tizimining ilmiy asoslanishiga zaruriyat mavjud.

Mustaqillik yillarida o‘zbekiston Respublikasida insonparvar, demokratik xarakterdagi uzluksiz ta’lim tizimi joriy etildi. U birinchi navbatda Shaxsning ma’naviyati, qobiliyati, iqtidori, salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uni amaliyotga joriy etish uchun zarur Shart-Sharoitlar yaratishga qaratildi. Bu esa pedagogika fanining yangi metodologiyaga tayanilgan holda rivojlanishiga yo‘l ochdi, pedagogik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirdi, Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasini ishlab chiqishga yo‘naltirildi.

Chunki, pedagogika fani uchun ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etilgan o‘quvchi hamda talabalar o‘zlashtirgan bilimlar hamda ularning intellectual rivojlanganligigi, axloqiy sifatlarni qay darajada egallaganliklari muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko‘nikmaga aylantirib, tayanch kompetensiyalarni Shakllantirib borish lozim. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim modeli jamiyatda erkin fikrlovchi Shaxsni shakllantirishga olib keladi. Bu esa hayotiy maqsadlariga ega va irodali, o‘z qadrini biladigan insonlarni tarbiyalash imkoniyatini beradi. Ta’lim va tarbiya muntazam ravishda zamon talablariga mos holda rivojlanib, yangilanib boraveradi. Shu o‘rinda uzluksiz ta’lim Sharoitida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o‘zligini namoyon qila oladigan kompetent kadrlarni tayyorlash vazifasi ustivorlik kasb etadi. Zamonaviy ta’lim modeliga asoslangan holda Davlat ta’lim standartlari qaytadan ko‘rib chiqildi. Takomillashtirilgan Davlat ta’lim standartlarida ta’lim oluvchilarda tayanch va predmetga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

“Tayanch kompetensiyalar – inson kim va qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, Shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun egallashi lozim bo‘lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko‘nikma va malakalar majmuidan iborat. Bunda har bir Shaxs kommunikativ bo‘lishi, axborot bilan ishlay olishi, Shaxs sifatida o‘z-o‘zini

[120] O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Oliy ta’lim (me’yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to‘plami). –T.: 2004.-12 b.

rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishi nazarda tutiladi”[121].

Pedagogika nazariyasi va tarixi fani uchun ham, amaliyoti uchun ham ta’lim oluvchilar shaxsi bosh qadriyatga, ularni barkamol inson sifatida shakllantirish yetakchi maqsadga aylangach, pedagogik nazariyaning mazmun-mohiyati tubdan o‘zgardi.

Xullas, mustaqillik in’om etgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’rifiy shart-sharoitlar va imkoniyatlar asosida, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida rivojlanib borayotgan pedagogik fikrlar ham O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori bo‘lib, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Shuning uchun ham pedagogika O‘zbekiston Respublikasida ilmning ustivor sohasiga aylandi

Shuningdek, pedagogika fani sohasida xal etilishi zarur bo‘lgan quyidagi muhim vazifalar belgilandi: sobiq sho‘ro davridan qolgan mafkuraviy qarashlardan voz kechish, ta’lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni amalga oshirish, zamonaviy bilimga ega o‘qituvchi kadrlarni tayyorlash, ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoni, mazmuni, darsliklar sifatini, o‘quvchilarga beriladigan bilimlar hajmini aniqlash, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limini yangidan barpo etish, oliy o‘quv yurtlarida zamon talablariga mos mutaxassislar tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratishdan iborat.

Pedagogika nazariyasini boyitish va barkamol Shaxsni shakllantirish jarayoni ilmiy metodik jihatdan ta’minlanibgina qolmasdan, uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengaydi. Mamlakatimiz pedagogika fanida ta’lim tizimi hamda o‘quv jarayonini boshqarish – pedagogik menejment tizimi vujudga keldi. Ta’limning yangi shakllari, liberallashtirish imkoniyatlari, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish asoslari ishlab chiqildi.

Ajdodlarimizning boy pedagogik merosini o‘rganish sohasida diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan pedagogik tadqiqotlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratish yo‘nalishidagi izlanishlar;
- ta’lim mazmunini modernizatsiyalash yo‘nalishidagi tadqiqotlar;
- ta’limninng ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo‘nalishlar;
- yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish yo‘nalishidagi ishlar;
- ta’lim tizimi va o‘quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo‘nalishidagi tadqiqotlar;
- pedagogika tarixi yo‘nalishidagi tadqiqotlar;
- xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar;
- xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganishga oid tadqiqotlar;
- o‘qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar;

[121] Asadov Yu.N. va boshq. O‘quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanganligini nashxislash va korrektsiyalar metodikalari. T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘PFITI, 2016. – 160 b. (4-5-b).

- kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar;
- oila tarbiyasi to‘g‘risidagi tadqiqotlar;
- maktabdan va sinfdan tashqari ta’lim yo‘nalishidagi izlanishlar;
- barkamol avlodni shakllantirishda ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiyaga oid tadqiqotlar;
- huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta’lim-tarbiyaga oid izlanishlar;
- o‘quvchi-talabalarda sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar;
- axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo‘nalishidai tadqiqotlar;
- xususiy metodikaga oid ishlar.

Mustaqillik yillarida pedagogikaning xususiy tarmoqlari rivojlandi. Pedagogik prognostika, tashxislash, pedagogik-psixologiya, ijtimoiy-pedagogika, andropedagogika, difektologiya, inklyuziv ta’lim sohasida izlanishlar amalga oshirildi.

Shu bilan bir qatorda pedagogika fani oldida o‘z yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud:

- mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy faol, huquqiy yetuk shaxsni shakllantirish;
- ·darsliklarning yangi tipologiyasini yaratish;
- ·pedagogikaning xususiy tarmoqlarida amalga oshiriladigan tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish;
- ·yuqori malakali o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning innovatsion tizimini yaratish;
- ·o‘qituvchining ta’lim jarayonini loyihalash sohasidagi bilim va mahoratini oshirish;
- ·o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va muntazam rivojlantirish orqali, ularni kasbga yo‘llashning yangicha texnologiyalarini yaratish;
- ·o‘quvchilar bilimini baholash imkoniyatlarini kengaytirish kabi yo‘nalishlardagi tadqiqotlarni rivojlantirish.

Bugungi kunda pedagogika fani oldida dolzarb vazifalar o‘z yechimini kutmoqda:

- yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish jarayonida ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan o‘quv vositalari, usul va metodlarini qo‘llash imkoniyatini yaratish;
- yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy qadriyatlar, an’analar, madaniy boyliklar, o‘zbek xalqining urf-odatlarini singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan uning ko‘pfaoliyatliligiga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini ilmiy metodik jihatdan ta’minlash;
- pedagogika tarixi sohasida fundamental tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish;
- tarbiyaviy ishlarning yangicha mazmuni,shakllarini belgilab berish.

Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlarning rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar natijasida pedagogika nazariyasi va tarixi sohasida nazariy va amaliy xarakterdagi bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, DTSlari takomillashtirildi, o‘quv dasturlari va o‘quv metodik majmualar yaratildi, uzluksiz

metodik xizmat ko‘lami kengaytirilib, qo‘llanmalar, ilmiy metodik tavsiyalar va monografiyalar ishlab chiqildi. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi istiqlolga erishgach, pedagogika mustaqil fan sifatida shakllandi hamda ilmning ustuvor sohasiga aylandi.

2. Mustaqillik yillarida ilk bor pedagogika ilmida o‘zbek o‘quvchisi va talabasining milliy ruhiyati, mintaliteti, o‘ziga xosligi, imkoniyatlari hisobga olindi va ajdodlarimizning bebaho merosi asosida ularga ta’lim-tarbiya berishning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi.

3. Mustaqillik yillari pedagogika fanining metodologik asosi sifatida milliy g‘oya, o‘zbek xalqining ko‘p asrning ma’naviy-madaniy, pedagogik merosi, qadriyatlari, falsafiy yondashuvlar, dialektik bilish nazariyasi xizmat qila boshladi.

4. Mustaqillik yillarida ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslari ob’ektiv ilmiypedagogik yondashuvlarga tayanilgan holda vujudga keltirildi.

5. Mustaqillik yillarida pedagogikaning yangi tarmoqlari: pedagogik antropologiya, falsafiy-pedagogika, pedagogik prognostika, ijtimoiy-pedagogika, pedagogik-diagnostika, statistik pedagogika sohasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi.

6. Shuningdek mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar keng ko‘lamli bo‘lib, ularni quyidagi bir qator yo‘nalishlarga mujassamlashtirish mumkin: ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslarini yaratish yo‘nalishidagi izlanishlar; ta’lim mazmunini modernizatsiyalash yo‘nalishidagi tadqiqotlar; ta’limning ilmiy metodik asoslarini chuqurlashtirishga xizmat qiladigan yo‘nalishlar; yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiq etish yo‘nalishidagi ishlar; ta’lim tizimi va o‘quv jarayonini boshqarish, pedagogik menejment yo‘nalishidagi tadqiqotlar; pedagogika tarixi yo‘nalishidagi tadqiqotlar; xalq pedagogikasi sohasidagi izlanishlar; xalqaro pedagogik tajribalarni o‘rganishga oid tadqiqotlar; o‘qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishlar; kasb-hunar ta’limini rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar; oila tarbiyasi to‘g‘risidagi tadqiqotlar; maktabdan va sinfdan tashqari ta’lim yo‘nalishidagi izlanishlar; barkamol avlodni shakllantirishda ma’naviy-axloqiy ta’limtarbiyaga oid tadqiqotlar; huquqiy, iqtisodiy, ekologik hamda estetik ta’lim-tarbiyaga oid izlanishlar; o‘quvchi-talabalarda sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar; axborot resurs markazlari faoliyatlarini yaxshilash yo‘nalishidai tadqiqotlar; xususiy metodikaga oid ishlar va h.k.

Mustaqillik yillarida ta’lim-tarbiya, uning muammolari va echimlariga bag‘ishlangan bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya, o‘quv adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar va maqolalar e’lon qilindi.

Bu ishlarda pedagogik fikrlarning ilmiy-metodologik asosi, metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo‘nalishlari, ta’lim va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda shu kabi muammolarga milliy istiqlol g‘oyalari va milliy mafkura asosida yangicha yondashishga harakat qilindi.

Mustaqillik yillarida milliy pedagogikamizning nazariyasi va tarixiga oid ilmiy-tadqiqotlar ham yaratilgan. Pedagogika tarixining ta’lim-tarbiya

taraqqiyotida tutgan o‘rni mustaqillikning dastlabki yillaridayoq pedagog olimlar diqqatini tortdi.

Masalan, “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari” (Safo Ochil), “Pedagogika” (R.Mavlonova va boshqalar), “Pedagogika tarixidan xrestomatiya” (O.Hasanboeva), “Pedagogika tarixi” (O.Hasanboeva va boshqalar), “o‘zbek pedagogikasi antologiyasi” (K.Xashimov va boshqalar), “o‘zbek pedagogikasi tarixi” (A.Zunnunov va boshqalar) “Barkamol avlod orzusi” (Sh.Qurbonov va boshqalar) kabi pedagogikaga doir darsliklar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari zamonaviy pedagogik kadrlarni kasbiy Shakllantiruvchi ta’lim mazmunidir. Shu ma’noda J.Yo‘ldoshev va S.Hasanovning pedagogik texnologiya tarkibiy qismlarini yoritishga oid bir qator o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari, K.Zaripov tomonidan pedagogik mahorat cho‘qqisiga erishish bosqichlarini ilmiy pedagogik jihatdan asoslanishi, Sh.Qurbonovning shaxs va milliy modelning uzviyligi, R.Axliddinov tomonidan dtsning ijtimoiy mohiyatini yoritilishi zamonaviy pedagogika fani va pedagogik fikrlar mazmunida o‘z aksini topishi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etdi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning mustaqillik taraqqiyoti strategiyasi, xalqimizning kelakjakda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi orzu-umidlarini, milliy istiqlol mafkurasining asl mohiyatini yosh avlod ongi va qalbiga singdirish jarayoni kechayotgan bir davrda ta’lim-tarbiyaga doir nazariy va amaliy g‘oyalar muhim ahamiyat kasb etadi va bular asosida ijtimoiy ongni shakllantirish shart-sharoitlari, mexanizmini ishlab chiqish pedagogika fani oldida turli asosiy vazifalardan biridir.

33.6. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifodalanishi

I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari haqida fikr yuritar ekan, xalqimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiyaviy merosni tiklash, xalqni o‘z madaniyati, an’analari, ma’naviy, axloqiy, ma’rifiy qadriyatlari, diniy e’tiqodlari, tili, adabiyoti va san’atidan bahramand qilish, buning uchun esa, zarur shartsharoitlar yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy asoslarni barpo etishni dolzarb vazifa qilib qo‘ydi.

Mustaqil fikrlaydigan, o‘z huquqi va vazifalarini to‘la anglagan, vatanparvar, fidoiy, bilimdon, yangilangan ijtimoiy ongga ega bo‘lgan barkamol shaxsni shakllantirish islohotlarning markaziy masalasi qilib qo‘yildi.

I.A.Karimov o‘zining **“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”** asarida ma’naviyatga shunday ta’rif beradi: “**ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi**, **irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.**

“Ma’naviyat” tushunchasi jamiyat hayotidagi g‘oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etadi. Shuning uchun

ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma’noda “ma’naviyat” tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma’naviyatning negizi va ma’no-mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlaridan biri insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishi hisoblanadi. Bu esa insonlarni doimo halol va pok yashashni o‘ziga hayotiy e’tiqod, oliy maqsad deb bilishiga asos bo‘ladi.

I.A.Karimov inson ma’naviyati xususida fikr yuritar ekan, bugungi kunda insonlardagi bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil xayotiy qarash mavjudligini ta’kidlaydi.

Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf etkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga hos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, ya’ni, hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu-havasga, huzur-halovatga berilib, engil-elpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari.

Mana shunday ikki xil dunyoqarash asosida paydo bo‘ladigan og‘ir savollar odamzot ongli yashay boshlagan zamonlardan buyon uni o‘ylantirib, qiynab keladi. Hayot mohiyatini anglab etishga o‘z umri, bilim va salohiyatini bag‘ishlagan ne-ne buyuk zotlar, mutafakkir faylasuflar, alloma va aziz-avliyolar millati, tili va dinidan qat’i nazar Shu kabi murakkab muammolarga javob topish uchun izlangan, bu mavzuda qancha-qancha asarlar yaratgan. Lekin bu savol bugungi kunda ham hanuz o‘tkir va dolzarb bo‘lib qolayotganini inkor etib bo‘lmaydi.

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar

Biz milliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma’naviyatimizni Shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’naviyatini shakllantiradigan omil va mezonlar quyidagilar:

Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar.

Muqaddas dinimiz.

Oila muhiti.

Mahallaning ta’siri.

Ta’lim-tarbiya tizimi.

Albatta, har qaysi xalq va millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Bu borada, tabiiyki, **ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar** eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Shu o‘rinda ma’naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir mezon – **muqaddas dinimiz** hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, **bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari** bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech Shubhasiz, **oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir.** Chunki insonnning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida Shakllanadi. Bolalaning harakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila Sharoitida qaror topishi tabiiydir.

O‘z-o‘zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog‘lom nasl masalasi ham muhim rol o‘ynashini inkor etib bo‘lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, **bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.**

Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu **ta’lim-tarbiya tizimi** bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu Sharqona qarash, Sharqona hayot falsafasi.

Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarini eslayman. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari o‘tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko‘lami va mohiyatiga ko‘ra ulkan ishlarimiz biz ko‘zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo‘lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma’naviy yuksalishi yo‘lida mustahkam zamin yaratdi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

«Marifatparvarlik, deydi I.A.Karimov – biz uchun bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, yo‘qotmaydi ham. Akl-zakavotli, yuksak ma’niviyatli kishilar tarviyalay olsakkina, oldimizdagi maqsadimizga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yecha olmasak, barcha toat ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo‘lmaydi!».

Shu fikrlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ajdodlarimiz ma’rifatli bo‘lganlar va ilm-fan beshigini tebratganlar. Turon zaminida dunyoga mashxur allomalar etishib chiqqan. Ular bizning faxrimiz. O‘rta asr uyg‘onish davri ravnaqi ham ana shu ma’rifatning kuch-qudrati xosilasidir. Biz ana shundan ibrat olishimiz kerak.

O‘sha paytdagi ma’rifatparvarlik xalq ma’naviyatini tiklashga qaratilgan edi. Ma’naviyatni tiklashda tarix muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun «Tarxiy xotirasiz kelajak yo‘q» asarida «Tarix – xalq ma’viyatining asosidir» deyiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ma’naviyat tarixdan ozuqa oladi va boyib boradi. Ajdodlarimiz ma’naviyatining durdonalaridan biri bo‘lgan «Avesto»da tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Bu kitob Vatanimiz hududida yashab kelayotgan xalqlar dunyoning eng qadimgi madaniyat va ma’viyatga ega xalqlar ekanligini isbotlaydi. «Avesto»da shaxsning axloqiy xislatlari, haqgo‘ylik va adolatlilik ulug‘lanadi. «Avesto»da zardo‘shtiylik uchta tayanga asoslanadi: fikrlar sofligi, so‘zning sobitligi, amallarning insoniyligidir. Bu g‘oyalar insoning ma’naviyati yuksakligi va tarbiyalangiligi o‘zida ifoda etadi. Bu g‘oyalar o‘zining ahamiyatini yo‘qotgan emas. Demak, «Avesto» amalda bo‘lgan tarixiy davrlarda bolalarda diniy va axloqiy tarbiya berilgan, shu tarzda ma’naviyat masalasi ustuvor mavqega va maqomga ega bo‘lgan.

Mustaqil davlatda, tinchlik va osoyishtalikda, g‘oyaviy chalkashliklar va "temir parda"dan xalos bo‘lib, biz umumbashariy qadriyatining eng birinchi asosi bo‘lgan xalq insonparvarligi chashmalaridan qadam-baqadam baxramand bo‘lmoqdamiz. Ayni shu hol taraqqiyot yo‘lidan dalil borishimiz va butun Insoniyat bilan birligimizinng eng mustahkam kafolatidir.

Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish-O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muxim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevasi, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan birgalikda etilgan. Ma’viyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati Shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtradi. Tabiatga yaqinlik, jonajon o‘lkaning benihoyat go‘zalligidan baxramand bo‘lish ma’naviyatiga oziq beradi, kuchaytiradi. Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo‘lmaganidek, o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi.

Ma’naviyat turli xalqlar va mamlmkatlar kishilarini korindosh kiladi. Ularning tagdirini uzaro xurmat asosidayakinlashtiradi. Bizning ma’naviyatimiz arlar davomida million-million kishilar takdini bilan Shakllgan. Uni ulchab ham, payoniga etib ham bo‘lmaydi. U – inson uchun butun bir olam.

Ma’naviyat insonga xavodek, suvdek zarur. Saxrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog’ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi. Oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-uruglar, qo’ni-qo’shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik, ma’viyatining ma’nosi ana shunday juda keng. Bizning odamlarimiz Vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekadilar, chunki ularning ma’naviyat chashmasi go‘yo uzoqlashib ketgandek bo‘ladi. Shuning uchun ham xalq Vatandan yiroqlikni og’ir qabul qiladi, chunki, unda har bir qadrdon kishi uchun qayg‘uradigan umumiy qalb bor.

Ma’naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag‘ni ayash, o‘z kelajagiga bolta urish demakdir, Vatan va jahon madaniyatining, adabiyot va

sa’natning yutuqlari bir oilaga etib borish uchun oilaning moddiy ta’minlanganligidan qat’iy nazar qulay sharoitlar yaratishtalab etiladi. Ijodiy xodimlarning ma’naviy kuchiga erkinlik berish, ularga har tomonlama yordam ko‘rsatish ham katta ahamiyaga egadir.

33.7. O‘zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta’lim-tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Predizentimiz maktab bilan kollejlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, maktablarda 11 yillik ta’limni qayta tiklash, uning qoshida o‘quv-kasb kursi tashkil etish zarurligini ta’kidladi.

Yuqori sinflarda bolalar shaxs bo‘lib, jamoa bo‘lib shakllanadi, dedi davlatimiz rahbari. Ayni o‘sha paytda ularni o‘zlari o‘rgangan muhitdan ajratib qo‘ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim?, – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz?, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz?, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deya ta’kidladi prezidentimiz.

Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas’uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari – maktabgacha ta’lim, maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi muassasalar bunyod etish va mavjudlarini qayta ta’mirlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o‘z samarasini beradi.

2017-yil 8-oktyabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta’limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta’limning bakalavr yo‘nalishiga qabul bo‘yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

2017-2021-yillarda oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o‘quv dasturlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko‘rsatish va moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalarini izlashda oliy o‘quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo‘li bilan ularning mustaqilligini bosqichma-bosqich rivojlantirib boriladi.

Yig‘ilishda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar muhokama qilinar ekan, yoshlarning kasb-hunar egallashi, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi. Bunda yoshlarning ulug‘ ajdodlar merosini o‘rganishi, ularga mos etuk kadrlar bo‘lib voyaga etishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etilishi ham aynan ana Shu vazifani amalga oshirishdagi ilk qadam bo‘ldi. Mazkur maktabning tashkil etilishi kadrlarni yoshligidanoq tayyorlab borish, sohada etuk hamda zamon talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashga zamin yaratadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internatini va “Astronomiya va aeronavtika” bog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.mazkur qaror bilan Asronomiya instituti qoshida matematika, astronomiya, fizika va informatika fanlarini chuqur o‘rgatishga ixtisoslashtirilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati tashkil etiladi.

Maktablar oldiga qo‘yilayotgan talablardan biri – yuqori malakali, sohaning bilimdoni bo‘lgan o‘qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish bilan birgalikda, maktabda chet tilini ham o‘qitish. Bu kabi ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilayotganligi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi alohida ta’kidlandi.

Yig‘ilishda hududlar imkoniyati va salohiyatini o‘rgangan holda 8-9-sinf o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Bu ta’limning keyingi bosqichida o‘quvchilarning hunar egallashida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Endilikda umumta’lim maktablari bitiruvchilarini 50 ga yaqin kasbga o‘rgatish yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktablari negizida zamonaviy jihozlangan o‘quv ishlab chiqarish markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ba’zi kasb-hunar kollejlari tegishli vazirlik va idoralarga korxona va tashkilotlarga biriktiriladi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid hikmatli so‘zlari:

“Agar mendan sizni nima qiynaydi?, - deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”.

“Ayollarning ta’lim olishiga ko‘nmaydilar. Lekin ayollari kasal bo‘lib qolsa, ayol shifokor qidiradilar”.

“Ota-onam boshqa millionlab ota-onalar kabi, topgan-tutganlarini, umrlarini farzandlarining ta’lim olishi va baxtli hayot kechirishi uchun sarf qilganliklari tufayli ham shu darajaga yetishdim”.

“Har bir inson har kuni qiladigan ishini xuddi birinchi marta qilayotgandek qilishi kerak. Shundagina ishda rivojlanish bo‘ladi”.

“Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash – odamiylikning

eng oliy me’zoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir”.

XXXIV BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX-ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI. Y.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK NAZARIYASI

34.1. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim davlatlarida maktab va tarbiya

Tarixiy taraqqiyotning keyingi davrlariga kelib, ibtidoiy jamoa tuzumi o‘rnini yangi ijtimoiy formasiya quldorlik tuzumi egalladi. Qadimiy sharqda birinchi sinfiy jamiyatlar paydo bo‘ldi hamda moddiy va ma’naviy madaniyatga asos solindi. Ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim xalqlari bu madaniyatni rivojlantirishda o‘zlarini katta hissasini qo‘shdilar.

Darhaqiqat, tarixiy taraqqiyot davomida turli mamlakatlar va xalqlar jahon madaniyatiga turlicha yondashdilar va rivojlantirdilar. Masalan, Xitoyda qog‘oz ixtiro qilindi, Hindistonda hisoblashning o‘nlik tizimi kashf etildi, Mesopotamiyada esa yer kurrasini graduslarga, sutkani soatlar, daqiqalarga va soniyalarga bo‘lish o‘ylab topildi.

Eramiz boshlanishidan oldin o‘rta Osiyoning janubiy chekkasiga yaqin bo‘lgan joyda o‘rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvchi karvon yo‘li qurildi. So‘ngra o‘rta Osiyo orqali Xitoydan o‘rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo‘li» ochildi. Natijada o‘rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markaziga aylandi. Bu esa o‘z navbatida o‘rta Osiyo vohalarida madaniyatning rivojlanishiga ta’sir etdi, yozuvning tarqalishiga yordam berdi.

Ayniqsa, qadimgi Yunonistonda madaniyat, maktab va dastlabki pedagogik fikrlar boshqa mamlakatlarga nisbatan juda erta rivojlandi.

Yunoniston uncha katta bo‘lmagan bir qancha quldorlik davlatlaridan tashkil topgan. Uning mo‘tabar shaharlari Lakoniya (bosh Shahri Sparta) va Attika (bosh Shahri Afina)dir. Bularning har qaysisida tarbiyaning alohida tizimlari vujudga kelib, Sparta usulidagi tarbiya va Afina usulidagi tarbiya deb ataladigan bo‘ldi. Ammo ikkala davlatda ham quldorlik tuzumi hukmron edi.

Yunonistonda qullarni «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar. Qullar oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum edilar.

Lakoniya (Sparta)da kemalar to‘xtaydigan qulay gavanlar bo‘lmaganligi tufayli qullar mehnatiga asoslangan dehqonchilik hukmron edi. 9 ming oiladan iborat bo‘lgan quldorlar 250 mingdan ko‘proq aholiga hukmronlik qilardi. Spartada qullar Shafqatsiz ta’qib ostiga olinar edi.

Tarbiya ishlari esa davlat ixtiyorida bo‘lib, uning asosiy maqsadi spartaliklarning bolalarini baquvvat, jismoniy sog‘lom, bardoshli, chiniqqan jangchilar qilib tarbiyalash va bo‘lajak quldorlarni yetkazishdan iborat edi.

Spartaliklarning bolalari 7 yoshgacha uyda yashar, keyin «agella» deb ataluvchi davlat muassasasida 18 yoshga yetguncha tarbiyalanar edi. Ular «pedonom» rahbarligida jismoniy sog‘lom bo‘lish uchun turli mashqlar bilan chiniqtirilar, sovuqqa, ochlikka va chanqoqlikka chidashga, og‘riqqa bardosh

berishga o‘rgatilar edi. Ta’limning asosiy qismini harbiy gimnastika mashqlari egallar edi.

Qadimgi yunon tarixchisi, faylasuf olim Plutarx Sparta maktablaridagi ta’lim-tarbiya haqida gapirib, Shunday deydi:

«o‘qish va yozishga kelganda bolalarga faqat ularning eng zaruri o‘rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsad: hech so‘zsiz itoat qildirishni, chidamli bo‘lishni va yengish ilmini o‘rgatishni ko‘zda tutar edi».

Spartada ta’lim-tarbiyaning yana bir muhim vazifasi yoshlarni qullarga nisbatan Shafqatsiz, ularni mensimaydigan qilib tarbiyalashdan iborat edi. Shu maqsadda yoshlar **«Kreptiyalar»**da, ya’ni kechalari qullarni tutish mashqlarida qatnashar, Shubhali bo‘lib ko‘ringan har qanday illatni (qulni) o‘ldirar edilar.

Yoshlarga axloqiy tarbiya berishda davlat rahbarlari maxsus suhbatlar o‘tkazib, Shu yo‘l bilan ularga axloqiy va siyosiy tarbiya berar edilar. Shuningdek, bolalarni savol-javob jarayonida aniq, qisqa va lo‘nda qilib javob berishga o‘rgatib borilgan.

Spartada 18—20 yoshga yetganda yigitlar **«Efeblar»** o‘spirinlar guruhida harbiy xizmatni o‘taganlar.

Spartada qizlar tarbiyasiga ham alohida e’tibor berilgan. Ularni harbiy va jismoniy tarbiya malakalari bilan qurollantirib borilgan. Chunki erkaklar jangga ketganlarida ular Shaharni qo‘riqlab, qullarni itoat saqlashini ta’minlar, ular hatto jangda ham qatnashar edilar.

Afinada esa hayot, tartib, intizom, maktab tizimi va undagi ta’lim-tarbiya spartanikidan butunlay farq qilar edi. Qullar xususiy mulk hisoblanar edi. Afinada eramizdan ilgarigi V—IV asrlarda madaniyat barq urib o‘sdi. Fan, me’morchilik va haykaltaroshlik taraqqiy qildi.

Afinada eng ko‘rkam va barkamol inson deb ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan yetuk kishini o‘zlarirning «ideali» deb hisoblar edilar. Bu ideal faqatgina yuqori tabaqali quldorlarga xos edi. Jismoniy mehnat esa faqat qullarning qismati deb hisoblanar edi.

Afinada bolalar 7 yoshga yetguncha uyda tarbiyalanar, o‘g‘il bolalar 7 yoshdan boshlab maktabga qatnar, qizlar esa oilada ona ko‘magida uy-ro‘zg‘or ishlariga o‘rgatilar edi. Afinada xotin-qizlarning hayoti uy doirasidan chiqmas, asosan ichkarida o‘tar edi.

Afinada bolalar dastlab 7 yoshdan 13—14 yoshgacha «grammatist» (savod o‘rgatish ma’nosida), «kifarist» (grekcha musiqa o‘qituvchisi ma’nosida) maktablarda tahsil olganlar. Bu maktablar xususiy bo‘lib, o‘qish pullik edi. Shuning uchun fuqarolarning bolalari bu maktablarda ta’lim ololmas edilar.

Bu maktablarda **«didaskol»** deb atalgan o‘qituvchilar mashg‘ulot olib borar edilar. (men o‘qitaman, degan ma’nodagi «didasko» so‘zidan keyinroq «didaktika» — ta’lim nazariyasi kelib chiqqan).

O‘g‘il bolalarni maktabga qullardan biri boshlab borar edi, bunday qul **pedagog** deb atalar edi («pays» - bola, «agogeyn» - yetaklab borish degan so‘zlardan olingan). **Grammatist** maktabida o‘qish, yozish va hisoblash o‘rgatilar edi. O‘qishda harflarni hijjalab o‘qitish usuli, so‘ng qo‘shib o‘qish usulidan foydalanganlar. Yozuvni o‘rgatishda mum surilgan yaltiroq taxtachalardan

foydalanganlar. Ular ingichka cho‘p yordamida yozganlar. Sonlar barmoqlar, sopol toshlar, sanoq taxtasi yordami bilan hisoblaganlar. **Kifarist** maktabida o‘g‘il bolalarga adabiy bilim va estetik tarbiya berilar, muzika, ashula, deklomasiyalar o‘rgatilar edi.

O‘g‘il bolalar 13—14 yoshga yetganlaridan keyin **palestra** («kurash maktabi») deb atalgan o‘quv yurtiga o‘tar edilar. Bu o‘quv yurtida ular ikki—uch yil davomida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanar edilar. Masalan, sakrash, yugurish, kurash tushish, disk va nayza irg‘itish, suvda suzish kabilar o‘rgatilardi. Palestrada o‘qish tekin edi, Shuning uchun ham yoshlarning ko‘pchilik qismi palestrada o‘qish bilan cheklanib qolar edi.

Yoshlarning badavlatroq oiladan bo‘lgan qismi palestrani tugatgach **gimnasiyga** (jismoniy, ijtimoiy tarbiya) kirar edi. Ularga falsafa, siyosat, adabiyot fanlari o‘rgatilgan. Bu maktabni tugatgan yoshlar davlatni boshqarishda qatnashishlari mumkin edi.

Nihoyat, Spartada bo‘lgani kabi, Afinada ham 18 dan 20 yoshgacha bo‘lgan yoshlar Efeblar qatoriga o‘tib, harbiy xizmatga tayyorlanar va o‘zlarini siyosiy bilimlarini oshirishni davom ettirar edilar.

Aholining ko‘pchilik qismi bolalarni maktablarda o‘qita olmaganligi sababli ularga kasb-hunar o‘rgatish odat tusiga kirgan edi. Ayrim xat-savodi bor otalar bolalariga o‘qishni o‘zlari o‘rgatar edilar. Bu kabi tartib davlat tomonidan qonunlashtirilib qo‘yilib bechorahol tabaqaga mansub ota-onalar o‘z bolalariga biror kasbni o‘rgatishga majbur edilar. Aks holda ularning bolalari kelgusida keksayib qolgan ota-onalari to‘g‘risida moddiy g‘amxo‘rlik qilishdan ozod etilar edi. Quldor zodagonlar mehnat bilan shug‘ullanuvchi erkin aholiga nafrat bilan qarardi. Qullarni esa «gapiradigan ish quroli» deb hisoblar edilar.

34.2. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to‘g‘risida

Yunonistonda maktab va madaniyatning tez rivojlanishi pedagogika nazariyasining ham tug‘ilishiga imkoniyat yaratdi. Pedagogika nazariyasiga olim va faylasuflardan Suqrot, Platon, Aristotel va Demokritlar asos soldilar. Ular o‘z qarashlari bilan ta’lim-tarbiya rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdilar. Quyida bu faylasuf olimlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Suqrot. (eramizdan avvalgi 469—399-yillar) o‘zining demokratik ijtimoiy kelib chiqishiga qaramay (u kambag‘al hunarmand, ya’ni haykaltarosh o‘g‘li) konservativ zamindor aristokratlarning ideologi edi. Bu albatta uning falsafiy va pedagogik qarashlarida o‘z aksini topdi. Suqrot dunyoning tuzilishini, buyumlarning fizik holatini bilib bo‘lmaydi, odamlar faqat o‘zlarinigina bilishi, axloqni kamol toptirishi lozim deb hisoblar edi. Suqrot faylasuf bo‘lishi bilan birga ajoyib notiq ham edi. U keng maydonlarda so‘zga chiqib, axloqqa doir masalalar yuzasidan suhbatlar o‘tkazar, o‘quvchilarni savol-javob yo‘li bilan haqiqatni o‘zlari topishlariga va bilishlariga undar, shu yo‘l bilan odamlarni haqiqatni izlashga o‘rgatar edi. Suhbatni bu metodi «Suqrot metodi» deb yuritilgan. U pedagogika olamiga ana shunday savol-javob metodini, ya’ni **«evristik»** suhbat metodini yangi (savol berish va savolni to‘ldirish) metodini olib kirdi.

Suqrot — falsafiy dialektikaning asoschilaridan biri. U baxs orqali, ya’ni muayyan masalalarni o‘rtaga qo‘yish va ularga javob topish yo‘li bilan haqiqatni aniqlash mumkin deb tushungan.

Aristotel’ fikricha Suqrot mavjud haqiqatdan umumiy tushunchalarga o‘tish haqidagi induktiv ta’limotni hamda har bir narsaning mohiyatini bilishning birinchi imkoniyatini beradigan tushunchalarni aniqlash haqidagi ta’limotni yaratgan. Uning etika sohasidagi asosiy tezisi Shundan iborat: ezgulik bilimdir; donishmandlik, ya’ni yaxshilikni biluvchi yaxshilik qiladi; yomonlik qiluvchi esa yaxshilikni yo bilmaydi, yoki pirovardida yaxshilikning tantanasi uchun yomonlik qiladi. Suqrotning tushunishicha, aql bilan axloq o‘rtasida ziddiyat bo‘lishi mumkin emas. U tarbiyada axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya mezonini ishlab chiqdi. Lekin Suqrotning axloqiy qarashlarida tengsizlikni yaqqol sezish mumkin. Uning fikricha, axloq faqat imtiyozli «mumtoz»largagina xos, «mumtoz» kishilar haqiqiy axloqning yagona egalari bo‘lganliklari uchun hokimiyat ham ularning qo‘llarida bo‘lmog‘i kerak deydi.

Suqrot demokratiyaga dushmanlikda asossiz ayblanib, o‘lim jazosiga hukm qilingan. Lekin o‘zi zahar ichib o‘lgan. Haqiqatda esa u adolatga xilof bo‘lgan davlatni boshqarishning hamma formalarini — monarxiya, tiraniya, aristokratiya, plutokratiya va demokratiyani tanqid qilgan.

Platon eramizdan ilgari (424—347-yillarda) yashagan. Qadimgi Yunonistonning mashhur – idealist faylasufi, Suqrotning shogirdi, ob’yektiv idealizm nazariyasining asosichisi edi. U «g‘oyalar dunyosi»ni birlamchi, his qiluvchi narsalar dunyosini ikkilamchi deb hisobladi.

Platon olamni hodisalar dunyosi va g‘oyalar dunyosi deb ikkiga bo‘ldi. Uning fikricha g‘oyalar abadiy va o‘zgarmasdir. Uning nazarida, narsalar g‘oyalar olamining soyasidir, xolos.

Afina aristokratiyasining namoyandasi bo‘lgan Platon, aristokratiyaning abadiy hukmronligi haqidagi nazariyani ilgari surdi. Uning fikricha ideal aristokratik davlat uch xil ijtimoiy guruh: faylasuflar, jangchilar, hunarmandlar va dehqonlar guruhidan iborat bo‘lishi lozim. Faylasuflar davlatni boshqaradilar, jangchilar uni har qanday dushmandan himoya qiladilar, uchinchi guruh esa mehnat qilib, mo‘l hosil yetishtirib, faylasuflar va jangchilarni boqadilar, degan fikrni olg‘a suradi. Shuningdek, u qullarni ham saqlanib qolishini aytib, uning tasavvuridagi ideal davlatda qullar ham, hunarmandlar ham huquqsizdirlar, pastkashlik hamda qanoat va itoatkorlik fazilatlarigina hunarmand kosiblarga va dehqonlarga xos deb ta’kidlaydi.

Platonning fikricha, u olg‘a surgan g‘oya, bu davlatning maqsadi oliy ezgulik g‘oyasiga yaqinlashishdir: bu g‘oya, asosan, tarbiya yo‘li bilan ro‘yobga chiqishini ta’kidlaydi.

Tarbiya, — deydi Platon, davlat tomonidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruhlarning — faylasuflar va jangchilarning manfaatini ko‘zlamog‘i lozim. Platon o‘zining pedagogika tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi bir belgilarini birlashtirishga intiladi.

Platonning fikricha, bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlab qo‘yilgan tarbiyachilar rahbarligida maydonchalarda turli o‘yinlar o‘ynash

bilan Shug‘ullaniShlari muhimdir. Platon o‘yinlarni maktabgacha tarbiya vositasi deb hisoblab, ularga katta ahamiyat beradi, Shuningdek, bolalarga hikoya qilib beriladigan materiallarni sinchiklab tanlash kerakligini ham uqtirib o‘tadi. U bolalarga eng yoshlik chog‘idanoq ijtimoiy tarbiya berish tarafdori edi.

Bolalar 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablariga qatnaydilar va bunday maktablarda o‘qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o‘rgatiladi.

Bolalar 12 yoshdan 16 yoshgacha odatdagi badantarbiya mashqlari o‘rganiladigan palestrada, ya’ni jismoniy tarbiya maktabida o‘qiydilar. Palestrani tamomlagan o‘spirinlar 18 yoshgacha hisob, geometriya va astronomiyani o‘rganadilar, bunda ko‘proq amaliy maqsadlar (ularni jangchilar qilib tayyorlash) ko‘zda tutilgan. 18 yoshdan 20 yoshgacha yigitlar «Efebiya»da tarbiyalanadilar, ya’ni harbiy gimnastika tayyorgarligini o‘taydilar. Aqliy mashg‘ulotga mayli bo‘lmagan yigitlar 20 yoshdan boshlab, jangchilar qatoriga o‘tadilar. Abstrakt tafakkurga qobiliyati borligi ochiq ko‘ringan yoshlar, ya’ni yigitlarning ozroq qismi 30 yoshga qadar falsafa, Shuningdek, hisob, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasini o‘rganish bilan Shug‘ullanib, Shu tariqa ilm olishning uchinchi, oliy bosqichini o‘taydilar, ammo bunda amaliy maqsad ko‘zda tutilmasdan, balki falsafa-nazariyani mukammal o‘rganish ko‘zda tutiladi. Shu tariqa ular davlat mansablarida ishlashga tayyorlanadilar. Iste’dodi g‘oyat o‘tkir ekanligi ma’lum bo‘lgan va juda ozchilikni tashkil etgan yigitlar falsafa ilmini o‘rganishni yana 5 yil (35 yoshga qadar) davom ettiradilar, Shundan so‘ng 35 dan 50 yoshgacha davlatni boshqaradilar.

Platon ham xotin-qizlar tarbiyasi xususida fikr yuritib, Spartadagi usulni ma’qullaydi.

Umuman Platon tarbiya tizimining butun mazmuni va mohiyati jismoniy mehnatdan g‘oyat nafratlanish ruhi bilan sug‘orilgan. Platon g‘oyasiga ko‘ra bo‘lajak faylasuflar va jangchilarning «jismoniy mehnat to‘g‘risida xato o‘ylashlari» ham taqiqlab qo‘yilgan, Shuningdek qullarning bolalarini o‘qitmagan ma’qul, degan g‘oya ilgari surilgan.

Biroq, Platon maktabgacha tarbiya to‘g‘risida, davlat tomonidan izchillik bilan olib borilishi lozim bo‘lgan tarbiya tizimi to‘g‘risida bir qancha muhim fikrlarni aytdi, ijobiy o‘rnak namunasida tarbiyalash kabilarni talab qildi.

Platon o‘zining axloqiy tizimini yaratar ekan, ustozi Suqrotga ergashib, ob’yektiv idealizm yo‘lini tutadi. Platon etikasining asosiy nazariy tayanch nuqtasi — inson ongi chegaralaridan tashqarida bo‘lgan va mangulik g‘oyalari olamida xudoning doimiy nazorati ostida bo‘ladigan yagona o‘zgarmas «yaxshilik» g‘oyasidir. Uning fikricha, yerdagi yaxshiliklarning hamma turi o‘zida me’yor, go‘zallik va haqiqatdan iborat uch tushunchani jamlagan oliy «yaxshilik g‘oyasi»ning in’ikosigina bo‘lishi mumkin.

Platon fikricha, odamning axloqiy hayoti shu oliy «yaxshilik g‘oyasi»ga intilishga to‘la bo‘ysungan va xushbaxtlikni tashkil etadigan, faqat oliy «yaxshilik» g‘oyasiga intilishdagina xulqning namunasini ko‘rish mumkin. Shunday qilib, Platon insonning xulqini xudo xohishiga bo‘ysundirishga harakat qilgan.

Platon insonga xos kategoriyalar va tushunchalarni sinchiklab ishlab chiqib, ularning barqarorligi va muayyanligini isbotlagani holda ularni kishilar joriy

qilishini ham e’tirof etmadi. Shu bilan, u axloqiy qonunlar kishilar uchun majburiy yoki nomaqbul bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikrga o‘rin qoldirmadi. U bu o‘rinda aristokrat zodagonlarnigina nazarda tutgan xolos. Xalq ommasiga kelganda unga axloqiy hayotda arzimas o‘rin berilgan, uning fikricha, xalqqa faqat bo‘ysunish, itoatkorlik axloqigina xos. Qullar hech qanday fazilatga ega emaslar, deb hisoblagani sababli Platon axloqiy etikasiga ko‘ra, ular umuman chinakam axloq egasi bo‘lishi mumkin emas.

Platon axloqiy tushunchalarni o‘zgarmas va barqaror deb qarashi hamda ularni mutlaqlashtirishi jamiyat siyosiy tuzilishining o‘zgarmasligi g‘oyalarini himoya qilishga va quldorlik davlatini ideallashtirishga xizmat qildi. Natijada Platon etikasi aristokratiya nazarida jozibador bo‘lib ko‘rinadi. Ular uning etikasida o‘z hayotlari tarzining in’ikosi va himoyachisini ko‘rdilar.

Platonning Shogirdi bo‘lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, qadimgi Gresiyaning eng yirik idealist-faylasufi va olimi Arastuning pedagogika nazariyasini yaratishdagi va uni rivojlantirishdagi xizmatlari juda ulkan.

Arastu—Aristotel (eramizdan ilgari 384—322-yillar)da yashagan. Platonning shogirdi bo‘lgan, makedoniyalik Iskandarni tarbiyalagan, Qadimgi Yunonistoning yirik idealist-faylasufi va olimi edi.

Platon olimni g‘oyalar dunyosi va hodisalar dunyosi deb ikkiga bo‘lgan bo‘lsa, uning shogirdi Arastuning aytishicha, g‘oyani shaklga o‘xshatish mumkin. Har qanday buyumda biz uning moddasini va shaklini ko‘rishimiz mumkin. Moddada narsalar bo‘lishi uchun imkoniyatlar bor; modda biron shakl olganidan so‘nggina narsa bo‘lib qoldai. Chunonchi, marmarning o‘zi bir moddadir, ammo unga ma’lum shakl berilsa, haykal tusini olishi mumkin.

Butun hayot taraqqiyot jarayonidir, bu jarayon, Arastuning fikricha, tashqi kuchlarning ta’siri ostida sodir bo‘lmaydi, balki ichki taraqqiyotning o‘zidir. Arastu tashqi olamning mavjudligiga shubha qilmaydi va hissiy tajribani, sezgilarni bilishning asosi deb hisoblaydi. Arastuning ta’kidlashicha bilishdagi xatolar noto‘g‘ri tafakkurdan, ya’ni hissiy tajribani noto‘g‘ri talqin qilishdan kelib chiqadi. Eng muhimi shundaki, Arastu shakl bilan mazmunning birligini ko‘rsatib o‘tdi, taraqqiyot g‘oyasini olg‘a surdi.

Arastu olamda tana va jon bor, tana bilan jon materiya bilan shakl tariqasida bir-biridan ajralmagan holda mavjuddir, deydi. Uningcha, uch xil jon bor: o‘simlikdan tarkib topgan jon oziqlanish va urchib ko‘payishda namoyon bo‘ladi; hayvonotdan tarkib topgan jon, o‘simlik xossalaridan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo‘ladi; aqlning ifodasi bo‘lgan jon, o‘simlik va hayvonot xossalaridan tashqari, u tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Insondagi jonning hayvoniy qismi aqlga tobe bo‘lganligi sababli, uni iroda deb atash mumkin.

Arastuning fikricha, jonning mana shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya - jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya bo‘lishi kerak. Tarbiyaning maqsadi, uning fikricha jonning olim tomonlarini - aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo‘lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang‘ichinigina beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan

ro‘yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog‘lab qo‘ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo‘ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog‘lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi.

Arastuning fikriga ko‘ra, davlatning umumiy bitta oxirgi maqsadi bor, u ham bo‘lsa, davlat hamma fuqarolarga bir xilda tarbiya berilishini ta’minlashi lozim, mana Shunday tarbiya berish esa xususiy tashabbusning vazifasi bo‘lmasdan, balki davlatning ishi bo‘lishi lozim.

Oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya o‘zaro bog‘liq bo‘lishi lozimligini uqtirib, u hatto oilaviy tarbiyaga doir bir qancha tavsiyalar beradi. Ammo Arastu davlat hamma fuqarolar uchun “bir xilda” tarbiya berishi lozim, deb aytganida qullarni nazarda tutmaydi.

Arastu pedagogika tarixida birinchi bo‘lib, yoshni davrlarga bo‘lishga urinib ko‘radi. U insonning yoshlik yillarini uchga bo‘lib o‘rganadi: 7 yoshgacha bo‘lgan davr; 7 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan davr (jismoniy balog‘at davrining boshlanishi) va jinsiy balog‘at davrining boshlanishidan 21 yoshgacha bo‘lgan davr. Uning fikricha, bunday davrlarga bo‘lish tabiatga mos bo‘lib tushadi.

Arastu o‘g‘il bolalar 7 yoshdan boshlab davlat maktabida o‘qishi lozim, deb uqtiradi. Bolalarga aqliy tarbiya berilishi kerakligini aytib, u o‘g‘il bolalar avvalo badantarbiya muallimlarining qo‘liga topshirilsin, deb talab qiladi; bunda u bolalarni haddan tashqari charchatib qo‘ymaslik kerakligini aytadi va ularni jismi mustahkamlanib olguncha yengil mashqlar bilan Shug‘ullantiriShni tavsiya etadi.

Arastu jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan bog‘langan, deb qaraydi. Boshlang‘ich ta’lim vaqtida, badantarbiyadan tashqari, yana o‘qish, yozish, grammatika, rasm va musiqa o‘rgatilishi kerakligini alohida uqtirib o‘tadi. O‘smirlar maktabda jiddiy ma’lumot olishlari kerak, ular adabiyot, tarix, falsafa, hisob, falakiyot, musiqa o‘rganishlari shart. Go‘zallikni his qilishni o‘stirish uchun musiqa o‘rganmoq kerak, ammo rasm chizish singari musiqa o‘rganish ham oddiy hunarga aylanib ketmasligini kuzatib turish muhim deydi. U xotin-qizlarning tarbiyasi xususida gapirib, bu erkaklarning tarbiyasiga o‘xshab ketmasligini, chunki ularning tabiati mutloq erkaklarnikidan farq qilishini aytadi.

Arastu o‘z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko‘nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste’dod, shu bilan birga, ko‘nikma orttirish (matlub harakatlarni o‘rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql - bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi.

Fazilatlar hosil bo‘lishi uchun ezgu xulq-odatlarini va ko‘nikmalarini tarkib toptiradigan, yaxshi o‘ylab o‘tkaziladigan mashqlar bo‘lishi ham zarur, bunga odatlanish, buning uchun doimiy harakat qilish lozim, odatdan, ko‘nikishdan esa axloqiy xatti-harakat hosil bo‘ladi, deb ta’lim beradi.

Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o‘rtachilik bo‘ladi. Shuning uchun ham hamma narsadan faqat o‘rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo‘l qo‘ymaydigan xatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xatti-harakatni hosil qilmoq uchun ko‘proq mashq qilish kerak, degan fikrlarni olg‘a surdi.

Arastu Platondan farq qilib, oilani tarbiyadan chetlashtirmaydi, axloqiy tarbiya berish, asosan, oilaning zimmasida bo‘lishi kerak, deydi.

Arastuning qarashlari antik pedagogikaning taraqqiyotiga katta ta’sir o‘tkazadi. Ayniqsa uning “Nikomah etikasi” va “Siyosat” asarlari axloq masalalarini nazariy ishlab chiqishga bag‘ishlandi.

Arastu, axloqning jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlab, “Tabiat inson qo‘liga qurol - aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u Shu qurolni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin: shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo‘lib qoladi”, - deydi.

Arastu antik davrining boshqa faylasuflariga qaraganda axloqiy munosabatlarning tabiatini teran tadqiq qila oldi. Uning fikriga ko‘ra, axloqiy fazilat - faoliyat, xatti-harakat demakdir. Barcha axloqiy fazilatlar adolat, do‘stlik, muhabbat, saxiylik, sulhparvarlik, xushfe’llik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo‘lishini asoslab beradi.

Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatlari hech qachon sof, xolis holda namoyon bo‘lmaydi, balki faqat ijitimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar ijtimoiydir, deydi Arastu.

Inson tabiatan fazilatlarga ega bo‘lmagani, balki fazilatga o‘rgangani sababli, tarbiyaning (faqat bolalarnigina emas, shu bilan birga barcha aholini tarbiya qilish) roliga katta ahamiyat berib, hususan hissiyotlarni tuyg‘ularda idrokli tarbiyalashga ahamiyatni qaratadi. Uning fikricha, bunday tarbiya kishilarning axloqli bo‘lib yashashga o‘rganishlari uchun zarur bo‘lgan mavjud qonun-tartibotlar yordamida amalga oshiriladi. Mutafakkir fazilat deganda hamisha ota-ona o‘rnini bosishi mumkin bo‘lgan davlatga xizmat qilishni nazarda tutadi.

Arastu axloqiy fazilatlar bilan bir qatorda inson uchun muhim bo‘lgan aqliy fazilatlarga – bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham katta ahamiyat beradi. Ammo axloqiy fazilatlarni aqliy fazilatlarga bo‘ysundirgan holda ifodalaydi.

Arastu faqat aql faoliyatini tan oladi. Shu sababdan u baxt idealini haqiqatan intellektual mushohada etishda deb biladi.

Umuman antik faylasuflar Suqrot, Platon, Arastular o‘zlarining nazariyalarida har bir narsada me’yor bo‘lmog‘i lozimligini uqtirib o‘tganlar. Ular axloqni insonning baxtga erishish vositasi deb qaraganlar.

Atomizm nazariyasini yaratgan atoqli faylasuf - materialist **Demokritning** qarashlari (eramizdan avvalgi 460-370-yillar) qadimgi yunon falsafasining cho‘qqisidir. Demokrit o‘z asarlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutafakkir faylasuflar kabi tarbiya masalalariga katta e’tibor beradi. U o‘z nazariyasida tabiat qonunlariga, xurofotni va qo‘rquvni yemirib tashlaydigan chinakam bilimlarga murojaat qiladi.

Demokrit tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo‘lib ilgari surdi. “Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi” deb yozadi u. Demokrit “ta’lim mehnat asosidagina go‘zal narsalarni hosil qiladi”, deb, tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidladi.

U doimo mehnat qilib turishni talab qildi, mehnatga odatlarna borgan sari, mehnat yengil bo‘lib boradi, deydi. U yomon o‘rnakdan ehtiyot bo‘lish kerak, deb ta’kidlaydi va yaxshi xulq hosil qilishda mashqning ahamiyati katta, deb hisoblaydi.

Demokrit barcha tabiiy jarayonlarga, jumladan, insonning axloqiy munosabatlarida ham kishi xulqini real, bu dunyodagi asosini topishga urinadi. Demokrit axloqni odamning o‘z tabiatidan kelib chiqib asoslashga harakat qiladi. Bilish nazariyasida Demokrit moddiy olamni bilish va haqiqatga erishish mumkinligini ta’kidladi, bilish jarayonida sezgi va tafakkur rolini ko‘rsatdi. Uningcha sezgilarimiz orqali olingan bilim «qorong‘i»; u olamning mohiyatini ochib berolmaydi; aql orqali olingan bilim «yorug‘», haqiqiy bilimdir. Tabiat sirlarini faqat fikrlash yo‘li bilan bilib olish mumkin.

Demokritning axloqiy va pedagogik qarashlari diniy qobiqdan xoli edi. Shuning uchun ham o‘zidan keyingi faylasuf olimlarga katta ta’sir etdi.

Ayniqsa, ularning inson kamolotidagi nazariy qarashlari, tarbiyaning roliga bergan katta ahamiyatlari pedagogika tarixi nazariyasini yaratishda asosiy zamin bo‘lib xizmat qildi.

34.3. Qadimgi Rimda pedagogik g‘oyalar rivoji

O‘rta asr g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ikki guruhga bo‘lingan va yetti fanni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturi vujudga kelgan edi. Birinchi guruh uchta fandan iborat edi, shu sababli unga lotincha «trivium» nomi berildi. Bunga grammatika (lotin tili grammatikasi), ritorika va dialektika kirar edi. Ikkinchi guruh to‘rt fandan iborat bo‘lgani uchun uni lotincha «kvadrivium» deyiladi. Unga arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa kirar edi. Hammasi bo‘lib bu yetti fanni «yetti erkin san’at» deb atash rasm bo‘lib qoldi.

Mazkur o‘quv fanlari qadimgi Yunoniston ta’lim tizimidan olingan edi, biroq o‘rta asrlarda ularga diniy mazmun berilib, hammasi ramz bilan diniy ma’noda tushuntirilar edi. Masalan: grammatikani o‘rganishdan maqsad - muqaddas diniy kitoblarni o‘qishni bilib olish, ritorika (notiqlik san’ati nazariyasi)ni o‘rganishdan maqsad va’zxonlik qilish, xutba o‘qish san’atini egallab olish, musiqa deyilganda esa diniy musiqa nazarda tutilardi (katolik cherkovida ibodat vaqtida organ musiqa asbobi chalinadi va diniy ashulalar aytiladi). Dialektika, munozara, bahslashish san’ati deb tushunilar va katolisizmga qarshi chiquvchilar bilan munozara qilishga yordam beradigan fan deb hisoblanar edi. Hattoki matematikaga ham diniy ma’no berilar edi. Geometriya cherkov binolarini qurish uchun zarur fan hisoblanar edi, arifmetikani o‘qitganda ayrim sonlarni ramz bilan diniy ma’noda (masalan «1» raqami bu xudoning birligi simfoli (ramzi) deb tushuntirilar edi. Astronomiyadan esa diniy kalendar’ tuzishda foydalanardilar.

Hamma fanlarning toji deb - teologiya hisoblanar edi. O‘rta asrlarda beriladigan ta’lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilar edi.

Cherkov maktablarining asosiy turlari: prixod maktabi (ya’ni cherkovga qarashli), monastir’ maktabi va bosh cherkov yoki yepiskop maktablaridan iborat edi.

Prixod maktablari boshlang‘ich diniy maktablari bo‘lib, unda o‘g‘il bolalar o‘qir edi. Ular mahalladagi cherkovga qarashli bo‘lib, unda ruhoniy yoki uning yordamchisi o‘qituvchilik vazifasini bajarar edi. Prixod maktablarida bolalar xristian dini asoslari va qoidalarini, diniy ashulalar aytishni, lotin tilida o‘qish va yozishni o‘rganardilar. Ba’zilarida esa bolalar boshlang‘ich hisob ilmini ham o‘rganardilar.

Monastir maktablari monastir’ huzuridagi maktablar bo‘lgani sababli Shu nom bilan yurgiziladi. O‘rta asrlar Yevropadagi monastirlar faqat tarki dunyo qilgan monaxlar yashaydigan diniy muassasagina bo‘lib qolmay, balki ba’zi joylarda ular o‘z zamonasiga munosib madaniyat markazi, ma’rifat o‘chog‘i ham edilar. Bunday monastirlarda turli kitoblardan nusxa ko‘chirish, kitobxonalar tashkil qilish bilan Shug‘ullanar, ba’zi monaxlar ilmiy muammolar ustida ish olib borar edilar. Monastir’ maktablarida o‘qitish vazifasi uchun maxsus monaxlar tayinlanardi. Shu ishda ishlab turgan monaxlar ta’lim-tarbiya ishini uyushtirish va uni olib borish sohasida ancha tajriba to‘playdilar.

Monastir maktablarining ko‘pida prixod maktabida o‘qitiladigan fanlardan tashqari, yana yuqorida aytilgan «yettita erkin san’at»dan dars berilar edi.

Monastir maktablariga boshda faqat monax bo‘lishga tayyorlanadigan o‘g‘il bolalar qabul qilinar edi, keyinchalik esa bu maktablarga o‘qishni xohlagan har bir kishi qabul qilinaverdi. Shu sababdan monastir’ maktablari «ichki maktab» (monastir’ devori ichida, faqat kelgusi monaxlar uchun) va «tashqi maktab» (monastir’ devori tashqarisida, hamma o‘qishni istaganlar uchun) nomli ikki maktabga bo‘lina boshladi.

Bosh cherkov yoki yepiskop maktablari markaziy diniy okrugdagi bosh cherkov (sobor)ga qarashli maktablar edi. Bunday okrugda din ishlari boshqarmasi joylashgan bo‘lib, uning boshida yuqori lavozimli ruhoniy - yepiskop turar edi. Shuning uchun bu maktablarni bosh cherkov yoki yepiskop maktablari deyilar edi. Bu turdagi diniy maktablarda faqat o‘g‘il bolalar o‘qir edi. Bosh cherkov maktablarida odatda yuqorida ko‘rsatilgan yetti fanning hammasi o‘qitilib, bu fanlardan tashqari eng oliy va asosiy fan deb hisoblangan teologiya (din qoidlari) ham o‘qitilar edi. Monastir maktablari singari, bu maktablarga ruhoniy bo‘lish maqsadini qo‘ymagan Shaxslar ham qabul qilinaverar edi, chunki xat-savodi bo‘lgan kishilarga talab tobora kuchayib borar edi. Shu sababli monastr maktablari singari, bu maktablar ham «ichki maktab» (faqat ruhoniylarni yetishtiruvchi) va hamma o‘qishni istovchilar uchun «tashqi yepiskop maktablari» nomi bilan ikki xil maktabga bo‘lina boshladi.

O‘qish cherkov tomonidan tasdiqlangan din darsliklari va din aqidalarini yodlashdan iborat edi. Bu maktablarda belgilangan o‘quv yiliga rioya qilinmay, maktabga istagan vaqtida kirib, uni turli vaqtda tamomlab chiqish mumkin edi. Sinf-dars tizimi ham yo‘q edi. O‘quvchilar bir xona ichida to‘plangan bo‘lsalar ham, har qaysisi faqat o‘z sabog‘i bilan Shug‘ullanar, o‘qituvchi esa shogirdlarini bitta-bittadan o‘z oldiga chaqirib, har qaysisiga alohida-alohida saboq berardi.

Bu maktablarda qattiq intizom o‘rnatilar edi. O‘quvchilar qilgan har bir aybi uchun qattiq va shafqatsiz jazolanardilar. Bunday maktablarda odatda o‘quvchilarga tan jazosi berilar edi (savalash, och qoldirish va shu kabilar).

O‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropada mulkdor feodal va aslzoda tabaqalariga mansub oilalarda tug‘ilgan qiz bolalar odatda xotin-qizlar monastirlari ichida yoki maxsus murabbiyalar va oilaga birkitilgan ruhoniylar qo‘l ostidagi uylarda tarbiya olardilar.

Ritsarlik tarbiyasi. G‘arbiy Yevropada ham dunyoviy feodallar muhitida risar’ fazilatlariga ega bo‘lgan tajribali, mohir va mard jangchi, shuningdek, olijanob, nazokatli, odobli, xushmuomalali, vijdonli, fidokor va sodiq inson — tarbiyasi bilan bog‘liq alohida tarbiya tizimi, ya’ni risar’ tarbiyasi maydonga keldi.

G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida risar’ tarbiyasi XII-asrga kelib to‘la tarkib topdi va rivojlandi. Ritsar’ tarbiyasining mazmuni, «ritsarlarga oid yetti fazilat»dan tashkil topdi. Bu fazilatlar quyidagilardan iborat edi: ot minib yurishni, qilichbozlikni, nayzabozlikni, suza olish, ov qila bilish, shashka (keyinchalik shaxmat) o‘ynashni bilish, she’r to‘qish va qo‘shiq ayta olish. Bu fazilatlardan birinchi o‘rinda turgan uchtasi risarga berilmog‘i zarur harbiy tarbiyaga taalluqlidir: risar’ otliq askar, qilich va nayza esa o‘sha zamon jangchisining asosiy quroli edi. Suzish va ov qilishni bilish jismoniy chiniqish, chaqqonlik va bardoshlilikni o‘stirish uchun talab qilinardi. Bundan tashqari, ov qilish, shuningdek, o‘zining qaerdaligini aniqlay bilish (orientasiya qobiliyati), topqirlik, hushyorlik, dushmanning izini topish va shu kabi sifatlarni o‘stirish vositasi hisoblanardi. Shashka va shaxmat o‘yini, bir tomondan, bekorchi vaqtini band qilish, ya’ni hujum va mudofaa rejasini tuza bilish qobiliyatini o‘stirish vositalaridan hisoblanardi. She’r to‘qish va qo‘shiq ayta bilish esa o‘zining syuzereniga (kichik feodallar ustidan turgan hokim, boshliq va risarning homiysi) madhiya o‘qish va o‘zining sodiqligini izhor qilish, uning mardligini, zafarlarini, qahramonligini maqtash va Shu orqali uning iltifotiga sazovor bo‘lish hamda o‘zi uchun mahbuba qilib belgilangan feodal xonim-begimga madhiyalar o‘qish uchun talab qilinar edi. (o‘rta asrlarda g‘arbiy Yevropa dvoryanlar jamiyatida Shunday rasm bor ediki, bunga muvofiq har bir risar’ bironta aslzoda feodal xonimning homiyligida bo‘lmog‘i lozim edi, risar’ o‘zining homiysi bo‘lgan xonimni («dama serdsa») diliga jo qilib, uning oldida tiz cho‘kar va o‘zini unga bag‘ishlar edi).

Ritsarga oid ana shu yettita fazilatni egallash bilan birga, o‘sha davrlarda dvoryanlar jamiyatida qabul qilingan odob va nazokat qoidalarini o‘rgatish ham ritsar tarbiyasining mazmuniga kirar edi.

Ritsar tarbiyasining amaliy yo‘llari quyidagilardan iborat edi: feodal o‘z o‘g‘ilni 7 yoshdanoq syuzerenning saroyiga joylashtirar edi; bu yerda uning o‘g‘li 14 yoshgacha paj vazifasini bajarar edi, ya’ni ovqat vaqtida xizmat qilar, syuzeren xoni, feodal begimning va boshqa xonimlarning yumushlarini qilar, ular bilan birga sayrga chiqar, saroydagi qabul marosimlarida hozir bo‘lar, har qanday saroy bayramida va tomoshalarida ishtirok qilar va shu tufayli feodal dvoryanlar jamiyatidagi rasm va qoidalarni egallab olar edi, so‘ngra 14 yoshdan 21 yoshgacha syuzerenning qurol-yarog‘ini ko‘tarib yurish vazifasini bajarar edi. U syuzerenning qurol-yarog‘ini tartibda saqlar, syuzeren bilan birga jang va urushlarda ishtirok qilar, u bilan ovga chiqar, harbiy musobaqa va o‘yinlarda, turnirlarda (risarlarning kuch sinash musobaqalarida) ishtirok qilar va shu tufayli harbiy bilim va harbiy

san’atni egallab olar edi. 21 yoshga kirganda unga katta tantana bilan ritsarlik unvoni berilar edi.

34.4. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi

Pestalotsining pedagogik faoliyati. Iogann Genrix Pestalotsi Shveysariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug‘ildi. Pestalotsi otadan yosh judo bo‘lib, onasi hamda oddiy dehqon ayol – ularning sobiq xizmatchisi tarbiyasida o‘sdi.

Pestalotsi avval boshlang‘ich maktabda, so‘ngra lotin maktabida o‘qib ilm oldi. Pestalotsi o‘rta maktabni tamomlagach, ko‘proq gumanitar fanlar o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtiga - kollegiumga, uning filologiya va falsafa bo‘limlariga kirib o‘qidi. Pestalotsi kollegiumni tamomlamay turib, xalqning ahvolini yaxshilash to‘g‘risida o‘zining azaldan orzu qilib kelgan niyatini amalga oshirishga qaror qildi. 1769-yilda Pestalotsi o‘zining ijtimoiy tajribasini boshladi. U pul qarz olib, kichikroq qo‘rg‘on va er sotib oldi, bu erga «Neygof» («yangi qo‘rg‘on») deb nom berdi va tevarak-atrofdagi dehqonlarga o‘z xo‘jaliklarini unumdor xo‘jalikka aylantirishni o‘rgatish maqsadida, bu erda namunali ferma tashkil qilmoqchi bo‘ldi. Tajribasiz va xo‘jalik ishlaridan bexabar bo‘lgan Pestalotsi oradan ko‘p o‘tmay sindi, va u xalq foydasini ko‘zlab yana yangi yo‘llar qidirishga majbur bo‘ldi.

U 1774-yilda «Neygof»da «Kambag‘allar muassasasi»ni ochib, etim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqin kishini shu muassasaga to‘pladi. Pestalotsining fikricha, bolalarning o‘zlari ishlab topgan pullar shu yetimxonaning xarajatini qoplashi kerak edi. Yetimxonada tarbiyalanayotgan bolalar dalada ishlar, shuningdek, to‘quv va yigiruv dasgohlarida ip yigirib, mato to‘qir edilar. Pestalotsining o‘zi bolalarga o‘qish, yozish va hisob o‘rgatar, ularni tarbiyalash bilan shug‘ullanar edi. Hunarmand ustalar esa bolalarga ip yigirish va to‘qishni o‘rgatardilar. Shu tariqa, Pestalotsi o‘z muassasasida bolalarni o‘qitishni ularni unumli mehnatga o‘rgatish bilan qo‘shib olib borishga urindi.

Pestalotsi boshlagan ish tezda barbod bo‘ldi, chunki siyosiy hokimiyat va moddiy mablag‘larning egalari uni qo‘llab-quvvatlamadilar. Bolalar ming mashaqqat bilan mehnat qilish tufayligina o‘zlari yashab-ishlab turgan yetimxona xarajatlarini ko‘tara olar edilar, lekin gumanist va demokrat Pestalotsi o‘zi tarbiyalayotgan bolalarni bunday og‘ir Sharoitda yashashini istamasdi va bunga yo‘l qo‘ya olmas edi. U bolalarni mehnatini, avvalo, bolalarning jismoniy kuchlarini aqliy va axloqiy qobiliyatlarini o‘stirish vositasi, deb bildi. U bolalarga faqat hunar o‘rgatibgina qolmasdan, balki ularni keng ravishda mehnatga o‘rgatishga intildi.

Pestalotsi Neygofda o‘tkazgan tajribaning pedagogika uchun ahamiyati katta bo‘ldi. Pestalotsi tajribani davom ettirish uchun mablag‘ bo‘lmaganligi sababli oradan ko‘p vaqt o‘tmay yetimxonani yopishga majbur bo‘ldi. Lekin bu muvaffaqiyatsizliklar uni, xalqqa yordam berish maqsadidan qaytara olmadi.

Pestalotsi 1798-yil shveysariya inqilobi natijasida etim qolgan 5 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan 80 bolaga mo‘ljallangan yetimxona ochadi. Bu yetimxonaning

ish mazmuni uni 1799-yili yozgan «Stansda bo‘lishi to‘g‘risida do‘stlaridan biriga yuborgan maktub»ida quyidagilarni bayon etadi:

«Ertalabdan to kechgacha ularga yakka o‘zim hamroh edim. Mening qo‘llarim ularning qo‘lida, ko‘zlarim ularning ko‘zlarida edi. Ular yig‘lasa, men ham yig‘lar edim, ular kulsa, men ham kular edim. Ular nima yesa, men ham shuni yeyman, nima ichsa, men ham shuni ichar edim. Mening o‘shalardan boshqa uyim ham, do‘stim ham, xizmatchim ham yo‘q edi».

Pestalotsi yetimlarning sevimli otasi, eng yaxshi do‘sti edi. Urush harakati boshlangandan keyin yetimxona yopildi.

Keyingi o‘n sakkiz yil davomida Pestalotsi o‘sha davrning eng muhim masalasini: dehqon xo‘jaliklarini qanday qilib tiklash, ularning turmushini yaxshilash, mehnatkashlarning axloqiy va aqliy holatini qanday qilib o‘zgartirish masalasini hal qilishga jamoatchilik e’tiborini tortishga intilib, adabiy faoliyat bilan Shug‘ullandi. U «Lingard va Gertruda» (1781-1787) degan ijtimoiy-pedagogik roman yozib, bu romanda xo‘jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to‘g‘ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to‘g‘risidagi
o‘z g‘oyalarini olg‘a surdi.

XIX-asrning boshlaridayoq Pestalotsining «Gertruda o‘z bolalarini qanday qilib o‘qitadi», «Onalar kitobi yoki onalar uchun o‘z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o‘rgatish haqida qo‘llanma», «kuzatish alifbesi yoki o‘lchash haqida ko‘rsatmali qo‘llanma», «Son to‘g‘risida ko‘rsatmali ta’lim» degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang‘ich ta’limning yangi usullari bayon qilindi.

1800-yili Pestalotsi rahbarligida institut tashkil etildi. Institut tarkibiga, internat shaklidagi o‘rta maktab hamda o‘qituvchilar tayyorlash seminariyasi kiritilgan edi. Tez orada bu institut butun dunyoga mashhur bo‘ldi. Pestalotsi 1825-yili Iverden instituti o‘qituvchilari orasidan kelib chiqqan nizolar natijasida o‘z qishlog‘i «Neygof»ga qaytadi va 80 yoshga etgan, qariya bo‘lishiga qaramay, bu erda o‘zining oxirgi asari - «Oq qush qo‘shig‘i» (1826) asarini yozdi.

Pestalotsi o‘zining butun iste’dodi va kuchini mehnatkashlarning og‘ir ahvolini yaxshilashga sarflagan bo‘lsa ham, lekin ularning ahvolini yaxshilashga muvaffaq bo‘lolmaganligining sababi nimaligini tushunolmadi. U 1827-yilda vafot etdi.

Pestalotsining ijtimoiy-pedagogik va falsafiy qarashlari. Pestalotsi o‘z xalqini oyoqqa turg‘azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o‘qitish va tarbiyalash yo‘li bilan ularning turmushini o‘zgartirish mumkin, deb o‘yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma’rifatning yo‘qligi deb bildi.

Pestalotsi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo‘lishi lozim, maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o‘zgartirishning muhim vositalaridan biri bo‘lishi kerakligini ta’kidladi. Uning fikricha, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinadi. Bunga tarbiya yo‘li bilan ham erishish mumkin.

Pestalotsining fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va o‘stirishning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, shu bilan birga, aqlini ham o‘stiradi, shuningdek, unda axloq ham tarkib toptiradi. Mehnat bilan shug‘ullanayotgan odam mehnatning jamiyat hayotida juda katta ahamiyati bor degan ishonch tug‘iladi, bunday ishonch esa odamlarni ahil va mustahkam ijtimoiy ittifoq qilib, bir-biriga bog‘lovchi eng muhim kuchdir.

Pestalotsining fikricha, bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanadi va tasavvurlarni qayta ishlash yo‘li bilan g‘oyalar darajasiga ko‘tariladi, g‘oyalar esa, garchi ravshan bo‘lmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin o‘zining namoyon bo‘lishi va jonlanishi uchun sezgilar etkazib beruvchi materialga muhtojdir.

Pestalotsining dunyoqarashi insonparvarlik ruhi bilan, demokratik intilishlar ruhi bilan sug‘orilgan hamda ba’zi bir materialistik da’volarni va dialektik qoidalarni o‘z ichiga olgan edi.

Tarbiyaning maqsadi va mohiyati. Pestalotsining fikricha, tarbiyaning maqsadi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini o‘stirish, o‘stirganda ham har tomonlama va bir-biriga uyg‘un ravishda o‘stirishdir. Tarbiyaning bolaga ko‘rsatayotgan ta’siri uning tabiatiga uyg‘un bo‘lishi lozim.

Pestalotsi tarbiyaning mohiyati to‘g‘risidagi tasavvurga asoslanib, tarbiyaning yangi metodlarini – insonning kuchini inson tabiati bilan muvofiqlashtirib, o‘stirishga yordam beradigan metodlarni yaratishga intiladi. Bolani tarbiyalashni, deydi u, uning tug‘ilgan kunidanoq boshlash lozim: «Bola tug‘ilgan soat – unga ta’lim berishning birinchi soatidir». Shu sababli, chinakam pedagogika onani to‘g‘ri tarbiyalash metodlari bilan qurollantirishi kerak. Pedagogika san’ati esa shu metodikani har bir ona, jumladan, oddiy dehqon ayol ham egallab oladigan qilib soddalashtirib berishi lozim. Oilada tabiatga muvofiq qilib boshlangan tarbiya maktabda ham davom ettirilishi lozim.

Barcha insoniy kuchlar va imkoniyatlar eng oddiy narsalardan rivojlana boshlaydi va sekin-asta murakkabroq darajaga ko‘tarila beradi. Tarbiya ham ana shu yo‘ldan borishi lozim.

Har bir bolaga xos bo‘lgan tug‘ma kuch va qobiliyatlar ko‘rsatklarini tabiiy tartibga muvofiq odam kamolotining abadiy va o‘zgarmas qonunlariga muvofiq holda muntazamlik bilan mashq qildirib, o‘stirish kerak.

Elementar ta’lim nazariyasi. Pestalotsi nazariyasiga ko‘ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq darajaga ko‘tarilib borishi lozim.

Pestalotsining elementar ta’lim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va o‘qitishni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotsi bir-biriga bog‘lab olib borishni taklif qildi, mana shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uyg‘un bo‘lib kamol topishini ta’minlash mumkin, dedi.

Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotsi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini o‘stirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, o‘ynashga, bir joyda o‘tirib qolmaslikka, hamma

narsaga yopishishga, hamisha harakatda bo‘lishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

Pestalotsi inson shaxsini kamolotga etkazishda jismoniy tarbiyaga juda katta ahamiyat beradi va uni bolalarning o‘sishiga kattalarning oqilona ta’sir ko‘rsatishining birinchi turi, deb hisobladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, o‘qitishni unumli mehnat bilan qo‘shib olib borish Pestalotsining pedagogik tajribasi va nazariyasidagi asosiy qoidalardan biri bo‘ldi. Pestalotsining fikricha («Lingard va Gertruda» romanida yozilishicha) maktabda bolalar kun bo‘yi yigirish va to‘qish dastgohlarida ishlash bilan vaqt o‘tkazadilar; maktab huzurida er uchastkasi bo‘lib, bu uchastkada har bir bola o‘ziga ajratib qo‘yilgan paykaldagi ekinlarni parvarish qiladi, chorva mollarini parvarish qiladi. Bolalar zig‘irpoya tolasini va junni ishlashni o‘rganadilar, qishloqning eng yaxshi xo‘jaliklari bilan, shuningdek, hunarmandchilik ustaxonalari bilan ham tanishadilar. O‘qituvchi ish vaqtida, shuningdek, ishdan bo‘sh vaqtlarida bolalar bilan mashg‘ulotlar o‘tkazadi, ularga savod, hisob va turmush uchun zarur bo‘lgan boshqa bilimlarni o‘rgatadi. Pestalotsi odamning kamolotga etishi uchun mehnat tarbiyasining ahamiyati katta ekanini uqtirib o‘tdi. U ish vaqtida «bolalarning ko‘nglini xushvaqt qilish va aqlini o‘stirishga» intildi. Shuningdek, u mehnatkashlarning bolalarini kelgusida, «industriya»da, sanoat korxonalarida ishlashga tayyorlashga harakat qildi.

Axloqiy tarbiya. Pestalotsi tarbiyaning asosiy vazifasi – kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uyg‘un bo‘lib kamol topgan inson etishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil mashq qildirish yo‘li bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotsining fikricha, bola organizmining kundalik ehtiyojlarini qondirish asosida bolada onaga nisbatan tug‘ilayotgan mehr-muhabbat axloqiy tarbiyaning eng oddiy elementidir. Bolaning axloqi uchun oilada negiz solinadi. «Ota-onaning uyi, - deydi Pestalotsi, – axloq maktabidir!». Bolaning onaga bo‘lgan muhabbati asta-sekin oilaning boshqa a’zolariga ham o‘tadi.

Aqliy ta’lim. Pestalotsining aqliy ta’lim to‘g‘risidagi ta’limoti boy va mazmunli ta’limotdir. Pestalotsi o‘zining insonning hamma jihatlarining bir-biriga uyg‘unlashib kamolga etishi to‘g‘risidagi asosiy g‘oyasiga tayanib, aqliy ta’limni axloqiy tarbiya bilan bog‘lab olib borish kerakligini ko‘rsatadi va tarbiyalovchi ta’lim olib borishni talab qiladi.

Har qanday ta’lim kuzatishga va tajribaga asoslanishi hamda xulosalar va umumlashmalar darajasiga ko‘tarilishi lozim, deydi Pestalotsi kuzatishlar natijasida bolada ko‘rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo‘ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so‘zlash ehtiyojini tug‘diradi, deydi.

Odamning sezgi a’zolari yordamida tashqi dunyo to‘g‘risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo‘lmaydi. Ta’limning vazifasi ham Shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga etkazishi, «tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko‘rinib turgan tasavvurlarga» aylantirishi kerak. Ta’lim, birinchidan, o‘quvchida o‘zining sezgi a’zolari vositasi bilan hosil qilgan

tajribalar asosida bilimlar zahirasini to‘plashga yordam beradi, ikkinchidan, bolaning aqliy qobiliyatlarini o‘stiradi.

Pestalotsi ta’limning har bosqichi uchun maxsus ravishda tanlab olingan, har bir bolaning o‘ziga xos aqliy kuchlarini hamda qobiliyatlarini tinimsiz va muntazam ravishda o‘stirib boradigan tizim vositasi bilan bolalarga aqliy ta’lim berishga intildi.

Pestalotsi ta’limni soddalashtirishga va psixologiya negiziga qurishga intilib, narsalar va buyumlar to‘g‘risidagi har qanday bilimning eng oddiy elementlari bor, odam Shu elementlarni o‘zlashtira borib, o‘z atrofidagi olamni bilib oladi, degan fikrga keldi. U son, shakl va so‘zni mana shunday elementlar deb hisobladi. O‘qitish jarayonida bola o‘lchash yo‘li bilan shaklni, hisoblash va nutqni o‘stirishdan iborat bo‘ladi. Pestalotsi o‘z zamonidagi boshlang‘ich maktabda o‘qitishning mazmunini tubdan o‘zgartiradi, o‘qitiladigan darslar qatoriga o‘qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang‘ich qismlarini, o‘lchash, rasm chizish, ashula, gimnastika, Shuningdek, geografiya, tarix va tibbiyotga doir eng zarur bilimlarni kiritdi. Shunday qilib, Pestalotsi boshlang‘ich maktabning o‘quv rejasini ancha kengaytirdi va bu maktabda o‘qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. O‘qitish metodikasi bolalarni bilimlar bilan boyitishga hamda ularning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

Pestalotsi ko‘rsatmalilik prinsipini ta’limning eng muhim negizi deb hisoblaydi. Bu prinsipni keng ravishda qo‘llamasdan turib, tevarak-atrof to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvur hosil qilishga, tafakkurni va nutqni o‘stirishga erishib bo‘lmaydi.

Pestalotsi maktab bolalarining qobiliyatlarini o‘stirishi, ularga bilim berishi bilan bir qatorda, ularda ko‘nikma va malakalar tarbiyalashi va lozim, deb hisobladi. Kishining kamolga etgan aqli va oliyhimmat qalbi talab qilgan narsalarni ro‘yobga chiqarish uchun harakat qila bilishiga bog‘liqdir.

Boshlang‘ich ta’limning xususiy metodikalarini yaratish.

Petalossi o‘zining umumiy didaktik qoidalariga tayanib, boshlang‘ich ta’limning xususiy metodikasi asosini yaratib berdi.

Pestalotsi ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini o‘stirish va uning so‘z boyligini orttirishdan iborat bo‘lishi lozim, deb hisobladi. Pestalotsi savod o‘rgatishda tovush metodini birinchi o‘ringa qo‘ydi, bunday qilish harflarni qo‘shib o‘qitish metodi hukmronlik qilib turgan o‘sha vaqt uchun g‘oyat muhim edi.

Pestalotsi ona tili o‘qitishni ko‘rsatmali prinsip asosida olib borish va bollarga tabiiyot, geografiya va tarixga doir elementar ma’lumotlar berib, shu tariqa bolalarning so‘z boyligini orttirish to‘g‘risida qimmatli ko‘rsatmalar berdi.

Pestalotsi zeriktirarli va bir xildagi mashqlar qildirish bilan bolalarda kuzatish, narsa yoki hodisaning belgilarini aniqlay olish malakasini o‘stirishga, biror narsani aniq va to‘la tasvirlab bera olish malakasini hosil qilishga intildi.

Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotsi dastlab to‘g‘ri va egri chiziqlarni — xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etdi. Pestalotsi yozuv o‘rgatishni narsalarni o‘lchash va suratni chizish bilan shuningdek, nutqni o‘stirish bilan bog‘lab olib borishni taklif qildi.

O‘lchashni o‘rgatmoq uchun Pestalotsi dastlab to‘g‘ri chiziq chizishni, so‘ngra burchak, kvadrat chizishni va bu kvadratni bo‘laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo‘lishni o‘rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli geometrik jismlarni ko‘rsatish va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bolalar bu geometrik jismlarni kuzatib, ularning xossalari va nomlarini o‘zlashtirib oladilar, ularni o‘lchashni o‘rganadilar.

Bola o‘lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim; bunday mashqlar bolaga yozuv o‘rgatishning asosidir.

Pestalotsi pedagogika nazariyasi va tajribasining ahamiyati. Pestalotsi ko‘zga ko‘ringan nazariyotchisi va amaliyotchi edi.

Pestalotsi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg‘un qilib o‘stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. U elementar ta’lim nazariyasini yaratdi, bu nazariya dogmatik ta’limga, ya’ni ma’nosini tushunmay yodlashga qarshi olib borilgan XIX-asrda xalq maktabini rivojlantirishga yordam bergan kurashda katta rol’ o‘ynadi. U bolani jismoniy tarbiyalash, mehnatda tarbiyalash, axloqiy va aqliy tarbiyalash to‘g‘risida juda qimmatli fikrlarni aytib o‘tdi. Pestalotsi boshlang‘ich maktabda beriladigan bilimlarning mazmunini kengaytirishni talab qildi, boshlang‘ich maktabni xalqqa yaqinlashtirishga, uni xalq ommasining turmushi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘lashga intildi, bolalarni mehnatga o‘rgatishga, ularni turmushga tayyorlashga katta e’tibor berdi.

34.5. Adolf Distervegning rivojlantiruvchi nazariyasi. Adol’f Distervegning hayoti va ijtimoiy-pedagogik faoliyati

Atoqli nemis pedagogi Fridrix Vil’gel’m Adol’f Disterveg Vestfaliyadagi sanoat Shaharchasi Zigenda chinovnik-yurist oilasida tug‘ildi.

Distervegning o‘zi o‘rta maktabda o‘qigan chog‘idayoq dogmatik ta’limdan umrbod nafratlanadigan bo‘lib qolganligini aytadi. U 1808-yilda Gerborn universitetiga kirib o‘qidi, matematika, falsafa va tarixni o‘rgandi, so‘ngra Tyubingen universitetiga o‘tdi va uni 1811-yilda tamomladi, keyinroq borib esa, falsafa fanlari doktori unvonini oldi.

U xalqqa ma’rifat berish ishiga o‘zini bag‘ishlashga qaror qildi va dastlab Mers-Reynda, so‘ngra esa Berlinda o‘qituvchilik seminariyalariga uzoq vaqt boshchilik qildi, ularni namunali seminariyalarga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Disterveg seminariyada pedagogika, matematika va nemis tilidan dars berdi, ayni vaqtda shu seminariyalar huzuridagi boshlang‘ich tajriba maktablarida ham o‘qituvchilik qildi. Disterveg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda, adabiy va metodik ishlarini ham zo‘r muvaffaqiyat bilan bajarib turdi. U «Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun qo‘llanma» degan kitobni nashr qildirdi (1835), bu kitobda Disterveg ta’limning umumiy vazifalarini va prinsiplari to‘g‘risidagi o‘zining progressiv qarashlarini bayon qilib berdi, shuningdek, u matematika, nemis tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va qo‘llanmalar nashr qildi; bu darsliklar va qo‘llanmalar Germaniyada va boshqa ko‘pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi.

Disterveg tirik chog‘idayoq asarlari Rossiyada mashhur bo‘lgan edi. Chunonchi, 1862-yilda uning «Elementar geometriya»si rus tilida nashr etildi; Rossiyaning ilg‘or pedagoglari bu kitobni boshlang‘ich maktablarda geometriya o‘qitish uchun eng yaxshi qo‘llanma deb hisobladilar.

Disterveg 1827-yildan to umrining oxirigacha «Tarbiya va ta’lim uchun Reyn varaqalari» degan jurnal chiqarib turdi. U bu jurnalda pedagogikaning turli masalalariga doir to‘rt yuzdan ortiq maqolasini bostirdi. Disterveg boshlang‘ich maktablarning o‘qituvchilarini tayyorlash ishini tubdan yaxshilash uchun kurashdi. U nemis xalq o‘qituvchilarini birlashtirish uchun juda ko‘p ish qildi.

Disterveg hayot chog‘idayoq «nemis muallimlarining muallimi» degan faxrli unvonga sazovor bo‘ldi.

Disterveg umrining oxirgi kunlariga qadar progressiv ijtimoiy pedagogika ishlari bilan Shug‘ullandi. Disterveg vabo bilan og‘rib, 1866-yilda vafot etdi.

Disterveg Germaniyada toifaviy maktab tarafdorlari bilan hamma uchun barobar bo‘lgan umumiy maktab tarafdorlari o‘rtasida avj olib ketgan kurashda aktiv qatnashdi. Toifaviy maktab tarafdorlari nemil xalq maorifi tizimida aholining har bir toifasi uchun alohida maktab bo‘lshini (aholining eng kamabag‘al toifasi uchun — xalq maktabi, byurgerlar uchun — real o‘rta maktabi, dvoryanlar va chinovniklar uchun — klassik gimnaziya bo‘lishi) lozim deb hisoblar edilar. Hamma uchun barobar bo‘lgan maktab tarafdorlari va shular qatorida Disterveg ham bolalar uchun ochiq bo‘lgan maktab vujudga keltirishni talab qildilar.

Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va asosiy prinsiplari. Disterveg umuminsoniy tarbiya g‘oyasini himoya qilib chiqdi, shu g‘oyaga tayanib turib, pedagogika oid masalalarni yuqori toifaviy va shovinistik manfaatlarni ko‘zlab hal qilishga qarshi kurashdi. Uning fikricha, maktabning vazifasi «chinakam prussiyaliklar» emas, balki insonparvar kishilar va ongli grajdanlar tarbiyalab etishtirishdir. Odamlarga insoniyatga va o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbat bir-biriga chambarchas bog‘langan holda rivojlantirilishi lozim. Disterveg «inson - mening nomim, nemis – mening laqabimdir» deydi.

Disterveg Pestalotsi singari tarbiyaning eng muhim prinsipi – uning tabiatga uyg‘un bo‘lishidir, deb hisobladi. Disterveg tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lishini quyidagi mazmunda talqin qildi, ya’ni tarbiya odamning tabiiy kamol topishiga qarab olib borilishi, o‘quvchining yoshi va o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi kerak, dedi. Disterveg o‘qituvchilar bolalar diqqati, xotirasi, tafakkurining o‘ziga xos belgilarini sinchiklab o‘rganishlari kerak, deb aytdi; u psixologiyani «tarbiya to‘g‘risidagi fanning asosi» deb bildi. Distervegning katta xizmati shundaki, u pedagoglik tajribasini pedagogikani taraqqiy ettirishning manbai deb hisobladi. U mohir pedagoglarning bolalarni tarbiyalash va bu sohadagi ish tajribalarini o‘rganish zarurligini ta’kidlab o‘tdi.

Disterveg tabiatga uyg‘un bo‘lish prinsipiga qo‘shimcha ravishda tarbiya madaniy uyg‘un xarakterda bo‘lishi ham kerak, deb talab qildi.

Disterveg tarbiyaning oliy maqsadini belgilab, bu «haqiqatga, go‘zallikka va yaxshilikka xizmat qilishga qaratilgan tashabbuskorlikdir» deb aytdi.

Aqliy ta’lim. Disterveg ham Pestalotsi singari, ta’limning asosiy vazifasi bolalarning aqliy kuchlarini va qobiliyatlarini o‘stirishdan iboratdir, deb

hisoblaydi. Lekin u formal ta’lim moddiy ta’lim bilan chambarchas bog‘langanligini ko‘rsatib, Pestalotsiga nisbatan olg‘a tomon katta qadam qo‘ydi. Disterveg, umuman sof formal ta’lim bo‘lmaydi, lekin o‘quvchining o‘zi mustaqil olgan bilimlari va malakalarigina qimmatga egadir, deb uqtirdi.

Ta’lim insonning har tomonlama kamolotga yetishiga va uning axloqiy tarbiyasiga yordam berishi lozim. O‘qitilayotgan har bir narsa ta’lim jihatdan qimmatga ega bo‘lish bilan bir qatorda, axloqiy ahamiyatga egadir.

Disterveg vatan tarixini va geografiyasini, ona tili va adabiyotni o‘qitishning bolalarga ta’lim berishda katta o‘rniborligini ko‘rsatib o‘tdi. U tabiiyot va matematika fanlariga ayniqsa yuksak baho berdi, bu fanlar bolalarning aqliy o‘sishi uchun muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi va hamma tipdagi umumiy ta’lim maktablarida bu fanlar o‘qitilishi lozim deb hisobladi. Shu bilan birga, tabiiyot va matematika o‘quvchilarni zarur bilimlar bilan lozim bo‘lgan darajada qurollantirishi, ularni kelajak amaliy faoliyatiga tayyorlanishi lozim, deb talab qildi.

Distervegning fikricha, boshlang‘ich maktabda o‘quvchilarning o‘qitilgan materialni o‘zlashtirish ustida mustaqil ishlay oladigan qilishga, ularda buning uchun malaka hosil qilishga, ularning aqliy kuch va qobiliyatlarini o‘stirishga asosiy e’tibor berilishi zarur. O‘qituvchi ko‘rsatmali o‘qitish yo‘li bilan bolalardagi barcha sezgi a’zolarini o‘stirishga alohida e’tibor berishi lozim. O‘rta maktabda «moddiy maqsad ham asta-sekin oldinga surila beradi» – o‘quvchilar xilma-xil va chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollantira beriladi.

Disterveg boshlang‘ich maktabning o‘quv rejasiga tabiiyotni, fizikadan boshlang‘ich ma’lumotlar, amaliy geometriya, geografiyani kiritib, bu rejani kengaytirishni talab qildi. U o‘rta maktabda real bilimlarni o‘qitish prinsipini qizg‘in himoya qildi va o‘z zamonidagi klassik gimnaziyani qoraladi.

Disterveg takomillashib boruvchi ta’lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta’limning 33 qonuni va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterveg, avvalo, tabiatga uyg‘un qilib, bola idrokining xususiyatlariga muvofiq qilib o‘qitishni talab qildi. U misollardan qoidalarga: buyumlar va bu buyumlar to‘g‘risidagi aniq tasavvurlardan shu buyumlarni ifodalovchi so‘zlarga o‘tishni taklif qildi. Disterveg bolalarni ularning sezgi organlari bevosita his qila oladigan buyumlar bilan tanishtirishga juda katta ahamiyat berish bilan bir vaqtda, bolaning o‘z sezgi a’zolari bilan idrok qilayotgan butun materialni o‘ylab ko‘rishi va anglab olishi zarurligini uqtirib o‘tadi. Disterveg taklif qilgan ko‘rsatmali ta’lim «yaqindan uzoqqa», «oddiy narsalardan murakkab narsalarga», «osonroq narsalardan qiyinroq narsalarga», «ma’lum narsadan noma’lum narsaga» o‘tish kerak, degan qoidalar bilan bog‘langan ta’limdir. O‘z vaqtida Komenskiy ta’riflab bergan bu qoidalarni Disterveg yanada taraqqiy ettirdi, pedagog bu qoidalarni yuzaki qo‘llanmasligi kerak deb haqli ravishda ogohlantirdi.

Disterveg o‘rganilayotgan materialni ongli o‘zlashtirishga katta ahamiyat beradi. O‘quvchilarning o‘rganilgan material mohiyatini ravshan va aniq bayon qilib bera oladigan bo‘lishi shu materialning o‘zlashtirilganligini ko‘rsatuvchi belgilarning biridir. Disterveg o‘qitilayotgan materialning mustahkam

o‘zlashtirilishiga ko‘p e’tibor beradi. Disterveg «o‘quvchilar o‘rganib olgan narsalarni unutib qo‘ymasliklariga harakat qil» degan qoidani ilgari suradi va o‘tilgan material esdan chiqib qolmasligi uchun uni tez-tez takrorlab turishni maslahat beradi. Distervegning qoidalaridan birida «asoslarni o‘rganishdan shoshilma» deyiladi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta’kidlashicha, muvaffaqiyatli ta’lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo‘ladi. Bunday ta’lim bolaning aqliy kuchlarinigina o‘stirib qolmay, balki uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulq-atvorini ham kamol toptiradi.

O‘qituvchiga nisbatan qo‘yiladigan talablar. Distervegning fikricha, o‘qitish chog‘ida bolalarning tashabbuskorligini o‘stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o‘qituvchi rahbarlik rolini o‘ynaganidagina mumkin bo‘ladigan ishdir. Komenskiy singari o‘qitish ishida puxta ishlangan o‘quv rejasi va yaxshi darslikning bo‘lishiga katta ahamiyat beradi. Distervegning Komenskiydan farqi Shuki, u ta’limning muvaffaqiyatli bo‘lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o‘qituvchiga bog‘liq deb ta’kidlaydi. Distervegning fikricha, yaxshi o‘qituvchi o‘z fanini mukammal egallab olgan bo‘lishi hamda o‘z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog‘ida hamma bolalar tetik bo‘lib turishi, o‘qituvchi g‘ayrat bilan dars berib, o‘quvchilarning aqliy kuchini uyg‘otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini tarkib toptirishi kerak. O‘quvchilar o‘zlarining ilgarilab borayotganliklarini hamisha sezib turishlari lozim. Yaxshi o‘qituvchi, – deydi Disterveg, – o‘zining tarbiya prinsiplarini qat’iyat bilan og‘ishmay o‘tkazib boradi, bu prinsiplardan hech qaytmaydi. O‘qituvchi muttasil o‘z ustida ishlashi lozim. Shundagina u o‘quvchilarni bilimlarni egallashda matonatli bo‘lishga o‘rgatadi va ularni o‘z yo‘llarida uchraydigan qiyinchiliklarni enga oladigan qilib tarbiyalaydi. Disterveg o‘qituvchining mustahkam xarakteri va o‘tkir iroda kuchi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. O‘qituvchi qattiqo‘l va talabchan bo‘lish bilan birga, adolatli bo‘lishi ham kerak, faqat shundagina u o‘z o‘quvchilari orasida obro‘ qozonishi mumkin. O‘qituvchi haqiqiy inson, mustahkam e’tiqodli bo‘lishi lozim, deydi.

Distervegning fikricha, «yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib berib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni topishiga o‘rgatadi». Disterveg o‘qituvchilarga o‘z bilimlarini qanday qilib oshirishlari to‘g‘risida bir qancha qimmatli maslahatlar beradi, o‘qituvchilarga o‘zlari o‘qitayotgan fanga taalluqli asarlarni birinchi navbatda o‘qishni tavsiya qiladi, Shuningdek, o‘qituvchi tarix va adabiyotni bilishi, pedagogika, psixologiya va metodikaga doir chiqayotgan yangi asarlarni kuzatib borishi kerak, deb ta’kidlaydi. Disterveg o‘qituvchilarni amaliy pedagoglik mahorati va malakalari bilan qurollantirishga katta ahamiyat berdi.

34.6. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi

Maktab ta’limini tashkil etish, sinf dars tizimi. Komenskiy maktabda o‘quv yili va uni o‘quv choraklariga bo‘lish to‘g‘risidagi tushunchani, kanikulni kiritdi, o‘quv kunini qanday tashkil etish belgilab berdi. (ona tili maaktabida 4 o‘quv soati

lotincha maktabda 6 o‘quv soati), o‘quv mashg‘ulotlarining sinf-dars tizimini nazariy jihatdan ishlab chiqdi va bu temani amalda qo‘lladi.

O‘sha vaqtlardagi maktablarda o‘quvchilar maktabga butun yil davomida turli vaqtlarda qabul qilina berar edi. O‘quvchilar garchi sinfda birga o‘tirsalar ham, lekin ko‘pincha sinfning hamma o‘quvchilari bilan kollektiv mashg‘ulotlar olib borilmas edi, har bir o‘quvchi o‘ziga berilgan darsni o‘qir, maktabda har bir o‘quvchi sinfdan-sinfga o‘zining vaqtiga yarasha alohida-alohida ko‘chirila berar edi. O‘qituvchi har bir o‘quvchini huzuriga chaqirib, u bilan yakka tartibda shug‘ullanar edi. Komenskiy maktabga o‘quvchilarni yilda bir martda qabul qilish, o‘qituvchi butun sinf bilan kollektiv ish olib borishni talab etdi. U o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishning sinf-dars tizimiga asos soldi, darsni qanday rejalashtirish va olib borish to‘g‘risida ko‘rsatmalar berdi, darsning bir qismini o‘quvchilardan so‘rash yo‘li bilan ularning bilimlarini hisobga olishga ajratishni, bir qismini esa yangi materialni berish va mashqlar o‘tkazishga ajratishni taklif qildi.

U har bir darsning o‘z temasi va o‘z vazifasi bo‘lish lozimligini aytdi. O‘qituvchi hamma o‘quvchilarning mashg‘ulotlarda faol qatnashishlarini diqqat bilan kuzatib borishni va dars vaqtida sinfda intizom saqlashlari lozimligini Komenskiy alohida uqtirib o‘tdi.

Komenskiy hamma maktablar uchun umumiy bo‘lgan bir tizim bo‘lishi, bolalarning qaysi toifaga mansubligidan ota-onalarining kimligidan qat’iy nazar ona tilidagi maktablar hamma bolalar uchun umumiy va majburiydir, deb ta’kidlaydi.

Komenskiy boshlang‘ich umumiy ta’lim g‘oyasini ilgari surdi. U kambag‘allarning bolalaridagi iste’dod bilim olmasligi tufayli halok bo‘ladi deb g‘azablanardi.

Komenskiy fikricha, tarbiyaning uch bosqichi va uch vazifasi mavjud:

1. O‘zini va tevarak atrofidagi olamni bilish (aqliy tarbiya).
2. O‘z-o‘zini boshqarish (axloqiy tarbiya).
3. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Komenskiyning O‘rta asr pedagoglaridan farqi Shuki, u birinchi vazifaning bajarilishiga katta e’tibor berdi. Tarbiyaga yuksak baho berdi. Inson tarbiya tufayligina insonga aylanadi, u har qanday bolani ham odam qilishi mumkin, deydi.

Komenskiy birinchi bo‘lib **ko‘rsatmalilik tamoyilini** asoslab berdi. U mumkin bo‘lgan narsalarning o‘zini, mumkin bo‘lmaganlarda esa rasmlardan foydalanish kerak, deb ko‘rsatadi. O‘sha davrgacha to‘plangan ko‘rsatmalik tamoyili asosidagi bilimlarni umumlashtirdi, guruhlashtirdi va kengaytirdi, amalda keng qo‘lladi.

Komenskiy o‘qitishdagi dogmatik usulga qarshi chiqib, **onglilik** tamoyilini ilgari surdi. U ta’limning **tizimli** bo‘lishini talab qildi. Uning fikricha, ta’limda **izchillik** tamoyili katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning kuchi etadigan narsani o‘qitish kerak deb **didaktik** tamoyilni ilgari surdi. Komenskiy o‘qitilayotgan materialni o‘quvchilarning mustahkam, asosli ravishda o‘zlashtirishlariga katta e’tibor berdi. Shuningdek, ovoz chiqarib takrorlashning ahamiyati kattaligini,

o‘quvchilarning qobiliyatini o‘stirishi, nutqining rivojlanishi va rovon bo‘lishi, o‘quvchilarning bilish qobiliyatini imkon boricha kuchliroq o‘stirishga harakat qildi.

Komenskiy barcha askarlarida, jumladan «Buyuk didaktika» asarida tarbiya tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi kerak, degan fikrni ilgari suradi. U tarbiyaning tabiatga uyg‘un bo‘lish tamoyilini birinchi bo‘lib yaratdi. Bu tamoyil XVIII-XIX-asr pedagoglari tomonidan ham qayta-qayta takrorlandi.

Komenskiy inson tabiatning bir qismidir, shuning uchun ham u tabiatga bo‘ysunadi deb hisobladi. U «Buyuk didaktika» asarida bayon qilgan fikrlarning barchasi pedagogik tajribalari, orttirgan bilimlari bilan qimmatlidir. Bu asar din bilan sug‘orilgan bo‘lsa-da, unda tarbiyaning umumiy qonuniyatlarini isbotlab berishdagi fikrlari va ko‘rsatmalari diqqatga sazovordir.

U o‘z asarlarida bolaga tarbiya berishda inson tabiatiga (tug‘ma belgilariga) e’tibor berishligini ko‘rsatadi. U inson tabiatiga asoslanib, bolaning yosh davrlarini oralig‘i 6 yildan bo‘lgan 4 davrga ajratadi:

1) Go‘daklik davri (tug‘ilgandan 6 yoshgacha bo‘lgan davr).

2) Bolalik davri (6 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davr).

3) O‘smirlik davri (12 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan davr).

4) Etuklik (balog‘at) davri (18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan davr).

Komenskiy birinchi davrda bola jismoniy jihatdan o‘sadi, ikkinchi davrda eslash qobiliyati, xayol ularning ijrochilari bo‘lgan til va qo‘l rivojlanadi, uchchinchi davrda bulardan tashqari tafakkur yuksak darajada o‘sadi, to‘rtinchi davrda esa iroda va uyg‘unlikni saqlash qobiliyati o‘sadi, deb ko‘rsatadi. Bularning har qaysisi uchun alohida o‘qitish bosqichlarini belgilab beradi.

1) 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar onalar maktabida tarbiyalanishi kerak. U bolaning maktab davrigacha oilada tarbiyalanishini **onalar maktabi** deb ataydi.

2) 6 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun joylarda 6 yillik ona tilida maktablar bo‘lishi kerak.

3) 12-18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun har bir Shaharda latincha maktab yoki gimnaziya bo‘lishi kerak.

4) 18-24 yoshgacha bo‘lgan yoshlar uchun har bir davlatda yoki viloyatda akademiyalar bo‘lishi kerak deb ko‘rsatadi.

Komenskiy bu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri-birining davomidir. U umumiy maktab bo‘lishi kerak, deb demokratik tamoyilni ilgari suradi. 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar ijtimoiy hayot, tabiat, uy-ro‘zg‘or buyumlari to‘g‘risidagi dastlabki tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Bu yoshdagi bolalarda insonparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, kattalarga hurmat, ozodalik kabi xislatlar tarkib toptirilishi kerak.

Komenskiy dunyoda birinchi marta tarbiyaga doir «**Onalar maktabi**» qo‘llanmasini ishlab chiqdi. U maktablarda dunyoviy fanlar o‘qitilishini, ashula va qo‘l mehnati o‘rgatilishini uqtirib, boshlang‘ich maktablarning ahamiyatini ko‘tardi. Shubhasiz din darslariga ham katta e’tibor berdi.

Insonning o‘zini-o‘zi boshqarishi, Komenskiy fikricha, tarbiyaning 3 maqsadidan biridir. Bunga axloqiy tarbi vositasi bilan erishiladi.

Komenskiy Platon va Aristotel yo‘lidan borib, donishmandlik, mo‘‘tadillik, mardlik va odillikni eng asosiy fazilatlar, deb hisoblaydi. Narsalar to‘g‘risida to‘g‘ri, rost fikr yuritish fazilatlarning asosidir. Shu sababli donishmandlik fazilatli turmushning rahbaridir. Odamning har ishida o‘ziga xos maarom bo‘lishi, hech narsadan tuyish va nafratlanish darajasiga borib etmasligi uchun mo‘‘tadil bo‘lishi kerak.

Mardlik – o‘zini tuta bilish, chidamlilik, burchni ado etish singari xislatlarni o‘z ichiga olishdir.

U shulardan tashqari bolalarda kamtarlik, mo‘min-qobillik, shafqatlilik, pokizalik, xushmuomalalik, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni axloqiy tarbiyaning asosi deb biladi. Komenskiy intizomning ahamiyati juda kattaligini ko‘rsatdi. Buning isboti uchun u chexlarning «**Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir**», deb maqomini keltiradi. Uning eng katta xizmati shundaki, u o‘rta asrdagi kaltak vositasi bilan o‘rnatiladigan intizomga qarshi chiqdi, bolalarga insoniy muomala qilishni talab qildi.

«**yaxshi yo‘lga qo‘yilgan maktab qonunlari**» nomli asarida o‘quvchilar xatti-harakatlariga taalluqli qimmatli qoidalar bayon etilgan.

Komenskiyning pedagogika sohasidagi merosi ta’lim-tarbiyada ahamiyati juda kattadir. Uning ko‘p tillarga tarjima qilingan darsliklari ko‘pgina mamlakatlarda, shuningdek, XVII-XVIII-asrlarda Rossiyada ham keng tarqaldi va 150 yildan ko‘proq davr davomida eng yaxshi darslik sifatida xizmat qilib keldi. Uning asrlari, qimmatli fikrlari hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

XXXV BOB. XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI XXASRDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI. K.D.USHINSKIYNING PEDAGOGIK MEROSI

35.1. XIX-asrning oxiri XX-asrda g‘arbiy Yevropa, AQSH, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo‘nalishlari

G‘arbiy Yevropada Yan Amos Komenskiy, Iogann Genrix Pestalotstsi, Robert Ouen, Iogann Gerbart, Adolf Distverg, Konstantin Dmitrievich Ushinskiy, Lev Nikolaevich Tolstoy, Anton Semenovich Makarenko, Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiylarning ta’lim-tarbiyaning borasidagi pedagogik qarashlari, ta’lim sohasi uchun yaratgan ilmiy va o‘quv adabiyotlari pedagogika sohasini isloh qilishda kata ahamiyatga egadir.

Anton Semyonovich Makarenko (1888-1939)«Pedagogik poema», «Minoralardagi bayroqlar», «o‘ttizinchi yillar marshi», «Ota-onalar kitobi», «Bolalar tarbiyasi to‘g‘risida lektsiyalar», «Ta’lim-tarbiya tajribasidan ba’zi xulosalar» kabi asarlarida va bolalar tarbiyasiga oid bir qator metodik tavsiyalarida oiladagi tarbiya ishlari, intizom, ota-onalar obro‘si, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, o‘yin, madaniy malakani oshirish kabi dolzarb mavzularda yozilgan bo‘lib, unda yoshlarni chidamli, irodali, quvnoq, axloqli, hech qanday qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan, haqiqiy vatanparvarlar qilib tarbiyalash g‘oyalari ilgari surilgan.

Badiiy pedagogik asar sifatida jahon adabiyotida **«Pedagogik poema»**ga teng keladigan asar yo‘q. Bu kitob kishiga cheksiz ishonch va muhabbat, insonparvarlik

ruhi bilan sug‘orilgan, muallif unda kishilarni qayta tarbiyalash, jamiyatimizning faol a’zolari qilib tarbiyalashda yangi pedagogik tajribani, ish usullari va metodlarini batafsil tasvirlab bergan.

«Pedagogik poema» – bolalar jamoasi hayotini realistik asosda har tomonlama keng tasvirlab bergan asardir. Kitobning mavzui boqimsiz bolalar koloniyasidagi hayot, tarbiyachilarning faoliyati, ayrim qahramonlarning tarjimai holi, tarbiyasi buzilgan bolalardan yangi ruh, yangi axloqqa ega bo‘lgan barkamol kishilar tarbiyalab etishtirish uchun kurashdan iboratdir. Kitobning qahramoni murakkab voqealarni boshidan kechirgan bolalar jamoasidir.

Boqimsizlik taqdiri azal emas, u turmushni chalkash, xato yo‘l bilan olib borishdan kelib chiqadi, bu yo‘lga tushib qoluvchilar aqliy tomondan zaif emas, axloq jihatidan qiyin tarbiyalanuvchilar ham emas. Ularning tarbiyasi ustida jiddiy qayg‘urilsa, ulardan **ajoyib talantlar** etishib chiqadi, deb ta’kidlaydi yozuvchi.

A.C.Makarenko bolalarni yakka tartibda o‘rganishga, bolalar jamoasini tuzishga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, o‘qituvchi bolalar jamoasini uyushtira olsa, u jamoa pedagogning ishonchli yordamchisiga aylanadi, shu jamoa yordami bilan pedagoglarni chuqur o‘rgana oladi.

A.S.Makarenko fikricha, «kollektiv – sotsial tirik organizm... U o‘zining organiga ega, unda vakillar bor, mas’uliyat bor... Bir-birlariga nisbatan bog‘lanish bor, agar bular bo‘lmasa bolalari jamoasi ham bo‘lmas, unda yolg‘iz bosh-boshdoqlikkina bo‘lar edi». U o‘zining tarbiya tizimini Gorkiy nomli bolalar koloniyasida to‘la-to‘kis amalga oshira oldi. Masalan, u har qanday og‘ir va «ko‘ngilsiz» ishni ham bolalar va otryadlar o‘rtasida navbat bilan taqsim etar edi. Ko‘ngilli va ko‘ngilsiz, og‘ir va engil bo‘lishidan qat’i nazar, zarur, foydali bo‘lgan har qanday ishni zavq bilan bajarishga bolalarni odatlantirar, ularning mehnat malakalarini oshirib borar edi. Makarenko o‘zining ko‘p yillik pedagogik faoliyati davomida bolalar jamoasini yaratish sohasida tinmay ishladi va uni nazariy va amaliy jihatdan asosladi.

Xullas, A.C.Makarenkoning maktab-maorif tizimini takomillashtirish, mustahkamlash sohasida olib borgan ishlari, yaratgan nazariyalari, yozib qoldirgan pedagogik asarlari yildan-yilga o‘z dolzarbligini tobora oshirmoqda, mamlakatimizda pedagogika fanidagi vazifalarni hal qilishda uning tajribalari, boy psdagogik merosi hali hamon dasturulamal bo‘lib turibdi.

Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy (1918-1970) maktabda o‘ziga topshirilgan bolalarni tarbiyalash, ularni xalqparvar, insonparvar, mehnatsevar, Vatanni himoya etishga doimo tayyor, qalbi olov va barkamol avlod qilib tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi va bu vazifalarni amalga oshirish uchun umrining oxirigacha ijodiy ishladi.

V.A.Suxomlinskiy 39 yoshida (1957-yil) pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo‘ldi. Shu davrdan boshlab uning tarbiyaning turli masalalari yuzasidan ko‘plab maqola, risola, monografiyalari e’lon qilina boshlandi. Uning ilmiy pedagogik asar va maqolalari ota-onalarni ham, o‘qituvchilarni ham qiziqtira boshladi.

O‘qituvchi – olim Suxomlinskiy tarbiyani yaxshilash, samarali natijaga erishish va davrimizning munosib fuqarolarini etishtirish uchun har bir bolaning

qalbini bilishni hayotning qonuni qilib oldi va umr bo‘yi unga amal qildi. Pavlish maktabi oddiy edi, uni Suxomlinskiy ilg‘or maktabga aylantirdi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta’limning mamalakat ichki siyosatiga faol ta’sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e’tirof qilingan haqiqatdir. Ularda o‘quv dasturlarini takomillashtirish va qayta qurishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi paytda o‘quv dasturlariga integrasiyalashtirilgan kurslarni kiritish to‘la amalga oshiriladi. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e’tibor ortib bormoqda. Ular uchun o‘quv dasturlari o‘ziga xos uslubda tuzilgan.

Amirika Qo‘shma shtatlarida ta’lim tizimining quyidagicha:

3-5yoshgacha bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalari;

1-8 sinflar uchun boshlang‘ich maktablar (6-13 yoshda o‘qiydilar);

9-12 sinflar uchun o‘rta maktablar (14-17 yoshlilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat;

Oliy ta’lim, bu 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda universitetlarda amalga oshiriladi;

Universitet va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktarantura[122].

Aqshda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. O‘quv yurtlari davlat, jamoa, xususiy va va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lish mumkin. O‘quv yili 180 kun, dars 45-50 minut. O‘quvchilar ta’tilda ishlaydilar.

Aqshda ta’lim tizimiga eng ko‘p mablag‘ ajratiladi. Bolalarning 95-99 %i boshlang‘ich o‘rta ta’limga jalb qilingan.

Bu yerda 3 yoshgacha bolali ayollarga moddiy imtiyozlar berilmaydi. 3-5 yoshda xususiy yoki davlat bog‘chalariga boriladi.

Oliy ta’lim 4 bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Birinchi bosqichni mamlakatimizdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu 2 yillik kollej, keyin II bosqich 4 yillik kollej va universitetlardir. Buni bitirganlar 1-darajali bakalavr bo‘ladi. III-bosqich-magistr maktabi, o‘qish 1-2 yil, IV bosqich-doktorantura, o‘qish 3-4 yil.

AQSHda ko‘plab chet ellik talabalar ham o‘qiydi. (350 mingdan ortiq).

Rivojlangan mamalakatlardan biri Yaponiyadagi ta’lim sohasiga qisqacha shart beradigan bo‘lsak, quyidagi ma’lumotlarni keltirish mumkin. 1947-yil «Ta’lim haqida qonun» qabul qilingan. Yaponiya ta’lim tizimi tuzilishi: -bolalar bog‘chalari, -boshlang‘ich maktab, -kichik o‘rta maktab, -yuqori o‘rta maktab, -oliy ta’lim tizimiga kiruvchi o‘quv yurtlari.

Bolalar bog‘chalariga 3-5 yoshlilar qabul qilinadi. Ularning 59,9 % xususiy, 49,8 %i tuman kengashlari, 0,3 %i davlat tasarrufidadir. Majburiy ta’limga 6-15 yoshlilar jalb etiladi. 6 yillik boshlang‘ich va 3 yillik kichik o‘rta maktabda o‘qiydilar, 9 yillik bu ta’lim majburiydir. O‘qish va darsliklar tekin. Xohlovchilar xususiy maktablarda tahsil olishlari mumkin.

Yuqori bosqich o‘rta maktabning kunduzgi, kichki, sirtqi bo‘limlari bor. 95 % bola kunduzi ta’lim oladi. O‘qish ixtiyoriy 3 yillik. Oliy ta’lim tizimiga kollejlar universitetlar kiradi. Bulardan tashqari turli «ixtisos maktablari» ham bor.

[122] J.G‘. Yo‘ldoshev. Xorijda ta’lim. T.: Sharq, 1995, 15 b.

Yaponiya maktablarida o‘qish 1 apreldan boshlanib, keyingi yil 31-martda nihoyasiga yetadi. O‘quv yili 240 kun, darslar 7 soat. O‘qituvchilar 4 yillik dorulfunun va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bolalarning axloqiy tarbiyasi doimo e’tiborda bo‘ladi.

Yaponiyada 460 ta universitet bo‘lib, ularda 1 mln 43 ming talaba tahsil oladi.

Oliy ma’lumotli mutaxassislar soni jihatidan yaponiya 2-o‘rinda turadi. Ming ishchiga 190 ta oliy ma’lumotli mutaxassis to‘g‘ri keladi. Bu aqshda ming kishiga 294, Buyuk Britaniyada 138, Fransiyada 115 nafardir.

Taraqqiy etgan mamalakatlardan biri bo‘lgan Fransiya ta’lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Hozirda amal qilayotgan qonun 1989-yil qabul qilingan. Davlat, xususiy va oraliq, maktablar bor. Xaftalik soat 26 soat, dars 60 minut, sinfda 35-40 o‘quvchi bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiya- 6-11 yoshli bolalar jalb etiladi. Bu maktab majburiy va bepuldir. O‘qish 5 yil va 3 bosqichga bo‘linadi. Dasturlarda o‘quv predmetlarining barchasiga 3 bosqich bo‘yicha aniq, alohida-alohida talablar qo‘yilgan.

O‘rta ta’lim 11 yoshdan boshlanib, kollej va litseylarda davom etadi. Ikki bosqichda beriladi.

1-bosqich (11-15 yosh) 4 yil bo‘lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5-4 o‘rta, 3-sinf katta sinf xisoblanishi 6-5 sinflarda umumiy o‘rta ta’lim beriladi: 4-3 sinflarda o‘quvchilar qobiliyati va moyilligiga qarab bilim beriladi.

2-bosqich 15-18 yosh, o‘qish 3 yil davom etadi. 3-sinf kichik, 4-sinf o‘rta va yakkalanuvchi sinflarga bo‘linadi.

Oliy ta’lim Fransiyada universitetlar va turli oliy maktablarga beriladi. Universitetlar 3 siklda bilim beradi.

35.2. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari

Lev Nikolaevich Tolstoy (1828-1910) o‘zining pedagogik faoliyatini pedagogika sohasida nodir asarlar yaratish bilan birga 1859 yilda Yasnaya Polyanada o‘z hisobiga dehqonlarning bolalari uchun maktab ochdi va taklif etilgan o‘qituvchilar bilan birgalikda unda mashg‘ulotlar olib bordi. Shuningdek, u To‘la guberniyasida maorif ishlarini qayta tashkil etishda jonbozlik ko‘rsatdi. Bu davrda uning tashabbusi bilan 20 dan ortiq maktab ochildi.

O‘zining maorif sohasidagi tajribalarini keng yoyish maqsadida L.N.Tolstoy 1862-yildan boshlab **«Yasnaya Polyana»** nomli pedagogik jurnalini chiqara boshladi va uning sahifalarida «Xalq maorifi to‘g‘risida», «Savodga o‘rgatish metodlari haqida», «Maktablarning erkin tarkib topishi va rivojlanishi», «o‘quvchilarning eng yaxshi insholari» kabi bir qator maqolalarini e’lon qildi.

Tolstoy o‘zining pedagogik asarlarida o‘qitish nazariyasi masalalari yuzasidan bir qancha original didaktik g‘oyalarni ilgari surdi. 60-yillarning boshida Tolstoy pedagoglik ishiga astoydil kirishib, bu sohada uzluksiz izlanish olib boradi va «har bir maktab o‘ziga xos bir ta’lim-tarbiya laboratoriyasi bo‘lishi kerak» degan talabni qo‘yadi, uning Yasnaya Polyanadagi maktabi ham o‘ziga xos tajriba laboratoriyasi edi. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan erkin suhbati asosida tashkil etilgan bu maktabda 7 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan 30-40 nafar dehqon bolalari

o‘qir edi. Bolalardan tashqari, har yili qishloqdagi 3-4 nafar katta yoshdagi kishilar ham ta’lim olar edilar. Tolstoy o‘zi tashkil etgan maktab uchun unda beriladigan o‘qitish mazmunini ham, o‘quv rejasini ham mustaqil tarzda ishlab chiqdi. Chunonchi, uning maktabida, o‘qish, yozish, husnixat, grammatika, din darsi, rus tarixidan hikoyalar, arifmetika, tabiiyot va geografiyadan elementar bilimlar berilar, rasm va ashula o‘rgatilar zdi. Rus tili darslarida Tolstoy o‘quvchilarga badiiy hikoyalar Shaklida tabiiyot, geografiya va tarixdan ma’lumotlar berardi. U bunday hikoyalarning namunasi sifatida «Yasnaya Polyana maktabi» sarlavhali maqolasida 1812-yilgi Vatan urushiga oid hikoyani keltirar edi.

Tolstoy 1869-yilda **«urush va tinchlik»** romanini yozib, tugatgach, bolalar bilan o‘tkazadigan mashg‘ulotini yana qayta tikladi. 70-yillarda Tolstoy xalq maorifi sohasiga har tomonlama katta qiziqish bilan yondoshdi. 1872-yilda uning **«Azbuka» («Alifbe»)** kitobi bosilib chiqdi. 1875-yilda esa qayta ishlangan **«Novaya Azbuka» («Yangi Alifbe»)** hamda to‘rtta **«Kniga dlya chteniya» («o‘qish kitobi»)** nashr qilindi.

Tolstoy savod o‘rgatish uchui grammatikani yaxshilash ustida ko‘p ishladi, o‘z qishlog‘idagi maktablarda tovush metodining ta’sirini aniqlash, bu mstodning afzallik tomonlarini bilib olish maqsadida maxsus tajriba ishlarini ham o‘tkazib, ijobiy xulosaga keldi.

L.N.Tolstoy «Alifbo» va «o‘qish kitobi» xrestomatiyalari bilan bir qatorda, o‘z zamonasi uchun ko‘pgina afzalliklarga ega bo‘lgan arifmetika darsligini ham tuzdi. Ilg‘or metodist-olim sifatida tayyorlab nashr etgan darslik va qo‘llanmalar Tolstoyning o‘z faoliyatida boshlang‘ich ta’lim metodikasi bilan barakali Shug‘ullanganidan dalolat beradi.

L.N.Tolstoy pedagogik faoliyatining so‘nggi davri (1880-yildan to umrining oxirigacha) o‘ziga xos bosqichdan iboratdir. Bu davr tolstoychilik diniy e’tiqodining shakllanishi bilan xarakterlanadi: odamlarga umumiy mehr-muhabbat, barcha gunohlarni kechirish, o‘zaro kelishuvchilik, zulmga qarshi zo‘ravonlik ko‘rsatmaslik va hokazo. Tolstoy o‘zining diniy-axloqiy ta’limotini dehqonlarning bolalari bilan o‘tkazadigan mashg‘ulotlarida, shuningdek, katta yoshdagi aholi orasida keng targ‘ib qildi.

35.3. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya ahamiyati to‘g‘risida

Tarbiya predmeti bo‘lgan odam to‘g‘risida chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollangan keng ma’lumoti bor ushinskiy pedagogika nazariyasini ishlab chiqishga kirishdi.

Ushinskiy pedagogika nazariyasi anatomiya, fizmiologiya, psixologiya, falsafa, tarix va boshqa fanlar qonunlarida foylanishga asoslangan bo‘lish deb lozim deb ko‘rsatdi. Bu nazariya pedagogik reseptlar bilangina chegaralanib qolmasdan, balki tarbiya qonunlarini ochib berish kerak edi. Uning zamonidagi pedagogika bilan ushinskiy yaxshi tanishdir.

Ushinskiy pedagogika nazariyasining mavhum, kabinetdan tashqariga chiqmay tuzilishiga qarshi bo‘ldi, shuning singari, pedagogikada empirizmga qarshi bo‘lish kerakligini ogohlantirdi, muvaffaqiyatli bo‘lsa ham faqat shaxsiy tajribagagina asoslanish yetarli bo‘lmaydi deb ko‘rsatdi. U nazariya bilan

amaliyotning birligini talab qildi. Ushinskiy "Hech qanday xulosa chiqarib bo‘lmaydigan biron bir ideyadan kelib chiqmaydigan va o‘zi ham hyech qanday ideya yaratmaydigan tajriba hyech nimaga arzimaydigan bir narsa bo‘lib qolishi singari, hyech nimaga asoslanmagan quriq nazariya ham puch bir narsa bo‘lib qoladi. Nazariya voqelikdan ajralmasligi, faktlar mulohazani rad qilmasligi kerak" deb yozgan edi. U nazariyasiz pedagogik amaliyotning meditsinadagi qiyinchilikka o‘xshatadi.

Ushinskiy "Pedagogik tarbiyaning ma’lum prinseplarini va tarbiya ishlarining aniq qoidalarini uzlashtirib olishgina kifoya qilmaydi" deydi. U yana "kishi tabiatning asosiy qonuniyatlarini bilishi va ularni har bir aniq hollarda ishlata bilish kerak, " – deb juda to‘g‘ri aytgan edi.

Ushinskiy "Agar pedagogika kishini bir jihatdan tarbiya qilmoqchi ekan, u eng avval kishi har jihatdan bilishi kerak" – degan edi.

Ushinskiy bu talabni amalga oshirib "Inson tarbiya predmeti sifatida" nomli 2 tomli kapital asarini yozdi va 3-tomini yozmoqchi bo‘lib, materiallar to‘pladi va tayyorladi. Ammo bevaqt o‘lim 3-tomni yozishga imkoniyat bermadi.

Tarbiya predmeti bo‘lgan odam to‘g‘risida keng bilimga ega bo‘lgan Ushinskiy pedagogika nazariyasini ishlab chiqishga kirishdi. Ushinskiy pedagogika nazariyasi anatomiya, fiziologiya, psixologiya, falsafa, tarix va boshqa fanlar qonunlaridan foydalanishga asoslangan bo‘lishi kerak deb ko‘rsatadi. Bu nazariya pedagogik reseptlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarbiya qonunlarini ochib berishi kerak. Ushinskiy pedagogik nazariyaning kabinetdan chiqmasdan tuzilishiga qarshi bo‘ladi.. Nazariya bilan amaliyot birligini talab qiladi. Nazariya voqyelikdan ajralmasligi, faktlar mulohazasini rad qilmasligi kerak deb uqtiradi.

K.D.Ushinskiy pedagogika kishini tarbiya qilmoqchi ekan, u avval kishini har tomonlama o‘rganishi kerak deb ta’kidlaydi. O‘sha paytda ikki oqim mavjud bo‘lib, ular bir-biriga qarshi edi:

1. Metafizik psixologiya oqimi.
2. Yangi empirik psixologiya oqimi.

Ushinskiyning pedagogika tizimi xalqchillik g‘oyasi asosida qurilgandir. U xilqchillik deb har bir xalqning o‘ziga xosligini tushunardi ediki, bu o‘ziga xoslik o‘sha xalq yashashi va mehnat qilishi lozim bo‘lgan tarixiy taraqqiyot, geografik va tabiiy sharoitlar bilan ifodalanadi.

U o‘zining «Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi haqida» maqolasida tarbiya xalqchillik ruhida bo‘lishini, turli xalqlar tarbiyasida tarkib topgan alomatlarni xarakterlab beradi.

Ushinskiy bolalarga shunday tarbiya berish kerakki, ular o‘z manfaatlaridan umum manfaatlarini ustun qo‘ya olsinlar, deydi.

Ushinskiy bolaning faoliyati va faolligi uning tarbiyasi va ta’limida eng muhim shartlardan biridir deb to‘g‘ri hisoblaydi. U shu munosabat bilan bolalarni uyushqoqlika, ularning faoliyatida intilishni o‘stirishga o‘rgatish lozim bo‘lgan bola hayotining rejimiga katta ahamiyat beradi. U har qanday tarbiyada mashq ahamiyatini muhim deb biladi.

Ushinskiy kishining kamolotga yetishi uchun jismoniy, aqliy hamda axloqiy tarbiyalari bir-biriga mos bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Shuning uchun u tarbiyani

garmonik o‘sgan shaxsning tarkib topishida bir maqsadga qaratilgan ongli jarayon deb ataydi. U axloqiy tarbiyaga jiddiy e’tibor beradi. Axoloqiy tarbiya bolada insonparvarlik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, mehnatsevarlik, intizomlilik va mas’ulitni sezish, kamtarlik kabi xususiyatlarni o‘stirishi lozim.

K.D.Ushinskiy ko‘r-ko‘rona, Tayoq intizomiga qarshi norozilik bildiradi. Qo‘rquv bolalarni juda yomon odatlarga o‘rgatadi. Lekin uning nazariyasi din bilan bog‘liqdir. Uning fikricha, axloqiy tarbiya vositalari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- ta’lim;
- o‘qituvchining shaxsan namuna bo‘lishi;
- e’tiqod;
- o‘quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo‘lish;
- ogohlantirish choralari;
- rag‘batlantirish va jazolash.

35.4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari juda chuqurligi va maqbulligi bilan ajralib turadi. U ta’limni bolalar xususiyatlari va yosh bosqichlarini hisobga olib tashkil etish kerakligini talab qiladi. U o‘qitish vaqtida bolaning diqqatidan foydalanish to‘g‘risida qimmatli ko‘rsatmalar beradi, u ikki turli diqqat mavjudligini ko‘rsatada: faol va nofaol diqqat.

Faol diqqat ixtiyoriydir. Nofaol diqqat esa g‘ayri ixtiyoriydir. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib nofaol diqqatga oziq berish kerak, shu bilan bir vaqtda muhim bo‘lgan faol diqqatni ham taraqqiy ettirish kerak deb hisoblaydi.

Ushinskiyning fikricha, ta’lim bolalarning kuchi yetadigan va izchil bo‘lishi kerak. Dars o‘tish jarayonida bolaning charchashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. U darsda bolalarning yoshini hisobga olib ko‘rsatmalilik tamoyilini qo‘llashni ma’qullaydi. Bolalar shakllar, ranglash, tovushlar, umuman sezgilar bilan fikrlaydi. Bunda ko‘rsatilgan narsalarning aytilgan gapga mosligi bolalar dunyoqarashining rivojlanishiga, fikrlash qobiliyatining o‘sishiga yordam beradi.

Ushinskiy o‘zidan oldingi pedagoglar yaratgan ko‘rsatmali ta’lim metodikasini ancha boyitdi. Masalan, u bolalarga ramslarga qarab mazmunini gapirishni, dars vaqtida foydalanilgan rasmlarni sinf devorlariga osib qo‘yishni taklif qiladi. U ta’limni tarbiyaning eng muhim vositasi deb hisoblaydi.

Ushinskiy darsga katta e’tibor berdi. Maktabda o‘quv mashg‘ulotlarining muvaffaqiyatli bo‘lishida sinf-dars tizimining o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilar tarkibi doimiybo‘lgan, maktabning asosiy bo‘g‘inini tashkil etuvchi sinfdagi mashg‘ulotlarni jadval asosida olib borishni o‘qituvchining o‘quvchilar bilan yalpi (frontal) mashg‘ulot olib borilishini, bunda o‘qituvchining asosiy rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Har bir dars ma’lum bir maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak, unda ta’lim bilan birga tarbiya ham berilishi zarur. Darsda mashg‘ulotlarni almashtirib, dars uslublarining xilma-xil bo‘lishini tavsiya etadi.

Ushinskiy 1964-yilda yozgan «Rus tilini dastlabki o‘qitish» nomli maqolasida qimmatli uslubiy ko‘rsatmalar beradi va o‘qitishning 3 ta vazifasi bor deb ko‘rsatadi:

- bolaning nutqini o‘stirish;
- bolalarni rus tilining imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanishga o‘rgatish;
- tilning grammatikasini o‘zlashtirish.

Bu vazifalar birgalikda bajariladi. Nutqni o‘stirishda og‘zaki va yozma mashq turlarini tavsiya etadi.

XXXVI BOB. HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI

36.1. XX-asr jahon ta’lim tizimidagi global tendentsiyalar

Axborot texnologiyalari ta’limning turli yangi ko‘rinishlarini taklif etmoqda, xususan keyingi vaqtlarda modulli ta’lim tizimida majmuaviy yondashuv tamoyili kuchayib bormoqda. Unda turli shakl, usullar moslashtirilgan holda joylashtirilishi aralash ta’limning innovatsiya sifatida kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Deklan Bern "blended learning" (aralash ta’lim) haqida shunday deydi «ushbu ta’lim boy pedagogik tajribadan samarali foydalanishga qaratilgan». Bunday yondashuv axborotni taqdim etishda turli uslubiyotlardan foydalanishni, ta’limni tashkil etishda va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari, yakka tarzda va guruhlarda an’anaviy faoliyatni tashkil etishga asoslanishi mumkin. Bunday turlicha yondashuv talabani charchatmaydi va o‘qishga bo‘lgan motivlarini kuchaytiradi. Asosiy masala – tanlangan uslubiyotlarning o‘zaro mutanosibligini ta’minlash va kam harajat asosida yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Bugungi kunda blended learning kunduzgi an’anaviy ta’lim va masofaviy ta’limning unsurlari kombinatsiyasi hisoblanib, bunda an’anaviy metodika va yangi texnologiyalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratiladi. Bu tizimda o‘qituvchi ta’lim markazida qoladi va internet imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Blended learning masofaviy ta’lim (Distance learning), sinf xonada ta’lim (Fake-to-Fake learning) va internet orqali ta’lim (Onlin learning)dan iborat.

Vebinar metodi.

Bugun masofaviy ta’limning yana bir turi «webinar» (1998-yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o‘qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat o‘quvchilarga axborotni etkazadi, balki ular bilan muloqotga kirishish (og‘zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya’ni seminar ko‘rinishida fikrlarni almashish, o‘z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, internet tarmog‘i asosida tashkil etiluvchi ta’lim ham sub’ekt-sub’ekt paradigmasiga o‘tmoqda.

Vebinar usulida dars seminar yoki konferensiya internet orqali bir vaqtda hozir bo‘lgan o‘quvchilar bilan audio video (va avvalgi postlarda sanab o‘tilgan ko‘plab interaktiv imkoniyatlar) bilan jonli olib borilib ushbu dars keyingi foydalanishlar uchun yozib olinishi mumkin bo‘lsa-da, butun o‘quv yoki kurs jarayonidagi darslar yagona platforma doirasida o‘zaro uzviy bog‘lanmaydi, ya’ni alohida-alohida bir martalik darslar bo‘ladi deyish mumkin.

Evristik o‘qitish metodi.

Evristik o‘qitish metodini qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo‘lgan masalani aniqlab oladi.O‘quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o‘zlashtirib oladilar va uning echimi bo‘yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O‘rnatilgan masalani echish davomida o‘quvchilar ilmiy bilish metodlarini o‘zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko‘nikmasi tajribasini egallaydilar.

Xorijiy ta’limda so‘nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

TYUTOR – (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba’zi hollarda ma’ruza o‘qituvchisi bilan o‘quvchi orasidagi bog‘lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

EDVAYZER – (advisor) – fransuzcha – avisen – o‘ylamoq‖) o‘quvchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

FASILITATOR – (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis – yengil, qulay) – guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi komunikatsiyanirivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

MODERATOR – qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi. Ma’lumotni, seminarni, treninglar va davra suhbatlarini boshqaradi, fikrlarni umumlashtiradi.

Bizning ta’limda ushbu faoliyatlarning hammasini o‘qituvchi bajaradi va pedagog yoki o‘qituvchi deb yuritiladi.

Rivojlangan davlatlarda yangi tipdagi o‘quv yurtlari mavjud. Bunday o‘quv yurtlari «ochiq», «masofali» universitet, «elektron», «virtual» kollejlar deb nomlana boshlandi. Ular o‘ziga xos tashkiliy strukturaga ega bo‘lib o‘ziga mos pedagogik usul, iqtisodiy mexanizmlardan foydalaniladi.

Jahon ta’lim tajribasida differensial va integratsion ta’lim yo‘nalishlariga alohida e’tibor berilmoqda.

1. Integratsiya – (lot. Integeration – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirmok, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma’nosida tushuniladi. Ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya’ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltiriladi.

2. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va nihoyat o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi o‘quv predmetlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun Shakli va oliy darajasidir. Integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv predmeti yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim Shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o‘z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko‘rsatuvchi keng ixtisosli malakali mutaxassis Shaxsini shakllantirishga imkon beradi.

3. Integratsion ta’lim tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, Shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o‘rganilayotgan ob’ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo‘lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

4. Integratsiya va differensiatsiya bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘lmaydi, biri ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o‘zida o‘rganilayotgan ob’ektning ikki tomoni sifatida namoyon bo‘ladi.

5. Integratsiyalashtirilgan o‘quv dasturlarining mualliflari barcha yondosh o‘quv kurslarini o‘zak predmet va g‘oya atrofiga jipslashtirishga harakat qilishadi, bu o‘quvchilarga ijodiy tafakkur yurgizishga yordam beradi.

6. Rivojlangan mamlakatlar o‘quv dasturiga integratsiyalashgan kurslarni kiritish bilan bir qatorda alohida fanlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, G‘arbiy Evropa mamlakatlarida 15 foiz o‘quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o‘rganadilar.

7. Bosqichlik differensiya texnologiyasidan foydalanishning asosiy maqsadi har bir o‘quvchini o‘zining imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida o‘qitish bo‘lib, natijada har bir ta’lim oluvchi o‘z iqtidoriga ko‘ra bilim olish va shaxsiy salohiyatini amalga oshirish (qo‘llay olish) imkoniyatiga ega bo‘ladi.

36.2. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi

Istiqlol tufayli jahonga yuz ochgan O‘zbekiston Respublikasi uchun bugun dunyodagi taraqqiy etgan xorijiy davlatlar ta’lim tajribasini o‘rganish va bizga ma’qullaridan foydalanish imkoniyatlari g‘oyat keng bo‘lib, bu borada amlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli ishlar diqqatga sazovordir.

Quyida rivojlangan xorijiy davlatlar ta’limi tizimi taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari, ular tajribalari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar berishga harakat qilamiz.

36.3. Amerika Qo‘shma Shtatlarida ta’lim tizimlari

Mamlakat ta’lim tizimining tuzilishi quyidagicha:

- bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari;
- 1-8-sinflargacha bo‘lgan boshlang‘ich maktablar (bunday maktablarda bolalar 6 yoshdan 13 yoshgacha o‘qiydilar);
- 9-12-sinflardan iborat o‘rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar ta’lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida navbatdagi ta’lim bosqichi oliy ta’lim bo‘lib, u 2 yoki 4 yil o‘qitiladigan kollejlar hamda universitetlarda amalga oshiriladi.

So‘nggi bosqich, universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlari tarkibida tashkil etilgan aspirantura yoki doktoranturalardir.

Aqshda majburiy ta’lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o‘quv yurtlarida davlat jamoa, xususiy tasarruflarda va diniy muassasalar ixtiyorida bo‘lishi mumkin. Shunisi diqqatga sazovorki, aqsh maktablarining bitiruvchi sinf o‘quvchilaridan tashqari barcha o‘quvchilar ta’tillar paytida asosan ish bilai band bo‘ladilar. Aqsh maktablarida o‘quv yili 180 kun. Bir soat dars 45-50 minut.

Amerika konstitutsiyasiga muvofiq ta’lim tizimi tasarrufidagi Shtatlar boshqaruv muassasalari ixtiyoridadir. 1979-yilgacha ta’limni mablag‘ bilan ta’minlash, ta’limda davlat siyosatini amalga oshirish, o‘quv yurtlarida faoliyatini muvofiqlashtirib borishni Sog‘liqni saqlash, Ijtimoiy ta’minot va ta’lim ishlari vazirligi olib borar edi. 1979-yilda Ta’lim vazirligi mustaqil bo‘lib ajralib chiqdi.

Ta’lim tizimlariga mablag‘ ajratish bo‘yicha aqsh dunyo mamlakatlari o‘rtasida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Aqsh ta’lim tizimining rivojlanish sur’ati ancha yuqori bo‘lib, uning boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qishi lozim bo‘lgan bolalarning 99,9 foizi, o‘rta bo‘g‘ini 94,5 foizi ta’lim oladi. O‘quvchilar umumiy sonining 46 foizi o‘rta maktabni tamomlagach, kollej va universitetlarga kiradilar. Barcha toifadagi ta’lim maskanlarida 58 million yosh, shu jumladan, ta’limning oliy bosqichida 12 million yigitqiz tahsil oladi. Aqshda har 10 ming aholiga 307 talaba to‘g‘ri keladi. Bu jahonda yuksak ko‘rsatkichlardan biridir.

Bulardan tashqari aqshda har yili 33 million kishi uzluksizta’lim va malaka oshirish tizimlarida bilim oladilar. Mamlakatda million o‘qituvchi mehnat qiladi. Har yili o‘rta maktabni 3 million o‘quvchi, bakalavr darajasidagi oliy ta’lim bosqichini 932 ming kishi, magistr darajasida esa 300 ming kishi tugallaydi, yiliga 30 ming kishi doktorlik ilmiy darajasini oladi.

Maktabgacha tarbiya

Aqshda bolalar uch yoshga to‘lgunlaricha onalarga turli moddiy imtiyozlar berish ko‘zda tutilmagan. Farzandlarga qarab uyda o‘tiradimi yoki enaga yollab ishga tushadilarmi, bu onalarning ishi. O‘zbekistondagi kabi keng va shinam, ikki qavatli, o‘ynaydigan, uxlaydigan, ovqatlanadigan alohida xonalari bo‘lgan bog‘cha va yaslilar Amerikada odob tusiga kirgan emas. Enaga yollash oila uchun haftasiga 200 dollardan kamga tushmaydi. Bu mamlakatda 30-40 bolaga mo‘ljallangan xususiy va davlat tasarrufidagi bog‘chalar mavjud. Ular enaga yollashdan biroz arzonroqqa tushadi. Lekin har ikki holda ham, uydan olib borgan ovqatlarni edirishadi, krovatchalar, ko‘rpa, to‘shak, yostiqni ota-onalar olib borishadi. Amerikada bizdagidek taomnomalar, o‘quv dasturlari yo‘q. Bolalar yozda atrofdagi ko‘kalamzorlarda o‘ynab dam oladilar.

Bu bog‘chalarda ham bolalar yoshlariga qarab turli guruhlarda tarbiyalanadilar, ularga tarbiyachi-mutaxassis qaraydi, ular ovqatni tayyorlab beradi, turli qo‘shiqlar, She’rlar o‘rgatadi, quvnoq o‘yinlar uyushtiradi. Ammo har kim o‘z uslubiga muvofiq ishlaydi, umumiy qoidalar, o‘quv dasturlari joriy qilinmagan. Lekin bolalar uchun haqiqiy ta’lim-tarbiya jarayoni ular 5 yoshga to‘lganlaridan keyin boshlanadi. Ana shu yoshda ular **«Kinder garden»** deb

ataluvchi tayyorlov bog‘chalariga jalb etiladilar. Ular hukumat tasarrufida bo‘lib, bog‘chalar yoki maktablar tarkibida tashkil etiladi. Bolalarni maxsus **«maktab avtobusida»** uyga olib keladilar va maktabga olib boradilar. Bunday avtobuslar yo‘l-transport hodisalaridan to‘la muhofaza etilgan: sariq rangga bo‘yalgan, uning signallari barcha transport vositalari itoat etishga majburdirlar. Maktab avtobuslarini boshqa transport vositalari quvib o‘tishimumkin emas, tartibni buzganlar qattiq jazolanadilar.

Boshlang‘ich maktab

Boshlang‘ich maktablarning asosiy vazifasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarga to‘laqonli bilim, berish, ularning umuminsoniy, axloqiy xislatlariga ega bo‘lib shakllanishini ta’minlashdan iboratdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladigan o‘quv predmetlari va dasturlari bolalarning yoshi, muhitiga moslashgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning umumiy savodxonligini ta’minlab berishdan tashqari ma’lum darajada kasb yo‘nalishiga ham ega qiladi. Sinfdan-sinfga ko‘chirish o‘quvchining o‘qish tezligi, yozuvi, husnixati, arifmetika, tarix, geografiya, musiqa va san’at kabi predmetlarni boshlang‘ich sinf dasturi hamda darsliklari doirasida qanday o‘zlashtirib olganligiga qarab belgilanadi. Amerika maktablarida o‘quv-tarbiya ishlari bilan bog‘liq masalalarni to‘laligicha har bir Shtat o‘ziga mustaqil belgilab olish huquqiga ega. Shu boisdan boshlang‘ich maktablarda o‘quv davomiyligi Shtatlarda turlicha bslgilangan. Ya’ni boshlang‘ich ta’lim 4, 5, 6, 8 yillik bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar Shu davr ichida ingliz tili, ijtimoiy fan, tabiat va gigiena, matematika, hunarmandchilik va san’at, badantarbiya va sport predmetlaridan saboq oladilar. Aqsh maktablarida o‘qish har bir o‘quvchi uchun faxriftixor bo‘lishiga, o‘quvchi o‘z bilimi, imkoniyati, nuqtai nazariga ishonch hissini tarbiyalashga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilarni maktabdan bezdirish, ularni darslarga ishtiyoqsiz va loqayd bo‘lib qolishlari favqulodda salbiy holat hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichidanoq o‘quvchilar uchun turli to‘garaklar, sayohatlar tashkil etiladi, xilma-xil ko‘ngil ochar tadbirlar o‘tkaziladi. Lekin ular pullik bo‘lib, unga oila byudjetining 10-16 foizi sarflanadi. Qurbi etmaydigan oilalar farzandlariga bu borada ba’zi imtiyozlar beriladi.

O‘rta maktab

Amerika Qo‘shma Shtatlarida to‘laqonli o‘rta maktab sirasiga 10, 11, 12-sinflar kiradi. Binobarin, 7, 8, 9-sinflarni aksariyat holda quyi o‘rta maktab deb ham yuritiladi. Quyi o‘rta maktab kursini muvaffaqiyatli o‘taganlar yuqori bosqichga — to‘laqonli o‘rta maktabga qabul qilinadilar. Ma’lum darajada 9-sinfni bitirganlar yuqori o‘rta maktablarga tanlov yo‘li bilan qabul qilinadilar. Lekin yuqori o‘rta maktablar o‘quvchilarning bilimiga qarab tabaqalashtirilganligi tufayli 86,4 foiz o‘quvchi ularga qabul qilinadi.

Amerikalik yoshlarning ko‘pchiligi o‘rta maktablarni tugatgach, tegishli diplom va maxsus kurslarni bitirganliklarini isbotlovchi hujjatlar oladilar. O‘quvchilar odatda ma’lum bir sinfni, kurs yoki maktabni yakunlashda test sinovlariga jalb etiladilar.

O‘quvchilar bilimi quyidagicha baholanadi:

- 95-100 ball;

- 85-92 ball;
- 71-80 ball;
- 65-70 ball;
- 0-64 ball (qoniqarsiz).

Test natijalariga ko‘ra qoniqarsiz baholangan o‘quvchilar yil davomida ma’lum vaqt o‘tkazib sinovdan qayta o‘tkaziladilar. Bu sinovlarga o‘quvchilarning sinf muloqotida qatnashganligining natijalari, ogzaki va yozma vazifalarning echimlari ham ilova qilinadi. AQSH maktablarida chorak va o‘quv yili natijalariga ko‘ra ham o‘quvchilar test sinovlaridan o‘tkaziladilar.

Ba’zi Shtatlarda, shuningdek, Nyu-Yorkda ta’lim departamenti tomonidan belgilangan imtihonlar ham o‘tkaziladi.

AQSH maktablarida odatda o‘quvchilar o‘quv yili davomida ikki marta o‘zlashtirish tabeli oladilar. Ayrim okruglarda bunday tabellar har bir fan bo‘yicha 6 martagacha beriladi.

O‘rta maktablarda o‘quvchilarga o‘zlari tanlagan yo‘nalishlariga mos holda predmetlar tanlashda ma’lum erkinliklar bor. Masalan, ingliz tili, ijtimoiy fanlar, matematika, fizika predmetlari asosiy fan bo‘lib, chet tillari, nafis san’at, kasb ta’limi predmetlari o‘quvchilarning xohish, istaklariga qarab qo‘yilishi mumkin.

O‘rta maktab o‘quvchilari kundalik faoliyatida yarim vaqtni o‘quv sinflarida, qolgan vaqtni esa laboratoriya, maydonlar, tajriba uchastkalari, amaliyot uchun mo‘ljallangan joylarda o‘tkazadilar. 10, 11, 12-sinflarda maktab-oila hamkorligi, ayniqsa, mustahkam bo‘ladi. Chunki, ayni shu bosqichda o‘quvchilarning kasb-korlarga moyilligi to‘la qaror topadi.

O‘quvchilar va ota-onalarning istaklariga muvofiq, kasb-kor yo‘nalishiga mos keladigan predmetlardan olinadigan saboqlarni ko‘paytirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, o‘quvchi kslajakda qaysi sohaga o‘z hayotini bag‘ishlashga ahd qilgan bo‘lsa, aynan o‘sha yo‘nalishdagi predmetlarni ustun darajada o‘rganib, tayyorgarlik ishlarini olib boradi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, aqsh o‘rta maktablari o‘z o‘quvchilariga uch yo‘nalishda: akademik, kasb-kor, umumiy yo‘nalishlarda bilim beradilar. Ayni paytda o‘quvchilarga to‘rt yo‘nalishda hunar, kasb-kor asoslarini berib boriladi. Bular quyidagilar: Birinchisi, qishloq xo‘jalik kasblari ta’limi hisoblanib, unda o‘quvchilarga fermerlik asoslari o‘qitiladi va unda qishloq xo‘jaligi bo‘yicha menejmentlar etishtirib beriladi. Bunday ta’lim Amerikaning bo‘lg‘usi fermerlari dasturi asosida ish olib boradi. Ikkinchisi, biznes ta’limidir. Unda o‘quvchilarga tijorat, tijorat iqtisodiyoti, ichki iqtisodiyot mutaxassisligi o‘rgatiladi, bunday o‘quv yo‘nalishlarida o‘quvchilarda muruvvat, bsmorlarga g‘amxo‘rlik qilish, insonparvarlik tuygularini tarbiyalash masalalariga ham jiddiy ahamiyat beriladi. Uchinchisi, savdo va sanoat ta’limi bo‘lib, unda yoshlarga mahsulot ishlab chiqarish va mexaniklik kasbi o‘rgatiladi. To‘rtinchisi, qurilish ta’limi bo‘lib, bu ta’lim tizimi orqali turli qurilish kasblari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar beriladi.

Oliy ta’lim

Amerika Qo‘shma Shtatlarida oliy ta’lim 4 asosiy bosqichda amalga oshiriladi: kichik mutaxassis, bakalavr, magistr, doktor. Oliy ta’limdagi bosqichlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va o‘quv dasturlari jihatidan bir-biridan qat’iy

chegaralangan. Birinchi bosqich garchi aqsh oliy ta’lim bosqichi deb yuritilsa-da, ularni vazifasiga ko‘ra bizdagi maxsus o‘rta o‘quv yurtlariga tenglashtirish mumkin. Bu bosqich 2 yillik kollej shaklida amalga oshirilib, bitiruvchilarining uchdan ikki qismi 4 yillik kollejlarning III-kursiga qabul qilinadilar. Qolgan bir qismi esa kichik mutaxassis guvohnomasini oladi. Ikki yillik kollejlarning 87 foizi davlat ixtiyorida, qolgan 13 foizi esa xususiydir.

Bunday kollejlarga o‘rta maktabni tugatganlar o‘z iqtidori, qiziqishi va maktabda olgan kasb yo‘nalishiga ko‘ra turli yo‘nalishdagi ixtisoslik bo‘limlariga qabul qilinadilar. Bu o‘quv yurtlarida o‘qish eng yuqori saviyada olib boriladi. Chunki bu toifadagi o‘quv asosan dorilfununlar qoshida tashkil etilgan. Ikki yillik kollsjlar deyarli barcha Shtatlarda bo‘lib, tayyorlangan mutaxassislar o‘Sha Shtatlardagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondiradi. Bunday kollejlar asosan kam ta’minlangan, nochor oilalarning farzandlari uchun mo‘ljallangandir. Shuningdek, bunday kollejlar yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

I-bosqich oliy ta’limni tugallagan talabalarga II-bosqichdagi to‘rt yillik kollej va universitetlarga kirish imkoniyati beriladi. Bunday oliy o‘quv dargohini bitirganlarga 1-darajali bakalavr unvoni beriladi. II-bosqich oliy o‘quv yurtini bitirganlarning bir qismi nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash uchun to‘rt yil ishlab chiqarishga borib ishlaydilar. Chunki bunday kollejlarda talabalar uchun amaliy ko‘nikma ko‘zda tutilmagan. Bitiruvchilarning eng layoqatlilari aspirantura va doktoranturada o‘qiydilar. III-bosqich – magistr maktabi hisoblanib, unda o‘qish muddati 1-2 yildan iborat. IV-bosqich doktorantura bosqichidir. O‘quvchilar unda 3-4 yil ta’lim oladilar.

Oliy ta’lim saviyasining yuqori bo‘lishida o‘quvchilarni tanlab olish «Iqtidorlilarni izlash» harakatining ahamiyati katta. Bolalarni saralash bilan nafaqat ta’lim boshqarmalari, balki katta-katta ishlab chiqarish korporatsiyalari ham shug‘ullanadilar. Ular iqtidorli bolalar, ularning ota-onalariga katta miqdorda mablag‘ sarf qiladilar. Bu borada «Vestixauz» firmasining faoliyati jahonga ma’lum va mashhurdir. Mamlakatdagi «Nobel» mukofoti sovrindorlarining uchdan bir qismini aynan shu firma tanlagan iqtidorli kishilar tashkil etadi.

Ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim zamini o‘rta maktablarda tayyorlanadi. Shuning uchun ham aqsh maktablarida o‘quvchilarning boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq tabaqalashtirish keng rusumga kirgan.

AQSH ta’lim tizmmining oliy bosqichi to‘g‘risida gap ketar ekan, uning ikki an’anaviy yo‘nalishi mavjudligini qayd etmoq kerak. Birinchisi, bu ta’limni individuallashtirish bo‘lsa, ikkinchisi, talabalarning mustaqil ishlashlarini amalga oshirishdir. Ta’lim individualligining ma’nosi shuki, bunda u yoki bu mavzun o‘zlashtirishda qat’iy o‘lchov yo‘q. Masalan, talaba mavzuni o‘z layoqatiga ko‘ra boshqalardan tezroq o‘zlashtirishi mumkinligi; berilgan mavzuni o‘zlashtirmay turib keyingisiga o‘tmaslik; talabaning kompyuter yordamida mustaqil ta’limiy dasturlarni tuza olishi; ma’ruzani to‘liq axborot berish vositasi sifatida emas, balki ta’limga yo‘naltiruvchi usul sifatida qo‘llash; yozma ishlar ahamiyatini oshirish; bilimni tekshirishning ko‘p tarmoqli uslublarini joriy etishdan iboratdir. Bunda o‘qituvchi talabaning mavzularni o‘zlashtirish sifatidan doimo xabardor bo‘lib

turadi. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, Amerika pedagogikasida ta’limning bosh maqsadi intellektni mashq qildirish, xulosalash, mantiqan fikrlash qobiliyatini o‘stirishdan iboratdir. Mustaqil shug‘ullanish, esa, ta’lim olish erkinligini, xohishiga ko‘ra uslub tanlashni ta’minlaydi.

36.4. Yaponiyada ta’lim tizimlari

Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo‘shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Jahonning ko‘zga ko‘ringan psixologlari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta’lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e’tibor samarasi, deya qayd etadilar. Bu bejiz emas. Kun chiqish mamlakati deb yuritiladigan bu o‘lkada ta’lim tizimlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishiga hukumat, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari, ota-onalar qanchalik omilkorlik bilan yondashayotganliklarini hisobga olsak, jahon ilmiy tadqiqotchilarining yuqoridagi ulosalari asosli ekanligining guvohi bo‘lamiz. Tabiiyki, Yaponiya ta’lim tizimlarining yuksak parvozi o‘z-o‘zidan bo‘lgani yo‘q. Uning ham o‘ziga xos inqirozi va muammolari bo‘lgan. Bularni to‘liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Yapon ta’limining mumtoz shakllanishi 1867-1868-yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o‘z oldiga qo‘ygan ikki qat’iy shiori bo‘lib, birinchisi – «Fukoku-kioxsi» – boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio» – ilgor g‘arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi bu ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta’lim tizimlarini tubdan o‘zgartirish va yangilashda deb hisoblardi.

Davlat boshlig‘ining bu xulosalari Yaponiyada 1872-yilda «Ta’lim haqida Qonun» qabul qilinishiga olib keldi. Qonunga muvofiq tez orada eski uslubdagi ta’lim tizimi o‘rnida mamlakat rivojlanishini ta’minlashga samarali xizmat qiluvchi yangi yo‘nalishdagi 53750 ta boshlang‘ich, 256 ta o‘rta maktab, 8 ta universitet tashkil etildi. Bu o‘quv yurtlaridagi ta’lim shakllari ma’rifatli g‘arb ta’lim uslublari bilan uyg‘unlashtirildi, 1890-yilga kelib ilgarigi 3-4 yillik boshlang‘ich maktablar muntazam 4 yillikka aylantirildi va u bepul amalga oshirila boshlandi. 1908-yildan boshlab Yaponiyada boshlang‘ich ta’lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. O‘quv-tarbiya ishlari bepul amalga oshiriladigan bo‘ldi. 1893-yildan e’tiboran Yaponiyada kasb yo‘nalishidagi dastlabki kollejlar paydo bo‘la boshladi.

Birinchi universitet 1886-yilda Tokioda tashkil etildi. Lekin bu dorilfununga oliy tabaqali aslzodalarning bolalari qabul qilinardi. Asr boshida mamlakatda ayollar uchun ham universitetlar tashkil etildi. Lekin bu bilim maskanlarida xotin-qizlar uchun faqat xo‘jalik yuritish, oila iqtisodiyotidangina ta’lim berilardi. 1897-yilda Kiatoda ikkinchi universitet ochildi. Ikkinchi jahon urushida Yaponiya mag‘lubiyatga uchragandan keyin mamlakat ta’lim tizimlariga Amerika Qo‘shma Shtatlari ta’lim tamoyillari kirib kela boshladi.

Ta’lim shaxobchalarining tarkibi

Hozirgi zamon yapon ta’lim tizimlarining tarkibi quyidagicha: Bolalar bog‘chalari, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab, oliy ta’lim tizimlariga kiruvchi o‘quv yurtlari. Bu ta’lim bosqichlarining o‘ziga xos jihatlarini birma-bir ko‘rib chiqamiz.

Bolalar bog‘chalari. Ta’limning bu bosqichiga 3-5 yoshli bolalar qabul qilinadi. Bolalar yosh xususiyatlariga muvofiq rashishda 3, 2, 1 yillik ta’lim kurslariga jalb qilinadilar.

Yaponiyada maktabgacha ta’lim muassasalarining 59,9 foizi xususiydir. 40,8 foizi esa munitsipial (tuman) kengashlari tasarrufida, qolgan 0,3 foizi davlatnikidir.

Majburiy ta’lim. Ta’limning bu pog‘onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinib, ular Shu muddat ichida 6 yillik boshlang‘ich maktab va 3 yillik kichik o‘rta maktab kursini o‘taydilar. 9 yillik bu ta’lim majburiy bo‘lib, barcha bolalar bepul o‘qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar. Muhtoj oilalarning bolalari mahalliy va milliy boshqaruv tashkilotlari tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga bepul nonushta qilish, o‘quv qurollari olish, tibbiy xizmatdan bepul bahramand bo‘lish imtiyozlariga egadirlar. Bundan tashqari, ularga bepul sayohatlar va boshqa ko‘ngil ochar tadbirlar uyushtiriladi. Zarur bo‘lib qolgan taqdirda muhtoj o‘quvchilar uchun moddiy yordam ko‘rsatiladi. Bu bosqichdagi maktablarga qabul uchun maxsus qonun yoki cheklashlar yo‘q. Faqat jismonan, ruhan nosog‘lom bolalar unga qabul qilinmaydilar.

Ota-onalar o‘z bolalarini xususiy maktablarga berish huquqiga ham egadirlar. Lekin xususiy maktablarning o‘ziga xos shart-sharoitlari va talablari mavjud.

Yuqori bosqich o‘rta maktabi. Yaponiyada bunday bosqich maktablarining kunduzgi, kechki va sirtqi bo‘limlari mavjud. Kunduzgi yuqori bosqich maktablarida o‘qish muddati 3 yil. O‘quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda ta’lim oladilar. Bu turdagi maktablarda o‘qish ixtiyoriydir. Unda quyi o‘rta maktablarni bitirgan, yuqori bosqich o‘rta maktablariga kirish sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi yoshlar qabul qilinadilar. Unda umumiy ta’lim (akademik) fanlari, texnik bilimlar, tijorat, mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kemasozlik va boshqa sohalarga oid bilimlar o‘rgatiladi. Bunday turdagi o‘rta maktablarda umumiy va xususiy tarmoqlarni qo‘shib hisoblaganda 98 foiz yosh bilim oladi.

Universitetlar, kichik kollejlar, texnik kollejlar, maxsus ixtisoslashtirilgan kollejlar Yaponiyada **oliy ta’lim tizimini** tashkil etadi.

Bu mamlakatda boshlang‘ich, o‘rta va oliy o‘quv yurtlaridan tashqari, bir-biridan farq qiluvchi “Ixtisos maktablari”da “turli maktab”lar mavjud. Ularning ko‘pchiligi xususiy bo‘lib, turli firma, kontsern va sindikatlar uchun qisqa vaqtli kurslarda bichuvchi, tikuvchi, to‘quvchi, oshpaz, hisobchi, mashinkada yozuvchi, avtotexnik, electron hisoblash mashinkalari uchun dastur tuzuvchi va boshqa zaruriy kasblar o‘rgatiladi. Maktablarning ayrimlari chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan. 1976-yildan e’tiboran vazirlikning aniq talablarini bajarayotgan «turli maktablar» ixtisoslashtirilgan maktablarga aylantirildi.

Boshlang‘ich, o‘rta ta’lim - o‘quv jarayonini tashkil qilish va ta’lim mazmuni. Boshqa joylardagidan farqli o‘laroq, Yaponiya maktablarida o‘qish

1-apreldan boshlanib, kelasi yilning 31-martida nihoyasiga yetadi. Boshlang‘ich va kichik o‘rta maktablarda o‘quv yili uch semestrga bo‘linadi: apreliyul, sentyabr-dekabr, yanvar-mart. Katta o‘rta maktablarda esa o‘quv yili 2 yoki 3 semestrga bo‘linadi. Ta’tillar yozda, qishda (yangi yildan oldin va keyin) va bahorda bo‘ladi. Yozgi ta’tillarning boshlanishi va tugashi munitsipalitetlardagi vaziyat, ya’ni yuzaga kelgan holatlarga va o‘quv yurtlari xususiyatlariga qarab belgilanadi. Ko‘pchilik boshlang‘ich va kichik o‘rta maktablarda ta’tillar iyun oyi oxirida boshlanib, avgust oylarida tugaydi. Qishloqlarda esa qishloq xo‘jalik ishlarini bajarishdagi dolzarb holatlardan kelib chiqib, bahor va kuzgi ta’tillar yozgi ta’tillar isobidan uzaytiriladi.

O‘quv yili Yaponiyada 240 kun yoki Amerika Qo‘shma Shtatlaridan 60 kun ko‘pdir. Darslar 7 soat. Ko‘pchilik maktablarda darslar ertalab soat sakkiz yarimda boshlanib, uchdan keyin tugaydi. O‘quvchilar haftasiga 2-3 soat sinfdan tashqari klub ishlarida, 7 soat ixtisos bo‘yicha mashg‘ulotlarda yoki repititorlar ixtiyorida bo‘ladilar.

Yuqori bosqich o‘rta maktablarida butun o‘quv jarayonida o‘quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O‘quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o‘z xohishlariga ko‘ra ingliz tili, texnik ta’lim va maxsus fanlardan sinovlarga jalb etiladilar. Yapon maktablari elsktron hisoblash mashinalari va boshqa o‘quv texnika vositalari bilan to‘la ta’minlanganligiga qaramay, mutaxassislarning fikricha, asosiy e’tibor o‘qituvchi faoliyati va darslikka qaratilmog‘i kerak. Ularning fikricha, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot o‘rnini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi. Deyarli barcha darsliklar xususiy bosmaxonalarda chop etiladi. Ularni chop etishga mablag‘ni vazirlik ajratadi. Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar boshlang‘ich va quyi o‘rta maktablarda bepul, yuqori o‘rta maktablarda esa pullidir. Darsliklar narxi shundayki, ularni xarid qilishga hammaning imkoniyati bor. Foydalanilgan darsliklar pullik bo‘lsa ham, tekin bo‘lsa ham o‘quvchining o‘zida qoldiriladi. Yaponiyada o‘qituvchi kadrlar tayyorlash sifatiga juda katta talablar qo‘yiladi. Bu talablar shundayki, mazkur kasbga iqtidorsiz va yo‘nalishi to‘g‘ri kelmaydigan tasodifiy kishilarning kirib qolishi amalda mumkin emas.

O‘qituvchilar 4 yillik universitetlarda va 2 yillik kollejlarda tayyorlanadi. Bu o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga birinchi va ikkinchi darajali guvohnomalar beriladi. Maktab direktori bo‘lish uchun 1-darajali guvohnomaga ega bo‘lish shart. Yapon o‘qituvchilarining jamiyatda tutgan obro‘-e’tibori katta. Binobarin, ularning maoshlari ham yuqori, 74 foiz o‘qituvchi jamoa va kasaba assotsiatsiyasiga a’zo. Bu ularga ta’lim mazmunini va uslubini muhokama qila olish imkoniyatini beradi. O‘qituvchilarning ilk maoshi universitetni tugallagan mutaxassislar maoshi bilan teng. Ular o‘z kasb mahoratlarini takomillashtirish ustida tinimsiz izlanishlar olib boradilar, ishga tushishdan oldin 7-10 kun kunduzgi tayyorlov kurslaridan o‘tadilar.

Oliy ta’lim. Oliy ta’lim sirasiga Yaponiyada universitetlarnigina kiritish mumkin. Universitetlarga katta o‘rta maktablar yoki 12 yillik oddiy dasturda

faoliyat ko‘rsatuvchi maktablarning bitiruvchilari qabul qilinadilar. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu mamlakatda 460 ta universitet bo‘lib, ulardan 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipal, 331 tasi xususiydir. Ularda 1 million 843 ming talaba tahsil oladi. Talabalarning 77,4 foizi yigitlar, 22,6 foizi qizlardir. Aspiranturalarda tahsil olayotgan aspirantlarning bor-yo‘g‘i 12,9 foizi ayollar bo‘lib, ular asosan gumanitar fanlar, san’at, maorif va dorishunoslik sohasida izlanishlar olib boradilar.

Kichik kollejlarda esa ahvol buning tamoman aksi bo‘lib, bu erda erkaklar 10,1 foizni, ayollar 89,9 foizni tashkil etadi. Umuman olganda, qishloq xo‘jaligi va muhandislikdan tashqari barcha fakultetlarda ayollar ham ta’lim oladilar.

Universitetlar o‘zining texnik jihozlanishi, moddiy bazasining bekamu ko‘stligiga qarab ikki toifaga bo‘linadi. 1-toifadagi universitetda har bir o‘qituvchiga 8 nafar talaba, 2-toifadagi universitetda esa 20 nafar talaba to‘g‘ri keladi. 1-toifa universitetlari har jihatdan 2-toifa universitetlaridan ustun turadi.

Kafedralar tarkibiga asosan profsssor, dotsent va o‘qituvchilar kiradi. Kafedra 4 nafar yuqori kurs talabasini bakalavr dasturida, 4 nafarini magistr va 3 nafarini doktorantura dasturida tayyorlashga mas’uldir. Kafedralarda Shy yo‘sinda biriktirilgan talabalar xuddi ilmiy tekshirish guruhlaridagidek faoliyat ko‘rsatadilar. Yapon universitetlariga kirish uchun ikki muhim bosqichdan o‘tish lozim. Birinchi bosqich abiturientlarning turar joyida amalga oshirilib, ular yapon, eski yapon tili, matematika, fizika, ximiya, jamiyatshunoslik, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha test sinovlaridan o‘tadilar. Test sinovi natijalariga ko‘ra, ular qaysi universitetga munosibligi belgilab chiqiladi. Eng yuqori natijalarga erishgan abiturientlar Tokio universiteti, Kioto, Osako, Sapporo universitetlariga qabul imtihonlari topshirishlari uchun yo‘llanmalar beriladi.

Xususiy universitetlar esa, qabul imtihonlarini mustaqil ravishda oladilar. Kirish imtihonlari suhbat tarzida o‘tkazilib, unda ko‘rsatilgan fanlarni bilishdan tashqari tez fikrlash, topqirlik, zukkolik mahoratlari ham sinab ko‘riladi. Bir qator xususiy dorilfununlar o‘z tarkibida maktabgacha tarbiya muassasalariga ham ega. Bunda tarbiyalanuvchilar ta’limning barcha bosqichlarini shu universitetning o‘zida o‘taydilar, pirovard natijada kirish imtihonisiz universitetga qabul qilinadilar.

Universitetlarda tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida kasb nisbati quyidagicha:

Jamiyatshunoslik fanlari 40 foiz;

Texnika fanlari 20 foiz;

Gumanitar fanlari 1-4 foiz;

Psdagogika fanlari 8 foiz;

Qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, tabiiy fanlar 3 foiz;

San’at, ro‘zg‘orshunoslik 2 foiz.

Universitetdan talabalarni haydab yuborish mumkin emas. Chunki, birinchidan, yuqori malakali mutaxassislarning imtihonidan o‘tgan talabalar o‘qib keta oladilar, ikkinchidan, talabalar dorilfununlarda o‘qiganliklari uchun katta miqdorda pul tulaydilar. Universitetlarda 4 yillik o‘qish ayrim talabalar uchun 5, hatto, 6 yilgacha cho‘zilishi mumkin.

Yapon universitetlarida talabalar o‘quv jarayonida 140-150 sinov birligi topshiradilar. Ularda baho mezoni – «a’lo», «yaxshi», «qoniqarli», «qoniqarsiz». Yapon universitetlari asosan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shunga qaramay, Yaponiyada «Universitet kishini bilim va kasbga yo‘naltiradi xolos, uni takomillashtirish, mo‘kammallashtirish kishining o‘ziga bog‘liq» deb hisoblaydilar.

36.5. Turkiya ta’lim tizimlari

Turkiya Respublikasida hozir amaldagi ta’lim tizimlariga turk xalqining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta’lim tizimlari mamlakat Konstitutsiyasi va **«Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqida»gi 179, 208, 385-sonli qonunlarda hamda hukumat dasgurlarida har tomonlama chuqur ifodalangan.**

Respublika Konstitutsiyasining 42-moddasida **«Barcha kishilar ta’lim-tarbiya olish huquqiga egadirlar»** deb yozib qo‘yilgan va fuqarolarning bilim olish xuquqlari kafolatlangan. Turkiya Respublikasida barcha tipdagi ta’lim to‘la davlat nazoratida bo‘lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta’lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas.

Xususiy maktablar ham davlat ta’lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to‘la bajarishga majbur. Boshlang‘ich ta’lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o‘qitiladi. Majburiy ta’limdan so‘ng uning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta’minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta’minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan.

Ta’lim muassasalarida faqat o‘quv-tarbiya ishlari, uni takomillashtirish bilan bog‘liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tilini o‘rgatish mumkin emas. Turkiya milliy maorifi tizimlarining umumiy tuzilishi quyidagicha: ta’lim tizimi bu mamlakatda ikki asosiy qismga bo‘linadi. Ulardan birinchi qismi maktab ta’limi bo‘lib, uning tarkibiga maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich ta’lim, o‘rta va oliy ta’lim kiradi. Uning tarkibi qo‘yidagicha:

1. Maktabgacha tarbiya bosqichiga maktab yoshiga etmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta’lim-tarbiyaning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash, ularni maktab bosqichiga puxta tayyorlab berish, kam ta’minlangan o‘quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to‘g‘ri va chiroyli gapirishni o‘rgatishdan iboratdir.

2. Boshlang‘ich maktabda esa bolalar 6 yoshdan 14 yoshgacha ta’lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi; a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo‘lib kamol topish, bilimli bo‘lish, uni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o‘rgatish; b) har bir turk farzandiga qiziqish, qobiliyati va iste’dodlariga ko‘ra ta’lim berish, ularni hayotga, o‘qishning keyingi bosqichlariga puxta tayyorlashdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim muassasalari maktabgacha tarbiya bosqichidan so‘ng ikki qismga: 5 yillik boshlang‘ich va 3 yillik o‘rta maktablar bosqichiga bo‘linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o‘quvchilarga attestat beriladi. Bu ikki

bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasida yoki alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkin.

Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarda maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo‘lmagan tumanlarda esa bu ta’lim bosqichi internatlar tipidagi o‘quv muassasalari shaklida amalga oshiriladi.

3. O‘rta ta’lim boshlang‘ich ta’limga tayanib, kamida uch yillik ta’lim beruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta’lim muassasalarini o‘z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi barcha o‘quvchilarga umumiy o‘rta ta’lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolarini o‘rgatish, ularni oliy ta’lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdir. Bu maqsadlar o‘rta umumiy ta’lim, turli dasturlarda kasb-kor o‘rgatuvchi texnikqurilish qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi. O‘quvning har bir bosqichi bo‘yicha alohida-alohida dasturlar mavjud. Bu dasturlar quyidagilardir:

- ta’limning Oliy bosqichiga tayyorlash dasturi;
- kasbga va oliy ta’limga taysrlash dasturi;
- hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash dasturi va hokazolar.

Litseylar o‘z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko‘ra quyidagicha ixtisoslashtirilganlar:

- umumiy litseylar – o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlaydi, o‘qish 3 yil;
- fan lideylari – alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o‘quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, o‘qish 5 yil;
- kichik litseylar – kunduzgi litssylarda o‘qish imkoniyati bo‘lmaganlar uchun, o‘qish 4 yil;
- kasb-hunar litseylari – o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari bo‘yicha turli kasb-hunar o‘rgatadi, o‘qish muddati 3 yil;
- nafis san’at litseyi – ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo‘limlarga ega;
- o‘qituvchilar litseylari – boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha o‘qituvchilar tayyorlaydi. O‘qish muddati 1 yil tayyorlov kursini hisobga olganda 4 yil;
- tijorat va turizm ta’limi litseylari – maishiy xizmat ko‘rsatish, savdo, umumiy ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi;
- diniy ta’lim maktablari — imom-xatib hamda din darsini o‘tuvchi o‘qituvchilar tayyorlaydi;
- maxsus ta’lim maktablari – ular korrektsion maktablar bo‘lib, jismoniy-aqliy jihatdan nuqsoni bor bolalar uchun mo‘ljallangan;
- texnik litseylar — o‘quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasbhunar ta’limini beradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san’at o‘rta maktablari, qizlar, o‘g‘il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4. Oliy ta’lim – mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiytadqiqot ishlari olib borishga qodir kishilarni etishtirib boradi. Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo‘yicha hozir 235 universitetlar va oliy texnologik institutlar ishlab turibdi. Bu universitetlardan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidadir. Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub

kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta’lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o‘qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,236 ta o‘qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to‘lanadi.

Turkiya hukumati **“Milliy maorifining asosiy Qonuni”**da maktab ta’limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta’limga ham katta e’tibor berilgan.

Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o‘qish va yozishga o‘rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarni bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bunday muassasalar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hastning ilmiy, tsxnologik, iqtisodiy, madaniy hayotga to‘la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, mtmlar turli sohalarda mehnat qilayotgan kishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug‘diradi. Turkiya Rsspublikasida maktabdan tashqari ta’lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo‘lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo‘nalishidir.

Ularning sohalar bo‘yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta’lim dasturlari;
2. Kasb-hunar, texnik ta’lim dasturlari;
3. Shogirdlik va ustalik ta’limi dasturlari;
4. Ochiq ta’lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san’at maktablari, qizlar amaliy san’at maktablari, etuklik institutlari va etuklik texnik ta’lim markazlari ham kiritilgan. Shuningdek, keyingi yillarda o‘quvchilar va talabalarning bo‘sh vaqtlarini ko‘ngilli va sermazmun o‘tkazishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu maqsadda til o‘rgatish markazlari musiqa, xalq o‘yinlari, foto, teatr studiyalari, Shaxmat-shashka klublari, turli sayohatlar uyushtirish, lagerda dam olishni tashkil qilish, hamshiralik, rassomchilik to‘garaklari yo‘lga qo‘yilayotir, ular orqali turli tanlovlar o‘tkazish amalga oshirilmoqda.

Talabalar va o‘quvchilar uchun sportning turli sohalari bo‘yicha sektsiyalar tashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo‘yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqda. Qizlar uchun esa qo‘lda to‘qish, bichish-tikish, pazandalik yo‘nalishlaridagi to‘garaklar mavjud. Ular tomonndan to‘qilgan, tikilgan va tayyorlangan mahsulotlar har yili anqaradagi katta ko‘rgazmada namoyish etiladi.

36.6. Fransiyada ta’lim tizimlari

Fransiya jahondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida etakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Uning ta’lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda **«Ta’lim haqida»**gi Qonun dastlab 1955-yilda qabul qilinib, 1975-yilda unga bir qator o‘zgarishlar kiritildi.

Fransiya davlatining hozirgi davrida amal qilayotgan **«Ta’lim haqida»**gi Qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo‘lib, uning o‘zgartirilishi ta’lim strategiyasida ro‘y bergan o‘zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatidagi islohotlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg‘or

tajribalarning mamlakat ta’lim tizimlariga kirib kelishi, o‘quv predmetlaridagi integratsiyalar sabab bo‘ldi.

Fransiyada ta’limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o‘quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o‘rgatish, shunga yarasha kasbkorga ega qilishdan iboratdir. Mamlakatda maktablar davlat, xususiy, oraliq maktablariga bo‘linadi. O‘qitiladigan predmetlar ichida frantsuz tili va adabiyoti, o‘qish va yozuv alohida ahamiyatga molik bo‘lib, ularga ajratilgan vaqt dars «tarkib»ining 30 foizini tashkil etadi. Umuman, «tarkib»dagi 45 foiz darslar gumanitar yo‘nalishda, qolganlari tabiiy fanlardir. Sinflarning o‘rtacha haftalik darslari 26 soatdan iborat, darslarning davomiyligi esa 60 minut, sinflardagi bolalarning o‘rtacha soni 35-40 ta, o‘quv yili 5 chorakka bo‘linadi. Boshlang‘ich sinflardagi o‘qish ertalab va tushdan keyin o‘tkaziladi. Ertalab o‘quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshqa predmetlardan saboq oladilar. Fransiya maktablarida ona tili va adabiyoti hamda matematika baza predmetlari, tarix, geografiya, mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya predmetlari esa rivojlantiruvchi predmetlar hisoblanadi.

Ta’lim tizimlari. Fransiya ta’lim tizimining dastlabka bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni «Onalar maktabi» deb ham yuritiladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad, bolalarning maktabdagi sharoitini uy sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Ular mustaqil holda ham, maktablarning boshlang‘ich sinflari bazasida ham tashkil etilgan. Fransiya ta’limida bolalarning go‘daklik chog‘idanoq maktabda o‘qitish uchun tayyor holda olib kelish g‘oyat muhim masala hisoblanadi. “Onalar maktablari” bazasida tashkil etilgan maktabgacha tarbiya shahobchalarida tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh 2 yoshdan 4 yoshgacha;
- o‘rta guruh 4 yoshdan 5 yoshgacha;
- katta guruh 5 yoshdan 6 yoshgacha.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo‘lib, ularga Fransiyada 100 foiz shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Boshlang‘ich ta’lim. Fransiyada boshlang‘ich ta’lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalar jalb qilinadilar. Boshlang‘ich maktablar fuqarolarning qanday millatga, mamlakat fuqaroligiga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, majburiy va bepuldir. Boshlang‘ich maktab bosqichiga qo‘yilgan asosiy talab o‘quvchilarga ifodali o‘qish, yozish, hisoblash malakasini berishdan iboratdir.

Fransiya ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan chet el fuqaroligiga mansub kishilarning farzandlariga ularning tabiatini, xalqi, tarixi, tili va adabiyotini o‘rganish uchun fakultativ kurslar tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish muddati 5 yil bo‘lib, shu muddat ichidagi o‘qish asosan 3 bosqichga bo‘linadi: — Tayyorlov bosqichi – 1 yilga mo‘ljallangan. Bunda bolalar hisoblashga, o‘qish va yozishga, kuylashga, o‘ylashga, tabiat manzaralarini tomosha qilishga va undan bahra olishga, jismoniy

mashqlar bilai mashg‘ul bo‘lishga, maktabning turli sport tadbirlarida ishtirok etishga, musiqa, mehnat qilishga o‘rgatiladilar. O‘quv mashg‘ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha, hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin ovqatlar juda arzonlashtirilgan narxlardadir. Navbatdagi bosqich – elementar kurs bo‘lib, bu bosqich 2 yil davom etadi. Bunda o‘quvchilarning tayyorlov tsiklida predmetlar bo‘yicha olgan bilimlari yanada takomillashtiriladi. Tayyorlov bosqichida bir o‘qituvchi ishlasa, elementar bosqichda ikki o‘qituvchi (har biri 1 yildan) ishlaydi. Boshlang‘ich maktabning 3 bosqichi – chuqurlashtirish bosqichidir. Bunda o‘quvchilarning tayyorlov va elementar bosqichdagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi.

Dasturlarda o‘quv predmetlarining barchasiga uch bosqich bo‘yicha aniq, alohidaalohida talablar qo‘yiladi. Masalan:

O‘qish

I bosqichda o‘quvchi:

- bosmadan chiqqan barcha nashrlarni (kitob, gazeta, jurnal, lugat, e’lon, xat va hokazo) bir-biridan ajrata olish;
- xatni o‘qish tamoyillarini (satr boshi, sarlavha, bob, betlarning ketma-ketligi) o‘rganib olish;
- matn tarkibini (nutq, asosiy qism, xulosa) aniqlay olish;
- mustaqil mashg‘ulotlarda kitoblardan, lugatlardan foydalana olish.

II bosqichda:

- o‘qilgan mazmunini elementar bayon qilib bera olish;
- kitob mavzuida ishtirok etgan shaxslarni aniqlash, nomini bilish, tasvirlab berish;
- sintetik tahlil qila bilish (urg‘u, tinish belgilari).

III bosqichda:

- ifodali, tez va aniq, ovoz chiqarib hamda o‘zicha o‘qish, o‘qish qoidalarini to‘la shakllantirish, savollarga og‘zaki va yozma ravishda javob qaytarish, mavzuli rasmlarni izohlab berish;
- matndagi noaniq so‘zlarii aniqlash va uni tez tarjima qilishni bilish;
- sinf kutubxonasini tashkil etishda ishtirok etish;
- bayon qilingan axborotni tinglash va to‘gri qabul qilish;
- so‘zlarni og‘zaki va yozma fonetik tahlil qilib berish;
- kitobdan va lugatli adabiyotlardan mustaqil ishlash jarayonida to‘la foydalana olish;
- soddalashtirilgan matnlar bilan ishlashni bilish.

Yozuv. Yozuvga qo‘yilgan talab uch saviyada belgilanadi; yozuv texnikasini o‘rganish, yozuvda qalam, ruchka, bo‘rda ishlashni bilish, chiziqlarga to‘la rioya qilish, yozma va bosma harflarni farqlash, xatolar ustida ishlash malakasini egallash lozim. Yozuv bo‘yicha o‘quvchi III-bosqichda inshosi shakllangan, tasviri mazmunli, yozuv texnikasini mukammal o‘zlashtirgan, ifodada aniq izchillikka ega bo‘lmogi darkor.

Oliy ta’lim. Frantsuz yoshlari, Fransiyaga bilim olish uchun kelgan chet el fuqarolari quyidagi bilim maskanlarida oliy ma’lumot oladilar:

- universitetlar;

- oliy texnologiya maktablari;
- oliy muhandislik maktablari;
- oliy arxitektura maktablari;
- oliy tijorat maktablari;
- siyosiy fanlar oliy maktabi;
- oliy pedagogik va filologiya bilimgohlari;
- oliy tibbiyot o‘quv muassasalari;
- oliy badiiy maktablar;
- uzluksiz ta’lim (malaka oshirish oliygohlari va hokazolar).

Oliy ta’lim beruvchi universitetlar o‘z talabalariga uch tsiklda bilim beradilar. Birinchi tsikl umumiy yoki biror texnik yoki ilmiy sohada oliy ma’lumot olish bilan yakunlanib, o‘qish ikki yil davom etadi. Ikkinchi tsiklda o‘qish bir yil davom etadi. Talabalar unigetriz, magistr darajalari bilan yakunlaydilar. Uchinchi siklda o‘qish birikki yil davom etadi. Bu siklda:

- biron-bir predmetni chuqurlashtirib o‘rganilganligi haqida diplom (bir yil);
- ixtisoslashtirilgan oliy ma’lumot to‘g‘risida diplom (bir yil);
- uchinchi tsikl doktorlik dissertatsiyasi (bir, ikki yil);
- davlat doktorlik dissertatsiyasi – biron-bir sohani mukammal o‘rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy professional ta’lim berish keyingi 20 yil davomida qaror topdi. Bu – qisqartirilgan maxsus ta’lim bo‘lib, unda o‘qish ikki yil davom etadi. O‘quv univsrsitetlar yoki texnik litseylarda amalga oshiriladi. Uning bitiruvchilari ishlab chiqarish sohasida, xizmat ko‘rsatish sohasida va boshqa sohalarda rahbarlik lavozimlarida ishlaydilar. Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O‘qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko‘zda tutilgan.

Fransiyada mingdan ortiq ana shunday institutlar faoliyat ko‘rsatib, ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, san’at, informatika, ma’muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san’at bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday institutlarga kirish imtihonsiz amalga oshiriladi. Uning bitiruvchilari ishlab chiqarish sohasida, xizmat ko‘rsatish sohasida va boshqa sohalarda rahbarlik lavozimlarida ishlaydilar.

Fransiyada oliy ma’lumot va ixtisos beruvchi oliy texnologik institutlar mavjud. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko‘rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashtirilgan. O‘qish muddati 2 yil bo‘lib, darslar haftasiga 30-35 soatni tashkil etadi. O‘qish davomida 8 haftalik ishlab chiqarish amaliyoti ham ko‘zda tutilgan. Fransiyada mingdan ortiq ana shunday institutlar faoliyat ko‘rsatib, ular qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, san’at, informatika, ma’muriy boshqaruv, buxgalterlik hisobi, amaliy san’at bo‘yicha mutaxassislar tayyorlaydilar. Bunday institutlarga kirish imtihonsiz amalga oshiriladi.

36.7. Germaniyada ta’lim tizimlari

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohaning barcha tarmoqlari kabi xalq ta’limining chet mamlakatlar ta’lim muassasalari bilan hamkorligi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa, Germaniya ta’lim vazirligi va o‘quv tarbiya jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro aloqalar tez rivojlanib bormoqda. Garchi vazirliklar darajasida bitimlar imzolanmagan bo‘lsa-da, «Nemis xalqaro rivojlanish fondi», «Adenauer jamg‘armasi», «Gyote instituti» bilan munosabatlarning o‘rnatilishi Respublikamiz istiqloli bilan tengdoshdir. Shu munosabatlar doirasida ssminarlar, konferentsiyalar, darsliklar, ko‘rgazmalar, o‘zaro ta’lim sohasida tajriba almashtirishlar bo‘lib o‘tmoqda. Ayni paytda bu hamkorlikning yangi-yangi shakllari izlanmoqda. Ta’kidlab o‘tish joizki. Germaniyaning bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘li bizning Respublikamizdagiga o‘xshab ketadi. Ikki German davlati birlashgandan keyin sobiq Germaniya Demokratik Respublikasida ta’limni isloh qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ham bizning sharoitimizga mos va maqbul keladi.

Germaniyaning hozirgi davr ta’lim tizimidagi asosiy muammosi sobiq gdrdagi ta’limni bir xil milliy me’yorga solishdan iboratdir. Buning uchun to‘la imkon bor Zotan, Germaniyada shakllangan ta’lim tizimi, mazmun va uslublari, qaror topgan, xodimlar tayyorlash va qayta tayyorlash tamoyili mavjud.

Asosiy vazifa sobiq gdrdagi ta’lim tuzilmasini yangi me’yorga va o‘lchovga tushirish, oddiygina usul bilan gfrdagi ta’lim tizimiga o‘tkazib qo‘yishdan iborat. To‘g‘ri, bu «oddiygina» ishning o‘ziga xos muammolari ham bor. Birinchi muammo ta’limdagi bu o‘zgarishni amalga oshirish uchun mablag‘ning etishmasligi bo‘lsa, ikkinchisi sobiq gdrdagi pedagogik jarayon ishtirokchilarining bu «to‘ntarish»ga munosabati masalasidir. Ta’limni mazmunan va usluban ta’minlash, boshqarishni tashkil etish va uning tarkibini tubdan o‘zgartirishga esa dolzarb zaruriyat ham yo‘q.

Avvalambor shuni ta’kidlash kerakki, Germaniyada ta’lim davlat va jamiyat tomonidan e’tibor berilayotgan soha bo‘lib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishga barakali hissa qo‘shib kelmoqda.

Maktabgacha tarbiya. Maktabgacha tarbiya Germaniya ta’lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bu mamlakat maktabgacha tarbiya tizimi barcha german elatiga kiruvchi xalqlar uchun ham umumiydir. Ta’kidlash kerakki, garchi bolalar bog‘chalari ta’limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta’lim tizimi tarkibiga kirmaydi. Eski erlardagi (sobiq gdrga kirmagan erlar) 24000 dan ortiq bog‘chalarni mablag‘ bilan ta’minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Lekin ota-onalar bolalar bog‘chalariga o‘z farzandlarini tarbiyalaganliklari uchun ancha miqdorda pul to‘laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80 foizi bolalar bog‘chalariga qatnaydilar.

Bolalar bog‘chalarida ta’lim tabaqalashtirib olib boriladi. Bu mamlakat tarkibiga kirgan sobiq Germaniya Demokratik Respublikasida 95 foiz bolalar bogchalarga tortilgan bo‘lib, u erda bolalar 3 yoshga to‘lguncha yaslilarda tarbiyalanganlar. Albatta, sobiq gdrda maktabgacha tarbiya muassasalarining

barchasi davlat tasarrufida bo‘lgan. Sharqiy Germaniyada maktabgacha tarbiya muassasalarining keng tarmoqli bo‘lishi ko‘pchilik onalarning ijtimoiy mehnat faoliyati bilan bog‘liq edi.

Germaniya bolalar bog‘chalarida odatda bolalar tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo‘ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog‘chalar ham mavjud.

Maktab ta’limi. Majburiy ta’lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga tegishli, ya’ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba’zi bir yerlarda 10 yil) maktabda to‘la haftalik o‘qishini bitiradi, keyin hunar-texnika bilim yurtida to‘la bo‘lmagan haftalik o‘qishida o‘qiydi. O‘qish davlat maktablarida tekin. Maktab o‘quvchilariga o‘quv qo‘llanmasi, asosan darsliklar tekin ta’minlanadi. Ta’lim dastasini turli tashkilotlar, fondlarning xususiy maktablari to‘ldiradi, ularga mahalliy hokimiyat tegishli moliyaviy yordamini beradi. Ammo davlatga tegishli bo‘lmagan xususiy maktablar mamlakatda juda ham ozchilikni tashkil etadi.

Boshlang‘ich maktab. O‘qish 6 yoshdan boshlanadi va 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil). Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, dastlabki ikki yil o‘qish, davomida bolalarga baho qo‘yilmaydi, ularga umumiy xarakteristika berish bilan kifoyalaniladi. Boshlang‘ich maktabda to‘la to‘rt yillik o‘qishdan keyin o‘quvchilar yo‘nalish bosqichidagi maktabga o‘tadilar. Bu erda 5-6 sinf bosqichdagi yo‘nalish maktab tipiga bog‘liq yoki bog‘liq bo‘lmagan holda maxsus dastur asosida o‘qitiladi, bunda bolalarning ota-onalari maktab tipini tanlash yoki o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keyin bolalar navbatdagi maktab tipiga ko‘chadilar: bular – **asosiy, maxsus maktab** (rivojlanishda kechikkan anomaliya holatda bo‘lgan bolalar uchun), **real bilim** yurti (matematika va tibbiy fanlar o‘qitiladigan o‘rta o‘quv yurti); **gimnaziya;umumta’lim** maktablari va h. k).

Deyarli 30 foiz bola 1-bosqichni tugatgandan keyin asosiy maktabga o‘tadi. 9 yoki 10 yillik o‘qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o‘tiladi (va 18 yilga qadar parallel ravishda bilim yurtida o‘qiydi). Asosiy maktabni muvaffaqiyatli tugatganlar hunarmandchilik va sanoat korxonalarida turli kasbni egallashlari mumkin. Asosiy maktab dasturi yilma-yil tahlil qillnganda o‘qishga bo‘lgan talab to‘xtovsiz oshib borayotganligini kuzatdik. Bu ayrim fanlardan dars o‘tilganda hajmini oshirish va mazmunda soddadan murakkabga borish orqali amalga oshiriladi. Ayrim predmetlar bo‘yicha ijtimoiy talablarga muvofiq ish hajmi qayta taqsimlanadi. Masalan, maktabda hamma xorijiy til (asosan ingliz tili)ni o‘rganadi, mehnat darsi o‘tiladi, ta’limning tarbiyaviy jihatlariga ahamiyat beriladi. Bunda, chet tilini o‘rganayotganda o‘quv materialini «ilgor» va «taqsimlangan» metodlaridan foydalaniladi (masalan, 5-6 sinflarda til har kuni o‘rganiladi, keyinchalik chet tillarining birida alohida o‘quv predmetini o‘qitish boshlanadi).

Real bilim yurti asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o‘rtasida turadi. Qoidaga ko‘ra bu erda o‘qish 6 yil davom etadi (5-sinfdan 10-sinfgacha) va to‘la o‘rta ma’lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatuvchilar maxsus o‘rta o‘quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o‘qish huquqiga ega bo‘ladi. Iqtisodiyot yoki davlat xizmatida o‘rtacha mansabni egallash

uchun real bilim yurtini tugallash zarur. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ja’mi o‘quvchilarning taxminan 30-35 foizi o‘rta ma’lumot darajasiga ega bo‘ladilar.

To‘qqiz yillik gimnaziya (o‘qish 5-13 yillik) Germaniyadagi yuqori bosqich, an’anaviy maktab hisoblanadi. Ilgarigiday alohida predmetlarni o‘qitiladigan (matematika, fizika, til va boshqalar) gimnaziya hozir deyarli yo‘q. Odatda gimnaziyada isloh qilingan yuqori bosqich (11-13 o‘quv yili) mavjud bo‘lib, bunda kurs tizimini oddiy sinf tizimi bilan almashtirilgan. Bu kurslar o‘quvchilarni qiziqtiradigan predmetlar bilan mashgulot o‘tkazishga imkon yaratish maqsadida kiritilgan. Bu ularni oliy o‘quv yurtiga kirib o‘qishlarini osonlashtiradi. Islohot qilingan yuqori bosqich gimnaziyasidan tashqari yana maxsus tipdagi, masalan, iqtisodii, politexnikaga oid va boshqa gimnaziyalar ham mavjud. Gimnaziyani bitirganlik to‘grisidagi etuklik attestati oliy o‘quv yurtida o‘qish imkoniyatini beradi. Aytish kerakki, institutga kirish istagini bildirganlar soni keskin ko‘payib ketganligi munosabati bilan qabulga ma’lum cheklashlar kiritildi.

Germaniyada o‘z vaqtida ta’lim ola olmagan katta yoshdagilar uchun bilim olishga imkoniyat yaratib qo‘yilgan. Kechki gimnaziyada sanoat, qishloq xo‘jaligi, maishiy xizmat va boshqalarda ishlaydiganlar, 5-6 yil davomida o‘quv kursini o‘tganidan keyin etuklik attestati olish uchun imtihon topshiradilar. Shunday yo‘l bilan kechki maktablarda asosiy maktab yoki real bilim yurtlarini bitirganlik to‘g‘risida guvohnomaga ega bo‘lishlari mumkin. Germaniyada maktab ta’limi tizimi doim rivojlanishda va o‘quv yurtlarining yangi shakli va tiplari izlanmoqda. Bu ayniqsa, sobiq gdrga tegishlidir, ilgari bu erda ta’lim tizimi davlatga qarashli va majburiy edi (o‘quv dasturini g‘oyaviylashtirish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash asosida 2 va 4 bosqichli maktabga o‘tish imkoniyatlari izlanmoqda; rivojlanish va tarbiya jarayoni, topshiriqni kamaytirish va boshqalarga suyanib yangi mazmundagi maktab ta’limini joriy qilish va h. k.).

Hunar-texnika ta’limi. Hunar-texnika ta’limi Germaniya ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Buning sababi, Germaniyada yuqori malakali ishchilarga bulgan talabning kuchliligidir. Yuqori malaka – insonning jamiyatda mustahkam va ishonchli o‘rin egallashini ta’minlaydi, unga mehnat bozori talablari o‘zgargan taqdirda ham ishga joylashish imkoniyatlarini yaratadi. Rivojlangan bozorning qattiq sharoitlarida shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan yuqori darajadagi intilishi sababli to‘liqsiz o‘rta maktabni bitiruvchilarning (9- 10- sinflar) 79 foizi, to‘liq o‘rta maktabni bitiruvchilarning esa 20 foizi hunar ta’limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Germaniya hunar-texnika ta’limi tizimi turli tipdagi o‘quv yurtlari va o‘qitishning turli shakllariga ega. Eng ko‘p tarqalgan va rivojlangan shakli hunar ta’limining «Dual» tizimidir. Bu tizimda tayanch maktablarining 50 foizi va to‘liq o‘rta maktablarining 16 foizi o‘qishni davom ettiradi.

Maxsus hunar bilim yurtlari va o‘rta maxsus bilim yurtlariga bu mamlakat tayanch maktablarining 25 foizgacha bitiruvchilari kiradilar. Bu turdagi o‘quv yurtlarining bitiruvchilari texnika oliy o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Shu bilan birga maxsus gimnaziyalar va ustqurma maktablar ham mavjuddirki, ularda to‘liq o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan o‘quvchilar hunar o‘rganishlari mumkin. Ta’limning tashkiliy shakllari va uning mazmuniy asosi

federal qonunlar va normativlar bilan mustahkamlangan. Lekin Germaniyada federal erning har biri, ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishining xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘zlarining qonunlari bilan ularga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin.

Xalq universitetlari. Xalq universitstlariga xixasr oxirlarida Skandinaviya namunasiga ko‘ra asos solindi. Uning ham amaliy, ham nazariy ahamiyati bor. Germaniya Federativ Rsspublikasining garbiy qismida qariyb 85 ta xalq universitetlari bo‘lib, joylarda ularning 3800 filiallari ham ishlab turibdi. Ular asosan jamoa, tuman yoki ro‘yxatdan o‘tgan jamiyatlar tasarrufidadir. Viloyatlar ularni pul mablag‘i bilan ta’minlab turadilar. Xalq universitetlarining ko‘pchiligi kechki, ularni internat xalq universitetlari to‘ldiradi. Xalq universitetlarida har yili 900 000 gacha kurslar tashkil etilib, 4-5 million o‘quvchi malaka oshiradilar.

Davlat malaka oshirganlarni rag’batlantiradi va bu maqsad uchun har yili 5,5 mln. Marka mablag‘ ajratadi. Malaka oshirish kurslarida o‘qish davrida o‘quvchilarga mablag’ bilan moliyaviy yordam beradilar. Kurslar va o‘quv qo‘llanmalari xarajatlari to‘la yoki qisman davlat tomonidan to‘lanadi. Asosan ishsizlar o‘z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanadilar va bu bilan ish topishlari tezlashadi. Yarim yil davomida malaka oshirish kurslarini tugatganlarning 75 foizi ish bilan ta’minlanadi. Xalq universitetlarida taklif qilingan o‘quv yo‘nalishlari xilma-xildir. Malaka oshirish sohasida kasaba uyushmalarining ham dastur-lari turli-tumandir. Xalq universitetlari nemis kasaba uyushma birlashmalari, ishchilar birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar. «Mehnat va hayot» – bu erda ishchilar yaa xizmatchilar korxona Nizomiga muvofiq sug‘urta va mehnat huquqi doirasida iqtisodiy va ijtimoiy siyosat kurslarida va boshqa kurslarda o‘qishlari mumkin. Korxonalar kengashi a’zolari, xodimlari va boshqa funktsionerlar maxsus akademiyalarda malaka oshiradilar.

36.8. Niderlandiyada ta’lim tizimlari

Niderlandiya mamlakatida ta’lim qanday yo‘lga qo‘yilganligini talabalarga bayon qilishni boshlashdan oldin, ularga bu ajoyib mamlakat to‘grisida ba’zi ma’lumotlarni berish maqsadga muvofiqdir. Niderlandiyaning er maydoni 42 ming kmg‘kv bo‘lib, unda 15 million aholi istiqomat qiladi. Uning Shimoliy dengiz bo‘yida uch daryo Reyn, Maasa, Sxelde dengizga quyilish joyida joylashganligi, Niderlandiyaga katta geografik qulaylik tug‘diradi. Shu tufayli ham aholining katta qismi kemasozlik, turizm, tranzit yuklarni kemalar bilan tashib bsrish bilan band. Ishga yaroqli aholidan 6 millioni yoki 67 foizi maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida, 28 foizi sanoatda, 5 foizi qishloq xo‘jaligi va baliqchilik xo‘jaliklarida mehnat qiladi. Davlat tuzimida konstitutsion monarxiya, uning o‘z parlamenti ham faoliyat ko‘rsatadi. Bu mamlakat 12 viloyatdan tashkil topgan, poytaxti Amsterdam shahridir. Niderlandiya kichik mamlakat bo‘lsada, lekin xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda faol ishtirok etadi. Hozirgi Birlashgan millatlar tashkilotining o‘tmishdoshi bo‘lgan millatlar ligasi aynan birinchi bor Niderlandiyada tashkil etilgan edi. Bu mamlakatda 1899, 1907-yillarda xalqaro tinchlik konferentsiyalari bo‘lib o‘tgan. **Hozir xalqaro arbitraj, xalqaro sud shu mamlakatning Gaagra shahrining Tinchlik saroyida joylashgan.**

Uning siyosati tinchlik siyosatidir. U xalqaro tinchlikni saqlash tashkilotlarining a’zosi, tinchlik forumlarining barchasida faol qatnashadi. U BMT, NATO, EES, Evropa iqtisodiy hamjamiyatining faol a’zosidir.

Niderlandiya ta’lim tizimlarining shakllanish davri 1789-yilda frantsuz revolyutsiyasi, ya’ni inqilobi natijasida paydo bo‘lgan Bativ Respublikasi davriga to‘g‘ri keladi. Hozirgi paytda mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, Shu jumladan, xrestian yoki katolik cherkovlari tamonidan tashkil etilgan. Bu mamlakatda ta’lim tizimi 7-3-2-shakldadir. Boshlang‘ich ta’lim maktabgacha tarbiya bilan qo‘shilgan. Uning shakli quyidagi bosqichdadir:

- boshlang‘ich ta’lim;
- o‘rta ta’lim;
- maxsus ta’lim;
- oliy ta’lim;
- chet elliklar uchun ta’lim.

Boshlang‘ich ta’lim

Boshlang‘ich maktab 4-12 yoshli bolalarga mo‘ljallangan. Bolalar 4-5 yoshlarida maktabga keladilar. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish haftasiga 5 kun. Bolalar 8 dan 15 gacha maqtabda bo‘ladilar. Mashg‘ulotlar o‘yin shaklida amalga oshiriladi, dars soatlari chegaralangan emas. Golland maktablarida 15, 20, 30, 40 minutlik darslari o‘tiladi. Soat 12 dan 13.30 gacha tushlik tanaffus. Bu paytda bolalar uylarida ovqatlanib keladilar. O‘qituvchilar uchun tushlikda 45 minut tanaffus beriladi. Mashg‘ulotlar aksariyat potok bo‘yicha amalga oshiriladi.

Bu mamlakatda 4 yoshdan kichik bolalar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari yo‘q. Bolalar yaslilari ham bor, lekin ular ta’lim vazirligi tasarrufida emas. Boshlang‘ich maktabning dastlabki ikki yili o‘quv o‘yin rejasida bolalarni o‘qishga, yozishga, hisoblashga, rasm solishga, qo‘l mehnatiga o‘rgatish ko‘zda tutilgan. O‘quvning keyingi 6 yillik bosqichida bolalarga niderlaid tili, matematika, yozuv, tarix, gsografiya, fizika, jamiyatshunoslik fanlaridan dars o‘tiladi. Maxsus maktablarda ilohiyot darslari o‘qitiladi. Boshlang‘ich maktab o‘quvining so‘nggi bosqichida bolalarga ingliz tilidan dars beriladi. Boshlang‘ich sinfni bitirganlik haqida o‘quvchilarga maxsus hujjat berilmaydi.

Bolaning boshlang‘ich maktabdagi bilimi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga qarab ota-onalar o‘rta maktabni tanlaydilar.

O‘rta ta’lim. Niderlandiya maktablarida o‘rta ta’lim:

- umumiy o‘rta ta’lim;
- umumiy ilmiy o‘rta ta’lim;
- hunar-texnika ta’limi va hokazolardan tashkil topgan.

O‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim o‘qish muddati 4 yil bo‘lgan o‘rta va o‘quv muddati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo‘linadi. Tayyorlov bosqichi hisoblangan ilmiy o‘rta ta’lim ham ikki ko‘rinishga ega: gimnaziya va atensum deb ataladigan tipga bo‘linadi. Har ikki ko‘rinishda ham o‘qish muddati 6 yil. Tayyorlov ilmiy o‘rta ta’lim oliy ilmiy o‘quv yurtlariga kiruvchilarni yetishtirib chiqaradi. Hunar-texnika (ularda hunar-texnika) ta’limi quyi hunar-texnika ta’limi,

o‘rta va oliy hunar-texnika ta’limidan iborat uch bosqichdan iborat. O‘quvchilar o‘quv yurtlariga kirish uchun topshiradigan sinovlari ularning qaysi bosqich o‘quv yurtlariga kirish xohishi va albatta shunga munosib bilim darajasiga qarab belgilanadi. O‘rta ta’lim bosqichi o‘quvchilarga o‘rta hunar-texnika bilim yurtlariga, oliy tip o‘rta maktablari esa oliy toifa hunar-tsxnika bilim yurtlari hamda tayyorlov ilmiy o‘quv muassasalarining bitiruvchilariga universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtiga kirib o‘qish imkoniyatlarini beradi.

Hunar-texnika ta’limi o‘z kasb yo‘nalishiga ko‘ra quyidagicha ko‘rinishda:

- qishloq xo‘jalik ishlari ta’limi;
- iqtisodiyot va ma’muriy ta’lim;
- texnik ta’lim;
- maishiy xizmat va tibbiyot ta’limi;
- ro‘zg‘or yuritish, xalq hunarmandchiligi ta’limi;
- savdo o‘rta ta’limi;
- dengizchilik o‘quv yurti va hokazo.

Niderlandiyada yoshlar 16 yoshga to‘lgunga qadar o‘qishga majbur. Shundan keyin olingan kasb yo‘nalishlarini yanada takomillashtirish, yuqori malakaga ega bo‘lish uchun o‘qishlar yana ikki yil davom ettiriladi. Bunday holda o‘quvchi haftaning bir yoki ikki kunida o‘qishda bo‘lsa qolgan kunlari ishda bo‘ladi. Ta’lim standartlari deganda, gollandiyalik ta’lim mutaxassislari reja va dasturlarni tushunadilar.

Niderland maktablari faqat ta’lim bilan shug‘ullanadilar. Maktablarda oshxonalar va bufetlar yo‘q. Maktablarda ovqatlantirish, qonunbuzarlikni oldini olish ishlari bilan asosan oila, jamoat tashkilotlari mashg‘uldirlar. Maktablarda 60-70 foiz o‘zlashtirishni normal holat deb hisoblaydilar. Qolganlari bo‘sh yoki o‘zlashtirmovchi o‘quvchilardir. Bizning tushunchamizdek, «ikkichilar» Niderlandiyada yo‘q.

Yangi maktab qurilishini loyihalashtirishga qo‘yilgan asosiy talablar quyidagilar:

- sinfda har bir o‘quvchi uchun 6-8 m joy bo‘lishi;
- yorug‘likning me’yorida bo‘lishi;
- har bir o‘quvchiga yetarli maydoshshng mavjudligi (sinfda ham maktab hovlisida ham);
- individual e’tiborning bo‘lishi va hokazo.

Maktablarda devor, tom, derazalar oynavand, yorug‘ va bahavo qurilgan.

Maxsus ta’lim. Niderlandiyaning maxsus maktablarida nogiron, aqli zaif, jismoniy nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar tarbiyalanadilar.

Bunday turdagi maktablar ikki toifaga bo‘linadi: boshlang‘ich, o‘rta. U 8 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lganlar uchun mo‘ljallangan. Bunday o‘quv muassasalariga qo‘yiladigan asosiy talab tszroq ruhiy, jismoniy nosog‘lom bolalarni boshlang‘ich va o‘rta maktabga tayyorlab bsrishni ta’minlashdan iborat.

Oliy ta’lim. Niderlandiyada yoshlar oliy ta’limni universitet va oliy hunar-ta’limi bilim yurtlarida oladilar. Hozir mamlakatda 8 universitet va 5 ta oliy o‘quv yurti ishlab turibdi. Leyden universiteti eng to‘ng‘ich oliy o‘quv yurti hisoblanib 1575-yilda Vslgslm Oranskiy tomonidan tashkil etilgan. Barcha universitetlar

va oliy o‘quv yurti davlatnikimi yoki xususiyligidan qat’iy nazar, rivojlanish nuqtai nazaridan bab-barobar imkoniyatga va statusga egadirlar.

Oliy o‘quv yurtlari davlat tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanadi. Niderlandiyada 7 ta diniy oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ular qisman davlat tomonidan va qisman diniy muassasalar tomonidan ta’minlanadi. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich 4 yil, zarur bo‘lsa 6 yil davom etadi. Mazkur bosqich ta’limi tugagach, bitiruvchilar fan nomzodilik darajasi uchun imtihon topshiradilar. Oliy o‘quv yurtlarining ikkinchi bosqichiga heklangan miqdordagi qobiliyatli talabalar o‘tkazilib 2-3 yil davomida doktorlik ilmiy darajasi uchun dissertatsiya yozadilar va himoya qiladilar.

Oliy hunar-ta’limi quyidagi shaxobchalarga bo‘linadi:

- oliy iqtisodiy va ma’muriy ta’lim;
- uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik yuritish oliy ta’limi;
- oliy qishloq xo‘jalik ta’limi;
- oliy savdo ta’limi;
- oliy ijtimoiy-pedagogik ta’lim;
- oliy tibbiy ta’lim;
- oliy texnik ta’lim;
- oliy badiiy ta’lim;
- oliy pedagogik ta’lim.

36.9. Hindistonda ta’lim tizimlari

Hindistonda maktabda 1-8-sinfgacha boshlang‘ich, 8-10-sinfgacha yuqori sinflar va 11-12-sinfgacha bitiruvchi sinflar tahsil oladilar. Yuqori sinflar o‘tilgan darslar yuzasidan bir oyda bir marta imtihon topshiradilar. 10-12-sinf o‘quvchilari o‘quv yili oxirida davlat imtihoni topshiradilar. 1-sinfdan 8-sinfgacha urdu, ingliz va frantsuz, 9-dan 10-sinfgacha urdu va ingliz tillari, 11-, 12-sinflarda esa faqat ingliz tili o‘qitiladi. Bu yerda davlat tili ham ingliz tilidir. Shu sabab bu til mahalliy tillardan chuqurroq o‘qitiladi. Maktabda 35 ta sinf bo‘lib, har bir sinfda 35-40 nafar o‘quvchi tahsil oladi. Darslar ertalab soat 7:00 dan kech soat 16:00 gacha davom etadi. O‘quvchilar maktabda har kuni Shifokorlar tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Maktab shaxsiy, unda o‘qish pulli. Ota-onalar farzandlarining tahsil olishlari uchun oyiga 3000 rupiydan pul to‘lashadi. Ahamiyatlisi, ma’muriyat kam ta’minlangan oilalar farzandlarining ham shu maktabda o‘qishi uchun imkoniyat yaratib bergan. O‘quvchilarning yigirma foizini kam ta’minlangan oilalarning o‘g‘il-qizlari tashkil etadi. Ular maktab hisobidan o‘qitiladi. O‘quvchilar maktabda 10-sinfgacha umumta’lim fanlarini o‘qishadi. 11- 12-sinflarda esa ma’lum bir yo‘nalish asosida o‘zlari xohlagan mutaxassislik bo‘yicha tehsil oladilar. Maktablarda ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo‘nalishlar asosida saboq beriladi.

Bitiruvchilarning aksariyati kollej va universitetlarda ma’lum bir soha bo‘yicha o‘qib, bakalavr darajasiga ega bo‘ladilar. Mamlakatda kadrlarning asosiy qismini bakalavrlar tashkil etadi. Agar talaba bakalavriatda uch yil o‘qigan bo‘lsa, Ph.Dga kirish uchun magistraturada o‘qishi shart, biroq, bakalavriatda 4 yil o‘qigan bo‘lsa, Ph.Dda magistraturani chetlab o‘qishi mumkin.

Tizim sifatli darslik, kitob va o‘quv qo‘llanmalar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Darslik kitoblar yaratish uchun eng yaxshi olimlar guruhi tuzilgan bo‘lib, ular faqat mana Shu ish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bu yerda bir o‘quv yili 220 kun qilib belgilangan. Bir kunda o‘quvchilarga besh soat dars o‘tiladi. Bir akademik yilda 1000 soat dars va 200 soat mustaqil o‘qish mo‘ljallangan, bir akademik soat esa 45 minutlik belgilangan. Bir o‘quv yilida 5-6 ta fan o‘qitiladi. Masalan, 7-sinfda matematika, sotsial (tarix, geografiya, gumanitar), fizika, informatsion texnologiyalar, kimyo, til kabi fanlar o‘qitiladi. Bulardan beshtasi majburiy, qolganlarini esa o‘quvchi xohishi bo‘yicha tanlaydi.

Dehlida “**Dehli Education Akr**” – “Dehli ta’lim qonuni” mavjud. Shahardagi ta’lim muassasalari ana shu qonun asosida faoliyat yurgizadi. Mamlakat bo‘yicha esa “Central Board of” – “o‘rta ta’lim markaziy qo‘mitasi” chiqargan yagona qonun amalda qo‘llaniladi. Javoharla’l neru nomidagi universitet 1969-yil Dehlida tashkil etilgan. U yerda 3ta fakultet va to‘rtta ixtisoslashgan markaz bor. Bu fakultetlarda 5000 nafar talaba ta’lim olmoqda. Xorojiy davlatlardan kelib taxsil olayotgan talabalar soni o‘n foizni tashkil etadi. Universitetda masofaviy ta’lim yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Talabalar gumanitar yo‘nalishlarda uch yil, tabiiy va muhandislik yo‘nalishlarida esa to‘rt yil tahsil oladilar. Aspirantura ikki yil, ilmiy daraja magistr va Ph.D, ilmiy unvoni esa assistent-professor deb yuritiladi. Universitetga qabul yiliga ikki marta – iyun va dekabr oylarida amalga oshiriladi. O‘qishga to‘lov mahalliy aholi uchun yiliga o‘rtacha 500 aqsh dollarini tashkil etadi. Tahsil olayotgan talabalarning 8 foizini 12-sinfni bitirgan yoshlar, qolgan 92 foizini esa maktabni bitirgach, bir-ikki yil turli jabhalarda mehnat qilgan yigit-qizlar tashkil etadi. Bu yerga o‘qishga kirish uchun har bir yigit-qiz 10 yil umumiy ta’lim, ikki yil kasbga yo‘naltirilgan maktabda o‘qishi hamda uch yil kellejda o‘qib, uni bitirgan bo‘lishlari shart qilib belgilangan. Kutubxonalar elektron kataloglashtirilgan. Bu bilan talabalarga xizmat ko‘rsatish tezligi va samaradorligi oshishiga erishilgan. Hindiston va boshqa davlatlardagi 900 ta kutubxonalar o‘zaro kompyuter tarmog‘iga ulangan bo‘lib, talabalar va professor o‘qituvchilarhar qanday ilmiy jurnal yoki kitobni buyurtma berib, qisqa fursatda olishlari, Online usulida bog‘lanib, masofadan o‘qishlari mumkin. Ziyo maskani milliy kutubxonalar tarmog‘iga a’zoligi boiz talaba va o‘quvchilar dunyoning nufuzli boy kutubxonalari bilan bog‘lanish, kitoblaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Bu xizmatlar ichida eng ahamiyatlisi shundaki kutubxonadan ko‘zi ojizlar uchun maxsus jihozlangan o‘quv xonasi ajratilgan. Nogiron o‘quvchilar bu yerdagi ma’lumot va manbaalar bilan maxsus eshitish apparatlari bilan tanishadilar.

Universitet zamonaviy o‘qitish texnika vositalar bilan jixozlangan. 24 soat uzluksiz teleko‘rsatuv va radio eshittirishlarini efirga uzatuvchi ikkita zamonaviy elevizion studiya va markaz bor. Shu bilan birga universitetning sun’iy yo‘ldosh orqali ko‘rsatuv va eshittirishlarini uzatish markazi, video va kompakt disklarni ko‘paytirish hamda nusxa ko‘paytirish markazi ham faoliyat yuritmoqda. Talabalar tomonidan tez-tez teleuchrashuvlar, teleshoular, qiziqarli ko‘rsatuvlar o‘tkazilib turiladi. Darslar, aksariyat mashg‘ulotlar kompyuter texnikasi orqali amalga oshiriladi. Mamlakat ta’lim tizimida erishilayotgan bu xil yutuqlar tufayli ilm maskanlaridan ko‘plab malakali va bilimli kadrlar etishib chiqayotir. Birgina

kompter texnologiyasi sohasini olaylik. Xindiston har yili AQSHga 15-18 mlrd. dollar miqdoridagi kompyuter dasturini eksport qiladi.

36.10. Janubiy Koreyada ta’lim tizimlari

Janubiy Koreyada “Ta’lim haqida” gi Qonun 1948-yilda qabul qilingan. Ta’lim tizimiga asos qilib an’anaviy g‘arb modeli olingan: 6 yil-quyi maktab, 3 yil – o‘rta, yana 3 yil – oliy maktab; so‘ngra to‘rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o‘rganilgandan so‘ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo‘lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o‘quv yurtlarining ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Koreyada 104 ta oliy o‘quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o‘quv yurtlarida o‘qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o‘qishga kiradi. Talabalar soni bo‘yicha Koreya dunyoda birinchi o‘rinda turadi. Lekin, maktabgacha ta’lim bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondiria olmayapti. Shuningdek uchun 1982-yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog‘chasida asos solishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang‘ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig‘izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o‘qiydi. Dars yuklamalari ham ko‘proq. Lekin, o‘yinlar dam olish o‘quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor. Boshlang‘ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O‘rta maktabda esa darslar 45 minut.

Oliy maktada darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to‘xtalib o‘tish zarur. Oliy maktabga albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o‘qishlar pullik.

Boshlang‘ich maktabda 9 ta fan o‘qitiladi. Koreys tilini o‘rganishga alohida e’tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o‘qitiladi.

O‘rta maktabda fanlar yana 4 taga ko‘paytirilgan. 7-sinfdan boshlab chet tillar o‘rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e’tibor kuchli. Ko‘pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o‘qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni-klassik xitoy tilini majburiy ravishda o‘rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o‘rganiladi. Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo‘lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari etishib chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo‘jalik ixtisoslari tayyorlanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta’lim haqidagi qonun talabalaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e’tibor kuchli. So‘nggi yillarda sport va ilmiy maktablari ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi kata ta’sir ko‘rsatdi. Koreyada nogironlarga harakatlanuvchi aravachalar yordamida er osti liftlari mavjud. Maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon – avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar. Shuningdek, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag‘lari hisobiga

qurilgan. Davlat maktablarida dinshunoslik o‘qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab “Odobnoma” kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o‘qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan. Bu fan o‘z ichiga dinshunoslik asoslarini ham qamrab olgan bo‘lib, qadriyat sifatida o‘qitiladi. Ehromlarga sayyohat qilib borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma’naviyat tarixini o‘rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o‘qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo‘lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o‘qituvchilar tayyorlaydigan kollejlar mavjud. Har bir provintsiya o‘z kollejiga ega. Boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisi bo‘lish uchun 2 yil o‘qish kerak. Fan o‘qituvchilari birmuncha ko‘proq o‘qiydi. Koreyada o‘qituvchining ish haqi 700 dollarga teng. Agar bunga pedagogika oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishdagi yuqori tanlovni ham qo‘shadigan bo‘lsak, bu mamlakatda o‘qituvchi kasbining e’zozlanishi sabablari ayon bo‘ladi.

Janubiy Koreyada ta’lim sohasiga e’tiborning naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko‘rsak bo‘ladi: Soliqlar tizimida ta’limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma’lum foizini ta’lim sohasiga o‘tkazadi. Davlat byudjetining 24 foizi ta’limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta’limi davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provintsiyalar ta’lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta’limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda ta’lim tizimiga qanchalar zo‘r ahamiyat berilishini ko‘rsatib turibdi.

36.11. Xitoy ta’lim tizimi

Xitoy ta’lim tizimining tarixi juda uzoqdir, uning ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Xitoyda dastlabki maktablar eramizdan ancha ilgari vujudga kelgan. Qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi (eramizdan oldingi V-IV-asrlarda yashagan) **Kun Tszi (Konfutsiy)** qator ilg‘or pedagogik g‘oyalarni olg‘a surgan va xususiy o‘qitishga asos solgan.

XXR tashkil topguncha boshlang‘ich maktab 1946-ilda rivojlanishning eng yuqori darajasiga etgan. O‘sha paytda Xitoyda 290 mingdan ortiq maktablar mavjud bo‘lib, ularda 23 million nafardan ziyod o‘quvchilar ta’lim olgan. 1946-yilda boshlang‘ich ta’limga bolalarning taxminan 20 foizi jalb qilingan. Shu bilan birga katta yoshli aholining 90 foizidan ko‘prog‘i savodsiz edi. 1949-yilda xalq inqilobi g‘alaba qozonganidan keyin Xitoyda savodsizlikni tugatish va maktab ta’limini keng tus oldirish bo‘yicha juda katta miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Xalq ta’limini isloh qilish to‘g‘risidagi (1951-yilgi) qarorda bolalar va o‘smirlar uchun ham, kattalar uchun ham boshlang‘ich hamda o‘rta maktablarning keng tarmog‘ini yaratish ko‘zda tutilgan edi. Islohotga muvofiq o‘qish muddati boshlang‘ich maktabda 5 yil va o‘rta maktabda 6 (3-3) yil qilib belgilandi. Lekin keyinchalik boshlang‘ich maktab ham 6 yillik bo‘ldi.

XXR tashkil topgan dastlabki yillarda mamlakatdagi maktablar tizimi ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish rejalariga muvofiq jiddiy takomillashtirildi. Ammo 1958-yilda Mao Tsze – dun va uning guruhi “katta sakrash” yo‘li bilan barcha sohalardagi, shu jumladan, ta’lim borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur’atini sun’iy ravishda tezlashtirishga qaror qildi. Shundan so‘ng moddiy sharoitlar hisobga

olinmay, ta’limning sur’atlarini jadallashtirish boshlandi, bu harakat ta’lim va tarbiyaning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Yangi tashkil qilingan minglarcha boshlang‘ich maktablar tegishli binolarga, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalariga, zarur asbob anjomlar va yaxshi tayyorlangan o‘qituvchilarga ega emasdi. Maktab ta’limining inqirozi 1966-yilda nihoyatda kuchaydi. Mamlakatda uzoq vaqt davom etgan 1966-1976-yillardagi “madaniy inqilob” davrida Xitoy xalqining aqliy imkoniyatlarini ham zaiflashtirdi. Shunga ko‘ra mamlakat rahbariyati ta’lim tizimini qayta tiklash va yanada takomillashtirish tadbirlarini qo‘llashga kirishdi.

XKP mkning 1985-yil 27-mayda qabul qilingan “Ta’lim tizimini isloh qilish to‘g‘risida”gi qarori hozirgi bosqichda ta’limini rivojlantirishning muhim omili bo‘ldi. Unda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini qayta qurish va takomilllashtirish tadbirlari belgilandi. 1986-yil 12-aprelda Umumxitoy xalq vakillari majlisining sessiyasida Xitoy Xalq Respublikasining “Majburiy ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi va bu qonun 1986-yil 1-iyuldan kuchga kirdi. Mana shu qonunga muvofiq majburiy ta’limning muddati boshlang‘ich va to‘liqsiz o‘rta maktabda 9 yil, to‘liq o‘rta maktabda 3 yil qilib belgilandi. Hozir Xitoyda boshlang‘ich maktablarning ikki turi mavjud bo‘lib birinchi turida o‘qish muddati 5 yil va ikkinchi turida 6 yil. Boshlang‘ich va o‘rta maktablardagi ta’lim hamma tushunadigan **putun xua** tilida olib boriladiki, u xitoy tilining pekin shevasiga asoslangan.

Xitoydagi bolalarning bir qismi boshlang‘ich maktabga kirishdan oldin bolalar bog‘chalarida tayyorlanadi. Xitoyda so‘nggi 20 yil mobaynida har qaysi oila bittadan bolaga ega bo‘lishi siyosati yurgizilishi sababli o‘quvchilarning soni ancha kamaydi. Boshlang‘ich maktab o‘quv rejasiga 9 ta predmet: axloqiy tarbiya, ona tili, arifmetika, “Jamiyat” (tarix, geografiya), tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, ashula va musiqa, badiy tarbiya, mehnat ta’limi kiritilgan. Mana shu asosiy o‘quv predmetlaridan tashqari, haftada 6-8 soat faoliyatning har xil turlariga: mustaqil tayyorlanishga, (1-2 soat), sinf majlislari o‘tkazishga (1 soat), sport o‘yinlariga (2-3 soat), qiziqishlar bo‘yicha mashg‘ulotlarga (2 soat) ajratiladi.

36.12. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ta’lim tizimi

Lotin Amerikasi mamlakatlari 1961-yilda aqsh taklif etgan iqtisodiy yordam dasturini, ya’ni “Taraqqiyot yo‘lidagi ittifoqi” dasturini qabul qilishga majbur bo‘ldi. Unda xalq ta’limini rivojlantirishning o‘n yillik rejasi ham ifodalangan, umuman, mazkur dasturda maktablar tarmog‘ini kengaytirish, o‘quv maskanlarini bartaraf etishning, butun jamiyatni zamonaviylashtirishning asosiy omili ekani qayd etilgan, ammo dasturda asosan xorijiy mustamlakachilar va mahalliy zodagonlarning maqsad hamda manfaatlari nazarda tutilgan bo‘lib, ularning niyati avvalo xodimlarni etishtirish va taraqqiyparvar jamoatchilikning diqqat e’tiborini dolzarb siyosiy muammolardan chalg‘itish edi. 60-70-yillarda Lotin Amerikasidagi barcha mamlakatlarda maorif organlarining faoliyati keskin kuchaydi. Hukumat maktab va universitetlar ishiga, ularni moliyaviy ta’minlashga jiddiy e’tibor berdi. Amerika davlatlararo organlari va BMT tashkilotlarining, avvalo yuneskoning harakatlari tufayli o‘qituvchilar tayyorlash, shuningdek, maktab xodimlariga yangicha o‘qitish usullarini o‘rgatish keng tus oldi. 60-yillar oxiridan ko‘pgina

Lotin Amerikasi mamlakatlarida maktab va universitet ta’limi tizimi isloh qilina boshlandi. Islohotning asosiy g‘oyasi o‘quv maskanlarini ma’rifiy mazmundagi yoki mahalliy maqsadlarni ko‘zlangan vazifalarni bajarishga, fan texnikani takomillashtirish negizida iqtisodiyotni jadal rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirishdan iborat edi.

Ta’lim siyosatini ana shu tariqa o‘zlashtirishlarini Shimoliy Amerika o‘quv markazlari asosida ta’limni zamonaviylashtirish deb baholash mumkin edi. Mazkur o‘zlashtirishlar pedagogik jihatdan muayyan amaliy maqsadlarni ko‘zlashga da’vat etdi. Yosh avlodni o‘qitish sohasidagi mazkur o‘zgarishlar ko‘pchilikni ishonchini oqlamadi va umidini puchga chiqardi. Tub ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirmay, ta’lim sohasida ham muvaffaqiyatlarga erishib bo‘lmasligi to‘g‘risidagi fikrlarni isbotladi.

60-70-yillarda ta’lim sohasini rejalashtirish asta-sekin yo‘lga qo‘yildi, o‘quv yurtlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibga solindi. Maktab ishlarini markazlashtirish kuchaydi va bu hol o‘quv dasturlarini tuzish, kadrlardan foydalanish, maktab binolarini kurish kabi ishlarni muvofiqlashtirish imkonini berdi. Mintaqadagi (Barbasdan boshqa) hamma mamlakatlarda bolalarni majburiy ravishda 14 yoshgacha (Peruda 16 yoshgacha) o‘qitish joriy etildi. Boshlang‘ich maktabdagi, ayrim mamlakatlarda, hatto o‘rta maktabdagi o‘qish ham bepul qilindi. Lekin bu qoida faqat davlat sektoriga qarashli maktablarga taalluqli edi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ba’zilarida maktablarning azaliy tizimini o‘zgartirish bo‘yicha ham islohotlar o‘tkazildi. Boshlang‘ich maktablarni va o‘rta maktablarning dastlabki bosqichlarini birlashtirgan maktab ta’limi bazaviy turkumi tuzildi. Chunki, boshlang‘ich maktabga asoslanib kelgan kasbkorlik maktablarining umumta’limiy saviyasini oshirish zarur edi. Dastlab 1965-yilda Chilida 8 yilga mo‘ljallangan bazaviy turkum tashkil topgan bo‘lib, 70-yillarda Boliviya va Braziliyada ham 8 yillik. Peru, Salvador va Venesuelada 9 yillik Argentinada 6 yillik, Yamayka va Kolumbiyada 5 yillik ana shunday turkumlar joriy etildi. Peru, Panama va boshqa qator mamlakatlarda majburiy ta’lim faqat boshlang‘ich maktablarga emas, balki butun bazaviy turkumga ham tatbiq qilindi.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlaridagi o‘quv dasturlarining tor ixtisoslashuvi va muayyan amaliy yo‘nalishiga ega bo‘lishi yoshlarning umumta’limiy tayyorgarligi uchun zararli bo‘lib, tayyorgarlik darajasi pasayishiga olibkeldi. Braziliya, Kolumbiya, Venesueladagi maktablar ixtisoslashtirilganining oqibati ana Shu fikrni yaqqol isbotlaydi. Mazkur islohot aholini ish bilan ta’minlashning, davlat korxonalari uchun kadrlar tayyorlashning ba’zi muhim milliy muammosini va boshqa ba’zi masalalarini hal etish imkonini bergan bo‘lsada, qator salbiy natijalarga olib kelishi ham muqarrardir. Chunki, ushbu ixtisoslashtirish bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, maktab tizimining amerikachalashuviga, uning insonparvarligi buzilishiga sabab bo‘ladi.

Mintaqadagi mazkur o‘zgartirishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ajnabiy manopoliyalar va mahalliy katta kompaniyalar korxonalarini erlik mehnat resurslari hisobidan malakali kadrlar bilan ta’minlash edi. Shunga ko‘ra, ta’limning isloh qilish dasturining bir tomonlama xarakteri tez orada yaqqol ayon bo‘ldi. Shunga qaramay, mintaqada ta’limni isloh qilish, Shu jumladan, o‘rta maktablarni

ixtisoslashtirish milliy iqtisodiyotni kadrlar bilan ta’minlashda ma’lum darajada yordam berdi. Shuning uchun ham davlat boshlang‘ich maktablar bilan bir qatorda o‘rta va oliy o‘quv yurtlarini ham mablag‘ bilan ta’minlashni kuchaytirib bordi. Mintaqada xususiy o‘quv yurtlari tarmog‘i ham kengaydi. Ta’limning hamma bosqichlaridagi o‘quvchilar kontingenti, ya’ni soni ancha ortdi. Lotin Amerikasi mintaqasi 1975-yilda bolalarni boshlang‘ich ta’limga jalb etish bo‘yicha dunyoda birinchi o‘ringa chiqdi va qolgan hamma ko‘rsatkichlar bo‘yicha rivojlanayotgan mamlakatlardan ancha ilgarilab ketdi.

36.13. Ta’lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta’lim dasturlari

Modulli-kredit tizimi mohiyati. Bolonya deklaratsiyasi va Yevropa yagona ta’lim muhiti.

XX-asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik taraqqiyot o‘zining yuksak cho‘qqilariga erishdi. Ilmiy texnik taraqqiyotining (ITT) hozirgi darajasi shundayki, fan texnika va texnologiya rivojining erishilgan sur’atlarini mamlakat qay darajada rivojlangan bo‘lmasin alohida olingan mamlakatda uni ta’minlab bo‘lmaydi. ITT keyingi rivoji faqat turli mamlakatlardagi olim va mutaxassislarning hamkorligi ilmiy-tadqiqot ishlarning integratsiyasi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Fan texnika va texnologiyaning taraqqiyoti ta’lim taraqqiyoti darajasi bilan chambarchas bog‘liqligini e’tiborga oladigan bo‘lsak ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiyaning ustuvorligi yaqqol muammoga aylanib qoladi.

Bu kredit texnologiyani yaratilishini va qo‘llanishining dolzarbligini belgilaydi. Chunki ta’lim sohasidagi xalqaro integrallashuvi eng avvalo o‘quv jarayonini kredit texnologiyasi asosida tashkil etishiga tayanadi

Modulli ta’limda kredit tizimi.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldidagi eng asosiy vazifa malakali mutaxassisni tayyorlash. Bunday mutaxassisni tayyorlash uchun, albatta, unga nisbatan surilayotgan talablar tizimini aniqlab olish kerak. Ushbu savolga javob qidirib, quyidagi to‘rt yo‘nalishdagi talablar tizimiga duch keldik:

1. O‘z sohasi bo‘yicha zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish.
2. Sohaga oid mavjud bilimlarini doimiy ravishda mustaqil oshirib borish, ya’ni mustaqil ta’limga tayyor bo‘lish.
3. Sohaga innovatsiyalar kiritish uchun mustaqil izlanish va ijod qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.
4. O‘z vaqtini rejalashtirish, boshqarish va o‘z faoliyatini tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Agar soha bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malalkalarni shakllantirishda mavjud reproduktiv ta’lim etarli bo‘lsa, mustaqail ta’lim olish ko‘nikmasini va ijodkorlikni rivojlantirish, o‘z faoliyatini boshqarish masalasini hal etishda modulli yondashuv katta imkoniyatlarga ega. Modulli ta’limning maqsadi talabaning aynan Shu jihatlarini shakllantirishga qaratilgan. Modul shunday tuzilishi lozimki, talaba ushbu modulni mustaqil ravishda o‘zlashtira olish va ko‘zlangan natijaga erishish imkoniga ega bo‘lsin.

Bunday natijani ta’minlash uchun modulda axborot materiali aniq, lo‘nda, tushunarli, mantiqiy, tizimli bayon etilishi va ko‘rgazmali bo‘lishi, axborotning har birn mantiqiy bo‘lagi bo‘yicha o‘z-o‘zini tekshirish uchun topshiriqlar ishlab chilgan bo‘lishi, ana shu topshiriqlarni ishlab chiqish uchun aniq tavsiyalar berilgan bo‘lishi talab etiladi. Modulli ta’limda pedagog talabaning o‘zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi.

Demak, modulli yondashuv yangi axborotni mustaqil o‘zlashtirish, talabaning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o‘zining va o‘rtoqlarining faoliyatini baholashga qaratilgan. Bunday yondashuv zamonaviy talablar tizimiga mos tushadi.

Modulli yondashuv erishilgan natijani izchil nazorat qilib borishga asoslangan. Natijada modul-kredit tizimi vujudga kelgan.

Kredit – (Zachet birligiga aylanuchi Evropa tizimi (ECTS) (European Credit Transfer and Accumulating System)) kredit jamlash tizimidir. Ushbu tizim evropa universitetlarida 1989-yilda o‘tkazilgan tadqiqotlardan muvafaqqiyatli o‘tdi va qabul qilindi. U talabaning umumiy yuklamasiga asoslanadi. Kredit tizimini kiritishdan maqsad ta’limning shaffofligini va akademik bilimlarni hamda kvalifikatsiyani tan olishni osonlashtirish bo‘lib hisoblanadi. Dastlab kredit chetdan kelib o‘qiyotgan talabalar uchun ishlatilgan va unga ishonch bildirilgan. Oliy ta’lim muassasalari uchun yagona kreditlarni o‘rnatilishi esa talabalarning mobilligini ta’minlashga yordam berdi. Bugungi kunda evropa kredit tizimi Evropaning deyarli barcha davlatlarida tan olingan va amal qiluvchi tizimdir. Talaba o‘rnatilgan kredit ballarini to‘plagan taqdirdagina diplom olishga muvaffaq bo‘ladi. Dunyoning oliy ta’lim tizimida kredit tizimining bir necha turi mavjud. Yuqorida aytib o‘tilgan ECTS bilan bir qatorda, USCS – Amerikaning kredit tizimi, CATS – Britaniyaning kredit tizimi, UCTS – Osiyo davlatlari va tinch okeandagi davlatlarning kredit tizimlari mavjud.

Evropa kredit tizimining asosini uch unsur tashkil etadi: o‘quv dasturlari haqida axborot, talabaning erishgan natijalari va talaba faoliyatining hajmi. Har bir o‘quv yili 60 qismga bo‘linadi va zachyot birligi hisoblanadi. Bir haftalik yuklama 54 soatdan oshmasligi kerak, 54 soat 1,5 kreditga teng. O‘quv yilining davomiyligi Evropada o‘rtacha 40 xafta. Ammo Yevropaning turli davlatlarida o‘quv yilining davomiyligi turlicha bo‘lishi ma’lum darajada muammolarnip keltirib chiqaradi. Kredit tizimi barcha o‘qitish shakllarini nazoratini o‘z ichiga oladi (auditoriya va auditoriyadan tashqari).

Kredit tizimi ta’lim jarayonida o‘qilgan soatlar miqdorini emas, balki erishilgan natijani ko‘rsatib beruvchi o‘lchov birligidir. Ya’ni mutaxassisni kompetentlik darajasiga baho beruvchi natijaga qaratilgan o‘lchov birligidir.

Demak, kredit nafaqat o‘quv faoliyatiga berilgan baho, balki, bajarilgan o‘quv yuklamasini ko‘rsatib turuvchi birlikdir. Bir kredit akademik soatga teng (54 akademik soat 1,5 kreditni tashkil etadi). Har bir o‘quv moduli 1 yoki 1,5 kreditga mo‘ljallanadi va, odatda, uning soni uchtadan oshmasligi lozim.

Yevropa kredit tizimida birinchi bosqichda (bakalavriat) talaba 180 kreditdan 240 kreditgacha to‘plashi mumkin. Ikkinchi bosqichda (Magistr) 90-120 gacha

kredit yig‘ish imkoniga ega. Kredit tizimining asosini albatta reyting ball tizimi tashkil etadi.

Ta’lim sohasidagi integratsion jarayonlar ilk bor Yevropada boshlangan edi. 1989-yilda Yevropaning minglab o‘quvchilari Yevropa hamjamiyatining ERASMUS (European Community Action Scheme for mobility of University students) TEMPUS va boshqa dasturlari asosida chet ellarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

ERASMUS dasturi bo‘yicha Yevropa hamjamiyati universitetetlari o‘rtasidagi o‘quvchilar almashinuvi sxemasi dastavval 145 oliy o‘quv yurtlarini qamrab olgan edi. ERASMUS dasturining yutuqlaridan biri bu Yevropa universitetlaridagi o‘qitish natijalarini o‘zaro tan olish tizimi-(bu) (European Credit Transfer System (ESTS) ni yaratish sinash va amaliyotga keng qo‘llash deb aytish lozim.

2001-yilda o‘quv jarayonini tashkil etishning kredit texnologiyasi ESTS Yevropaning 1200 ta universitetlarida allaqachon qo‘llanilgan edi.

2001-yilda 29 ta Yevropa davlatlari ta’lim vazirlari tomonidan Bolonya deklaratsiyasining imzolanishi Yevropa ta’lim hududini yaratilishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bolonya deklaratsiyasiga ko‘ra diplomlarning o‘zaro tan olinishi, ya’ni o‘qitish natijalarini yakuniy ko‘rsatkichlarning o‘zaro tan olinish muddati – 2010-yil deb belgilangan edi.Bolonya deklaratsiyasiga kirish uchun quyidagi dastlabki talablar qo‘yiladi:

Oliy o‘quv yurtigacha 12 yillik ta’lim:

ikki bosqichli oliy ta’lim-bakalavriat va magistratura;

o‘quv jarayoni va o‘qitish natijalarini baholash ESTS kredit texnologiyasi asosida tashkil etilishi.

Modulli o‘qitish – o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli o‘qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko‘rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta’lim an’anaviy ta’limdan o‘qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o‘qitish ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

- modul – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;

- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darajasi;
- o‘quvchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi. Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning uzluksizligini ta’minlash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Modulli o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldirilishi kerak. Modulni o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o‘quv o‘yinlar;
- loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlanadi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini ta’minlanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha
- turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o‘rnatilishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;
- o‘quvchilar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;
- o‘quvchilarning zudlik bilan qobiliyatiga ko‘ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so‘ng o‘qituvchi ayrim o‘quvchilarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin);
- axborotni «siqib» berish natijasida o‘qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o‘quv vaqti tarkibini ma’ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni-optimallashtirish.
- buning natijasida o‘quvchi yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Modulli metodika asosida o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son., 213-modda, 22- son, 406-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020-y., 23-sentyabr, 13-16-modda.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 41-son, 543-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-6108-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli Farmoni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4602-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907 Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 21-apreldagi PQ-2909-son Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 392-sonli Qarori
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi

“Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 466-son Qarori.

16. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592-b. (412-b).

17. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174-b. (62-b)

18. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M. B. Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent-2019.

19. Abduqodirov A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. Monografiya. – Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019. – 130-b.

20. Abdurahmon Jomiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san’at. 1971.

21. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. T.: Movarounnahr, 2002, 720-b. (14-b).

22. Абдирашидов З. Исмаил Гаспиринский и Туркистан в начале XX века: связи – отношения – влияние. Ташкент, Akademnashr, 2011. – 384-б.

23. Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар ан–Наршахи. Та’рих–и Бухара. (История Бухары). Перевод, комментарии и примечания Ш.Б. Камолиддина.

24. Авлоний А. Ўсон миллат. Т., Шарq, 1993, 94-б.

25. Айни С. Воспоминания. М.Л.: Издателство АН СССР, 1960. -1087-б.

26. Алиева А.И. Педагогическая обоснованност инноватsионной технологии обучения грамоте в школах Республики Таджикистан.

27. Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2 – х томах. Феномен джадидизма. II. Ташкент «Узбекистан», 2009. – 170-б.

28. Алимова Д.А. История как история, история как наука. В 2 – х томах. Феномен джадидизма. II. Ташкент «Узбекистан», 2009. – 170-б.

29. Аминова Л.Я. История женского образования в Башкирии. Вторая половина XIX – начало XX века: Монография, – Уфа: РИО РУНМЦ МО РБ, 2005. – 186-б.

30. Анбар Отин. Танланган асарлар. Т., G‘.G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

31. Арипов М. (Орифи). Из истории педагогической мысли таджикского народа. Част I (IX – XI) вв.), Душанбе, “Ирфон”, 1962. – 162-б.

32. Археолого–топографический комментарий Е.Г. Некрасовой. – Ташкент: SMIA – SIA, 2011. – 600-б.

33. Атахонов Т., Лутфуллоев М., Шарифов Ф. Очеркhои афкори педагогӣ (воситаи таълим). –Душанбе, 2005. – 304-б.

34. Ахадов Ш.А., Эгамов Т.Б. Амир Темур ва темурийлар даврининг интеллектуал салохияти. Самарқанд – 2004,Сарай–мулк ханым. Материал из

35. Аhмади Дониш. Наводир – ул – ваqоеъ. Китоби 2. Душанбе,

нашриёти «Дониш», 1980, – 340-б.
36. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. – 256-b.
37. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Meros, 1993. – 224 b.
38. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirot kitobidan). − Toshkent: Meros, 1991.– 47 b.
39. Abul-Qosim Mahmud az-Zamahshariy. “Nozik iboralar”. – T.: “Kamalak”, 1992, 16-bet.
40. Aliqulov X. Jaloliddin davoniy. T.: O‘zbekiston, 1992, 20-b.
41. Aliqulov X., Omonboyeva R Jomiy va davoniy ta’lim-tarbiya haqida. T.:, O‘qituvchi, 1981, 36-b.
42. Alisher Navoiy. Hayratul abror. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. 156-b.
43. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 98-b.
44. Alisher Navoiy. Nazmul-javohir. Asarlar, 15 tomlik, T.: 1968, 15-tom. – 45-b.
45. Alpomish, Rustamxon. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 158-159-b.
46. Asadov Yu.N. va boshq. O‘quvchilarda kompetentsiyalarning shakllanganligini nashxislash va korrektsiyalar metodikalari. T.: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘PFITI, 2016. – 160 b. (4-5-b).
47. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: Cho‘lpon, 1994. – 182 b.
48. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: O‘zbekiston, 1997. - 20-29-b.
49. Бартолд В.В. Сочинения. Том II, част 1. – М.: «Издателство Восточной литературы», 1963 – 1020 б.
50. Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монголского нашествия. М.: «Издателство восточной литературы», 1963. – 760 б.
51. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. (1865 – 1924 годы). М.: «Издателство Академии педагогических наук РСФСР», 1960. – 512 б.
52. Брагинский И.Б. Из истории персидской и таджикской литератур. М.: «Наука», 1972. – 524 б.
53. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fanlari dokt. ilmiy dar. uchun diss. – T.: 2007.- 305 b.
54. Вахтин Ю.Б. Жизн пророка Мухаммеда. М.: Политиздат, 1990. – 495 б.
55. Википедии – свободной энциклопедии. https://ru.wikipedia.org/wiki/.
56. Вулфсон Э.Б. Как живут сарты. М., 1908. – 118 б.
57. Valixo‘jayev B. Samarqandda oliy ta’lim — madrasai oliya — Universitet tarixidan lavhalar. Samarqand: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. 38-47-b.
58. Гафуров Б.Г. Точикон: таърихи қадимтарин, қадим ва асри миёна.

Китоби якум. – Душанбе: «Ирфон», 1998. – 704 б.

59. Гулбаданбегим Заҳириддин Бобур қизи. Ҳумоюннома: Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли – Нумоюн подшоҳнинг аҳволи. Т.: «Маънавият”, 1998. – 104 б.

60. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана.М.: «Наука», 1980. – 416 б.

61. Джалилов А.Д. Из истории положения женщин Средней Азии до и после распространения ислама. – Душанбе: «Ирфон», 1974. – 43 б.

62. Древние авторы о Средней Азии (VI в.до н.э. – III в. н.э.) Хрестоматия под ред. Л.В.Баженова. Ташкент ГИ Уз.ССР, 1940 г. – 172 б.

63. Ежегодник Ферганской области. Том II. Издание Ферганского областного статистического управления. – Новый Маргелан, 1908.

64. Choriyev A., Choriyev N. Pedagogika tarixi metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 173 b.

65. Илминский Н.И. Некоторые сведения о его деятелности и о последних днях его жизни. Казан, 1892. – 135 б.

66. Ислам и женщины Востока: история и современност. Ташкент, «Фан», 1992.

67. Ислам и женщины Востока: история и современност. Ташкент, «Фан», 1992

68. Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферапол. 1898.

69. Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферапол. 1898.

70. Исмоилбек Гаспиринский. Раҳбари муаллимин ёки муаллимларга йўлдош. Симферапол. 1898.

71. История народов Узбекистана. С древнейших времен до начала XVI века. Том I. Ташкент, 1950. – 413 б.

72. История народов Узбекистана: с древнейших времен до начала XVI века. Том Ташкент, «Издателство АН Уз ССР», 1960. – 473 б.

73. История таджикского народа. Том II. Эпоха формирования таджикского народа. Душанбе, Алhудо, 1999. 791 б.

74. Каримов И.А. Юксак мънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият. 2008. – 176 б.

75. Кочаров В.Т. Из истории organizatsii и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865 – 1917 гг). – Ташкент, «Фан», 1966. – 124 б.

76. Кочаров В.Т. Из истории организаціи и развития народного образования в дореволюционном Узбекистане (1865 – 1917 гг). – Ташкент, «Фан», 1966. – 124 б.

77. Ксенофонт. Киропедия. – М.: «Наука», 1976, – 335 б.

78. Кухарева Е.В. Образование в арабских странах из глубины веков до наших дней / Педагогика.// https://cyberleninka.ru/article/v/obrazovanie – v – arabskih – stranah – iz – glubiny – vekov – do – nashih – dney. Дата обращения

20.04.2019.
79. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi II qism, Darslik–Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.-39-b.
80. K.Hoshimov,S.Nishonova, Pedagogika tarixi o‘quv qo‘llanma 39-b.
81. K.Hoshimov,S.Nishonova, Pedagogika tarixi, 50-bet.
82. Karimova V. va b. Mustaqil fikrlash – T.: 2001 6-b.
83. Маҳди Иқболий Занон дар торихи куҳани Ирон. Маҳдиобод, Пардисон, 2004. –11 б.
84. Маһмудҳўжа Беҳбудий Танланган асарлар Т.: Маънавият. 2006. – 167 б.
85. Машриқзамин — ҳикмат бўстони. // Тарж., тўпловчи ҳамда изоҳ муаллифлари: Н.Номидий ва Маҳмуд Насаний. Масъул муаррир: G‘. Ас-Салом/. — Т.: Шарқ НМК. 1997. 400-бет.
86. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.
87. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N. X., Normurodova B. A., Matnazarova K. O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. – T.: 2014. – 360 b.
88. Michelle Lee Folk Regina. A Study of the Concept of Rebellion Among Indian Women Saints: A Case Study of the Hindu Alvar Antal and the Sufi Jahanara Begam Sahib. //A Thesis Submitted to the Faculty of Graduate Studies and Research in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Master of Arts in Religious Studies University of Regina. Saskatchewan, 2002.
89. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O‘zbekiston», 2000, 7-b.
90. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O‘qituvchi, 1995.
91. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
92. Мешкерис В.А. Согдийская терракота. Душанбе, Дониш, 1989. - 326 б.
93. Мирзозода Х. Таърихи адабиёти тоҷик. Душанбе, Маориф, 1987. – 488 б.
94. Мустафа Эриш. Жены пророка – Матери всех Правоверных – 2 издание. М.:ИГ САД, 2009. - 120 б.
95. Мухтаров А. Дилшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX – начале XX вв. Душанбе, «Дониш»,1969. – 372 б.
96. Мухтаров А. Дилшод и её место в истории общественной мысли таджикского народа в XIX – начале XX вв. Душанбе, «Дониш»,1969. – 372 б.
97. Мухторов А. Гузары Ура–тюбе.Ташкент, Чулпон,1995. – 144 б.
98. Назаров Р. Философия образования эпохи зороастризма. BULLETIN of IICAS. Volume 14, 2011.//Авеста. Древнейшие гимны и иранские тексты /пер.
99. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. Казан, Типография императорского

университета, 1886. – 245 б.

100. Народы Средней Азии и Казахстана. Этнографические очерки. М.: Изд-во АН СССР, Т. I, 1962. – 791 б.

101. Ochilov M. , Ochilova N. “O‘qituvchi odobi”. – T.: “O‘qituvchi”, 1997, 6-bet.

102. Ochilov.M. Muallim – qalb me’mori. – T.: O‘qituvchi, 2001. – 429 b.

103. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009. – 240 b.

104. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: “Dono hamro” ilmiy markazi, 2002. – 78 b.

105. Пандномаи Анӯшервон. Душанбе, «Маориф ва фарҳанг», 2008. – 112 б.

106. Педагогика. (Под ред. П.И. Пидкасистого).- М.: Педагогическое общество России, 2003.- 608 с.

107. Раҳмонӣ Могаҳ. Парданишинони сухангӯй. Кобул,1910.

108. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. nazariya va amaliyot. – T., Moliya nashriyoti, 2003.

109. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O‘zMU qoshidagi OPI, 2003.

110. Shabbir Ahmad. Cultural contacts between India and central Asia: A study of Central Asian impact on Indian life based on Persian sources From Babur to Akbar (AD 1526–1605). // Thesis Submitted to the Jawaharlal Nehru University in the Fulfilment of the Requirements for the Award of the Degree of doctor of philosophy. – Jawaharlal Nehru University, 2010.

111. Санйаснаин Хан. Мой первый Коран. Сборник рассказов. Золотые истории из Корана/ Спб: Дил», 2018. – 320 б.

112. Сафаралиев Б.Б. Народное образование как показател социокултурной ситуаци в истории среднеазиатского общества. Вестник Челябинской государственной академии культуры и искусств. 2011/2 (26).

113. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М.: «Наука», 1970. – 288 б.

114. Собирова К.Д. Изучение истории древнейших времен Памира в трудах академика Б.И.ИскандароваВестник ТНУ, 2019, №1

115. Татарлар // Садои Туркистон, - 1914. - 29 июл.

116. Темур тузуклари Тошкент, “Ўзбекистон”, 2018. – 145-184 б.

117. Тревер К.В. Памятники греко–бактрийского искусства. – М–Л.: Изд-во АН СССР, 1940. – 180 б.

118. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.- T.: Fan, 2005.- 206 b.

119. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: “Fan”, 2009. – 168 b.

120. Убайдуллаев Н.К. История народного образования Таджикистана второй половины XIX – начала XX вв., Дисс. соис.канд. ист.наук. Душанбе, 2003.

121. Убайдуллаев Н.К. История народного образования Таджикистана

второй половины XIX – начала XX вв., Дисс. соис.канд. ист.наук. Душанбе, 2003.

122. Ўрта Осиёда педагогик фикр тараққиётидан лавҳалар. Т.: Фан., 1996. – 218 б.

123. Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи нисвон // Садои Туркистон, - 1914. – 12 ноябр.

124. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

125. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б.

126. Хӯҷақулов Б. Адабиёти давраи бедории миллӣ (нимаи дуюми асри 19 ва ибтидои асри XX). Китоби дарсӣ. Тошканд, Нашриёти Илмии давлатии «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2015. – 360 б.

127. Ширматов А.И. Школное образование у таджиков во II половине XIX – начале XX вв. (до 1917 г.) Дисс. соис.канд. пед.наук. Душанбе, 1967.

128. Шоева Н.А. Проблема женской эмансипатsiи в повестях таджикских писателей. Автореферат дисс.соис.канд. фил.наук. Душанбе – 2017.

129. Шокир Мухтор. Ислоҳни нимадан бошларg‘а? // “Садои Фаргона”. - 1914 йил, - 4 апрел. № 1.

130. Эмомов А. Маqоми “Нафтяк” дар низоми мактабҳои кӯҳна. Религия и общество. № 8 августи соли 2018.

131. Falsafa: qomusiy lug‘at (Tuzuvchi va mas’ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b. (450-b).

132. O‘qituvchi ish faoliyatini baholash va uni rag‘batlantirish mezoni (Metodik tavsiyanoma). – T.: 1993. – 34 b.

133. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 1-j. – 736 b. (530-b.).

134. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild, T.: 2002. 704 bet (681-b.)

135. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild, T.: 2004. 704 bet. B. 270.

136. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism: Pedagogika nazariyasi. (M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar) –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007.–380 b.

137. Umumiy pedagogika (fan dasturi). Tuzuvchi: Ro‘ziyeva D.I., Xodjayev B.X. – Toshkent: 2018. – 20 b.

138. G‘aybullayev N.R., va boshqalar. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. – T.: O‘zMU, 2005. – 176 b.

139. G‘oziyev E. Psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 224 b.

140. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b. (289-b).

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	**3**
I BOB. PEDAGOGIKA NAZARIYASI FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA PREDMETI.....	**5**
1.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari.....	5
1.2. Pedagogik fanlar tizimi.....	6
1.3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.....	7
1.4. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif.....	8
II BOB. PEDAGOGLIK KASBINING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	**12**
2.1. O‘qituvchi haqida tushuncha. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar	12
2.2. O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan kasbiy talablar.....	14
2.3. O‘qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni.....	17
2.4. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. O‘qituvchilik kasbining bugungi kundagi ahamiyati va roli.....	18
III BOB. SHAXS KAMOLOTI IJTIMOIY-BIOLOGIK HODISA, PEDAGOGIK JARAYON OB’YEKTI VA SUB’YEKTI SIFATIDA.....	**22**
3.1. Shaxs haqida tushuncha.....	22
3.2. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.....	24
3.3. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni.....	25
3.4. Bola shaxsi tarbiya ob’yekti va sub’yekti sifatida. Shaxs faolligi.....	27
IV BOB. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON.....	**29**
4.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi.....	29
4.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari.....	32
4.3. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va mazmuni.....	35
V BOB. DIDAKTIKA – TA’LIM NAZARIYASI SIFATIDA. O‘QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA.....	**36**
5.1. Ta’lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.....	36
5.2. Didaktikaning maqsad va vazifalari.....	38
5.3. Ta’lim jarayoning mohiyati.....	40
5.4. O‘qitish va o‘rganish jarayonlari tavsifi, o‘quv jarayonida ularning o‘zaro bog‘liqligi.....	41
5.5. O‘quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.....	41
5.6. Ta’lim tamoyillari va qonuniyatlari.....	43
VI BOB. TA’LIM JARAYONI – YAGONA TIZIM SIFATIDA. TA’LIM QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	**44**
6.1. Ilmiy-texnik jarayon va ta’lim mazmuni.....	44
6.2. Hozirgi vaqtda ta’lim mazmunini belgilashga doir asosiy g‘oyalar.....	46
6.3. Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi me’yoriy hujjatlar.....	47
6.4. Davlat ta’lim standartlari.....	51
VII BOB. PROFESSIONAL TA’LIM.....	**53**
7.1. Professional ta’lim mazmuni.....	53
7.2. Professional ta’limning vazifalari.....	53

7.3. Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish.....	54
7.4. Professional ta’lim muassasasi majburiyatlari.....	57
VIII BOB. TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI.....	**58**
8.1. Ta’lim metodlari va usullari tushunchalari.....	58
8.2. Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar	59
8.3. Ta’lim metodlarining mohiyati.....	61
8.4. Ta’lim metodlarini tanlab olish shartlari.....	65
8.5. Ta’lim vositalari va ularning funksiyalari.....	65
IX BOB. TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI...	**69**
9.1. Ta’limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta’lim turlari.....	69
9.2. Darsning turlari va tuzilishi.....	70
9.3. Nostandart darslar.....	72
9.4. Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari.....	74
9.5. O‘qituvchining darsga tayyorlanishi.....	75
X BOB. O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI TASHXIS ETISH.....	**75**
10.1. Ta’lim olganlikni tashxis etishning mohiyati.....	75
10.2. O‘quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari.....	77
10.3. Ta’lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari.....	80
10.4. O‘quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakl va metodlari.....	81
10.5. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash mezonlari	83
XI BOB. TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI.....	**84**
11.1. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.....	84
11.2. Tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari.....	87
11.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.....	87
XII BOB. JAMOA TARBIYA OB’YEKTI VA SUB’YEKTI SIFATIDA	**88**
12.1. Jamoa tushunchasi.....	88
12.2. O‘quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari.....	88
12.3. O‘quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari.....	89
12.4. O‘quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.....	92
XIII BOB. TARBIYANING UMUMIY METODLARI.....	**95**
13.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha.....	95
13.2. Tarbiya metodlari tasnifi.....	95
13.3. Shaxs ongini shaklantiruvchi metodlar.....	96
13.4. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish metodlari.....	98
13.5. Mashq va o‘rgatish metodlari.....	98
13.6. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodlari.....	99
13.7. Pedagogik rag‘batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari.....	100
13.8. Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.....	102
XIV BOB. ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH. AQLIY TARBIYA.....	**103**

14.1. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g‘oyani shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari..... 103
14.2. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari..... 104
14.3. Aqliy tarbiyaning maqsad va vazifalari..... 107
XV BOB. FUQAROLIK TARBIYASI. HUQUQIY TARBIYA..... 107
15.1. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari..... 107
15.2. O‘quvchilarni fuqarolik ruhida tarbiyalashda Davlat ramzlaridan foydalanish..... 108
15.3. O‘quvchilarni vatanparvarlik va baynalminal ruhida tarbiyalash..... 110
15.4. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari..... 111
15.5. Yosh avlodni huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi..... 112
XVI BOB. MEHNAT TARBIYASI. IQTISODIY TARBIYA..... 115
16.1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari..... 115
16.2. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari..... 117
16.3. Iqtisodiy tarbiya – o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida..... 120
XVII. AXLOQIY TARBIYA. ESTETIK TARBIYA..... 122
17.1. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari..... 122
17.2. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakl va metodlari..... 127
17.3. O‘quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash..... 130
17.4. Estitek tarbiyaning maqsad va vazifalari..... 131
17.5. Estetik tarbiya vositalari..... 133
XVIII BOB. EKOLOGIK TARBIYA. JISMONIY TARBIYA..... 134
18.1. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi..... 134
18.2. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari..... 139
18.3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo‘llari va vositalari..... 143
XIX BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI. TA’LIM SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI..... 146
19.1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni..... 146
19.2. Uzluksiz ta’lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi..... 149
19.3. Ta’lim sohasidagi asosiy prinsiplar..... 153
XX BOB. PEDAGOGIK MENEJMENT NAZARIYASI VA AMALIYOTI..... 153
20.1. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha..... 153
20.2. Ta’lim muassasasini boshqarish..... 154
20.3. Ta’lim muassasasini boshqarish tamoyillari..... 155
20.4. Ta’lim muassasasining ichki boshqaruvi..... 157
20.5. Maktab ishini rejalashtirish..... 159
20.6. Ta’lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish..... 161
XXI BOB. BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI..... 163
21.1. Boshqaruv tushunchasi..... 163
21.2. Boshqaruv metodlari..... 166

21.3. Boshqaruvga doir qarorlar qabul qilish.....	167
XXII BOB. TA'LIM MUASSASASINING ICHKI BOSHQARUVI.....	**169**
22.1. Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish.....	169
22.2. Ta'lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish.....	171
22.3. Ta'lim sohasida attestatsiya.....	171
XXIII BOB. TA'LIM MUASSASASIDA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH.....	**176**
23.1. Talim jarayonini metodik boshqarish nazariyasi va amaliyoti.....	176
23.2. Ta'lim muassasasida ilgor pedagogik tajribani o'rganish va undan foydalanish.....	179
XXIV BOB. "PEDAGOGIKA TARIXI" FANI HAQIDA. FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI. ENG QADIMGI YOZMA MANBALARDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI.....	**180**
24.1. "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari.....	180
24.2. "Pedagogika tarixi" fani g'oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o'zaro aloqadorligi.....	182
24.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev – ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning ijtimoiy ahamiyati haqida.....	183
24.4. Ta'lim tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari.....	186
24.5. Eng qadimgi davrlardan VII-asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.....	188
24.6. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalarining yoritilishi.....	191
24.7. Pedagogika tarixida gender tenglik masalalari va ularning rivojlanish bosqichlari.....	197
24.8. «Avesto» – eng qadimgi yozma yodgorlik sifatida.....	198
24.9. Qadimgi zamon ta'lim va tarbiyasining pedagogik mazmuni, kasb, musiqa san'ati va jismoniy madaniyat maktablari.....	209
XXV BOB. VII-ASRDAN IX-ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA O'RTA OSIYODA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	**218**
25.1. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim tarbiyaga ta'siri.....	218
25.2. Ayollar ta'lim va tarbiyasini tashkil etishda islom dinining ta'siri.....	224
25.3. Musulmon maktablari va unda ta'lim- tarbiya mazmuni.....	238
25.4. Hadis ilmining paydo bo'lishi.....	240
25.5. Muhaddis (Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi.....	244
XXVI BOB. IX-XII-ASRLAR – SHARQ UYG'OINSH DAVRIDA PEDAGOGIK FIKRLARNING RIVOJLANISHI.....	**246**
26.1. IX-XII-asrlar – Sharq Uyg'onish davri.....	246
26.2. O'rta Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiya haqidagi falsafiy qarashlari..	249
26.3. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari.....	255
26.4. Abu Nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar.....	258

26.5. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.....	263
26.6. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida.....	265
26.7. Sharq Uyg‘onish davrida ta’limiy-axloqiy fikrlar rivoji.....	270
26.8. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida ta’lim-tarbiya masalalari.....	273
26.9. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari – pandnoma asar sifatida	274
26.10. Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-haqoyiq» asarida didaktik qarashlar.	275
26.11. Kaykovusning «Qobusnoma» asarining tarbiyaviy ahamiyati.....	276
XXVII BOB. XIV-ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI-ASRDA MOVARAUNNAXRDA TARBIYA VA MAKTAB.....	**277**
27.1. Ijtimoiy hayotning ta’lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta’siri.....	277
27.2. So‘fiylik ta’limotining ma’naviy hayotga ta’siri.....	280
27.3. Movarounnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat, ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasi.....	282
27.4. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari va ma’rifatparvarlik xizmatlari.....	293
27.5. Ulug‘bek davrida maktab islohoti.....	293
27.6. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.....	294
XXVIII BOB. XIV-ASRNING IKKINCHI YARMI VA XVI-ASRDA MOVAROUNNAHRDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	**295**
28.1. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari.....	295
28.2. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni rivojiga qo‘shgan hissasi	297
28.3. Navoiyning o‘qituvchi (mudarris) to‘g‘risidagi fikrlari.....	298
28.4. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari.....	299
28.5. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. “Axloqi Jaloliy” asarining pedagogik fikrlar rivojidagi o‘rni.....	302
XXIX BOB. XVII-ASRDAN XIX-ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	**307**
29.1. Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ta’lim-tarbiya.....	307
29.2. Qizlar maktabi va unda ta’lim mazmuni.....	308
29.3. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnixatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida.....	310
29.4. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manbaa.....	311
XXX BOB. XIX-ASRNING 2-YARMI XX-ASR BOSHLARIDA TURKISTON O‘LKASIDA TARBIYA, MAKTAB VA PEDAGOGIK FIKRLAR.....	**314**
30.1. XIX-asrning ikkinchi yarmida Turkistonda maktablar tizimi.....	314
30.2. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati.....	315
30.3. Turkistonda maktablar tizimi.....	316
30.4. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojidagi xizmati.....	317
30.5. Turkistonda rus maktablarining ochilishi.....	317

30.6. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi.....	318
30.7. Turkiston ma’rifatparvarlik harakati g‘oyalarida ayollar ta’lim-tarbiyasi masalasining faollashtirilishi.....	320
30.8. Jadidchilik harakatida xotin-qizlar ta’limi masalasining yoritilishi.....	338
30.9. Dunyoviy ta’limni qo‘llab-quvvatlashda ma’rifatparvar ayollar o‘rni...	354
30.11. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari.....	365
XXXI BOB. 1917-1945-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	**370**
31.1. Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati.....	370
32.2. 1924-1945-yillarda ta’lim va pedagogika fani.....	373
XXXII BOB. 1945-1990-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI.....	**375**
32.1. 1945-1991-yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.....	375
32.2. 1924-1945-yillarda ta’lim va pedagogika.....	381
32.3. 1945-1991-yillarda hunar-texnika va oliy ta’lim tizimi.....	387
32.4. Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo‘shgan hissasi.....	390
XXXIII BOB. MUSTAQIL O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM TIZIMI. MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR RIVOJI.....	**391**
33.1. Ta'limni kelajakda yangi bosqichga ko‘tarish masalasi.....	391
33.2. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar...	396
33.3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida.....	400
33.4. Milliy dasturni ro‘yobga chiqarish bosqichlari.....	403
33.5. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari..	405
33.6. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifodalanishi.....	410
33.7. O‘zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta’lim-tarbiya islohotlari: Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari.....	414
XXXIV BOB. ENG QADIMGI DAVRLARDAN XIX-ASRNING BIRINCHI YARMIGACHA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI. Y.A.KOMENSKIYNING PEDAGOGIK NAZARIYASI.....	**416**
34.1. Qadimgi Sharq, Yunoniston, Rim davlatlarida maktab va tarbiya.....	416
34.2. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to‘g‘risida.....	418
34.3. Qadimgi Rimda pedagogik g‘oyalar rivoji.....	424
34.4. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi.....	427

34.5. Adolf Distervegning rivojlantiruvchi nazariyasi. Adol'f Distervegning hayoti va ijtimoiy-pedagogik faoliyati.....	432
34.6. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.....	435
XXXV BOB. XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASRDA JAHON PEDAGOGIKA FANINING RIVOJI. K.D.USHINSKIYNING PEDAGOGIK MEROSI.....	**438**
35.1. XIX-asrning oxiri XX-asrda g'arbiy Yevropa, AQSH, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari.....	438
35.2. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari.....	441
35.3. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya ahamiyati to'g'risida.....	442
35.4. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.....	444
XXXVI BOB. HOZIRGI DAVRDA JAHON MAMLAKATLARI TA'LIM TIZIMI VA PEDAGOGIKA FANI RIVOJI.....	**445**
36.1. XX-asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar.....	445
36.2. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi.....	447
36.3. Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim tizimi.....	447
36.4. Yaponiyada ta'lim tizimi.....	452
36.5. Turkiya ta'lim tizimi.....	456
36.6. Fransiyada ta'lim tizimi.....	458
36.7. Germaniyada ta'lim tizimi.....	462
36.8. Niderlandiyada ta'lim tizimi.....	465
36.9. Hindistonda ta'lim tizimi.....	468
36.10. Janubiy Koreyada ta'lim tizimi.....	470
36.11. Xitoy ta'lim tizimi.....	471
36.12. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ta'lim tizimi.....	472
36.13. Ta'lim modellari. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.....	474
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	**478**

Abdullayeva B.S., Umarov A.Yu., Saidova B.N.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI

(Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun)

“Nodirabegim” nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.
Bosishga ruxsat etildi: 31.08.2021.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 $^{1}/_{16}$
Nashriyot bosma tabog‘i 30,8. Adadi 100 nusxa.
100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,
Navoiy kochasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.